

74.00
U49

UMUMIY PEDAGOGIKA



TOSHKENT

U 307
U 19

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

MUQIMIY NOMIDAGI
QO'QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

UMUMIY PEDAGOGIKA

(Darslik)

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan*

929423

TOSHKENT – 2019

UO'K: 37.013(075.8)

KBK 74.00

U 52

U 52 Umumiy pedagogika. –T.: «Fan va texnologiya», 2019,
376 bet.

ISBN 978–9943–5839–5–5

Ushbu darslikda «Umumiy pedagogika» fanining umumiy asoslari, ta'lim nazariyasi, tarbiya nazariyasi, ta'lim tizimini boshqarish, korreksion pedagogika, pedagogika tarixi hamda pedagogik mahorat yo'nalishlariga oid pedagogik qarashlar, nazariyalar ilmiy va amaliy jihatdan asoslab berilgan. Darslik pedagogika oliy o'quv yurtlarining barcha bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan.

UO'K: 37.013(075.8)

KBK 74.00

Mualliflar:

*O'.J.Yo'ldoshev, A.A. Abdurashidov – I bob; O'.J.Yo'ldoshev – II,III bob;
A.G. Eminov – IV bob; M.M.Xoldorov – V bob; M.M.Yusupov,
A.N. Nusratov – VI bob; S.S. Isamitdinov, N.M.Ochilova – VII bob.*

O'.J. Yo'ldoshev tahriri ostida

Taqrizchilar:

B.R.Adizov – BuxDU professori, p.f.d.;
A.Choriyev – Qarshi DU professori, p.f.d.

ISBN 978–9943–5839–5–5

© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2019.

KIRISH

Rivojlanib borayotgan mamlakatimizda olib borilayotgan uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlaridagi yangilanish, modernizatsiya jarayonlari uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlari uchun jumladan, barcha fanlar qatorida pedagogika fani bo'yicha zamon talabiga javob bera oladigan darslik va o'quv qo'llanmalarni yaratishni taqozo etmoqda. Shu boisdan pedagogika faniga oid zamonaviy bilimlar tizimini bo'lajak pedagoglarga o'qitish dolzarb vazifalardandir. Umumiy pedagogika faniga oid ilmiy jihatdan asoslangan bilim, ko'nikma va malakalarni talabalar tomonidan mukammal, to'liq o'zlashtirilishini ta'minlash maqsadida Respublikamizda pedagogika fani bo'yicha darslik va o'quv hamda uslubiy qo'llanmalar yaratish borasida samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarida faoliyat olib borgan pedagogika sohasi mutaxassislarining xizmatlari beqiyosdir. Buxoro davlat universiteti olimlari O.Roziqov, S.Og'ayev, M.Mahmudova, B.Adizovlar tomonidan 1997-yilda nashr etilgan «Didaktika» darsligi, Navoiy davlat pedagogika instituti olimlari X.Ibragimov, Sh.Abullayevlar tomonidan tayyorlangan, 2007-yilda chop etilgan «Pedagogika» darsligi, Qarshi DU olimlari M.Ochilov, N.Ochilovalarning 2008-yilda nashr etilgan «Oliy maktab pedagogikasi» darsligi, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti olimlari tomonidan tayyorlangan «Umumiy pedagogika» darsligi, R.Mavlonova, O.To'rayeva, K.Xoliqberdiyevlarning 2012-yilda chop etilgan «Pedagogika» darsligi, U.Inoyatov, N.Muslimov, M.Usmonboyeva, D.Inomovalar tomonidan tayyorlangan. 2012-yilda nashr etilgan «Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob» nomli uslubiy qo'llanmalari, Z.Qoraboyevaning «Pedagogikadan amaliy mashg'ulotlar» nomli o'quv-uslubiy qo'llanmasi, N. Atayeva, F.Rasulova, M.Salayeva, S.Hasanovlarning 2012-2013-yillarda chop etilgan «Umumiy pedagogika» nomli o'quv qo'llanmalari, O.Hasanboyeva, R.Avezovalarning 2013-yilda chop etilgan «Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti» nomli o'quv qo'llanmalarini, U.Inoyatov, N.Muslimov, D.Ro'zieva, M.Usmonboevalarning «Pedagogika» nopedagogik oliy ta'lim muassasalari uchun 2012 yilda chop etilgan darsligini misol tanqasida keltirishimiz mumkin.

Ushbu darslikning Pedagogikaning umumiy asoslari bobida pedagogikaning mustaqil fan sifatida shakllanishi va rivojlanishi, pedagogika fanining metodologik asoslari, pedagogikada shaxs masalasi; ta'lim nazariyasi bobida ta'lim jarayonining mohiyati, ta'lim mazmuni, metodlari, ta'limni tashkil etish shakli, ta'lim natijasini tashhislash; tarbiya nazariyasi bobida tarbiya jarayonining mohiyati, mazmuni, metod va shakllari, ta'lim tizimini boshqarish bobida boshqaruv nazariyasining shakllanishi, O'zbekistonda ta'lim tizimi, uning turlari. ta'limni ichki boshqaruvi; Korreksion pedagogika bobida bu soha pedagogik fanlarning tarnog'i sifatida, uning asosiy vazifalari, prinsiplari va metodlari, anomal bolalar va ularning umumiy

tavsifi, aqliy rivojlanishi, eshitishi, ko'rish, nutqida nuqsoni bor bolalar, O'zbekiston Respublikasida anomal bolalarning ijtimoiy holati: Pedagogika tarixi bobida pedagogika tarixi fanining maqsad va vazifalari, pedagogika tarixida davrlashtirish muammosi, eng qadimgi davrdan hozirgi davrgacha ta'lim-tarbiya va pedagogik fikr taraqqiyoti; Pedagogik mahorat bobida pedagogik faoliyat va uning xususiyatlari, pedagogik faoliyatga qo'yilgan talablar, pedagogik mahorat tushunchasi, pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari, pedagogik fikrlar taraqqiyotida o'qituvchi mahorati masalalari, pedagogik qobiliyat, pedagogik texnika va uning egallash mexanizmlari kabi masalalar yoritilgan. Ushbu o'quv darsligini tayyorlash davomida mamlakatimizda pedagogika fani taraqqiyotida uning rivojlanishiga munosib hissa qo'shgan va bugungi kunda hissa qo'shib kelayotgan pedagog olimlar S.Rajabov, O.Muhammadjonov, M.Ochilov, O.Roziqov, K.Zaripov, D.Shodiyev, K.Hoshimov, O.Hasanboyeva, J.Hasanboyev, S.Temirova, S.Mamajonova, Minavarov, B.Qodirov, O.Musurmonova, R.Mavlonova, N.Azixzadjayeva, N.Egamberdiyeva, N.Erkaboyeva, N.Sayidahmedov, X.Ibragimov, R.Jo'rayev, R.Safarova, J.Yo'ldoshev, O.Tolipov, Sh.Mardonov, M.Quronov, A.Choriyev, B. Adizovlarning ilmiy pedagogik tadqiqot natijalari muhim o'rin tutganligi ma'lum bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2018 yil 28 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida "Mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligi birinchi navbatda ijtimoiy sohadagi islohotlarimiz samarasi bilan chambarchas bog'liq. Yoshlarimizga munosib ta'lim berish, ularning ilm-fanga bo'lgan intilishlarini ro'yobga chiqarishimiz kerak. Shu maqsadda, maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishimiz, o'rta va oliy o'quv yurtlarining moddiy-texnik bazasini, ilmiy va o'quv jarayonlari sifatini tubdan yaxshilashimiz kerak"ligi ko'rsatib berilgan. Shu bilan birgalikda "Murojaatnoma"da "Oliy ta'lim muassasalarida ilmiy salohiyatni yanada oshirish, ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash ko'lamini kengaytirish – eng muhim masalalardan biri" ekanligi ko'rsatib berilgan.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan ilgari surilgan 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar Strategiyasida ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida Oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati va samaradorligini oshirish, jismonan sog'lom, ruhiy va intellektual rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, qat'iy nuqtayi nazarga ega, Vatanga sodiq, yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish, yoshlarni ijodiy va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash vazifalari belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni bajarishda ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida zamonaviy darslik hamda o'quv qo'llanmalarining yangi avlodini yaratish muhim o'rin tutadi.

I BOB. PEDAGOGIKANING UMUMIY ASOSLARI

I. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI

1.1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"

1.2. Kadrlar tayyorlash milliy modelining tarkibiy qismlari.

1.3. Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari.

1.1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"

Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab ta'lim sohasiga katta e'tibor berila boshlandi. 1997-yilda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasida O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning qabul qilinishi ta'lim tizimini rivojlantirishda yangi bosqich bo'ldi. Davlat ta'lim standartlari talablardan kelib chiqib ta'lim dasturlarining yangi avlodi ishlab chiqildi. Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'limi tizimini takomillashtirish ustuvor yo'nalish sifatida e'tirof etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoevning 2018-yil 28-dekabrda Oliy Majlisga "Murojaatnomasi"da Ilm-fan, zamonaviy va uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish zarur. Xalqimizda «ta'lim va tarbiya beshikdan boshlanadi» degan hikmatli bir so'z bor. Faqat ma'rifat insonni kamolga, jamiyatni taraqqiyotga yetaklaydi. Shu sababli, ta'lim sohasidagi davlat siyosati uzluksiz ta'lim tizimi prinsipiga asoslanishi, ya'ni, ta'lim bog'chadan boshlanishi va butun umr davom etishi lozim. Rivojlangan mamlakatlarda ta'limning to'liq sikliga investitsiya kiritishga, ya'ni, bola 3 yoshdan 22 yoshgacha bo'lgan davrda unmg tarbiyasiga sarmoya sarflashga katta e'tibor beriladi. Chunki ana shu sarmoya jamiyatga 15-17 barobar miqdorda foyda keltradi. Bizda esa bu ko'rsatkich atigi 4 barobarni tashkil etishi" ko'rsatib o'tilgan.

Shu bilan birgalikda "Murojaatnoma"da Umumiy o'rta ta'lim tizimini bugungi kun talablari asosida tashkil etish, farzandlarimiz har tomonlama kamol topishi uchun, barcha sharoitlarni yaratish lozim. Xususiy maktablar tashkil etish, davlat-xususiy sheriklik imkoniyatlaridan keng foydalanish kerak. Oliy ta'lim tizimida tahsil olish uchun teng imkoniyat yaratishga qaratilgan ishlarni yanada kuchaytirishimiz zarur. O'zbekistonda oliy va o'rta maxsus ta'lim maskanlari bitiruvchilarini oliy ta'lim bilan qamrab olish o'tgan davrda 9-10 foiz darajasida bo'lib kelayotgan edi. So'nggi ikki yilda ko'rilgan chora-tadbirlar tufayli, biz bu raqamni 15 foizdan oshirishga erishdik. Lekin bu hali yetarli emas. Chunki

dunyodagi rivojlangan davlatlar tajribasiga qaraydigan bo'lsak, bu ko'rsatkich ularda 60-70 foizni tashkil etadi. Shuning uchun 2019-yilda mamlakatimizda bitiruvchilarni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini 20 foizga yetkazish va kelgusi yillarda oshirib borish – muhim vazifamizdir. Oliy o'quv yurtlari nufuzini oshirish, nodavlat ta'lim maskanlari sonini ko'paytirib, sohaga yuqori malakali kadrlarni jalb etish va raqobatni kuchaytirish lozim. Yoshlarimizga bir vaqtning o'zida bir nechta oliy o'quv yurtiga hujjat topshirish imkoniyatini berishimiz, o'ylaymanki, ularning ta'lim olish huquqlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Oliy ta'lim muassasalariga real imkoniyatlardan kelib chiqqan holda, qabul kvotalarini mustaqil belgilash tizimini joriy etish kerak. Bakalavriat yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarga xorijda o'qishni davom ettirish imkoniyatlari yanada kengaytirilishi" ta'kidlab o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunida uzluksiz ta'lim tizimining mohiyati, yo'nalishlari, ta'lim mazmuni, ta'limning huquqiy asoslari batafsil ochib berilgan. Mazkur me'yoriy hujjat mazmunida quyidagilar ifodasini topgan:

- 1) fuqarolarga ta'lim, tarbiya berish, kasb-hunar o'rgatishning huquqiy asoslari;
- 2) ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari;
- 3) har kimning bilim olishdan iborat konstitutsiyaviy huquqi;
- 4) pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqi;
- 5) ta'lim muassasasining huquqiy maqomi;
- 6) ta'lim tizini va turlari;
- 7) ta'lim jarayoni qatnashchilarini ijtimoiy himoya qilish;
- 8) ta'lim tizimini boshqarish.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonunida alohida urg'u berilganidek, ta'limni tashkil etishning asosiy maqsadi - jamiyatda intellektual va ilmiy potensialni rivojlantirish, jamiyat, oila va davlat oldidagi burchi, javobgarligini anglaydigan barkamol va mustaqil fikrli shaxsni shakllantirishdan iborat.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'limni takomillashtirish va rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi. Ana shu maqsadda keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi.

Har qanday jamiyatning kuchi fuqarolarning ma'naviy yetukligi, intellektual salohiyatga egaligi bilan belgilanadi. Fuqarolarning ma'naviy yetukligi, intellektual salohiyati esa ta'lim tizimining mazmuni, shaxsning har tomonlama shakllanishi uchun xizmat qiluvchi moddiy va ma'naviy shart-sharoitlarning mavjudligi, jamiyatda qaror topgan ijtimoiy sog'lom muhit darajasi, ijtimoiy munosabatlar mohiyati, shuningdek, aholining etnopsixologik xususiyatlari, axloqiy qarashlari va hayotiy e'tiqodlari asosida shakllantiriladi.

«Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni g'oyalarga muvofiq, milliy tajribaning tahlili va ta'lim tizimidagi dunyoviy yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri o'la bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini

ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgandir.

Dasturning maqsadi - ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarash va sarqitlardan to'la halos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratishdan iboratdir*.

Ushbu maqsadni ro'yobga chiqarish bir qator vazifalarning ijobiy hal qilinishini nazarda tutadi. Ya'ni:

- O'zRning «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq ta'lim tizimini isloh qilish, davlat va nodavlat ta'lim muassasalari hamda ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida raqobat muhitini shakllantirish negizida ta'lim tizimini yagona o'quv, ilmiy ishlab chiqarish majmui sifatida izchil rivojlantirishni ta'minlash;

- ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirayotgan demokratik huquqiy davlat qurilishi jarayonlariga moslashtirish;

- kadrlar tayyorlash tizimi muassasalarini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, pedagogik faoliyatining nufuzi va ijtimoiy maqomini ko'tarish;

- kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollardan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish;

- ta'lim oluvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning va ma'rifiy ishlarining samarali shakllari hamda uslublarini ishlab chiqish va joriy etish;

- ta'lim va kadrlar tayyorlash, ta'lim muassasalarini attestatsiyadan o'tkazish va akkreditatsiya qilish sifatiga baho berishning xolis tizimini joriy etish;

- yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda ta'limning talab qilinadigan darajasi va sifatini, kadrlar tayyorlash tizimining amalda faoliyat ko'rsatishi va barqaror rivojlanishining kafolatlarini, ustuvorligini ta'minlovchi normativ, moddiy-texnika va axborot bazasini yaratish;

- ta'lim, fan, ishlab chiqarish samarali integratsiyalashuvini ta'minlash, tayyorlanayotgan kadrlarning miqdori va sifatiga nisbatan davlatning talablarini, shuningdek, nodavlat tuzilmalari, korxonalar va tashkilotlarning buyurtmalarini shakllantirishning mexanizmlarini ishlab chiqish;

- uzluksiz ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimiga budjetdan tashqari mablag'lar, shu jumladan, chet el investitsiyalari jalb etishning real mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

kadrlar tayyorlash sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

1.2. Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari

Kadrlar tayyorlash milliy modeli faqat ta'lim-tarbiya jarayonini qamrab olmay, shu bilan birga ishlab chiqarish va ijtimoiy munosabatlarni ham o'z ichiga oladi. «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ning asosida kadrlar tayyorlash milliy modeli va uning mohiyati yoritiladi. Kadrlar tayyorlash milliy modeli shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan va ishlab chiqarish kabi tarkibiy qismlarning o'zaro hamkorligi, ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik asosida «yuksak ma'naviy va axloqiy

talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tayyorlash Milliy tizimi» mohiyatini aks ettiruvchi andoza, loyiha hisoblanadi.

Milliy modelning o'ziga xos xususiyati mustaqil ravishda to'qqiz yillik umumiy o'rta hamda uch yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini joriy etilishi bilan belgilanadi. Bu esa o'z navbatida umumiy ta'lim dasturlaridan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi dasturlariga o'tilishiga zamin yaratadi.

Kadrlar tayyorlash milliy modelning tarkibiy qismlari shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, far hamda ishlab chiqarishdan iborat.

1. Shaxs kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekt va obyekt, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchidir. Shaxs uzluksiz ta'lim jarayonida dunyoviy, ilmiy bilimlarni o'zlashtiradi, fan asoslarini puxta egallaydi, ishlab chiqarish sohalari bilan tanishadi, shuningdek, o'zida ijtimoiy ta'sirlar yordamida ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalab boradi. Shaxsda o'zlashtirilgan bilim, faoliyat ko'nikmalari va hayotiy tajriba asosida kasbiy mahorat ham shakllanib boradi. Yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarni va yuqori darajadagi kasbiy malakaga ega bo'lish uchun shaxs o'z oldiga muayyan maqsadni qo'ya olishi hamda unga erishish yo'lida tinimsiz izlanishi, o'qib-o'rganishi lozim. Shundaygina ijtimoiy raqobatga chidamli, malakali kadr bo'lib shakllanadi.

2. Davlat va jamiyat ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimi faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlarni tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillaridir.

Davlat va jamiyat ta'lim muassasalarining yuqori malakali raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash yo'lidagi faoliyatini ham uyg'unlashtiradi hamda quyidagilarga kafolat beradi: fuqarolarning bilim olish, kasb tanlash va o'z malakasini oshirish huquqlarining ro'yobga chiqarilishiga; majburiy umumiy o'rta ta'lim hamda akademik litsey yoki kasb-hunar kollejida ta'lim olish yo'nalishini tanlash huquqi asosida majburiy o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini olishga; davlat grantlari yoki pulli-shartnomaviy asosda oliy ta'lim va oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limni olish huquqiga; davlat ta'lim muassasalarini mablag' bilan ta'minlashga; ta'lim oluvchilarning o'qishi, turmushi va dam olishi uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi vazifalarning hal etilishida jamoatchilik boshqaruvini rivojlan-tirishga; ta'lim jarayoni qatnashchilarini ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga; sog'liq va rivojlanishida nuqsoni bo'lgan shaxslarning ta'lim olishiga.

3. Uzluksiz ta'lim malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlari, davlat ta'lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasini o'z ichiga oladi.

Uzluksiz ta'lim O'zRning taraqqiyotini ta'minlovchi, shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor soha bo'lib, ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy shaxsni shakllantirish va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash uchun sharoitlarni yaratadi*

1 O'sha manba, - 34-bet.

* O'sha manba, - 30-31-betlar.

2 O'sha manba, -31-bet.

Uzluksiz ta'lim jarayoni shaxsning har tomonlama qaror topishi uchun eng qulay davr sanaladi. O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lim Davlat ta'lim standartlari hamda o'quv dasturlari talablariga muvofiq tashkil etiladi.

Uzluksiz ta'lim ta'lim muassasalarida amalga oshiriladi.

4. Fan yuqori malakali mutaxassisni tayyorlovchi, undan foydalanuvchi, ilg'or pedagogik, axborot texnologiyalarini ishlab chiqaruvchi sanaladi.

5. Ishlab chiqarish - kadrlarga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojini shuningdek, ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliyaviy va moddiy-texnika jihatdan ta'minlash jarayonining qatnashchisi. «Ishlab chiqarishning talab-ehtiyojlari kadrlar tayyorlash tizimining yo'nalishi, darajasi va miqyoslarini shakllantiradi, kasb tayyorgarligining maqsadi, vazifalari va mazmunini belgilaydi.

1.3. Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari.

O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risidagi qonunining 3-moddasida ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari belgilangan. Mohiyatiga ko'ra ushbu prinsiplar mamlakat ta'lim konsepsiyasining asosini tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi davlat siyosatining bosh g'oyasi ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, milliy ta'lim tizimini jahon ta'lim standartlariga tenglashtirish, kadrlar tayyorlash milliy modeliga muvofiq zamonaviy bilimlarni puxta egallagan, erkin, mustaqil fikrlovchi, har tomonlama rivojlangan komil inson va malakali mutaxassisni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi davlat siyosatining mohiyati O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi hamda «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi to'g'risida»gi Qonunlarida, shuningdek, Respublika Vazirlar Mahkamasi, tegishli vazirlik hamda idoralarning ta'lim mazmunini yorituvchi hujjatlarida o'z ifodasini topgan.

O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari quyidagilar:

- ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik harakterda ekanligi;
 - ta'limning uzluksizligi va izchilligi;
 - umumiy o'rta, shuningdek, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining majburiyligi;
 - o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining yo'nalishi, akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o'qishni tanlashning ixtiyoriyligi;
 - ta'lim tizimining dunyoviy harakterda ekanligi;
 - davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi;
 - ta'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv;
 - bilimli bo'lishni va iste'dodni rag'batlantirish;
 - ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirish
- Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining amalga oshirish mexanizmi qonun bilan tasdiqlangan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi hisoblanadi.

Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari fuqarolarning ijtimoiy kelib chiqishi, irqi, tili, e'tiqodi, ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar ta'lim olishda teng huquqqa ega ekanliklarini ifodalaydi.

Ta'lim va tarbiyani insonparvarlashtirish shaxsning ijodiy qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishga imkon yaratadi. Shuningdek, ta'lim jarayonida uning ma'naviy-axloqiy ehtiyojlari, xohish-istaklari va hiziqishlarini hisobga olishni nazarda tutadi. Ya'ni ta'lim-tarbiya jarayoni shaxsni har tomonlama kamol topishni ta'minlashga yo'naltiriladi, uning shaxsiga nisbatan hurmat bilan yondashiladi.

Ta'lim va tarbiyani demokratlashtirish ta'lim mazmunining ochiqligi, o'quv materiallari, ta'lim shakli va metodlarining xilma-xilligi, milliy-hududiy xususiyatlarning inobatga olinishi, shuningdek, tarbiya jarayonining demokratik g'oyalarga muvofiq tashkil etilishini anglatadi. Tamoyil mazmuniga hamda o'quvchilarning xohishlariga ko'ra dars jadvaliga qo'shimcha fanlar kiritiladi, yuqori sinflarda muayyan fanlar chuqurlashtirilib o'rgatiladi, fakultativ mashg'ulot va to'garaklar tashkil etiladi, darslarning yakka va guruhli shaklda bo'lishiga e'tibor qaratiladi.

Ta'limning uzluksizligi va izchilligi uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarda o'qitish o'zaro aloqadorlik, bog'liqlik asosida yo'lga qo'yilishini ifodalaydi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'quv dasturlari akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining, o'z navbatida ularning o'quv dasturlari oliy o'quv yurti o'quv dasturlari bilan mutanosiblikda yaratilib, biri o'zidan avvalgi bosqichda o'zlashtirilgan ma'lumotni boyitadi va rivojlantiradi.

Umumiy o'rta, shuningdek, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limining majburiyligi o'quvchilarning imkoniyatini va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual rivojlanishi, kasb-hunarga moyilligi, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantirish, tanlab olingan kasb-hunar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisoslikni egallash imkoniyatini yaratishni ifodalaydi.

Ta'lim tizimining dunyoviy harakterda ekanligi mamlakatda ta'lim taraqqiyotining rivoji ilmiy asoslarga ega bo'lib, u fan-texnika, madaniyatning yutuqlarga bog'liq holda rivojlanib borishini anglatadi.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni (4-modda)da fuqarolar millati, tili, jinsi, yoshi, diniy e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, mavqei, xizmat turi, turar joyi, respublika hududida qancha vaqt yashayotganligidan qat'i nazar bilim olish huquqiga egaliklari aytiladi. Davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi tamoyili aynan mana shu holatni yoritishga xizmat qiladi. Ushbu tamoyil, shuningdek, chet ellik fuqarolarning respublika hududida xalqaro shartnomalarga muvofiq bilim olish huquqiga egaliklarini ham ifodalaydi. O'zRda istiqomat qilayotgan fuqaroligi bo'lmagan shaxslar bilim olishda respublika fuqarolari bilan teng huquqlarga ega bo'ladilar.

Ta'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni (7-modda)da o'z ifodasini topgan. Davlat ta'lim standartlari (DTS) umumiy o'rta, o'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lim mazmuni sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilab beradi. Davlat ta'lim standartlarini bajarish barcha ta'lim muassasalari uchun majburiydir. Biroq

ta'lim muassasalari DTS asosida o'quv dasturlari variantini ishlab chiqib, undan foydalanishlari mumkin.

Bilimli bo'lishni va iste'dodni rag'batlantirish ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillaridan biri sanalib, ta'limning barcha bosqichlarida bu tamoyilga to'la amal qilinadi. Ta'lim oluvchilarning iste'dod va qobiliyatlari davlat tomonidan moddiy va ma'naviy jihatdan rag'batlantirilib boriladi.

1993-yil 5-fevralda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining «O'zbekistonda o'quvchi-yoshlarni rag'batlantirish choralari to'g'risida»gi Farmoni, 1993-yil 25-martda «O'zbekiston o'quvchi-yoshlarini taqdirlash va moddiy rag'batlantirish to'g'risidagi respublika Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilindi. Unga ko'ra ilmiy salohiyat, iqtidorga ega talabalar va aspirantlar uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat stipendiyalari ta'sis etildi. Stipendiya iqtidorli talabalarga har yili o'n bir ta'lim yo'nalishi - texnika va informatika, tibbiyot, fizika-matematika, iqtisodiyot, jurnalistika, gumanitar, huquq va xalqaro munosabatlar, pedagogika, madaniyat va san'at, chet tillar, qishloq xo'jaligi yo'nalishlari bo'yicha o'tkaziladigan tanlov yakunlariga ko'ra beriladi. Iqtidorli talabalar uchun, shuningdek, Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Abu Ali ibn Sino va Imom al-Buxoriy nomidagi stipendiyalar joriy etilgan.

Bundan tashqari iste'dodli yoshlarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish, chet elda ta'lim olishlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida «Umid», «Iste'dod», «Respublika bolalar fondi», «Sog'lom avlod uchun», «Ulug'bek», «El-yurt umidi» va boshqa jamg'armalar tashkil etilgan.

Ta'lim tizimida davlat va jamiyat boshqaruvini uyg'unlashtirish ta'limni tashkil etish, sifatini oshirish, bunda davlat va jamiyatning hamkorlikka erishishni nazarda tutadi. Ta'lim tizimida davlat va jamiyat boshqaruvini ta'lim samaradorligini oshirishga zamin yaratadi. malaka talablarini ilgari suradi, ta'limning zamonaviy texnologiyalari va shakllarini tanlashni taqozo etadi»³.

Nazorat uchun savollar

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni maqsadini izohlang?
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining maqsadi va vazifalarini izohlang?
3. Kadrlar tayyorlash milliy modelining tarkibiy qismlari nimalardan iborat.
4. Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy piniplarini izohlang?

³ Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Oliy ta'limi me'voriy hujjatlar to'plami - Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2001. - 42-bet.

2. PEDAGOGIKA SHAXS TARBIYASI VA RIVOJLANISHI TO'G' RISIDAGI FAN

- 2.1. Pedagogika fanining shakllanishi.
- 2.2. Pedagogika fanining obyeksi, predmeti va vazifalari.
- 2.3. Pedagogika fanlar tizimi.
- 2.4. Pedagogika fanini boshqa fanlar bilan aloqasi.

2.1. Pedagogika fanining shakllanishi

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ilmiy bilish nazariyasida «fan» tushunchasiga turlicha ta'riflar berilgan. P.V. Kopninning ta'kidlashicha, Fan - bu dunyo- ning ilmiy ko'rinishida yotuvchi, tekshirilgan va asoslangan bilimlar tizimi, alohida ilmiy bilimlar sohasi hisoblanadi. V.P. Koxanovskiy fan deganda biz - bilimlar ishlab chiqaruvchi faoliyat (olimlar bilimi, tajribasi, qobiliyati, ilmiy darajasi; ilmiy muassasalar, ularni vositalari) ni ilmiy tadqiqot ishlari metodlarini; ilmiy axborotlar tizimini, shu bilan birga bilimlarni tushunamiz - deb ta'kidlaydi. Yuqoridagi fikrlarga tayanib fanni ko'rinishlarini quyidagicha ifodalashimiz mumkin:

fan - bu bilimlarni o'zlashtirish manbai;

fan - bu ijtimoiy institut;

fan - bu o'quv predmeti vig'indisi;

fan - inson faoliyati.

Fanning xususiyatlari:

- ijtimoiyligi, jamiyat talab va ehtiyojlari fanni rivojlanishini ta'minlaydi;

- tizimlilik, fan o'zaro aloqador elementlar tizimini ifodalaydi: obyeksi va predmeti, o'ziga tegishli kategoriya va tushunchalarga egaligi va farazi, metodlari hamda faktlari mavjudligi;

- rivojlanuvchanligi, o'zgaruvchanligi, ya'ni dinamik harakteri, fan uzluksiz amaliy tekshirilgan va ilmiy asoslangan bilimlar bilan to'ldiriladi. Har qanday fan - bu nafaqat bilimlar, biroq bilimlarni ishlab chiqaruvchi jarayon hisoblanadi, insonni amaliy faoliyatlaridan biri bo'lib, predmeti ma'lum bilimlar sohasi hisoblanadi. Pedagogika fan sifatida yuqoridagi ko'rinishlarga va xususiyatlarga ega bo'lganligi uchun, hech ikkilanmay mustaqil fanlar qatoriga qo'shishimiz mumkin.

Fanlar tizimidagi har qanday fanni o'rganish uning tadqiqot predmetini hamda uni rivojlanish tarixini o'rganishdan boshlanadi. Pedagogikaning paydo bo'lishi va rivojlanishi jamiyatning yosh avlodni tarbiyalash ehtiyoji bilan bog'liq. Pedagogika so'zining lug'aviy ma'nosi qadimgi yunon tilidan «paydagogos» bola yetaklamoq ma'nosini anglatadi. Qadimda aristokratlarni bolalariga qarovchi, ularni maktabga olib borib keluvchi, ular bilan birga o'ynovchi qullar paydogogoslar deb atalgan. Keyinchalik bolalarni tarbiyalovchi va ularga ta'lim beruvchilar pedagoglar deb yuritila boshlandi. Ushbu so'zdan tarbiya to'g'risidagi fan pedagogika kelib chiqqan. Mustaqil fan sifatida pedagogika dastavval falsafiy bilimlar tizimidan ajralib chiqqan.

Kishilik jamiyatida hayotga qadam qo'yayotgan har bir yangi avlod o'zidan oldingi avlodning ijtimoiy tajribasini o'zlashtirib, boyitib, rivojlangan ko'rinishda o'zidan keyingi avlodga o'tkazishi jamiyatni rivojlanishini boyitadi.

Pedagogika — bu ijtimoiy tajribani katta avlod tomonidan o'tkazish, yosh avlod tomonidan o'zlashtirish qonuniyatlarini o'rganuvchi fan.

Pedagogika ta'lim-tarbiyaga oid ilmiy asoslangan bilimlar tizimi shakllangunga qadar ta'lim-tarbiya qonuniyatlarini ochish, izlash borasida murakkab va uzoq yo'lni bosib o'tdi.

Pedagogika yunoncha «paydos» — bola va «ago» — yetaklamoq so'zlandan olingan bo'lib, tarjima qilganda «bola yetaklamoq» ma'nosini bildiradi. Qadimgi Gretsiyada xo'jayinni bolasini maktabga olib boruvchi unga maktabdagi mashg'ulotda va undan tashqarida qarovchi qulni pedagog deb ataganlar. Kishilik jamiyatining rivojlanishi bilan pedagogni roli o'zgardi. Pedagogika so'zining ma'nosi o'zgarib keng ma'noda bolani hayot davomida o'qitish, tarbiyalash, ma'naviy va jismoniy rivojlantirish san'ati ma'nosida qo'llanila boshlandi.

Pedagogikaning elementlari jamiyat rivojlanishining boshlang'ich bosqichida tarbiyaning paydo bo'lishi bilan bog'liq. Dastlabki pedagogik fikrlar, qarashlar va g'oyalalar xalq og'zaki ijodida paydo bo'ldi. Bizgacha ular topishmoq, maqol, afonizm, ko'rinishda yetib kelgan. Yozuvning paydo bo'lishi bilan xalq tomonidan yaratilgan qarashlar maslahat, qoida, tavsiya ko'rinishida bo'lgan. Shunday qilib, xalq pedagogikasi paydo bo'ldi.

Qadimgi pedagogika tarixi yo'nalishining yirik namoyondasi A.I.Piskunov nazariyasiga asoslanib, butun dunyoda pedagogikaning fan sifatida rivojlanishining asosiy bosqichlarini ko'rib chiqamiz.

Birinchi bosqich insonlar tomonidan empirik yo'l bilan to'plangan pedagogik tajribalarni umumlashtirish bilan bog'liq. Ushbu tajribalar o'sha davrdan qolgan qo'lyozma manbalarda aks etgan.

Dastlabki maxsus ta'lim tizimlari eramizdan avvalgi 3 ming yillikda paydo bo'lgan. Ushbu ta'lim tizimlarida o'qitishning murakkab bo'lmagan shakl va usullaridan foydalanilgan: kattalarning namunasi - kichiklarning taqlidi; ko'rsatish — o'quvchilarni takrorlashi; buyruq - bajarish: talab - bo'yusinish. Kattalarni voshlarga munosabati shu tarzda bo'lgan. Bu tajribalar nazariy jihatdan umumlashtirilmagan. Dastlabki yozuv paydo bo'lgandan so'ng yozishga, o'qishga jadval yordamida o'rgatilgan. Alifbe harflarni o'rgatish orqali o'rgatilgan. Bolalar matnni mexanik ravishda yodlab, keyin aytib berganlar.

Ikkinchi bosqich tarbiya jarayonini tendensiya va qonuniyatlarini, mohiyatini ifodalovchi ko'rsatma va qoidalarni tizimlashtirilganligi bilan karakterlanadi. Ushbu bosqichda pedagogik bilimlar falsafiy va siyosiy bilimlarni bir qismi sifatida shakllangan.

Qadimgi yunon mutafakkirlari Pifagor (e. a. VI a.), Geraklit (e. a. 520-460-y.), Demokrit (e. a. 460-370-y.), Platon (e. a. 427-347-y.), Aristotel (e. a. 384-322-y.) lar o'zlarining falsafiy farazlari bilan birga o'qitish usullari va ta'lim mazmuniga oid pedagogik qarashlarini bayon etganlar. Qadimgi sharq sivilizatsiyasi (e. a. 5-4 ming yillik — V a. da — ikki daryo oralig'i, Misr, Hindiston, Xitoy — ta'lim shakli bo'yicha bebaho tajriba qoldirgan. Masalan, qadimgi Mesopotamiya (e. a. 3m. y.)

maktablarida suhbat, tushuntirish, ko'chirib yozish, mashq metodlari qo'llanilgan. Miloddan avvalgi birinchi ming yillikda qadimgi Hindiston maktablarida o'qitishning faol usullari qo'llanilgan: o'qituvchi o'quvchilar oldiga turli maqsadlar qo'yib, o'quvchilarni savollarga mustaqil javob berishga qiziqtirgan. Qadimgi Xitoyda Konfutsiy maktabi mashhur bo'lib (Kun-Szi, e. a. 551-479-y.) unda o'qitishning turli usullaridan obrazlarga taqlid, dialog, taqqoslash, predmet va hodisalarni klassifikatsiyalash kabilaridan foydalanilgan.

Pedagogika tarixi bo'yicha tadqiqotchilar ta'lim nazariyasini paydo bo'lishini qadimgi Rim oratori va oratorlik san'ati nazariyachisi Mark Fabii Kvintilian (ya. a. 35-96-y.) nomi bilan bog'laydilar.

Uchinchi bosqich - bu Yevropada o'rta asrlar maktablarini paydo bo'lishi.

To'rtinchi bosqich Uyg'onish davriga to'g'ri keladi. Uyg'onish davrining buyuk vakillaridan ispan filosofi, psixologi, pedagogi X.L.Vives (1492-1540)ning ta'lim jarayoni muammolari, nemis pedagogi, klassik gimnaziya asoschisi I.Shturm (1507-1587) ning jamoada o'qitish to'g'risidagi fikrlari, italyan faylasufi va siyosiy arbobi T. Kampanella (1568-1639)ning tarbiya to'g'risidagi, ta'limda ko'rgazmalilikni qo'llashga doir tavsiyalari, fransuz mutafakkiri M. Monten (1533-1592) ning tajribani ta'lim vositasi sifatidagi tashviqotlariga doir g'oyalari. golland gumanisti E. Rotterdamskiy (1466-1536)ning mehnatga munosabat axloqiylikning mezonini sifatidagi qarashlarini misol sifatida keltirish mumkin.

Beshinchi bosqich - bu pedagogikani mustaqil ilmiy nazariya sifatida shakllanishi, chex pedagogi Ya.A. Komenskiyning nomi bilan bog'liq. Ya.A.Komenskiy o'zining «Buyuk didaktika» (1628-y.) asarida pedagogik bilimlarni ilmiy fundamentini yaratishga harakat qildi va pedagogikani fan sifatida tizimlashtirdi.

Oltinchi bosqich buyuk pedagoglar I. F. Gerbart (1776-1841), I.G. Pestalotsi (1746-1827), A. Disterveg (1790-1816) lar nomi bilan bog'liq, ular pedagogika fanining tarkibiy qismi sifatida didaktikani rivojlanishiga munosib hissa qo'shganlar. Shvetsariyalik pedagog I.G. Pestalotsi - boshlang'ich ta'lim metodikasining asoschisi hisoblanadi; nemis pedagogi va psixologi I.F. Gerbart - ta'lim nazariyasining nazariy asoslarini ishlab chiqdi; nemis o'qituvchilarining o'qituvchisi A. Disterveg — o'qitish qoidalarini ishlab chiqdi; ingliz olimlari E.Bell, D. Lankasterlar hamkorlikda o'qitish amaliyotchilari va tashkilotchilari hisoblanadilar.

Yettinchi bosqich - pedagogika fanini mustaqil fan sifatida rivojlanishi D.Ushinskiy (1824-1870) faoliyati bilan bog'liq. U birinchilardan bo'lib, fiziologik, psixologik bilimlarga asoslangan yangi pedagogik tizimni yaratdi, ta'limni mantiqiy asoslarini ishlab chiqdi, ta'lim va tarbiyaning prinsiplarini asosladi.

Sakkizinchi bosqich - sobiq sho'ro tuzumi davrida pedagogikani fan sifatida rivojlanish davri. 1917-1991-yillarda ta'lim tizimida tub qayta qurish yillari bo'lib o'tdi. Sh. I. Ganelin (1894-1974), D. Lordkipanidze (1905), B. P. Yesipov (1894-1967), M. A. Danilov (1899-1973), M. N. Skatkin (1900-1991), I. Ya. Lerner (1917-1996), Yu. K. Babanskiy (1927-1987) lar sho'ro davrining buyuk didaktlari hisoblanadi. Bu didaktlar pedagogikani fan sifatida rivojlanishiga, ta'lim nazariyasini rivojlanishiga munosib hissa qo'shganlar.

Ta'lim amaliyoti va nazariyasida chet el pedagog olimlaridan amerikalik pedagog Djon Dyui (1859-1952) munosib iz qoldirib, o'quvchilarning intellektual qobiliyatlari va amaliy faoliyat malakalarini rivojlantirish g'oyasini ilgari surgan. Chet el pedagoglaridan ta'lim nazariyasi sohasida pedagogik maqsadlar taksonomiyasini ishlab chiqqan amerikalik pedagog olim B. Blum (1913y.) nomi mashhur. Polshalik didaktshunos V. Okon (1914y.) — muammoli ta'lim, umumiy didaktika; amerikalik pedagog D. Bruner (1915y.) - ta'lim nazariyasi sohasidagi ishlari; Ingliz pedagogi N. Bennet (1920y.) - o'qitish stillariga xarakteristika; Polyak didaktshunosi Ch. Kupisevich (1924y.) - muammoli ta'lim, dastur- lashtirilgan ta'lim, ta'lim texnologiyasi, ta'lim nazariyasini ilmiy va amaliy jihatdan boyitganlar.

To'qqizinchi bosqich - 1990-yildan hozirgi davrgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davr shaxsga yo'naltirilgan ta'limni qo'llashga qiziqishni oshganligi, ta'limda pedagogik texnologiyalarni va axborot kommunikatsiyalarni qo'llash masalasiga qiziqishni oshganligi bilan harakterlanadi. Pedagogik innovatsiya, monitoring va pedagogik menejmentning nazariy asoslari tadqiq qilindi

Respublikamiz pedagogika tarixi sohasidagi olimlarning tadqiqotlariga tayanib, O'zbekistonda pedagogika fanining rivojlanish tarixini 5 bosqichga ajratish mumkin.

Birinchi bosqich xalq og'zaki ijodi bilan bog'liq bo'lib, dastlabki pedagogik fikrlar o'zbek xalq ertaklarda, topishmoqlarda, afsonalarda, o'zbek xalqining an'ana va urf-odatlarida o'z ifodasini topgan.

Ikkinchi bosqich sharq madaniyatini shakllanishi davriga to'g'ri kelib, sharq Renessans davri nomini olgan. Bu davrda arab musulmon dunyosining olimlari antik dunyoning ma'naviy dunyosini o'rganib, o'zlarining gumanistik dunyoqarashlarini shakllantirganlar.

O'zbek xalqining pedagogik g'oyalarining shakllanishiga Abu Nasr Forobiyning (870-950), Abu Ali ibn Sinoning (980-1037), Abu Rayhon Beruniy (970-1048) laming ta'lim-tarbiya to'g'risidagi asarlari ta'sir qildi. Biroq O'rta Osiyo mutafakkirlarining pedagogik g'oyalari yagona bir tuzimga keltilmagan.

Uchinchi bosqich - o'zbek pedagogikasining shakllanishi Turkistondagi jadidchilik harakatining namoyondalari S.Aziziy, M.Behbudiy, A.Avloniy, Munavvar qori Abdurashidov nomi bilan bog'liq.

To'rtinchi bosqich - 1924-yildan 1991-yilgacha O'zbekistonda pedagogika fani sobiq sho'ro pedagogikasi tizimida rivojlandi. Bu davrda quyidagi muammolar o'rganildi: o'quvchilar jamoasining shakllanishi, mehnat tarbiyasi, oila va maktab aloqadorligi, dasturlashtirilgan va muammoli ta'lim, o'quvchilarni bilish faoliyatlarini faollashtirish va b. Ushbu bosqichda mamlakatimizda pedagogika fanini rivojiga S.Rajabov, Z.Mirtursunov, N.Takanayev, X.Tillashev, O.Muhammadjonov, A.Munavvarovlar munosib hissa qo'shganlar.

Beshinchi bosqich - 1991-yildan hozirgi davrgacha, Mustaqillik yillarida pedagogika fanining rivojlanish davri. Bu davrda maktabdagi ta'lim-tarbiya jarayonlarida pedagogik texnologiyalarni qo'llash, ta'limni axborotlashtirish va kompyuterlashtirish masalalar bilan bog'liq masalalar ishlab chiqildi. Mustaqillik yillarida pedagogika fanining rivojlanishiga M.Ochilov, O.Roziqov, K.Hoshimov,

B.Qodirov, O.Musurmonova, S.Mamajonova, B.Adizov, R.Safarova, R.Jo'rayev, N.Sayidahmedov, M.Quronov, F.Yuzlikayev, J.Yo'ldoshyev, O'.Tolipov, N.Egamberdiyeva, N.Erkaboyevalar hissa qo'shib kelmoqdalar.

Yuqoridagi tahlillardan ko'rinib turibdiki, pedagogika fan sifatida rivojlanishning uzoq yo'lini bosib o'tib, mustaqil o'quv predmeti sifatida shakllandi.

2.2. Pedagogika fanining obykti, predmeti va vazifalari

Har qanday fan mustaqil fan maqomiga, o'z tadqiqot obyektiga va predmetiga ega bo'ladi. Fan obykti bu aniq bir fan o'rganadigan borliqdagi biror bir qism, soha hisoblanadi. Pedagogika fanining obykti va predmetini aniqlashga turli qarashlar mavjud. Pedagogika fanining obykti sifatida keng ma'nodagi ta'lim qabul qilingan.

Pedagogika fanining obykti bola, ya'ni yosh avlod, pedagogikaning predmeti esa bolaning, yosh avlodning tarbiyasidir. Pedagogikaning mustaqil fan sifatida tadqiqot predmeti maxsus tashkil etilgan pedagogik jarayon sifatida shaxsni shakllanishi va tarbiyalanishining nazariy va metodologik muammolaridir. Demak, pedagogika fan sifatida tarbiyalash, ta'lim berish va rivojlantirish bilan shug'ullanmaydi. Bu vazifalarni ota-onalar, tarbiyachilar va o'qituvchilar amalga oshiradi. Pedagogika fan sifatida ta'lim, tarbiya, rivojlanish vositalarini yo'l va usullarini ko'rsatib beradi. Pedagogika fanining tuzilmaviy elementlarini quyidagilar tashkil etadi: obyekt, predmet, kategorial apparat, nazariya, faraz, metodlar va faktlar.

Fan obykti ko'p aspektli fenomen bo'lganligi uchun, uning aniq bir tomoni fan predmeti bo'lib xizmat qiladi.

Taniqli rus pedagog olimi V.V. Krayevskiy pedagogika fanining predmeti kishilarning o'zaro aloqasiga asoslangan, ta'lim-tarbiya jarayonlarining birligidan hosil bo'lgan bir butun pedagogik jarayon hisoblanadi deb ta'kidlaydi.

Har qanday fan predmeti uni kategorial-tushunchaviy apparati orqali ochib beriladi. Shuning uchun «kategoriya», «tushuncha», «atama» so'zlarini ma'nolarini farqlash maqsadga muvofiq.

Kategoriya (yunoncha. kategoria - aniqlovchi) - umumiy va fundamental tushuncha bo'lib, ilmiy-nazariy tafakkur harakterini aniqlovchi va real borliq qonuniyatlarini va munosabatlarini, xususiyatlarini ifodalaydi.

Tushuncha - bu aniq mazmun bilan to'ldirilgan so'z yoki so'z birkmasidir.

Termin (atama) (lot. terminus - chegara) - maxsus soha doirasida real obyektini aniq belgilash va uni boshqa tushunchalar bilan munosabatini o'rnatishni ifodalovchi so'z yoki so'z birkmasidir.

Pedagogikaning asosiy kategoriyalariga quyidagilar kiradi: ma'lumot, tarbiya, ta'lim, pedagogik jarayon, o'z-o'zini o'qitish, o'z-o'zini tarbiyalash. Ushbu kategoriyalarni ko'rib chiqamiz.

Ma'lumot - o'quvchilarni bilim, ko'nikma, malakalarini o'zlashtirish natijasi va jarayoni, u asosida dunyoqarashni, axloqiy va boshqa shaxsiy fazilatlarini shakllanishi, ijodiy qobiliyatlarini rivojlanishi.

Tarbiya - shaxsni shakllanishi va rivojlanishi uchun sharoit yaratishga va maqsadga yo'naltirilgan jarayon.

Ta'lim - bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish maqsadiga yo'naltirilib, maxsus tashkil etilgan jarayon bo'lib, uning natijasida shaxsni tabiiy qobiliyatlari rivojlanishi hamda uning shaxsiy va ijtimoiy sifatleri shakllanadi.

Pedagogik jarayon - o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro aloqadorligi asosida maxsus tashkil etilgan shaxsni ta'limi, tarbiyasi va rivojlanishini ta'minlovchi jarayon.

O'z-o'zini o'qitish - bilimlarni o'zlashtirish va izlash bilan bog'liq bo'lgan insonni maqsadga yo'naltirilgan faoliyati.

O'z-o'zini tarbiyalash - insonni o'zida xulq-atvor normalari, sifat va fazilatlarini shakllanishini anglagan va maqsadga yo'naltirilgan faoliyati.

Har qanday fan o'z nazariyasiga, fundamental bilimlar tizimiga ega. Pedagogik nazariya - bu pedagogik hodisalarni aloqalari, qonuniyatlari, obyektiv mohiyati to'g'risidagi bilimlar tizimini ifodalaydi. V.V. Kravetskiyning fikricha, pedagogik nazariya pedagogik borliqni ayrim tomonlarini izohlovchi, tushuntiruvchi, tashhislovchi vazifalarni bajaradi.

Fundamental va xususiy pedagogik nazariyalar mavjud. Pedagogikaning fundamental nazariyalariga ta'lim nazariyasi, tarbiya nazariyasi, pedagogik tizimni boshqarish nazariyasi kiradi. Pedagogikaning xususiy nazariyasiga masalan, G. I. Shukina tomonidan asoslangan o'quvchilarni bilish faoliyatini faollashtirish nazariyasi, M.I. Maxmutovning muammoli ta'lim nazariyasi, L.V. Zankov, V.V. Davidovlarning rivojlantiruvchi ta'lim nazariyasi, N.D. Xmelning pedagogik jarayonni bir butunligi nazariyasini kiritishimiz mumkin.

Har qanday nazariyani ishlab chiqishda faraz asosiy o'rinda turadi. Faraz - bu haqqoniyligi amaliyotda tekshiriladigan, nazariy asoslangan taxminlar yig'indisi.

Pedagogik faraz - bu borliqdagi hali ilmiy faktlar, metodlar, qonunlar yordamida tekshirilmagan, pedagogik hodisaga tegishli taxmin hisoblanadi. Har qanday pedagogik faraz aniq usul va metodlar yordamida tekshiriladi.

Pedagogika faniga nisbatan nazariyachilarning uch xil qarashlari mavjud:

- pedagogika — insoniy bilimlarning predmetlararo sohasi hisoblanadi. Bunday yondashuv tarafdorlari pedagogikani mustaqil nazariy fan, pedagogik hodisalarni ifodalash sohasi sifatida inkor etadilar;

- pedagogika — ta'lim yoki tarbiya sohasida paydo bo'luvchi, vazifalarni hal etishga moslashtirilgan, ilmiy bilimlarni qo'llash funksiyasini bajaruvchi amaliy o'quv predmetidir. Pedagogik hodisalarni alohida tomonlari, tasavvurlari yig'indisi ushbu pedagogikaning mazmunini tashkil etadi;

- pedagogika — o'z tadqiqot obyektiga va predmetiga ega bo'lgan mustaqil fandır.

Uchinchi nuqtayi nazar pedagogikani mustaqil fan sifatida qabul qiladi. Pedagogika musaqil fan sifatida ta'lim-tarbiya hodisalarini aloqadorliklarini o'rnatib, turli faktlarni umumlashtiradi.

U ta'lim-tarbiya ta'sirida nima uchun va qanday inson rivojlanishidagi o'zgarishlar ro'y beradi degan savolga javob beradi.

Pedagogikani fan sifatida aniqlash uchun uning tadqiqot predmetini aniqlash hamda «pedagogika nimani o'rganadi» degan savolga javob berish maqsadga muvofiq. Shuning uchun pedagogikaning obyektini va predmetini anglash zarur.

Fan obyekti — bu u yoki bu fan oʻrganadigan borliqdagi soha hisoblanadi. Pedagogikaning obyekti jamiyatdagi maqsadga yoʻnaltirilgan faoliyat jarayonida inson rivojlanishini taʼminlovchi borliq hodisasi hisoblanadi. Borliqdagi bunday hodisa taʼlimdir. Taʼlim - davlat, jamiyat inson qiziqishlarini ifodalovchi maqsadga yoʻnaltirilgan taʼlim va tarbiya jarayonidir.

Fan predmeti — bu obyektni ushbu fan nuqtayi nazaridan qarashdir.

Pedagogikaning predmeti ongli va maqsadga yoʻnaltirilgan tashkil-lashtirilgan pedagogik jarayon hisoblanadi.

Pedagogik jarayon deganda aniq tarbiyaviy tizim doirasida tarbiyachi va tarbiyalanuvchi hamkorligida maxsus tashkil etilgan, rivojlanuvchi, qoʻyilgan maqsadga erishishga yoʻnaltirilgan, tarbiyalanuvchilarda shaxsiy sifat va fazilatlarini shakllantirishga yoʻnaltirilgan jarayon tushuniladi.

Pedagogika fani pedagogik jarayon mohiyatini, qonuniyatlarini, prinsip-larini, rivojlanish istiqbollarini va yoʻnalishini oʻrganib, uni tashkil etish nazariyasini va texnologiyasini ishlab chiqadi hamda mazmunini shakllantirib, taʼlim-tarbiyaning yangi metod va usullarini, tashkil etish shakllarini yaratadi.

Demak, pedagogika bu taʼlim va tarbiya toʻgʻrisidagi fan.

Pedagogika fanining funksiyalari

Pedagogikani fan sifatida maqsadi - inson tarbiyasi toʻgʻrisidagi bilimlarni toʻplash va tizimlashtirishdan iborat boʻlib, vazifasi esa, inson shaxsini shakl-lanishini mohiyati va qonuniyatlarini oʻrganish, tarbiyaning maqsadini va vazifa-larini aniqlash, tarbiya mazmunini ishlab chiqish, oʻquv tarbiyaviy jarayonning tashkil etish shakllarini va metodlarini tadqiq qilish hisoblanadi. Pedagogika fan sifatida barcha fanlar kabi quyidagi: umumnazariy, konstruktiv-texnik, tash-hislovchi, amaliy funksiyalarni bajaradi.

Pedagogikaning umumnazariy funksiyasiga pedagogik jarayon qonuni-yatlarini nazariy tahlil qilishda namoyon boʻladi. Pedagogika fani pedagogik faktlarni, hodisalarini, jarayonlarni tavsiflab, qanday qonuniyat va shartlar asosida kechishini tushuntirib, xulosalar chiqaradi. Pedagogikaning umumnazariy funksi-yalari uch xil darajada amalga oshiriladi. Tushuntirish yoki izohlash, pedagogik tajribalarni oʻrganish bilan bogʻliq.

Pedagogika fanining konstruktiv texnik funksiyasi pedagogik jarayonni tashkil etish va uni amalga oshirish metodikasini ishlab chiqish va rejalashtirish. Pedagogikaning konstruktiv-texnik vazifasi ham uch xil darajada amalga oshiriladi:

- loyihalash, uslubiy materiallarni ishlab chiqish bilan bogʻliq;
- qayta yaratish pedagogika fani yutuqlarini taʼlim amaliyotida joriy qilishga yoʻnaltirish;
- reflektiv va korrekcirovka qilish, ilmiy tadqiqot natijalarini taʼlim-tarbiya amaliyotiga taʼsirini baholash, nazariya va amaliyot oʻrtasidagi oʻzaro aloqalarni tuzatish.

Pedagogika fanining tashhislovchi funksiyasi pedagogik borliqni rivojlanishini oldindan aniqlash bilan karakterlanib, ilmiy asoslangan tashhis asosida yanada ishonchli rejalashtirishni amalga oshirilishi bilan karakterlanadi. Tarbiya sohasida ilmiy tashhisning oʻrni beqiyos boʻlib, tarbiya oʻz tabiatiga koʻra kelajakka qaratilganligi bilan karakterlanadi. Diagnostik, pedagogik hodisalar holatini,

o'qituvchilar va o'quvchilar faoliyatini samaradorligini ta'minlash sharoitlarini aniqlash bilan ifodalanadi. Prognostik pedagogik borliqda eksperimental tadqiqotlarni tashkil etish, prognostik daraja pedagogik hodisalar mohiyatini ochib berishni nazarda tutadi. Ushbu darajada ta'lim va tarbiya nazariyalari, pedagogik tizim modellari yaratiladi.

Pedagogikaning amaliy funksiyasining mohiyati shuki, fundamental bilimlar asosida pedagogik amaliyot takomillashib boradi, yangi metodlarni, vositalarni, shakllarni, ta'lim tizimlarini, ta'lim tizimlarini boshqarishni ishlab chiqadi. Barcha funksiyalar aloqadorligi turli turdagi o'quv tarbiyaviy muassasalardagi pedagogik jarayonning vazifalarini to'liq hal etishni ta'minlaydi.

Pedagogika fanining kategoriyalari

Har qanday ilmiy bilimlar sohasining shakllanishi ushbu fan predmeti doirasidagi tushunchalarni rivojlanishi bilan bog'liq. Ilmiy umumlashmalarni ifodalovchi asosiy pedagogik tushunchalar pedagogik kategoriyalar deb yuritiladi.

Pedagogika fanining asosiy kategoriyalarini ta'lim, tarbiya, rivojlanish, ma'lumot, pedagogik jarayon kabilar tashkil qiladi.

Pedagogik jarayon - bu ta'lim-tarbiya vazifalarini hal etish maqsadida kerakli vositalarni qo'llagan holda pedagoglar va tarbiyalanuvchilarning o'zaro hamkorligi asosida maxsus tashkil etilgan jarayondir. Pedagogik jarayon maxsus tashkil etilgan mazmun va vositalar bilan bog'liq amalga oshiriladi. Pedagogik jarayondagi tarbiya mazmuni va vositasi hamda pedagoglar va tarbiyalanuvchilar o'rtasidagi o'zaro aloqalar ushbu tizimni dinamik harakterga ega ekanligini ifodalaydi.

Ta'lim - bu o'qituvchilar va o'quvchilar hamkorligida bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, o'quvchilarni aqliy imkoniyatlarini rivojlantirish maqsadida maxsus tashkil etilgan jarayondir. Demak, ta'limni asosini inson kasb-kori uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar tashkil qiladi.

Tarbiya bolani butun hayoti davomida kechadigan, olingan bilim va tajribalari asosida xulq-atvor normalarini shakllanishi jarayonidir.

Ma'lumot esa, ta'lim-tarbiya natijasida o'zlashtirilgan va umumlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalar hamda tarkib topgan ilmiy dunyoqarashlar majmuidir.

Rivojlanish insondagi sifat va miqdor o'zgarishi bo'lib, uning ma'naviy, ijtimoiy, ruhiy, jismoniy, aqliy turlari mavjud.

2.3. Pedagogik fanlar tizimi

Pedagogika fanining obyektlari xilma-xil bo'lganligi sababli, ushbu obyektlarni o'rganish bilan shug'ullanuvchi pedagogika fani sohalari pedagogik fanlar tizimini tashkil etadi. Pedagogika fanining rivojlanishi natijasida pedagogik fanlar tizimi shakllandi. Ularga quyidagilar kiradi: umumiy pedagogika, maxsus pedagogika, qiyosiy pedagogika, ijtimoiy pedagogika, yosh pedagogikasi, oila pedagogikasi, xalq pedagogikasi va boshqalar.

Umumiy pedagogika - pedagogik borliqdagi pedagogik tizim ichida kechadigan ta'lim, tarbiya, rivojlanish jarayonlarini maqsadini, mazmunini, metod va vositalarini hamda shaklini o'rganuvchi fandir. Umumiy pedagogika pedagogikaning umumiy asoslari, ta'lim nazariyasi, tarbiya nazariyasi, pedagogik menejment bo'limlaridan iborat. Ushbu bo'limlarni pedagogikaning mustaqil sohasi nuqtayi nazaridan qarasa, unda pedagogikaning umumiy asoslari – umumpedagogik jarayondagi ta'lim, tarbiya, rivojlanishning umumiy qonuniyatlarini; Ta'lim nazariyasi - umumpedagogik jarayondagi ta'lim jarayonini mohiyatini, didaktik qonuniyatlarini, prinsiplarini, maqsadini, mazmunini, metod va vositalarini hamda tashkil etish shakllarini; Tarbiya nazariyasi - umumpedagogik borliqdagi tarbiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlarini, qonuniyat va prinsiplarini, metod va vositalarini; Pedagogik menejment esa pedagogik tizimni boshqarish qonuniyatlarini va prinsiplarini hamda boshqarish shakl va metodlarini o'rganadi.

Maxsus pedagogika - aqliy, ruhiy, jismoniy rivojlanishida nuqsoni bor bolalarni o'qitish va tarbiyalash qonuniyatlarini, prinsiplarini, maqsadini, mazmunini, metod va vositalarini hamda shaklini o'rganuvchi fandir.

Ijtimoiy pedagogika - jamiyatning tarbiyaga ta'siri natijasida shaxsni ijtimoiylashuvi qonuniyatlarini, mexanizmlarini, prinsiplarini, mazmunini, metod va shakllarini o'rganuvchi fandir.

Qiyosiy pedagogika - turli mamlakatlarning ta'lim-tarbiya tizimini, maorif taraqqiyotini taqqoslashni o'rganuvchi pedagogikaning mustaqil sohasidir.

Xalq pedagogikasi - turli xalq, millat va elatlarning xalq og'zaki ijodidagi ta'lim-tarbiya to'g'risidagi pedagogik g'oyalarning mohiyatini, mazmunini o'rganuvchi pedagogikaning mustaqil sohasidir.

Yosh pedagogikasi - turli yoshdagi bolalarni individual va yosh xususiyatlarini imobatga olib, ularni o'qitish va tarbiyalash qonuniyatlarini o'rganuvchi fandir.

Pedagogika tarixi - turli tarixiy davrlardagi pedagogik g'oyalarni, ta'lim va tarbiya tizimi taraqqiyoti masalalarini pedagogika tarixi tadqiq qiladi.

Oliy o'quv yurtlaridagi o'quv-tarbiyaviy jarayon qonuniyatlarini oliy maktab pedagogikasi tadqiq qiladi.

2.4. Pedagogika fanining boshqa fanlar bilan aloqasi

Pedagogika fan sifatida boshqa fanlarni nazariyalaridan ijodiy qo'llash natijasida rivojlanadi. Pedagogik hodisa va jarayonlarni bilish va tadqiq qilishning umumiy yondashuvlarini falsafa ko'rsatib beradi. Pedagogika sohasidagi tadqiqotchilar tarbiya mazmunini ishlab chiqishda, maqsadni belgilashda, uning metodologiyasini aniqlashda falsafiy bilimlar tizimiga tayanadilar. Fiziologiya, anatomiya, psixologiya kabi inson to'g'risidagi fanlar inson shaxsini shakllanishi, qonuniyati va mohiyatini har tomonlama chuqur o'rganishda yordam beradi.

Pedagogika psixologik bilimlar asosida samarali o'quv-tarbiyaviy tizimni yaratadi. Pedagogika va psixologiya fanlarining integratsiyalashuvi pedagogik psixologiya fanining paydo bo'lishiga olib keldi.

Pedagogika mustaqil yetarli darajada rivojlangan, o'zining alohida tadqiqot sohasiga ega bo'lishiga qaramasdan boshqa fanlar bilan aloqada bo'lmasdan mavjud

bo'la olmaydi. Tarbiyaviy faoliyat obyekti o'suvchi, rivojlanuvchi inson bo'lganligi uchun pedagogika birinchi navbatda insonni o'rganuvchi fanlar bilan aloqada bo'ladi.

Insonni jamiya a'zosi sifatida ijtimoiy fanlar, biologik evolutsiya natijasi sifatida biologik fanlar, ongli, fikrlovchi mavjudot sifatida psixologik fanlar o'rganadi. Pedagogikani ijtimoiy fanlar bilan aloqasini ko'rib chiqamiz. Ijtimoiy fanlar tarbiya maqsadini va mohiyatini aniqlashga yordam beradi.

Pedagogika ijtimoiy fanlardan falsafa bilan uzviy bog'liq. Falsafiy ta'limotlar pedagogikaning metodologik asosi hisoblanib, ta'lim va tarbiya maqsadini anglashga yordam beradi. Falsafiy qarashlar tizimidan (materialistik, ekzistensial, pragmatik, neopozitivistik v.b..) pedagogika tadqiqotchilari tavangan holda pedagogik izlanish yo'nalishlarini belgilab, ta'lim jarayonini texnologik xususiyatlarini, maqsadini, mohiyatini aniqlaydilar. Pedagogika va falsafaga tegishli qator umumiy savol va muammolar mavjud bo'lib, ularga quyidagilar kiradi.:

- tarbiya maqsadi muammosi;
- dunyoqarashni shakllanishi muammosi;
- jamoa va shaxs aloqadorligi;
- bilish nazariyasi bilan bog'liq gnoseologik muammolar.

Pedagogika shu bilan birgalikda falsafaning mustaqil sohalari etika va estetika bilan ham uzviy bog'liqlikda rivojlanadi. Ular axloqiy, estetik tarbiya hamda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish kabi pedagogik vazifalarni hal etishda yordam beradi.

Pedagogika aholining turli guruh va qatlamlari rivojlanishining asosiy tendensiyalarini, ijtimoiylashuv qonuniyatlarini, ijtimoiy muhitning insonga ta'sirini, shaxsning turli ijtimoiy institutlardagi tarbiyasini tadqiq qiluvchi sotsiologiya bilan uzviy bog'liq.

Pedagogika biologik fanlar bilan ham uzviy bog'liq. Ular pedagogika va psixologiyaning tabiiy-ilmiy tayanchi hisoblanadi.

Pedagogika buyuk rus fiziologlari I.M.Sechenov, I.P.Pavlovlarning birinchi va ikkinchi signallar tizimi, insonni ruhan rivojlanishi, tabiati, sezgi organlarining rivojlanishi va funksiyalari to'g'risidagi fundamental ishlariga tayanadi.

Ayniqsa, ta'lim-tarbiya masalalarini hal etish, mehnat qilish va dam olish tartibini ishlab chiqish inson organizmi funksiyalari va xususiyatlari to'g'risidagi yosh fiziologiya, maktabdagi turli mashg'ulotlarni tashkil etishning gigiyenik masalalarini o'rganuvchi maktab gigiyenasi muhim rol o'ynaydi.

Pedagogika fanining boshqa fanlar bilan aloqalari tahlil natijasida quyidagi bir-birini to'ldirish shakllarini ifodalashimiz mumkin:

boshqa fanlar tomonidan umumlashtirilgan, asosiy nazariya va g'oyalardan pedagogikada ijodiy qo'llash va foydalanish;

boshqa fanlarda qo'llaniladigan ilmiy tadqiqot metodlaridan(matematik modellashtirish, sotsiologik so'rov)foydalanish;

psixologiya, fiziologiya, sotsiologiya va boshqa fanlarda olingan aniq natijalarni pedagogikada qo'llash;

kompleks tadqiqotlarda ishtirok etish.

Pedagogika aniq tanlov asosidagi ma'lumot va faktlardan maxsus pedagogik qavta ishlovlardan so'ng foydalanadi.

Shunday qilib, pedagogika umuminsoniy madaniyatning ajralmas qismidir. U tomonidan ishlab chiqilgan ta'lim-tarbiya konsepsiyalari ilmiy va umummadaniy qadriyat hisoblanadi.

Nazorat uchun savollar

1. Pedagogika nimani o'rganadi?
2. Pedagogika fani obyekti va predmetini izohlang.
3. Pedagogika qanday funksiyalarni bajaradi?
4. Pedagogik fanlar tizimini tavsiflang.
5. Pedagogika fanining boshqa fanlar bilan aloqasini tavsiflang.

3. ILMIY PEDAGOGIK TADQIQOTLAR METODOLOGIYASI VA METODLARI

- 3.1. Pedagogika metodologiyasi tushunchasi.**
- 3.2. Pedagogik tadqiqotlarning metodologik prinsiplari.**
- 3.3. Pedagogik tadqiqot metodlari.**
- 3.4. Pedagogik tadqiqot tuzilishi.**

3.1. Pedagogika metodologiyasi tushunchasi

Har qanday fanning metodologik asoslarini o'zlashtirmasdan turib, ushbu fanni ilmiy bilimlar sohasini uni amaliyotda qo'llanilishi mohiyatini tushunish mumkin emas. Fan metodologiyasining umumiy holatlariga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Lug'atlarda metodologiya bilishning ilmiy metodi to'g'risidagi ta'limot sifatida, nazariy va amaliy faoliyatni tashkil etish prinsiplari va yo'llari to'g'risidagi ta'limot sifatida, u yoki bu fandagi qo'llaniladigan metodlar yig'indisi sifatida izohlanadi.

Metodologiyaning falsafiy va maxsus ilmiy darajasi mavjud.

Fan metodologiyasining yuqori darajasi falsafa hisoblanadi. Bizga ma'lumki, sobiq sho'ro tuzumi davrida fanlarni o'qitishning falsafiy asosi sifatida dialektik materializm qabul qilingan. Shuning uchun ko'plab mutaxassislar ijtimoiy, gumanitar va tabiiy fanlarning falsafiy asosini dialektika tashkil qiladi deb hisoblaydilar. Ularning fikricha, dialektika qoidalari butun bir pedagogik tizimdagi ta'lim va tarbiya jarayonlari uchun umumiydir. Shuning uchun zarur falsafiy nazariyalar har qanday fan bilan o'zaro aloqadordir.

Falsafada fanni atributlari sifatida g'oya va prinsiplar, qonun va qonuniyatlar, tushuncha va kategoriyalar qabul qilingan.

Dialektik materializm g'oyalari orasidan determinizm prinsiplarini, ya'ni hodisalarni o'zaro aloqadorligi va rivojlanishini ko'rib chiqamiz. Pedagogikada rivojlanish prinsipi pedagogik jarayon ta'lim va tarbiya jarayonlaridan tashkil topgan ijtimoiy va murakkab hodisa ekanligini ifodalaydi.

Unda barcha komponentlar: jamiyat ehtiyoji va ta'lim-tarbiya maqsadi, pedagog va o'quvchilar, o'zlashtiriladigan material va uni uzatish yo'llari, o'qituvchi rahbarligidagi mashg'ulot va o'quvchilarni mustaqil ishi, o'quv va tarbiyaviy ishlar orasida o'zaro aloqadorlik mavjud.

Fanlarni o'qitishda hamisha qarama-qarshiliklar kurashi va birligi qonuni o'zini namoyon qiladi. Ta'lim jarayonida qarama-qarshiliklar kurashi va birligi qonunini rus didaktshunosi M. A. Danilov tomonidan 1969-yilda isbot qilingan. Shundan buyon didaktikada ta'limni harakatga keltiruvchi kuch sifatida ziddiyatlar, ya'ni qarama-qarshilik qabul qilingan. Demak, ziddiyatlar nafaqat didaktikada, balki xususiy ta'lim nazariyasida ham ta'limni harakatga keltiruvchi kuch hisoblanadi.

Masalan, o'quvchining o'quv predmeti mazmunini o'zlashtirish xohishi va uning tayyorgarlik darajasi o'rtasidagi, pedagog faoliyati maqsadi va natijasi orasidagi ziddiyatlar. Pedagogni vazifasi ushbu ziddiyatlarni ko'rish va uni hal etish yo'llarini topish hisoblanadi.

Endi ta'linda miqdor o'zgarishlari sifat o'zgarishlariga olib kelish qonunini ko'rib chiqamiz. Masalan, bir xil tipdagi pedagogik vazifalarni hal etishda ko'p marotaba mashq qilish, bundan tashqari o'qituvchidagi analitik, diagnostik konstruktiv ko'nikma va malakalar ko'p marotaba takrorlashlar va maqsadga yo'naltirilgan harakatlar naujasi hisoblanadi.

Navbatdagi inkorni inkor qonuni o'zini nazariya va amaliyotda namoyon qiladi. Buning falsafiy ma'nosi shuki, rivojlanish bu qarama-qarshiliklar natijasi hisoblanadi. Rivojlanish jarayonida miqdorning sifatga aylanishi kuzatiladi, ya'ni eski sifatlar o'miga yangilari hosil bo'ladi.

Masalan, har qanday fanni o'qitish jarayoni o'quvchilarni rivojlantirishga yo'naltirilgan, uning natijasi o'quvchi shaxsini shakllantirishga teng bo'ladi.

Maxsus ilmiy metodologiyaning umumilmiy, aniq ilmiy va texnologik darajalari mavjud.

Umumilmiy metodologiya ilmiy bilishning unversal prinsiplari, vositalari, shakllari bilan karakterlanadi.

Umumiy va xususiy ta'lim nazariyasi metodologiyasining umumilmiy darajasi umumilmiy metodlar orqali ochib beriladi. Bulardan ayrimlari xususiy ta'lim nazariyasida asoslangan. Masalan, modellashtirish, formalizatsiyalash, ayrimlari endi qo'llanilmoqda, bulardan evristika, shu bilan birga umumilmiy metodlarga mantiqiy metodlar ham kiradi. Bular solishtirish va taqqoslash, analiz va sintez, klassifikatsiyalash va tizimlashtirish, umumlashtirish va absraktsiyalash. Bulardan tashqari aniq pedagogik metodlar, so'rov, eksperiment, tajriba o'rganish. Barcha metodlar tadqiqot jarayonida o'zaro aloqadorlikda qo'llaniladi.

Aniq ilmiy metodologiya aniq bir fan doirasida bilishning maxsus prinsiplarini, vositalarini va shakllarini ifodalaydi.

Shunday qilib, aniq ilmiy daraja pedagogik metodologiyani ifodalaydi. V.V.Krayevskiy pedagogik metodologiya - bu aniq o'quv predmetiga o'tuvchi dastlabki, fundamental, umumilmiy va pedagogik nazariyalar, konsepsiyalar deb ta'rif beradi.

Texnologik metodologiya tadqiqot texnikasi va metodikasidan iborat bo'lib, empirik materiallarni ishonchligini va qayta ishlanishini ta'minlaydi. Ushbu

darajaga barcha turdagi eksperimentlar va sotsiologik va matematik statistika metodlari taalluqlidir. Shu bilan birga texnologik darajadagi metodologiyada bilish, mantiqiy va sotsiologik metodlar qo'llaniladi. Masalan, ta'lim nazariyasining avrim masalalarini; ta'lim jarayoni, ta'lim mazmuni, ta'lim shakli va metodlari, ta'lim texnologiyasi kabi mavzularni mantiqsiz ko'rib bo'lmaydi.

Sotsiologik metodlar shaxs tarbiyasi, shakllanishi, jamoaning rivojlanishi va shakllanishi kabi masalalarni o'rganishda qo'llaniladi.

Shunday qilib, pedagogika metodologiyasi fanni falsafiy va maxsus ilmiy metodologik darajalariga asoslanadi. Metodologiyani barcha darajalari o'zaro aloqadorlikda va bir-biriga bo'ysungan holda tizimni shakllantiradi.

Pedagog uchun pedagogika fani metodologiyasi mohiyatini bilishligi ta'lim jarayonini samarali tashkil etish va boshqarishda zarur bo'ladi. Har qanday fan yangi bilimlar bilan to'ldirilsagina rivojlanishi mumkin. Bilimlarni olish obyektivligi tadqiqot metodologiyasini tanlashga bog'liq.

Metodologiya (yunoncha. methodos — nazariya, ta'limot, bilish yoki tadqiqot yo'li va logos — so'z, tushuncha): 1) amaliy va nazariy faoliyatni qurish va tashkil etish yo'llari va prinsiplar tizimi; 2) bilishning ilmiy metodi to'g'risidagi ta'limot, 3) u yoki bu fanda qo'llaniladigan metodlar yig'indisi ma'nolarini anglatadi.

Pedagogika fanining metodologiyasi — bu pedagogik borliqni o'zgartirish va bilish jarayonlarini shakllari, metodlari va prinsiplari to'g'risidagi ta'limot.

Fan metodologiyasi tadqiqot komponentlarini tavsiflab, tadqiqot vazifalarini hal etish jarayonida harakatlar ketma-ketligi va bosqichlari to'g'risidagi tasavvurlarni shakllantirib, tadqiqotning metod hamda vositalari yig'indisini, vazifalarini, tadqiqot obyekti va predmetini tavsiflaydi.

Metodologik bilimlar tizimining to'rt darajasi: falsafiy, umumilmiy, aniq ilmiy, texnologik darajasi mavjud. Metodologiyaning barcha darajalari bir-biriga bog'liq bo'lib, murakkab tizimni shakllantiradi. Ushbu darajalarni ko'rib chiqamiz.

Metodologiyaning falsafiy darajasi fanni kategorial apparatini va bilishning umumiy prinsiplarini tashkil etadi. Falsafiy daraja metodologik bilimlarni mazmuniy asosi sifatida namoyon bo'lib, borliqni o'zgartirishni va bilish jarayoniga dunyoqarash yondashuvini aniqlaydi. Hozirgi paytda turli fanlarda jumladan pedagogikada ham metodologiya sifatida turli falsafiy ta'limotlar: ekzistensializm, neotomizm, neopozitivizm, pragmatizm, dialekticheskiy materializm va b. mavjud.

Ekzistensializm yoki mavjudlik falsafasi, insonni o'z havotidan qayg'urishi, ekzistensializmnining asosiy tushunchasi — mavjudlik (ekzistensiya) — insonni individual hayotida o'z memini anglashi. Ekzistensialistlar obyektiv bilim va haqiqatni mavjudligini inkor etadi. Ularning ta'kidlashicha, obyektiv borliq subyektning mavjudligi sababli mavjud.

Ekzistensialistlarning fikricha, hozirgi paytda deformatsiya, ya'ni shaxsni begonalashuvi, o'zligini yo'qotishi bo'lib o'tmoqda. Bu holatdan shaxs agar o'zini ijod qila olishni o'rgansagina chiqishi mumkin. Shuning uchun ta'limni maqsadli o'quvchilarni shaxs sifatida ijod qilishga o'rgatish, ularni shunday o'qitish kerakki, ular o'zlarini yarata olsinlar. Bu yerda asosiy rol ni ong emas, hissiyot, orzu, ishonch o'ynaydi. Ekzistensializm individual ta'limning falsafiy asosi hisoblanadi.

Neotomizm — dunyoning ma'naviy va moddiy tomonlari to'g'risidagi ta'limot. Ma'naviy dunyo boy va yuqori qadriyatga ega. Moddiy dunyo — past darajadagi dunyo bo'lib, maqsad va mohiyatga ega emas, uni o'rganish bilan fan shug'ullanadi. Fan empirik ma'lumotlarni to'playdi.

Neotomistlar yosh avlod tarbiyasida dinning rolini isbotlab, tarbiyaning buzilishida maktabni aybdor deb hisoblaydilar.

Pozitivizm — tabiiy fanlar va miqdoriy metodlar yordamida olingan bilimlarni haqqoniy va ishonchligi to'g'risidagi ta'limot. Ular tabiiy fanlarni va unda qo'llaniladigan metodlarni absolyutlashtiradi. Pozitivistlar jamiyat rivojlanishi, ijtimoiy qarama-qarshiliklar bilan bog'liq muammolarni ilmiy muammo deb e'lon qiladilar. Ular faqat matematika va tabiiy fanlarni fan sifatida tan olib, jamiyathunoslikni mifalogiyaga tegishli deb hisoblaydilar.

Pragmatizm — fan, texnika, ishlab chiqarishni tez sur'atlarda rivojlanishi natijasida hosil bo'lgan falsafaning yangi yo'nalishi. Ushbu yo'nalish tarafdorlarining ta'kidlashicha, pragmatizm — idealizm va materializmdan tashqarida turuvchi yangi falsafa. Ularning fikricha, asosiysi— bu «tajriba», «ish» yunoncha pragma). Pragmatistlar borliqni bilishni insonni individual tajribasi bilan bog'laydilar. Ular obyektiv ilmiy bilimlar bo'lmaydi, har qanday bilim, agar inson uchun foydali bo'lsa va insonni amaliy faoliyatida tan olinsa, haqqoniy hisoblanadi deb hisoblaydilar.

Pragmatistlar bolaning individual tajribasi o'quv jarayonining asosi deb hisoblab, ta'lim va tarbiya bolalarni rivojlanishiga, ularda o'qishga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerakligini ilgari suradilar.

Dialektik materializm — tabiat, jamiyat va tafakkur rivojlanishi va harakatlanishining umumiy qonunlari to'g'risidagi falsafiy ta'limot. Dialektik materializm tarafdorlari materia birlamchi, ong ikkilamchi deb hisoblaydilar. Ong materianing rivojlanishi natijasida paydo bo'lib, uning mahsuloti hisoblanadi. Hodisa va predmetlar hamisha harakatda bo'lib, rivojlanadi, o'zgaradi. Dialektik materializm ta'limoti, tarbiyani jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-siyosiy taraqqiyoti natijasida paydo bo'ladigan obyektiv jarayon deb tushuntiradi.

Dialektik materializm falsafasida dialektika qonunlari miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tishi, qarama-qarshiliklar kurashi va birligi, inkorni inkor qonunlari asosiy o'rinni egallaydi deb hisoblaydilar.

Dialektik materializm nazaryasiga asosan pedagogikada shaxs ijtimoiy munosabatning obyekti va subyekti sifatida tan olinadi. Uning rivojlanishi insonning tabiati va tashqi holatlariga bog'liq. Shaxsni rivojlanishida asosiy rolni tarbiya bajaradi. Shaxs faoliyatida shakllanadi. Inson shaxsi va faoliyati bir butunlikda mavjud.

Biz metodologik bilimlarni falsafiy darajasini ko'rib chiqdik. Navbatdagi — umumilmiy daraja hisoblanadi. Uning asosida ko'p fanlarda qo'llaniladigan konsepsiyalar, ilmiy yondashuvlar yotadi.

Metodologivaning umumilmiy darajasi tadqiqotchini hodisa va jarayonlarni tizim sifatida o'rganishga yo'naltiradi.

Tizimli yondashuvning mohiyati shundaki, har qanday tizimni, hodisa va jarayonni mustaqil komponentlarni alohida emas, o'zaro aloqadorlikda,

rivojlanishda, harakatda o'rganishni taqozo etadi. Tizimning bir komponenti o'zgarsa boshqasi ham o'zgaradi.

Shaxs rivojlanishining hal qiluvchi sharoitlaridan va asosiy vositasi faoliyat hisoblanadi. Ushbu holat pedagogik tadqiqotlarda va amaliyotda shaxsiy hamda faoliyatli yondashuvga asoslanishni taqozo etadi.

Bu inson faoliyatidan ko'ra inson mohiyati boy, murakkab jaravonligidan dalolat berib, dialogik yondashuvni talab etadi. Dialogik yondashuv insonni imkoniyatlariga, uning chegara bilmas ijodiy imkoniyatlariga, hamisha rivojlanishi va o'z-o'zini rivojlantirishiga asoslanadi. Bu verda asosiy shaxsni faolligi, uning o'z-o'zini shakllantirishga bo'lgan ehtiyojlari hisoblanadi. Ular faqat boshqalar bilan o'zaro aloqa qilganlaridagina rivojlanadi. Dialogik yondashuvni shaxsiy va faoliyatli yondashuv bilan burligi insonparvar pedagogikaning metodologik mohiyatini tashkil etadi.

Yuqorida qayd etilgan metodologik prinsiplar madaniyatli yondashuv bilan o'zaro aloqadorlikda qo'llaniladi. Madaniyat bu yerda inson faoliyatining maxsus yo'li sifatida tushuniladi. Shunday qilib, shaxsni madaniyatini shakllanishi uning ijodiy faoliyat yo'llarini o'zlashtirishini ifodalaydi.

Inson yoki bola biror bir millatga, xalqqa tegishli aniq ijtimoiy madaniy muhitda ta'lim oladi hamda yashaydi.

Yuqorida ko'rib o'tilgan metodologik prinsiplar ta'lim muammolarini va ularning rivojlanishini bir butunlikda hal etishni taqozo etadi.

Metodologiyaning uchinchi darajasi — aniq-ilmiy u yoki bu maxsus ilmiy yo'nalishda qo'llaniladigan tadqiqot prinsiplari, metodlari yig'indisini ifodalaydi.

Metodologiyaning texnologik darajasi tadqiqot texnikasi va metodikasidan tashkil topib, ishonchli amaliy ma'lumotlarni olishni ta'minlovchi va uni dastlabki qayta ishlovini o'tkazib, ilmiy bilimlar sinfiga qo'shuvchi bajariladigan ishlar ketma-ketligi hisoblanadi. Ushbu darajada metodologik bilimlar me'yoriy harakterni ifodalaydi.

Umuman olganda, metodologiya ilmiy tadqiqot va amaliy faoliyatni qanday olib borish kerakligini ko'rsatib beradi.

3.2. Pedagogik tadqiqotlarning metodologik prinsiplari

Pedagogik reallikni bilish, tushuntirish, uni rivojlanishini oldindan aniqlash uchun pedagogik tadqiqotlar o'tkaziladi. Pedagogik tadqiqot — bu ta'lim-tarbiya qonuniyatlari, uning tuzilishi va mexanizmlari, mazmuni, prinsiplari va texnologiyalari to'g'risidagi yangi bilimlarni olishga yo'naltirilgan ilmiy faoliyat natijasi va jarayonidir.

Pedagogik tadqiqotlar nazariy va tajriba-eksperimental harakterda bo'lishi mumkin. Pedagogik tadqiqotlar yo'nalishiga ko'ra fundamental, amaliy va tavsifiy (ishlanma) turlarga bo'linadi.

Fundamental tadqiqotlar natijasida umumiy konsepsiyaga ega, va'ni pedagogikaning nazariy va amaliy yutuqlari xulosasi, pedagogik tizim tashhishlash asosida uning rivojlanish modelini taklif qilishi bilan harakterlanadi.

Amaliy tadqiqotlar — bu pedagogik jarayonni alohida tomonlarini chuqur oʻrganishga, pedagogik amaliyotni koʻp tomonli qonuniyatlarini ochishga yoʻnaltirilgan ishdur.

Tavsiyalar maʼlum nazariyalarga tayanib, aniq ilmiy-amaliy tavsiyalarni asoslashga yoʻnaltiriladi.

Pedagogik tadqiqotlarni tashkil etish va oʻtkazishda quyidagi talablarga amal qilish maqsadga muvofiq:

Pedagogik hodisalarni obyektivligini hisobga olish (har qanday hodisa ichki obyektiv qonunlar, qarama-qarshiliklar taʼsiri kuchi bilan rivojlanadi).

Pedagogik hodisa va jarayonlarni bir butunlikda oʻrganish.

Hodisalarni rivojlanishida oʻrganish.

Ushbu hodisalarni boshqa hodisalar bilan aloqadorligida oʻrganish. Tadqiqot metodlarini alohida emas, kompleks tarzda tanlash.

Tadqiqot metodlarini oʻrganilayotgan predmetga mos adekvat boʻlishi.

Axloqiy meʼyorlarga mos kelmaydigan taʼlim-tarbiya jarayoniga yomon taʼsir qiluvchi harakterdagi eksperimentlarni oʻtkazishga yoʻl qoʻymaslik.

Pedagogikaning metodologik prinsiplari:

Antropologik prinsip - inson haqidagi barcha fanlarning maʼlumotlaridan tizimli foydalanish. Pedagogik jarayonni inson ehtiyojlari va imkoniyatlarini hisobga olib tashkil etish.

Madaniyatlilik prinsipi - taʼlim jarayonida madaniyat tabiat va jamiyat toʻgʻrisidagi bilimlarni manbayi hisoblanadi. Madaniyat insonni rivojlanishini va uni ijodkor shaxs sifatida shakllanishini taʼminlaydi.

Milliylik prinsipi - taʼlim va tarbiyaning xalq mentaliteti va milliy anʼanalar asosida amalga oshirilishi.

Shaxsiy yondashuv prinsipi - pedagogik jarayonda shaxsni maqsad, subyekt, natija va uni samaradorligini asosiy mezon sifatida qarash.

Faoliyatli yondashuv prinsipi - faoliyat shaxs rivojlanishining asosi, vositasi va hal etuvchi sharti. Pedagogik jarayon faoliyat turining xususiyatlari asosida qurilishi lozim.

Tizimli yondashuv prinsipi - pedagogik jarayon murakkab tizim sifatida va uning komponentlari oʻzaro aloqadorlikda oʻrganilishi kerak.

Axborotli yondashuv prinsipi - axborot ilmiy-texnik va ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanishining zaxirasi hisoblanadi.

3.3. Pedagogik tadqiqot metodlari

Pedagogik tadqiqotlarni tashkil etishda aniq ilmiy tadqiqot metodlari qoʻllaniladi.

Pedagogik tadqiqot metodlari — bu ilmiy nazariyalarni qurilishi, bogʻliqliklari, munosabatlari, qonuniy aloqalarini oʻrnatish maqsadida ilmiy maʼlumotlarni olish yoʻllaridir.

Pedagogikada psixologiya, sotsiologiya, fiziologiya, matematika fanlaridan kirib kelgan metodlardan tashqari pedagogikaning oʻzini metodlari ham keng qoʻllaniladi. Biz pedagogikani ilmiy tadqiqot metodlari deganda, yosh avlodni

ta'limi, tarbiyasi, rivojlanishi jarayonlariga xos bo'lgan ichki aloqa va munosabatlarni tekshirish hamda ular to'g'risidagi ma'lumotlarni olish yo'li va usullarni tushunamiz.

Pedagogik tadqiqotlarni tashkil etishda umumnazariy metodlar: analiz, sintez, taqqoslash, induksiya, deduksiya, mavhumlashtirish, umumlashtirish, konkretlashtirish, modellashtirish; sotsiologik metodlar: anketa, intervyu, reyting; ijtimoiy psixologik metodlar: sotsiometriya, test, trening; matematik metodlar.

Pedagogik tadqiqot metodlari nazariy va amaliy (empirik) turlarga bo'linadi.

Tadqiqotning nazariy metodlari ilmiy faktlarni tizimlashtirish, kengaytirish, aniqlashni taqozo qilib, hodisalarni tushuntiradi va oldindan izohlab, olingan natijalarni ishonchlilikini oshirib, mavhumdan aniq bilimlarga o'tishni, turli tushuncha va farazlar orasidagi aloqadorliklarni o'ratib, asosiy va ikkinchi darajalilarini ajratadi.

Ayrim nazariy metodlarni tavsiflaymiz.

Analiz — hodisalarni alohida sifat va xususiyatlarga ajratish, ya'ni o'rganilayotgan butun bir hodisa yoki jarayonni fikran tarkibiy qismlarga bo'lish.

O'rganilayotgan hodisani turli aspektlar bo'yicha tahlil qilish mumkin. Har taraflama tahlil hodisani mohiyatini chuqur ochib berishni ifodalaydi.

Sintez — hodisani xususiyatlari va sifatlarini fikran jamlab butunni hosil qilish.

Sintez — bu nafaqat miqdoriy to'plash, balki mazmunan bog'lashdir. Agar hodisalar shunchaki bog'lansa, unda tizimli aloqadorliklar hosil bo'lmaydi.

Har qanday tadqiqotda analiz va sintez uzviy aloqada bo'ladi.

Taqqoslash — o'rganilayotgan hodisalar orasidagi o'xshashliklarni va farqlarini o'ratish.

Taqqoslashda taqqoslash asoslarini, ya'ni mezonlarini aniqlab olish maqsadga bog'liq.

Hodisalarni bir-biri bilan taqqoslash uchun avvalo ularni asosiy belgilarini ajratib olish lozim. Taqqoslashning tarkibiy qismi hamisha analiz hisoblanadi, ayrim hollarda sintez ham qo'llaniladi.

Umumlashtirish — hodisa va jarayonlarning umumiy jihatlarini ajratish. Tadqiqotni umumlashtirish.

Hodisalarni bir-biri bilan taqqoslash natijasida tadqiqotchi hodisalarni umumiy jihatlarini topib va u asosida bir fikriy guruhga birlashtiradi.

Modellashtirish — hodisa va jarayonlarni real va ideal modellar yordamida tadqiq qilish.

Induksiya, deduksiya — amaliy yo'llar bilan olingan ma'lumotlarni umumlashtiruvchi mantiqiy metodlar. Induktiv metod xususiy fikrlardan umumiy xulosalarga borishni, deduktiv — umumiydan xususiy xulosalar chiqarishni ifodalaydi.

Tadqiqotning empirik (amaliy) metodlariga: ma'lumotlarni yig'ish va to'plash metodlari (kuzatish, suhbat, anketa, test); nazorat va o'lchash metodlari, ma'lumotlarni qayta ishlash metodlari (matematik, statistik, grafik, jadvalli; baholash metodlari (o'z-o'zini baholash, reyting); tadqiqot natijalarini pedagogik amaliyotda qo'llash metodlari (eksperiment, tajribali ta'lim, masshtabli qo'llash) va b.

Ayrim metodlarni ko'rib chiqamiz.

Kuzatish — aniq pedagogik hodisalarni maqsadli, tizimli o'rganish. Pedagogika fanida kuzatish keng qo'llaniladi. Kuzatish ilmiy materiallarni to'plashning asosiy metodi sifatida ayrim hollarda yordamchi metod hisoblanadi. Kuzatish o'z-o'zini kuzatish bilan birga qadimiy tadqiqot metodi hisoblanadi.

Kuzatish tadqiqot metodi sifatida qator xususiyatlarga ega:

- kuzatishning maqsadga yo'nalganligi;
- kuzatishning analitik характери;
- uzatuvchi umumiy kartinadan baholanadigan, tahlil qilinadigan, tushuntiriladigan alohida tomonlarini, elementlarini, aloqalarini, ajratib oladi;
- kuzatishning kompleksligi (bir butunligi) kuzatilayotgan obyekt tomonlarini diqqat markazdan qochirmaslik;
- kuzatishning tizimliliği.

Turli belgilar bo'yicha kuzatish quyidagi turlarga bo'linadi:

Kuzatish tashkil etish vaqtiga ko'ra uzluksiz va diskret turlarga bo'linadi.

Kuzatish hajmiga ko'ra keng va tor kuzatish turlariga bo'linadi.

Ma'lumotlarni olish yo'llariga ko'ra kuzatish to'g'ridan-to'g'ri va yashirin kuzatish turlariga bo'linadi.

Kuzatuvchi va kuzatiluvchi orasidagi farqiga ko'ra, uzviy va vaqt-vaqti bilan kuzatish turlariga bo'linadi.

O'tkazish sharoitlariga ko'ra, tabiiy va tajribaviy kuzatishga bo'linadi.

Rejaga ko'ra noformal (erkin) va formal (standart) kuzatish.

Qo'llanish davriga ko'ra doimiy, qaytariluvchi, bir marotabali, ko'p marotabali kuzatishga bo'linadi.

Kuzatish turlari qo'yilgan maqsadga va obyektini harakteriga bog'liq. Har qanday metod singari kuzatish metodini ham salbiy va ijobiy tomonlari mavjud.

Kuzatish metodning ijobiy tomonlari:

- predmetni bir butunlikda o'rganadi;
- tabiiy sharoitda o'rganish;
- ko'p qirrali aloqalarda va namoyon bo'lishda o'rganadi.

Ushbu metodni kamchiliklari:

- ko'p miqdordagi hodisalarni qamrab ololmasligi;
- ko'p vaqt talab qilishi;
- kuzatuvchi shaxsi bilan bog'liq xatolarni mavjudligi ehtimoli;
- ayrim hodisa va jarayonlarni kuzatish imkoniyati bo'lmashligi.

Pedagogik kuzatish — ilmiy tadqiqotni o'tkazishning passiv shaklidir.

Tadqiqotning aktiv shakli suhbat hisoblanadi. Suhbat ilmiy tadqiqot metodi sifatida tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarni pedagogik fakt va hodisalar, ular orasidagi aloqalar to'g'risidagi fikr va munosabatlarni uning motivini chuqur tasavvur etishlarini ifodalaydi. Suhbat kuzatish davomida tushunarsiz bo'lgan, kerakli ma'lumotlarni olish maqsadida mustaqil yoki qo'shimcha metod sifatida qo'llaniladi. Suhbatga qo'yilgan talablar:

- oldindan tayvorgarlik;
- suhbatdoshni samimiylikka chaqirishni bilish;
- savollarni aniqligi, ishonchligi.

Intervyu respondent e'tiboriga turkum savollarni havola etish orqali, uning tadqiq etilayotgan muammo yoki umumiy muammoning biror jihatini yorituvchi hodisaga nisbatan munosabatini o'rganilishidir.

Anketa metodi tizimli savollar asosida respondentlar bilan muloqotni tashkil etishga asoslanadi, ushbu metod yordamida pedagogik kuzatish va suhbat jarayonida to'plangan dalillar boyitiladi.

Quyidagi shartlarga amal qilinganda anketa metodi samarali qo'llaniladi:

- 1) anketa savollari muammoning mohiyatini yoritishga xizmat qilsa;
- 2) anketa savollari hajmi yirik va noaniq bo'lmasligi;
- 3) anketa savollari o'quvchilarning dunyoqarashi, yoshi, psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda tuzilishi;
- 4) savollarga to'la javob qaytarilishi uchun yetarlicha vaqt ajratilishi;
- 5) anketa o'quvchilarning pedagogik va psixologik tavsifnomalarini tuzish manbaiga aylanmasligi;
- 6) anketa savollariga berilgan javoblar muayyan mezonlar asosida tahlil etilishi.

Test metodi - o'rganilayotgan shaxsning aqliy rivojlanish darajasi, qobiliyati, muayyan ish-harakat, faoliyatni bajarishga doir ko'nikma, malakalari, shaxsiy va irodaviy sifatleri, ruhiy xususiyatlarini aniqlash va baholashda qo'llaniladigan qisqa standart tekshirish bo'lib, uning ahamiyati shaxsning muayyan soha bo'yicha nazariy bilimlarini, qobiliyati, psixofiziologik, shaxsiy xususiyatlarining rivojlanganligi, ma'lum faoliyatni tashkil etishga doir ko'nikma, malakalarning shakllanganlik darajasini aniqlashga xizmat qilishida ko'zga tashlanadi.

Pedagogik tajriba metodining ilmiy-amaliy ahamiyati muammo yechimini topish imkoniyatlarini o'rganish, mavjud pedagogik sharoitlarning maqsadga erishishni kafolatlay olishi, berilayotgan tavsiyalarning analiyotda o'z in'ikosiga ega bo'la olishi va ularning samaradorligini aniqlash uchun keng imkoniyatlarni yaratishda aks etadi.

Ilmiy jihatdan to'g'ri yo'lga qo'yilgan tajriba (eksperiment) birinchidan, ta'lim, tarbiya, rivojlanish o'rtasidagi qonuniy aloqani va uning natijalarini belgilashga yordam beradi; ikkinchidan, ta'lim, tarbiya jarayonlariga yangi, ilg'or, innovatsion texnologiyalarni kiritishga; uchinchidan, ta'lim-tarbiya jarayonini borishini, uning sharoitlarini, tuzilishi va mexanizmlarini ilmiy jihatdan oldindan ko'rishga imkon beradi.

Pedagogik tajribaning tabiiy tajriba, laboratoriya tajribasi, tajriba ishi kabi turlari mavjud.

Pedagogik tajribaning samaradorligi quyidagi shartlarga rioya etish asosida ta'minlanadi:

- tajribaning maqbul loyiha (dastur) asosida uyushtirilishi;
- tadqiqot ilmiy farazining puxta asoslanishi;
- tadqiqot obyektlari va usullarining to'g'ri tanlanishi;
- tajriba o'tkazilish vaqti, davomiyligining aniqlanishi;
- zarur pedagogik shart-sharoitlar (asbob-uskuna, jihozlar, vositalar)ning yaratilganligi;
- tajriba ma'lumotlarini umumlashtirish, tahlil qilish, natijalarni qayta ishlashning to'g'ri amalga oshirilishi.

Maktab hujjatlarini tahlil qilish metodi. Pedagogik jarayon va faktlarni tekshirishda maktab hujjatlarini o'rganish va har tomonlama tahlil etishga e'tibor berish lozim. O'quv-tarbiyaviy muassasalar hujjatlarini tahlil etish ta'lim sohasidagi Prezident farmonlarini, Vazirlar Mahkamasining qarorlarini amaliy bajarilish darajasini, har bir jamoa va xodimning faolligi, ularning faoliyatidagi kamchilik va xatolarini aniqlashga hamda mas'uliyatini oshirishga imkon beradi.

Pedagogik tadqiqot metodiga pedagogik tajribalarni o'rganish va umumlashtirish kiradi. Bu metod amaliyot holatini tahlil qilishga yo'naltirilgan.

O'rganish obyekti ommaviy tajriba (ilg'or tajribalarni to'plash uchun); salbiy tajriba (xato va kanchiliklarni topish uchun), ilg'or tajriba (yangi elementlarni topish uchun) bo'lishi mumkin.

M.N. Skatkin ilg'or tajribani pedagogik mahorat va novatorlik turlarga ajratadi.

Pedagogik mahorat fan va amaliyot tavsiyalarini ratsional qo'llash.

Novatorlik — bu shaxsiy uslubiy topilmalar, yangi mazmun.

Shkalalash — tadqiqot metodlaridan biri bo'lib, sifat omillarni miqdoriy qatorga o'tkazishni ifodalaydi.

Matematik-statistik tahlil metodi - pedagogik tadqiqot, tajriba-sinov ishlari-ning amaliy natijalarini ma'lum bir maqsad asosida tizimli o'rganish, umumlashtirish va amaliy natijalarning haqqoniyligini baholash maqsadida olib boriladi.

Pedagogik ilmiy tadqiqotlarda matematik-statistik metodning qo'llanilishidan ko'zlangan maqsad tajriba-sinov ishlari, shuningdek, tadqiqot ishining samaradorlik darajasini aniqlashdan iborat. Unga ko'ra tajriba va nazorat guruhlarida tajriba avvali hamda yakunida qo'lga kiritilgan ko'rsatkichlar maxsus matematik formulalar yordamida qayta tahlil etiladi, yakuniy qiymat tadqiqot samarasini ifodalovchi asosiy ko'rsatkich hisoblanadi.

3.4. Pedagogik tadqiqot tuzilishi

Pedagogik tadqiqot olib borish dasturi qator bosqichlarni o'z ichiga oladi.

Birinchi bosqich. Tadqiqot muammosi bilan tanishuv. Tadqiqot dolzarbligini, ishlanganlik darajasini asoslash, tadqiqot mavzusini, obyekti va predmetini aniqlash. Tadqiqot maqsadini, uni mos tadqiqot vazifalarini shakllantirish.

Pedagogik tadqiqot maxsus o'rganish uchun ajratilgan muammolari aniqlash bilan boshlanadi. Ilmiy muammo fan vositasida hal etilgan asosiy qarama-qarshiliklarda ifodalanadi.

Muammo tadqiqot mavzusida ifodalanishi kerak. Mavzu — bu tadqiqot muammosining mantiqiy formulirovkasi. Mavzuni shakllantirish oddiy ish emas. Uni shunday ifodalash kerakki, unda fandagi ma'lumdan noma'lumga borib ifodalanishi lozim.

Mavzuni tanlashda uning dolzarbligi fan va amaliyot talablariga mosligi o'z ifodasini topishi kerak. Dolzarb tadqiqotlar zamonaning dolzarb savollariga, javob berib, jamiyatning pedagogika faniga qo'yan buyurtmasini ifodalaydi.

Keyin tadqiqot maqsadi aniqlanadi. Maqsad — bu tadqiqot natijasida olinishi lozim bo'lgan, ilmiy natija, tadqiqot g'oyasi. Ilmiy tadqiqot ishining maqsadi

turlicha bo'lishi mumkin. Olimlar o'rtasidagi mavjud bog'liqliklarni ochish, hodisalar orasidagi aloqadorliklarni aniqlash, kamchiliklarni bartaraf etish shartlarini ishlab chiqish, jarayonni mavjudligi imkoniyatlarini ochish, holatni tavsiflash borasida turlicha qarashlar bor.

Maqsad tadqiqot obyektini aniqlashni talab etadi. Tadqiqot obyektini aniqlangach nima o'rganilgan degan savolga javob berish kerak. Bular pedagogik jarayon, pedagogik borliq sohasi u yoki bu pedagogik munosabatlar, muammoli vaziyatlar bo'lishi mumkin. Demak, obyekt - bu bilish jarayoni yo'naltirilgan soha.

Tadqiqot predmeti — bu obyektning qismi, tomoni, jihati, ya'ni nazariy va amaliy nuqtayi nazardan o'rganilishi lozim bo'lgan obyektning xususiyatlari, tomonlari hisoblanadi. Tadqiqot predmeti ushbu tadqiqot obyektning qaysi jihati o'rganilayotganligi to'g'risida tasavvur beradi.

Tadqiqot maqsadi, obyekt va predmetiga mos holda tadqiqot vazifalari aniqlanadi. Vazifalar tadqiqot maqsadini aniqlashdiradi. Ular tadqiqot yo'nalishlari to'g'risida tasavvur hosil qilishda yordam beradi. Vazifalarni shakllantirib tadqiqotchi o'zining tadqiqot mantig'ini aniqlab oladi.

Ikkinchi bosqich. Metodologiyani tanlash: boshlang'ich g'oya, tayanch nazariy holatlar, bilish metodlari, yagona g'oya, tadqiqot natijalari va tadqiqotning borishi.

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlar turli xildagi yondashuvlar asosida amalga oshiriladi:

tizimlilik — obyektning bir butunligini uning ichki aloqalarini va munosabatlarini ochish;

kompleks — hodisalar guruhini yig'indisini jamlanmasini ko'rish;

bir butunlik — obyektning bir butun tasavvur qilish;

shaxsiga yo'natirilganlik — tarbiyalanuvchiga shaxs sifatida munosabatda bo'lish;

faoliyatlilik — psixika va faoliyat birligini, ichki va tashqi faoliyat birligini, faoliyatdagi shaxslararo munosabatlarni tan olish;

tarixiylik — tadqiqot obyektini rivojlanishda va aniq tarixiy rivojini o'rganish;

sifatlilik — o'rganilayotgan hodisaning boshqa hodisalardan farqli tomonlarini va o'ziga tegishli jihatlarni topish;

miqdorlilik — hodisa va jarayonlarni miqdoriy tomonlarini tahlil qilish va baholash;

fenomenologik — o'rganilayotgan hodisaning tashqi kuzatuv xususiyatlarini tavsiflash;

mohiyatlilik — o'rganilayotgan hodisani harakatga keltiruvchi kuchlarni va mexanizmlarini, ichki aloqalarini, harakteri jihatlarni topish.

Ilmiy pedagogik tadqiqot amaliyotida boshqa yondashuvlar ham mavjud.

Uchinchi bosqich. Tadqiqot farazini qurish.

Tadqiqot farazi — bu tajriba va nazariy tekshiruvga muhtoj bo'lgan ilmiy asoslangan taklif. Faraz muallifning tadqiq qilinayotgan narsani yangicha ko'rishni va tushunishidan kelib chiqib shakllantiriladi. Pedagogik faraz - bu borliqdagi hali ilmiy faktlar, metodlar, qonunlar yordamida tekshirilmagan, pedagogik hodisaga tegishli taxmin hisoblanadi. Har qanday pedagogik faraz aniq usul va metodlar

yordamida tekshiriladi. Farazni yaratish tafakkur natijasi hisoblanib, tadqiqotda faraz quyidagi funksiyani bajaradi:

- tadqiqot faoliyatining yo'nalishlarini aniqlaydi;
- ishni yoyilishini ogohlantiradi;
- ish uchun kerakli materiallarni aniqlab, tadqiqotchi g'oyalarni yo'naltiradi.

Farazni to'g'ri qo'yish uchun tadqiqot muammolari sohasiga keng dunyoqarashga ega bo'lishi va muammolarni tarixi va metodikasi bilan tanish bo'lishiga bog'liq.

Faraz a) induktiv b) deduktiv turlarga bo'linadi.

To'rtinchi bosqich. Tadqiqot metodlarini tanlash.

Ilmiy tadqiqot metodlari, prinsiplari, ularni qo'llash to'g'risida yuqorida ta'kidlab o'tildi. Pedagogik jarayonga va uning natijasiga bir vaqtni o'zida ko'p omillar ta'sir qiladi. Bu o'z navbatida turli xilma-xil o'zaro aloqador tadqiqot metodlarini va usullarini qo'llashni talab etadi.

Beshinchi bosqich. Qayta shakllantiruvchi eksperimentni tashkil etish va o'tkazish. Bu tadqiqotning asosiy bosqichi hisoblanadi. Eksperiment — aniqlash hisobga olingan sharoitlarda pedagogik borliqdagi ilmiy qo'yilgan tajribalarni qayta yaratish bilan karakterlanadi.

Eksperiment jarayonida pedagogik jarayon borishida va mazmunida o'zgarishlar amalga oshirilib, farazlarda qo'yilgan holatlar tekshiriladi.

Oltinchi bosqich. Tadqiqot natijalarini analiz qilish va rasmiylashtirish. Kuzatish va eksperiment natijalari qayta ishlanadi. Matematik, statistik metodlarni qo'llash orqali natijalar taqqoslanib, yangiliklarni samaradorlik darajasi aniqlanadi. Xulosalar shakllanib, nazariyalar yaratiladi. Turli sharoitlarda qo'llaniladigan, isbot qilingan farazlar (agar umumiy, fundamental, savollarga taalluqli bo'lsa) nazariya bo'lib shakllanadi.

Tadqiqot samaradorligi baholanadi. Bizga ma'lumki, tadqiqotlar fundamental, amaliy va ishlanma turlarga bo'linadi. Fundamental tadqiqotlar uchun uning samaradorligini asosiy xarakteristikasi nazariyaning dolzarbligi, yangiligi, konseptualligi va isbotliligi, istiqbolligi va natijalarni amaliyotda qo'llash imkoniyatlari hisoblanadi.

Tavsiyalar uchun dolzarbligi, yangiligi, samaradorligi, bayonning tushunariligi qadrlidir.

Yettinchi bosqich. Amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish.

Tadqiqotning asosiy bosqichlari yuqoridagilar hisoblanadi. Ilmiy ishning samarali rasmiylashtirish va tadqiqot ishi natijalarining obyektivligi tadqiqot bosqichlarini to'g'ri ketma-ket tashkil etilishiga bog'liq.

Nazorat uchun savollar

1. Metodologiya nimani o'rganadi?
2. Metodologiya darajalarini tavsiflang.
3. Empirik va nazariy metodlarni qaysi metodlarga taalluqli?
4. Pedagogik kuzatishning mohiyati nimada?
5. Pedagogik tadqiqot bosqichlarini tavsiflang.

4. HAXSNING RIVOJLANISHI, TARBIYASI VA IJTIMOYLAASHUVI

4.1. Insonni biologik va ijtimoiy rivojlanishi hamda uning shaxsini shakllanishi.

4.2. Shaxs rivojlanishining umumiy qonuniyatlari va harakatlantiruvchi kuchlari.

4.3. Shaxsni shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar.

4.1. Insonni biologik va ijtimoiy rivojlanishi hamda uning shaxsini shakllanishi

Pedagogika nazariyasi va amaliyotining asosiy, murakkab muammolaridan biri shaxs, uning shakllanishi, rivojlanishi va ijtimoiylashuvi masalasidir. Ushbu muammoning turli aspektlarini turli fanlar tomonidan: falsafa, sotsiologiya, fiziologiya, anatomiya, psixologiya va b. o'rganiladi.

Pedagogika ta'lim-tarbiya jarayonida shaxsni rivojlanishi, shakllanishi va ijtimoiylashuvi uchun samarali sharoitlarini yaratilishini o'rganadi.

Bu sharoitlarni o'rganishdan oldin mavzuga tegishli asosiy tushunchalarni ko'rib chiqaylik. Ushbu tushunchalar inson, shaxs, individ, individuallik.

Odam — bu nutq va tafakkurga ega bo'lgan, mehnat qurollarini yaratuvchi va uni hayot jarayonida qo'llash qobiliyatiga ega, o'zida jismoniy va ma'naviy, tabiiy va ijtimoiy, irsiy va kashf qilingan xususiyatlarni o'zida ifodalovchi turk mavjudot.

Shaxs - bu ijtimoiy rivojlanishning mahsuloti, mehnat, muloqot va bilish subyekti sifatida aniq tarixiy sharoitda yashab, ijtimoiy funksiyani bajaruvchi inson hisoblanadi. A.N.Leontevning fikricha, shaxs ijtimoiy-tarixiy va insonni ontogenetik rivojlanishi mahsuloti hisoblanadi.

Individ tushunchasi insonni tug'ilishiga taalluqli bo'lib, aniq ijtimoiy va psixologik xarakteristikaga kirmaydi. Individuallik tushuncha sifatida individni boshqalaridan farqlovchi, ontogenez jarayonida shakllangan jismoniy va psixologik xususiyatlarni ifodalaydi. Individuallik insonni qobiliyatlarida va ehtiyojlarida, harakterida va temperamentida ifodalanadi.

Mutaxassislar «odam», «individ», «shaxs», «individual» tushunchalarini qiyoslash natijasida odam individ sifatida tug'ilib, shaxs sifatida shakllanib, individuallik xususiyatlarini namoyon qiladi deb ta'kidlaydilar.

Quyida falsafa, psixologiya va pedagogikada rivojlanish, shakllanish, ijtimoiylashuv tushunchalarini farqlanishini ko'rib chiqaylik.

Rivojlanish deganda nima tushuniladi?

Ta'kidlash lozimki, rivojlanish — bu tabiat, jamiyat va insonni umumiy xususiyatlaridir. Rivojlanish tabiatda asta-sekinlik bilan va har xil o'zgarishlar bilan, jamiyatda evolutsion va revolutsion, insonda filogenez (insonni tarixiy rivojlanishi) va ontogenez (individning tug'ilgandan o'lguncha rivojlanishi) ko'rinishlarda amalga oshadi.

Falsafiy, psixologik va pedagogik adabiyotlarda ushbu tushunchaga har xil yondashuvlarda qaraladi. «Falsafiy ensiklopediyada» rivojlanish harakatning yuqori turi sifatida, materiya va ongning o'zgarishi, bir xil sifatdan ikkinchi sifatga, eskidan

yangiga o'tish sifatida qaraladi. Psixologiyada «rivojlanish» atamasi an'anaviy tarzda — progressiv (tizimni murakkablashuvi) yoki regressiv (tizimni o'zgarishi) o'zgarishlar bo'lganda qo'llaniladi, masalan, xotirani, diqqatni, hissiy sohalarni rivojlanishi v.b.

Pedagogikada rivojlanish deganda, shaxsdagi bir yosh davrdan ikkinchi yosh davrga o'tganda kuzatiladigan sifat va miqdor o'zgarishlar tushuniladi.

Shunday qilib, rivojlanish — bu insonni organizmidagi, ruhiyatidagi, aqliy va ma'naviy sohasidagi tashqi va ichki, boshqariladigan va boshqarilmaydigan omillar ta'siridagi miqdor va sifat o'zgarishlaridir. Insonni hayoti davomida biologik va ijtimoiy rivojlanish bo'lib o'tadi.

Biologik rivojlanish morfologik (bo'yi, og'irligi, hajmi.); biokimyo (qon tarkibi, suyak, muskul); fiziologik (ovqat hazm qilish, qon aylanishi, jinsiy rivojlanish) o'zgarishlari bilan bog'liq.

Ijtimoiy rivojlanish psixik (xotirani, tafakkurni, hissiyotni, harakterni shakllanishi); ma'naviy (axloqiy shakllanish, ongni o'zgarishi); intellektual (bilimlarni kengayishi va chuqurlashuvi, aqliy o'sish) o'zgarishlar bilan bog'liq.

Insonni biologik, ijtimoiy rivojlanishi—bu ko'p omillar ta'sirida kechadigan murakkab, uzoq davom etadigan, ziddiyatli, jarayon. Shaxs rivojlanishining ko'rsatkichlari insonni dunyoga bo'lgan munosabatidagi, faoliyatidagi, xulqidagi, ongqidagi sifat o'zgarishlari hisoblanadi. Rivojlanish natijasi — insonni biologik tur va ijtimoiy mavjudot sifatida shakllanishi hisoblanadi.

Odatda, agar morfologik, fiziologik, psixologik o'zgarish ro'y bersa rivojlanish atamasi, agar xulq-atvorda axloqiy, ma'naviy o'zgarishlar ro'y bersa shakllanish atamasi qo'llaniladi.

Shunday qilib, inson dunyoga biologik mavjudot sifatida kelib, rivojlanish natijasida ijtimoiy munosabatlar va faoliyat subyekt sifatida shaxs bo'lib ijtimoiy mavjudotga aylanadi.

Shaxsni rivojlanish jarayonini turli falsafiy yo'nalish vakillari turlicha tushuntiradilar. Uch xil biologik, sotsiologik, biosotsiologik konsepsiya mavjud.

Biologik konsepsiya vakillarining fikricha, shaxs bu tabiiy mavjudot, inson xulq-atvori tug'ilgandan ehtiyojlar, instinktlar asosida paydo bo'ladi deb ta'kidlaydilar. (3. Freyd v.b.). Ularning fikricha:

Inson - tabiiy mavjudot.

Shaxsning ma'naviyati biologik asosga ega.

Insonni rivojlanishi va xulq-atvori tug'ilgandan boshlab ehtiyojlar, instinktlar asosida paydo bo'ladi.

Tarbiya rivojlanish jarayonini tezlashtiradi yoki sekinlashtiradi.

Sotsiologik konsepsiya vakillarining fikricha, inson biologik mavjudot sifatida tug'ilib, hayot faoliyati jarayonida asta-sekinlik bilan muhit ta'siri ostida ijtimoiylashadi. Muhit shaxs shakllanishining asosiy omili hisoblanadi. Tarbiya harakterni tuzatishga xizmat qiladi.

Biosotsiologik konsepsiya vakillarining fikricha, inson biologik va ijtimoiy mavjudot hisoblanadi. Psixik jarayonlar (sezish, his etish, tafakkur v.b.) biologik harakterga ega.

Shaxsni qiziqishlari, qobiliyatlari, yo'nalishlari ijtimoiy hodisa sifatida ijtimoiy muhit ta'siriga obyektiv va maxsus tashkil etilgan ta'sir natijasida shakllanadi.

Pedagogika fani shaxsni biologik va ijtimoiy ajratmagan holda bir butun hodisa sifatida o'rganadi. Biologik va ijtimoiy omillar ikkita parallel yoki bir-biriga bog'liq bo'lmagan omillar emas. Ular insonga bir vaqtda kompleks tarzda ta'sir qiladi.

Shaxs rivojlanishi to'g'risidagi turli konsepsiyalar asosida pedagogik nazariyalar shakllanadi, ta'lim-tarbiyaning metodlari, vositalari, shakllari ishlab chiqiladi. Shaxsni tarbiyalanganligi shaxsni tashqi dunyoga va o'z hayotiga; insoniy qadriyatlarga (umuminsoniy qadriyatlarga, madaniyatga, fan-texnika yutuqlariga, ta'limga, ilmga, axloqqa, ozodlikka, aqliy-diniy tenglikka), jamiyatga, vatanga, xalqqa, tarixga, tilga; hayotdagi muammo va qiyinchiliklarga; jamoaga, guruhga; ijtimoiy faollikka; odamlarga (do'stlik, insoniylik, halollik, tartiblilik, g'amxo'rlik); hayotdagi o'z imkoniyatlariga hamda o'ziga bo'lgan munosa-batlarida ifodalanadi.

So'nggi paytlarda pedagogikada shaxsning rivojlanishi, shakllanishi tushunchalardan tashqari shaxsni ijtimoiylashuvi tushunchasi keng qo'llanilmoqda. Ijtimoiylashuv deganda insonni jamiyat bilan aloqasi, shaxsni ijtimoiy muhit bilan o'zaro aloqasi jarayonida uni jamiyatga moslashuvi tushuniladi.

Ijtimoiylashuv insonni o'zi yashab turgan jamiyat me'yorlarini, qadriyatlarini, xulq-atvor normalarini, ijtimoiy tajriba va ijtimoiy aloqalarini o'zlashtirishni aniqlaydi. Ijtimoiylashuv butun hayot davomida insonni muhit bilan maqsadga yo'naltirilgan aloqasida va stixiyali sharoitlarda amalga oshadi. Ongli nazorat qilmadigan ijtimoiylashuv tarbiya jarayonida amalga oshiriladi. Tarbiya shaxsiga ta'sir etuvchilarni tartibga solib, uni ijtimoiylashuvini tezlashtirish uchun sharoit yaratadi.

4.2. Shaxs rivojlanishining umumiy qonuniyatlari va harakatlantiruvchi kuchlari

Shaxs rivojlanishini harakatga keltiruvchi kuch qarama-qarshiliklar hisoblanadi. Qarama-qarshilik-bu qarama-qarshi tomonlarni nizolarda to'qnashuvidir.

Qarama-qarshiliklar ichki va tashqi, umumiy va individual turlarga bo'linadi.

Ichki qarama-qarshiliklar insonni individual hissiyotida ifodalanib, o'zi bilan kelishmay qolganda hosil bo'ladi. Masalan, insonni yoshiga qo'yilgan talablari bilan o'z organizmi, o'z imkoniyatlari orasidagi qarama-qarshiliklar.

Tashqi qarama-qarshiliklar insonni boshqa odamlar bilan, jamiyat, tabiat bilan munosabatlarni stimullashtiradi. Masalan, o'quv muassasalarining talablari va o'quvchilar xohishi orasidagi qarama-qarshiliklar.

Umumiy qarama-qarshiliklar har bir odamni va barcha odamlarni rivojlanishini ta'minlaydi. Masalan, moddiy va ma'naviy ehtiyojlar va obyektiv omillar ta'siri natijasida hosil bo'ladigan real imkoniyatlar orasidagi qarama-qarshiliklar.

Individual qarama-qarshiliklar alohida olingan odam uchun harakterli

Qarama-qarshiliklarni bartaraf etish faoliyatni yuqori darajasi orqali amalga oshiriladi. ehtiyoj qondiriladi, qarama-qarshilik hal etiladi. Natijada inson yuqori rivojlanish pog'onasiga ko'tariladi. Ammo ehtiyoj qondirilganda, undanda yuqori ehtiyojlar tug'iladi. Mavjud qarama-qarshilik boshqasi bilan almashadi va rivojlanish davom etaveradi

Tadqiqotchilar insonni rivojlanishini o'rganishi natijasida rivojlanish jarayoni va uning natijasi o'rtasidagi aloqalarni, qator bog'liqliklarni, ya'ni qonuniyatlarni aniqladilar

Rivojlanishning asosiy qonuniyatlariga quyidagilar kiradi:

- inson rivojlanishi ichki va tashqi sharoitlarni muvozanatlashtiradi;
- insonni rivojlanishi o'z-o'zini shakllantirishga yo'naltirilgan o'z faolligi

natijasida amalga oshadi;

inson rivojlanishi faoliyatda kechishi;

insonni rivojlanishi u ishtirok etayotgan faoliyat mazmuni va motivlariga bog'liq.

- insonni rivojlanishi ko'p omillar ta'sirida bo'lishi.

4.3. Shaxsni shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar

Inson shaxsini shakllanishiga tashqi va ichki, biologik va ijtimoiy omillar ta'sir qiladi. Omil - u yoki bu hodisa, jarayonni harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi.

Ichki omillarga faoliyat va muloqotdagi shaxsni shaxsiy faolligi, qiziqish va motivlari kiradi.

Tashqi omillarga tabiiy va ijtimoiy makro, mezo va mikroomillar hamda keng va tor ijtimoiy va pedagogik ma'nodagi tarbiya kiradi.

Muhit va tarbiya — bu ijtimoiy omillar, irsiyat esa — biologik omil hisoblanadi.

Faylasuflar, sotsiologlar, psixologlar va pedagoglar orasida biologik va ijtimoiy omillar munosabatlari va ularning inson shaxsini rivojlanishidagi ahamiyati xususida munozara va muhokamalar bo'lib kelmoqda.

Amerika pedagog va psixologlari vakillari E.Torndayk, D.Dyui, A.Kobslarning ta'kidlashicha, inson ongini, qobiliyatlarini, qiziqish va ehtiyojlarini irsiyat aniqlaydi. Ushbu yo'nalish vakillari shaxs rivojlanishining asosiy omili irsiy, biologik omillar deb hisoblab, muhit va tarbiyaning rolini inkor etadilar. Odam shaxsi va xulq-atvorining shakllanishida biologik omillarning rolini yuksak baholab, shaxsni naslga bog'lab qo'yuvchi biologik oqimning yana biri, bixeviorizm nazariyasidir. Ushbu nazariyaga amerikalik pedagog E.Torndayk asos solgan. Uning fikricha, shaxsning barcha xususiyatlari, ongi va aqliy qobiliyatlari ham nasldan naslga o'tadi. E.Torndayk tarbiyaning shaxs rivojlanishiga ta'sirini inkor etadi.

Proginatizm nazariyasining asosehisi D.Dyui shaxs rivojlanishini biologik nuqtayi nazardan asosladi. U ham tarbiyaning shaxs rivojlanishiga ta'sirini inkor etib, rivojlanishni faqat miqdoriy o'zgarishdan iborat deb hisoblaydi. Odam nima bilan tug'ilgan bo'lsa, tarbiya jarayonida shu sifat va xususiyat o'sib boradi. «Haqiqiy tarbiya tashqaridan kiritilgan narsa emas, u odam bilan dunyoga kelgan xususiyat va qobiliyatni o'stradi» deb ta'kidlaydi D.Dyui.

D.Lokk, J.J.Russo, K.A.Gelvetsiyning ta'kidlashicha, insonni rivojlanishiga muhit va tarbiya ta'sir qiladi. Ular inson rivojlanishida irsiyatni rolmi inkor etib, yangi tug'ilgan bolani — «toza doska»ga qiyoslaydilar.

D. Didro «rivojlanish irsiyat, muhit, tarbiyaning o'zaro uyg'unligi ta'sirida aniqlanadi» deb ta'kidlaydi

Taniqli rus olimi K.D.Ushinskiyning ta'kidlashicha, insonda shaxsiv sifatlarini shakllanishi nafaqat irsiyat, muhit va tarbiya ta'sirida, balki shaxsiv faoliyati natijasida ham shakllanadi. Inson — nafaqat biologik omil va sharoit mahsuli, balki ushbu sharoitda faol ishtirokchidir. U o'zining sharoitini o'zgartirib o'zini ham o'zgartiradi.

Shaxsni shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni ko'rib chiqaylik. Ayrim mualliflar shaxsni shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy omil irsiyat deb hisoblaydilar.

Irsiyat — bu ota-onaning ayrim belgi va xususiyatlarini genlar yordamida farzandlarga o'tishidir. Irsiyat orqali bolalarga:

- anatomo-fiziologik tuzilma, insoniyat vakili sifatida individning tashqi xususiyatlarini ifodalovchi nutq layoqati, to'g'ri yurishi, tafakkuri, mehnat faoliyati.

- jismoniy xususiyatlari: tashqi milliy xususiyatlari, gavda tuzilish xususiyatlari, yuz tuzilishi, sochi, ko'zi, terisi rangi; fiziologik xususiyatlari, modda almashinuvi, arterial bosimi va qon guruhi;

- asab tizimi xususiyatlari: bosh miya qurilishi, uning ko'rish, eshitish, hid bilish sezgilari, odat va oliy asab faoliyati turini aniqlovchi asab jarayonlari xususiyatlari;

- organizmdagi anomal rivojlanish: daltonizm, irsiy kasalliklarga moyillik: gemofiliya (qon kasalligi), qandli diabet, shizofreniya, endokrin kasalliklar. Irsiyatdan tashqari shaxsni shakllanishiga ta'sir etuvchi omillardan biri muhit hisoblanadi.

Muhit — bu inson rivojlanishi amalga oshadigan real borliq. Shaxsni shakllanishiga geografik, milliy, maktab, oila muhiti ta'sir qiladi. Shaxsni shakllanishiga ta'sir etuvchi omillardan biri muloqot hisoblanadi. Muloqot — bu shaxslararo munosabatlar shakllanishidagi, odamlar o'rtasidagi kontaktlarni rivojlanishi va shakllanishidagi shaxsning universal faolligi hisoblanadi.

Zamonaviy fiziologiya va psixologiya fani, inson bolasi tayyor qobiliyat bilan emas, balki biror bir qobiliyatning rivojlanishiga va ro'yobga chiqishiga ta'sir etadigan imkoniyatlar, ya'ni shaxs xususiyatini ifodalaydigan layoqat bilan tug'iladi degan qarashni ilgari suradi. Layoqat shaxsning idrok, tafakkur, xotira, tasavvur kabi psixik xususiyatlarini individualligini ifodalaydi. Agar bolaning layoqatiga mos sharoit yaratib berilsa, bola zarur faoliyat bilan shug'ullansa, uning layoqati rivojlanishi, aksincha sharoit yaratilmasa, u yo'q bo'lib ketishi ham mumkin.

Shaxsni rivojlanishi faqat faoliyatda amalga oshadi. Inson hayoti davomida hamisha turli xildagi o'yin, o'quv, bilish, mehnat, ijtimoiy, siyosiy, badiiy, ijodiy, sport faoliyatida ishtirok etadi.

Faoliyat inson mavjudligining yo'l va shakli sifatida quyidagi vazifalarni bajaradi:

insonni hayotim moddiy sharoitlarni yaratishni ta'minlaydi; tabiiy insoniy ehtiyojlarni qondirilishini ta'minlaydi; tashqi dunyoni qavta shakllantirish va bilishni ta'minlaydi, insonni ma'naviy dunyosini rivojlantirish omili hisoblanadi; insonga hayotdagi maqsadlariga erishishlarida, imkoniyatlarini amalga oshirish vosita vazifasini bajaradi;

insonga ijtimoiy munosabatlar tizimida o'zini namoyon qilishi uchun sharoit yaratadi.

Shaxsni rivojlanishiga jamoa faoliyati katta ta'sir qiladi. Olimlar ta'kidlashicha, aniq sharoitlarda bir tomondan jamoa shaxsni zo'riqishlarini, ikkinchidan rivojlanishi va individualligi jamoada shakllanadi. Jamoa faoliyati shaxsni ijodiy imkoniyatlarini namoyon qiladi. Shaxsda g'oyaviy-axloqiy sifatlarni, fuqarolik hissini shakllanishida jamoa faoliyatining roli katta.

Shaxs rivojlanishida o'z-o'zini tarbiyalash muhim rol o'ynaydi. O'z-o'zini tarbiyalash o'z faoliyatini anglangan va qabul qilingan maqsadidan boshlanadi. Xulq va faoliyatning o'zi tomonidan aniqlangan maqsadi, ongli zo'riqishlarini hosil qilib, faoliyat rejasini aniqlaydi. Ushbu aniqlangan maqsad shaxs rivojlanishini ta'minlaydi.

Shunday qilib, insonni rivojlanishi turli biologik va ijtimoiy omillar ta'sirida amalga oshadi. Shaxsni rivojlantiradigan va shakllantiradigan omillar alohida-alohida emas, balki kompleks ta'sir qiladi. Turli xil holatlarda shaxsni rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar ko'p va oz ta'sir qiladi. Ko'plab mutaxassislarning fikricha, shaxsni shakllanishida tarbiyaning roli beqiyosdir.

Nazorat uchun savollar

1. Shaxs rivojlanishi nimani anglatadi?
2. Shaxs rivojlanishini harakatga keltiruvchi kuchini izohlang.
3. Shaxsni rivojlanishi, tarbiyasi, ijtimoiy lashuvi mohiyati nimada?
4. Shaxs rivojlanishiga qanday omillar ta'sir qiladi?
5. Faoliyat shaxsni rivojlanishiga qanday ta'sir qiladi?

5. YAXLIT PEDAGOGIK JARAYON

- 5.1. Yaxlit pedagogik jarayon tushunchasi va tuzilishi.
- 5.2. Pedagogik jarayon qonuniyatlari va prinsiplari.

5.1. Yaxlit pedagogik jarayon tushunchasi va tuzilishi

Pedagogik jarayon - bu shaxsni o'z-o'zini namoyon qilishi va to'liq rivojlanishini, subyektlarning ijodkorligi va hamkorligini hamda birgalikdagi faoliyatlarini, ta'lim va tarbiyani birligi va aloqadorligini harakterlovchi yaxlit o'quv-tarbiyaviy jarayon. Demak, pedagogik jarayon pedagogik tizim sharoitida ta'lim va tarbiya maqsadlarini o'zaro aloqadorlikda amalga oshirishga qaratilgan yaxlit jarayon

hisoblanib, uning mohiyati jarayon ishtirokchilarini rivojlanishiga ta'sir etuvchi tashqi omillarni tanlash va tarbiyaviy munosabatlarni tashkil etish bilan harakterlanadi.

An'anaviy pedagogik ta'limotda ta'lim-tarbiya birligi, ya'ni yaxlit pedagogik jarayon g'oyasi XIX asr boshlarida paydo bo'ldi. Nemus olimi F.Gerbart pedagogika nazariyasini tarbiyalovchi ta'lim tushunchasi bilan boyitdi. Rus pedagoglari K.D. Ushmskiy, P.F. Kapterev, A.P. Pinkevich, P.P. Blonskiylar tomonidan yaxlit pedagogik jarayon nazariyasi ishlab chiqildi. Biroq sobiq ittifoq davrida yosh avlod tarbiyasi davlat siyosati mafkurasi ruhida tarbiyalash, ta'lim va tarbiya masalalari nazariya va amaliyotda ajralib qoldi.

XX asrning o'rtalarida sobiq shero pedagogikasida yaxlit pedagogik jarayonda ta'lim va tarbiya aloqadorligi, pedagogik tajribalarda ta'lim va tarbiya birligi ikki aloqador jarayon sifatida namoyon bo'ldi. Pedagogik jarayon yaxlitligi deganda, biz pedagogik jarayonni tashqi muhit hodisalari bilan aloqadorligini, pedagogik jarayonning barcha o'zaro aloqador subyektlari o'rtasidagi hosil bo'ladigan yaxlit jarayonni tushunamiz. Sobiq ittifoq davrida yaxlit pedagogik jarayon nazariyasining rivojlanishi V.A.Slastyonin ilmiy maktabi bilan bog'liq. Yaxlit pedagogik jarayon- pedagogik jarayon rivojlanishining oliy darajasi bo'lib, uning barcha komponentlarining aloqadorligini va birligini ifodalaydi. Yaxlitlik pedagogik jarayonning sintetik xarakteristikasi hisoblanib, ta'lim va tarbiyaning ajralmasligida namoyon bo'ldi.

Yaxlit pedagogik jarayonning tuzilmaviy komponentlariga: maqsad, mazmun, shakllar, pedagog faoliyati, metod va vositalar hamda o'quvchilar faoliyati, birgalikdagi faoliyat natijasi kiradi.

Pedagog faoliyati - mutaxassisning maxsus tayyorlangan faoliyati bo'lib, tarbiyachining kasbiy ongi va ijtimoiy buyurtmadan kelib chiqadigan maqsad va vazifalardan aniqlanadi. Shuning uchun o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan metod va vositalar maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Tarbiyalanuvchilar yoki bolalar jamoasi faoliyati ham anglangan va anglangan maqsad oliy darajasi bo'lib aniqlanadi. Bu yerda jamoaning har bir a'zosining shaxsiy maqsadi jamoa yoki o'qituvchining maqsadi bilan har doim ham mos kelavermaydi.

Yaxlit pedagogik jarayon quyidagi funksiyalarni bajaradi: Yaxlit pedagogik jarayonning tarbiyaviy funksiyasi o'quv tarbiyaviy jarayonda qo'llaniladigan o'quv reja va dasturlarda, metod va vositalarda, tarbiyachilar shaxsi va kasbiy mahoratida unuman tarbiya makonida namoyon bo'ladi. Yaxlit pedagogik jarayonining ta'limiy funksiyasi asosan ta'lim jarayonida, barcha sinfdan tashqari ishlardagi ijodiy faoliyat va munosabat tajribasi, bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisi sifatida umuminsoniy madaniyat elementlarni o'zlashtirishi bilan harakterlanadi. Yaxlit pedagogik jarayonning rivojlanuvchi funksiyasi har qanday o'quv tarbiyaviy jarayonni tashkil etilishida amalga oshiriladi, ammo rivojlanish tezligi bilim, ko'nikma, malakalarga yoki o'quvchilarni bilish yoki motivni shakllantirish sohalariga e'tibor qaratilganligiga bog'liq. Pedagogik jarayonning ijtimoiylashtirish funksiyasi barcha ta'lim muassasalarida namoyon bo'ladi. Har qanday ta'lim muassasasida tarbiyalanuvchi o'zi uchun yangi munosabatlarga kirishadi.

5.2. Pedagogik jarayon qonuniyatlari va prinsiplari

Pedagogik jarayonning umumiy qonuniyatlari quyidagilar kiradi.

1. Pedagogik jarayonni dinamikligi qonuniyati. Pedagogik jarayon o'zgaruvchan harakterda bo'lib, jarayonning boshlanishidan yakuniy bosqichgacha pedagog va tarbiyalanuvchilarning o'zaro hamkorliklarida ham bu hol sezilib turadi.

2. Pedagogik jarayonda shaxsni rivojlanishi qonuniyati. Shaxs rivojlanishi tempi va erishilganlik darajasi irsiyatga, tarbiyaviy va o'quv muhitiga, o'quv-tarbiyaviy faoliyatga kirishuviga, pedagogik ta'sir ko'rsatishning metod va vositalarga bog'liq.

3. O'quv-tarbiyaviy jarayonni boshqarish qonuniyati. Pedagogik ta'sir samara-dorligi pedagog va tarbiyalanuvchi o'rtasidagi teskari aloqalarning tezligiga hamda tarbiyalanuvchilarga ta'sir etishning asoslanganligiga va harakteriga bog'liq.

4. Pedagogik jarayonda stimullashtirish qonuniyati. Pedagogik jarayon mahsuldorligi o'quv-tarbiyaviy faoliyatning ichki stimuly va motivlariga hamda tashqi (ijtimoiy, pedagogik, axloqiy, moddiy) stimullarning tezligi va harakteriga bog'liq.

5. Pedagogik jarayonda amaliyot, mantiq va hissiyot birligi qonuniyati. Pedagogik jarayon samaradorligi hissiy bilish tezligi va sifatiga, mantiqiy fikrlar va o'zlashtirilgan materialni amaliyotda qo'llanilishiga bog'liq.

6. Tashqi (pedagogik) va ichki(bilish) faoliyat birligi qonuniyati. Pedagogik jarayon samaradorligi pedagogik faoliyat va tarbiyalanuvchilarning shaxsiy o'quv-tarbiyaviy faoliyati sifatiga bog'liq.

7. Pedagogik jarayonning bog'liqligi qonuniyati. Pedagogik jarayonni borishi va natijasi jamiyat va shaxs ehtiyojlariga, jamiyatning (moddiy-texnik, iqtisodiy) imkoniyatlariga, jarayonning (axloqiy-psixologik, sanitar-gigiyenik, estetik) shart sharoitlariga bog'liq.

Nazorat uchun savollar

1. Yaxlit pedagogik jarayon tushunchasiga izoh bering?
2. Yaxlit pedagogik jarayon tuzilishini asoslang?
3. Pedagogik jarayon qonuniyati mohiyatini yoritng?
4. Pedagogik jarayon qonuniyatlarining qanday turlari mavjud?

II BOB. TA'LIM NAZARIYASI (DIDAKTIKA)

6. DIDAKTIKA - PEDAGOGIK TA'LIM NAZARIYASI

- 6.1. Ta'lim nazariyasi yoki didaktika to'g'risida umumiy tushuncha.
- 6.2. Ta'lim nazariy asining asosiy kategoriyalari.
- 6.3. Ta'lim jarayonining gnoseologik asoslari.
- 6.4. Ta'lim jarayonining qonuniyatlari va harakatlantiruvchi kuchlari.
- 6.5. Ta'lim jarayonining tuzilishi va funksiyalari.

6.1. Ta'lim nazariyasi yoki didaktika to'g'risida umumiy tushuncha

Respublikamizda amalga oshirilayotgan ta'lim sohasidagi islohotlarning maqsadi shaxsni yuqori darajadagi jismoniy, axloqiy, estetik va aqliy rivojlanishi uchun sharoit yaratishdir. Ushbu maqsadga erishish mustaqil davlatimizning intellektual potensialini yuqori darajaga ko'tarilishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga ta'kidlash joizki, uchinchi ming yillik ta'limini insoniyat faoliyatining zarur keng ko'lamli sohasi sifatida e'tirof etmoqda. Bugungi kunda ta'lim jarayonida milliarddan ko'p o'quvchilar, ellik million atrofida o'qituvchilar ishtirok etmoqdalar. XXI asrda ta'limni ijtimoiy rolini o'shishi, kelajak jamiyatni yangi istiqbollarni aniqlanishi bilan bog'liq. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi yosh avlodga uzluksiz ta'lim berish va uni tarbiyalash jarayonini yaxlit qamrab oladigan yagona ta'lim tizimi hisoblanadi.

Respublikamizda ta'lim sohasidagi qabul qilingan me'yoriy hujjatlar talablarida («ta'lim-tarbiya jarayonini shakllantirish ta'lim-tarbiya jarayonini amalga oshirishning didaktik qonuniyatlari va prinsiplarini ishlab chiqish, davlat ta'lim standartlarini takomillashtirish, o'quv dasturlari darsliklarini yangi avlodi, o'quv metodik majmualar yaratish» vazifasini hal qilish lozimligi ta'kidlab o'tilgan.

Aynan ta'lim jarayonida jamiyat kelajagi yosh avlodni shaxsiy, insoniy, ma'naviy sifatleri shakllanadi. Ta'lim jarayonini qonuniyatlarini va uni xususiyatlarini o'rganuvchi, tadqiq etuvchi pedagogikaning sohasi — didaktikadir. Didaktika atamasi yunonchadan olingan bo'lib, «didaktikos», «didasko», «o'rganuvchi», «o'rganuvchi» ma'nolarni anglatadi.

Didaktika ta'lim nazariyasi atamasi sifatida dastlab XVII asr boshlarida paydo bo'ldi. Didaktika atamasini pedagogikada birinchilardan bo'lib, nemis pedagogi Wolfgang Ratke (1571-1635) «o'qitish san'ati» ma'nosida qo'llagan

U o'zining ma'ruza kursini «didaktika», «o'qitish san'ati» (1613y.) deb nomlagan.

XVII asr o'rtalarida E. Bodino «Didaktika» nomli kitobini nashr ettirgan

Ingliz olimi Frensis Bekon (1561-1626) «Yangi organon» (1620) asarida fanlarni toifalash xususida fikr yuritib «didaktika» atamasini «badiiy asarni o'qish san'ati» ma'nosida ishlatgan.

Chex pedagogi Ya.A. Komenskiy (1592-1670) «didaktikani» ilmiy bilimlar tizimi sifatida ifodalab o'zining «Buyuk didaktika» asarida didaktika atamasini keng «Hammani hamma narsaga o'rgatuvchi universal san'at» ma'nosida ishlatgan.

Ta'kidlash lozimki, Komenskiy bu asarida faqat ta'lim nazariyasi bilan cheklanib qolmadi. Uning mazmunini axloqiy tarbiya metodlari, intuzom masalalari, ta'limni tashkil etish kabi masalalar bilan boyitdi. Boshqacha avtganda Ya.A. Komenskiy «didaktika» orqali keng ma'noda «pedagogikani» tasvirlagan.

Shveysar didakti I. G. Pestalotsi (1746) boshlang'ich ta'lim didaktikasiga va rivojlantruvchi ta'lim nazariyasiga asos soldi.

Nemis pedagogi I. F. Gerbart (1776-1841) didaktikaning nazariy asoslarini yaratib pedagogikada birinchilardan bo'lib «tarbiyalovchi ta'lim» nazariyasini yaratdi.

Nemis pedagogi A. Disterveg (1790-1866) o'qitish tamoyillarini madaniyatga moslab o'qitish, mustaqil o'qitish usullari bilan boyitdi.

Amerikalik olim D. Dyur (1859-1952) asosiy e'tiborni ta'lim jarayonida bolani faolligiga, qobiliyatini shakllanishiga qaratgan va didaktikada muammoli ta'lim nazariyasiga asos soldi. Ta'kidlash joizki, didaktikani rivojlanishida O'rta Osiyoda yashab ijod etgan mutafakkirlar Beruniy, Forobiy, Ibn Sino, Zamudjiy, Ulug'beklarning o'rni beqiyosdir.

Didaktikani fan sifatida rivojlanishida K. Ushinskiy, A. Avloniy, V. Okon, Ch. Kupesevich, M.A. Danilov, M. Skatkin, I.Ya. Lerner, G. Klinberg, Yu.K. Babanskiylarning xizmatlari beqiyosdir.

Respublikamizda didaktikani rivojlanishiga O. Roziqov, B. Adizov, N. Savdahmedov, M. Oehilov, K. Zaripov, R. Safarova, F. Yuzlikayev, O. Tolipovlar o'z hissalarini qo'shib kelmoqdalar.

Yuqoridagi konsepsiyalar didaktikani o'qitish va o'qish nazariyasini o'rganuvchi fan sifatida tushunilishiga (qabul qilinishiga) ta'sir etdi.

Bir vaqtni o'zida didaktikani avlodlarga hayot tajribasini o'tkazish to'g'risidagi fan sifatida qarab kelmadi.

Taniqli bolgar pedagogi I. Marev didaktikani rivojlanish bosqichlarini quyidagicha ifodalaydi.

Birinchi bosqich — Ya.A. Komenskiygacha bo'lgan davr. Bu davr ilmiy asoslanganlik davrigacha sifatida harakterlanadi.

Ikkinchi bosqich — I.A. Komenskiydan kibernetikani (jarayonlarni boshqarish nazariyasi) paydo bo'lgungacha bo'lgan davr. Bu davr asosiy qonun va qonuniyatlarni shakllanganligi bilan, pedagogik va didaktik nazariyalarni rivojlanganligi bilan harakterlanadi.

Uchinchi bosqich—1960-yillardan bugungi kungacha bo'lgan davr.

Mutaxassislar o'rtasida didaktika mustaqil fanmi? yoki pedagogikaning bir qismimi? — degan savol tortishuvlarga sabab bo'lmoqda. Masalan, M.A. Danilov, V. Okon, M.N. Skatkinlar didaktikani pedagogikaning bir bo'lagi sifatida qaraydilar.

Bir guruh mutaxassislar didaktikani mustaqil fan sifatida qaraydilar.

Hali-hanuz mutaxassislar bu masalada yagona fikrga kelganlari yo'q.

Yillar o'tishi bilan barcha atamalar eskirgani kabi didaktika atamasi ham eskirganini guvohi bo'ldik. XX asrning oxirlariga kelib mutaxassislar ichida «Didaktika» atamasi o'rinda «Ta'lim nazariyasi» atamasini qo'llash urf bo'ldi.

Biz ham didaktika atamasi o'rinda «ta'lim nazariyasi» atamasini qo'llash maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz.

Ta'lim nazariyasi mustaqil fan sifatida kim? kimni? nima? nimani? qanday? qayerda? qachon? nima? — kabi savollarga javob beradi.

Demak, ta'lim nazariyasi ma'lum bir jamiyatni ta'lim tizimida mavjud bo'lgan ta'lim jarayonini qonuniyatlarini va uni xususiyatlarini tadqiq qilish bilan shug'ullanadi. Shu bilan birga ta'lim nazariyasi ta'lim jarayonini mazmunini pedagogik asoslarini aniqlaydi, ta'lim metodlari tizimini, o'quv-tarbiya muassasalarida ta'limni tashkil etish shakllarini ishlab chiqadi. Yuqoridagilardan kelib chiqib ta'lim nazariyasi nimani tadqiq etadi degan savolga javob beramiz.

Ta'lim nazariyasi ta'lim jarayonini qonuniyatlarini, prinsiplarini, maqsadini, mazmunini, metod va vositalarini, ta'limni tashkil etish shaklini, ta'lim natijasini tadqiq etuvchi fan.

Bizga ma'lumki, har qanday fan o'z tadqiqot obyektiga va predmetiga hamda ilmiy tadqiqot usullariga ega bo'lgandagina mustaqil fan deb e'tirof etiladi.

Ta'lim nazariyasining objekti — ta'lim jarayoni.

Ta'lim nazariyasiga oid adabiyotlarda ta'lim nazariyasining predmeti turlicha talqin etiladi.

Bir guruh mutaxassislar ta'limni — tarbiyaning vositasi sifatida qaralishi, ta'lim nazariyasining predmeti deb tushunsalar, ikkinchi guruh mutaxassislar — ta'limni qonuniyati va prinsiplari uni maqsadi, ta'lim mazmunini ilmiy asoslari, ta'limni metod, vosita, shakllari ta'lim nazariyasining predmetidir deb hisoblaydilar.

Uchinchi guruh mutaxassislar fikricha, ta'lim nazariyaning predmeti o'qitish va o'qish jarayonlarining birligi, o'zaro aloqadorligidir.

To'rtinchi guruh mutaxassislar ta'lim nazariyasining predmeti ta'lim jarayoni amalga oshiriladigan shart-sharoitdir deb ta'kidlaydilar.

Yuqoridagilardan kelib chiqadiki, ta'lim nazariyasi ta'lim jarayonini maqsadini, qonuniyatini, prinsipini, metodini, shaklini o'rganadi. Bu ta'lim nazariyasi nimani tadqiq etadi degan savolga javob beradi.

Ta'kidlash kerakki, ta'lim jarayonida didaktik qonuniyatlar bilan psixologik va fiziologik qonuniyatlar ham mavjud. Demak, ta'lim bir vaqtini o'zida boshqa fanlarni ham (psixologiya, fiziologiya) objekti bo'la oladi.

Fan metodologiyasi bo'yicha mutaxassislar ta'kidlashlaricha, fan objekti bu — tadqiqotchining bilish faoliyati yo'naltirilgan borliq sohasidir, fan predmeti esa — tadqiqotchini fan nuqtayi nazaridan obyektini ko'rish, ifodalashidir. Turli fan vakillari bir obyektini turli xil ko'rishadi.

Ta'lim jarayoni didaktiki ham, uslubchimi ham, psixologni ham informatika, kibernetika bo'yicha mutaxassisni ham objekti bo'lishi mumkin. Amino har birni tadqiqot maqsadi, tadqiqotdan kutilgan natijalari har xil bo'ladi. Ta'lim nazariyasi ta'limni ijtimoiy tajribani o'tkazish vositasi sifatida qaraydi. Ta'lim natijasida tajribani bir qismi ma'lumot mazmuniga kiritiladi va ta'limni mazmunini tashkil

etadi. Ta'lim yordamida kelajak avlodni hayotga tayyorlash amalga oshiriladi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, ta'lim nazariyasining predmetini ifodalaymiz. Ta'lim nazariyasining predmeti bu — o'qituvchi va o'quvchi faoliyati o'rtasidagi aloqadorlikdir.

Ta'lim nazariyasining vazifalari.

Ta'lim nazariyasining vazifalari quyidagilardan iborat:

— ta'lim jarayonining mohiyatini, qonuniyat va prinsiplarini tadqiq qilish;

— ta'lim mazmunining pedagogik asoslarini aniqlash;

— o'quvchilarni o'quv-biluv faoliyatini faollashtirish qonuniyatlarini tadqiq qilish;

— yangi ta'lim texnologiyalarini, tizimlarini, ta'limni tashkil etish shakllarini ishlab chiqish.

Ushbu vazifalar ta'lim nazariyasining predmetini aniqlashda ta'kidlab o'tildi. Ta'lim nazariyasi o'z vazifalarini bajarishda falsafa, psixologiya, kibernetika fanlarini yutuqlaridan ham foydalanadi. Aynan kibernetika ta'lim nazariyasida dasturlashgan ta'limni ishlab chiqilishiga ta'sir etdi.

Ta'lim nazariyasi o'quvchilarni yosh, individual, ruhiy xususiyatlarini inobatga olib ta'lim maqsadini shakllantiradi. Ta'lim nazariyasi falsafani tabiat, jamiyat va insoniyatni rivojlanishini umumiy qonunlari to'g'risidagi bilimlariga tayanadi.

Didaktika — bu ta'lim uning maqsadi, mazmuni, metodlari, vositalari va tashkiliy shakllari to'g'risidagi fan.

Rus didakshunos olimi V.I.Andreyev bu ta'rif to'liq emasligi haqida fikr yuritib, birinchidan, ta'limning bir necha asoslangan va samarali ta'lim nazariyalari mavjudligini bularga: rivojlantiruvchi, muammoli, modulli, tabaqalashtirilgan, kompyuterli ta'lim turlari va nazariyalari. Ikkinchidan, ta'lim nazariyasida oxirgi paytlarda ta'lim texnologiya darajasida talqin etilayotganligini izohlab, didaktikaga quyidagi turlarni ko'rsatib o'tadi:

Didaktika — bu ta'lim nazariyasi va ta'lim texnologiyasi to'g'risidagi fan deb ta'rif bermoqda. Didaktika fan sifatida o'z predmetiga ega. Didaktikani predmeti — ta'lim qonuniyatlari va prinsiplari, uning maqsadi, ta'lim mazmunining imiy asoslari, metodlari, vositalari, shakllari, natijasi.

Didaktika umumiy va xususiyga bo'hnadi. Umumiy didaktika ta'lim jarayonini qonuniyatlarini o'rganib, ta'lim natijasini tahlil etadi, ta'lim metodlari, ta'limni tashkil etish shakllarini va vositalarini aniqlaydi.

Xususiy didaktika turli o'quv predmetlarini o'qitishda ta'lim qonuniyatlarini, mazmunini, metod va shakllarni o'rganadi.

Didaktika fan sifatida quyidagi muammolar bilan shug'ullanadi:

Nima uchun o'qitish kerak? (ta'lim maqsadi).

Kimni o'qitish? (ta'lim subyektlari).

Samaradorlikni ta'minlovchi ta'lim strategiyalari? (ta'lim prinsiplari).

Nimani o'qitish? (ta'lim mazmuni).

Qanday o'qitish? (ta'lim metodlari).

Ta'limni qanday tashkil etish? (ta'limni tashkil etish shakllari).

Ta'limda qanday vositalar qo'llaniladi? (darsliklar, o'quv qo'llanmalari, kompyuter dasturlari, didaktik materiallar va b.).

Ta'lim natijasida nimaga erishiladi? (ta'lim natijasini harakterlovchi mezon va ko'rsatkichlar).

Ta'lim natijasi qanday nazorat qilinadi va baholanadi? (ta'lim natijasini baholash va nazorat qilish metodlari).

6.2. Ta'lim nazariyasining asosiy kategoriyalari

Ta'lim nazariyasi mustaqil fan sifatida o'z obyekti va predmetiga ega bo'lganidek o'z kategoriyalar tizimiga (ta'lim, ma'lumot, o'qitish, o'qish, bilim, malaka, ko'nikma, hamda ta'lim maqsadi, prinsipi, mazmuni, metodi, shakli, natijasi) ega. So'nggi paytlarda didaktik tizim va ta'lim texnologiyasi kategoriyalari ham qo'llanilmoqda.

Ta'lim — o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga ma'lum bir maqsadga erishish uchun, ushbu maqsad talab etgan mazmunni u yoki bu metodlar yordamida aniq shakllarda yetkazib beriladigan va natijaga ega bo'lgan jarayondir.

O'qitish — ta'lim maqsadini amalga oshiruvchi o'qituvchini o'rgatuvchilik faoliyatidir.

O'qish — o'quvchini o'rganuvchilik faoliyatidir.

Ma'lumot — ta'lim jarayonida o'zlashtirilgan bilim, malaka, ko'nikmalar tizimidir.

Bilim — tabiatda, jamiyatda, inson ongida amal qiladigan qonuniyatlarning turli belgilar vositasida moddiylashtirilgan ko'rinishidir.

Ko'nikma—ilgari olingan tajriba asosida harakatni bajara olish qobiliyatidir.

Malaka—yuksak darajada o'zlashtirishni harakterlovchi harakatdir.

Maqsad—kutilgan, lekin erishilmagan natija.

Ta'lim prinsipi—ta'lim jarayonida amal qilinishi zarur bo'lgan talab va qoidalar yig'indisi.

Ta'lim mazmuni—o'qituvchi tomonidan berilishi, o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilimlar tizimi va axloqiy g'oyalar to'plamidir.

Ta'lim metodi—ta'lim maqsadiga erishish yo'li va usuli.

Ta'lim shakli—o'quvchilar miqdori, joy va vaqt bilan bog'liq bo'lgan ta'limni tashqi ko'rinishidir.

Ta'lim jarayoni mohiyatini tushunish uchun ta'lim nazariyasining asosiy tushunchalarini: ta'lim, ta'lim jarayoni, o'qish, o'qitish farqlash zarur. Ta'lim nazariyasida ushbu tushunchalarga berilgan yagona ta'riflar mavjud emas.

«Ta'lim — bu maqsadga yo'naltirilgan, boshqariladigan jarayon «bunda» o'qituvchi bilimlarni uzatadi, topshiriqlar beradi, bilimlarni ongli o'zlashtirish, mustahkamlash va qo'llash metod va usullarini o'rgatadi, bilim, ko'nikma, malaka sifatini tekshiradi. U hamisha o'quvchilarni bilish qobiliyatlarini rivojlantirish uchun qayg'uradi.» (B. P. Yesipov).

«Ta'lim deganda biz o'qituvchilarni o'quvchilar bilan bilimlarini mustahkamlash va o'zgartirishga asoslangan tizimli va rejali ishlarini tushunamiz» (V. Okon).

«Ta'lim — o'quvchilarni ilmiy bilim, ko'nikma, malakalarini o'zlashtirish, ijodiy qobiliyatlari, dunyoqarashlari, axloqiy-estetik qarashlari bo'yicha faol o'quv-biluv faoliyatini stimullashtirish va tashkil etish jarayoni» (E.S.Rapatsevich).

Ta'lim tushunchasi turlicha talqin qilinishiga qaramasdan, uning umumiy xususiyatlari mavjud. Krivshenko tomonidan ta'limga quyidagicha ta'rif berilgan. Ta'lim deganda, biz o'qituvchi rahbarligidagi o'quvchining maqsadga yo'naltirilgan faol bilish faoliyatini tushunamiz. Buning natijasida o'quvchilar ilmiy bilimlar tizimini o'zlashtirib, o'quvchilarni o'qishga bo'lgan qiziqishlari shakllanadi, bilish va ijodiy qobiliyat va ehtiyojlari hamda o'quvchilar shaxsini axloqiy fazilatlarini rivojlanadi.

Ta'lim jarayoniga mutaxassislar turlicha ta'rif beradilar.

«ta'lim jarayoni — bu o'quvchini o'qituvchi rahbarligida bilimlarni o'zlashtirish yo'lidagi harakati» (N. V. Savin).

«Ta'lim jarayoni - o'quvchilarni bilim, ko'nikma, malakalar bilan qurollantirish va ularni rivojlantirish hamda tarbiyalash maqsadiga yo'naltirilgan o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining birligini ifodalaydi» (G. I. Shukma).

«Ta'lim jarayoni —bu o'quvchilarni o'qitish vazifalarini hal etiladigan o'qituvchi va o'quvchining maqsadga yo'naltirilgan aloqadorligidir» (Yu.K.Babanskiy).

Ta'lim jarayonini turlicha talqin etilishi ushbu jarayonni murakkab jarayon ekanligidan dalolat beradi. Agar yuqoridagi ta'riflarni umumlashtirsak, ta'lim jarayonida o'quvchi o'qituvchi rahbarligida o'zining bilish faoliyati motivlarini anglashi, borliq to'g'risidagi ilmiy bilimlar tizimini o'zlashtirishi natijasida ilmiy dunyoqarashlari shakllanishi, har tomonlama aqliy va axloqiy jihatdan kamol topishini ifodalanishini ko'ramiz. Ta'lim jarayoniga tegishli bo'lgan quyidagi xususiyatlarni uchratishimiz mumkin a) maqsadga yo'nalganlik; b) bir butunlik; d) ikkitomonlamalik; e) o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining birligi; f) o'quvchilarni rivojlanishi va tarbiyasini boshqarish; g) ushbu jarayonni boshqarish va tashkillash.

Ta'lim jarayoni o'quvchining o'qish va o'qituvchining o'qitish faoliyatlaridan tashkil topgan. O'qish — bu o'quvchini o'qituvchi vazifalari va shaxsiy bilish ehtiyojlari asosi bo'yicha ilmiy bilimlarni o'zlashtirishini ifodalovchi maqsadga yo'nalgan, faol, ongli, bilish faoliyati hisoblanadi.

O'qitish — bu o'qituvchining o'quvchilarda ijobiy o'qish motivlarini shakllantirish, holdisa va jarayonlarni o'zlashtirishlarini tashkil etish, o'zlashtirgan bilimlarini qo'llay olishlarini, bilimlarni mustaqil o'zlashtirishlarini ta'minlash bo'yicha maqsadga yo'naltirilgan faoliyati.

Shunday qilib ta'lim jarayoni quyidagi vazifalarni bajaradi:

O'quvchilarni o'quv-biluv faolligini stimullashtirish;

Bilish ehtiyojlarini shakllantirish;

O'quvchilarni ilmiy bilim, ko'nikma, malakalarini o'zlashtirish bo'yicha bilish faoliyatini tashkil etish;

O'quvchilarni bilish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish;

Ijodiy faoliyat va o'z-o'zini o'qitish uchun ko'nikma va malakalarni shakllantirish axloqiy estetik madaniyatni tarbiyalash va ilmiy dunyoqarashni shakllantirish.

6.3. Ta'lim jarayonining gnoseologik asoslari

Har qanday ta'lim jarayonining metodolik asosini bilish nazariyasi tashkil etadi. An'anaviy ta'lim jarayonining asosi materialistik bilish nazariyasi hisoblanib, obyektiv borliqni moddiylikni, uni o'zlashtirishni talab, bilish jarayonini mohiyatini ochib beradi. Materialistik falsafaga asosan bilish jarayoni – bu obyektiv moddiy borliqni bizning ongimizda aks etishidir. Ammo bu obyektiv reallikni ongimizda shunchaki aksi emas, bu jarayonlarni mavhumlashtirish, ilmiy tushunchalarni, qonun va qonuniyatlarni shakllanish jarayoni hisoblanadi. Bunda hodisa va jarayonlar, ularni ichki qonuniy bog'lanishlari mohiyati ochib beriladi.

Bizni o'rab turgan dunyoni bilishimiz sezgilardan boshlanadi. Obyektiv dunyoni bizning sezgi organlarimizga ta'siri his etishimiz va tasavvurlarni paydo bo'lishiga olib keladi. Shuning uchun Jan Jak Russo sezgini bolaning birlamchi aqli deb hisoblagan.

Sezish tevarak-atrofdagi, narsa va hodisalarning sezgi organlarimizga ta'sir etuvchi ayrim sifatlarining ongimizda aks etishidir. Bunda har bir sezgi organ, ya'ni analizator I.P.Pavlov ta'kidlab o'tganidek, hodisa va jarayonlarni ayrim sifatlarini idrok qiladi. Ya'ni real olamdagi narsa va hodisalarni sifatlarini sezishimiz mumkin. Sezishdan so'ng idrok qilishga o'tamiz. Idrok unuman tevarak-atrofmizdagi hodisa va narsalarni ongimizda aks etishidir. Sezgilarning singari idrok qilish ham tashqi narsa va hodisalar, ularning manbalari yo'qolishi bilan to'xtaydi. Bilish jarayoni sezish va idrok qilish bilan to'xtamaydi. So'ngra tasavvur qilishga o'tamiz. Tasavvurlar bosh miya پوستining silliqligi tufayli odamning ongida uzoq vaqt saqlanib qoladigan idrok va sezgilarning izidir. Tajriba vositasida insonda tasavvurlar ko'lamini ko'paytib boradi. Tasavvurlar fikrlashda, tushunchalar tarkib topishida muhim rol o'ynaydi. Tasavvurlar muayyan unumlashmalarining mavjudligi bilan bog'liq. Sezishlar, idrok etishlar, tasavvurlar sezib bilishning tarkibiy qismi bo'lsada, ular ham real borliqni bilish muammosini to'raligicha hal qila olmaydi. Inson faqat tafakkur jarayonidagina biror jarayon va hodisa mohiyatini, munosabatning sababli bog'lanishlarini aniqlaydi va shu orqali voqelikni chuqur, to'liq, to'g'ri aks ettirishga erishadi. Tafakkur bilishning yuqori shakli hisoblanadi. Tafakkur I.P.Pavlov ta'limotiga ko'ra, nerv bog'lanishlari yoki assotsiatsiyalarning hosil bo'lishidan iborat. Insonda analiz, sintez, induksiya, deduksiya kabi mantiqiy operatsiyalar yordamida tushuncha, fikr-mulohazalar hosil bo'ladi. Ularning oliy shakli qonuniyatlar yaratishdir. Jonli mushohada uchun birinchi signal sistemasi, abstraksiya uchun esa ikkinchi signal sistemasi asosiy ahamiyatga ega bo'ladi. Abstrakt tafakkur voqelik bilan aloqada bo'lgan taqdirdagina bilimlarni chuqurlashtiradi. Birinchi va ikkinchi signal sistemalarining birligi bilimlarni chuqur va haqiqiy bilimlarga aylantiradi. Jonli mushohada va tafakkur hamisha insonni amaliy faoliyatiga asoslanishi kerak.

Inson tabiat va jamiyatdagi qonuniyatlarni ochib, o'z faoliyatida ulardan foydalanishga intiladi. Har qanday nazariy bilimlarning qiymati, uning amaliyotga qanchalik xizmat qilishi bilan belgilanadi. Nazariya amaliyotdan kelib chiqib, amaliyotning o'zini yaxshi yo'lga qo'yishga ko'maklashadi.

6.4. Ta'lim jarayonining qonuniyatlari va harakatlantiruvchi kuchlari

Ta'lim jarayonining metodologik asosi bilish nazariyasi, harakatlantiruvchi kuchi esa ziddiyatdir. Ziddiyatlar ta'lim jarayonining rivojlanirish va takomillashtirish manbaidir. Jamiyatning uzluksiz ta'lim tizimiga qo'ygan talabi bilan muayyan sharoitda ta'lim jarayonining imkoniyatlari o'rtasidagi ziddiyat ta'lim jarayonining asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Bu ziddiyat umuman ta'lim jarayonini, o'quv dasturlarini, ta'limning shakl va metodlarini takomillashtirishning muhim manbaidir.

Ta'lim jarayonida o'quvchilar oldiga qo'yiladigan vazifa bilan o'quvchilarning bilimlari va aqliy rivojlanishi darajalari o'rtasidagi ziddiyat katta ahamiyatga ega. Ta'lim jarayonidagi ziddiyatlarni hal etish eng maqbul ta'lim metodlari, vositalarini tanlashni taqozo etadi. O'qituvchilarning o'quv-biluv jarayonidagi turli ziddiyatlarni, bu ziddiyatlarni namoyon bo'lish sharoitlarini o'rganishi va darslarni tashkil etishda ularni hisobga olishi, ta'limni bolalar uchun yoqimli mashg'ulotga aylantirish imkonini beradi. O'quv jarayonini tashkil etishning umumiy me'yorlari ta'lim qonuniyatlari va prinsiplari bilan bog'liq. Qonuniyat butun ichidagi qismlar o'rtasidagi obyektiv, takrorlanib turuvchi ichki bog'lanishlarni ifodalaydi. Pedagogikada ta'lim qonuniyatlari ta'lim jarayoni komponentlari maqsad, mazmun, metod, shakl, natija orasidagi aloqalarni ifodalaydi.

Ta'lim jarayoni qonuniyatlarining mohiyatini ochish, tartibga solish ustida rus ta'lim nazariyachilari N.A. Sorokin, I.Ya. Lerner, Yu.K. Babanskiy, M.N. Skatkin, I.V. Zagviyazinskiyler tadqiqot ishlarini olib borganlar.

Pedagogikada umumiy va xususiy, ichki va tashqi, didaktik hamda o'quv-biluv, psixologik va tashkiliy qonuniyatlar farqlanadi. Ushbu qonuniyatlarga misollar keltiramiz.

Pedagogikada ta'lim maqsadi va mazmuni jamiyatni shaxsni ma'lumot darajasiga qo'ygan talabiga bog'liq - bu umumiy qonuniyat. Pedagogikada ta'limni natijaviyligi o'quvchilarni ongli faoliyatiga bog'liqligi - bu xususiy qonuniyat.

Pedagogikada ta'lim samaradorligi ta'lim muassasasining moddiy-texnik bazasiga bog'liqligi - bu tashqi qonuniyat.

Pedagogika bo'yicha o'quv materialini chuqur va izchil o'zlashtirishi o'quvchilarni faolligi va mustaqilligiga bog'liqligi - bu ichki qonuniyat. Pedagogikada ta'lim natijasi o'quvchilarni ta'lim maqsadini anglaganligiga va qabul qilganligiga bog'liqligi - bu didaktik qonuniyat.

O'quv materialini o'zlashtirishni mahsuldorligi ta'limni muammoliligi darajasiga bog'liqligi - bu o'quv-biluv qonuniyati.

O'quvchilarni rivojlanishi darajasi ular munosabatda bo'ladigan odamlarning rivojlanganlik darajasiga bog'liqligi - bu ijtimoiy-psixologik qonuniyat.

Ta'lim jarayoni samaradorligi jarayonni o'qituvchi tomonidan oqilona boshqarishi va tashkil etishiga bog'liqligi - bu tashkiliy qonuniyat.

Bundan tashqari, an'anaviy tarzda ta'lim jarayonining asosiy qonuniyatlariga quyidagilar kiradi.

Ta'limni jamiyat chuyog'iga bog'liqligi qonuniyati.

Ta'lim jarayonida ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi funksiyalarni aloqadorligi qonuniyati.

Ta'lim jarayonida o'qitish va o'qish jarayonlarining birligi qonuniyati.

Ta'lim jarayonida mazmunni maqsadga bog'liqligi qonuniyati.

Ta'lim jarayonida metod va shaklni mazmun bilan aloqadorligi qonuniyati.

Ta'lim samaradorligi o'qituvchi tomonidan qo'llanilgan metodlarga bog'liqligi qonuniyati.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarni yosh va individual xususiyatlarini hisobga olinishi qonuniyati.

Ta'lim samaradorligini ta'lim sharoitlariga bog'liqligi qonuniyati.

O'qituvchi ta'lim jarayonining qonuniyatlarini yaxshi bilsagina, ta'lim jarayonini ongli, samarali boshqara oladi. O'qituvchi unuonasligi kerak, ta'lim jarayonida didaktik qonuniyatlar bilan birga psixologik, fiziologik, gnoseologik qonuniyatlar ham mavjud. Ta'lim jarayonining qonun va qonuniyatlari ta'lim jarayonining prinsiplari va qoidalari uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Demak, pedagogika fani o'qituvchisi o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi hamkorlik faoliyati natijasi turli qonuniyatlarni hisobga olishga bog'liqliligini tushunishi kerak.

Pedagogikada qonuniyatlar ta'lim prinsiplarini aniqlaydi. Ta'lim prinsiplari o'quv jarayoni qonuniyatlari va maqsadi o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalaydi.

Prinsiplar -bu ta'lim jarayonini o'tkazish va tashkil etishga qo'yilgan me'yoriy talablar va boshlang'ich g'oya hisoblanadi. Ta'limning barcha prinsiplari o'zaro aloqadorlikda bo'lib, tizim ko'rinishida umumdidaktik, tashkiliy uslubiy prinsiplardan tashkil topgan. Ta'limning didaktik prinsiplari bevosita pedagogik ta'lim prinsiplariga ham taalluqlidir.

Umumdidaktik prinsiplar - ta'lim mazmunini umumiy qonuniyat va maqsadga mos holda aniqlovchi, pedagogik nazariya, konsepsiyaning asosiy holatlarini ifodalaydi.

Bu quyidagi prinsiplar:

- ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi funksiyalarning birligi prinsipi pedagogik bilim, ko'nikmalar tizimini shakllanishini, shaxsiy sifatlarini, individual sifat va fazilatlarini rivojlanishini, kasbiy ahamiyatli qadriyatlarini tarbiyalashni o'z ichiga oladi;

- ta'lim metodlari va mazmunining ilmiyligi prinsipi pedagogik amaliyot va zamonaviy ilmiy pedagogik bilimlar orasidagi aloqadorlikni ifodalaydi. Bu aloqadorliklar pedagogikada ta'lim metodlarini tanlashni aniqlaydi; ta'limni amaliyot bilan aloqadorligi prinsipi pedagogikani o'qitish jarayonida pedagogik bilimlarni real pedagogik jarayonda qo'llashni nazarda tutadi.

- tizimlilik va ketma-ketlik prinsipi o'qitish va o'qishni aniq tartibda amalga oshirishni taqozo etadi.

- ko'rganmalilik prinsipi talabalarga pedagogika bo'yicha o'quv materialini chuqur va ongli anglagan holda qayta ishlash uchun, o'rganilayotgan pedagogik hodisa va obyektlarni obrazlarini ko'rsatishni taqozo etadi.

- ong'lik va faollik prinsipi o'qish maqsadini mustaqil shakllantirishni, o'z ishini rejalashtirish va tashkillashtirishni, o'quv vazifalarini hal etish yo'llarini mustaqil topishni, o'zlashtirilgan bilimlarni ahamiyatini anglashni taqozo etadi.

Ta'limdagi faollilik -bu pedagogika bo'yicha ong'lik o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni natijasi sifatida namoyon bo'ladigan o'qishning aqliy va amaliy tomoni hisoblanadi:

- izchillik prinsipi bilimlarni talabalar xotirasida izchil mustahkamlanishni talab etadi;

- pedagogika mazmuni bo'lg'usi pedagogni shaxsni rivojlantirishga yo'naltirilishi zarur;

- pedagogik ta'lim mazmuni pedagogika fanining zamonaviy rivojlanish tendensiyalariga mos bo'lishi kerak;

- pedagoglarni tayyorlash natijalari kasbiy-pedagogik faoliyat talablariga mos bo'lishi talab etiladi.

Tashkiliy-uslubiy prinsiplar - pedagogikani o'qitish jarayoni metodlari va tashkiliy shakllarni aniqlovchi holatlar. Bularni ko'rib chiqamiz:

- pedagogikada ta'lim jarayonining birligi va bir butunligi prinsipi, o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatini birligi va o'zaro aloqadorligini ifodalaydi;

- talabalar o'quv ishida yakka va guruhli shakl va usullarini ratsional uyg'unligi prinsipi, pedagogika bo'yicha ta'lim mazmunini o'zlashtirish samaradorligi yakka, guruhli, jamoa shaklida amalga oshirilganda oshirilishini ifodalaydi;

- o'qishga ijobiy munosabatni shakllantirish prinsipi, hayotda pedagogik bilimlarni amaliy ahamiyatini ko'rsatishni, pedagogika sohasidagi yangi fan yutuqlarini o'quv materialiga kiritishni taqozo etadi.

6.5. Ta'lim jarayonining tuzilishi va funksiyalari

O'quv jarayoni qonuniyatlari va ziddiyatlari uning vazifalarini keltirib chiqaradi. Ta'lim jarayoni quyidagi vazifalarni bajaradi: ma'lumotli qilish, tarbiyalash, rivojlantirish. Ta'lim jarayonining ma'lumotli qilish vazifasi tabiat, jamiyat, texnika, inson to'g'risidagi bilimlarni o'zlashtirishi, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, qobiliyatlarini o'stirish bilan harakterlanadi.

Ta'lim jarayonining navbatdagi vazifasi rivojlantirishdir. Ta'limning ushbu vazifasi nutqning rivojlanish bilan, so'z zaxirasining ortishi bilan, tafakkurni, his-tuyg'uni, tasavvurni rivojlanishi bilan, qobiliyatni rivojlanishi bilan harakterlanadi.

Bilimlar tuzimini o'zlashtirish, shaxsni rivojlantirish o'quvchilarni tarbiyalashni taqozo etadi.

Ta'lim jarayonini tarbiyalovchi vazifasi o'quvchilarda mehnatsevarlikni, mas'uliyatli, axloqiy normalarni, estetik ideallarni, tafakkur madaniyatini shakllantirishi bilan harakterlanadi. Demak, o'qitishning asosiy ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi vazifalari. tashkiliy, strukturali, psixologik, integratsion, differentsiatsion, konsultatsion, nazorat-tashhis, fasilitatsion, refleksiv vazifalar bilan boytiladi.

O'qitishning ta'limiy vazifasi mohiyati pedagogik bilim, ko'nikma, malakalar tizimi shakllanishi va ularni amaliyotda qo'llash uchun sharoit yaratish tilan ifodalanadi.

Rivojlantiruvchi vazifa o'quvchilar shaxsida fikrlash, hissiy, motivatsion, kommunikativ sifatlarini rivojlanishi uchun ta'limning aktiv metodlarini qo'llashda amalga oshiriladi.

Tarbiyalovchi vazifa o'quvchilarda intellektual, hissiy sifatlar hamda kasbiy-qadrlri qarashlar, o'quv bilish faoliyati motivlari shakllanadigan turli faoliyatlarga kiritishda namoyon bo'ladi.

Ta'limning tashkillashtiruvchi vazifasi o'quvchilarni o'quv faoliyati va fanlarni o'qitish mazmunining sifati va ko'lami o'rtasidagi uyg'unlikda namoyon bo'ladi.

Ta'limning strukturalashtirish vazifasi har bir alohida mashg'ulot uchun o'quv predmeti bo'yicha o'quv materialini tanlash va tizimlashtirish bilan harakterlanadi.

Psixologik vazifasi o'quvchilarni ishlashlari uchun qulay sharoit yaratish bilan harakterlanadi.

Integrativ-differensiyativ vazifasi har bir o'quvchini qobiliyatini va imkoniyatlarini hisobga olgan holda o'quvchilarni hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etishda ifodalanadi.

Maslahat beruvchi vazifasi o'quv predmeti bo'yicha o'quv materialini o'zlashtirishlari uchun individual va guruhli maslahatlarni tashkil etishni taqozo etadi.

Nazorat-tashhis vazifa o'quv materialini o'zlashtirish darajasi to'g'risidagi teskari aloqani ta'minlovchi, o'quvchilarni individual ehtiyojlari va imkoniyatlarini hisobga olishni taqozo etadi.

Tuzatuvchi vazifasi o'quvchilarni o'quv faoliyatini nazorat va baholash asosida boshqarish va tuzatishni ifodalaydi.

Refleksiv vazifa o'z harakatlarini anglashni, boshqalarni tushunishda namoyon bo'ladi.

Ta'limning fasilitatsion vazifasi o'quvchilarga ilmiy bilimlarni o'zlashtirishlarida metodik, psixologik va texnik jihatdan qo'llab-quvvatlashni va yordam berishni taqozo etadi.

Shunday qilib, ta'limning barcha vazifalari o'zaro aloqadorlikda amalga oshiriladi.


Bizga ma'lumki, pedagogik jarayon o'zaro aloqador ta'lim, tarbiya, rivojlanish jarayonlaridan tashkil topgan jarayondir. Ta'lim - bu maqsadga yo'naltirilgan, oldindan loyihalashtirilgan faoliyat bo'lib, unda o'quvchilarning bilim olishi, tarbiyalanishi, rivojlanishi amalga oshiriladigan, faoliyat va muloqot tajribasining alohida tomonlari o'zlashtiriladigan jarayondir.

Ta'limning asosiy tasnifi:

- subyektlarning o'zaro ta'siriga asoslangan ikki tomonlamaligi;
- tomonlar faoliyatini mazmun va jarayon birligi;
- maxsus bilish jarayoni;
- boshqaruvchanligi;

- shaxsni har tomonlama rivojlanishiga yo'naltirilganligi.

Ushbu xususiyatlar umumiy harakterga ega bo'lib, pedagogika ta'lim rayoniga ham taalluqlidir.




1- rasm. Ta'lim jarayoni tuzilishi.

O'qitish - bu o'qituvchini o'quvchilarni o'quv-biluv faoliyatlarini boshqarish va tashkil etish bo'yicha maqsadga yo'naltirilgan hamda maxsus tashkillashtirilgan faoliyatidir. O'qitish maqsadi - har bir o'quvchini o'qishini samarali tashkil etish.

O'qish - bu o'quvchilarni maqsadga yo'naltirilgan, maxsus tashkil etilgan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishi bilan bog'liq faoliyatidir. O'qish maqsadi - borliq to'g'risidagi ma'lumotlarni qayta ishlash, to'plash va o'zlashtirish. O'qish natijasi o'quvchilarni bilimi, ko'nikma va malakalarida hamda munosabatlarida ifodalanadi.

Ta'lim jarayoni o'zaro aloqador: maqsad, mazmun, metod, shakl, natija komponentlari orasidagi aloqadorlikni ifodalaydi. Tizimni shakllantiruvchi komponent maqsad hisoblanadi, boshqa komponentlar barchasi unga bog'liq bo'lib, ular bir butunlikni hosil qiladi. Ta'lim jarayoni komponentlari orasidagi aloqadorlikni quyidagi sxemada ko'rishimiz mumkin.

Ta'lim jarayonining metodologik asosi gnoscologiya (bilish nazariyasi) hisoblanadi. Bilish nazariyasining asosiy qoidasiga muvofiq, bilish jarayoni - bu tafakkur va amaliyot birligi hisoblanadi.



2- rasm. Ta'lim jarayoni komponentlarini o'zaro aloqasi.

Ta'lim jarayonining harakatlantiruvchi kuchi qarama-qarshilik hisoblanadi.

Shunday qilib, ta'lim jarayoni butunligicha ta'lim nazariyasida ishlab chiqilgan umumiy qoidalarga asoslanadi, buni o'qitish jarayonini tashkil etishda o'qituvchi hisobga olishi zarur.

Ta'lim nazariyasi tahlilida ta'lim mohiyatini yoritishda mutaxassislarni turli yondashuvlarini ko'rishimiz mumkin. (). Roziqovning ta'kidlashicha, «Ta'lim o'qitish va o'qish faoliyatlarining o'zaro muvofiqlashuvi, kirishuvidan shakllangan shirkat faoliyatidir. «Ta'lim bilim, malaka, ko'nikmalarni berish va egallash jarayonidir» (Yu. Babanskiy).

«Ta'lim o'qituvchi va o'quvchini maqsadga yo'naltirilgan o'zaro harakatidir».

«Ta'lim o'qitish va o'qish faoliyatidan hosil bolgan jarayonidir».

«Ta'lim bilish yoki bilish faoliyatining turidir».

«Ta'lim bilim, ko'nikma, malakalar tizimini izchil va ongli o'zlashtirishga yo'naltirilgan o'qituvchi va o'quvchilarni o'zaro aloqador harakatlari yig'indisidir» va boshqalar. Yuqoridagi ta'riflardan ko'rinadiki, ta'lim mohiyatini ifodalashda turli yondashuvlar mavjud.

«O'qitish jarayoni o'quvchining xususiy o'rganuvchanlik faoliyati va o'qituvchining o'rganuvchanlik faoliyatidan iborat. undan tashqarida hech qanday maqsadli pedagogik jarayon kechmavdi». Shu kabi o'qitish jarayonining ikki tomonlama harakterga ega ekanligi qator didakt olimlar tomonidan e'tirof etiladi.

An'anaviy o'qitish tizimining o'ziga xos tomoni shundaki, u o'zida «avtoritar» pedagogik talablarni mujassamlantiradi. O'qitish jarayonining avtoritarizmligi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- faoliyatning chegaralanganligi, o'rganuvchining majburiyligi;
- nazoratning markazlashganligi;
- mazmunning o'rtacha o'quvchiga mo'ljallanganligi.


Bilimlarni o'zlashtirish metodlari ham nomahsul faoliyatga tegishli, ya'ni:

- tayyor bilimlarni uzatish;
- namuna bo'yicha o'qitish;
- xususiylikdan umumiylikning induktiv mantiqiyliги va hokazo.

Asosiy o'qitish shakli sifatida «sinf-dars» tizimi qabul qilingan.

O'qitish jarayoni faoliyat sifatida an'anaviy texnologiyada mustaqillikning yo'qligi, o'quvchilarni o'quv mehnatining kuchsiz motivlashgani bilan tavsiflanadi. Bunday sharoitda o'quv maqsadlarini joriy etish bosqichi o'z vazifasini to'liq bajara olmaydi.

Endi quyidagi ta'lim jarayoniga e'tibor qarataylik.



Ta'lim jarayoni tuzilmasi modeli (P. I. Pidkasiyskiy bo'yicha).

Bu yerda ta'lim jarayoni alohida tizim sifatida keltiriladi va uni tashkil etuvchi unsurlari o'qitish maqsadi, o'qituvchi faoliyati (o'qitish), o'quvchi faoliyati (o'rganish) va natija hisoblanadi. Shuningdek, ta'lim jarayoni faoliyat sifatida ham qaraladi, shu bois unda quyidagilar aniq ifodasini topadi:

- boshlang'ich holat tahlili, o'qitish maqsadini aniqlash va o'rnatish va uni o'quvchilarga yetkazish;
- ishlarni rejalashtirish, maqsadga erishish mazmuni va vositalarini saralash
- turli usullar bilan o'quv materialining yangi bo'lagini taqdim etish;
- o'quv amallarining o'quvchi tomonidan bajarilishi, o'qituvchi va o'quvchining hamkorlik faoliyatini tatbiq etish;
- axborotlar mazmunini o'zlashtirish bo'yicha teskari aloqani nazorat qilish va tuzatishni tashkil etish;
- o'qitish natijasining tahlili, o'z-o'zini tahlil etish va baholash.

Chiznaga asoslangan holda ta'lim jarayonining ramziy formulasini keltirib chiqarish mumkin:

$$TJ = O'q + O'qv + O'm + O'm + O'm = O'v + O'sh + N$$

bu yerda, TJ - ta'lim jarayoni;
O'q - o'qituvchi;
O'qv - o'quvchi,
Tm - ta'lim maqsadi;
Tm - ta'lim mazmuni,
Tm - ta'lim metodi;
Tv - ta'lim vositasi;
Tsh - ta'lim shakli;
N - natija.

Ta'lim jarayonining ramziy ifodalanishi uning mustaqil, yaxlit tizim ekanligidan, u o'ziga xos va mos qonuniyatlar asosida qurilishidan dalolat beradi.

Ta'lim jarayoni bu— o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga ma'lum bir maqsadga erishish uchun, ushbu maqsad talab etgan mazmunni u yoki bu metodlar yordamida aniq shakllarda yetkazib beriladigan va natijaga ega bo'lgan jarayondir.

Ta'lim jarayonining mohiyati shundaki, o'qitish va o'qish faoliyatlarining o'zaro aloqadorligida hamda o'qituvchi va o'quvchilarning ongli va faol munosabatlandir.

Nazorat uchun savollar

1. Ta'lim jarayonida qanday maqsad va vazifalar hal etiladi?
2. O'qitish va o'qishning o'zaro aloqadorligi nimada?
3. Ta'lim jarayonining asosiy qarama-qarshiliklarini tavsiflang.
4. Ta'lim funksiyalarini harakterli tomonlarini izohlang.
5. Ta'lim jarayonida o'qitishga o'qituvchi faoliyati sifatida, o'qishga o'quvchi faoliyati sifatida harakterlang.

7. TA'LIM JARAYONI YAXLIT TIZIM SIFATIDA

- 7.1. Ta'lim qonuni, qonuniyati va prinsipi tushunchasi.**
- 7.2. Ta'limning asosiy qonun va qonuniyatlari tasnifi.**
- 7.3. Ta'lim prinsiplari va qoidalari.**

7.1. Ta'lim qonuni, qonuniyati va prinsipi tushunchasi

Ta'lim qonunlari, qonuniyatlari va prinsiplari muammosi zamonaviy pedagogika fanining dolzarb muammosi hisoblanadi. Ular ko'p marotaba mutaxassislar tomonidan muhokama qilinganligiga qaramasdan, bugungi kunda ham ushbu tushunchalarni chegaralanib qilinmaganligiga guvoh bo'lamiz.

Pedagogikada «qonun» va «qonuniyat» tushunchalari falsafiy kategoriya sifatida qo'llaniladi. Qonun — bu hodisa va jarayonlar o'rtasidagi zaruriy, mavjud, takrorlanib turuvchi munosabatlardir. Qonun predmetlar orasidagi aloqadorliklarni ifodalaydi.

Falsafada qonuniyat — qonunga qaraganda keng tushuncha hisoblanadi. Qonuniyat - ko'plab qonunlar harakatlari yig'indisi natijasidir. Shuning uchun qonuniyat ko'plab aloqa va munosabatlarni ifodalaydi.

Ta'lim qonuniyati — bu ta'lim jarayoni komponentlari, qismlarini orasidagi takrorlanib turuvchi aloqalaridir.

Ta'lim omillari va hodisalari orasidagi aloqadorliklarni ifodalovchi ta'limning obyektiv qonun va qonuniyatlari didaktik jarayonni rivojlanishining umumiy ko'rinishini tushunish imkoniyatini yaratadi. Biroq ular amaliy faoliyat uchun ko'rsatma bera olmaydi, faqatgina ushbu ko'rsatmalarni yaratish va texnologiyalarni ishlab chiqishda nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Har qanday fan tabiat va jamiyatdagi hodisa va jarayonlarni qonun-qonuniyatlarini o'rganish bilan shug'ullanadi. Demak, tabiat qonunlarini tabiiy fanlar, jamiyat qonunlarini ijtimoiy fanlar, tafakkur qonunlarini gumanitar fanlar o'rganadi.

Yuqondagi qonunlar dialektika qonunlari deb yuritiladi. Shu bilan birga tor doiradagi hodisa va jarayonlarni ham o'z qonunlari mavjud. Jumladan ta'lim jarayonining qonuniyatlari.

Ta'lim nazariyasi mustaqil fan sifatida ta'lim jarayonining qonuniyatlarini tadqiq qilish bilan shug'ullanadi.

Qonuniyatlar—ta'lim jarayonida takrorlanib turadigan ichki bog'lanishlardir.

Ta'lim jarayoni qonuniyatlarining mohiyatini ochish, tartibga solish ustida rus ta'lim nazariyachilari N.A.Sorokm, I.Ya.Lerner, Yu.K.Babanskiy, M.N.Skatkin, I.V.Zagviyazinskiylar tadqiqot ishlarini olib borganlar.

O'qituvchi ta'lim jarayonining qonuniyatlarini yaxshi bilsagina, ta'lim jarayonini ogli, samarali boshqara oladi. O'qituvchi unutmashligi kerak, ta'lim jarayonida didaktik qonuniyatlar bilan birga psixologik, fiziologik, gnoseologik qonuniyatlar ham mavjud. Ta'lim jarayonining qonun va qonuniyatlari ta'lim jarayonining prinsiplari va qoidalari uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

«Prinsip - lotincha «principium» so'zidan olingan bo'lib, asos, boshlang'ich holat, asosiy rahbar g'oya, xulq va faoliyatning asosiy qoidasi kabi ma'nolarni anglatadi»⁴. Ilk antik falsafada birinchi ibtido sifatida suvni, havoni, olovni, tuproqni qabul qilganlar. Prinsipni esa zaruriyatning yoki hodisalar qonuniyatining ifodasi sifatida talqin qilishgan. Mantiqiy ma'noda prinsip tizimning tushunchasi, asosi bo'lib bu asos biron qoidani umumlashtirishdan va uni ayni abstraksiya qilib olingan sohadagi barcha hodisalarga jony etishdan iborat.

Prinsiplar ta'lim-tarbiyaning aniq shakllarida, sharoit va omillar ta'sirida hosil bo'ladi. Ular ma'lum bir davrda ta'limga qo'yilgan talablar asosida paydo bo'ladi. Qonuniyat obyektiv harakterga, prinsip esa subyektiv harakterga ega. Masalan, o'qituvchi u yoki bu prinsipga amal qilmasligi mumkin, bu bilan ta'lim jarayoni yo'q bo'lmaydi, biroq ta'lim samarasi kam bo'lishi mumkin. Pedagogika fani nazariyasi va amaliyotini uyg'unlashtirishda ta'lim qonuniyati va prinsiplari xizmat qiladi.

Pedagogik ensiklopediyada: «Ta'lim prinsiplari bu ta'lim jarayonining qonuniyatlari va tarbiyaning umumiy maqsadlariga muvofiq ravishda maktabdagi o'quv ishlarining tashkiliy shakllari, metod va mazmunini aniqlovchi didaktik kategoriyadir». Bu nihoyatda keng ma'noda berilgan ta'lim bo'lib, maktab faoliyatini

⁴ [Словарь иди слов М. 1956. 563 с.]

to'raligicha qamrab olyapti, uning stratetik rivojlanishida asosiy poydevor, tayanch sifatida qabul qilinayapti. Bu holatni I.T.Ogorodnikov (1950) ham qayd etib, ta'lim jarayonining umumiy tavsifidan asosiy ko'rsatmalar kelib chiqishini uqtiradi: «maktab ta'lim jarayonini o'tkazishni aniqlovchi asosiy ko'rsatmalar ta'lim prinsiplari deb nomlanadi».⁵

Didaktshunos olim M.N. Skatkinning (1982) ta'kidlashicha, «ta'lim prinsipi - bu o'qituvchi va o'quvchining hamkorligidagi faoliyati asosida, zarur bo'lgan natijaga olib keladigan qoidani keltirib chiqaradi»⁶.

Bu ta'riflardan ko'rinib turibdiki, o'qituvchining o'rgatuvchilik faoliyati va o'quvchining o'rganuvchilik ko'zlangan maqsadga erishishni ta'minlaydigan qoidalar o'qitish jarayonida didaktik prinsiplar mohiyatini tashkil etadi. Ta'lim prinsiplari - bu ta'lim va tarbiya maqsadlariga muvofiq ravishda o'qitish qonunlaridan foydalanish usullarini harakterlovchi didaktik kategoriyadir. Ma'lumki, har qanday fan borliqdagi mavjud hodisa va jarayonlarning obyektiv qonun va qonuniyatlarini ochish bilan shug'ullanadi. Bu qonunlar insonga tabiat va ijtimoiy hayotning rivojlanish mohiyatini tushunishga yordam beradi. Shu bilan birgalikda bu qonunlar amaliy xatti-harakat uchun ko'rsatma bo'la olmaydi, balki ular amaliy faoliyat texnologiyasi va qoidalarini ishlab chiqish uchun nazariy asos hisoblanadi. O'quv jarayonining obyektiv rivojlanishi qonuniyatlarini bilish asosida o'qituvchini amaliy faoliyatga yo'llaydigan prinsip va qoidalar ishlab chiqiladi. Bu yerda o'zaro bog'liq uchta tushuncha «qonuniyat», «prinsip», «qoida»ga urg'u berilyapti.

Ta'lim prinsiplarida ta'limning me'yoriy asoslari o'z ifodasini topadi. Ular asoslanmaydigan toifaga mansub bo'lib, o'quv amaliyotining yoyilishidan kelib chiqishi va o'zida o'quv jarayonining qonuniyatlarini ifodalashi bilan ajralib turadi. Demak, prinsip o'quv jarayonining umumiy yo'nalishini va asosiy talablarini aniqlashtirib beradi. Yoxud prinsip tushunchasi «nima uchun» yoki «qanday o'qitish kerak» degan savolga to'laqonli javob beradi.

B.N.Savin (1975) o'rganilayotgan muammoga o'quvchini tarbiyalash maqsadi mavqeidan yondashadi: «Ta'lim prinsiplari tarbiya maqsadlariga va o'qitish jarayoni qonuniyatlariga muvofiq tarzda dars berish va o'qitish jarayonini belgilashga xizmat qiluvchi asosiy rahbar qoidalardir».⁷

Maktabda ta'lim jarayoni o'zining umummetodik va didaktik prinsiplariga ega. O'qitish nazariyasi ta'limning umumpedagogik va ruhiy -fizilogik asoslarni hisobga olgan holda o'qitish jarayonini tashkil etishda amal qiladigan asosiy metodik ko'rsatmalar ekanligini didakt olim D.O.Lordkipanidze (1955) ta'kidlaydi. Uning fikricha, «ta'lim prinsiplari jarayonni tashkil etish va boshqarish bo'yicha yetakchi metodik ko'rsatmalardir»⁸.

Professor E.S.Kairov tadqiqotlarida ta'lim prinsipining mohiyati ta'lim jarayoni tahlili asosida aniqlashtiriladi: «Ta'lim prinsipi bu maktabdagi ta'lim jarayonini tashkil etishga qo'yilgan talablarni ifodalovchi, boshlang'ich didaktik

⁵ I.T.Ogorodnikov, Шибирев П.Н. Педагогика М., Уч. Пед.,-1950. 108 с.

⁶ Скаткин М.Н. Дидактика средней школы. М.: «Просв», 1982. 117 с.

⁷ Савин Н.В. Педагогика Ташкент «Узгуччи» 1976.

⁸ Д.О.Лордкпанидзе. Приемы, организации и методы обучения. Тбилиси. 1955. 53 с.

ko'rsatmalardir». Bunday qarashning muhim tomoni shundaki, ta'lim prinsiplari butun bir pedagogik amaliyotning asosini, boshlang'ich holatini, «start» chizig'ini belgilab beryapti. Bu fikr B.P.Fisov (1967) tomonidan ham qo'llab-quvvatlanadi: «ta'lim prinsipi deganda, biz maktabdagi ta'lim jarayonini o'tkazish va tashkil etish mazmuni asosida yotadigan ko'rsatmalarni tushunamiz»⁹. Ta'lim prinsipi bir tomondan umumiy o'rta ta'lim maqsadi va faoliyati mazmunini aniqlashtirishga yordam bersa, ikkinchi tomondan o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda samarali didaktik jarayonni tashkil etishga imkon yaratadi, ta'lim-tarbiya maqsadini o'rnatishga ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga didaktik prinsiplar o'z tarkibini, tasnifini bir xilda saqlab qolishi mumkin emas. Ular tarixiy davrga mos holda jamiyatning ta'lim tizimiga qo'yadigan aniq talablarni ifodalaydi. Shu bois vaqt o'tishi bilan ayrim prinsiplar o'z ahamiyatini yo'qotadi, ba'zilari esa yangidan paydo bo'ladi. Demak, prinsip pedagogik kategoriya sifatida boshqa fanlar kategoriyalari kabi rivojlanib boradi, jamiyat talablariga mos holda yangilanadi. Ayni vaqtda prinsiplar jamiyatning maktab oldiga qo'yan vazifalarini qamrab oladi, ijtimoiy rivojlanish talablarini qanoatlantiradi, o'quv faoliyatining xususiyatlarini va ularning psixologik asoslarini hisobga oladi.

Ta'lim prinsipi o'zining to'liq ifodasini o'qituvchi va o'quvchining birgalikdagi faoliyatida topadi va ayni vaqtda o'quv jarayonining butunligini ta'minlaydi (mazmun, metod, shakl)ni, o'zaro bog'lanishlarning umumiy yo'nalishini va asosiy talablarni aniqlaydi.

Ta'lim prinsiplaridan oqilona foydalanish uchun ma'lum shart-sharoit yaratilishi lozim. Shuning uchun butun bir ko'rsatmalarni shakllantirish kerak. Qachon o'qituvchi o'z faoliyatida bunday ko'rsatmalarga amal qilsa, ta'lim prinsiplarini to'g'ri qo'llagan bo'ladi. Shunday holda maktablarda ta'lim maqsadiga to'g'ri erishiladi. Ta'lim prinsipi o'qituvchini o'rgatuvchilik faoliyati asosida emas, balki ta'limning umumiy tashkil etilishi asosida yotadi.

Ta'lim prinsiplari ta'limning umumiy va asosiy ko'rsatmalari hisoblanib, har qanday o'quv predmeti va ta'limning har bir bosqichida o'ziga xos tarzda hamda ma'lum qonunlar asosida qo'llaniladi. Bu ko'rsatmalar o'z vaqtida har bir davrning ilg'or o'qituvchilari tajribalari natijasida paydo bo'lgan. Klassik didakshunoslarning xizmati shundaki, ushbu amaliy harakatlarga ega bo'lgan ko'rsatmalarni ilmiy jihatdan asoslashgan va ularning ta'lim fazosiga tarqalishiga hissa qo'shishgan.

Ayrim didakshunoslar didaktik prinsiplar bilish nazariyasidan kelib chiqadigan ta'limning asosiy qonuniyatlari deb qaraydilar. Bunday yondashuvga o'qitish jarayonining ilmiy bilish jarayoni bilan bog'liqligi asos bo'lgan.

Didaktik qonuniyatlari ta'lim jarayonini (mazmunini, metod va shaklini) aniqlaydigan asosiy ko'rsatmalarda o'zining aniq ifodasini topadi M.A.Sorokin (1975) fikricha, «ushbu asosiy ko'rsatmalar ta'lim prinsiplari deyiladi»¹⁰. Ta'lim prinsiplari jamiyatning maktab oldiga qo'yadigan obyektiv talablarni ifodalaydi. Ular ta'lim-tarbiya maqsadi bilan aniqlanadi hamda tarixiy va dialektik harakatlarga ega bo'lib aniq tarixiy sharoitlarda qo'llaniladi. Ta'lim prinsiplari erkin shaxsni shakllantirishning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan o'qish va

⁹ Фисов Б.П. Основы дидактики М. «Просв», 1967, 207 с.

¹⁰ Сорочкин М.А. Дидактика М. 1975, 87 с.

o'qitish jarayonining harakteri, yo'nalishi, o'quvchilar tomonidan ilmiy bilimlarning o'zlashtirilishi, tegishli ko'nikma va malakalar hosil qilishning asosiy qonun-qoidalari o'z ichiga oladi. Shu bilan bir vaqtda, ta'lim prinsipi ikkita faoliyatni — o'qituvchi va o'quvchining o'z oldiga qo'ygan vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish imkonini beradigan qator talablarga ham amal qiladi. Ta'lim prinsipi ta'lim jarayonining eng muhim masalalarini nazariy va amaliy jihatdan to'g'ri hal qilishning negizi hisoblanadi. Ta'limning maqsadi hayot talablariga muvofiq tarzda o'zgarib borгани kabi ta'lim prinsiplari ham yangilanib boradi. Ta'lim prinsiplari maktablar oldiga qo'yiladigan vazifalar asosida belgilanadi va o'zaro mustahkam aloqadorlikda amalga oshiriladi.

Kadrlar tayyorlash milliy modeli markazida Shaxs turadi. U bosh obyekt va subyekt sifatida har qanday ta'lim tizimida ishtirok etadi. O'quvchi shaxsini shakllantirish pedagogika fanining asriy va dolzarb muammosi sifatida ta'lim prinsiplari bilan ham aloqada bo'ladi. Bu fikr L.N.Baranovning (1975) ilmiy tadqiqotlarida uchratish mumkin: «Ta'lim prinsiplari o'quvchi shaxsini shakllantirishning umumiy qonuniyatlari bo'lib, u ta'limning metodlariga, uni tashkil etish shakliga, ta'lim mazmuniga, mohiyati va tarkibiy qismlariga qo'yiladigan umumiy talablarini belgilashga xizmat qiladi»¹¹. Bu yerda muhim, birmuncha jiddiy muammo qayd etilyapti: o'qitish jarayonining barcha unsurlari: mazmuni, shakli, metodi va vositalari ma'lum qonuniyatlari - prinsiplar asosida o'zaro bog'lanadi hamda jarayonning yaxlitligini ta'minlaydi. Pedagogik nashrlarda, shuningdek, amaliyotda o'qitish jarayonining qonuniyatlari va prinsiplari bitta tushuncha degan qarashlar hanuzgacha uchrab turibdi.

Holbuki, qonuniyat inson o'ziga bog'liq bo'lmagan har bir mustaqil hodisa yoki jarayonning mavjudligini ta'min etadigan ichki bog'lanishlar yig'indisidir.

Ta'lim prinsipi esa o'qitish jarayonida amal qilinishi, majburiy bajarilishi shart bo'lgan yetakchi qoida, asosiy talablar bo'lib, u ta'lim jarayonining ichki mohiyatini belgilab beradi va harakatga soladi. «Ta'lim prinsiplari bu o'qitishni samarali tashkil etish qonuniyatlaridan kelib chiqib, o'qitish jarayoniga qo'yilgan asosiy talabdır». Binobarin, ta'lim jarayoni samarali tashkil etilsagina ko'zlangan maqsadga erishish mumkin bo'ladi. Bu jarayon har doim ham samara beravermaydi, qachonki o'qituvchi va o'quvchi hamkorligida ongli va faol munosabat yuzaga kelsa, shu daqiqadan boshlab samarali faoliyat mexanizmi ishga tushadi. Demak, samarali tashkil etilgan ta'lim jarayonida bajarilishi va amal qilinishi lozim bo'lgan talablar ta'lim prinsipining mohiyatini ifodalaydi.

Ta'lim prinsipi - mahsuldor faoliyatni ta'minlovchi ta'lim jarayoniga qo'yilgan asosiy talablar tizimi hamdir.

Didakshunos olim V.A. Onishuk (1987)ning ta'kidlashicha, «ta'lim prinsipi ta'lim jarayonining tashkil etish shakli, vositasini, o'qitish metodlarini, ta'lim mazmunini aniqlaydigan qoidalardır»¹². Pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ta'lim jarayonining mazmuni ta'lim maqsadiga, o'qitish metodi va vositalari esa ta'lim mazmuniga bog'liq. Shu jihatdan yuqorida keltirilgan ta'lim prinsip mohiyatini to'laqonli ifodalaydi.

¹¹ Баранов С. П. Привлечение обучаемых. М. 1975 г.

¹² Онушко В. А. Урок в современной школе. М. // Просвещение. 198 г.

Ma'lumki, borliqdagi har bir hodisa, predmet, jarayonlar o'z qonuniyatlari asosida mavjud bo'ladi, doimiy o'zgarib, rivojlanib turadi. Pedagogik voqelik ham ma'lum qonuniyatlari asosida rivojlanadi, ularsiz ta'lim prinsiplarining mohiyatini ochib berish mumkin emas.

O'qitish jarayonini ta'lim prinsipi asosida tashkil etish - bu jarayonni ilmiy asosda qurish demakdir. Ilmiy asosda qurilgan har qanday faoliyat yakuniy natijani ta'minlaydi. Prinsiplar tizimiga yoki alohida prinsipga tayanish, birinchi navbatda, maktab amaliyotini chuqur tahlil qilish, shuningdek, bu prinsipning zarurligini isbotlash asosida amalga oshiriladi.

Didaktika paydo bo'lgandan buyon ta'lim prinsiplarini vujudga keltirish, ularni tahlil qilish, umumlashtirish, yangilash ta'lim nazariyasining asosiy muammosi bo'lib kelmoqda. O'qitish jarayoni qonuniyatlaridan - ta'lim prinsiplari, ta'lim prinsiplaridan - o'qitish qoidalari kelib chiqadi. Qoida aniq o'quv vaziyatida yoki bu prinsipni qo'llash metodikasining xususiy holatini ifodalaydi.

Polyak didakshunos olimlaridan B.Novrichinskiy ta'lim prinsipi tushunchasini ikki xil: 1) to'liq bo'lmagan ta'lim nazariyasi ma'nosida; 2) o'qituvchining didaktikaviy ishlari usullarini aniqlovchi «me'yor» ma'nosida qo'llagan.

K. Sosnitskiy (1986) o'qitish prinsipi deganda, o'qituvchining xususiy faoliyatida amal qiladigan umumiy qonuniyatlarni tushunadi. Umumiy qonuniyatlardan o'qituvchining har bir xatti-harakatiga taalluqli va bir vaqtning o'zida o'qituvchi tanlagan didaktik tizimdagi u yoki bu ta'lim tunga ta'sir qiladi. Ayrim mutaxassislar ta'lim tizimidan kelib chiqadigan o'qituvchi xulq-atvoridagi me'yoriylikdir. Bunday yondashuv Ch.Kupesevich(1986)ga tegishli bo'lib, uning fikricha, «ta'lim prinsipi o'qituvchini o'quvchilarga dunyo to'g'risidagi bilimlar tizimini asoslarini berishda amal qiladigan xulq-atvor me'yorlaridir»¹³. Demak, didaktik xulq-atvor me'yorlariga amal qilganda o'quvchilarning dunyoqarashi rivojlanadi, mustaqil bilim olishlariga imkoniyatlar yaratiladi. Ta'lim prinsipining bunday talqin etilishi ta'limning umumiy maqsadiga erishishga xizmat qiladi va har qanday o'quv predmeti hamda har qanday o'quv muassasasi uchun umumiylik kasb etadi. Agar maqsad va mazmun «nima uchun» va «niman» o'qitish kerakligini aniqlab bersa, prinsip «qanday amalga oshirish kerak» ligin belgilaydi Mashg'ulot davomida prinsiplarga amal qilish o'quvchilar qobiliyatining rivojlanishiga, dunyoqarashining shakllanishiga va ularning o'quv materialini mumkin qadar asosli ravishda to'liq o'zlashtirishiga kafolat beradi. Ta'lim prinsiplari o'qituvchining didaktik faoliyatiga oid umumiy yo'nalishini aniqlab beradi. Professor O.Roziqovning(1997) ta'kidlashicha, «Ta'limni tashkil etish, boshqarish va nazorat qilishda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga qo'viladigan talablar, qoidalar ta'lim prinsiplari»¹⁴, -deb aytiladi Ko'p holatlarda mutaxassislar ta'lim prinsiplari xususiyatlarini asosan o'qituvchi faoliyatiga nisbatan izohlashadi. Shuning uchun pedagogika darsliklarida, qo'llanmalarda «ta'lim prinsiplari» atamasi keng ishlatiladi. Ta'lim prinsiplari ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga daxldor. Didakshunos olimlar ta'lim prinsipi mohiyatini yoritishda turli nuqtayi nazarlarni asos qilib olishgan. K. Sosnitskiy (1986) tadqiqotlariga ko'ra «ta'lim prinsiplari umumiy

¹³ Ч.Купесевич Основы общей ДИДАКТИКИ пер.с. М. 1986 148 с

¹⁴Розиков О., Стыв С., Адиев Б Тошкент, Фан 1997 147 б

qonuniyatlar bo'lib, ular o'quv- tarbiya jarayonida qat'iy roya qilish yo'li bilan amalga oshiriladi». Har bir prinsip ta'lim jarayonining muayyan komponentiga taalluqlidir. Ta'lim prinsiplarini o'quv tarbiya jarayoni komponentlariga bog'lab bayon etish tendensiyasi Yu.K. Babanskiy tadqiqotlarida ham uchraydi [161 b]

Ta'limning ilmiyligi, hayot bilan bog'liqligi, tizimliliigi, izchilliligi, tushunariligi prinsiplari ma'lumot mazmuniga ko'ra; onglik va faollik, metod va vositalarni uyg'unlashtirish prinsipi metodlarga ko'ra; bilimlarning puxtaligi prinsipi ta'lim natijalariga ko'ra belgilanadi.

Ta'lim prinsiplarining mohiyatini o'quv tarbiya jarayonining qonuniyatlariga asosida tushuntirish ham mavjud. Yuqorida ta'kidlanganidek M.A. Sorokin (1975. 87b) ta'limning rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi xususiyatlarini qonuniyat sifatida belgilaydi va shular asosida ta'lim prinsiplari xususiyatlarini bayon etadi. V.I.Zagvyazinskiy (2002) ta'lim prinsiplari «shunday mexanizmki, uning yordamida o'qitishning mohiyati, mazmuni va tarkibiy qismlarini aks ettiruvchi qonun va qonuniyatlar aniqlashtiriladi»¹⁵, - deb ko'rsatishi bilan o'qitishning barcha unsurlarini aks ettiruvchi qonuniyatlar ta'lim prinsipining mohiyatini tashkil etishini ta'kidlaydi. Prinsiplarni ta'lim jarayoni qonuniyatlaridan kelib chiqib belgilash garchand yangicha yondashuv bo'lsa-da, u mohiyat jihatidan zaruratni tenglashtirishga olib keladi. Qonuniyatlar kishi ongiga bog'liq bo'lmagan holda mavjud, u narsaning o'zida, jarayonning tarkibida amal qiladi. Fanning vazifasi esa qonuniyatlarini izlash, topish, izohlashdan iborat. Boshqa tomondan ta'lim prinsipi amaliyotga daxldor tushunchadir. Ta'lim prinsipi har doim o'qitishni tashkil etish, boshqarish va nazorat qilish mezonlari sifatida mavjud bo'ladi. Prinsip umumdidaktik kategoriya hisoblanib, u ta'limning barcha turlariga, darajalariga, subyektlariga shuningdek, o'quv-tarbiya jarayonining ichki komponentlari (maqsad, mazmun, metod, vosita, shakl) ga daxldor umumiy qoidalardir.

B.T.Lexachyovning (2000. 139 b) ta'kidlashicha, «ta'lim prinsiplari pedagogik qonuniyatlar guruhiga taalluqli toifadidir. Ular o'quv-tarbiya jarayonida paydo bo'ladi va faoliyat ko'rsatadi, shuningdek, o'qituvchining pedagogik mahorati va san'atining dastlabki mavqelarini aniqlaydi»¹⁶. Didaktik prinsiplarga qat'iy amal qilish ta'lim-tarbiyadagi qarama-qarshiliklarni bartaraf etishga yordam beradi, o'quvchilarning ijtimoiy tajribani o'zlashtirishini, har bir o'quvchini kompleks munosabatlar tizimiga kirishini ta'minlaydi. Didaktik prinsipda nazariy umumlashma o'rnatilgan va amaliyotda tekshirilgan ijtimoiy munosabatlar, qonuniy aloqalar aks etadi, unda o'quv tarbiya jarayonini tashkil etishga bog'liq hamda o'quvchilarning faoliyatiga pedagogik rahbarlik qonuniyatlarini ifodalaydi.

Keyingi vaqtda I.P.Pidkaskisiy (2000)ning ta'lim prinsiplari bo'yicha fikrlari didakshunoslar e'tiborini jalb qilmoqda. Uning fikricha, «ta'lim prinsipi - bu didaktik jarayonni tashkil etishda amal qilinadigan yetaklovchi g'oya va me'yoriy talablar yig'indisidir»¹⁷. Hozirgi paytda o'qitish jarayoni tushunchasi o'miga didaktik jarayon tushunchasi ko'proq qo'llanilmoqda. Buning sababi, o'qitish jarayoni bu o'qituvchi faoliyati bilan bog'liq bo'lgan jarayondir. Didaktik jarayon

¹⁵Беляева А.П. Дидактика. Проф. Под М. «ВШ», 1991

¹⁶Б.Т.Лехачев Педагогика курс лекции. М.Юрифт 2000 91 с.

¹⁷Пидкаскисий И.П. Педагогика М. 2000

o'z tuzilishiga ega bo'lib quyidagi bosqichlardan iborat: motivatsion bosqich, o'quv bilish faoliyati va boshqarish. Didaktik jarayon mutaxassis shaxsini shakllantirish jarayoni sifatida o'qituvchi va o'quvchining o'zaro hamkorligi asosida quriladi va amalga oshiriladi. Yuqoridagi tahlillardan ko'rinib turibdiki, aksariyat hollarda ta'lim prinsipi deganda o'qituvchining pedagogik faoliyatida amal qilinishi lozim bo'lgan talablar va o'quvchilarning o'quv bilish faoliyatiga ongli va faol munosabatlarini ta'minlaydigan qoidalar yig'indisi tushunilar ekan. Ta'lim prinsiplarini noto'g'ri tushunish yoki bilmaslik ta'lim jarayonini samarasiz, ziddiyatli bo'lishiga olib keladi.

Ta'lim prinsiplariga amal qilish o'qituvchining pedagogik madaniyati ko'rsatkichi va ta'lim jarayonining samaradorligini asosiy sharti hisoblanadi.

U yoki bu prinsipning alohida tomonlarini qo'llanilishi didaktik qoidalarda ochib beriladi. Qoidalar prinsiplardan kelib chiqadi.

Ta'lim qoidasi — ta'lim jarayonidagi pedagogik vaziyatlardagi o'qituvchining aniq ko'rsatmasi xatti-harakatlari hisoblanadi.

7.2. Ta'limning asosiy qonun va qonuniyatlari tavsifi

Ta'limda dialektikaning umumiy qonunlari va ta'limning maxsus qonunlari o'z ifodasini topadi..

Dialektikaning umumiy qonunlariga: qarama-qarshiliklar kurashi va birligi qonuni, miqdor o'zgarishini sifat o'zgarishiga o'tishi qonuni, inkorni inkor qonuni.

Bu qonunlar ta'lim jarayonida qanday namoyon bo'ladi ?

Ta'lim jarayonida qarama -qarshiliklar kurashi va birligi qonuni amal qiladi. Iqtisodiy, sivosiy, madaniy hayotdagi o'zgarishlar bizning mamlakatimizda ijtimoiy qadriyatlarni va holatlarni o'zgartirishga olib keldi, oldinlari qoralangan shaxsiy sifatarni shakllantirishini (tadbirkorlik, ishbilarmonlik, tavakkalchilik) taqozo etdi. Bu birinchi navbatda ta'lim jarayoni, uning mazmunini hamda texnologiyasini o'zgartirishni talab etdi.

Ta'lim jarayonida miqdor ko'payishi sifat o'zgarishiga o'tishi qonuni amal qiladi. Barcha integrativ shaxsiy sifatlar tavsifi (ishonch, motivlar, ehtiyoj, qadriyatlar, faoliyatning individual stili, ko'nikma va malaka) miqdor o'zgarishlarining ko'payishi natijasini ifodalaydi.

Miqdorning sifatga o'tishi inkorni inkor qonuni mexanizmi bo'yicha amalga oshadi.

Ta'limda dialektikaning umumiy qonunlaridan tashqari maxsus pedagogik qonunlar ham amal qiladi.

Ta'lim nazariyasi tarixida ko'plab olimlar pedagogik qonunlarni shakllantirishga urinib ko'rganlar. Masalan, I. G. Pestalotsi ta'limni quyidagi qonunini shakllantirgan: jonsiz mavhumi narsadan aniq tasavvurlarga, ulardan aniq tushunchalarga o'tish qonuni.

A.V.Xutorskiy quyidagi qonunlarni tavsiya etadi.

Ta'lim maqsadi, mazmuni, shakl va metodlarini ijtimoiy bog'liqligi qonuni. Ijtimoiy tuzum va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar ta'lim jarayonining asosiy komponentlariga: uning maqsadiga, mazmuniga, metodlarga, tashkil etish

shakllariga ta'sir qiladi. Masalan, XX asr oxirlaridagi demokratik o'zgarishlar mamlakatda ta'lim tizimida o'zgarishlarni taqozo etdi.

Ta'lim muhiti va o'quvchining ijodiy o'z-o'zini namoyon qilishi o'rtasidagi aloqadorlik qonuni. Inson o'zining ma'naviy va tabiiy mohiyatiga ko'ra ijodkor hisoblanadi. O'quvchining ijodiy imkoniyatlarini, potensialini amalga oshirish darajasi ta'lim jarayoni sharoitiga, vosita va texnologiyasiga bog'liq.

Ta'lim, tarbiya va rivojlanishni aloqadorligi qonuni. Ta'limga yo'naltirilgan har qanday faoliyat o'quvchi shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirib, umuminsoniy va axloqiy fazilat hamda sifatlarini shakllantiradi.

Ta'lim natijasini o'quvchilarni ta'limiy faoliyatiga bog'liqligi qonuni. Ta'lim natijasi birinchi navbatda o'quvchining o'zini faolligiga hamda ta'lim jarayonida qo'llanilgan metod, vosita, shakl va texnologiyalarga bog'liq.

Ta'limiy jarayonni yagonaligi va bir butunligi qonuni. Ushbu qonun ta'lim jarayonining barcha elementlari (maqsad, mazmun, metod, shakl, natija) orasidagi ichki kelishuv zarurligini ifodalaydi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, ta'lim qonuniyatlari aniq sharoitlarda takrorlanuvchi, o'zaro aloqador, umumiy, ohyektiv aloqadorliklarni ifodalaydi. Nazariyachilar va amaliyotchilar tomonidan ko'p miqdordagi didaktik qonuniyatlarni mavjudligi aniqlangan. Masalan, rus didakshunos olimi I. P. Podlasiy fikricha, 70 dan ortiq ta'lim qonuniyatlari mavjud.

Ta'lim qonuniyatlari klassifikatsiyasini ko'rib chiqaylik.

Qonuniyatlarni umumiy va xususiy turlarga bo'linadi.

Umumiy qonuniyatlarni har qanday ta'limiy jarayonga tegishli bo'lib, ta'lim tizimini butunligicha qamrab oladi. Umumiy qonuniyatlarga quyidagilar kiradi:

- Ta'lim maqsadi qonuniyati.

Ta'lim maqsadi: a) jamiyatni rivojlanish tezligi va darajasiga; b) jamiyat imkoniyatlari va ehtiyojlariga; d) pedagogika fani va amaliyotning imkoniyatlari va rivojlanish darajasiga bog'liq.

- Ta'lim mazmuni qonuniyati.

Ta'lim mazmuni: a) jamiyat ehtiyoji va ta'lim maqsadiga; b) ijtimoiy va ilmiy-texnik taraqqiyot tempiga; d) o'quvchilarni yosh imkoniyatlariga e) ta'lim nazariyasi va amaliyotning rivojlanganlik darajasiga f) o'quv muassasasining moddiy-texnik va iqtisodiy imkoniyatlariga bog'liq.

- Ta'lim sifati qonuniyati.

Ta'limning har bir yangi bosqichi samaradorligi: a) oldingi bosqich mahsuldorligi va undagi erishilgan natijalarga; b) o'rganiladigan material harakteri va hajmiga; d) o'quvchilarga tashkiliy-pedagogik ta'sir etishga e) o'quvchilarning o'qiganligiga; f) ta'lim vaqtiga bog'liq.

- Ta'lim metodlari qonuniyatlari.

Didaktik metodlarni samaradorligi: a) bilim va malakalarni qo'llash metodlariga; b) ta'lim maqsadiga; d) ta'lim mazmuniga; e) o'quvchilarni yoshiga f) o'quvchilarni o'quv imkoniyatlariga; g) moddiy-texnik ta'minotga; h) o'quv jarayonining tashkil etilishiga bog'liq.

- Ta'limni boshqarish qonuniyati.

Ta'lim samaradorligi: a) ta'lim tizimidagi teskari aloqaning intensivligiga; b) tuzatuvchi ta'sirlarning asosiligidga bog'liq.

- Ta'limni stimullashtirish qonuniyati.

Ta'lim samaradorligi: a) ta'limning ichki stimuly va motivlariga; b) tashqi (ijtimoiy, iqtisodiy, pedagogik) stimullarga bog'liq.

Xususiy qonuniyatlar ta'lim tizimining alohida tomonlariga taalluqli. Zamonaviy pedagogika fanida ta'lim jarayonining ko'plab xususiy qonuniyatlarini mavjudligi aniqlangan. Ta'limning xususiy qonuniyatlariga quyidagilar kiradi:

- didaktik (ta'lim natijasi o'qituvchining kasb mahoratiga, ta'lim jarayonida qo'llaniladigan metodlarga va vositalarga bog'liq);

- gnoseologik (ta'lim natijasi o'quvchilarni bilish faolligiga, malaka hamda o'qish ehtiyojlariga bog'liq);

- psixologik (ta'lim natijasi o'quvchilarni o'quv imkoniyatlariga, fikrlash qobiliyatlariga, diqqatning holatiga va darajasiga bog'liq);

- sotsiologik (individning rivojlanishi boshqa barcha individlarning rivojlanganligiga, muhitning intellektual darajasiga, o'qituvchining o'quvchilar bilan muloqot holatlariga bog'liq);

- tashkiliy (ta'lim jarayonining samaradorligi o'quvchilarni bilish faolligini stimullashtirilishiga, bilish qiziqishlarini shakllantirayotganligiga, o'qishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirayotgan ta'limni tashkil etilishiga bog'liq).

Yuqoridagi tahlillarga asoslanib, ta'lim jarayonining asosiy qonuniyatlariga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

1. Ta'limni jamiyat ehtiyojiga bog'liqligi qonuniyati.

2. Ta'lim jarayonida ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi funksiyalarni aloqadorligi qonuniyati.

3. Ta'lim jarayonida o'qitish va o'qish jarayonlarining birligi qonuniyati.

4. Ta'lim jarayonida mazmunni maqsadga bog'liqligi qonuniyati.

5. Ta'lim jarayonida metod va shaklni mazmun bilan aloqadorligi qonuniyati.

Ta'lim samaradorligi o'qituvchi tomonidan qo'llanilgan metodlarga bog'liqligi qonuniyati.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarni yosh va individual xususiyatlarini inobatga olinishi qonuniyati.

Ta'lim samaradorligini ta'lim sharoitlariga bog'liqligi qonuniyati.

Ta'lim qonuniyatlari aniq prinsiplarda va ulardan kelib chiquvchi ta'lim qoidalarida o'z ifodasini topadi.

7.3. Ta'lim prinsiplari va qoidalari

Hozirga qadar ta'lim prinsiplari tizimining ilmiy asoslari mukammal ishlab chiqilmagan. Ta'lim jarayonini rivojlantirish prinsiplari boshqa didaktik kategoriyalar kabi pedagogika fanining zamonaviy taraqqiyot darajasi va yosh avlodni tarbiyalash sifati talablari asosida aniqlashtirilishiga muhtojlikni sezmoqda. Pedagogik adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ta'lim prinsiplari ijtimoiy hayotning o'zgarishi, pedagogika fanining rivojlanishi bilan o'zgarib turadi: yarim didaktik

prinsiplar yo'qoladi, o'rniga yangi didaktik prinsiplar kirib keladi. Biroq har bir ta'lim prinsipi u yoki bu didakt olim tomonidan prinsiplar tasnifiga kiritilgan. Masalan, Ya.L.Kashanskiy tomondan tabiiylik, moslik, ko'rgazmalilik, ta'limda ketma-ketlilik, K.V.Yelnitskiy (1894) tomonidan ta'limda onglilik, N. Skvortsova (1916) tomonidan tarbiyada yakka holda ta'lim prinsipi, faollilik, I.A.Lashkareva tomonidan tarbiyada predmetlararo aloqadorlik, S.M.Mixaylov (1950) tomonidan tarbiyada tarixiylik, M.I. Maxmutov (1960) tomonidan tarbiyada muammoli prinsiplar, V. Okon (1985) tomonidan tarbiyada samaradorlik, Yu.K.Babanskiy (1982) tomonidan tarbiyani maqbullashtirish, S.M. Rives (1939) tomonidan faollik, moslik, E.N. Medinskiy (1935) tomonidan tizimlilik, o'qituvchining yetakchilik faoliyati, Z. Mirtursunov (1960) tomonidan ta'lim va tarbiya birligi, I.T. Ogorodnikov (1950) tomonidan ilmuylik, M.A.Danilov (1960) tomonidan go'yaviylik, tarixiylik, S.M. Mixaylov (1950) tomonidan tarbiyani go'zallashtirish prinsipi didaktikaga olib kiritilgan.

Didaktik prinsiplar mohiyati va uning tasnifi masalasi dastlab klassik didakshunos buyuk chex pedagogi Ya.A. Komenskiy (XVII) tomonidan asoslab berildi. Ya.A.Komenskiyning didaktik ta'limotida didaktik prinsiplar tizimiga quyidagi prinsiplar kiritilgan:

Ta'limda tabiiy moslik prinsipi.

Ta'limda puxta ta'lim prinsipi.

Ta'limda ketma-ketlik prinsipi.

O'qitishda ko'rgazmalilik prinsipi.

O'qitishda taqlid qilish prinsipi.

XIX asr oxirlarida, XX asr boshlarida Rossiya olimlaridan K.V.Yelnitskiy ta'lim prinsiplari tizimini quyidagi ko'rinishda ifodalaydi: ta'limda asosiylik prinsipi, o'qitishda ketma-ketlik, ko'rsatmalilik, nazariyaning amaliyot bilan birligi, puxta o'zlashtirish, onglilik, mustaqillilik, o'rganilayotgan obyektga boshqa obyekt bilan aloqasini o'rnatish prinsipi. 1916-yilga kelib N. Skvortsova ta'limda ketma-ketlik, ko'rsatmalilik, onglilik, tarbiyani yakka holda o'tkazish prinsipini taklif qildi.

XX asrning 20-yillarida rus pedagog - nazariyotchilari Sh.I. Gonelin, A.P.Pinkevichlar didaktik prinsiplar ahamiyati va ularning turlari, didaktik prinsiplar tizimi borasida o'z fikrlarini bildirganlar. A.P.Pinkevich tomonidan yaratilgan tizimda quyidagi prinsiplar o'rin olgan:

Ta'limning hayot bilan bog'liqligi prinsipi.

O'quv jarayonining ijodiy harakterda bo'lishi prinsipi.

Tarbiyada mustaqillilik prinsipi.

30-yillarda pedagogika fani nazariyasi va amaliyotchilari oldida o'quvchilarning fan asoslari bo'yicha puxta bilimlar egallashini ta'minlash vazifasi turadi. Bu vazifalarni bajarish maktabdagi ta'lim jarayoniga qo'yilgan talablarga bog'liqligi mutaxassislar diqqat markazida bo'lgan. Mutaxassislar o'quvchilarni puxta fan asoslari bilan qurollantirish zaruratidan kelib chiqqan holda ta'lim prinsiplari tizimini ishlab chiqqan boshladilar. Jumladan, Ye.N. Medinskiy quyidagi ta'lim prinsiplari zarurligini qayd etdi:

Ta'limda tizimlilik prinsipi.

Ta'limda onglilik prinsipi.

Nazariyaning amaliyot bilan bog'liqlik prinsipi.

Ta'limning tarbiyalovchi prinsipi.

O'qituvchining yetakchi faoliyati.

Ta'limda politexnik prinsipi.

V.E. Gmurman o'qitishning asosiy prinsiplari tarkibiga ta'limning tarbiyalovchi prinsipi, ta'limda faollik va onglilik prinsipi, ta'limda ko'rsatmalilik prinsipi, ta'limda asosiylik hamda tizimlilik prinsiplarini kiritadi.

30-yillar oxirlarida S.N. Rives tomonidan ta'lim jarayoniga quyidagi asosiy didaktik prinsiplar taklif etilgan tizimlilik, ko'rsatmalilik, moslik, onglilik, faollik, puxtalik.

Yuqoridagi ta'lim prinsiplari tizimi o'quvchilarda fan asoslari to'g'risidagi bilimlar tizimini puxta o'zlashtirishga yo'naltirilgan.

Ma'lumki, ta'lim prinsiplarida ta'lim jarayonining qonuniyatlari ifodalanadi, ya'ni ta'lim jarayoni qonuniyatlaridan ta'lim prinsiplari, ta'lim jarayoni prinsiplaridan ta'lim qoidalari kelib chiqadi. 1940-yillar oxiriga kelib ta'lim prinsiplari mohiyati, ularning ahamiyati va prinsiplar tizimi masalalari mutaxassislar diqqat-e'tiborida bo'ldi. 1950-yillarga kelib, «Sovremennaya pedagogika» (Zamonaviy pedagogika) jurnali sahifalarida didaktik prinsiplarga oid maqolalar ko'zga tashlana boshlandi. Munozaralarda didakshunoslardan V.V.Krayevskiy, M.V.Zveryava, I.YA.Lerner, I.G.Kazanskiy, M.N.Skatkin, I.P.Yagodovskiy, M.A.Danilov, Ye.P.Esipov, D.O.Lordkipanidze, L.V.Zankov, Yu.K.Babanskiy, V.V.Pomogayba, S.M.Mixaylov, I.T.Ogorodnikov, T.I.Ilin, N.P.Savin va boshqalar o'z fikr-mulohazalari va qarashlari bilan ishtirok etdilar.

Onglilik, ko'rsatmalilik, ketma-ketlik prinsiplari ahamiyatini yoritib bergan boshqalardan farqli o'laroq S.M.Mixaylov (1950) quyidagi ta'lim prinsiplari tizimini ta'lim jarayonining asosiy didaktik prinsiplari sifati deb ta'kidlagan.

Ta'limda ko'rsatmalilik prinsipi.

Ta'limda tarixiylik prinsipi.

Ta'limda o'rganish prinsipi.

O'rganilayotgan obyektni boshqa obyektlar bilan aloqasini o'rnatish prinsipi.

Obyektlar o'rtasidagi aloqalarni aniqlash prinsipi.

Rus didakshunos olimi M.N.Skatkin (1950) fikricha, ta'lim jarayonining asosiy prinsiplarini ta'limning tarbiyalovchi prinsipi, ta'limda ilmiylik prinsipi, ta'limda tizimlilik prinsipi, ko'rsatmalilik prinsipi, nazariyani amaliyot bilan bog'liqligi prinsipi, bilimlarni puxta o'zlashtirish prinsipi, onglilik prinsipi, faollik prinsiplari tashkil qiladi.

I.T.Ogorodnikov (1950), S.N. Rives (1940), I.F.Harlamov (1985), A.L.Savin (1970), S.P.Baranov (1970), G.I. Shukina (1977), T.A.Ilin (1984), M. A. Sorokinlar (1974) tavsiya etgan ta'lim prinsiplari tizimi deyarli bir-biriga o'xshash. Ularning ilmiy ishlarida asosan ta'limda ilmiylik, onglilik, ko'rsatmalilik, nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi, moslik, faollik, tizimlilik prinsiplari asosiy didaktik prinsiplar sifatida qayd etiladi.

Respublikamizning didakshunos olimlari Z.Mirtursunov, A.Munavvarov (1997), I.Tursunov, R.Mavlonova (2000), O.Roziqovlar (1997) tahrirlari ostida chop etilgan darslik va metodik qo'llanmalarda didaktik prinsiplar mohiyati va ularning

tuzilishi bayon etilgan. Bu kitoblarda ta'lim jarayonining quyidagi ta'lim prinsiplari qayd etiladi: ta'limda ilmiylik prinsipi, ta'lim va tarbiyaning aloqadorligi prinsipi, ta'limda tizimlilik prinsipi, ko'rsatmalilik, ta'limda moslik, nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi prinsipi, ta'limda puxtalilik hamda ongliklik prinsipi, faollik va ta'limda yakka holda ta'lim prinsiplari.

Polyak olimi V. Okon (1990) quyidagi didaktik prinsiplar tizimini taklif etadi va ular ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlashini ta'kidlaydi: ta'limda samaradorlik prinsipi, ta'limda mustaqillik va ta'limda yakka ta'lim prinsipi, nazariya bilan amaliyotning bog'liqligi prinsipi, moslik, ko'rsatmalilik, tizimlilik prinsipi.

Shunday qilib, pedagogika fani bo'yicha mavjud darslik va o'quv qo'llanmalarida asosan, 10-12 ta ta'lim prinsiplari ko'rsatiladi. Biroq olib borilgan tadqiqotlarning ko'rsatishicha, pedagogikada 40 dan ortiq didaktik prinsiplar mavjud ekan (1- jadval). Albatta, gap didaktik prinsiplarning miqdori oz yoki ko'pligida emas, balki ularning mohiyatini anglab yetish va ulardan o'qitish jarayonida foydalanishning shart-sharoitlarini bilish haqida boryapti.

Yangi asrga kelib pedagogika fanida tub burlishlar amalga oshirilmoqda: siyosatdan xolilik, texnologiya ustuvorligi, innovatsion faoliyat, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, yangi avlod darsliklari va boshqalar. I.P. Pidkaskiy (2002) tahriri ostida chop etilgan «Pedagogika» o'quv qo'llanmasida ta'limning rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi prinsipi, ta'limda insoniylik, fan asoslarini tushumsh va ketma-ketlikda o'zlashtirish, ta'limda o'quvchilar ongini, ijodiylikni, faolligini, mustaqil faoliyatini rivojlantirish, ko'rgazmalilik, aniqlik va mavhumlik birligi, moslik, nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi prinsiplari ta'kidlanadi.

Ta'limning ilmiyligi prinsipi o'quv predmetini zamonaviy fan yutug'i zaminida bayon qilishni, o'quvchilarni o'quv faoliyatini tashkil etishda muammoli vaziyatlarni yaratishni, o'rganilayotgan hodisa va jarayonlarni turli kuzatishlarini, ilmiy baholarni, qo'shimcha ilmiy axborotlarni izlashni, o'z nuqtayi nazaridan isbot qilishni talab etadi.

Ta'limda ilmiylik prinsipi ta'lim mazmunini dunyo sivilizatsiyasida jamlangan, tajribalarga, zamonaviy fan va texnikani rivojlanish darajasiga mos bo'lishini ifodalaydi. Ushbu prinsip o'quvchilarni o'zlashtirishi uchun fan tomonidan asoslangan, (obyektiv ilmiy faktlar, konsepsiyalar, nazariyalar, qonunlar, qonuniyatlar, turli sohalaridagi yangiliklar) bilimlarni taqdim etishni talab etadi.

Ilmiylik prinsipiga amal qilish qoidalari:

- o'rganiluvchi fanni matig'ini va tilini qo'llash;
- asosiy tushuncha va nazariyalarni bayon etishda maksimal darajada ushbu fan masalalarini zamonaviy tushunchalar bilan yaqinlashtirib bayon qilish;
- fanni aniq metodlarini qo'llash;
- obyektini rivojlanishda o'rganish, ijtimoiy va tabiiy hodisalarni dialektikasini ochib berish va dialektik fikrlashni shakllantirish;
- o'rganilayotgan obyektlarni to'g'ri qabul qilinishini ta'minlash va ularni asosiy tomonlarini ajratish;
- ta'limda tabiiy va ijtimoiy hodisalarni bilishning ilmiy metodlarini qo'llash.

Ta'limda moslik prinsipi

Ta'limda moslik prinsipi o'quvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan o'quv materiali hajmi va mazmuni hamda metodlari o'quvchilarni o'zlashtirish imkoniyatlariga va ularning aqliy, axloqiy, estetik rivojlanganlik darajalariga mos bo'lishini talab qiladi.

O'zlashtirilayotgan o'quv materiali mazmunini o'ta murakkabligi o'quvchilarni o'qishga bo'lgan qiziqishlarini pasaytirib, ularda ishchanlikni yo'qolishiga olib keladi. Bu degani moslik prinsipi ta'lim mazmuni oddiy, elementar bo'lishi kerak degani emas.

Amaliyot va izlanishlar shuni ko'rsatmoqdaki, o'zlashtirilishi kerak bo'lgan mazmun oddiy, elementar bo'lganda ham o'quvchilarni o'qishga bo'lgan qiziqishlari pasayib, o'qishga bo'lgan qobiliyatlari rivojlanmaydi. Ta'lim jarayonida ta'limni rivojlantiruvchi funksiyasi amalga oshmaydi.

Shulardan kelib chiqib, taniqli rus pedagogi va psixologi L.V.Zankov rivojlantiruvchi ta'limning o'qitishda yuqori darajadagi qiyinchilik darajasi prinsipini asoslab berdi.

Amaliyotda moslik prinsipiga amal qilishning quyidagi qoidalari mavjud:

- ta'limda osondan murakkabga, ma'lumdan noma'lumga, yaqindan uzoqqa borish;

- oddiy, tushunarli tilda tushuntirish;

- o'quvchilarni bilish faoliyatini boshqarish;

- o'quvchilarni o'quv materialini qabul qilish tezligi farqlarini, ishlash tempini, qiziqishlarini, hayotiy tajribasini, rivojlanish xususiyatlarini hisobga olish; analogiyalashni, qiyoslashni, taqqoslashni, qarama-qarshi qo'yishni qo'llash; Har bir yangi tushunchani kiritish nafaqat qo'yilgan bilish vazifalari mantiqidan kelib chiqishi, balki ta'limning o'tgan bosqichlaridan tayyorlanishi kerak;

moslik ishchanlik qobiliyati bilan bog'liq, ishga layoqatlilikni rivojlantirib, o'quvchilarni tez va uzoq fikrlash faoliyatiga o'rgatish kerak.

Onglilik va faollik prinsipi

Ta'limda onglilik va faollik prinsipi bilimlarni faol bilish va amaliy faoliyatda ongli o'zlashtirilishini talab etadi. Ta'limdagi onglilik — bu o'quvchilarni ta'limga bo'lgan pozitiv munosabati, o'rganilayotgan muammoni mohiyatini tushunish. O'quvchilar tomonidan bilimlarni ongli o'zlashtirish qator omillarga bog'liq: ta'lim motivlariga, bilish faolligi darajasiga va harakteriga, o'quv jarayonini tashkil etilishiga, qo'llaniladigan metod va ta'lim vositalariga. O'quvchilar faolligi — bu ularni ta'lim jarayonidagi intensiv aqliy va amaliy faoliyati.

Onglilik bilimlarni ongli o'zlashtirishga yo'naltirilgan prinsipdir. Bilim, malaka, ko'nikmalarni ongli o'zlashtirish quyidagi xususiyatlarga ega: Ta'lim maqsadini anglash, materialni ongli egallash, ularni farqlay bilish, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash jarayonini sezish, natijalarni baholay bilish. Faollik bilimi, ko'nikma va malakalarni ongli o'zlashtirish sharoit va natijasi sifatida namoyon bo'ladi.

Amaliyotda onglilik va faollik prinsipi qator qoidalarga amal qilishni talab etadi:

o'quvchilar tomonidan ta'lim maqsadi va vazifalarini aniq tushunib olishga erishish;

diqqatni tortuvchi faktlarni, ma'lumotlarni, misollarni qo'llash;

texnik vositalarni va ko'rgazmali qurollarni qo'llash;

o'quvchilarni nazariy bilimlarni qo'llash bo'yicha amaliy faoliyatga jalb qilish;

ta'limning faol va intensiv metodlarini qo'llash;

noamiqni aniq bilan mantiqiy bog'lash;

o'quvchilarni sabab oqibat aloqalarini topishga o'rgatish;

o'quvchilarda optimizmni va ishonchni qo'llab-quvvatlash.

Ko'rgazmalilik prinsipi

Pedagogika tarixida ko'rgazmalilik prinsipi birinchilardan bo'lib shakllangan. Ta'lim samaradorligi insonni barcha sezgi organlarini jalb etilishiga bog'liqligi ta'kidlangan. O'quv materiali qanchalik turli sezgi organlari orqali ta'sir etsa, materialni mustahkam o'zlashtirilishiga olib keladi. Bu qonuniyat didaktikaning ko'rgazmalilik prinsipida o'z ifodasini topgan.

Ko'rgazmalilik prinsipi o'quvchilar bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'rganilayotgan predmetlar va hodisalarni yoki ularning tasvirini jonli idrok etishdan xulosalar sari yoki umumiydan aniq narsa sari borishni talab etadi.

Ta'lim jarayonida bolalarga kuzatish, o'lichash, tajriba o'tkazish imkoniyatini berish lozim. Ko'rgazmalilik prinsipiga ko'ra narsa-hodisalarni o'rganish, ularni kuzatish, sezishdan boshlanadi.

Kuzatish, sezish ongda faktlarni to'plash, tasavvurlarni shakllantirishga olib keladi.

Ta'lim nazariyasida ko'rgazmalilik keng ma'noda qo'llaniladi. U ko'rish, eshitish, ta'm bilish sezgilarini o'z ichiga oladi.

Ushbu prinsipni asoslashga Ya.A.Komenskiy, I.G.Pestalotsi, K.D.Ushinskiy, L. V. Zankov kabi olimlar munosib hissa qo'shganlar.

Ya.A.Komenskiy «Didaktikaning oltin qoidasida» ko'rgazmalilik prinsipiga amal qilish yo'llarini shakllantirdi.

I. G.Pestalotsi ko'rgazmalilikka amal qilish tushunchalarni fikriy shakllanishi bilan uyg'unlikda bo'lishini ko'rsatib o'tgan. K.D.Ushinskiy ko'rgazmalilikni bolalarni nutqini rivojlanishidagi ahamiyatini ochib bergan, L.V.Zankov so'z va ko'rgazmalilik uyg'unligini ta'kidlab o'tgan. Agar ma'lumotlarni eshitish orqali o'zlashtirish samaradorligi 15% ni tashkil etsa, ko'rish orqali — 25% ni tashkil etadi. Ta'lim jarayoni samaradorlik darajasi 65% gacha borishi mumkinligini mutaxassislar bashorat qilishgan.

Ta'limda ko'rgazmalilik prinsipi o'rganilayotgan obyektlarni namoyish qilish, hodisa va jarayonlarni izohlash, hodisa va jarayonlarni kabinet va laboratoriyalarda, tabiiy sharoitlarda, mehnat va ishlab chiqarish faoliyatida kuzatish yo'llari orqali amal qilinadi.

Ko'rgazmalilik vositalari:

natural obyektlar: o'simliklar, hayvonlar, tabiiy va ishlab chiqarish obyektlari, odamlarni mehnati va o'quvchilarni o'zlarini;

ko'rgazmali qo'llanmalar: modellar, maketlar, mulyajlar, gerbanlar v.b.;

ta'limning tasviriy vositalari: kartinalar, fotografiyalar, diafilmlar, rasmlar; simvolli ko'rgazmali qo'llanmalar: kartlar, sxemalar, tablitsalar, chizmalar

v.b.;

audiovizual vositalar: kinofilmlar, magnitofon yozuvlari, televizion ko'rsatuvlar, kompyuter texnikasi;

mustaqil tayyorlangan «tayanch signallar» konspekt, sxema, chizma, jadval ko'rinishidagi.

Mashg'ulotlarda ko'rgazmali vositalardan foydalanish natijasida o'quvchilarda o'qishga qiziqish shakllanadi, kuzatuvchanlik, diqqat, fikrlash rivojlanadi.

Ta'lim amaliyotida ko'rgazmalilik prinsipiga amal qilishning qator qoidalari ishlab chiqilgan:

- ko'rgazmalilik o'rganilayotgan predmet va hodisalarni mohiyatini ifodalashi, o'zlashtirilishi lozim bo'lgan mazmunni aniq va ravshan ko'rsatish;

- 100 marta eshitgandan, 1 marta ko'rgan afzal;

- bola ko'rganda fikrlaydi va samarali eslab qoladi;

- ko'rgazmalilikka maqsad sifatida emas, vosita sifatida amal qilish;

- ko'rgazmalilikni me'yoridan oshirib yubormaslik;

- ko'rgazmalilikka nafaqat o'rganilayotgan hodisa va jarayonlarni ishonchligini tasdiqlash uchun, balki bilimlar manbai sifatida qarash;

- bolalar yoshi ulg'aygan sari predmetli ko'rgazmalilikni simvolli ko'rgazmalik bilan almashtirish;

- ko'rgazmalilikning turli-tuman turlaridan foydalanish;

- ko'rgazmalilik estetik tarbiyalashi kerak;

- turli ko'rgazmali vositalardan foydalanishda o'quvchilar yoshini hisobga olish.

Tarixiylik prinsipi

O'qitishda tarixiylik prinsipi o'quv materiallarini bayon qilishda tarixiy materiallardan foydalanish asosida darsni tashkil etishni nazarda tutadi. Ta'lim jarayonida tarixiylik prinsipiga amal qilinsa, o'quv materiali boyitiladi va uni puxta o'zlashtirishga imkon yaratiladi, fandagi ketma-ketlikni ifoda etish imkoniyati tug'iladi, natijada bilimlarni yaxlit, bir butunlikda o'zlashtirish ta'minlanadi.

Tarixiylik prinsipi predmet va hodisalarning nafaqat o'tmishi va hozirgi holatini ro'yi rost ifodalab qolmasdan, balki ularning kelajakdagi rivojlanishini ham ko'rsatib beradi.

O'quv materiallarini o'zlashtirishga tarixiy yondashuv tarafdorlari tarixiy materiallarni u yoki bu o'quv kursiga kiritishning maqsadga muvofiqligi va zarurati o'qitishda tarixiylik prinsipi mohiyatini tashkil etishini ta'kidlaydilar. O'quvchilarni fan asoslari tarixi bilan tanishtirish ularning axloqiy jihatdan takomillashuviga, vatanparvarlik ruhida tarbiyalanishiga turtki beradi.

O'qitish jarayonida tarixiylik prinsipining o'zmi shundaki, u o'quvchilarda fanga qiziqishni rivojlantirishning asosi hisoblanadi. O'quvchilar tomonidan predmetga qiziqish mavjud bo'lganda, shubhasiz, o'quv materiali mazmuni yengil o'zlashtiriladi. Shu boisdan avtish mumkinki, tarixiylik predmet mazmunini bir tomondan bo'vitsa, boshqa tomondan o'quvchilarda kuchli motiv uyg'otadi.

Ta'lim jarayonida tarixiylik prinsipiga amal qilinish o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashining shakllanishida, ularda axloqiy sifatlarni tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi. O'qitishda tarixiylik prinsipini amalga oshirishda tarixiy materiallarni saralash mezonini aniqlash muhimdir. Ular:

- tarixiy material mavzu maqsadiga mos kelishi;
- tarixiy material mavzuni qo'shimcha axborot bilan boyitishi;
- tarixiy material o'quvchilarning o'zlashtirish darajasiga mos kelishi;
- tarixiy material o'qituvchi imkoniyatlariga mos kelishi;
- tarixiy material ilmiy manbalar asosida saralanishi.

Ushbu mezonlarga umumta'lim maktablarida o'zlashtiriladigan tarixiy materiallarni konstruktiv loyihalashda amal qilinishi lozim. Tarixiylik prinsipi zamon va makon kontekstida fanning ta'lim jarayoniga nisbatan zamonaviy talablarini ifodalaydi

Ta'limning tizimliliigi prinsipi o'qitish va bilimlarni o'zlashtirishni ma'lum bir tizimda, tartibda bo'lishini talab etadi. Ta'limning sistemaliligi fan, madaniyat tajribani yutuqlarini o'zlashtirishda o'quvchilarni amaliy ko'nikmalarga, nazariy bilimlariga, o'quv faoliyatiga, tizimli harakatlarni ifodalaydi.

Sistemalilik qator belgilarga ega:

Tartibga solinganlik, tashkiliylik, yaxlitlik, rejalilik, davomiylik va boshqalar.

Ta'lim jarayonini tashkil etishda bu belgilarga rioya qilish ta'limda sistemalilikni ta'minlaydi. Ta'limda sistemalilik va ketma-ketlik prinsipi o'qitish va bilimlarni o'zlashtirishni aniq tartibda, tizimda bo'lishini ifodalaydi. U ta'lim jarayonini mantiqiy qurilishini talab etadi.

Ta'limda tizimlilik va ketma-ketlik prinsipi qator didaktik qoidalarga amal qilishni talab etadi:

- bilimlar tizimini o'zaro aloqadorlik asosida shakllanishi;
- o'rganilayotgan materialni mantiqiy aloqador bo'lim va bloklarga ajratish;
- o'quv materialini mantiqiy tasvirlovchi sxema, reja, tablitsa, tayanch konspektlar, modullardan foydalanish;
- predmetlararo aloqadorlikka amal qilish;
- umumlashtiruvchi va sistemali darslarni tashkil etish;
- yagona talab asosida pedagogik jarayon subyektlarini faoliyatini koordinatsiyalash va ular faoliyatini uzluksizligini ta'minlash.

Izchillik prinsipi

Ta'limda bilimlarni izchil o'zlashtirish prinsipi o'quvchilar xotirasida bilimlarni mustahkamlashni taqozo etadi. Ushbu prinsip asosida fan tomonidan o'rnatilgan qonuniyatli holatlar yotadi:

- o'quv materialini izchil o'zlashtirish obyektiv omillarga (material mazmuniga, uning tuzilishiga) bog'liq;
- o'quvchilar aqliy bilish faolligini namoyon qilishi;
- o'zlashtirish lozim bo'lgan o'quv materialini o'quvchilarni har xil individual farqlarini hisobga olgan holda qurish;

- yangi o'quv materiali oldin o'zlashtirilgan bilimlar bilan bog'lanishi (oldin o'zlashtirilgan bilimlar asosida yangilari yaqqol qabul qilinib, eski bilimlar yangilari hisobiga boyiydi).

Turli xildagi ta'lim metodlari, shakllari, vositalari qo'llaniladi:

- bir xillik o'quvchilarni o'qishga bo'lgan qiziqishlarni so'ndiradi, o'zlashtirish samaradorligini pasaytiradi:

- qiyoslash, taqqoslash, umumlashtirish, tahlil etish, sabab va oqibatlarini, aloqadorligini o'rnatish, asosiysini topish bilan bog'liq savollarni berish orqali o'quvchilarni fikrlashini faollashtirish;

- o'zlashtirish jarayoni sifatiga tizimli nazorat qilib borish orqali erishish.

Ta'limni tarbiyalovchilik prinsipi

Ta'limni tarbiyalovchilik prinsipi ta'lim jarayonini obyektiv qonuniyatlarini ifodalaydi. Ta'lim-tarbiyadan tashqarida bo'lish mumkin emas. Holbuki o'qituvchi maxsus tarbiya maqsadini qo'ymaganda ham o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi. Ularni o'quv materiali mazmuni, bilimlarga bo'lgan o'zining munosabatlari, o'quvchilarni bilish faoliyatini tashkil etishda qo'llagan metodlari, o'zining shaxsiy sifatleri orqali tarbiyalaydi.

Ta'limda ta'limni tarbiyalovchilik prinsipi qator didaktik qoidalarga amal qilishni talab etadi:

- har qanday o'quv predmetini o'rganishda maqsadli, ongli, tizimli tarbiyani olib borish;

- tushuncha, ta'rif, qonun, simvollaridan so'ng o'quvchilar tabiat hodisalarini va ijtimoiy progres qonunlarini tushunishlarini, shakldan so'ng mazmunni, hodisadan so'ng mohiyatni, tashqi belgilardan keyin ichki xususiyatlarni va qonuniyatlarini tushunishlariga erishish;

- har bir darsni, har bir mavzuni tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanish,

- o'quv jarayonini o'quvchilarning madaniy xulq-atvoriga va o'zaro munosabatlariga ta'sir etadigan qilib tashkil etish;

- o'quvchilar shaxsini hurmat qilish va bir vaqtni o'zida talabchanlikda bo'lish. Hurmatga asoslanmagan talabchanlik jahldorlikni va norozilikni keltirib chiqaradi. Talabchan bo'lmaslik mehribonlikni, tartibni buzilishiga, tartibsizlikka, o'quvchilarni quloq solmasligiga olib keladi.

Nazariyani amaliyot bilan bog'liqligi prinsipi

Ta'limni amaliyot bilan bog'liqligi prinsipi o'quvchilarni qiziqtirishni, o'zlashtirilgan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llashni, borliqni analiz (tahlil) qilishni, o'z qarashlarini ishlab chiqishni talab etadi. Buning uchun real hayot vaziyatlari tahlil qilinadi, o'quvchilar ishlab chiqarish bilan tanishadilar, mashg'ulotlarda ko'plab shaxsiy ma'lumotlardan foydalanadilar. O'quvchilar maktabdagi ijtimoiy foydali faoliyatga jalb qilinadi.

Nazariyani amaliyot bilan bog'liqligi prinsipi ilmiy asoslangan bilimlarni hayotda qo'llanilishi bilan birgalikda, aloqadorlikda o'zlashtirilishini taqozo etadi. Shundaygina o'quvchilarda hayotdagi hodisa va jarayonlarga nisbatan ilmiy qarash hamda ilmiy dunyoqarashlari shakllanadi. Amaliyot - bu haqiqat mezonini, bilish manbai hisoblanadi. Amaliyotda ta'lim natijasi tekshiriladi, tasdiqlanadi.

ta'limda nazariyani amaliyot bilan bog'liqligi prinsipi qator didaktik qoidalarga amal qilishni talab etadi:

ta'limda o'quvchilarni amaliy tajribasiga tayanish, nazariy bilimlarni qo'llanish sohasini ko'rsatish:

zamonaviy texnologiyalarni, yangi ishlab chiqarish munosabatlarini, mehnat qilishning qulay metodlarini o'rganish;

muammoli izlanish va tadqiqotchilik masalalarini qo'llash; bilimlarni amaliyotda qo'llash;

ilg'or ilmiy g'oyalarni, konsepsiyalarni, nazariyalarni ahamiyatini ko'rsatish. Ta'limni o'quvchilarning individual va yosh xususiyatlariga mosligi prinsipi

Ushbu prinsip ta'lim mazmuni, metodlari va shaklini o'quvchilarni yosh davrlariga va individual rivojlanishlariga mos bo'lishni ifodalaydi. Shaxsiy rivojlanish va bilish imkoniyatlari darajasi o'quv faoliyatini tashkillashni aniqlaydi. Ta'lim jarayonida o'quvchilarni tafakkurini, xotirasini, diqqatini, harakterini, temperamentini, qiziqishlarini hisobga olish ahamiyatlidir.

Individual xususiyatlarni hisobga olishning ikkita individual va tabaqalashitirilgan yo'li mavjud:

XX asrning 90-yillarigacha asosan individual yondashuv asosida ishlangan bo'lsa, hozirgi paytda tabaqalashitirilgan ta'limga ko'proq e'tibor qaratilmoqda.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, didaktik prinsiplar an'anaviy ta'lim tizimi asosini tashkil etadi. Ayrim mutaxassislar zamonaviy ta'lim rivojlanish tendensiyalariga mos keluvchi didaktik prinsiplarni asoslab bermoqdalar.

A.V.Xutorskiyning ta'kidlashicha, an'anaviy didaktik prinsiplar ta'lim maqsadini aniqlashtirishga yordam berib, o'qituvchiga darsdagi aniq vaziyatlarda rahbarlik qilishi uchun ham xizmat qiladi. Ayni paytda umumqabul qilingan prinsiplar o'quvchilarni ta'lim faoliyatini rivojlanishi dinamikasida butun ta'lim jarayonini reglamentini aniqlay olmaydi. Shuning uchun prinsiplar tizimini asosi qilib o'quvchilarni o'qish faoliyati olingan.

A. V. Xutorskiy ta'lim jarayonini quyidagi prinsiplarini taklif etadi:

- O'quvchining shaxsiy maqsadi prinsipi. Har bu o'quvchini o'qitish uning shaxsiy o'quv maqsadlarini hisobga olish va uning asosida amalga oshiriladi. Bu prinsip ta'lim maqsadini o'qituvchi ham o'quvchi ham anglashi kerakligini taqozo etadi.

- Ta'lim proyektoriyasini individual tanlash prinsipi. O'quvchi o'qituvchi bilan birgalikda ta'limning asosiy komponentlari (ta'lim metodi, shakli, maqsadi, mazmuni)ni tanlash huquqiga ega.

- Ta'lim jarayonining metapredmet asosligi prinsipi. Ta'lim jarayoni mazmunini asosini o'quvchilarni shaxsiy bilish imkoniyatlarini ta'minlovchi fundamental metapredmetlar obyektlari tashkil etadi. O'quvchilarni real ta'lim obyektlarini o'zlashtirishi bir o'quv predmeti doirasidan tashqari o'quv predmetlari doirasidagi fundamental ta'lim obyektlarini kategoriya, tushuncha, simvol, prinsiplar, qonunlar, nazariyalarni o'zlashtirishni ta'minlaydi.

- Ta'limni samaradorligi prinsipi. Ta'limni asosiy yo'nalishi o'quvchini shaxsiy ta'limiy jihatdan o'sishi hisoblanadi. Mahsuldor ta'lim nafaqat ma'lum narsalarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan, balki yangi materiallarni o'zlashtirishga yo'naltirilganligi bilan ham karakterlanadi.

- O'quvchilarni ta'limiy mahsulotning birlamchiligi prinsipi. O'quvchining ta'lim mazmunini individual tarzda yaratishi ta'lim standartlarni va o'rganilayotgan sohadagi umumqabul qilingan vutuqlarni o'zlashtirishda ilgarilab ketishni ta'minlaydi. Bu prinsip o'quvchini tabiat bilan uyg'unligini va shaxsiy yo'nalganligini aniqlashtiradi. O'quvchi o'rganilayotgan masalada o'zini namoyon qilishi uchun imkoniyat beradi. ijodiy faoliyat texnologiyasini o'zlashtiradi.

- Ta'limning vaziyatligi prinsipi. Ta'limiy jarayon o'quvchilar bilan bog'liq bo'lgan vaziyatlardan tashkil topgan. O'qituvchi ta'limda o'quvchi harakatlarni kuzatib boradi. Ya'ni o'quvchini ijodiy faoliyatini tashkil etadi va ta'limiy vaziyatlarni yaratadi. Uning maqsadi o'quv jarayonida o'quv motivlarini hosil qilish va o'quvchilar faoliyatida ularni faolligini ta'minlash hisoblanadi.

Ta'lim jarayonida ta'lim prinsiplariga o'zaro aloqadorlikda amal qilinadi. Yagona prinsippga amal qilish orqali ta'lim samaradorligiga erishib bo'lmaydi. Prinsiplar faqat aloqadorlikda, kompleks tarzda ta'lim samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Faqat kompleks tarzda ta'lim maqsadini aniqlashni, ta'lim mazmunini, metodlarini, vositalarini, shakllarni tanlashni hamda zamonaviy ta'lim muassasalarini vazifalarini samarali hal etishni ta'minlaydi.

Nazorat uchun savollar

1. Ta'lim qonunining didaktik qonuniyatlardan farqi nimada?
2. Ta'lim prinsipining mohiyati nimada?
3. Ta'limning asosiy prinsiplarini tavsiflang.
4. Ta'lim prinsiplarini amalga oshirish qoidalaridan misol keltiring.

8.TA'LIM MAZMUNI

- 8.1. Ta'lim mazmuni tushunchasi va mohiyati.
- 8.2. Ta'lim mazmunini shakllantirishning asosiy nazariyalari.
- 8.3. Ta'lim mazmunini tanlash prinsiplari va mezonlari.
- 8.4. Davlat ta'lim standarti.
- 8.5. Ta'lim mazmunini aks ettiruvchi me'yoriy hujjatlar.

8.1.Ta'lim mazmuni tushunchasi va mohiyati

Bizga ma'lumki, «mazmun» tushunchasi ma'nosi qadimgi yunon mutafakkirlari Aristotel va Platon tomonidan ochib berilgan. Aristotelning ta'kidlashicha, mazmun - bu butunni hosil qiluvchi qismlar yig'indisidir.

Kevinchalik bu tushuncha Gegel tomonidan to'ldirilgan, uning fikricha «har qanday predmetlar nafaqat moddiy, balki mazmunga ham ega. «Ta'lim mazmuni» tushunchasini pedagogik ma'nosi rus olimi P.F Kapterev tomonidan bilimlar tizimi sifatida ochib berilgan.

Ta'lim mazmuni deganda ta'lim jarayonida o'quvchilar o'zlashtirishi kerak bo'lgan ilmiy bilimlar tizimini, amaliy ko'nikma va malakalarni hamda dunyoqarash va axloqiy-estetik g'oyalarni tushunamiz - deb ta'kidlaydi I.F.Harlamov.

Ta'lim mazmuni—yoshlarni ma'lumotli qilish, taraqqiy ettirish, tarbiyalash maqsadida ma'lumot mazmunidan tanlanib, ta'lim jarayoniga olib kirilgan bilim, ko'nikma-malaka, faoliyat usullari hamda tabiat, jamiyat va tafakkur hodisalarini emotsional baholashga doir munosabatlardir degan qarashlarni O.Roziqov, B.Adizovlar ilgari suradilar.

V.V. Krayevskiy va I.Ya. Lernerlarning fikricha, ta'lim mazmuni o'zaro bog'langan komponentlarning ijtimoiy tajribasi sifatida ko'rib chiqilgan.

1) tabiat, jamiyat, texnika, inson, faoliyat turlari to'g'risidagi bilimlar;

2) faoliyat turlarini ifodalovchi tajriba;

3) ijodiy faoliyat tajribasi;

4) faoliyatning obyekti va vositasi hisoblanadigan borliqqa nisbatan emotsional munosabat tajribasi.

Har bir komponentni ko'rib chiqamiz.

Birinchi komponent - bilim, ya'ni insoniyat tomonidan dunyo to'g'risidagi obyektiv ma'lumotlarni to'planishi.

Bilimlarni bir necha turlari mavjud:

1) asosiy tushuncha va atamalar, bularsiz biror bir matnni yoki fikrni tushunib bo'lmaydi;

2) borliqdagi ilmiy tushuncha va faktlar, bularsiz fan qonuniyatlarini tushunish mumkin emas;

3) nazariyalar;

4) faoliyat turlari, bilish metodlari va bilimlarni olish tarixi to'g'risidagi bilimlar;

5) baholovchi bilimlar, hayotdagi turli hodisalarga munosabat me'yorlari.

Ikkinchi komponent - berilgan algoritm asosida mahsuldor darajada faoliyatning aniq turi bo'yicha bajariladigan ko'nikma va malakalar tajribasi.

Navbatdagi komponent - ijodiy faoliyat tajribasi. Ijodiy faoliyat inson faoliyatining mahsuldor darajasida amalga oshiriladi.

Keyingi komponent - borliqqa bo'lgan emotsional munosabat.

Nazariyachilar ta'lim mazmunini darajalari to'g'risidagi g'oyalarni ilgari surmoqdalar:

1 Umumnazariy daraja.

2 O'quv predmeti darajasi

3 O'quv material darajasi.

Demak, yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, ta'lim mazmunini shakllantirishga ta'sir etuvchi omil sifatida jamiyat ehtiyojini, jamiyatni maktab oldiga qo'yadigan maqsadini, ta'lim jarayonini real imkoniyatlarini o'quvchilarini imkoniyatlarini hamda shaxsni ma'lumotga bo'lgan ehtiyojini ko'rsatishimiz mumkin.

Ta'lim mazmuniga ta'sir etuvchi omillarni hisobga olgan holda ta'lim nazariyasida ta'lim mazmuniga qo'yilgan talablar quyidagicha ifodalanadi.

Ta'lim mazmuni ta'limni barcha bosqichlarida ozod, erkin, mustaqil fikrlay oladigan shaxsni tarbiyalash maqsadiga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Ta'lim mazmuni ilmiy asosda asoslangan faktlar asosida qurilishi lozim.

Har bir o'quv predmeti bo'yicha ta'lim mazmuni o'sha fanning logikasi va tizimiga mos bo'lishi kerak.

Ta'lim predmetlarida aloqadorlik asosida qurilishi lozim.

Ta'lim mazmunida nazariya bilan amaliyot aloqadorligi aks etishi kerak.

Ta'lim mazmuni o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlariga mos bo'lishi lozim.

Shunday qilib ta'lim mazmuni - bu ko'p darajali pedagogik modelning ijtimoiy buyurtmasi, bu didaktikada ta'limni mazmuniy (ichki) tomonini ifodalaydi.

Ma'lumotlar ko'lamining oshishi, fan va texnikaning rivojlanishi bilan «ta'lim mazmuni» tushunchasi mohiyati qayta ko'rib chiqildi. Rus olimi V.S.Lednevning ta'kidlashicha, ta'lim mazmuni - bu faoliyatning biror bir turi bo'yicha bajarish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar tizimidir. Demak, ta'lim mazmuni deganda ta'lim jarayonida o'qituvchi tomonidan berilishi o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi kerak bo'lgan bilim, ko'nikma, makalalar va shaxsda shakllanishi zarur bo'lgan insoniy sifat hamda fazilatlar yig'indisini tushunamiz.

Pedagogikada ta'lim mazmunini shakllantirishning bir necha nazariyalari, paradigmasi va konsepsiyalari mavjud.

Dixotomik yondashuvga asosan «nazariya», «paradigma» va «konsepsiya» tushunchalarini ko'rib chiqamiz. Dixotomiya (yunoncha dicha - ikki, tome - kesim) ikki qismga ajratishni ifodalaydi.

Dixotomik yondashuv - bu tushunchani ikki qarama-qarshi, bir-birini rad qilmaydigan, ammo teng quvvatga ega qismga ajratish.

Keng ma'noda nazariya - bu biror-bir hodisani ifodalovchi asosiy g'oyalar, prinsiplar, qonuniyatlar, tushuncha va kategoriyalar tizimi hisoblanadi. Demak, nazariya ta'lim mazmunini shakllanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Masalan, Ya.A.Komenskiyning «Buyuk didaktika» asari nazariyalarni ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qildi. XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida pedagogikada didaktik materializm (ensiklopedizm), didaktik formalizm, didaktik utilitarizm nazariyalari, XIX asrning ikkinchi yarmida - butun didaktik tizim nazariyasi K.D.Ushinskiy tomonidan yaratildi.

Paradigma - bu kasbiy faoliyat amaliyotida qo'llaniladigan ta'limot va aniq ilmiy g'oyalardir. «Paradigma» tushunchasida urg'u aynan «aniqlangan» so'ziga, ya'ni ilmiy holatlar va g'oyalar xilma-xilligiga yo'naltiriladi.

Konsepsiya - bu hali qo'llanilmagan, ammo amaliyotda o'zlashtirilishi zarur bo'lgan tushunishning aniq yo'li, asosiy nuqtayi nazar, boshlang'ich g'oya hisoblanadi. «Konsepsiya» tushunchasida asosiy so'z mavjud paradigmani to'ldiruvchi va rivojlanitruvchi tushunishning asosiy yo'lga qaratiladi.

Zamonaviy pedagogika fanida ta'lim mazmunini shakllanishining quyidagi paradigma va konsepsiyalarini jadvalda ko'rib chiqamiz.

Shunday qilib, ta'limning zamonaviy mazmuni o'quv predmeti sifatida asosiy g'oya va konsepsiyalar asosida shakllanadi. Demak, ta'lim mazmuni o'quv predmeti sifatida - bu yosh avlod uchun amaliy faoliyatni tashkil etish va o'z o'zini namoyon qilishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisini va kompetensiyalarni tushunamiz.

Har qanday o'quv predmeti mazmuni dinamik harakterga ega. Jamiyat ehtiyoji va zamonaviy fan holatini ifodalab, yangi ma'lumotlar bilan boyitilib, o'zgarib boradi. Masalan, hozirda ta'lim mazmunini demokratizatsiyalashtirish,

axborotlashtirish va gumanizatsiyalashtirish to'g'risidagi ma'lumotlar bilan boyitilganligini ko'rishimiz mumkin.

Ta'lim mazmunini shakllantirishning asosiy konsepsiyasi va paradigmasi

1-jadval

Gumanistik Paradigm	Faoliyat konsepsiya	Shaxsga yo'naltirilgan
1. Ta'lim mazmuni - bu o'quvchilarni har tomon- rivojlantirish va ularda dialektika dunyoqarashni shakllantirish uchun o'z-o'zini rivojlantirish va malakalar ko'lamidir. N. V. Savin	Ta'lim mazmuni -bu o'qiluvchining pedagogik, innovatsion, amoni o'z-o'zini boshqarish va subyekti bo'lishi uchun xizmat qiladigan bilim, ko'nikma va malakalari tizimidir V.S. Lazarev	Ta'lim mazmuni pedagog shaxsni rivojlantirishga yo'naltirilgan asosiy kasbiy sifat va vazifalar (kompetensiya va) yig'indisi E.F.Zeer
2. Ta'lim mazmuni - bu insonni madaniyat, jamiyat, davlat bilan o'zaro aloqadorligi qonuniyatlarini, shaxsni shakllanish jarayoni, o'ziga va boshqalarga munosabati, faoliyatda individual ijodiy kuchlarini qo'llash to'g'risidagi bilimlar tizimi V.A. Slastyonin		

Ta'lim mazmuni quyidagi vazifalarni bajaradi:

- axborot yetkazuvchi, turli fanlar to'g'risidagi ma'lumotlarni ifodalaydi;
- metodologik, fan metodologiyasi bilan qurollantirish;
- ta'limiy, bilim, ko'nikma va malakalar bilan tanishtirish;
- rivojlantiruvchi, shaxsda jismoniy, ijodiy, hissiy, intellektual sifatlarni shakllantirish;
- tarbiyaviy, munosabatni ifodalovchi sifat va fazilatlarni shakllantirish.

8.2. Ta'lim mazmunini shakllantirishning asosiy nazariyalari

Ta'lim mazmuni tarixiy harakterga ega. U jamiyatni u yoki bu bosqichda ta'limning maqsadi va vazifalaridan aniqlanadi. Har qanday ijtimoiy tuzumda ta'lim mazmuni bir xil bo'lmaydi. Ta'lim mazmuni hayot talablari, ishlab chiqarish va ilmiy bilimlarning rivojlanish darajasi ta'sirida o'zgaradi.

Ta'lim mazmunini shakllanishini asosiy nazariyalari XVIII asr oxirlari -- XIX asr boshlarida paydo bo'lib, ta'lim mazmunini moddiy va formal nazariyasi nomini olgan.

Ta'lim mazmunining moddiy nazariyasi (didaktik materializm yoki ensiklopedizm nazariyasi) tarafdorlarining fikricha, ta'limning asosiy maqsadi o'quvchilarga turli fan sohalari bo'yicha imkoni boricha ko'p miqdorda bilimlar bilan qurollantirish deb hisoblaydilar. Bu fikrni o'z davrida (Ya.A. Komenskiy, G

Spenser v.b.) ham ta'kidlab o'tganlar. Hozirgi paytda ham ushbu qarash tarafdorlari mavjud.

Ta'lim mazmunining formal nazariyasi (didaktik formalizm nazariyasi) tarafdorlari ta'limni o'quvchilar qobiliyatini, bilish qiziqishlarini, diqqatini, xotirasini, tasavvurlarini, fikrlashlarini rivojlantirish vositasi deb qaraydilar. Ular bilimning manbai aql deb hisoblaydilar. Shuning uchun insonni ongini va qobiliyatlarini rivojlantirish zarur deb ta'kidlaganlar. Bu nazariya o'z davrida Dj.Lokk, I. G. Pestalotsi, I. Gerbartlar tomonidan ham qo'llab-quvvatlangan.

Yuqoridagi ta'lim mazmunining moddiy va formal nazariyalari rus pedagogi K. D. Ushinskiy tomonidan tanqid qilingan. Uning fikricha, maktab o'quvchini bilim bilan boyitib, uni qo'llashga o'rgatib, intellektual kuchlarini rivojlantirishi kerak. Ushinskiy zamonaviy pedagoglar tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgan didaktik materializm va formalizm g'oyalari birlashtirish fikrini ilgari surgan.

XIX oxiri XX boshlarida ta'lim mazmunini shakllantirishning didaktik pragmatizm nazariyasi (didaktik utilitarizm) nazariyasi paydo bo'ldi. Ushbu nazariyaning asosi AQSHda Dj.Dyui, Yevropada nemis pedagogi G. Kershenshteyner tomonidan yaratilgan. Ushbu nazariya tarafdorlarining ta'kidlashicha, ta'lim mazmunining manbai alohida o'quv predmetlari emas, balki o'quvchining ijtimoiy va individual faoliyatidir. Ta'lim mazmuni predmetlararo bilimlar tizimi ko'rinishida bo'lib, o'quvchilardan jamoatchilik hamkorlik asosida o'zlashtirilishi zarur deb hisoblaydilar.

Ta'limning turli o'yin shakllari, amaliy mashg'ulotlar, individual mustaqil ta'lim o'quvchilar faoliyatini va fikrlashni faollashtiradi.

Didaktik pragmatizm nazariyasi amerika maktablaridagi o'quv ishlari mazmuni va metodlarini o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mutaxassislarning fikricha, bu nazariya amerika ta'lim darajasini pasavishiga olib keldi. XX asrning birinchi yarmidavoq tanqidga uchradi.

XX asrning 50-yillariga kelib, buyuk polyak pedagogik V. Okon ta'lim mazmunini funksional materializm nazariyasini yaratdi. Uning fikricha, o'quvchi o'zlashtirgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olishni bilishlari kerak. Ya'ni bilish va faoliyat o'rtasida integral aloqa zarur deb hisoblaydi.

Yuqoridagi nazariyalar tahlilidan shu ma'lumki, ta'lim mazmuni ham yillar o'tishi bilan o'zgarib turishi harakterlanadi. Ta'lim mazmuniga obyektiv va subyektiv omillar ta'sir qiladi. Obyektiv omilga jamiyat ehtiyoji, fan-texnika rivojlanishi kiradi.

Subyektiv omilga esa nazariyachilarning metodologik qarashlari hamda jamiyatni boshqavotgan sinflarning siyosati kiradi.

Demak, yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, ta'lim mazmunini shakllantirishga ta'sir etuvchi omil sifatida jamiyat ehtiyojini, jamiyatni maktab oldiga qo'yadigan maqsadini, ta'lim jarayonini real imkoniyatlarni, o'quvchilarni imkoniyatlarini hamda shaxsni ma'lumotga bo'lgan ehtiyojini ko'rsatishimiz mumkin.

Ta'lim mazmuniga ta'sir etuvchi omillarni hisobga olgan holda ta'lim nazariyasida ta'lim mazmuniga qo'yilgan talablar quyidagicha ifodalangani.

1. Ta'lim mazmuni ta'limni barcha bosqichlarida ozod, erkin, mustaqil fikrlay oladigan shaxsni tarbiyalash maqsadiga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

2. Ta'lim mazmuni ilmiy asosda asoslangan faktlar asosida qurilishi lozim.
3. Har bir o'quv predmeti bo'yicha ta'lim mazmuni o'sha fanning logikasi va tizimiga mos bo'lishi kerak.
4. Ta'lim predmetlarida aloqadorlik asosida qurilishi lozim.
5. Ta'lim mazmunida nazariya bilan amaliyot aloqadorligi aks etishi kerak.
6. Ta'lim mazmuni o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlariga mos bo'lishi lozim.

8. 3. Ta'lim mazmunini tanlash prinsiplari va mezonlari

Ta'lim mazmunini shakllantirish zamonaviy ta'limni asosiy rivojlanish yo'nalishlari bilan bog'liq. Ta'limni rivojlanishining asosiy tendensiyalari mohiyatini «ta'lim» tushunchasini o'rganish orqali tushunishimiz mumkin. Shuning uchun ushbu tushunchani ko'rib chiqamiz.

Ma'lumki, «ta'lim» pedagogikani asosiy tushunchasi hisoblanadi. Ta'lim - bu ta'lim, tarbiya, rivojlanish jarayonlaridan hosil bo'luvchi, maxsus tashkil etilgan tizim bo'lib, unda shaxsni bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishi hamda ularda dunyoga bo'lgan ijodiy munosabat shakllanadi.

Bugungi kunda O'zbekistonda va dunyoning ko'plab mamlakatlarida natijaga yo'naltirilgan, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosi hisoblangan ta'limning yangi modelini qurish davom etmoqda.

Ta'lim tizimini modernizatsiya qilishning barcha tadbirlari me'yoriy-huquqiy hujjatlarda «Ta'lim to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida o'z aksini topgan.

Zamonaviy ta'limni modernizatsiya qilishning asosiy yo'nalishlari quyidagilar.

Fundamentalizatsiyalashtirish - bu ta'limni sistemali tarzda fundamental bilimlar va ijodiy tafakkur yo'llari bilan, borliq va hodisalarni bilish prinsiplari, metodologik asoslari, nazariyalari bilan boyitib borish.

Pragmatizatsiyalashtirish - bu fundamentalizatsiyalashtirishning asosiy yo'nalishi hisoblanadi. Pragmatizatsiyalash - bu ta'limda amaliyotni kuchaytirish. U yosh avlod faoliyat xususiyatlarini yoshlar tomonidan o'zlashtirinishini taqozo etadi.

Metodologizatsiyalashtirish - bu ta'lim mazmunini zamonaviy ilmiy yondashuvlar, tizimli, dinamik, umumlashgan bilimlar tizimi bilan boyitilishi.

Integratsiya zamonaviy ta'limni rivojlanish qonuniyatlari va istiqbollarini tushunish hamda element va komponentlar yig'indisidan hosil bo'lgan butun bir tizimni ifodalaydi.

Standartlashtirish - davlat darajasida qabul qilingan o'quvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo'yilgan talab va me'yorni belgilaydi. Ko'pvariantlilik - variativ o'quv predmetlarini o'rganish va barcha o'quvchilarga o'zlarini ta'limiy ehtiyojlarini amalga oshirish uchun sharoit yaratish. Uzlüksizlik - fanlarni o'qitish akademik davrlarini ta'lim bosqichlari bo'yicha ta'lim mazmunining uzlüksizligi prinsipi asosida qayta ko'rib chiqish.

Texnologizatsiyalashtirish - ta'lim mazmunini o'rganish qoida va algoritmlarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Insonparvarlashtirish - yoshlarni imkoniyatlarini hisobga olgan holda ularni shaxsni individual rivojlanishlari uchun sharoit yaratishni nazarda tutadi.

Axborotlashtirish - bu ta'lim mazmunini zamonaviy axborotlar bilan boyitish.

Markazlashtirish - ta'lim mazmuniga qo'yilgan talablarni O'zbekiston Respublikasi XT va OO'MTV aniqlaydi.

Internatsionalizatsiya ta'lim mazmunini turli xalq va millatga tegishli umuminsoniy g'oyalari bilan to'ldirishga yo'naltirilishini va ta'limni tashkil etishda xalqaro tajribalarni hisobga olishni taqozo etadi.

Siyosiy mafkura - ta'lim mazmunida demokratik jamiyat va huquqiy davlatning asosiy g'oyalarini ifodalashi.

Plyuralizatsiya ta'limda turli ilmiy yo'nalishlar hamda maktablarning konsepsiya va paradigmatlarini mavjudligini ifodalaydi.

Ta'lim mazmunini shakllanishi nafaqat ta'lim tizimini rivojlanish yo'nalishlariga, balki ta'lim mazmunini shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarga ham bog'liq.

- 1) maqsad, jamiyatning ta'lim tizimiga qo'ygan ijtimoiy buyurtmasi;
- 2) jamiyat ehtiyoji;
- 3) ta'limga bo'lgan shaxs ehtiyojlari.

Ta'lim mazmunini aniqlovchisi sifatida quyidagi determinantlarni ko'rib chiqamiz: ijtimoiy-iqtisodiy (iqtisodiyot turi, ijtimoiy munosabatlar turi, fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanish darajasi); ijtimoiy-madaniy (madaniyat turi, siyosiy tuzum va uning mafkuraviy yo'nalishi, davlatning ta'lim siyosati, pedagogika fanining rivojlanish darajasi, pedagogika fani va pedagogik amaliyot o'rtasidagi aloqadorlik, O'zbekistondagi ta'lim sohasidagi xalqaro hamkorlik yo'nalishi); tashkiliy-pedagogik (ta'lim tizimi tuzilishi va uni tashkil etish prinsiplari, pedagogik amaliyotni rivojlanish istiqbollari va holati, ta'lim tizimini boshqarish modeli).

Ta'lim mazmunini tuzilishiga qo'yilgan talablar sifatida:

- tizimlilik - ta'lim mazmuni o'zlashtirish uchun mo'ljallangan borliq to'g'risidagi ma'lumotlar tizimining qismi hisoblanadi;

- butunligicha qabul qilish -idrok qilish uchun mo'ljallangan ma'lumotlar o'zaro aloqador elementlarni ifodalaydi;

- uzluksizlik - ma'lumotlarni bir butunlikda va tizimlilikini ta'minlovchi ma'lumotlarni ketma-ket bayon qilish;

- o'quv materialini asosiy, tayanch va qo'shimcha ma'lumotlarga ajratib tanlash;

- yangi ma'lumotlarni o'zlashtirilganlari bilan mantiqiy bog'lanishini ta'minlash;

- mazmunni dolzarbligi - yosh avlodni kelgusi faoliyati uchun o'quv axborotini amaliy ahamiyati;

- mazmunni texnologiyalashtirish -ta'lim mazmunini samarali o'zlashtirish uchun maxsus ishlab chiqilgan jarayon;

Yuqoridagi ta'lim mazmuniga ta'sir etuvchi omillar, determinantlar va talablar asosida ta'lim mazmunini tanlash mezonlariga quyidagilar kiradi:

- ta'lim mazmunida jamiyat ehtiyoji va maqsadini ifodalashi,

- ta'lim mazmunini ilmiy va amaliy ahamiyati,
- ta'lim mazmunini kasbiy talablarga mosligi;
- uzluksiz ta'limda maqsadni yaratish;
- ta'lim mazmunini ishlab chiqishda xalqaro tajribalarni hisobga olish;
- ta'lim mazmunini ta'lim muassasasini uslubiy, moddiy-texnik imkoniyatlariga mosligi.

Shunday qilib, ta'lim mazmunini shakllantirishning yo'nalishlarini unga ta'sir etuvchi omillarni, ta'lim mazmunini shakllantirish mezonlari ko'rib chiqildi.

Ma'lumki, har qanday o'quv fanining mazmuni, uni o'qitishning maqsadi bilan belgilanadi. Jamiyat o'zining rivojlanishi ehtiyojlaridan kelib chiqib, ta'lim mazmuniga va har bir o'quv fani oldiga o'ziga xos, yangicha vazifalar qo'yadi. Har bir o'quv fani bu vazifalarni o'zida turlicha yo'nalishda aks ettiradi.

Ta'lim mazmunini konstruksiyalash - bu o'quv predmeti mazmunini loyihalash, ya'ni me'yoriy hujjatlar tavsiyasiga ko'ra maqsadni shakllantirish, tuzilishni aniqlash, o'quvchilar faoliyatini rejalashtirish.

Pedagogik amaliyotda ta'lim mazmunini loyihalashtirishda bilimga yo'naltirilgan (an'anaviy) va fazilatga yo'naltirilgan (innovatsion) yondashuvlari mavjud.

Ta'lim mazmunini darajali konstruksiyalash rus didakshunoslari V.V.Krayevskiy va I. Ya. Lernerlar tomonidan ilgari surilgan. Oliy ta'limda o'quv predmeti mazmunini qurishda darajali va kompetentli yondashuvlar mavjud.

Birinchi darajali konstruksiyalashda bilimlar to'g'risidagi nazariy tasavvurlar me'yoriy harakter asosida quriladi. Uning asosida ta'lim mazmunining nazariy konsepsiyalari ishlab chiqiladi, uning tarkibi, funksiyalari, tuzilishi aniqlanadi, fanlarni rivojlanish mantig'i va zamonaviy holati ifodalanadi, o'quv predmeti sifatida uning mantig'i aniqlashtiriladi.

Ikkinchi darajali konstruksiyalashda o'quv predmetining har bir o'quv modullari tuzilishi va funksiyalari modellashtiriladi, o'quv dasturlari, fanlarni o'qitishning ilmiy asoslangan texnologiyalari ishlab chiqiladi.

Uchinchi darajali konstruksiyalashda o'quv predmeti fundamental bilimlarni, tayanch va maxsus kompetensiyalarni, bilish faoliyati yo'llarini, umumiy ko'nikma va kompetensiyalarni ifodalaydi. Ushbu darajada ta'lim mazmuni o'quv dasturi, o'quv qo'llanma, talabalar va o'qituvchilar uchun o'quv-uslubiy materiallar ko'rinishida rasmiylashtiriladi.

To'rtinchi darajali konstruksiyalashda ta'lim mazmuni ta'lim jarayonini modellashtirish bilan aloqadorlikda yaratiladi. Kompetentli yondashuv ta'lim amaliyotida loyhali, o'yin, dialog, o'qitishda kompyuter texnologiyalarni qo'llanishini ifodalaydi.

Beshinchi darajali konstruksiyalashda ta'lim mazmuni ta'limni uzluksizligi prinsipiga amal qilinishiga yo'naltiriladi. Shunday qilib darajali va kompetensiyali yondashuv asosida o'quv predmeti mazmunini loyihalashtirishda fanni rivojlanish darajasini, yoshlarni bo'lg'usi kasbiy faoliyati harakterini, ta'lim masalalarining nazariy darajasini inobatga olinishini taqozo etadi.

Ta'lim mazmunini loyihalashtirishda quyidagi prinsiplarga asoslaniladi:

- maqsadga yo'naltirilganlik, ta'lim mazmunini yosh avlodni kasbiy tayyorgarligi va vazifasiga bog'liqligi;

- ilmiylik, ta'lim mazmunini zamonaviy fan yutuqlariga mosligi;

- fundamentalilik, ta'lim mazmunida fanni metodologik holatlarini kiritilishi;

- birbutunlilik, o'rganilayotgan predmetni nazariy va amaliy tomonlarini birligiga amal qilish;

- integratsiya (o'zaro aloqadorlilik), hodisa va jarayonlarni birbutunligini ta'minlovchi predmetlararo va predmet ichidagi aloqadorlikni o'rnatish;

- modullilik, ta'lim mazmunini modullar ko'rinishida tasvirlash;

- faoliyatlilik, kasbiy normalar o'zlashtiriladigan faoliyat fragmentlarini modellashtirish;

- individuallashtirish, bilim, ko'nikma va malakalar tizimini o'zlashtirilishini mazmun va metodini o'quvchilar tayyorgarlik darajasiga bog'liqligini ta'minlash;

- me'yoriylilik, ta'lim mazmunini davr talablariga mosligi.

Bugungi kunda yosh avlodni tarbiyalashda quyidagi talablar tizimiga asoslanilmoqda.

- pedagog - bu sifatleri faoliyat obyekti sifatlariga mos keluvchi shaxs;

- pedagog uning faoliyat obyekti - ta'lim-tarbiya masalalari hal qilinadigan, o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorligini ifodalovchi butun pedagogik jarayon ekanligini bilishi kerak.

- Butun pedagogik jarayon vazifalari faoliyat subyektlarning hamkorligi va o'zaro ta'sirida samarali bo'lishi mumkin

- Pedagog hamisha faoliyatga tayyorgarlikni, ya'ni pedagogik bilim va malakalarni o'zlashtirgan bo'lishi kerak

8.4. Davlat ta'lim standarti

Ta'limni standartlashtirish zaruriyati ta'lim sohasini ijtimoiy hodisa sifatida o'zgarishiga olib keldi. O'zbekistonni demokrativaga, bozor munosabatlariga, shaxs ozodligi va huquqlariga e'tibori o'sishi ta'lim sohasidagi davlat siyosatini o'zgarishiga olib keladi. Endi ta'lim sohasi davlat manfaatlariga emas, balki shaxsni ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan. Bu o'z navbatida ta'limni tashkil etishda o'zgarishlarga olib keldi. O'quv muassasalari ta'lim shakli, metod va mazmuni soliasida mustaqillikka erishildi.

«Standart» tushunchasi inglizcha standart so'zidan olingan bo'lib, «me'yor, namuna, o'lehov» ma'nolarini anglatadi.

Ta'lim standarti — bu bitiruvchini umumiy ta'lim tayyorgarligiga qo'yilgan majburiy talablar darajasidir.

Ta'lim standarti bir tomondan davlatni fuqaro oldidagi, ikkinchi tomondan fuqaroni ta'lim sohasidagi davlat oldidagi majburiyatini ifodalaydi.

Demak, DTS to'g'risidagi Nizomda ko'rsatilganidek, DTS kadrlar tayyorlash sifatiga, ta'lim mazmuniga nisbatan qo'yiladigan talablarni, ta'lim oluvchilar tayyorgarligini zarur va yetarlicha darajasini handa ta'lim muassasalarini

bitiruvchilarga nisbatan qo'yiladigan malaka talablarini; o'quv yuklamasining zarur hajmini; ta'lim sifatini baholash tartibini va mexanizmini belgilaydi.

Davlat ta'lim standarti - bu me'yoriy hujjat bo'lib, bakalavrning kasbiy tayyorgarligiga qo'yilgan majburiy talab darajasini aniqlaydi. Pedagogik ta'limni standartlashtirish bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarligiga qo'yilgan talablar bilan bog'liq bo'lib, «me'yor», «namuna» sifatida ishtirok etadi.

Davlat ta'lim standartlari joriy etilishi quyidagi maqsadlar amalga oshirilishini nazarda tutadi:

- ta'limning yuksak sifatini hamda mamlakatda amalga oshirilayotgan chuqur iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar, rivojlangan demokratik davlat barpo etish talablariga javob beruvchi kadrlar tayyorlanishini ta'minlash.

- mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollaridan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqib kadrlar tayyorlash mazmunini tartibga solish;

- ta'limning demokratiylashuvi, insonparvarlashuvi va ijtimoiylashuvi, ta'lim oluvchilarning huquqiy-iqtisodiy bilimlari darajasini, shuningdek, ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish;

- sifatli ta'lim xizmatlari ko'rsatish, ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida shaxsning, jamiyat va davlatning manfaatlarini himoya qilish;

- kadrlar tayyorlash sifatini va ta'lim faoliyatini baholash mezonlarini va tartibini belgilash;

- ta'lim jarayoni va kadrlar tayyorlashning izchilligi va uzluksizligini ta'minlash, ta'limning barcha turlari va bosqichlarida o'quv-tarbiya jarayonini maqbullashtirish.

- mehnat va ta'lim xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni ta'minlash.

Davlat ta'lim standartlarining vazifalari:

- ta'lim sifatiga va kadrlar tayyorlashga, ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari nomenklaturasiga nisbatan qo'yiladigan maqbul talablarni belgilash;

- ta'limga va uning pirovard natijalariga, ta'lim oluvchilarning bilimi va kasb-kor malakasi darajasini vaqt-vaqti bilan baholash tartibi va tartibotiga, shuningdek, ta'lim faoliyati sifati ustidan nazorat qilishga nisbatan qo'yiladigan tegishli talablarni belgilovchi me'yoriy bazani yaratish;

- xalqning boy intellektual merosi va umuminsoniy qadriyatlar asosida ta'lim oluvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish;

- ta'limning barcha turlari mazmunini, ta'lim va tarbiyani kelishish va ularning o'zaro bog'liqligini uzluksiz ta'lim tizimida va kadrlar tayyorlashda izchillikni ta'minlash.

- o'quv tarbiya va ta'lim jarayoniga, uzluksiz ta'lim tizimining pedagogik texnologiyalariga va axborot bilan ta'minlanishiga, ta'lim darajasini nazorat qilishga, ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilar va ularni bitiruvchilarning malakasiga nisbatan me'yorlar va talablarni belgilash;

- ta'lim va kadrlar tayyorlash sifatiga baho berishning xolis tizimini, ta'lim muassasalarini attestatsiyadan o'tkazish va akkreditatsiya qilishni joriy etish.

- kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta'lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta'minlash;

milliy standartlar talablarining ta'lim sifati va kadrlar tayyorlashga nisbatan xalqaro talablarga muvofiqligini ta'minlash.

Umumiy o'rta ta'limning maqsad va vazifalari.

Davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalash hamda shaxsning ta'lim olish huquqini ro'yobga chiqarish umumiy o'rta ta'limning maqsadi hisoblanadi.

Umumiy o'rta ta'lim bilimlar zarur hajmiga asos soladi, o'quvchilarda tashkilotchilik qobiliyatlari va amaliy tajriba ko'nikmalarini rivojlantiradi, dastlabki kasb yo'nalishini va ta'limning keyingi bosqichini tanlashga ko'maklashadi. Umumiy o'rta ta'limning vazifalari:

- o'quvchilar tomonidan muntazam bilimlar olinishini ta'minlash, ularda bilim olish ehtiyojini rivojlantirish, bazaviy o'quv, ilmiy va umummadamy bilimlarni shakllantirish;

- o'quvchilarda mehnat ko'nikmalarini, ijodiy mustaqil fikrlashni, kasb tanlashga va atrof-olamga ongli munosabatni hosil qilish;

- milliy hamda umumbashariy qadriyatlarini uzviy birlashtirish asosida o'quvchilarda yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarini tarbiyalash, o'z vataniga va xalqiga sodiq fuqarorni shakllantirish;

- ta'limning uzluksizligini va izchilligini, maktab o'quv dasturlarining akademik litseylar va kasb-hunar kollejlaridagi o'quv dasturlari bilan uzviy o'zaro bog'lanishini ta'minlash.

Umumiy o'rta ta'lim muntazam bilimlar olinishini, keng dunyoqarash hamda ijodiy mustaqil fikrlash shakllantirilishini, o'quvchi shaxsi qaror topishini, uning qiziqishlari va ijtimoiy o'zini-o'zi aniqlab olish qobiliyatlari rivojlan-tirishini ta'minlaydi.

8.5. Ta'lim mazmunini aks ettiruvchi me'yoriy hujjatlar

Ta'lim mazmuni me'yoriy hujjatlarda Davlat ta'lim standartida, o'quv rejasida, o'quv dasturida va o'quv darsliklarida o'z aksini topadi.

Davlat ta'lim standartida asosida o'quv rejasida, o'quv dasturi va o'quv darsliklari ishlab chiqiladi.

O'quv reja ta'lim sohalarini me'yorlash hamda ta'lim muassasalarini moliyaviy ta'minotini belgilashga asos bo'luvchi davlat hujjati sanaladi. Tayanch o'quv rejasida o'quv predmetlari bo'yicha beriladigan ta'lim mazmunini o'quvchiga yetkazish uchun ajratilgan o'quv soatlarining minimum hajmidagi miqdorini belgilaydi. Mazkur hujjat muayyan sinfda ma'lum o'quv predmeti bo'yicha davlat ta'lim standartlariga muvofiq beriladigan ta'lim mazmunini aniqlashga asos bo'ladi.

O'quv dasturi ham xuddi o'quv rejasidek muhim davlat hujjati bo'lib, unda muayyan o'quv predmeti mazmuni ochib beriladi va o'quv yili davomida o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar hajmi ko'rsatiladi.

O'quv dasturlari tegishli ta'lim (umumiy o'rta, kasb-hunar voki oliy ta'lim) turidagi barcha ta'lim muassasalari uchun yagona, uning talablari to'la ravishda bajarilishi majburiydir.

Dastur tushuntirish xati, bo'lim va mavzular bo'yicha ajratilgan soatlar hajmi, dastur materiali mazmuni hamda tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'ladi.

Tushuntirish xatida o'quv predmetining ahamiyati, uning fanlar tizimida tutgan o'rni, ular o'rtasidagi aloqadorlik, materialni o'rganish jarayonida hal etilishi lozim bo'lgan ayrim bo'lim va mavzularni o'rganish xususiyatlari ko'rsatiladi. O'qitish (ta'lim) metodlari va vositalarini qo'llashga doir tavsiyalar beriladi.


Soatlar hisobini asosli o'rinlarda o'zgartirilishiga yo'l qo'yiladi.

Dastur materiali bo'limlar va mavzular bo'yicha taqsimlangan bo'lib, har bir mavzuni o'rganish uchun o'zlashtirishi majburiy bo'lgan tushunchalar tizimini, shuningdek, ko'nikma va malakalarning aniq ko'rsatkichi beriladi, nihovat, o'quvchilarga qo'yiladigan yakuniy talablar bayon etiladi.

Dasturdagi material ta'lim va tarbiya maqsadlari, didaktik tamoyillar uzviylik va izchillikka muvofiq ravishda tanlanadi va taqsimlanadi.


Fanlar bo'yicha o'quv dasturi uch xil chiziqli, konsentrik va spiralli turda quriladi.

Dasturni chiziqli usulda yaratish mohiyati shuki, bunda o'quv materialining alohida qismlari o'zaro bog'langan uzluksiz ketma-ketlikda joylashtiriladi. Har bir qism faqat bir marta o'rganiladi. Yangi material mazmuni o'rganilgan material asosida bog'langan tarzda o'rganiladi.




3- rasm. Dasturni chiziqli usulda tuzish

Konsentrik usulda tuzilgan dasturda bir material bir necha bor asta-sekinlik bilan murakkablashtirish, mazmuni yangi aloqalar hisobidan to'ldirish orqali o'zlashtiriladi.



4- rasm. Konsentrik usulda dastur tuzish

Dasturni spiralli usulda qurish o'quv materialini ketma-ket va siklik tarzda qurishni taqozo etadi



5-rasm. Spiralli usulda dastur tuzish.

O'quv dasturi darslik va o'quv qo'llanma yaratish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Darslik - bu aniq soha bo'yicha fan va madaniyat yutuqlarini zamonaviy darajadagi fan asoslarini tizimli ifodalovchi, ta'lim va tarbiyaning maqsad hamda vazifalarga javob beruvchi kitob.

O'quv darsligida o'quv dasturining aniq, to'la mazmuni o'z ifodasini topadi. Darslik bilimni asosiy manbai hisoblanadi. U yordamida o'quvchilarning mustaqil ishlari tashkil etiladi va u ta'limni asosiy vositasi hisoblanadi. Darslik o'quvchiga o'qishni o'rgatishi kerak. Darslikdagi o'quv materialini mazmuni o'quvchilarni yosh imkoniyatlariga mos bo'lishi kerak.

0. Roziqovning ta'kidlashicha, o'quv darsliklari quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1. Bilish, o'rganish, izlanishga oid qiziqishlarni oshirish funksiyasi.

2. Hayotning turli sohalariga oid bilimlarni egallash, ularning hajmi, mazmunini kengaytirish funksiyasi.

3. O'rganilgan bilimlardan o'quv sharoitida, hayotiy muammolarni hal qilish jarayonlarida foydalanish funksiyasi.

4. Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish funksiyasi.

5. Munosabatlarni shakllantirish funksiyasi.

O'quv qo'llanma - bu ma'lum bir fan asoslari muallifning ilmiy qarashlari va nuqtayi nazariga qarab yaratiladigan kitob. O'quv qo'llanmada mustaqil ish uchun tavsiya etilgan uslubiy tavsiya, lug'at, nazorat uchun savollar berilishi mumkin.

Darslik va o'quv qo'llanmalar - bu o'quvchilarni mustaqil ishlarni tashkil etish va bilim manbai sifatida ta'limning didaktik vositasi hisoblanadi.

Darslik va o'quv qo'llanmasi quyidagi didaktik mezonlarga javob berishi kerak:

- pedagogik bilimlarni tizimli va har taraflama bayon etish,

- zaruriy va faktik materiallarni aniq ifodalash,

- qisqa va lo'nda ifodalash,

- ifodalashni mosligi;

- uslubiy apparatni mavjudligi (mustaqil ish uchun topshiriqlar, nazorat uchun savollar, tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati va b.);

- turli xildagi ko'rgazmalilikni qo'llanilishi (jadvallar, sxemalar, grafiklar, simvollar).

Fanga tegishli shunday mavzular borki, ularni mazmuni ilmiy adabiyotlarda monografiya va ilmiy maqolalarda ochib beriladi.

Monografiya - bu biror bir ilmiy muammoga bag'ishlangan, mazmunida nazariy metodologik yoki nazariy eksperimental hamda tarixiy pedagogik tadqiqot natijalari yoritilgan ilmiy nashr. Monografiyada tadqiqotchining mualliflik nuqtayi nazari asoslanadi.

Ilmiy maqola -bu tadqiqodchining muammo bo'yicha xulosalari va natijalari maqsadi, metodikasi aniq ifodalangan ishidir. Maqola mazmuni muallifning qarashlarini ifodalaydi.

Ta'kidlash joizki, ilmiy adabiyotni darslik va o'quv qo'llanmadan farqi shuki, uning asosiy vazifasi u yoki bu ilmiy va amaliy muammo bo'yicha ilmiy ma'lumotlar to'g'risida xabar berish hisoblanadi. O'quvchilarga ilmiy adabiyotlarni o'qish va tahlil qilish bo'yicha tavsiyalar berish zarur.

Nazorat uchun savollar

1. Ta'lim mazmuni deganda nimani tushunamiz?
2. Ta'lim mazmuni mohiyatini aniqlashga bo'lgan qanday yondashuvlar mavjud?
3. Ta'lim mazmunini tanlash prinsiplari va mezonlari qaysilar?
4. Davlat ta'lim standarti qanday hujjat?
5. Ta'lim mazmunini aks ettiruvchi me'yoriy hujjatlarga qaysilar kiradi?
6. Ta'lim mazmunini aks ettiruvchi me'yoriy hujjatlar tuzilishini izohlang?

9. TA'LIM METODLARI VA VOSITALARI

9.1. Metod tushunchasi va mohiyati.

9.2. Ta'lim metodlari evolutsiyasi.

9.3. Ta'lim metodlari klassifikatsiyasi.

9.4. Ta'lim vositalari.

9.5. Ta'lim metodlari va vositalarini tanlash.

9.1. Metod tushunchasi va mohiyati

Metod (yunoncha «metohodos» - yo'l) maqsadga eltuvchi yo'lni ifodalaydi.

Ta'lim metodi -ta'lim jarayonida shaxsm ta'limi, tarbiyasi, rivojlanishi vazifalarini hal qilishga yo'naltirilgan, o'zaro aloqador faoliyat yo'lidir, deb ta'rif beradi V. A. Slastyonin.

R.G. Lembergning fikricha, ta'lim metodlari faoliyat singari ikki tomonlama harakterga ega bo'lib, pedagogik jarayonda subyekt-subyekt munosabatlarini o'rnatadi.

M. M. Pistrakning ta'kidlashicha, «Ta'lim metodi—bu o'qituvchi qo'lidagi qurol, bu o'qituvchi harakati yo'lidir».

P. N. Shimbirevaning yozishicha, «taʼlim metodi —bu yoʻl, u yordamida oʻqituvchi oʻquvchilarni bilim oʻzlashtirish jarayonini tashkil etadi, boshqaradi».

M. N. Skatkinning taʼkidlashicha, «taʼlim metodi bu—oʻquvchini bilimni oʻzlashtirishga yetaklovchi yoʻlidir».

I. Ya. Lerner «taʼlim metodi—bu oʻquvchilarni oʻquv-biluv faoliyatini tashkil etish yoʻli»dir deb taʼkidlaydi.

Yu.K.Babanskiy «taʼlim metodi» — bu taʼlim, tarbiya, rivojlanish vazifalarini hal etish boʻyicha oʻqituvchi va oʻquvchining aloqador faoliyati yilidir» deb taʼkidlaydi.

Taʼlim metodi —bu oʻqituvchining oʻquvchilarni oʻquv materialini oʻzlashtirishga, turli didaktik vazifalarni hal etishga yoʻnaltirilgan, oʻquv-biluv faoliyatini tashkil etish yoʻlidir deb taʼkidlaydi I. F. Harlamov.

G.M.Kodjaspirovaning taʼkidlashicha, «taʼlim metodi — taʼlim mazmunini oʻzlashtirilishini, oʻquvchilarni aqliy qobiliyatlarni rivojlanishini taʼminlovchi, oʻqituvchi va oʻquvchining ketma-ket, oʻzaro aloqador harakatlari tizimidir.

Taʼlim metodini uch xil belgi harakterlaydi. U taʼlim maqsadini, oʻzlashtirish yoʻllarini, taʼlim subyektlarini oʻzaro bogʻliqlik harakatlarni aniqlaydi.

Taʼlim metodi—bu taʼlim vazifasini hal qilishga yoʻnaltirilgan, oʻqituvchi va oʻquvchini birgalikdagi faoliyatidir.

Shuni taʼkidlash kerakki, taʼlim metodlarining yagona taʼrifi yoʻq. Ular oʻqituvchi va oʻquvchilarning taʼlimiy-tarbiyaviy vazifalarini hal qilishga qaratilgan oʻzaro hamkorlikdagi faoliyat usullarining tartibga solinishidir.

Umuman, taʼlim metodlarining majmuyi — atrofdaqi voqelikni bilishning yoʻli, deya xulosa chiqarish mumkin. Oʻquvchilar aqliy kamol topishining harakterini belgilaydigan yoʻl bilimlarni oʻzlashtirish imkoniyatini yaratadi, shaxsning xususiyatlarini shakllantiradi. Oʻqitishning maqsadi insoniyatning tajribasini oʻzlashtirishning oʻzidir. Taʼlim nazariyasi oʻqitish metodlarini insoniyat tajribasidan oladi va ularni oʻquv mashgʻulotlarga moslashtiradi. Shuning uchun oʻqitish metodlari doimiy ravishda yangilanadi, takomillashadi, fan-texnikaning rivojlanishi va ijtimoiy rivojlanish asosida yangi metodlar vujudga keladi.

Metod strukturasiqa oʻqitish usullari kiradi. Lekin metod mazkur usullar majmuyidan iborat emas. Usul oʻqituvchi yoki oʻquvchilar aqliy yoki amaliy ishining alohida xatti-harakatlari boʻlib, ular mazkur metodda tavsiya etilgan materialni oʻzlashtirish shaklini toʻldiradi. Masalan, oʻqituvchi eslab qolish usulini beradi. Usul metoddan ajraladi, oʻzining bilimlarini oʻzlashtirishdagi va koʻnikmalar hamda malakalarni shakllantirishdagi ahamiyatini yoʻqotadi.

Oʻqitish usullarini quyidagilarga boʻlish mumkin:

- tafakkur, xotira, diqqat va xayolning alohida operatsiyalarini tarkib topturadigan va faollashtiradigan usullar;

- fikrlash faoliyatida muammoli va izlanishli vaziyatlarni vujudga keltiradigan usullar;

- oʻquvchilarning oʻquv materialini oʻzlashtirish bilan bogʻliq kechinmalari va hissiyotlarini faollashtiradigan usullar;

- nazorat va oʻquvchilarning oʻzini-oʻzi nazorat qilish usullari;

- o'qitish jarayonida o'quvchilarning jamoaviy va shaxsiy o'zaro munosabatlarini boshqarish usullari.

O'qitishning turli metodlariga bir xil usullarni kiritish mumkin. So'nggi yillarda pedagogika fani va maktab amaliyotida o'qitish metodlari muammosiga alohida e'tibor berilmoqda. Shu muammo bo'yicha anchagina tadqiqotlar bajarilmoqda, ilg'or pedagogik amaliyotda o'qitishning samarador metodlarini va tizimlarini qo'llashning talaygina yo'llari topildi. Ammo umumiy ta'lim maktabiga qo'yilayotgan yangi talablar o'qitishning metodlari va usullarini yanada takomillashtirishni talab qilmoqda.

9.2. Ta'lim metodlari evolutsiyasi

Ta'lim metodlari — tarixiy kategoriya hisoblanadi. Fan-texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarish munosabatlari harakteri va ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanganlik darajasi pedagogik jarayon maqsadi, mazmuni, vositalariga ta'sir qiladi. Ularning o'zgarishi bilan ta'lim metodlari ham o'zgaradi.

Kishilik jamiyatning dastlabki rivojlanish bosqichlarida ijtimoiy tajribani kelgusi avlodlarga o'tkazish stixiyali tarzda amalga oshirilgan. Bolalar asosan mehnat ko'nikmalarini kattalar tomonidan bajarilgan harakatlarni kuzatish va takrorlash yo'li bilan o'zlashtirganlar. Ta'lim metodlari asosan taqlidga asoslangan. Kattalarga taqlid qilib, bolalar usti-boshlarni tayyorlash, oziq-ovqat topish yo'l va usullarni o'zlashtirganlar. Bularning asosida ta'limning reproduktiv metodi («men kabi bajar»). Bu o'qitishning eng qadimiy metodi bo'lib, keyinchalik boshqa metodlar paydo bo'ldi. Bilimlar ko'lamining oshishi, madaniy tajribalarni o'zlashtirish darajasini taqlid orqali o'zlashtirilishi ta'minlay olmay qo'ydi.

Maktablarning tashkil etilishi bilan o'qitishning og'zaki metodlari paydo bo'la boshladi. O'qituvchilar so'z yordamida o'quvchilar o'zlashtirishi kerak bo'lgan ma'lumotlarni uzata boshladilar.

Yozuvning, keyinchalik kitobning paydo bo'lishi bilan belgi shaklda bilimlarni to'plash, uzatish va ifodalashning imkoniyatlari tug'ildi. So'z ma'lumotlarni asosiy tashuvchisi hisoblanib, kitob bo'yicha o'qitish— o'qituvchi va o'quvchining aloqadorligi yo'li paydo bo'ldi.

Kitoblar turlicha qo'llanilgan. O'rta asr maktablarida o'quvchilar matnlarni mexanik tarzda yod olganlar. Shunday qilib, dogmatik yoki o'qitishning katexizik metodi paydo bo'ldi.

Buyuk kashfiyotlar davriga kelib o'qitishning og'zaki metodlari qatorida o'quvchilarning tashabbuskorlikka, onglilikka, faollikka yo'naltiruvchi kuzatish, sinov, mashq metodlari paydo bo'ldi. Bular ta'limning ko'rgazmali metodlari nomi bilan qo'llanila boshlandi.

XIX asr oxiri XX asr boshlariga kelib, o'quvchilarni mustaqilligini rivojlantiruvchi, bolaning qiziqishi va ehtiyojlarini hisobga oluvchi evristik metodlar paydo bo'ldi. «Faoliyat orqali o'qitish» konsepsiyasi vujudga kelishi bilan amaliy metodlardan foydalanila boshlandi. Bunda ta'lim jarayonida asosiy e'tibor amaliy mashg'ulot turidagi o'quvchilarni mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishni

shakllantirishga qaratala boshlandi. Keyinchalik bular asosida qisman izlanuvchan, tadqiqotchilik metodlari paydo bo'ldi.

Muammoli o'qitishning vujudga kelishi bilan muammoli ta'lim metodlari qo'llanila boshlandi. Muammoli ta'limda o'quvchilar oldiga o'zlashtirilishi zarur bo'lgan materiallar muammo sifatida qo'yilib, o'quvchilar ushbu muammolarni mustaqil hal etish orqali tabiat va jamiyat to'g'risidagi bilimlarni o'zlashtirishga erishishi bilan karakterlanadi. Kishilik jamiyatida bolani nafaqat bilim, ko'nikma, malakalarni o'zlashtirishi, balki individual xususiyat va qobiliyatlarni rivojlantirish zarurligini anglagandan so'ng rivojlantiruvchi metodlar qo'llanila boshlandi. O'quv jarayonida texnikani keng qo'llanilishi, ta'limni kompyuterizatsiyalashishi ko'plab yangi metodlarni vujudga kelishiga sabab bo'ldi.

Amerikalik pedagog K. Kerr «ta'lim metodlari sohasidagi tub burilishlarni» to'rt bosqichga ajratadi. Kishilik jamiyatining dastlabki rivojlanish bosqichida bolalarni asosiy o'qituvchilari ota-onalar hisoblangan. Birinchi tub burilish ularning o'rniga professional o'qituvchilarning kelishi davri. Ikkinchi tub burilish og'zaki so'zni, nutqni yozuv bilan almashinuvi bilan bog'liq. Uchinchi tub burilish ta'limga bosma so'zning kiritilishi davri. To'rtinchisi ta'limni avtomatizatsiyalashtirish va kompyuterizatsiyalashtirish bilan bog'liq.

Barcha davrlarda metodlarni izlash orqali ta'lim jarayonini shakllantirishga erishib kelingan. Biroq biror bir metod o'z-o'zicha qo'llanilmaydi hamda kerakli natijani ta'minlamaydi. Biror bir metod universal harakterga ega emas. Ta'lim jarayonida turli-tuman metodlardan foydalanish tavsia etiladi.

9.3. Ta'lim metodlari klassifikatsiyasi

O'qitish metodlarining juda ko'p turlari mavjud va ularning sonini aniq belgilab bo'lmaydi. Metodlar o'qitishning mantiqiy tomonlariga, komponentlari va vazifalariga asoslanib tasniflanadi.

Maktabdagi o'qitish metodlarining yagona tasnifi yo'q. Nazariya va amaliyotda bir qancha tasniflar mavjud bo'lib, ular o'zaro zid kelmaydi, biri ikkinchisini inkor etmaydi, balki bir-birini to'ldiradi, o'qitish jarayonini ko'rish imkoniyatini yaratadi.

Tasnif tartib va tizimni vujudga keltiradi, umumiy va muayyan, nazariy va amaliy, muhim va tasodifiy o'qitish metodlarini aniqlashga yordam beradi, shu orqali ulardan amaliyotda samaraliroq foydalanishga xizmat qiladi.

O'qitish metodlarini tasniflashda o'quvchiga dastur materialini o'rganishning maqsadga muvofiqroq yo'llarini tanlash imkonini yaratadi, o'z ishidagi yutuq va kamchiliklarni tushinishda yordam beradi, o'qituvchilarning faoliyatini takomillashtirish uchun qulay sharoitni vujudga keltiradi.

Ta'lim nazariyasida ta'lim metodlarini tasnif etishga oid har xil qarashlar mavjud. Ba'zi olimlar ta'lim metodlarini bilish manbalariga ko'ra tasnif etishsa, ikkinchi guruh mutaxassislar o'qituvchi faoliyati xususiyatidan kelib chiqqishgan, uchinchi guruh mutaxassislar o'quvchi faoliyatini inobatga olishgan.

Y.I.Perovskiy, N.M.Verzulin, Y.Ya.Golant metodlarni og'zaki, ko'rgazmali va amaliy turlarga ajratishgan.

M.A.Danilov va B.P.Yesipovlar esa metodlarni: bilimlarni o'rganishga oid metodlar, malaka va ko'nikmalarni shakllantirish metodlari, bilim va malakalarni tatbiq etish metodlari, ijodiy ishlash metodlari, bilim va malakalarni mustahkamlash, tekshirish metodlari turlariga ajratishgan.

M.N.Skatkin va I.Ya.Lernerlar ta'lim metodlarini quyidagi guruhlarga ajratishgan: izohli-ko'rgazmali metodlar, qayta eslashga oid standart metodlar, muammoli bayon metodi, evristik metod, ilmiy izlanish metodlari.

Yu.K. Babanskiyning tasnifi bo'yicha metodlar uchta katta guruhga bo'linadi: o'quv-tarbiya ishlarini tashkil etish va amalga oshirish;

nazorat va o'zini-o'zi nazorat qilish metodlari. (Ikkinchi guruhda ishning qator yangi metodlari va usullari mavjud.) Muallif quyidagilarni tavsiya etadi:

- bilishga doir o'yinlar, o'quv munozaralari, qiziq vaziyatlarni vujudga keltirish, rag'batlantirish, tanbeh berish va nazorat metodlari.

T. A. Ilna olimlarning tasniflarini umumlashtirib, Yu.K. Babanskiyning tasnifini ma'qullagan va tasniflashning quyidagi tartibini tavsiya etgan:

- yangi bilimlarni berish metodlari (o'qituvchining so'zlariga tayangan holda berish uchun foydalanilgan tushuntirish, hikoya, maktab ma'ruza);

- yangi bilimlar o'zlashtirilishi, mustahkam malakalar shakllanishi uchun foydalaniladigan metodlar: suhbat, ekskursiya, eksperiment va laboratoriya ishi, darslik va kitob bilan ishlash, o'yin, mashqlar;

- darsning har bir bosqichida foydalansa bo'ladigan texnik vositalar bilan ishlash metodlari;

- mustaqil ish.

S. P. Baranov o'z ta'limotida ta'lim metodlarini quyidagi guruhlar bo'yicha taqsimlaydi. Birinchi guruhga o'qitishning o'qituvchi eng asosiy rol o'ynaydigan hikoya, suhbat, tasniflash, tushuntirish va hokazolarni kiritadi. Bunda o'quvchining asosiy vazifasi — o'qituvchi mulohazalarining mantiqiga ergashish, bayon qilinayotgan mazmuni tushunish, eslab qolish va keyinchalik o'rganilgan materialni qayta gapirib bera olishdan iborat bo'ladi. Uning fikri o'qituvchi mulohazalarining tizimiga qanchalik yaqin bo'lsa, o'quv materialini o'rganishning tavsiya etilgan yo'li shunchalik ishonchli bo'ladi. O'quvchining asosiy vazifasi — o'qituvchining gaplarini tinglash va ularni tushunib olishdir.

Ikkinchi guruhga o'qishning yo'llari: mashqlar, mustaqil, laboratoriya, amaliy va nazorat ishlar kiradi. O'quvchi faoliyatining harakteri tavsiya etilgan metodning samaradorligini belgilaydi. O'qituvchining roli bolalarning o'qishiga mohirona rahbarlik qilishdan iborat bo'ladi.

Tasniflashning shunday turlari ham mavjudki, ularda o'qitish metodlari o'qishning tegishli metodlariga: axborot-umumlashtirish, ijrochilik-tushuntirish, reproduktiv, instruktiv-amaliy va mas'uliy-amaliy, tushuntirish-da'vat va qisman izlanishli, undovchi va izlanish tarziga mos keladi (M. I. Maxmutov).

Amalda o'qitish metodlarini tasniflashga bilimlar manbayi mantiqan asoslar bo'yicha (N. M. Verzil'm), bilimlar manbayi va o'quvchilarning o'quv faoliyatidagi mustaqillik darajasi bo'yicha (A. N. Alekseyuk, I. D. Zverov va boshqalar) baravar yondashish eng ko'p uchraydi.

S.G.Shapovalenko metodlarning to'rt jihatini mantiqiy-mazmuniy, protsessual va tashkiliy boshqarilishi jihatlarini ko'rib chiqadi.

Metodlarni tasniflash muammosiga turlicha qarashlar ular haqidagi bilimlar tabaqalanishi va birlashishining tabiiy jarayonini aks ettiradi.

Mutaxassislar o'rtasida ta'lim metodlarini tasniflashda har xil qarashlar mavjudligi yuqoridagilardan ma'lum bo'lib turibdi.

Pedagogik amaliyotda ko'p miqdorda ta'lim metodlari to'plangan. Ma'lumotlarni qabul qilish manbalariga va didaktik vazifalariga ko'ra pedagogikada ta'lim metodlarining bir qancha klassifikatsiyalari mavjud. Ko'p tarqalgan o'quvchilarni o'quv-biluv faoliyati tuzilmaviy elementlariga asoslangan ta'lim metodlari klassifikatsiyasi hisoblanadi:

- og'zaki, ko'rgazmali, amaliy metodlar,
- reproduktiv va izlanish metodlari, induktiv va deduktiv metodlar;
- mustaqil ish metodlari;
- nazorat va o'z-o'zini nazorat metodlari.

Ta'lim metodlari klassifikatsiyasi

2- jadval

Ta'lim metodlari	Ta'lim metodlari guruhlari
Og'zaki	Ma'ruza, suhbat, hikoya, tushuntirish, munozara, kitob bilan ishlash
Ko'rgazmali	Ilyustratsiya va demonstratsiya
Amaliy	Mashq, pedagogik vazifalarni yechish, didaktik va rolli o'yinlar, treninglar, laboratoriya ishi
Induktiv va deduktiv	Analiz, taqqoslash, qiyoslash, umumlashtirish, sintez, modellashtirish, pedagogik vaziyatlarini tahlil qilish
Reproduktiv	Tushuntirish, ma'ruza, hikoya, instruktaj, kitob bilan ishlash, mashq
Muammoli-izlanuvchan	Evristik suhbat, muammoli savol, vaziyatlar tahlili, umumlashtirish, tizimlashtirish, modellashtirish,
Mustaqil ish metodlari	Kitob bilan ishlash, mashq, pedagogik vazifalarni yechish, laboratoriya ishi, loyiha ishlab chiqish, «keys-stadi»
O'quv-biluv faoliyatini stimullashtiruvchi metodlar	O'quv munozaralari, ilyustratsiya va namoyish qilish, didaktik o'yinlar, treninglar, yakka loyihalash, laboratoriya ishi
Nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish metodlari	Og'zaki nazorat, individual va ommaviy so'rov, Yozma nazorat: yozma nazorat ishi, tushuncha va grafik diktant, test, Mashina yordamidagi nazorat: test, virtual laboratoriya ishi

Har qanday fan o'qituvchisi ta'lim qonuniyatlari va prinsiplariga tayangan holda u yoki bu metodlarni qo'llashni, ularni yutuq va kamchiliklarini bilishi zarur. Ta'lim metodlarini tanlashda quyidagi mezonlarga tayaniladi:

- 1) ta'lim metodlarini ta'lim maqsadi va vazifalariga mos kelishi;
- 2) ta'lim metodlarini ta'lim prinsiplariga mosligi;
- 3) metodlarni o'rganilayotgan mavzu mazmuniga mosligi;
- 4) metodlarni o'quvchilar o'quv imkoniyatlari (yosh, jismoniy, psixologik, tayyorgarlik darajasi, talabalarni tarbiyalanganligi va rivojlanganligi)ga mosligi;
- 5) metodlarni texnik sharoit va ta'lim uchun ajratilgan vaqtga mosligi;
- 6) ta'lim metodlarini o'qituvchilarning o'z imkoniyatlari (tajribasi, nazariy va amaliy tayyorgarligi, faoliyatning individual stili, o'qituvchining shaxsiy sifatlari)ga mosligi.

Turli ta'lim metodlarining qiyosiy xarakteristikasi

3-jadval

Ta'lim metodlari	Hal etadigan vazifasi				
	Shakllantiradi		Rivojlantiradi		
	bilim	ko'nikma	tafakkur	xotira	nutq
Og'zaki	**	-	-	-	*
Ko'rgazmali	*	*	*	**	-
Amaliy	*	**	**	*	-
Kitob bilan ishlash	*	*	*	*	*
Multimedia bilan ishlash	*	*	*	*	-
Mustaqil ish («keys-stadi»)	**	**	**	*	*
Og'zaki va yozma nazorat	**	*	*	*	**
Munozara, «aqliy hujum»	**	-	**	*	**

Eslatma: (**) to'liq hal etadi; (*) qisman hal etadi; (-)bo'sh hal etadi.

Shunday qilib, mashg'ulotlarda ta'limning turli metod va usullari qo'llaniladi. Ular o'quvchilar tomonidan bilim, ko'nikma va malakalarni samarali o'zlashtirishlariga xizmat qiladi.

Shunday qilib, o'qitish metodi o'qituvchi va o'quvchilar nazariy hamda amaliy bilish faoliyatining ta'limiy vazifalarini bajarishga qaratilgan yo'ldir.

Har qanday metoddan biror maqsadga erishish ko'zda tutiladi va shuning uchun u qandaydir maqsad qo'yishni, unga erishish bo'yicha faoliyat usulini, ana shu faoliyatni amalga oshirishda yordam beradigan vositalarni bilishni taqozo etadi. Har qanday faoliyat uning obyektini talab qiladi. Nihoyat, metod maqsadga olib borishi kerak, aks holda, u qo'yilgan maqsad uchun yaroqsizligini yoki bu holatda uning umuman noto'g'ri qo'llanganini e'tirof etish lozim. Shunday qilib, har qanday metod uni qo'llashdan ko'zlanadigan maqsadni, shu maqsadni amalga oshirish faoliyatini va bajarish vositalarini talab qiladi. Bu vositalar faoliyat obyekti to'g'risidagi predmetli yoki aqliy bilimlar, qo'yilgan maqsadga albatta erishishdan iborat bo'lishi mumkin. Bularning hammasi har qanday metodga nisbatan maqsadga muvofiqdir, lekin o'qitish metodi uchun yetarli emas.

Mutaxassislar o'rtasida ta'lim metodlarini tasniflashda har xil qarashlar mavjudligi yuqoridagilardan ma'lum bo'lib turibdi.

Hikoya—o'quv materiali mazmunini jonli, obrazli, ta'sirli ravishda bayon qilishdir. Hikoya qilib berish mahoratini egallagan o'qituvchi o'quvchilarni bilimlarni muayyan tizimda o'zlashtirishlarini ta'minlaydi, ularni fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Predmetning xususiyatlariga qarab hikoya qilib berish o'zgarishi mumkin.

Ifodali hikoya—voqealarni bayon etish, yozuvchilarning va tarixiy arboblarning hayoti haqida gapirib berish.

Tasvirli hikoya—o'simliklar tuzilishini, moddalar tarkibini tasvirlashdir.

Hikoya qilib berishning rejali bo'lishi, uning puxta tuzilishi, ta'sirchan hamda obrazli bo'lishi o'qituvchi hikoyasining zarur fazilatlaridir. Hikoyaning ta'sirchanligi o'quvchilarga katta tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi.

Tushuntirish o'quv materialining o'qituvchi tomonidan muntazam va mantiqiy izchillik bilan bayon qilinishidan iboratdir. O'qituvchining tushuntrishida hamisha ko'plab mulohazalar, xulosalar, dalillar bo'ladi.

Tushuntirish hamisha o'qituvchining o'quvchilarga savollar berib turishini va ularni tushuntirish jarayonini kuzatib turishga majbur etishni, o'z fikrlarini aytilishlarini taqozo qiladi.

Tushuntirishning oxirida o'qituvchi xulosani, qoidani aniq ta'riflab beradi. Tushuntirishdan foydalanilgan darsning majburiy elementi-material o'zlashtirishining sifatini tekshirish, o'quvchilar keltirgan faktlar va misollarni tahlil qilishdan iboratdir.

Suhbat o'qituvchi va o'quvchining o'zaro ta'siri shaklida amal qiladigan ta'lim metodidir. Suhbat paytida o'qituvchi o'quvchilarni bilimiga tayanib hamda savollardan foydalanib o'quvchilarni yangi bilimlarni tushunish va o'zlashtirish sari olib boradi.

Suhbat jarayonida o'quvchilarning mustaqil fikr yuritishlari, mulohazalarini aytilishlari uchun imkoniyat yaratib berish zarur. Suhbat mohiyatiga ko'ra evristik va noevristik turlarga bo'linadi.

Ma'ruza oliy o'quv yurtlarida, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida foydalaniladigan ta'lim metodidir. Ma'ruza jarayonida talabalarning faolligini, tashabbuskorligini oshirish maqsadida o'qituvchi o'z nutqini ko'rgazmali qurol, darslikda berilgan faktlar, muammo va topshiriqlar bilan uyg'unlashtiradi. Ma'ruza jarayonida faktlarni tahlil etishga bolalar diqqatini tortish orqali u o'quvchilar faolligi oshiriladi. Terminlarga izoh berish, o'quvchilarning o'zlariga xulosa chiqarishni taklif etish talablarni o'quv-biluv faoliyatini samarali bo'lishini ta'minlaydi.

Ko'rgazmali metodlar. Ko'rgazmali metodlarga kuzatish illyustratsiya va demonstratsiya metodlari kiradi.

Kuzatishlar metodik keng tatbiq etish zaruriyati o'quvchilar tevarak-atrofdagi voqelik hodisalarini bilish jarayonini hisobga olishdan kelib chiqadi.

Kuzatishlar asosida o'quvchilarning tasavvurlari tarkib topadi va ularni bilimlari chuqur va ishonchli bo'lib qoladi. Kuzatishlar bolalarni aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Ilyustratsiya metodi — bilimlarni og'zaki bayon qila turib rasmlar, chizmalar, jadvalga o'quvchi diqqatini tortish.

Demonstratsiya metodi ta'lim vositalari asosida turli tasvirlarni namoyish etish.

Amaliy metod. Mashq o'zlashtirilgan bilimlarni turli o'quv sharoitlariga tatbiq etish yo'lidir. Mashqlar harakteri va metodikasi o'quv predmetining, o'quv materialining, masalaning va o'quvchilar yoshining xususiyatiga bog'liq.

Mashqlarni bajarish maqsadlari va tartibini o'quvchilar ongiga yetkazish, ularni xilma-xil bo'lishi, mashqlarni o'tkazishning sistemali bo'lishi ularni qiyinlik darajasini asta-sekin oshirib borish kabi qoidalari mavjud.

9.4. Ta'lim vositalari

Ta'lim metodlari va usullari bilan ta'lim vositalari uzviy bog'liq. Ta'lim vositasi - bu bilimlarni olish, malakalarni shakllantirish manbai hisoblanib, ularga ta'lim jarayoni uchun mo'ljallangan, uni samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan, maxsus ishlab chiqilgan predmetlar kiradi. Ta'lim vositasi — bu bilimlarni o'zlashtirish, ko'nikmalarni shakllantirish manbai «ta'lim vositasi» tushunchasi keng va tor ma'noda qo'llaniladi. Tor ma'noda ta'lim vositalari deganda o'quv va ko'rgazmali qo'llanmalar, namoyish etish qurilmalari, texnik vositalar tushuniladi. Keng ma'noda ta'lim vositalari deyilganda ta'lim maqsadiga erishishni ta'minlovchi metod, shakl, mazmun yig'indisi va maxsus texnik vositalar tushuniladi.

Ta'lim vositalari dunyoni bilvosita va bevosita bilishni yengillashtirishga xizmat qiladi. Ular ham metodlar singari ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi vazifalarni bajarib, o'quvchilarni o'quv-biluv faoliyatini boshqarish va nazorat qilishga xizmat qiladi.

Didaktik vositalar ta'limning boshqa elementlari bilan aloqadorlikda qo'llanilgandagina o'z qadriini yo'qotmaydi.

Ta'lim vositalari turli asoslarga ko'ra klassifikatsiya qilinadi: faoliyat subyektiga, obyektlar tarkibiga va o'quv axboroti munosabatiga ko'ra. Masalan, faoliyat subyektiga ko'ra o'qitish vositalari va o'qish vositalarga bo'linadi.

Ta'lim vositalariga: turli xildagi ko'rgazmalar, namoyish qilish qurollari, axborot vositalari, elektron doska, yozish vositalari, kompyuter.

Bulardan tashqari o'qituvchi nutqi ham o'qitish vositasi hisoblanadi. Ta'lim vositalari o'quv materialini sifatli o'zlashtirib olishlari uni qanday gapirishi, asosiy g'oyani ajratib berishi, turli tushunchalarni qanday tushuntirib berishiga bog'liq.

O'qish vositalariga: darslik, daftar, ruchka, didaktik tarqatma materiallar, sxemalar, tayanch konspektlari, laboratoriya qurollari, individual axborot vositalari kiradi.

Obyektlar tarkibiga ko'ra vositalar moddiy va ideal vositalarga bo'linadi. Moddiy vositalarga: darslik va o'quv qo'llanmalari, jadvallar, modellar, maketlar, axborot vositalari, kompyuter, o'quv-texnik vositalar, laboratoriya anjomlari, mebellar, mashg'ulot jadvali v. b.

Ta'limning ideal vositalari - bu o'qituvchi va talabalar yangi mavzuni o'zlashtirish va tushuntirish uchun qo'llaydigan avval o'zlashtirilgan bilim, malakalar. Masalan, g'oya ta'limning ideal vositasi hisoblanadi.

Mashhur polyak didakti V. Okon ta'lim vositalarini oddiy va murakkab turlariga ajratadi.

Oddiy vositalar:

- 1) ogʻzaki vositalar: darslik va boshqa matnlar;
- 2) oddiy koʻrish vositalari: real predmetlar, modellar, rasmlar.

Murakkab vositalar:

- 1) mexanik koʻrish vositalari: kodoskop, diaproyektor va b.;
- 2) eshitish vositalari: proigrivatel, magnitofon, radio;
- 3) audiovizual (koʻrish-eshitish): ovoʻzli film, TV, video;
- 4) taʻlim jarayonini avtomatlashtiruvchi vositalar: multimediyali kabinetlar, kompyuterlar, axborot tizimlari, telekommunikatsiya tarmogʻi.

Shunday qilib, taʻlim sifati taʻlim maqsadi, mazmuni, metodlari, usullari, vositalari, aloqalariga bogʻliq. Taʻlim vositasini tanlashda ularni qanday didaktik vazifalarni bajarishini, qanday natijalarga olib kelishini bilish zarur.

Oʻquvchilarni samarali oʻqitishda taʻlimiy muhit, yaʼni oʻquv xonasi katta rol oʻynaydi.

Oʻquv kabineti - bu oʻquv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etish markazi hamda fan boʻyicha oʻqishdan tashqari ishlarni tashkillash markazi hisoblanadi. Oʻquv xonasining maqsadi yoshlarda tanlagan mutaxassisligiga ijobiy munosabatni shakllantirish, fanlarni oʻrganishga qiziqishlarni rivojlantirish.

Oʻquv xonasi - bu maslahatli yordam markazi hisoblanadi. Taʻlimni axborotlashtirish sharoitida oʻquv xonasi zaruriy axborot telekommunikatsiya vositalari bilan jihozlanishi zarur. Shunday qilib, oʻquv kabineti auditoriyada va auditoriyadan tashqari mashgʻulotlarni oʻtkazish uchun moʻljallanib, unda oʻquvchilarni kasbga yoʻllash tayyorgarligi shakllanadi.

9.5. Taʻlim metodlari va vositalarini tanlash

Taʻlim jarayonida oʻqitish metodlarini va vositalarini tanlash koʻplab obyektiv va subyektiv omillarga bogʻliq:

- taʻlim qonuniyatlariga va prinsiplariga;
- insonni rivojlanishi, tarbiyasi va taʻlimi maqsadiga;
- aniq taʻlimiy-tarbiyaviy vazifalarga; taʻlim oʻtirtatsiyasi darajasiga;
- aniq oʻquv predmetini oʻqitish metodikasi xususiyatlariga;
- material mazmuniga;
- u yoki bu materialni oʻzlashtirishga ajratilgan vaqtga; oʻquv material miqdori va murakkabligiga;
- oʻquvchilarni tayyorgarlik darajasiga;
- oʻquvchilarni yosh va individual xususiyatlariga;
- oʻquvchilardagi oʻquv koʻnikmalarini shakllanganligiga; -mashgʻulot turi va tuzilishiga; oʻquvchilar miqdoriga;
- oʻquvchilarni qiziqishiga;
- oʻquv jarayonidagi oʻqituvchi va oʻquvchilar orasidagi hamkorlikka; -moddiy-texnik taʻminotiga; pedagog shaxsi xususiyatlariga.

Taʻlim nazariyasida oʻqituvchilarni amaliy tajribalarini umumlashtirish va oʻrganish asosida oʻquv-tarbiya jarayonlarida taʻlim metodlarini tanlashga oid yondashuvlar ishlab chiqilgan.

Ta'lim metodlarini tanlash:

- o'quvchilarni tarbiyalash, rivojlantirish, ta'lim berish, ma'lumotli qilish umumiy maqsadlariga;
 - o'quv predmeti va mavzu mazmuniga;
 - aniq o'quv predmetini o'qitish metodikasi xususiyatlariga;
 - aniq bir darsni maqsad va vazifasiga hamda mazmuniga;
 - materialni o'rgatish uchun ajratilgan vaqtga;
 - o'quvchilarni yosh xususiyatlariga hamda ularni bilish imkoniyatlarini darajalariga va o'quvchilarni tayyorgarlik darajalariga;
 - o'quv muassasasini moddiy, uslubiy ta'minlanganligiga;
 - o'qituvchini xususiyat va imkoniyatlariga, nazariy va amaliy tayyorgarligi darajasiga, uslubiy, kasbiy mahoratiga, shaxsiy sifatlariga bog'liq.
- Yuqoridagi mezonlarga ko'ra o'qituvchi darsda u yoki bu metodlardan foydalanadi.

Nazorat uchun savollar

1. Ta'lim metodining mohiyati nima?
2. Ta'lim metodlari klassifikatsiyasi mohiyatini tavsiflang.
3. Sizingcha qaysi ta'lim metodlari klassifikatsiyasi asosiy hisoblanadi?
4. Ta'lim vositasi qanday vazifalarni bajaradi?
5. Ta'lim vositalari qaysi asoslarga ko'ra klassifikatsiya qilinadi?

10. TA'LIMNI TASHKIL ETISH SHAKLLARI VA TURLARI

- 10.1. Ta'lim shakli va uni tashkil etish tushunchasi.
- 10.2. Ta'lim shaklini rivojlanish bosqichlari.
- 10.3. O'quv jarayonining tashkil etish shakllari.
- 10.4. Ta'lim turlari.

10.1. Ta'lim shakli va uni tashkil etish tushunchasi

O'quv tarbiyaviy ishlarni samaradorligi ta'lim shakllarini to'g'ri tanlashga bog'liq. Ilmiy-pedagogik tadqiqotlarda ta'limni tashkil etish shakli tushunchasi turlicha talqin etilgan. Shakl (lotincha forma)—tashqi ko'rinish degan ma'noni anglatadi. Predmetni, jarayonni, hodisani shakli mazmun bilan aloqa qiladi va mazmunga ta'sir etadi. Ta'lim shakli didaktik kategoriya sifatida o'quv jarayonini tashkil etishning tashqi tomonini ifodalaydi. U ta'lim maqsadi, mazmuni, metod va vositalariga va ta'lim jarayoni ishtirokchilarining miqdoriga, moddiy shart-sharoitlarga bog'liq.

Ta'limni tashkil etish shakli — bu ta'lim jarayonini alohida zvenosini konstruksiyasi, mashg'ulotning aniq turi. (dars, ma'ruza, seminar, ekskursiya, fakultativ mashg'ulot, v.b.).

M.A.Molehanovanning ta'kidlashicha, «ta'limni tashkil etish shakli» kategoriyasi, shakl va mazmuni dialektik birligi hisoblanadi.

S.A.Smirnov biz ta'limni tashkil etish shakli deganda, «o'quvchilar faoliyatini tashkil etish yo'lini» tushunamiz deb ta'kidlaydi. I.F.Harlomov ta'limni tashkil etish shakli tushunchasi ta'lim nazariyasida aniq ta'rifga ega emas deb hisoblaydi.

N.A.Sarokin, M.N.Skatkin, I.Ya.Lemerlar tomonidan yaratilgan o'quv qo'llanmalarida ta'limni tashkil etish shakli «ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarni birgalikdagi faoliyati tartibi» ma'nosida qo'llanilgan.

Ta'limni tashkil etish shakllari deganda, aniq muddatda va tartibda o'qituvchilar o'quvchilar bilan olib boradigan mashg'ulot turlarini tushunamiz deb ta'kidlanadi Sh.Abdullayeva va boshqalar tomonidan yaratilgan o'quv qo'llanmada.

O.Roziqov, B.Adizovlar tomonidan yaratilgan Didaktika darsligida «O'qitish va o'qish faoliyati o'zaro ta'sirining belgilangan tartibda ma'lum o'rin hamda vaqtda amalga oshishiga ta'limning tashkiliy shakllari deyiladi» deb ta'kidlanadi.

Yuqoridagi ta'riflardan ko'rinadiki, ta'limni tashkil etish shakli necha o'quvchini qayerda va qachon o'qitish kerak degan savolga javob beradi Aytish mumkinki, demak, ta'limni tashkil etish shakli deganda biz o'quvchilar miqdori, o'quv joyi va vaqti bilan bog'liq bo'lgan ta'limni tashqi tomonini tushunamiz. O'z navbatida ta'limni tashqi tomoni, uni ichki tomoni va ta'lim maqsadi, mazmuni bilan o'zaro bog'liqdir.

Uzluksiz ta'limning hamma bosqichlarida ta'limning o'ziga xos tashkiliy shakllari mavjud.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ta'limni tashkil etish shaklini o'quvchilar miqdoriga ko'ra individual va jamoa shakllariga, o'quv joyiga ko'ra maktabdagi va maktabdan tashqari shakllariga, vaqtga ko'ra darsdagi va darsdan tashqari shakllariga ajratish maqsadga muvofiqdir.

Ta'limni tashkil etish shakllarini mutaxassislar tomonidan turlicha klassifikatsiya qilinishi olimlarning yagona fikrga kelmaganligidan dalolat beradi. Masalan, V.I.Andreyev ta'limni tashkil etish shakli klassifikatsiyasining asosi qilib, ta'lim elementlar o'rtasidagi aloqadorliklarni qabul qiladi. Shunga ko'ra, u quyidagi ta'limni tashkil etish shakllarini tavsiya etadi: kirish mashg'ulotlari, bilimlarni chuqurlashtirish mashg'ulotlari, amaliy mashg'ulotlar, bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirish mashg'ulotlari, bilim, ko'nikma, malakalarni nazorat qilish mashg'ulotlari,

Ukrain pedagogi V.A. Onishuk ta'limni tashkil etish shakllarini didaktik maqsadi bo'yicha nazariy, amaliy, mehnat, aralash shakllariga ajratadi.

Akademik A.V.Xutorskiy ta'limni tashkil etish shakllarini: individual mashg'ulotlar, guruhli-jamoaviy mashg'ulotlar, individual-jamoaviy mashg'ulotlarga ajratadi.

Individual mashg'ulotlarga repetitorlik, tyutorlik, mentorlik, guvermerlik, oilaviy ta'lim, o'z-o'zini o'qitish shakllari kiradi.

Jamoaviy-guruhli mashg'ulotlarga dars, ma'ruza, seminar, konferensiya, olimpiadalar, ekskursiya, o'yinlar.

Individual-jamoaviy mashg'ulotlarga: ijodiy haftaliklar, ilmiy haftaliklar, o'yihalar kiradi.

10.2. Ta'lim shaklini rivojlanish bosqichlari

Ta'lim jarayonini tashkil etish shakli dinamik, o'zgaruvchan harakterga ega bo'lib, ular paydo bo'ladi, rivojlanadi, jamiyatdagi fan va texnika rivojlanishiga qarab o'zgarib turadi. Butun dunyo ta'lim amaliyotida turli ta'lim tizimlari mavjud bo'lib, u yoki bu shaklga tegishli.

Individual ta'lim tizimi ta'lim jarayonini tashkil etishning eng tarixiy qadimiy shakli hisoblanadi. Uning mohiyati shundaki, o'quvchi o'z uyida yoki o'qituvchini uyida topshiriqni yakka individual tarzda bajaradi.

Ta'limni tashkil etishni individual shaklini yutuqlari ijobiy tomonlari shundaki: birinchidan, o'quv faoliyatini metodini, mazmunini bolani individual xususiyatlariga moslashtirish, ikkinchidan, o'quvchini har bir harakatini kuzatib borish, o'quvchini xatolarini o'z vaqtda to'g'rilash o'zlashtirish natijalarini o'z vaqtda baholash imkoniyatlari mavjud. Shu bilan birgalikda ta'limni individual tashkil etishning salbiy tomonlari ham mavjud. Bularga: tejamssizlik, boshqa o'quvchilar bilan hamkorlikning yo'qligi, jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllanishiga salbiy ta'sir qiladi. Ta'limning individual shakli sinf-dars tizimi asoslangunga qadar davom etdi. Jamiyat taraqqiyoti natijasida o'qitishning jamoa shaklini paydo bo'lishi va vujudga kelishi ehtiyojini tug'dirdi.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, fan-texnikani rivojlanishi, jamiyat ehtiyojini o'zgarishi sababli ta'limni tashkil etish shakllari ham o'zgarib boradi.

Sinf-dars tizimi nazariy jihatdan XVII asrda Ya.A.Komenskiy tomonidan asoslangan. Ushbu tizim bugungi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Sinf-dars tizimining harakterli belgilariga quyidagilar kiradi:

- sinflar asosan bir xil yoshdagi o'quvchilardan tuziladi;
- sinf yagona yillik reja va dastur asosida ishlaydi;
- sinf-dars tizimida mashg'ulotning asosiy turi darsdir;
- har bir dars yagona o'quv predmetiga bag'ishlanadi;
- dars jarayonida o'quvchilar faoliyatini o'qituvchi boshqaradi va u o'zlashtirish natijalarini baholaydi.

Sinf-dars tizimining belgilariga o'quv yili, o'quv kuni, dars jadvali, o'quv ta'tili, tanaffus kabilar kiradi.

Sinf-dars tizimining ijobiy tomonlari: aniq tashkiliy tuzilishi, oddiy boshqaruv, o'quvchilarning hamkorligi uchun imkoniyat borligi, o'qituvchi shaxsni o'quvchilarga emotsional ta'sir etishi, ta'limni tejamkorligi, o'zlashtirish tizimli va ketma-ket amalga oshirilishi.

Sinf-dars tizimining kamchiliklari: sinf-dars tizimi asosan o'rtacha o'quvchiga tayanadi. bu kimgadir og'ir bo'lsa, kimgadir yengillik qiladi. o'quvchilarni individual xususiyatlarini hisobga olishda o'qituvchiga qiyinlik tug'diradi, kattalar va kichiklar o'rtasidagi o'zaro muloqot ta'minlanmaydi.

Sinf-dars tizini bizning maktablarimizga XIX asmning oxiri XX asmning boshlarida kirib keldi.

Bell-Lankaster ta'lim tizimi. Sinf-dars tizimini modernizatsiya qilishga urinishlarni XIX asr oxirlarida XX asr boshlarida Angliyada A.Bell va D.Lankaster faoliyatlarida ko'rishimiz mumkin. Ta'lim nazariyasida Bell- Lankaster nomini

olgan ushbu tizimni mohiyati shuki, bunda sinflar har xil yoshdagi bolalardan tuzilib, sinfdagi katta yoshdagi bolalar o'qituvchilardan o'rgangan bilimlarini yosh bolalarga o'rgatib borishidir. Shunday qilib, o'qituvchi ko'plab bolalarni o'qitgan, lekin ta'lim sifati yuqori bo'lmagan.

XX asr boshlarida AQSHda Batava ta'lim tizimi, Yevropada Mongeym ta'lim tizimi paydo bo'ldi.

Batava ta'lim tizimining mohiyati shundaki, o'qituvchini o'quvchilar bilan ishlash vaqti ikkiga bo'linadi, dastlab o'qituvchi barchaga bir xil tushuntirish ishlarini olib boradi, so'ngra o'qituvchi yordamiga muhtoj o'quvchilar bilan, ya'ni chuqur bilim olishni istagan qobiliyatli o'quvchilar bilan ishlaydi. O'rtacha va past o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan o'qituvchi yordamchisi shug'ullangan.

Mangeym ta'lim tizimining mohiyati shu ediki, sinflar o'quvchilarni yoshiga qarab emas, ularni aqliy intellektual qobiliyatlariga qarab tuzilgan. Mangeym ta'lim tizimi asoschisi Yozef Zikkinger(1858-1930) bolalarni aqliy qobiliyatlariga, tayyorgarlik darajalariga qarab kuchsiz, o'rtacha va kuchli sinflarni tuzish mumkinligini ta'kidlab o'tgan.

10.3. O'quv jarayonining tashkil etish shakllari

Ta'limni tashkil etishning turlicha shakllari mavjud bo'lib bularga: dars, ma'ruza, seminar, konferensiya, amaliy laboratoriya mashg'uloti, fakultativ mashg'ulotlar, ekskursiya, ishlab chiqarish amaliyoti, mustaqil uy ishi, maslahatlar, to'g'arak mashg'ulotlari, kurs loyihalari, malakaviy loyihalar v.b. kiradi.

Zamonaviy maktablarimizda ta'limning tashkil etishning asosiy shakli dars hisoblanadi. Dars o'quvchilarni nafaqat o'quv-biluv faoliyatini samarali tashkillashni, balki o'quvchilar faoliyatni rivojlantirish imkoniyatiga ham ega.

«Dars—aniq maqsadni ko'zlab belgilangan vaqtda bir xil yoshdagi o'quvchilar bilan o'qituvchi rahbarligida olib boriladigan mashg'ulotdir»-deb ta'kidlanadi Sh.Abdullayeva va boshqalarning o'quv qo'llanmasida.

O.Roziqov va boshqalar tomonidan yaratilgan Didaktika darshigida «Bir xil tayyorgarlikka ega, yoshlari teng o'quvchilarning doimiy jamoasi bilan ma'lum xona, tartib, jadval asosida o'tkaziladigan mashg'ulotga dars deyiladi» —deb ta'kidlanadi.

Yuqoridagi ta'riflar tahlildan ko'rinadiki, darsning mohiyati, darsda o'qituvchi va o'quvchilarni o'zaro ta'siri natijasida o'quvchilar bilim, malaka, ko'nikmalarni o'zlashtiradi, qobiliyatlari rivojlanadi hamda darsda o'qituvchining pedagogik mahorati shakllanadi. Dars ko'p qirrali jarayon bo'lib, uning barcha komponentlari (darsning maqsadi, mazmuni, metodi) o'zaro aloqadordir.

Har qanday darsning yaratilishi uning maqsadini aniq anglashdan boshlanadi.

Darsning maqsadi.

Pedagogik faoliyat obyektu bu o'quvchilar faoliyati hisoblanadi, natijasi esa o'quvchilarni o'zlashtirganlik darajasidir. Zamonaviy maktabda darsning maqsadi aniq bo'lishi zarur

O'qitishning umumiy nazariy asidan kelib chiqib, ta'lim nazariyasi darsga nisbatan bir qancha talablarni ta'riflaydi:

Maqsadning aniq qo'yilishi.

Interfaol metodlardan foydalanish.

Ta'lim prinsiplariga amal qilish.

O'quvchilarda motivni shakllantirish.

Darsda vaqtdan ratsional foydalanish.

Dars tipologiyasi — ta'lim nazariyasining murakkab didaktik vazifalaridan biridir. M.A. Danilov, B.P. Yesipov, B.A. Onishuklar dars tiplarini didaktik maqsadga ko'ra asoslaganlar va quyidagi dars tiplarini tasviva etganlar:

— kirish darslari;

— o'quv materiali bilan tanishtirish darslari;

— qomon, qoida, tushunchalarni o'zlashtirish darslari;

— o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyotda qo'llash darslari;

— malakalarni shakllantirish darslari;

— takrorlash va umumlashtirish darslari;

— nazorat darslari;

— aralash darslar.

I. N. Kazansev darslarni ta'lim metodlarini qo'llashga ko'ra tiplarga ajratadi.

— ma'ruza-dars, suhbat-dars, ekskursiya-dars, kino-dars, mustaqil ishlash darsi.

M.I. Mahmudov quyidagi dars tiplarini tavsiya etgan:

— yangi materialni o'rganish darsi;

— bilim, malaka, ko'nikmalarni shakllantirish darsi.

— tizimlashtirish va umumlashtirish darsi;

— aralash dars;

— nazorat va bilimlarni tuzatish darsi.

O'qituvchi dars tipi qanday bo'lishidan qat'i nazar, dars samarali bo'lishi uchun uni tuzilishi haqida o'ylashi zarur.

Aralash dars tipi quyidagi bosqichlardan iboratdir:

Tashkiliy bosqich. Didaktik vazifasi — o'quvchilarni darsga tayyorlash. O'tilganlarni takrorlash bosqichi. Didaktik vazifasi — tekshirish.

Aktiv o'quv bilish faoliyatiga tayyorlash bosqichi. Didaktik vazifasi — o'quvchilarni bilish faoliyatiga tayyorlash.

Yangi bilimlarni o'zlashtirish bosqichi. Didaktik vazifasi — o'quvchilarda hodisa, jarayon, tushunchalar to'g'risida tasavvurlarni shakllantirish.

O'quvchilarni yangi materialni tushunganligini tekshirish bosqichi. Bilimlarni mustahkamlash bosqichi. Didaktik vazifasi — bilimlarni o'zlashtirish bo'yicha o'quvchilar faoliyatini tashkil etish.

Bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirish bosqichi.

Bilimlarni nazorat qilish bosqichi.

Uy vazifasi haqida axborot berish bosqichi.

Bosqichlar dars tiplariga qarab o'zgarishi mumkin.

Ma'ruza - bu, o'qituvchi tomonidan bilimni bayon etish. Ma'ruzada keng hajmli bilim monologik yo'l bilan bayon qilinadi. Qoidaga ko'ra, ma'ruza metodi

yuqori sinflarda qo'llanadi. Ma'ruzaning mohiyati shundaki, u o'quvchilarning bilimni to'liq va tugallangan, mantiqan, o'zaro bog'liq holda o'zlashtirishiga yordam beradi.

Hozirgi davr pedagogik tajribada ham, ma'ruza bahs metodi qo'llanilmoqda. Bu metod o'quvchilarning mustaqil fikrlash, o'z mulohazalarini isbotlash, asoslashni bilishlarida muhim omil bo'layapti. Zero, puxta tayyorgarlik bilan uyushtirilgan bahs o'quvchilarning ta'lim va tarbiyada muammoni chuqur tushunish yo'llarini, unga nisbatan o'z fikr-mulohazalarini himoya qilishni, boshqalar fikri bilan hisoblashish odobini egallashlarida alohida ahamiyatga ega.

Oliy ta'lim tizimida ma'ruza o'quv jarayonining ham usuli, ham shakli hisoblanib, u talabalarga fan asoslarini og'zaki, uzviy va muntazam singdirishga xizmat qiladi. Ma'ruza tufayli talaba shu fanning mohiyatini tushunib boradi hamda ularni erkin fikrlashga, fan ustida o'ylashga majbur etadi. Shu sababli ma'ruza ilmiy tafakkurni rivojlantirishning o'ziga xos maktabiga aylanadi. Ma'ruzani shunday o'qish lozimki, uning ta'sirida talabalarda shu fanga uning vazifa va kelajagiga nisbatan turli qarashlar, ilmiy e'tiqod, g'oya va milliy mafkura asoslari shakllansin. Buning uchun o'qituvchi har bir ma'ruzaning mazmunini fandagi yangiliklar bilan boyitishi va tanlay bilishi lozim. Ma'ruza ijobiy hamkorlikka tayanib tashkil qilingandagina samarali natija beradi. Buning uchun ma'ruza jarayonida ham ta'limiy, ham tarbiyaviy vazifalarni samarali amalga oshirish yo'llaridan biri - o'qituvchi bilan talabalar o'rtasida do'stona, faol munosabatlarni tiklab olinishdan iborat.

Ma'ruzaning mazmunli, samarali bo'lishi uchun:

- aniq, o'ylab tuzilgan rejani o'quvchilarga tanishtirish;
- rejaning har bir qismini bo'yicha berilgan ma'lumotni yakunlash;
- o'quvchilarga bayon tushunarli va ko'rgazmali, yorqin bo'lishi;
- bayon o'quvchilarda muhim o'rinlarni bilib olishga qiziqish uyg'otadigan bo'lishi kerak.

Ma'ruzani shunday o'qish lozimki, buning ta'sirida talabalarda shu fanga uning vazifa va kelajagiga nisbatan turli qarashlar, ilmiy e'tiqodlar vujudga kelishi va shakllanishi darkor shunday ekan, o'qituvchi ma'ruza o'qish jarayonida tinglovchilarning tarkibini hisobga olgan holda, uning ilmiy tomoniga alohida e'tibor berishi va talabalarining qiziqishi va intilishlarga quloq solishi lozim.

O'qilayotgan ma'ruzalarning tarbiyaviy ta'sirining ya'nada yuksak bo'lishi o'qituvchining yoshlar oldidagi obro'siga, shaxsiy sifatlariga, ilmiy iste'dodiga, ta'lim sohasidagi tajribasi, mahoratiga va talabalar bilan o'rnatilgan do'stona munosabatlariga bog'liqdir.

Bundan tashqari, dars va ma'ruzaning samarali natijasi o'quvchi hamda talabalarining o'quv jarayonidagi ruhiy holatlarni qay darajada hisobga olinishiga ham bog'liq. Shunday ekan, ta'limni samarali tashkil etish, uning dars, ma'ruza va boshqa shakllaridan o'qitish jarayonida o'rinli foydalanishlari uchun shubhasiz, o'qituvchining pedagogik mahorati, pedagoglik madaniyati, o'z predmetini puxta bilishligi va o'quvchi talabalar bilan umumiy til topa olishligi g'oyat katta ahamiyatga egadir.

Ma'ruza, asosan ijtimoiy fanlarni o'qitish jarayonida qo'llanmoqda. Ma'ruza darslarini tashkil etish, ancha murakkab va ko'p mehnat talab qiladigan ishdir. Ma'ruza darsi tajribali, yuksak darajada pedagogik mahorat asosida tashkil etiladi. Ma'ruzadan faqat fan, o'quv predmeti asoslari borasidagi ma'lumotlar berib qolmasdan, balki o'quvchilarni ijtimoiy-g'oyaviy jihatdan tarbiyalab borish talab etiladi. Ma'ruza jarayonida asosiy e'tibor o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, bilim va faoliyat malakasini oshirishga qaratilgan.

Fanlarni o'qitish ma'ruza, seminar, amaliy mashg'ulotlari, laboratoriya mashg'ulotlari, mustaqil ta'lim kabi shakllarda tashkil qilinadi. Ta'limni samarali bo'lishida yangi pedagogik texnologiyalar, masofali ta'lim, ta'limda texnik vositalardan foydalanish imkoniyatlari ochib berildi.

Ta'lim jarayonida nazariy bilimlarni o'rgatish bilan birga talabalarga turli fanlarga oid darslik va o'quv qo'llanmalar ustida mustaqil ishlashni ham o'rgatish zarur. Bu o'z navbatida talabalarni ilmiy bilimlarni egallashlariga imkoniyat yaratadi. Turli o'quv predmetlarini o'qitish jarayonida talabalarga fan asoslarini chuqurroq egallashlari uchun hamda pedagogik muammolarni ilmiy - nazariy jihatdan o'rganib, ilmiy xulosalar chiqarishi uchun referat, kurs ishlari so'ng esa malakaviy ishlarni tayyorlashga o'rgatib boriladi. Ta'lim jarayonida texnik vositalardan foydalanishning afzallik tomonlarini ham o'rgatib borish zarur. Chunki bugungi kunda axborot texnologiyalari, axborotlar kitobi, kompyuter va internetdan foydalanish hayotiy zaruriyatga aylanib bormoqda.

Fanlarni o'qitishda amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya mashg'ulotlari hamda ma'ruza darslarida foydalaniladi.

Talabalarining yana bir yozma ijodiy ishlari turli mavzularda ma'ruzalar yozishdir. Ma'ruza mavzusi ma'lum bir muammo va masalaning hal etilishiga qaratilgan bo'lib, o'quvchilar shu mavzuga oid mustaqil o'qib, o'rgangan materiallar yuzasida o'z nuqtayi nazarlarini ifodalaydilar va shu qarashlarini misol va dalillar bilan isbot qiladilar.

Grafik ishlari ham talabalarning yozma ishlari jumlasiga kiradi va o'quvchilarning o'zlashtirgan, o'zlashtirayotgan bilimlarni ongli va mustahkam esda saqlab qolishlariga, tegishli ko'nikma, malakalar hosil qilishlariga vordam beradi. Laboratoriya mashqlari davomida talabalar fan bo'yicha olgan nazariy bilimlarini mavzular bo'yicha aniq topshirmalar asosida individual qo'lda ishlanmalarni tayyorlaydilar. Natijada har bir talabaning bajargan ishi o'qituvchi tomonidan nazorat qilinib baholanadi.

Seminar mashg'ulotlarini tashkil etish.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablaridan kelib chiqib, oliy maktab o'qituvchilari ikki muhim amaliy vazifani - talabalarga hozirgi zamon ilmiy, ijtimoiy, texnik va texnologik axborotlarni berish va ularni ana shu axborotlarni o'zlarini topib egallash ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishlari lozim. Seminar, laboratoriya, maslahat (konsultatsiya) mashg'ulotlari talabalarini mustaqil, ijodiy ishlashga o'rgatishning muhim omili hisoblanadi.

Seminar mashg'ulotlarining samarali natijalar berishi:

- talaba va o'qituvchining tayyorlanishiga;
- seminar mashg'ulotlarini o'tkazish mahoratiga;

- seminarda barcha talabalar qatnashishini ta'minlash;
- har bir talabaning javobi baholanishi.
- seminar mashg'ulotida interaktiv usullardan foydalanish.

Seminar mashg'ulotlarining vazifasi - darslarda bayon qilingan nazariy fikrlarni konkretlashtirish, chuqurlashtirishdan, o'quvchilar bilimini tekshirish va mustahkamlashdan, adabiyotni o'rganish ko'nikmasini hosil qilish, uni konspekt qilish, suhbatlar, dokladlar, ota-onalar uchun konsultatsiyalarning reja va konspektlarini tuzishdan, kursning aniq temasini og'zaki bayon qilish qobiliyatiga ega bo'lishdan iboratdir. Seminar mashg'ulotlari uchun kursning eng muhim va murakkab masalalari shuningdek, adabiyotlarda yetarli darajada to'liq yoritilgan va o'quvchilarning o'zlari mustaqil ravishda o'rgana olishlari mumkin bo'lgan masalalar tanlab olinadi. Seminarning har bir temasi bo'yicha o'quvchilarga adabiyotlar ro'yxatini berish, topshiriqning harakterini belgilash, uni bajarish rejasini va hisobot formasini ko'rsatish kerak. Adabiyotlarni o'rganayotganda o'quvchilar konspekt yoki ota-onalar uchun konsultatsiyalarning mavzularini tuzadilar. Seminar mashg'ulotlarini quyidagicha tashkil etish mumkin: avvalo o'qituvchi seminarining vazifasi va uni o'tkazish tartibini belgilaydi. So'ngra nutq so'zlash uchun o'quvchilarga so'z beradi. Shundan keyin ishtirok etuvchilar nutq so'zlaganlarga savollar beradi, ular javob qaytarishadi. Keyin boshqa o'quvchilar nutq mazmuniga xarakteristika berib, uni to'ldiradilar (yutuq va kamchiliklar ko'rsatiladi). O'qituvchi seminarini yakunlar ekan, asosiy nutqni baholaydi.

O'quv yurtlari o'quv rejalarida seminar mashg'ulotlarini amaliy mashg'ulot deb hisoblanadi. Bunga qo'shilib bo'lmaydi chunki ma'ruza mashg'ulotida o'rgana boshlangan ijodiy materialni seminar mashg'ulotlarida yanada chuqurlashtiriladi, seminar mashg'ulotlariga talaba oldindan tayyorlanib keladi, muammoni muhokama etadi: seminar mashg'ulotida talabalarning barchasini o'z fikr va mulohazalarini erkin ayta olish, sherkatlarining qarashlarini tahlil eta bilishiga asosiy e'tibor qaratiladi.

O'quv materialini talabalar tomonidan egallab olish darajasi:

- a) ma'ruza mashg'ulotlarida umum nazariy tahlillarni egallab olish;
- b) seminar mashg'ulotlarida muammolarni chuqurlashtirish, aniqlashtirish;
- d) laboratoriya mashg'ulotlarida esa amaliy ko'nikma va malakalarni

vujudga keltirish.

Oliy maktablarda seminar mashg'ulotlari quyidagi didaktik vazifalarni hal qilishga qaratiladi:

- o'ta murakkab mavzu, muammolarni chuqurlashtirish, aniqlashtirish;
- mavzu va muammolarni talabaning bo'lajak kasbiy yo'nalishi, ixtisosligida qo'llashga oid bilimlar bilan quroilantirish;
- talabalar egallab kelgan bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlashga tamoyillashtirish;
- mavzu, muammolarga oid manbalar bilan ishlash, ko'nikma va malakalarni o'stirish;
- o'z qarash, munosabatlarni erkin aytilish, mulohaza qilishga, nutq madaniyatini tarbiyalashga xizmat qilish;
- talabalar bilim, ko'nikma va malakalarni nazorat etish.

Seminar mashg'ulotlarini suhbat, munozara, o'quv konferensiya, simnodizm loyihalarni himoya qilish, chiqishlarni tinglash, muhokama etish, vetuk mutaxassislar bilan uchrashuvlar xilma-xil ishchi o'yinlari tarzida o'tkazish mamkin.

Seminar mashg'ulotlarini tayyorlab o'tishida o'qituvchining roli beqiyos katta. O'zining kirish so'zi bilan talabalar oldiga aniq maqsad va vazifalarni qo'yadi: ularni faol ishtirok etishlariga jalb etadi; barcha talabalarni faol bildirishlariga sharoit yaratadi; mashg'ulot oxirida muhokamada qatnashgan har bir talaba fikrlari tahlil etib, baholanishi lozim.

Seminar mashg'uloti odatda, talabalarga yangi mashg'ulot mavzusi, rejalari, adabiyotlarini bildirish, uni tayyorlash yo'llari, o'ziga xos tomonlarini tushuntirish bilan yakunlanadi.

Seminar darslarida ma'ruza vaqtida fan asoslari bo'yicha olgan nazariy bilimlari tahlili o'rganiladi.

Demak, oliy o'quv yurtlaridagi o'qitishni tashkil etishning shakl va metodlari orqali talabalarda pedagogika fanini o'qitish metodikasi yuzasidan bilim, ko'nikma va malakalarni hamda ularni dunyoqarashlarini shakllantirish orqali kasbiy tayyorgarliklarni mustahkamlab boriladi. Oliy o'quv yurtlarida ta'lim jarayonini tashkil etishning maslahat (konsultatsiya) shaklidan keng foydalaniladi. Ma'ruza mashg'ulotlariga kam vaqt ajratilishi, amaliy mashg'ulotlar uchun ko'p soat berilishi, talabalar mustaqil ta'limiga ko'p e'tibor berilishi ham har bir o'quv fani mazmunida axborotlarning tez o'zgarishi, ta'lim amaliyotida o'qituvchilarning maslahat shaklidan unumli foydalanish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

O'quv materialni puxta idrok etish va mazmunini to'laroq talabalar tomonidan anglab yetishlari maqsadida o'quv predmetlaridan amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari tashkil etiladi. Bugungi kunda ijtimoiy gumanitar predmetlardan ham amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari tashkil etish an'anaga aylanib borayotganini ta'kidlash lozim. Chunki, laboratoriya mashg'ulotlarida o'qituvchilar rahbarligida oldindan belgilangan aniq reja, topshiriqlar asosida nazariy materialni talabalar to'la idrok etib va mazmun-mohiyatini chuqur tushunadilar.

10.4. Ta'lim turlari

Ta'lim muassasalari amaliyotida qator belgi va xususiyatlarga ko'ra farqlanuvchi ta'lim turlari mavjud. Ta'lim turi — bu ta'lim tizimida o'qitish va o'qish faoliyatlari xususiyatlarini umumlashgan xarakteristikasini, ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchining o'zaro aloqalari xarakterini, ta'lim vositalari, metodlari, shakllarini qo'llash vazifalarini ifodalaydi.

Ta'lim turi pedagogik texnologiyalar orqali aniqlanadi. Ta'lim turlari quyidagilarga bo'linadi: izohli tushuntirish, dogmatik, muammoli, dasturlashtirilgan, rivojlantiruvchi, evristik, shaxsga yo'naltirilgan, kompyuterli, modulli, masofali, predmetlararo.

Izohli-tushuntirish (an'anaviy, oddiy) ta'lim - bu ta'limning shunday turiki, bunda bilim beruvchi bilimlarni tayyor holda so'z orqali tushuntirish va ko'rsatish orqali uzatishi bilan harakterlanadi, o'quvchilar qabul qiladilar va o'zlashtiradilar.

Dogmatik ta'lim — bu ta'lim turida qabul qilinayotgan ma'lumotlar isbotsiz qabul qilinadi.

Muammoli ta'lim — ta'limni ushbu turida o'qituvchi tomonidan o'quvchilar oldiga muammoli vaziyatlarni hosil qilib, o'quvchilar tomonidan muammolarni hal etish orqali yangi bilim, ko'nikma va malakalarini shakllanishiga, qobiliyatlarini, faolligini, ijodiy tafakkurini rivojlanishiga erishiladi

Rivojlaniruvchi ta'lim — o'quvchilarni rivojlanishini ta'minlovchi ta'lim turi hisoblanib, bunda asosiy e'tibor nazariy bilimlarga qaratilgan holda, ta'lim tez va yuqori darajada qurilib, o'quvchilarni o'qitishda materialni ongli anglashni, maqsadga yo'nalganlikni, samaradorlikni, tizimlilikni ta'minlaydi.

Evristik ta'lim — muammoli va rivojlaniruvchi ta'lim prinsiplariga asoslanib, ta'limni o'quvchilarni o'qish faoliyatlarini ijodiy tadqiqotchilik izlanuvchanlik asosida tashkil etilishini ifodalaydi. Bunda o'quvchilarga o'zlarini namoyish qilish uchun imkoniyatlar yaratiladi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim — bu ta'lim turida ta'lim dasturlari va o'quv jarayoni har bir o'quvchining bilish qobiliyatlariga yo'naltirilishi bilan harakterlanadi.

Dasturlashtirilgan ta'lim — bu o'qitish va o'qish faoliyatlarini dasturlashtirishga asoslanganligi bilan harakterlanib, bunda ta'lim mazmunini sifatli o'zlashtirilishini, nazorat qiliishini ta'minlovchi dasturlar asosida ta'limni tashkil etishni ifodalaydi.

Modul ta'lim — ta'lim mazmunini to'liq o'zlashtirilishini ta'minlovchi o'quv ma'lumotlarni modul orqali o'rganishni taqozo etadi.

Masofali ta'lim — ta'lim maqsadiga minimal vaqt sarflab, maksimal darajada ta'lim mazmunini o'zlashtirishni individual tarzda informatsion ta'lim jarayoni sharoitida o'zlashtirishga erishishni ta'minlaydi.

Predmetlararo ta'lim — bu ta'lim turi integratsiyalashgan o'quv predmetlarini o'zlashtirishga asoslanganligi bilan harakterlanadi.

Nazorat uchun savollar

1. Ta'limni tashkil etish shakli nima?
2. Sinf-dars tizimining asosiy xossalari?
3. Dars tuzilishi nimaga bog'liq?
4. O'quv jarayonini tashkil etishning turli shakllariga misol keltiring.
5. Ta'limning qanday turlari mavjud va ularni tavsiflang?

11. O'QUVCHILAR BILIM, KO'NIKMA VA MALAKLARINI TASHHIS ETISH

11.1. Ta'lim sifatini tashhislash.

11.2. Nazorat turlari, shakllari va metodlari.

11.3. O'quv faoliyati natijalarini baholash va qayd etish.

11.4. Baholashdagi kamchiliklar.

11.1. Ta'lim sifatini tashhislash

Ta'lim jarayonining ajralmas komponenti tashhis hisoblanib, uning yordamida qo'yilgan maqsadlarga erishilganlik aniqlanadi. Tashhissiz didaktik jarayonni samarali boshqarish imkoniyati mavjud emas. Tashhis — bu didaktik jarayon natijalarini aniq belgilash.

«Tashhis» tushunchasi o'quvchilar «bilim, ko'nikma, malakalarni tekshirish» tushunchasiga qaraganda keng va chuqur ma'noga ega. Bilim, ko'nikma, malakalarni tekshirish natijaning o'zigagina tegishli, uning sabablariga izoh bermaydi. Tashhislash natijalarini didaktik jarayon dinamikasidan, tendensiyalarini hisobga olgan holda ko'rib chiqadi.

Nazorat, tekshirish, baholash tashhisning asosiy komponentlari hisoblanadi. Tashhis orqali statistik ma'lumotlar to'planib, tahlil qilinib, didaktik jarayon rivojlanish dinamikasi va tendensiyalari aniqlanadi.

Tashhisning asosiy komponenti nazorat hisoblanadi. Nazorat -bu bilim, ko'nikma, malakalarni o'zlashtirish jarayonini kuzatish. Nazoratning asosiy qismi tekshirish hisoblanadi. Tekshirish - bu o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma, malakalarni baholash uchun bajariladigan harakatlar va operatsiyalar tizimi.

Mohiyatiga ko'ra nazorat o'quvchilarni o'quv faoliyati natijalari to'g'risidagi ma'lumotlarni olish, ya'ni ta'limda teskari aloqani o'rnatilishini ta'minlaydi. O'qituvchi o'quvchini bilimlarni qay miqdorda yoki qay darajada o'zlashtirganligi haqidagi ma'lumotga ega bo'ladi. Shu bilan birga o'qituvchi o'quvchining mustaqil o'quv faoliyati harakterini bilib oladi.

Nazorat davomida o'quvchi o'zining o'quv faoliyati to'g'risidagi ma'lumotga ega bo'ladi. Nazorat o'quvchiga bilimlarni o'zlashtirish orqali nimaga erishganini tushunishiga hamda o'z kamchiliklarini anglashiga yordam beradi.

Ta'lim jarayonining muhim bosqichlaridan biri o'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalarni nazorat, hisobga olish va baholashdir. Uning maqsadi: O'quv materialini egallab olish sifatini; shakllantirilgan ko'nikma va malakalarning o'quv-predmetining maqsad va vazifalariga qanchalik mos kelishi darajasi aniqlashdir. Bilim, ko'nikma va malakalarni nazorat etish jarayonida o'quvchilarning o'quv mehnatiga javobgarlik munosabati tarkib topadi, ta'lim usullarini samaraliligi belgilanadi.

Oliy o'quv yurtlarida nazoratning bir qancha turlari. Tanlov (kirish, testi, olimpiada, tanlovlar) o'quv (nazorat ishlari, bitiruv malakaviy ishlar, testlar). O'quv yurtlari esa, dastlabki, joriy, tematik, davriy va yakuniy bo'lishi mumkin.

Nazoratning har bir turi o'ziga xos funksiya, mazmunga ega.

1. Bilim, ko'nikma, malakalarini hisob-kitob qilish funksiyasi - talabalar tomondan bilimlarni hajmini aniqlash emas, shu bilan birga bilish usullarini, empirik va nazariy fikrlash, muammolarni hal qilish usullarini egallab olish darajasini ham aniqlaydi.

2. Nazoratning o'rgatuvchanlik funksiyasi - talabalar javoblarni tahlil etish orqali ularda o'quv materialini egallab olish, muammoni hal etishning yangi usullarini ham o'rgatadi.

3. Tarbiyalovchilik funksiyasi - egallab olingan bilim, ko'nikma va malakalar hajmini aniqlash orqali talabalarda faollik va mustaqilligi darajalarini belgilaydi va uni rivojlantirish kelajagi rejaralarini aniqlash imkonini beradi.

4. Teskari aloqa o'rnatish funksiyasi - o'qituvchi nazorat vaqtida o'z fanini o'qitishning kelgusidagi yanada takomillashtirish uchun imkoniyatga ega bo'ladi.

Ma'lumki, teskari aloqa bilish faoliyatning muhim tarkibiy qismi bo'lib, talaba o'z-o'zini nazorat qilish natijasida amalga oshiriladi. Shuning uchun talabaga bilim, ko'nikma va malakalarini o'zi nazorat qilish usullari bilan qurollantirish lozim. Nazoratning test, xilma-xil vaziyat, topshiriqlar tizimi bilan qurollantirish talab etiladi.

Bilimlarni tekshirish va baholash — ta'lim jarayonini ajralmas qismidir. U darslarda o'quvchilarni o'quv faoliyatini og'zaki yoki yozma nazorat qilish yo'li orqali amalga oshiriladi. Tekshirish va baholash yordamida o'quvchilarni bilimlarni qay darajada o'zlashtirganliklari o'quvchilarni yutuq va kamchiliklari, o'qituvchi faoliyati samaradorligi aniqlanadi.

Darsdagi intizom o'quvchilarni ta'limga munosabati, o'quvchilarni mustaqilligi, tashabbuskorligi, mehnatsevarligi ko'p jihatdan bilimlarni tekshirish va baholashga bog'liq.

Bilimlarni tekshirish va baholash quyidagi vazifalarni bajaradi:

Nazorat qiluvchi (har bir bosqichda bilim, ko'nikma, malakalarni o'zlashtirish keyingi bosqichga tayyorgarlikni ifodalaydi).

Ta'limiy (o'quvchi o'rtog'ini javobini tinglaganda ham uning bilish qobiliyati rivojlanadi).

Tarbiyaviy (o'quvchilar mehnat qilishga, mustaqil ishlashga o'rganadilar).

Tuzatuvchilik (o'quv-tarbiyaviy jarayonni tuzatish uchun imkoniyatga ega bo'linadi).

Axborot beruvchi (ota-ona bolasining yutuq va kamchiliklaridan xabardor bo'ladi).

Ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida o'quvchilar bilimni tekshirish va baholash tizimli va doimiy ravishda amalga oshirilishi lozim.

Bilimlarni tekshirish va baholashni obyektivligiga ta'sir etuvchi omillar.

Bilimlarni tekshirish jarayonida ta'lim natijasida erishiladigan maqsadni bir xil, umumiy tushunilmaydi. Ta'lim maqsadi o'qituvchilar tomonidan keng, har xilda shakllanadi.

Fan asoslaridan puxta bilim berish.

Mantiqiy tafakkurni shakllantirish.

O'quvchilarni bilish faolligini shakllantirish.

Nazorat obyektlarining har xilligi bahoni asoslanishiga ta'sir etuvchi omil hisoblanadi. Ayrin o'qituvchilar uchun baho obyektu bu o'quvchi o'zlashtirgan o'quv materiali, boshqalar uchun esa, bilimlarni amaliyotda qo'llash qobiliyati hisoblanadi.

O'quvchilarning o'quv faoliyatini nazorat qilish va tashhislash tamoyillari quyidagilardir:

- xolislik (obyektivlik);
- tashhis testlari (topshiriqlari, savollari)ga asoslanish;
- tashhis jarayoni mazmunning ilmiy asoslanganligi;
- pedagogning barcha o'quvchilarga do'stona munosabatini, bilim, ko'nikma, malakalarini baholashdan aniq maqsadning ko'zlanishi;
- tizimlilik (mazkur tamoyil ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida bilimlarning o'zlashtirilishi, ularni boshlang'ich idrok etishdan to amalda qo'llashgacha bo'lgan davrlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik mavjudligini anglatadi);
- oshkoralik (barcha o'quvchilarni aynan bir xil mezonlar bo'yicha ochiq sinovdan o'tkazilishini anglatadi; tashhis jarayonida belgilanadigan har bir o'quvchining reytingi oshkoralik harakteriga ega; oshkoralik tamoyil, shuningdek, baholarni e'lon qilish va motivatsiyalashni ham talab etadi).

Bilimlarni tekshirish va baholash jarayonida uning og'zaki va yozma usullaridan keng foydalanilmoqda. Umumiy o'rta ta'lim Reyting tizimi to'g'risidagi Nizomda «O'quvchilar bilim darajasi sifatini nazorat qilishning reyting tizimini joriy etishning asosiy maqsadi nazoratning har xil turlari shakllaridan foydalanish yo'li bilan umumiy o'rta DFS talablari bajarilishini ta'minlash, ta'lim samaradorligini oshirish hamda o'quvchilarning intellektual qobiliyatini rivojlantirishdan iborat» deb ko'rsatilgan.

Bugungi kunda Respublikamizda uzluksiz ta'lim tizimini barcha bo'g'inlarida bilimlar reyting tizimida baholanmoqda.

Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni baholashning reyting tizimi to'g'risidagi muvaqqat Nizomda Reyting tizimi vazifalari ko'rsatilgan.

Reyting tizimi vazifalari: o'zlashtirishni muntazam baholab borish, bilimni adolatli va aniq baholash, o'qituvchilar mas'uliyatini oshirish va hokazo

11.2. Nazorat turlari, shakllari va metodlari

O'quvchilarning fan bo'yicha o'zlashtirishini nazorat qilish muntazam ravishda olib boriladi va quyidagi turlar orqali amalga oshiriladi:

- Joriy nazorat (JN);
- Oraliq nazorat (ON);
- Yakuniy nazorat (YaN);

Joriy nazoratda fanning har bir mavzusi bo'yicha talabanning bilimi va amaliy ko'nikmalarini aniqlab borish nazarda tutiladi va u amaliy, seminar yoki laboratoriya mashg'ulotlarida amalga oshirilishi mumkin.

Oraliq nazoratda fanning bir necha mavzularini qamrab olgan bo'lim yoki qismi bo'yicha nazariy mashg'ulotlar o'tib bo'lingandan so'ng, talabanning nazariy bilimlari baholanadi va unda talabanning muayyan savolga javob berish yoki

muammoni yechish mahorati va qobiliyati aniqlanadi. Oraliq nazorat ma'ruza darslarida amalga oshirilishi mumkin. Oraliq nazoratlar soni fanning umumiy soatlari hajmidan kelib chiqib, oliy ta'lim muassasasi tomonidan aniqlanadi.

Joriy va oraliq turlari har bir fanning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, og'zaki, yozma ish, test, nazorat ishi, uy vazifasi, og'zaki savol-javob va shu kabi boshqa shakllarda ham amalga oshirilishi mumkin.

YaN da talabaniq bilim, ko'nikma va malakalari fanning umumiy mazmuni doirasida baholanadi. YaN semestr yakunida o'tkaziladi.

Muayyan fan bo'yicha talabaniq semestr davomidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi 100 ballik tizimda baholanadi. Ushbu 100 ball baholash turlari bo'yicha quyidagacha taqsimlanadi: yakuniy nazoratga 30 ball, qolgan 70 ball esa oliy ta'lim muassasasi tomonidan kafedra taklifi asosida fan xususiyatlandan kelib chiqqan holda joriy va oraliq baholashlarga taqsimlanadi.

Talabaniq semestr davomida fan bo'yicha to'plagan umumiy bali har bir baholash turlaridan to'plangan ballar yig'indisiga teng bo'ladi.

YaB turi yozma ish usulida yoki boshqa usullarda (og'zaki, test, himoya va hokazo) o'tkazilishi mumkin.

Fan bo'yicha talabalar bilimni baholash mezonlari oliy ta'lim muassasasi kafedralari tomonidan ishlab chiqilib uslubiy kengashda tasdiqlanadi.

Talabalar bilimni baholashda quyidagi namunaviy mezonlar inobatga olinadi.

Talabalar bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat etishni va baholashning tamoyillari, xolislik, har tomonlamalik, o'ziga xoslik, tabaqalashtirilganlik, izchillik, ishonarlilikdir

Nazorat etish, baholash turlari va bosqichlari. Har qanday nazoratning turi, usuli teskari aloqani vujudga keltirishga xizmat qiladi. Shuning uchun nazorat tizimida xilma-xil usul va turlaridan foydalanish lozim.

Nazorat usullari: Bilimlarni og'zaki nazorat (hisobot, referat, nazariy, kurs, bitiruv ishlari, ijodiy ishlar, matnlar, tezislar); grafik (chizmalar, kurs va bitiruv lo'ihalari, eskizlar, chizmalar); programmalashtirilgan nazorat (mashina va mashinasiz):

- baholash komponentlari;
- baholash maqsadini aniqlash;
- natijalarni aniqlashga xizmat qiladigan nazorat topshiriqlarini tanlash.

Talabalar bilim, ko'nikma va malakalarni nazorat qilish teskari aloqani vujudga keltiradi. Bu eng avvalo talaba uchun kerak, chunki, nazorat va o'z - o'zini nazorat natijalariga qarab talaba bilim, ko'nikma va malakalarni ongli egallab olishlariga xizmat qiladi. O'qituvchi uchun esa, nazorat natijalari o'quv bilim faoliyatini oqilona boshqarishni yo'lga qo'yish imkonini beradi.

Ta'lim jarayonida nazoratga quyidagi pedagogik talablar qo'yiladi:

- nazoratni individual harakterda bo'lishi;
- ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida nazoratni tizimli, doimiy bo'lishi;
- nazoratning turli shakllardan foydalanish;
- nazoratning har tomonlamaligi (o'quvchilarni nazariy bilimlarni, intellektual va amaliy ko'nikma va malakalarini tekshirishni ta'minlaydi);
- nazoratni obyektivligi;

- nazoratni tabaqalashgan yondashuv asosida tashkil etish.

11. 3. O'quv faoliyati natijalarini baholash va qayd etish

O'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatlari nazorati natijalari o'qituvchi tomonidan qo'yilgan baholashda o'z ifodasini topadi. Baholash —bu bilim, ko'nikma, malakalarni o'zlashtirilganlik darajasini aniqlash. Baholashning miqdoriy ifodalanishi bahoda aks etadi.

Baho — bu o'quvchilarni bilim, ko'nikma, malakalarini raqam va ballar orqali sharh ifodalash miqdori.

Ta'lim natijasi nafaqat baho orqali, balki boshqa vositalarda ham baholanishi mumkin. Masalan, og'zaki maqto'v, minnatdorchiлик bildirish, faxriy yorliq yoki medallar bilan taqdirlash orqali amalga oshirilishi mumkin.

Bilim sifatini aniqlashdagi yagona yondashuv obyektiv baholash hisoblanadi. Bilimlarni baholash o'quvchiga ta'sir etishning eng nozik jihatlarni ifodalaydi. Bilimga o'ta yuqori darajada baho qo'yish o'quvchini bilim olishga ruhlantirishi mumkin, lekin taltaytirib yuborishi ham mumkin. O'quvchiga past baho qo'yish o'quvchini bilimlarni olishga yo'naltirishi ham, qiziqishini pasayishiga ham sabab bo'lishi mumkin. Talabalar bilim, ko'nikma va malakalarini reyting tizimida nazorat etish va baholash yo'llari. Talabalar o'quv- bilim faoliyati natijalarini reyting usulda nazorat va baholashning an'anaviy usullardan afzalligi shundaki, u talabani uzluksiz, mustaqil o'qishga o'rgatadi, ularda o'quv ishlari o'rganiladi, muvaffaqiyatli intilishni shakllantiradi. Reyting tizimida yozma, og'zaki baholash bilan birga testi sinovlaridan keng foydalanilmoqda. Uning afzalliklari:

1. Nazorat va baholashning xolis instrumenti, uni to'g'ri tashkil etish, uning natijalari testlashtiruvchining shaxsiga bog'liq bo'lmaydi.

2. U texnologik xususiyatga ega, to'la guruhni keng qamrovli material asosida nisbatan qisqa vaqt davomida yalpi baholash imkonini beradi.

3. Testlashtirish natijalarini tahlil etish va rasmiylashtirish jarayonlarini avtomatlashtirish uchun qulay.

4. Natijalarni kompyuterga kiritib avtomatik ravishda tahlil qilish imkoniyati mavjud.

Sinovdan o'tuvchiga moslashuvchi kompyuter test sistemalaridan foydalanish imkoniyatlari ham mavjud bo'lib, ulardan keyingi topshiriq sinaluvchini avvalgi topshiriqni qay darajada bajarganligiga qarab beriladi.

Oliy o'quv yurtlari faoliyatiga reyting tizimini kirib kelishi, pedagogik testlardan butun o'quv jarayonida uzluksiz foydalanish imkoni vujudga keldi. Bugungi kunda barcha fanlar bo'yicha sifatli testlar bankini yaratish zaruriyati bor. Chunki, sifatli testlarni faqat talabalar bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish darajasini aniqlashga, shu bilan birga ularning bilish faoliyatini kuchaytirishga xizmat qiladi. Shuning uchun har bir o'qituvchi test madaniyatini egallash, o'zi o'qitayotgan fan bo'yicha testlarni talab darajasida tuza olishi zarur. Testlarning murakkablik darajasi, ishonchligi, keng kuchliligi, validligi, didaktik aspektlari tushunchalarini o'qituvchilar anglab olishi lozim.

11.4. Baholashdagi kamchiliklar

Ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida o'quvchilarni fanlar bo'yicha bilim, ko'nikma, malakalarini o'zlashtirganlik darajalarini baholashda quyidagi subyektiv kamchiliklarni uchratishiniz mumkin:

- baholashda bag'rikenglik qilish;
- kayfiyatga qarab baho qo'yish;
- baholashda aniq mezonlarning yo'qligi;
- baholashda tizimni yo'qligi;
- boshqalar bahosiga qarab baho qo'yish;
- bolani xulq-atvorini inobatga olib baho qo'yish;
- bahoni ko'tarish yoki pasaytirib qo'yish v.b.

Yuqoridagi baholash jarayonidagi kamchiliklarga yo'l qo'yish baholashdagi obyektivlikni yo'qolishiga olib keladi. Bunday holatlar o'quvchilarni bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini pasayishiga sabab bo'ladi.

Nazorat uchun savollar

1. Nazoratning asosiy vazifalarini izohlang.
2. Nazoratga qanday pedagogik talablar qo'yiladi?
3. Yozma va og'zaki so'rovning qanday yutuq va kamchiliklari mavjud?
4. Mashina orqali nazorat qilishning qanday imkoniyatlari mavjud?
5. Baholashning qanday shakllari sizningcha istiqbolli?

III BOB. TARBIYA NAZARIYASI

12. TARBIYA JARAYONINING MOHIYATI VA MAZMUNI

- 12.1. Tarbiya jarayoni tarbiya nazariyasining predmeti sifatida.
- 12.2. Tarbiyaning umumiy konsepsiyalari.
- 12.3. O'zbekistonda tarbiyaning zamonaviy konsepsiyasi.

12.1. Tarbiya jarayoni tarbiya nazariyasining predmeti sifatida

Ushbu bobda tarbiya jarayoni mohiyatini ko'rib chiqamiz. Tarbiya nazariyasi tarbiya jarayonini pedagogik jarayon sifatida o'rganuvchi pedagogikaning ilmiy sohasi hisoblanadi. Tarbiya nazariyasi tarbiya jarayonini pedagogik jarayon sifatida uning qonuniyatlarini va prinsiplarini, maqsadini, mazmunini, metod va vositalarini hamda shaklini, uning turli ijtimoiy institutlarda tashkil etilishini o'rganadi.

XX asming 90-yillariga qadar pedagogika bo'yicha mutaxassislar pedagogika fanining predmeti tarbiya deb ta'kidlagan bo'lsalarda, XX asming 90- yillaridan so'ng pedagogika fanining predmeti ta'lim deb hisoblab kelmoqdalar. Buning asosiy sabablaridan biri butun dunyoda ta'lim va tarbiya jarayonlarini ifodalash uchun ta'lim atamasi qo'llanilmoqda. Pedagogik adabiyotlarda tarbiyani to'rt xil ma'noda qo'llanilayotganini kuzatishimiz mumkin.

Tarbiya keng ijtimoiy ma'noda — ijtimoiy madaniy tajribalarni, me'yor va qadriyatlarini avloddan avlodga o'tishini ifodalaydi. Tarbiyaning ushbu ma'nosi sotsiologiya va boshqa xulq-atvor to'g'risidagi (falsafa, psixologiya, pedagogika) fanlardagi shaxsni ijtimoiylashuviga yaqinroq, ijtimoiylashuv deganda insonni jamiyatdagi xulq-atvor normalarini o'zlashtirishini, ijtimoiy hayotda insonni barcha ta'sir etuvchi omillar natijasida ijtimoiy rivojlanish jarayonini tushunamiz. Tarbiya fanda shaxsni rivojlanishi, ijtimoiylashuvi omillaridan biri sifatida qaralib, tarbiyaviy tizim doirasida maqsadga yo'naltirilgan shaxsni shakllanish jarayoni sifatida aniqlanadi. Tarbiyaning tor ijtimoiy ma'nosi ijtimoiy institutlardagi tarbiyaviy ta'sirlarni ifodalaydi. Bundan tashqari, tarbiya keng va tor pedagogik ma'noda ham qo'llaniladi. Tarbiyaning keng pedagogik ma'nosi o'quv tarbiya muassasalaridagi shaxsni shakllanishini anglatadi, tor pedagogik ma'noda tarbiyani jarayon sifatida qaralishini ifodalaydi. Tarbiyani tor pedagogik ma'nosi aniq tarbiyaviy tizim doirasida tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning o'zaro ta'sirida aniq insoniy sifatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan, maxsus tashkil etilgan faoliyat tushuniladi. Bu yerda pedagoglar faoliyati tarbiyaviy ishlar deb yuritiladi. Shunday qilib, tarbiya nazariyasi pedagogik borliqda tarbiyani shaxsni shakllantirishga yo'naltirilgan, tashkillashtirilgan pedagogik jarayon sifatida o'rganadi.

12.2. Tarbiyaning umumiy konsepsiyalari

Pedagogik adabiyotlar tahlilidan o'tmishda va hozirgi paytda tarbiyaga bo'lgan turli ilmiy-amaliy yondashuvlar aniqlanganligini ko'rishimiz mumkin. Bu yondashuvlar yoki tarbiya konsepsiyalari bir tomondan qadimgi sivilizatsiya tajribasi hamda amaliyotida hozirda esa ijtimoiy-falsafiy, ijtimoiy hayot tajribasini ifodalaydi.

Hozirgi paytda pedagogik konsepsiyalar uchun metodologik asos sifatida quyidagi falsafiy ta'limotlarni ajratishimiz mumkin. Bularga: pozitivizm, pragmatizm, ekzistensializm, neopozitivizm, dialektik materializm ta'limotlari kiradi. Pozitivizm (ijobiy -lotincha positivus so'zidan) - falsafiy idealizمنىng bir turi hisoblanadi. XIX asrda tarqalib, (O.Kant, St. Miller, G.Spenser), tomondan obyektiv borliqni aks ettirmaydigan subyektiv sezgi va tasavvurlarning yig'indisi deb, tushunilgan tajribaning ma'lumotlariga asoslangan. Pozitivizمنىng eng yirik namoyandalaridan biri Gerbert Spenser bo'lib, u o'zining pedagogik g'oyalarni quyidagicha ifodalaydi; maktabdagi ta'lim ilmiy bilimlar sistemasiga asoslangan bo'lib va asoslanishi ham mumkin emas, maktab asosan o'quvchilarga utilitar (amaliy foydali faoliyatlarida kerak bo'ladigan bilim, ko'nikma va malakalar) bilimlarni berishi kerak; maktabni asosiy maqsadi insonni ijtimoiy sharoitga moslashtirish uchun tarbiyalashdir; tarbiyaning butun bir sistemasini o'quvchilar ongiga mavjud ijtimoiy munosabatlarning barqarorligi haqidagi fikrni singdirishi lozim.

XIX asr oxirlarida Amerikada paydo bo'lgan G.Spenserning progressiv ta'limoti bilan bir xil g'oyaviy yo'nalishda rivojlandi, biroq u tarbiyada «xususiy tashabbuskorlikni» va «erkin tadbirkorlikni» rivojlantirish nihni kuchaytirdi. Progressivistlarning fikricha, bolalar motivlarini «spontan-begona ta'sirsiz paydo bo'ladigan, bolalarni ichki dunyosi va ehtiyojlaridan kelib chiqadigan qiziqish va motivlar) namoyon bo'lishi pedagogik jarayonning harakterini belgilashi lozim, tarbiyaning vazifasi esa, bolalarning individual imkoniyatlarini rivojlantirishga har tomonlama yordam berishdan iborat. Insonning hayotga individual moslashuvi haqidagi g'oya. G Spenser ta'limotiga tegishli bo'lib, AQSH va Angliyada pedosentrizمنىng rivojlanishiga ta'sir ko'rsatib, pedosentrizm tamoyillarini shakllanishiga asos bo'ldi.

Pedosentrizm vakillarining fikricha, pedagogik jarayon bolalarning o'z qiziqish, istak, motivlaridan kelib chiqishi kerak.

Amerikalik mashhur pedagog Djon Dyui pedosentrizm nazariyasini rivojlantirib, progmatizm nazariyasiga asos soldi. Uning fikricha, «tarbiya bolaning tajribasini tiklash, va qayta tashkil qilish»dir. Bolalarning to'plagan tajribalarini boyitish ularga muntazam bilim berib borishdan muhimroq vazifa hisoblanadi.

XX asrning 20-30-villarida paydo bo'lgan neopozitivizm o'zini «mantiqiy pozitivizm» deb ataydi, u falsafaning obyekt tabiat hamda jamiyat qonuniyatlarini o'rganish deb emas, balki fan va fan tilining mantiqiy tuzilishini o'rganish deb hisoblaydilar. Pedagogik nuqtayi nazardan pozitivizm va neopozitivizm «sinfy gomonizatsiyaga» intiladi. Maktabda birinchi navbatda o'rganilayotgan obyekt tabiiy fanlarning mantiqiy tuzilishi bo'lishi kerak ular ijtimoiy fanlarni ijtimoiy rivojlanish qonuniyatlarini inkor etadilar.

Ekzistensialistlarning fikricha, maorif va o'qish mazmuniga tizimli hamda ilmiy yondashish, yagona talablar qo'yish foydasiz, hatto zararlidir, ular individning erkin o'sishiga to'sqinlik qiladi. Tarbiya va maktab faqat o'zining takrorlanmasligiga ko'ra nodir bo'lgan har bir inson shaxsiga «o'z-o'zini ifoda etishi va o'z-o'zini namoyon qilishi uchun sharoit yaratishi kerak, xolos; shaxs uchun «ong oqimi» uning shaxsiy sezgi va kechinmalari muhimdir, undan dunyoni va o'zini baholashi kelib chiqadi. Ekzistensializm nazariyasida shaxsni uning ijtimoiy aloqalari va munosabatlaridagina ajratib, shaxs go'yoki o'zining shaxsiy «men»idan, shaxsiy sezgilaridan va o'zining subyektiv tajribasidan jamiyat bilan o'zaro murakkab munosabatini hamda ijtimoiy vaziyatlar harakterini baholashni keltirib chiqaradigan vaziyatni yaratishga intilishi yaqqol sezilib turadi.

Pedagogika shaxs va uning rivojlanishining psixologik nazariyalariga asoslanadi. Masalan, bixeviorizm, Vigotskiy va uning izdoshlarining tarixiy-madaniy maktabi, K. Rodjersning gumanistik psixologiyasini misol qilishimiz mumkin. XX asrda rivojlangan mamlakatlarda tor ko'rinishdagi tarbiya konsepsiyalari, aniqroq aytganda dolzarb, ijtimoiy siyosiy, insonparvar g'oyalar asosdagi dasturlar paydo bo'ldi. Bularga kommunikativ tarbiya, tinchlik ruhidagi tarbiya, yashash uchun tarbiya, madaniy tarbiya dasturlari kiradi.

Ta'lim tarixida va pedagogik nazariyalarda antik davrdan boshlab, u yoki bu alloma, pedagog nomi va ijodi bilan bog'liq bo'lgan tarbiyaning umumiy konsepsiyalari shakllangan. Bularga: Platonning ijtimoiy pedagogik utopiyasi, Ya.A. Komenskiyning umumiy tarbiya to'g'risidagi ta'limoti, J.J.Russoning erkin tarbiya ta'limoti, I. Gerbart, K.D. Ushunskiy, Dj. Dyui, A.S. Makarenkolarning pedagogik tizimlari misol bo'la oladi.

Nemis mutaxassisi F. V. Kron tarbiyaga bo'lgan olti yondashuvni ko'rsatib o'tgan:

Tarbiya - o'ziga xos majburlashdir (Platon).

Tarbiya - hayot davomida bolaga yordam berish (Pestalotsi).

Tarbiya - bolani erkin rivojlanishi uchun sharoit yaratish (Russo).

Tarbiya - bolani nazorat va boshqarish (Gerbart).

Tarbiya - bolani tajrabali va katta odamlar tomonidan rahbarlik qilish.

Tarbiya - belgilangan me'yorlarni ishlab chiqarish (bixeviorizm).

Yuqondagilardan ko'rinib turibdiki, tarbiya konsepsiyasi turli darajalarda, ya'ni falsafiy, ijtimoiy va psixologik ta'limotdan boshlab, zamonaviy va o'tnushdagi pedagoglarning mualliflik maktablarigacha. Mualliflik maktablari u yoki bu pedagogning yoki pedagoglar guruhining alohida g'oyalari va maqsadli konsepsiyalari qo'llaniladigan muassasalar hisoblanadi. Bugungi kunda tarbiyaning asosiy muammolaridan biri tarbiyada erkinlik va majburiylik munosabatidir. Boshqacha qilib aytganda, shakllanish jarayonini davlat, ta'limning maxsus tizimlari, maktab, odamni yoshligidan boshlab rivojlanishi, maqsadga yo'naltirilgan tarbiyaviy ta'sirlarni samaradorlik imkoniyatlari bo'yicha rivojlanishni nazoratga olishi kerak. Har bir inson o'zining rivojlanishida, o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishida va ehtiyojlarini qondirilishida jamiyatdan ozodmi yoki vo'qmi degan savol ijtimoiy-falsafiy sohada mavjud. Ushbu savolni hal etilishi turli darajalarda amalga oshiriladi. Bularga maxsus konsepsiya, mamlakatning ta'lim sohasidagi

milliy dasturi, maktabni tarbiyaviy tizimi, mualliflik tarbiya tizimlari, o'qituvchining bolalar bilan individual muloqot stilikabilar kiradi. Bunda har bir inson uchun individual ta'lim trayektoriyasi yaratish imkoniyatlarini nazarda tutadi.

Shunday qilib, turli mamlakatlarning zamonaviy ta'lim tizimlarida va ta'lim tarixida ikki turdaga tarbiya konsepsiyalarini (avtoritar va gumanistik) ajratish mumkin. Demak, avtoritar tarbiya konsepsiyasida jamiyat uchun ahamiyatli bo'lgan maqsad va qadriyatlarga urg'u berilsa, gumanistik tarbiyada shaxsning individual, ya'ni qiziqishi, ehtiyoji va imkoniyatlariga e'tibor beriladi.

XX asrning pedagogik konsepsiyalari orasida, ijtimoiy yo'nalganlik harakteridagi bixeviorizm nazariyasini ko'rib chiqaylik.

Bixeviorizm nazariyasi amerikalik pedagog va psixolog D.Dyui tomonidan XX asr boshlarida paydo bo'ldi.

Bixevioristik pedagogika tarbiyaga texnologik yondashuvni stimullashtirdi. Unga muvofiq o'qituvchi o'quvchi modelini, undagi shaxsiy sifatlar yig'indisini aniqlab, ta'sir etish metod va vositalarini loyihalashtiradi. Bu pedagogikadagi texnokratik tendensiyalar talablariga javob beradi. Ya'ni jamiyat nazorati ostida shaxs shakllanishini boshqarishni ilmiy-pedagogik tizimini ishlab chiqdi. Texnokratik yondashuv mohiyati o'quvchi va kattalarning ruhiyatiga ta'sir etish nazariyasi va amaliyotini ifodalaydi. Bixeviorizm inson hayoti biologik, mexanik reaksiyalardan iborat xolos, uning ongi, qadriyatlari, axloqiy prinsiplari, qarashlari motivlari shaxsning xulqini aniqlaydi deb hisoblaydi. XX asr boshlarida pedagogikada islohotlar davri, ya'ni yangi maktab, erkin tarbiya uchun harakatlar davri deb e'tirof etilgan. Yangi maktab tarafdorlarining fikricha, ta'lim va tarbiyani bolalarning qiziqish va qobiliyatlarini hisobga olgan holda tashkil etish zarur. Tarbiya ularni imkoniyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerakligini ta'kidlaydilar.

Shunday qilib, ta'lim-tarbiya tarixida tarbiya tizimining ikki turi mavjudligini ko'rishimiz mumkin. Birinchisi - an'anaviy tarbiya, buning mohiyati tarbiyani ijtimoiy normalarni o'zlashtirishga yo'nalganligi, insonga ijtimoiy talablarni qo'yilishi bilan harakterlanadi. Tarbiya tizimining insoniy yo'naltirilganligi shaxsni individual rivojlanishini, uning ichki ehtiyoj va qiziqishlarini ifodalaydi. Bunda bolani erkin faoliyati alohida kasb etadi.

12.3. O'zbekistonda tarbiyaning zamonaviy konsepsiyasi

Mamlakatning tasdiqlangan, qabul qilingan tarbiya konsepsiyasi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, tarixiy-madaniy, psixologik va pedagogik omillar bilan aniqlanadi. Ma'lumki, mamlakatimizda barcha omillar o'tgan asrning 90-yillaridan boshlab o'zgaradi. Tarbiyaning yangi paradigmasiga buriilishi o'tgan asrning 80-yillarida novator o'qituvchilar harakatlarida paydo bo'ldi.

Mamlakatimizda demokratik jamiyatni shakllanishi: inson huquqi, fuqarolik jamiyati, demokratiya, iqtisodning ijtimoiy yo'nalganligi, insonparvarlashtirish kabi me'yoriy normalar bilan bog'liq. Ushbu tayanch prinsiplar siyosatchilar, sotsiologlar va boshqa mutaxassislar bilan kelishilgan holda yer yuzidagi insonlar hayotining bugunini va istiqbolini belgilaydi. Insoniylik dunyoqarash, insonni

asosiy qadriyat sifatida uning rivojlanish huquqini, baxtini, o'z qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishini ifodalaydi. Mutaxassislarining ta'kidlashicha, insoniylik dunyo evolutsiyasining tabiiy natijasidir. Insoniylik ijtimoiy, ilmiy, madaniy, axloqiy fenomen hisoblanib, insonni tabiatga, jamiyatga, insonga nisbatan qarashlari yig'indisi hisoblanadi. Insoniylik g'oyalari qadim zamonlardan ma'lum bo'lib, ammo dunyoni gumanistik tushunish, Uyg'onish davridan boshlab paydo bo'ldi. Uyg'onish davri mutafakkirlari shaxs qadriyatini, insonni bilish va rivojlanish imkoniyatlarini, dunyoni o'zgartirish imkoniyatlarini chegarasi yo'qligini ko'rsatib o'tganlar.

XX asda insoniylik g'oyalari butun dunyo intellektual kuchlarini birlashtirib, milliy insoniy harakatlarni, tashkilotlarni, ilmiy anjumanlarni tashkil etilishiga, yaratilishiga turtki bo'lmoqda.

Shunday qilib, bugungi kunda mamlakatimizda tarbiya konsepsiyasini ishlab chiqish uchun qator sharoitlar va manbalar mavjud. Bularga:

mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sharoitlar;

ta'lim va madaniyatning boy tarixi;

gumanistik tarbiya nazariyalari va tizimi hamda chet el tajribasi.

Adabiyotlarda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi, insonparvar pedagogika, erkinlik va muhabbat ruhidagi tarbiya asoslanmoqda, muhokama qilinmoqda. Ikkinchi bir tomondan an'anaviy sobiq ittifoq tarbiya tizimi inqirozga uchrab keskin tanqid qilinmoqda.

Tarbiyaga bo'lgan yangi yondashuvni mohiyati tarbiyaning yangi paradigmasida va tarbiyaning yangi konsepsiyasida qanday ifodalangan degan savolga javob beramiz. Paradigma — nazariya, tadqiqot vazifalarni hal etish uchun namuna sifatida qabul qilingan ilmiy yondashuv. Konsepsiya - tarbiyaning asosiy komponentlari, maqsad, mazmun, metod, shakl, vositalar to'g'risidagi tasavvurlar.

Pedagogik adabiyotlarda bugungi kunda va kelajakda tarbiya maqsadlari tizimini asoslashga urinishlar kuzatilmoqda. Ko'plab mutaxassislar tarbiya maqsadini aniqlashda aksiologik yondashuv (tarbiya maqsadi jamiyatda qabul qilingan qadriyatlarga asoslanishi) ga tayanmoqdalar (ushbu holatda qadriyatlar - biror bir inson, butun bir jamiyat uchun etalon sifatida qabul qilingan ijtimoiy ideallar, abstrakt g'oyalar hisoblanadi).

Tarbiya maqsadi jamiyat rivojlanishi ehtiyojlaridan, ishlab chiqarish taraqqiyotidan, ijtimoiy va ilmiy-texnik progres tezligidan, pedagogik nazariya va amaliyotning rivojlanganlik darajasidan, o'quv muassasasining, o'qituvchi va o'quvchilarning hamda jamiyat imkoniyatlaridan aniqlanadi. Tarbiya maqsadi - bu yosh avlodni hayotga tayyorlashdagi oldindan aniqlangan natija hisoblanadi. Tarbiya maqsadi to'g'risidagi bilimlarni bilish o'qituvchidan qanday odamni shakllantirish kerakligi to'g'risidagi tasavvurni hosil qiladi.

Mamlakatimiz ta'lim tizimining me'yoriy hujjatlarida tarbiya maqsadi O'zbekiston uchun vatanparvar, ozodlik, demokratiya, insoniylik, adolat ideallarini yuqori qo'vuvi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qiluvchi, o'z qiziqishlarini davlat, jamiyat, boshqa odamlar qiziqishlari bilan uyg'unlashtiruvchi, o'z milliy tarixini, tilini e'zozlovchi shaxsni shakllantirishdir deb belgilangan.

Nazorat uchun savollar

1. « Tarbiya» atamasi qanday ma'noni bildiradi?
2. Tarbiya, ta'lim va ijtimoiylashuv orasidagi aloqadorlikni izohlang.
3. Insonparvar pedagogika mohiyati nimada?
4. O'zbekistonda tarbiyaning qanday zamonaviy konsepsiyasi mavjud?

13. TARBIYA QONUNIYATLARI VA PRINSIPLARI

- 13.1. Tarbiya jarayoni mohiyati
- 13.2. Tarbiya jarayoni qonuniyatlari
- 13.3. Tarbiya jarayoni prinsiplari

13.1. Tarbiya jarayoni mohiyati

O'tgan bobda tarbiya konsepsiyasi ijtimoiylashuv instituti sifatida qaraldi. Ushbu bobda tarbiyani pedagogik jarayon sifatida ko'rib chiqiladi.

Ijtimoiy va pedagogik fanlar tarbiyani tavsiflab, uning ijtimoiy asosini ko'rsatib berganlar. Inson tarbiyasi jamiyatning rivojlanish darajasiga va xususiyatlariga bog'liq bo'lib, faqat insoniyat jamiyatida paydo bo'ladi va amalga oshiriladi. Inson nafaqat biologik, balki ijtimoiy mavjudot hisoblanib, uning shakllanishi mamlakatning ta'lim tizimiga, jamiyatga bog'liq. Mamlakat ta'lim tizimi tuzilishi va xarakteri jamiyat rivojlanish tendensiyalariga, holatiga bog'liq. Davlat, hukumat organlari ushbu tendensiyalarni ifodalab, mos keluvchi ta'lim tizimini yaratib, tarbiya uchun sharoit yaratadi.

Tarbiya tabiiy-ilmiy asosga ega. Taniqli rus psixolog olimlari I.M.Sechenov, keyinchalik I.P.Pavlovlar inson xulqi va psixikasining shartli reflektor tabiati to'g'risidagi ta'limotni yaratganlar. Uning mohiyati shundaki, insondagi shartli reflekslar hayot jarayonida va turli omillar ta'sirida shakllanishi bilan harakterlanadi. Natijada xulqning stereotiplari, dastlabki reaksiyalar, ishlab chiqilib, xarakterni shakllanishiga olib keladi. Pedagogika uchun tarbiya ahamiyati bo'lib, odatlar, shartli reflekslarni maqsadli, ongli tarzda ishlab chiqish mumkin. Bu haqda taniqli rus pedagogi K.D.Ushinskiy, keyinchalik psixologlar ta'kidlaganlar.

Bixeviorizm XX asr boshlarida inson xulqini reflektor tabiati to'g'risidagi ta'limotiga asoslanib, o'zining inson xulqini ijobiy va salbiy tizimlar yordamida boshqarish imkoniyatlari to'g'risidagi ta'limotni yaratdi. Birinchidan bixevioristlar tarbiya jarayonida ongning, hissiyotning, inson bilimlarni, ehtiyojlar tizimini va motivlarni, qadriyatlarini inkor etadilar. Inson xulq-atvori nafaqat reflektorli hodisa reaksiya bilan kelishmaydi. Shaxs — murakkab tizim bo'lib, nafaqat reflekslar tizimi sifatida shakllanadi. Ammo reflekslar nazariyasi, bosh miya tabiati to'g'risidagi bilimlar, oliy asab faoliyati, tarbiya jarayonini, shaxsni tarbiya ta'sirida shakllanishini tushunishga yordam beradi.

Tarbiyadagi shartli reflekslar —bu ijtimoiy reflekslar, ular ijtimoiy muhitda muloqotdan, stimullar, ijtimoiy muhit (oila, o'qituvchi, tengdoshlar) ta'siridan hosil bo'ladi.

Psixologlar tarbiya jarayonini interiorizatsiya jarayoni sifatida qaraydilar: bu shaxsning biliini, qadriyatlariga munosabatlariga ko'ra tashqi, ijtimoiy ta'sirlarni shaxsning ichki kechmalariga o'tishi bilan harakterlanadi. «Interiorizatsiya» tushunchasini psixologlar tarbiya jarayonida shaxsni shakllanish mexanizimini tushuntiradilar. Inson harakatlarni, boshqalarni xulqini ko'radi, ularga taqlid qiladi, obrazlarni yaratadi, ijtimoiy madaniy muhitdagi qadriyatlarni o'zida shakllantiradi, o'zlashtiradi hamda psixologik rejada o'zgartiradi. Ular asosida teskari jarayon— eksteriorizatsiya — odamlar faoliyatida ichkidan tashqiga o'tish jarayoni kechadi. Shunday qilib, tashqi muhit ta'sirida shaxsning murakkab psixologik tizimini shakllanish jarayoni amalga oshadi.

Interiorizatsiya jarayon va hodisalarni o'sishi, o'zgarishi insonni o'sishiga, uning qobiliyatini, ko'nikmalarini, tafakkurini, faoliyatini o'sishiga olib keladi.

Pedagogikada «birgalikdagi va ajralgan faoliyat» tushunchasi mavjud bo'lib u madaniy muhitni o'zlashtirish uchun pedagog faoliyatida bolaga ko'rsatadi, mustaqil ish foizini ko'paytirib, kattalar rahbarligidan ozod etib bola bilan birgalikda bajaradi.

XX asrdan boshlab pedagogika va psixologiyada tarbiya jarayoni nafaqat ta'sir etish, kattalarni rahbarligi sifatida tushuniladi, balki tarbiyasi va tarbiyalanuvchi orasidagi o'zaro ta'siri sifatida tushuniladi. Bu yerda tarbiya ma'lum bir pedagogik tizim doirasidagi pedagogik jarayon sifatida ko'rilmogda. Demak, tarbiyani pedagogik jarayon sifatida qaraganimizda o'quv tarbiyaviy muassasalarda maxsus tayyorgarlikka ega mutaxassislar tomonidan tashkil etiladigan, boshqariladigan hodisa sifatida anglaymiz.

Shunday qilib: tarbiya jarayoni — pedagogik tizim (muassasa) doirasida tarbiyachi va tarbiyalanuvchining o'zaro ta'sirida amalga oshadigan, insonni rivojlanishi va shakllanishi bo'yicha maqsadga yo'naltirilgan, tashkil etilgan faoliyati hisoblanadi. Pedagogik jarayonda kechadigan tarbiya jarayonining mohiyati aniqlovchi omil (tarbiyachi, pedagog ta'siri) hamda hal qiluvchi omil (tarbiyalanuvchilarning javob harakatlari) o'rtasidagi o'zaro ta'sirda ifodalanadi. Demak, tarbiya jarayonining tuzilishi o'zaro aloqador tarbiyachining tarbiyalovchi, tarbiyalanuvchining tarbiyalanuvchi faoliyatidan iborat. Amerika olimi K.Rodgers tarbiya jarayoni tuzilishini quyidagicha ifodalaydi:

1. Tarbiyachi tarbiya maqsadini qo'yadi - tarbiyalanuvchi esa maqsadni qabul qilib, anglaydi.

2. Tarbiyachi tarbiya mazmunini aniqlaydi - tarbiyalanuvchi esa ma'lumotlarni qabul qiladi.

3. Tarbiyachi tarbiya shaklini, metodlarini tanlaydi - tarbiyalanuvchi esa faoliyatda faol ishtirok etadi.

4. Tarbiyachi tarbiyaviy ta'sir natijalarini baholaydi, tarbiyalanuvchi esa o'z xatti-harakatlarini baholaydi. Pedagogik tizimda ta'lim, tarbiya, rivojlanish jarayonlari o'zaro bog'liqlikda kechadi. Tarbiya xususida Seneka (e.a. IV asrda yashagan) «Oldin axloqni o'rgan, so'ng donolikni, birinchi hissiz ikkinchisini o'rganish qiyin» degan fikrni bildirgan bo'lsa, M.Monten «Kimki axloq fanini o'rganmas ekan, boshqa fanlar unga zarar keltiradi» deb ta'kidlagan.

Tarbiya insonni madaniyatga intilishida, munosabatlarni shakllanishida, insonni psixik rivojlanishida, shaxsni ijtimoiylashuvda muhim o'rin tutadi.

Tarbiyalash - bu odamlar orasida o'zaro munosabatlar tizimini hosil qilishdir. Ya'ni tarbiya odamni boshqa odamlarga, mehnatga, jamiyatga, dunyoga, o'ziga munosabatlarini shakllantiradi.

Tarbiya jarayoni samaradorligi tarbiyaviy munosabatlarga, tarbiya maqsadiga, tarbiya yo'nalishi va mazmuniga, obyektiv va subyektiv omillarga, tarbiyalash o'z-o'zini tarbiyalash intensivligiga, ta'lim, rivojlanish jarayonlarining faolligiga, tarbiyalanuvchilarning motiv, ehtiyoj, hissiyotiga, tarbiyalanuvchilar orasidagi munosabatlarga bog'liq.

Tarbiya ijtimoiy hodisa, faoliyat, tizim, jarayon sifatida talqin etilmoqda.

Jarayon sifatida tarbiya o'quv-tarbiya muassasa tizimidagi yo'naltirilgan jarayonni ifodalaydi. Mutaxassislar tomonidan tarbiya jarayoni mohiyatini ifodalashda turli xil qarashlarni uchratishimiz mumkin. Masalan, rus pedagoglaridan: Podlasiy «tarbiya - bu maqsadga yo'naltirilgan va tashkillostirilgan shaxsni shakllanishi», Mardaxayev «tarbiya - bu insonni har tomonlama rivojlanishi uchun sharoit yaratish», Harlamov «tarbiya - bu jamiyat va jamiyat kelajagi uchun yosh avlodni hayotga tayyorlash «deb ta'kidlaydilar. Dyurkgeym tarbiya - bu harakat, katta avlodni kichik avlodga ta'siri deb ifodalaydi.

Tarbiya o'quv tarbiya muassasa doirasida tizim sifatida ko'riladigan pedagogik jarayon hisoblanadi. Pedagogikada «tizim» tushunchasi turli terminlarda mustahkamlangan, bularga pedagogik tizim, tarbiya tizimi, ta'lim tizimi, maktab tarbiya tizimi, tarbiyaviy ishlar tizimi v.b. Tarbiya jarayoni mohiyatini tushunish uchun ta'lim tizimini o'quv muassasalar va boshqaruv organlari yig'indisi sifatida emas, balki pedagogik tizim sifatida qaralishi lozim.

Pedagogik tizim tuzilishining asosiy komponentlari pedagogikaning asosiy kategoriyalarida aniqrog'i tarbiya nazariyasida ifodalanadi. Jumladan: tarbiya maqsadi, mazmuni, metodlari, vositalari, shakllari. Pedagogik tizimning tuzilmaviy komponentlari va ularning aloqalari T.Ilna, N.Kuzmina V.P.Bespal'ko, V.P.Simonovlar tomonidan ochib berilgan.

Pedagogik jarayon va pedagogik tizim birligi jarayonni shakllantiradi, bu tizimning xususiyati hisoblanadi. Pedagogik jarayonlar — bu pedagogik tizim holatining ketma-ket o'rin almashishidir.

Pedagogik tizimni tizimli ko'rish mohiyati shuki, bunda tizim va jarayonlarni tuzilmaviy komponentlarini va ular orasidagi aloqadorliklarni ajratish bilan harakterlanadi. Bu har bir komponent mohiyatini, xususiyatlarini, ular orasidagi aloqadorliklarni, birining o'zgarishi natijasida ikkinchisi o'zgarishini anglashga yordam beradi. Masalan, maqsadga qarab mazmun o'zgarishi, tarbiyalanuvchining tarbiyalanganligiga qarab tarbiya metodlarining o'zgarishi v.b.

Pedagogik tizim tuzilishi — bu pedagogik tizim komponentlariga mos keluvchi, qismlar yig'indisi hisoblanadi. Pedagogik jarayon komponentlarini quyidagilar tashkil qiladi:

maqsadli — tarbiya maqsadini anqlash;

mazmuniy — tarbiya mazmunini ishlab chiqish;

faoliyatli — tarbiyaviy faoliyatni va jarayon qatnashchilari orasidagi aloqadorlikni tashkil etish;

natijaviy — tarbiya natijasini tekshirish, baholash, tahlil etish va jarayon samaradorligi to'g'risida fikr yuritish.

Yana bir komponent faoliyatli — kommunikativ, u tarbiyaviy tizimda tarbiya subyekti va obyektini, tarbiyachi va tarbiyalanuvchini, kattalar va bolalar muloqotini, tarbiya jarayonidagi o'zaro aloqadorlikni ifodalaydi. Bu tarbiya jarayonini muhim tavsifnomasi hisoblanadi.

Pedagogik jarayon tuzilishi mos holda pedagogik faoliyat tashkil etiladi: maqsad, mazmun, metodlar, vositalar va faoliyat turlari ishlab chiqiladi hamda natija tahlil qilinib baholanadi.

Pedagogik diagnostika maqsadni aniqlashni talab etib, pedagogik jarayon holatini o'rganadi. Birinchidan, o'quvchilarni tarbiyalanganligini va bilim darajasini, shu bilan birga jarayonni boshqa sharoitlarni ham o'rganadi. Pedagogik jarayon bosqichlari: diagnostika, loyihalash, amalga oshirish, nazorat kabi pedagogik faoliyatdagi takrorlanuvchi, siklik to'g'risidagi g'oyalarga olib keladi. B. P. Bitnas pedagogik jarayonni tahlil qilib, tahlil o'lchovini, ya'ni pedagogik vaziyatni ajratgan. Bu pedagogik jarayonni sifatini aniqlovchi holat hisoblanadi. Umuman olganda jarayon — bu harakat, tizim holatining o'zgarishi, u pedagogik vaziyatlar zanjirini ifodalab, pedagogik vazifalarni bildiradi. Masalalarni hal etish va amalga oshirish yuqoridagi tarzda amalga oshadi. Ushbu sikllardagi uzluksiz spiral tarbiya jarayonini ifodalaydi.

13.2. Tarbiya jarayoni qonuniyatlari

Tarbiya jarayonining alohida tomonlari tarbiya qonuniyatlari va prinsiplarini tahlil qilishda namoyon bo'ladi. Qonuniyat — tushunchasi qonun tushunchasiga yaqin bo'lib, tizimdagi o'zgarishlarga yo'naltirilgan va tendensiyalarini ta'minlovchi takrorlanib turuvchi ichki bog'lanishlardir. Qonun mazmuniga ko'ra o'zaro aloqadorlikni ifodalaydi. Qonun jarayon tomonlarini, hodisalar orasidagi obyektiv, mavjud aloqalarni aniqlash sifatida namoyon bo'ladi. Tarbiya jarayonidagi bunday aloqalar bilimlarga tayangan holda uni tushunishga, tasvirlashga, tashkil etishga yordam beradi. Mohiyatiga ko'ra qonunlar — bu fan o'rganadigan borliqdagi obyekt, reallik to'g'risidagi nazariy bilimlar hisoblanadi. Qonunlar tarbiya jarayonini yo'nalishlarini, tizim xulq-atvorni tashxislashni ifodalaydi. Qonun ochib beradigan aloqalar — bu determinizm prinsipiga ko'ra (har qanday hodisani obyektning o'zgarishi biror bir sababga ko'ra) sabab-oqibat aloqalaridir.

Pedagogikada qonun tushunchasi bilan birgalikda tarbiya prinsipi tushunchasi aloqadorlikda o'rganiladi. Tarbiya prinsipi — bu qonunga asoslangan tarbiyaga bo'lgan asosiy talab, pedagog harakatlarini aniqlovchi bosh g'oya hisoblanadi.

Tarbiya qonuniyatlari orasida tarbiyani ijtimoiy hodisa sifatida va pedagogik jarayon sifatida harakterlovchi umumiy qonuniyatlar mavjud. Bu qonunlar ta'lim va tarbiya munosabatlarni ko'rsatadi.

Tarbiyani jamiyat talablariga mosligi qonuni. Bu qonun an'anaviy pedagogikada ishlab chiqilgan bo'lib, tarbiyaning barcha elementlari uchun tegishli:

tarbiya tizimi, mamlakatdagi ta'lim davlat ehtiyojlariga javob beradi, bu tarbiya jarayonida, uning maqsadida, mazmunida, metodlarida ifodalangani. Boshqa tomondan tarbiya tizimi va pedagogik jarayonlarni tashkillash harakteri jamiyat, imkoniyatlariga, mamlakatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ilmiy-texnik rivojlanish darajasiga bog'liq. Ushbu tarbiya, jamiyat, davlat orasidagi aloqalar ta'lim siyosati orqali tuzatiladi va tartibga solinadi.

Tarbiya maqsadi, mazmuni, metodi birligi qonuni tarbiya jarayonining barcha komponentlari aloqadorligini ifodalaydi. Maqsad mazmuni, metodlarni, ish shaklini aniqlaydi. O'z navbatida tarbiya jarayonining bu elementlari o'qituvchi va o'quvchilarning qobiliyatlariga va imkoniyatlariga bog'liq. Tarbiya jarayonidagi qarama-qarshiliklar tarbiyaviy ishlarni buzilishiga, samaradorsizligiga olib keladi.

Shaxsni tarbiyasi rivojlanishi va ta'limi birligi qonuni. Yuqorida bir tomondan ta'lim va tarbiya jarayonlarining aloqasi, ikkinchi tomondan shaxsni rivojlanishi orasidagi qonuniy aloqalar xususida ta'kidlab o'tildi. Bu psixologik- pedagogik fanlarning fundamental holatlaridan biridir. Ta'lim va tarbiya o'zaro aloqadorlikda olib borilganda samaradorlikka, yutuqlarga erishiladi. Shaxs rivojlanishida har ikki omil asosiy hisoblanishi ko'plab mutaxassislar tomonidan ta'kidlab o'tilgan.

Boshqa qonunlar tarbiya jarayoni ichidagi aloqadorliklarni ko'rsatadi: tarbiyani faoliyatda mavjudligi qonuni, tarbiya jarayonini tarbiyalanuvchi faolligi bilan aloqasi qonuni, tarbiya va muloqot aloqasi qonuni, tarbiya jarayonini xususiyatlarini tarbiyalanuvchilarning yosh, individual, jinsiy xususiyatlari bilan aloqasi qonuni, shaxsni shakllanishi jamoa rivojlanishi darajasiga bog'liqligi qonuni v.b qonunlar.

Tarbiyani faoliyatda mavjudligi qonuni. Bu, agar biz tarbiyalanuvchilarda tajribani, bilimlarni, qarashlarni, qadriyatlarini shakllantirishni ta'minlamog'chi bo'lsak, biz ularni faoliyatga jalb qilishimiz kerakligidan dalolat beradi. Faoliyat psixologiyaning asosiy tushunchasi hisoblanadi. Tarbiya jarayonida faoliyatning turli ko'rinishlari shaxsni rivojlanishi va shakllanishining asosiy vositasi va sharti hisoblanadi. Tarbiyalash faoliyatga jalb qilish, turli rivojlantiruvchi faoliyatlarni tashkil etishdir.

Tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchilarni faolligi qonuni, inson faqat faoliyatda shaxs sifatida mustaqil faol mavjudot sifatida o'zini anglaganda, faoliyat shaxsiy mohiyatga ega bo'lganda shaxs shakllanishini, rivojlanishini tasdiqlaydi. Bu qonun bilan qator xususiy qonuniyatlar va tushunchalar aloqadordir. Masalan, o'z-o'zini tarbiyalash, hayotini va kasbini aniqlash, shaxsni o'z-o'zini namoyon qilishi. Ushbu qonunga P.A.Galperin, V.V.Davidovlarning o'quv faoliyati nazariyasi asoslangan. Bu qonun A.S.Makarenko va boshqa buyuk pedagoglar tajribalarida tasdiqlangan.

Tarbiya va muloqot birligi qonuni. Bolalar va o'smirlarning shakllanishi, muloqot mazmuniga, pedagog va o'quvchi xulqi stiliga, ma'lumotlarni almashishni tashkil etilishiga, guruhdagi muassasadagi munosabatlarga bog'liq. Tarbiya, faoliyat, muloqot o'rtasida qonuniy sabab-oqibat aloqalari mavjud. Ushbu qonunga muvofiq tarbiya bevosita muloqot jarayonida amalga oshiriladi. Shuning uchun pedagogikada o'qituvchini tarbiya jarayonida o'quvchilar va boshqalar bilan muloqot texnologiyasini ishlab chiqish, tarbiya jarayonida munosabat texnikasini

o'rnatish, stil bo'vicha tavsiyalarni ishlab chiqish, kasbiy pedagogik xulq bo'yicha pedagogik muloqotni tashkil etish asosiy ishlardan biri hisoblanadi.

Tarbiyani jamoada mavjudligi qonuni. Jamoa yuqori tashkillashtirilgan guruh sifatida shaxsni shakllanishiga ta'sir etib, tarbiyaning kuchli vositasi hisoblanadi. Jamoa faoliyati, undagi muloqot, guruh a'zolari o'rtasidagi munosabat isbotlangan tajriba hisoblanadi. Jamoada va jamoa orqali tarbiyalash sobiq ittifoq pedagogikasidagi asosiy prinsiplardan biridir. Jamoa a'zolariga guruh faollarining, bolalarning ta'siri, mas'uliyatli munosabatlar, turli birlashmalardagi, guruhlardagi o'zaro ta'sir ko'nikmalari, psixologik muhit, jamoa an'anasi bu va boshqa tushunchalar A.Makarenko tomonidan ishlab chiqilgan jamoa nazariyasiga tegishli. G'arb pedagogika va psixologiyasida shaxs shakllanishi xususiyatlari inson tegishli guruh rivojlanish darajasiga bog'liqligi qonuniyatlarini o'rganadi. A.S.Makarenko xulosalariga va tajribasiga butun dunyo pedagoglari qiziqish bilan qaraydilar.

Tarbiyani tarbiyalanuvchilarning yosh, individual xususiyatlariga bog'liqligi qonuni. Tarbiya jarayoni uning maqsadi, mazmuni, metod va shakllari nafaqat jamiyat, davlat tomonidan qabul qilingan tarbiya konsepsiyasiga, balki o'quvchilarning yosh, individual xususiyatlariga kam bog'liq. Turli yoshdagi odamlar faoliyatda va muloqotda o'zlarini turlicha namoyon qiladilar. Bu ulami individual xususiyatlari bilan bog'liq.

13.3. Tarbiya jarayoni prinsiplari

Maktab va pedagogika tarixidan hozirgi vaqtgacha tajribada va tadqiqotchilar tomonidan tasdiqlangan tarbiya jarayonining mavjud qonuniyatlarini ifodalovchi ko'pchilik tomonidan tan olingan klassik, an'anaviy prinsiplar mavjud. Ular prinsiplar tizimini asosini tashkil etib, tarbiya jarayonini shundayligicha tushunishni, aniqlash to'g'risida ifodalab, pedagog tarbiya samarali bo'lishi uchun nima qilishi kerak degan savolga javob beradi. Prinsiplar tarbiya jarayomga bo'lgan talablar, asosiy g'oyalar tizimi sifatida nafaqat qonunlarni ifodalaydi, balki ular asosida shakllanadi, pedagogik ta'siri natijasi bo'la olmaydi. Ta'lim- tarbiya prinsiplarini tanlash va tahlil etish, ular mazmunini qayta anglash bu tarbiya paradigmasini va konsepsiyasini ifodalovchi ilmiy pedagogik va amaliy, ijtimoiy- madaniy jarayon hisoblanadi.

Shunday qilib, prinsiplar u yoki bu tarbiya konsepsiyalari orqali aniqlanib, tajriba va amaliyotda tekshiriladi yoki ta'limning real vaziyatlarida amal qilinadi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, yangi tarbiya konsepsiyasiga, va'ni gumanistik ilmiy-pedagogik, shaxsga yo'naltirilgan tarbiya konsepsiyasiga o'tilayotgan hozirgi paytda yangi prinsiplar tizimini asoslash ularni yangi mazmun bilan boyitish tarbiyaning zamonaviy konsepsiyasiga moslashirish maqsadga muvofiq. Bu o'tmishdagi tarbiya an'analarni zamonaviy vositalar bilan taqqoslaganda erishiladi.

Sobiq ittifoq davridagi ilmiy va o'quv adabiyotlarida tarbiyaning kommunistik yo'nalganligi, tarbiyaning hayot va kommunizm qurish amaliyati bilan bog'liqliligi, pedagogik rahbarlikning tarbiyalanuvchilarning mustaqil faoliyati bilan bog'liqliligi, shaxsga hurmat va talab birligi kabi prinsiplar birinchi o'rinda

turganligini ko'rishimiz mumkin. Bundan ko'rinadiki, o'sha davr g'oyalari-ga, mafkurasiga javob beruvchi talab va qoidalar mavjud bo'lgan.

Mamlakatimizda tarbiya prinsiplar tizimi nuna uchun va qanday o'zgar-yapti. Tarbiya prinsiplari tizimi tarbiyaning yangi paradigmasi ta'sirida o'zgarib, uning asosiy holatlari qoidalarini, ko'rsatmalarini ifodalaydi. Bu konsepsiya rivoj-langan davlatlarda tan olingan bo'lib, gumanistik konsepsiya nomi bilan yuritiladi.

Mamlakatimizda gumanistik pedagogikani rivojlanishini eslatib o'tamiz. Birinchidan, bu qadimdan XIX asrgacha chet el klassik pedagoglarning Ya.A.Komenskiy, G.Pestalotsi, A.Disterveg, K.D.Ushinskiy hamda sharq mutafakkirlari Forobiy, Ibn Sino, Beruniylarning qarashlari va nazariyalari bilan bog'liq. Ikkinchidan, bu XX asrning birinchi yarmidagi rus pedagoglarning K.N. Venttsel, S.T.Shatskiy, A.S. Makarenko hamda Abdulla Avloniy, M.Behbudiyar ta'himoti bilan bog'liq. Uchinchidan, hamkorlik pedagogikasi nomini olgan 80-yillardagi novator o'qituvchilar qarashlari bilan bog'liq.

XX asr boshlarida dunyo pedagogikasiga kuchli ta'sir qilgan pedosentrizm, ya'ni erkin tarbiya nazariyasi vakillari Dj. Dvui, V. Lay, M. Montessori, Valdorf pedagogikasi R.Shtayner v.b. Ular tarbiyaga yangi qarashlar bilan gumanistik yo'nalishdagi izlanishlarni boyitdilar. XX asrning ikkinchi yarmida gumanistik pedagogika gumanistik psixologiya vakillari K.Rodgers tomonidan yangi g'oya va ko'rsatmalari bilan (bolani qabul qilish, bolaga g'amxo'rlik qilish, bolani qo'llab-quvvatlash) bilan boyitildi.

Ilmiy uslubiy va o'quv pedagogik adabiyotlarda turli xildagi tarbiya prinsiplarini ko'rishimiz mumkin. Gumanistik tarbiya konsepsiyasi ifodalovchi tarbiya prinsiplari tizimini ko'rib chiqamiz:

- tarbiyani shaxs rivojlanishiga, ijodiy individualhknini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishi;
- tarbiyani tarbiyalanuvchilarning yosh va individual xususiyatlarga mos bo'lishi;
- tarbiya madaniy muhit xususiyatlariga mos bo'lib, tarbiyalanuvchilarni madaniyat elementlarini o'zlashtirishlari jarayonida bo'lishi;
- tarbiya bolalarni faol, ongli, rivojlantiruvchi faohyatiga jalb qilishni talab etadi;
- tarbiyani jamiyat hayoti bilan, mehnat bilan, tarbiyalanuvchilarni tajribasi bilan bog'liqligi;
- tarbiyani jamoada va jamoa orqali amalga oshishi;
- tarbiyada tarbiyalanuvchining ijobiy tomonlariga tayanish;
- tarbiya tarbiyalanuvchilarni mustaqilligi, va pedagogik rahbarlik bilan mosligi.

Agar vuqorida ta'kidlanganlardan asosiylarini ajratsak, tarbiya shaxsda ijod-korlikni shakllantirishga, tarbiyalanuvchilarni faoliyati jarayonida individuallikni va madaniyatni o'zlashtirish bo'yicha ular asosida yosh va individual xususi-yatlarni farqlashga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Yana bir bor prinsiplar tizimi tarbiya konsepsiyasini ifodalab, nafaqat tarbiya qonunlari orqali aniqlanadi, balki pedagogik hamjamiyat va alohida pedagoglarning istaklari va ularni subyektiv omillar orqali aniqlanadi.

Bunday sharoitda bir guruh pedagoglar, bir o'qituvchi boshqa bir prinsiplar tizimini tanlashi mumkin. Har qanday sharoitda tanlangan prinsiplar tarbiyada 3 xil konseptual pozitsiyaga olib borishini bilishi kerak. Birinchisi prinsiplar tizimida ifodalangan tarbiya jarayoni yoshlar ongi va xulqida ijtimoiy norma, qadriyatlarini shakllantirishga yo'nalgan bo'lishi, ko'pchilikning ta'kidlashicha bu avtoritar pedagogika deb nomlanadi.

Ikkinchi variantda tarbiya prinsiplari tarbiyani pedagogik qadriyatlar orasida shaxs erkinligini ta'kidlab, tarbiyani shaxsni o'z-o'zini rivojlantirishga, o'z-o'zini aniqlashga, shaxsni rivojlantirishga olib keladi. Bu konsepsiya 100 yil oldin «pedosentrizm» deb nomlangan.

Uchinchi variantdagi prinsiplar tizimi tarbiyani shaxsni har tomonlama erkin rivojlanishini o'z-o'zini namoyon qilish huquqini, boshqa tomondan insonni jamiyat talab va qoidalariga bo'ysunishini nazarda tutadi. Bunday tarbiyada yoshlarga ijtimoiy normalarni, insoniy qadriyat va an'analarni o'tkazish imkonini berib jamiyatni ilgari borishiga zamin yaratadi. Bunday tarbiya insonparvar tarbiya deb nomlanadi.

Shunday qilib, pedagogika fanida o'quv tarbiya muassasalaridagi tarbiya amaliyotini va tarixiy tajribalarni tahlili natijasida shakllangan tarbiya prinsiplarini quyidagi uch guruhga ajratgan holda ko'rishimiz mumkin.

Birinchi guruh prinsiplar tarbiya maqsadi va mazmuniga bo'lgan asosiy talablarni aniqlaydi.

Ikkinchi guruh prinsiplar tarbiya metodlariga va tarbiyaviy ish hamda pedagogik hamkorlik texnologiyasi va texnikasiga bo'lgan talablarni aniqlaydi.

Uchinchi guruh prinsiplar tarbiya jarayonini ta'minlovchi ayrim ijtimoiy va psixologik sharoitlarni aniqlaydi. Ushbu prinsiplarsiz tarbiya samarali, mahsuldor natija bermaydi.

Tarbiya prinsiplarini shartli bunday guruhlarga ajratish, asosiyini ajratib olish, tarbiya jarayoni mohiyatini tushunish uchun yordam beradi.

Birinchi guruh prinsiplarga tarbiyani shaxs rivojlanishiga gumanistik yo'nalganligi prinsipi, tarbiyani madaniyatni o'zlashtirishga yo'nalganligi prinsipi, tarbiyani hayot va mehnat bilan bog'liqligi prinsipi kiradi.

Ikkinchi guruh prinsiplar bu pedagogik yoki metodik texnologik prinsiplardir. Bu prinsiplar guruhiga: tarbiyani faoliyatda bo'lishi, tarbiyada shaxs faolligiga tayanish, tarbiyani jamoada va jamoa orqali amalga oshishi, pedagogik rahbarlik va tarbiyalanuvchilarning tashabbuskorligi va o'z faoliyatlari bilan uyg'unligi prinsipi, tarbiyada tarbiyalanuvchiga hurmat bilan talabchanlik uyg'unligi, tarbiyada insonni joybi sifatlariga tayanish prinsipi kiradi.

Sotsiopsixologik prinsiplar uchunchi guruh prinsiplarini tashkil etadi. Bularga individual va yosh xususiyatlarni hisobga olish prinsipi, maktab, oila, mahalla talablarining birligi prinsipi kiradi. Prinsiplar mazmunini qisqacha ochib beramiz. Tarbiyani shaxs rivojlanishiga gumanistik yo'nalganligi prinsipi. Bu tarbiya jarayoniga bo'lgan umumiy talabni ifodalaydi. Tarbiyaning asosiy qadriyati — inson, uning qobiliyatlarining rivojlanishi hisoblanadi. Bunday yondashuv barcha ijtimoiy sohalarni jumladan ta'lim tizimining gumanistik yo'nalganligiga mos keladi. Davlatlarni rivojlanish darajasini baholash bo'yicha xalqaro

standarlarda insoniy ko'rsatkich- lardan, an'anaviylaridan tashqari yana bir mezon «insoniy o'lichov» «hayot sifati» kiritilayotgani bejiz emas. Antropologik muammolar bilan shug'ullanuvchi olim- lar, psixolog va pedagoglar, filosof va sotsiologlar hamda biologlar bunday yondashuv inson rivojlanishi muammolarini kelgusida ishlab chiqish va o'rga- nishni insoniylik asosida yo'naltirishni taqozo etadi deb hisoblaydilar. Pedagogik fanlar tizimida pedagogik antropologiya nomi bilan paydo bo'lgan pedagogika sohasi bunga misol bo'ladi. Antropologik prinsip pedagogikada metodik prinsip sifatida asoslanadi. Bu o'z navbatida o'qituvchilardan, tarbiyachilardan pedagogik pozitsiyani o'zgartirishni talab etadi.

Tarbiyani xulq-atvor normalarini, jamiyat qadriyatlarini o'zlashtirishga yo'nalganligi prinsipi. Ushbu prinsipga amal qilish birinchidan, shaxs shakllanishi, madaniyat elementlarini, insoniy, milliy qadriyatlarni o'zlashtirish jarayonida amalga oshirishni, ikkinchidan, tarbiya va madaniyatning o'zaro aloqadorligini ifodalaydi.

Tarbiyani hayot va mehnat bilan bog'liqligi prinsipi — bu sobiq ittifoq pedagogikasidagi tarbiyaga qo'yilgan talab edi. Shu bilan birga jahon pedagogikasining fundamental talablaridan biridir. Uning asosida tarbiya jarayoni metodikasi hamda tarbiya maqsadi va mazmuni tartibga solinadi.

Tarbiyani hayot bilan bog'liqligi o'qituvchi va tarbiyachilardan darsda va darsdan tashqari faoliyatlarida hayotdagi ahamiyatli bo'lgan masalalarni muhokama qilishlarini hamda zamonaviy borliqni dunyo madaniyati va tarixi bilan aloqasini ko'rsatib o'tishlarini taqozo etadi. Tarbiyani mehnat bilan bog'liqligi prinsipi maktab, oila, jamiyat yoshlar tarbiyasini o'quvchilarni mehnat faoliyatini tashkil etishini, ularni mehnatga jalb etishni ifodalaydi.

Tarbiyani faoliyatda mavjudligi prinsipi. Tarbiyani ushbu qonuniyatga asoslanib, tarbiya jarayoniga asosiy talablar qo'yiladi. To'g'ri tarbiyalash uchun tarbiyalanuvchilarni turli faoliyatlarga jalb etish kerak. Tarbiyalanuvchilar faoliyat turlarini yaxshi bilishi kerak: bularga o'quv-biluv, o'yin, badiiy-estetik, ijtimoiy-mehnat, sport-sog'lomlashtirish. Boshqacha aytganda, buyuk tarbiyachilar yoshlarni tarbiyalashda turli tarbiya vositalari o'yin, o'qish, san'at, sport, mehnat, tabiat, ijtimoiy hayot kabilardan foydalanish zarurlini ko'rsatib o'tganlar.

Tarbiyada shaxs faolligiga tayanish prinsipi. Tarbiyalanuvchilar o'qishi, sinf, maktab hayotida, bayram va tadbirlarda shunchaki ishtirok etishlari mumkin. Bunday faoliyatning samarasi past bo'ladi. Tarbiyalanuvchilarni faolligi ularni qiziqishlarida, ongli munosabatlarda mas'uliyatlarida, ijobiy his-tuyg'ularida namoyon bo'ladi.

Jamoa va jamoa orqali tarbiyalash prinsipi. Ushbu prinsip A.S.Makarenko tomonidan asoslangan bo'lib, quyidagi jihatlar bilan farqlanadi. Birinchidan, jamoa har bir a'zosini xulq va axloqini shakllantirish lozim: inson jamiyatda yasharkan, turli guruhlariga kiradi, o'zining shaxsiy maqsadlarini jamiyat qiziqishlari va qadriyatlari bilan uyg'unlashtiradi. Ikkinchidan, sinfda, guruhda shakllantirilgan sog'lom, rivojlantiruvchi jamoa hayotida ishtirok etish kuchli tarbiyaviy vosita hisoblanadi. Uchinchidan, o'qituvchi tarbiyalovchi jamoani shakllantirishni, uni boshqarishni bilishi kerak.

Pedagogik rahbarlikni tarbiyalanuvchilarni tashabbuskorligi va mustaqilligi bilan uyg'unligi prinsipi. Tarbiya aniqlanishi bo'yicha tarbiyalanuvchilar faoliyatini boshqarish hisoblanadi. Tarbiyachilar tarbiyalanuvchilarda tashabbuskorligini, ijkorligini, mustaqilligini ta'minlanishi uchun sharoit yarata olsalar va bunga erishsalar ta'lim muassasasidagi tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil eta oladilar.

Tarbiyada talab va tarbiyalanuvchiga hurmat uyg'unligi prinsipi. Bu prinsip tarbiya jarayonida tarbiyachi tomonidan tarbiyalanuvchiga nisbatan talabchan va uning shaxsiga nisbatan hurmatda bo'lishni taqozo etadi.

Tarbiyada insonni ijobiy tomonlariga tayanish prinsipi. Ushbu prinsipga amal qilish tarbiyachidan tarbiyalanuvchi shaxsini har tomonlama o'rganish zarurligini taqozo etadi. Har qanday, hatto eng yomon deb ataluvchi odamni ham qaysidir ijobiy fazilati mavjud bo'ladi. Tarbiyada shaxsni ijobiy sifatlariga tayanish tarbiyaviy ishlarni samaradorligini ta'minlaydi.

Individual va yosh xususiyatlarni hisobga olish prinsipi. Fanda turli yosh davrlardagi insonlarning xulqi, psixik jarayonlari, faoliyat xususiyatlari o'rganilgan. Masalan, kichik yoshdagi o'quvchilar katta yoshdagilarga nisbatan bir-birlariga aytib beradi, eslab qoladi, muloqot qiladilar. O'quvchilarni yosh xususiyatlari o'qituvchini muloqot harakterini, turli yoshdagi bolalarni tarbiyalash metodlarini tanlashda, ularga yordam berishni to'g'ri tanlashda mas'uliyatli bo'lishni ifodalaydi.

Tarbiyada odamlarni individual xususiyatlarini hisobga olishni talab etadi.

Tarbiyada maktab oila, jamiyat talablarining birligi prinsipi. Bu muammo barcha davrlarda ahamiyatli hisoblangan. O'quvchidan maktab bir narsani talab qilsa, jamiyat, ko'cha, ommaviy axborot vositalari boshqa narsalarni o'rgatish hollari ham uchraydi. Ota-onalar bolalarini maktabga topshirishlari bilan mas'uliyatdan xolimuz, endi bolalar tarbiyasi bilan maktab shug'ullansin deb hisoblovchilar ham bor. Maktab, oila, jamoatchilik hamkorligi to'g'ri yo'lga qo'yilgandagina yoshlar tarbiyasida ijobiy natijalarga erishiladi.

Quyida tarbiya prinsiplari oiladagi, yoshlar harakati va tashkilotlaridagi o'quv muassasalaridagi tarbiyaviy ishlarning shakl, metod, mazmuni tahlilida ifodalanadi.

Nazorat uchun savollar

1. Tarbiya jarayonining qanday asosiy xususiyatlari mavjud?
2. Pedagogik tizim va jarayon elementlarini tushuntiring.
3. Tarbiyaning asosiy qonuniyatlarini tavsiflang.
4. Zamonaviy tarbiya prinsiplari tizimini tavsiflang.

14. JAMOA TARBIYA OB'EKTI VA SUB'EKTI SIFATIDA

14.1. Jamoa nazariyasining shakllanishi va uning mohiyati.

14.2. O'quvchilar jamoasining rivojlanish bosqichlari.

14.3. Jamoa bilan ishlash metodikasi.

14.1. Jamoa nazariyasining shakllanishi va uning mohiyati

Inson to'g'risidagi fanlar tizimida jamoaga berilgan turli ta'riflar mavjud. Falsafiy ma'noda jamoa - bu bir necha kishilardan iborat bo'lib, ijtimoiy ahamiyatga ega umumiy maqsad, muloqot va o'zaro faoliyat asosida tashkil etilgan guruhni anglatadi, sotsiologiyada mehnat jamoasi imkoniyatlari o'rganiladi, psixologiyada guruhdagi aloqadorlik, o'zaro ta'sir, pedagogikada bolalar jamoasining tashkil etilishi o'rganiladi.

Pedagogikada bolalar va o'quvchilar jamoasi tushunchasi bola rivojlanishida va hayotida jamoaning o'zini anglatishi natijasida paydo bo'lgan. Ya.A.Komenskiy o'zining «Buyuk didaktika» asarida bolalarni bir-biriga ta'siri haqida fikr bildirib, o'quvchilarga passiv o'quvchini faol o'quvchi bilan, aqliy rivojlanishini pastrogi bilan, to'polonchini bosiq bola bilan birlashtirib o'qitish kerakligi haqida maslahat bergan. XX asr boshlariga kelib, pedagoglar jamoaviy munosabatlarni rivojlanishini bola shaxsini rivojlanishida qulay sharoitlarni yaratishning asosiy yo'nalishi sifatida talqin qilganlar. Bolalar jamoasi kuchli tarbiyaviy instrument hisoblanadi. Shuning uchun tarbiyaning asosiy vazifasi bolalar uchun qiziqarli, turli-tuman faoliyatni tashkil etish hisoblanadi.

Bolalarni jamoada tarbiyalash nazariyasi A.S.Makarenkoning amaliy faoliyatida rivojlandi. Uning ta'kidlashicha, jamoa tarbiyaning shakli, quroli, vositasi hamda har bir shaxsni rivojlantirish manbai sifatida namoyon bo'ladi. Uning fikricha, jamoada shaxs erkinligi va qadr-qimmatini hamda himoyalanganligi va ijtimoiy aloqalari ta'minlanadi.

Shuning uchun insoniylik tarbiyasi bu jamoaviy tarbiya deb hisoblanib, tarbiyalovchi jamoani shakllantirishning ahamiyatini ko'rsatib bergan. Tarbiyalovchi jamoa bu o'zining vazifalariga, an'analarga, munosabat stiliga, o'z-o'zini boshqarish organlariga ega bo'lgan tirik ijtimoiy hodisadir. Makarenkoning xizmatlari yana shunda ko'rindiki, u birinchilardan bo'lib, jamoa tarbiyasining asosiy prinsiplarini ilmiy jihatdan asoslab berdi, ularga bolani ijobiy tomonlariga tayanish, parallel ta'sir etish, bola shaxsiga hurmat va talab uyg'unligi, bolaga individual ta'sir etish prinsiplari kiradi.

Jamoa nazariyasining rivojlanishiga polyak pedagogi Ya.Korchak munosib hissa qo'shgan. U tarbiyaning maqsadi - bu bolani ichki kuch va imkoniyatlarini, qobiliyatlarini to'liq, erkin, har tomonlama mustaqil rivojlantirish deb hisoblagan. Uning fikricha, bu jarayonning asosiy omili demokratik tarzda tashkillashtirilgan, bolalar hayotini to'liqligini ta'minlovchi, ularni xulq-atvorini tuzatuvchi, o'z-o'zini tarbiyalashga yo'naltirilgan o'z-o'zini boshqaruvchi bolalar jamoasi hisoblanadi deb ta'kidlagan. Tarbiyachining vazifasi bolani xatti-harakatlarini kuzata olishi, uning

xulq-atvori motivlarini tushunishi, hurmat asosidagi munosabatlarini o'rnatishni bilishi hisoblanadi.

Bugungi kunda bolalar jamoasi rus pedagoglari A.V. Mudrik, L.I. Novikova, N.Ye. Shurkovalar o'zbek pedagoglaridan O.Musurmonova, M.Ouronovlar tomonidan ijtimoiy-pedagogik tizim sifatida qaralmoqda.

Ularning fikricha, tarbiya tizimi bolalar va o'smirlarning turli ko'rinishdagi tabaqalashgan birligini ifodalaydi. Bularga: sinf, to'garak, sport seksiyasi, ijtimoiy tashkilotlar kiradi. Bizga ma'lumki, jamoada tarbiyalash muammosi tadqiqotlar tomonidan mamlakatimizda va ko'plab mamlakatlarda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi qabul qilingan hamda ta'lim tizimi modernizatsiya qilinayotgan sharoitda o'rganilmoqda.

Bolalar jamoasining harakterli belgilari quyidagilardan iborat:

- ijtimoiy ahamiyatga ega maqsad va vazifalarni belgilash, unga erishish;
- yosh va individual xususiyatlarni inobatga olgan holda o'quvchilarni turli faoliyatlarga jalb etish;

- teng huquqlilik asosidagi munosabatlarni shakllantirish;

- haqqoniy ijtimoiy fikrni vujudga keltirish;

- jamoadagi ijobiy an'analarni hosil qilish va ularni qo'llab-quvvatlash.

O'z-o'zini boshqaruv organlarini ishni tashkil etish organizatsiya.

Tarbiyalovchi jamoaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- tashkiliy (turli faoliyatlarga jalb qilish, ularni tuzatish, ishchanlik munosabatlarini shakllantirish);

- tarbiyaviy (o'quvchilarda dunyoga va o'zlariga munosabatni, axloqiy fazilat va sifatarni shakllantirish, qadriyatlarini, odatlarini, harakterini ishlab chiqish);

- stimullashuvchi (mazmunli, ijtimoiy ahamiyatli muloqot uchun sharoit yaratish, o'quvchilarda o'z-o'zini tarbiyalash ehtiyojlarini shakllantirish, ularni xulq-atvori tuzatish).

14.2. O'quvchilar jamoasining rivojlanish bosqichlari

O'quvchilar jamoasining shakllanishi to'rt bosqichda kechadi.

Jamoa rivojlanishining birinchi bosqichida talab faqat o'qituvchilar tomonidan qo'yiladi. Bu jamoa rivojlanishining boshlang'ich nuqtasidir. Bu bosqichda jamoa hali tarbiyalovchi ta'sirga ega bo'lmay, balki «tashkil etuvchi birlik» (guruh) hisoblanadi. Bu bosqichda o'quvchilar o'qituvchi tomonidan talablarning qo'yilishiga e'tiborsiz qaraydilar. Jamoa a'zolarining uzluksiz ijodiy faoliyatini tashkil qilish va ularni yagona maqsad atrofida birlashtirishga erishish orqali jamoa qaror topadi.

Jamoa hayotning birinchi bosqichida jamoa faoli (aktivi)ning paydo bo'lishi bu davr uchun harakterli hodisadir. Jamoa faoli guruhning shunday a'zolaridirki, ular jamoa manfaatiga muvofiq tarzda harakat qiladilar, o'qituvchi faoliyati va talabiga nisbatan xayrixohlik bilan munosabatda bo'ladilar. Faollar o'qituvchining yaqin yordamchilari sifatida ish olib boradilar. Jamoa rivojlanishining ikkinchi bosqichi jamoa faolining o'qituvchi talabini qo'llab-quvvatlashi va uning o'zi ham bu talablarni jamoa a'zolari zimmasiga qo'yishi bilan tavsiflanadi. Endilikda

o'qituvchi jamoada paydo bo'lgan va u bilan bog'liq inuammo. masalalarni yolg'iz o'zi hal qilmaydi. Bosqichda jamoa hayotini tashkil qilish usuli murakkablashib boradi, ya'ni jamoa o'z-o'zini boshqarishga o'tadi. Jamoaning ijobiy rivojlanishi uning a'zolarida motiv (rag'bat)larning paydo bo'lishi, ijodiy hamkorlik, o'zaro yordam munosabatlarining tez sur'atlar bilan rivojlanishiga olib keladi. Jamoada mustaqil faoliyatning yuzaga kelishida jamoa faolining roli beqiyosdir. Ammo jamoa faolining jamoa a'zolari orasida hurmat qozona olishi, ularga namuna bo'lishi, o'z burchlarini aniq va puxta bajarishi, o'z mavqelaridan noo'rin foyda - lanmasliklari juda muhimdir. A.S.Makarenko jamoa faolini «jamoaning vijdoni» deya ta'riflagan edi. Jamoa faoli birmuncha imtiyozlar (huquqlar)ga ega bo'lsa-da, ayni paytda uning o'ziga ham oshirilgan talablarning qo'yilishi maqsadga muvofiqdir. Jamoa rivojlanishining uchinchi bosqichi anchagina sermahsul bo'lib, unda butun jamoa «ayrim o'zini chetga olib qoluvchi, injiq shaxs»larga nisbatan talab qo'ya boshlaydi. Bu bosqichda jamoa ishiga faqat faolgina emas, balki uning butun a'zolari qiziqadi. Jamoa hayotidagi uchinchi bosqich, ijtimoiy fikr mavjudligi bilan ifodalanadi. O'qituvchi mazkur yo'nalishda maqsadga muvofiq va izchil ish olib borgan sharoitdagina ijtimoiy fikrni shakllantirishiga erishishi mumkin. Shu maqsadda u yoki bu tadbir rejasi, jamoaning birgalikdagi faoliyati, a'zolarning xatti-harakati jamoa bo'lib muhokama qilinadi, turli mavzularda suhbatlar, ma'ruzalar uyushtiriladi, o'quvchilar o'rtasida samarali axborot vositalari yordamida ijtimoiy-g'oyaviy, axloqiy, estetik, ekologik, huquqiy, iqtisodiy va hokazo bilimlarning targ'iboti tashkil etiladi. Jamoada barqaror insoniy munosabatlar yuzaga kelishining sababi a'zolarning ijobiy, madaniy- ma'rifiy mazmunga ega bo'lgan ishlarni tashkil etishda faol ishtirok etishlari sanaladi. To'rtinchi bosqichi uning barcha a'zolari jamoa oldida turgan vazifalar asosida o'z-o'ziga talablar qo'ya olishlari bilan tavsiflanadi. Har bir bosqich jamoa a'zolarining o'zlariga nisbatan muayyan talab qo'yishi bilan karakterlanadi, biroq qo'yilgan talablar o'ziga xos yo'nalishi bilan (mas., o'yindan umuminsoniyat baxti yo'lida kurashishiga intilish o'rtasidagi farq kabi) ajralib turadi. To'rtinchi bosqich jamoa a'zolarining o'ziga nisbatan yuksak axloqiy talablar qo'ya olishlari bilan ahamiyatlidir. Jamoaning hayoti va faoliyati jamoa a'zolarining har biri uchun shaxsiy ehtiyojga, jamoadagi tarbiya jarayoni esa o'z-o'zini tarbiyalash jarayoniga aylanadi. Biroq bu holat jamoaning muayyan shaxsni yanada rivojlantirishdagi roli, o'rni pasaytirmaydi. To'rtinchi bosqichda amalga oshiriladigan vazifalar ancha murakkab va mas'uliyatlidir. Bu bosqichda jamoa oldiga istiqbolli, yuksak va murakkab talablarni qo'yish uchun juda qulay sharoit yaratiladi.

Bir guruh pedagoglar o'quvchilar jamoasini uning shakllanish va rivojlanishiga ko'ra quyidagi uch bosqichga ajratadilar. Ya'ni:

a) jamoani dastlabki jipslashtirish;

b) jamoani shakllantirish asosida uning har bir a'zosini individual rivojlantirish;

d) jamoaning umumiy faoliyatini yo'lga qo'yish.

Ta'lim muassasasi tarkibidagi eng barqaror bo'g'in - muayyan guruhlar negizida shakllangan jamoalar sanaladi. Ta'lim muassasalarida ikki muhim bo'g'in: o'qituvchilar jamoasi va o'quvchilar jamoasi mavjud bo'ladi.

O'quvchilar jamoasi - o'quvchilardan tashkil topib, ijtimoiy ahvoli, saylov organlari oldidagi umumiy javobgarlik, barcha a'zolarining huquq va burchlar tengligi asosida o'zaro ijtimoiy ahamiyatli umumiy maqsad va birlikka ega bo'lgan guruh hisoblanadi.

O'quvchilar jamoasi uchun quyidagi xususiyatlar xosdir:

1) o'quvchilarning jamoaviy faoliyatga tayyorliklari, ruhiy tetiklikka egaliklari;

2) jamoa uchun ahamiyatli bo'lgan qadriyatlar mohiyatini anglash, ularni ardoqlash va o'z qadr-qimmatini baholash;

3) jamoa a'zolari o'rtasida do'stlik, o'zaro birlik, hamjihatlik va yordam ko'rsatish tuyg'usining qaror topganligi;

4) jamoadagi ishchanlik, umumiy faoliyatni tashkil etishda faollik ko'rsatish;

5) jamoa a'zolarida o'z hissiy tuyg'ularini boshqara olish, muomala, muloqot, nutq, yurish-turish qoidalariga amal qilish ko'nikmasining shakllanganligi.

O'quvchilar jamoasiga qo'yiladigan yagona talablar o'quvchilarning dars jarayoni, tanaffus va sinfdan tashqari ishlar vaqtidagi, shuningdek, jamoat joylari hamda oiladagi xulq-atvor qoidalaridan iborat bo'lib, puxta o'ylangan talablar tuzimining muntazam amalga oshirilishi maktabda muayyan tartibning o'rnatilishini ta'minlaydi.

Pedagogik talablar quyidagi holatlarda ijobiy natija beradi:

1. Qo'yilayotgan talablar o'quvchi shaxsini hurmat qilish tuyg'usi bilan uyg'unlashgan bo'lishi kerak.

2. Talablar muayyan maktab yoki sinfdagi mavjud sharoitni hisobga olgan holda qo'yilishi lozim.

3. Jamoaga nisbatan qo'yilayotgan talablar aniq bo'lishi kerak.

4. O'quvchilarning tashqi qiyofasi, kiyinishi, yurish-turishi, muomalasiga nisbatan qo'yilayotgan talablar ularda ma'naviy madaniyatni shakllantirishga xizmat qilishi shart.

O'quvchilar jamoasiga pedagogik talablarni qo'yish metodikasi ular tomonidan dars jarayoni, tanaffus va sinfdan tashqari ishlar vaqtida, jamoat joylarida, oilada xulq-atvor qoidalariga qat'iy rioya etishlarini ta'minlashga yordam beradigan shakl, metod va vositalar yig'indisidir.

O'quvchilar jamoasiga talablarni qo'yish metodikasini:

- bolalarni pedagogik talablar mazmuni bilan tanishtirish;

- pedagogik talablarning ahamiyatini tushuntirish;

- tajriba o'rtirish;

- o'quvchilar faoliyati, qo'yilayotgan pedagogik talablarning bajarilishini muntazam nazorat qilib turishdan iborat pedagogik faoliyat mazmuni tashkil qiladi.

Jamoa an'analari jamoa a'zolari tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan barqarorlashgan odatlar bo'lib, ular mazmunida jamoa a'zolari o'rtasidagi munosabatlar mazmuni, xususiyati, jamoaning ijtimoiy fikri ifodalanadi.

Jamoa an'alarini quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- kundalik faoliyat an'analari;

- bayram an'analari.

Jamoaning kundalik faoliyat an'analari o'quvchilarning o'quv faoliyati (o'zaro yordam turlari) va mehnat faoliyati (ko'chatlar o'tkazish, hasharlar uyushtirish va boshqalar)ni o'z ichiga oladi

Jamoaning bayram an'alariga ijtimoiy ahamiyatga ega turli voqea hamda hodisalar bilan bog'liq sanalar (xususan, «Alifbe bayrami», «Mustaqillik bayrami», «Navro'z bayrami», «Xotira va qadrlash kuni» va boshqalar)ni nishonlash maqsadida tashkil etiladigan faoliyat kiradi.

Nazorat uchun savollar

1. Jamoa tarbiyasi muammosi nimani anglatadi?
2. Jamoa nazariyasini shakllanishining asosiy jihatlarini qaysilar?
3. Bolalar jamoasining asosiy jihatlarini tavsiflang.
4. Jamoani rivojlanish bosqichlarini va ushbu bosqichlarda tarbiyachining asosiy vazifalarini izohlang.

15. TARBİYANING UMUMIY METODLARI, VOSITALARI VA SHAKLLARI

- 15.1. Tarbiya metodlari to'g'risida tushuncha.
- 15.2. Tarbiya metodlari klassifikatsiyasi.
- 15.3. Tarbiya metodlari tasnifi.
- 15.4. Tarbiya vositalari.
- 15.5. Tarbiya shakllari.

15.1. Tarbiya metodlari to'g'risida tushuncha

Tarbiya nazariyasida tarbiya metodi - tarbiya vazifalarini hal etishga yo'naltirilgan, tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning o'zaro aloqador faoliyati yo'li ekanligi ta'kidlab o'tilgan. Bu tarbiya jarayonini tarbiyaning asosiy qonuniga mosligini, o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro aloqador faoliyati sifatida tushunishni ifodalaydi. O'qituvchi, tarbiyachilar tarbiyalanuvchilarni faoliyatini tashkil etish orqali tarbiyalaydilar. Bundan ko'rmadiki, tarbiyachilar tarbiyalanuvchilar faoliyatini tashkilotchisidir. Shuning uchun tarbiya metodi bolaga pedagogik ta'sir etish vositasi sifatida aniqlanadi. Masalan, I.F. Harlamovning yozishicha tarbiya metodlari — bu o'quvchilar ongini va motiv ehtiyojlarini rivojlantirish uchun tarbiyaviy ta'sir etish usul va yo'llari yig'indisidir.

Pidkaskisriyning ta'kidlashicha tarbiya metodi - bu dunyoga va o'ziga munosabatni shakllantirishga qaratilgan pedagog va tarbiyachi faoliyatini tashkil etish modelidir. Stolyarenko «tarbiya metodi pedagogik maqsadga erishish uchun tarbiyachi ongiga, hissiyotiga, xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatish yo'li va usullaridir» - deb hisoblaydi. Uning fikricha tarbiya metodi pedagog faoliyati orqali amalga oshiriladi.

Pedagoglar tarbiyalanuvchilarning turli faoliyatlarini tashkil etib, ishonitirish, namuna mashq, talab, jazolash va rag'batlantirish orqali ta'sir etadilar. Mutaxassislar tarbiya metodlarini va sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar metodlarini

bir-biridan farqlaydilar. Taniqli pedagog Yu.K.Babanskiy va bir qator olimlar ta'lim va tarbiyani yagona bir butun pedagogik jarayon sifatida ifodalab, tarbiyasiz ta'lim mavjud emas deb hisoblaydilar. Shuning uchun butun pedagogik jarayon uchun yagona metodlar tizimini taklif etadilar.

Tarbiya usullari odatda metodni ajratmas bo'lagi sifatida ifodalamb. aniq vaziyatlarda qo'llaniladi. Masalan, rag'batlantirish metodida maqto'v, tashakkurnoma, taqdirlash usullardan foydalaniladi.

15.2. Tarbiya metodlari klassifikatsiyasi

Metodlarni bilish ularni biror asos, belgi bo'yicha guruhlariga ajratishga olib keladi. Pedagogikada biron bir asos bo'yicha metodlarni qat'iy klassifikatsiyasi ishlab chiqilmagan. Mutaxassislar metodlarni ko'p qo'llanishiga qarab ishonirish, mashq, namuna, taqdirlash, jazolash metodlarini o'rganganlar. Albatta pedagogik amaliyotda ushbu metodlarni ko'p uchramiz. Pedagog o'quvchilar bilan birgalikda axloqiy normalarni muhokama qilib, tushuntirib, ularni faoliyatga jalb etib, ularga namuna bo'lib tarbiyalaydi. Va nihoyat u o'quvchilarni xatti-harakatlarini muhokama qilib, ularni stimullashtiradi hamda xulq-atvorini tuzatib, rivojlantiradi.

Ilmiy tavsiflash obyektlarni bir-biridan farqlash uchun qat'iy asos va belgiga ko'ra ajratishni talab etadi. Shuning uchun metodlar klassifikatsiyasi ularni bilishni, ikkinchidan ularni ongli, samarali qo'llashni ifodalaydi.

Tahlillar shuni ko'satadiki, klassifikatsiyalar asosini shaxsning u yoki bu sohasiga (ongiga, xulqiga, hissiyotiga) ta'sir etish yo'naltirilishi bilan harakterlanadi. Boshqacha aytganda shaxsni bilimini, qarashlarini, idrokini shakllantirishga yo'naltirilgan metodlar bor. Ular ongni shakllantiruvchi metodlar deyiladi. Bundan tashqari, shaxsni xulq-atvoriga va faoliyatiga yo'naltirilgan metodlar mavjud. Bularni xulqni shakllantiruvchi va faoliyatni tashkil etuvchi metodlar deyiladi. Yana xulqni stimullashtirishga va tuzatishga yo'naltirilgan metodlar mavjud bo'lib, ular xulqni stimullashtiruvchi metodlar deyiladi.

Yu.K.Babanskiy tomonidan tavsiya etilgan ta'lim va tarbiya metodlari klassifikatsiyasining asosini faoliyat konsepsiyasi tashkil etadi. Unga ko'ra har qanday faoliyat komponentlarini anglash, tashkil etish, stimullashtirish va nazorat tashkil etadi.

Faoliyat tarbiya jarayoni tuzilishida muhim o'rin egallab, butun pedagogik jarayonni umumiy metodlarini to'rt guruhga ajratishning asosi hisoblanadi.

Shunday qilib, an'anaviy pedagogika fanida tarbiya metodlarini to'rt guruhga ajratilganligini ko'plab mutaxassislar tomonidan guvohi bo'lamiz:

a) ongni shakllantirish metodlari: hikoya, suhbat, ma'ruza, munozara, muhokama;

b) faoliyatni tashkil etish va xulq-atvorni shakllantirish metodlari: mashq, o'rgatish, topshiriq, talab va tarbiyaviy vaziyatlarni yaratish;

d) xulqni stimullashtiruvchi metodlar: musobaqa, o'yin, taqdirlash va jazolash;

e) nazorat, o'z-o'zini nazorat va baholash metodlari: kuzatish, so'rov, faoliyat natijalarini tahlil qilish.

Metodlarni guruhlar bo'yicha ajratish mumkin, lekin shaxs qismlar bo'yicha emas, balki bir butun holda shakllanadi, nimagaki ong, munosabatlar, xulq, atvor har qanday holatda mo'ljalli va tasodifiy harakatlar ta'sirida butunlikda shakllanadi. Psixologiyada ong va faoliyat birligi prinsipi mavjud, ya'ni ong faoliyatda shakllanadi. Birinchi guruh metodlarining asosiy vazifasi tarbiyalanuvchilarda munosabatlarni, yo'nalganlikni, ishonch va qarashlarni shakllantirish hisoblanadi. Bular asosida xulq-atvor normalari, ijtimoiy qadriyatlar to'g'risidagi bilimlar yotadi. Birinchi navbatda insonni ishonchi uning xatti-harakatlarida ifodalanadi.

Ikkinchi guruh metodlari tarbiyani faoliyatda amalga oshishi prinsipiga amal qilishni talab etadi. Shaxsda u yoki bu sifatlarni sharoit yaratmasdan shakllantirib bo'lmaydi. Pedagoglarni vazifasi ana shunday sharoitlarni hosil qilish hisoblanadi. Uchinchi guruh metodlari yordamida pedagoglar va tarbiyalanuvchilarni o'zlarini o'z xatti-harakatlarini nazorat qilib, tarbiyalanuvchilarni faoliyat motivlariga ta'sir etadilar.

Nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish metodlari tarbiya natijalarini baholashga va tahlil etishga yo'naltirilgan bo'lib, tarbiyalanuvchilarni shakllanishiga ta'sir etadi. Agar tarbiya natijalari tarbiyalanuvchilar bilan birga tahlil etilsa, samaradorlikka erishiladi hamda ularni o'z-o'zini tarbiyalashi stimullashadi.

15.3. Tarbiya metodlari tasnifi

A. Ongni shakllantiruvchi metodlar.

Ushbu metodlar nomlanishiga va mohiyatiga ko'ra ta'limning og'zaki metodlari bilan mos kelib, ularning asosiy vazifasi ijtimoiy-axloqiy munosabatlar, me'yor, odamlarni xulq qoidalari, qarash va qadriyatlarni shakllantirish sohalariga oid bilimlarni shakllantirish hisoblanadi. Bu metodlar birinchi navbatda shaxsning ongiga, uning aqliy, intellektual, hissiy sohalariga murojaat qiladi. Ishonirishning asosiy manbai, instrumenti bu - so'z, xabar, ma'lumot va ma'lumot muhokamasi. So'z orqali ta'sir etish obro'li o'qituvchining o'quvchilarning aql va hissiyotiga ta'sir etadigan eng kuchli metod hisoblanib, tarbiyachidan yuqori darajadagi madaniyatni va kasbiy mahoratni talab etadi. O'quvchilarda ma'naviy-axloqiy sifatlar, e'tiqod, dunyoqarashni shakllantirish maqsadida ularning ongi, his-tuyg'usi, irodasiga ta'sir ko'rsatish usullari ijtimoiy ongni shakllantiruvchi metodlar sanaladi. Mazkur metodlar yoshlar tomonidan hayot mazmunining tushunib olinishini ta'minlaydi.

Ma'ruza, hikoya, tushuntirish — bu og'zaki metodlar, ma'lumotni tahlil qilish va xabar berish bo'lib, tarbiyaviy mazmun va mohiyat kasb etadi. Pedagogik amaliyotdan shu ma'lumki, mashg'ulot, uchrashuvlarda o'quvchilar bilan ijtimoiy-axloqiy mavzularda suhbatlar tashkil etilishini uchratishimiz mumkin. Ma'ruza muammorni sistemali tarzda bayon qilinishi bilan yuqori sinf o'quvchilariga mosdir.

Hikoya va tushuntirish kichik va o'rta yoshli o'quvchilar uchun qo'llaniladi. Ularning har biri moslikni, emotsionallikni, ishonchlikni, axborotlilikni talab etadi. Mavzular har xil: ijtimoiy hayot, axloqiy, estetik muammolar, muomala, o'z-o'zini tarbiyalash, nizolarga oid bo'lishi mumkin. Hikoya o'qituvchi tomonidan mavzuga oid dalil, hodisa, voqealarning vaqit yoki qismlarga bo'lib, tasviriy vositalar

yordamida obrazli tasvirlash yo'li bilan ixcham, qisqa va izchil bayon qilinishini ifodalovchi metod sanaladi. Tushuntirish ijtimoiy ongini shakllantrishda ko'p ishlatiladigan usul bo'lib, u orqali ta'lim oluvchilarni jamiyatda kechayotgan ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlar, shaxslararo munosabatlar mazmuni. ijtimoiy-axloqiy va huquqiy me'yorlar, ularga amal qilish, shaxs tomonidan o'zligini anglash hamda jamiyatda, jamoada muayyan o'rinni egallashga oid ma'lumotlar bilan tanishtirishga xizmat qiladi.

Tarbiyachi metodik adabiyotlardan mavzularni, material mazmunini va o'quvchilar bilan tarbiyaviy suhbatlarni o'tkazish bo'yicha tavsiyalarni topadi. Tarbiyachi o'quvchilar bilan suhbat uchun mamlakat, dunyo, yoshlar hayotining turli tomonlarini ifodalovchi materiallarini ommaviy axborot vositalaridan ham olishlari mumkin.

Tarbiyaviy suhbatlarga tayyorgarlik vaqtda mazmunni tanlash, materialni yetkazib berish yo'llari, uning tuzilishi, stili, suhbat toni, psixologik muhitni yaratishda mas'uliyat bilan yondashish talab etiladi.

Suhbat munozara, muhokama sifatida o'quvchilarni o'zlaridan intellektual va emotsional faollikni talab etuvchi metod hisoblanadi. Tarbiyaviy suhbat, munozara qoidasi bo'yicha tarbiyachining qisqa kirish so'zidan va muammoli harakterdagi savollarni qo'yishdan iborat. Suhbat metodi o'quvchi shaxsini g'oyaviy va ma'naviy-axloqiy jihatdan shakllantrishda o'qituvchining jonli nutqi, o'quvchi bilan o'zaro munosabati ta'sirchan usullardan hisoblanadi. Suhbat jarayonida o'quvchi shaxsini yaqindan anglash mumkin, u haqidagi tasavvurlar yanada boyiydi. Ta'lim oluvchi bilan suhbatlashish jarayonida uning shaxs sifatida shakllanishiga yordam beradigan ma'lumotlar beriladi, ijtimoiy va tabiiy borliqqa nisbatan munosabat baholanadi, ijobiy sifatlari rag'batlantirilib, salbiy holatlar aniqlanib, ularni bartaraf etish yo'l-yo'riqlari ko'rsatiladi.

Ta'lim oluvchining ijtimoiy ongini shakllantrish uchun tashkil etiladigan suhbatlar uchun quyidagi mavzular yo'nalish sifatida tanlanadi.

1) yetuk mavzular (ijtimoiy ma'naviy-axloqiy me'yorlar, jamiyatda ustuvor o'rin tutuvchi ijtimoiy munosabatlar, jamoa orasida o'zini tutish qoidalari va boshqalar);

2) estetik mavzular (tabiat go'zalligi, shaxslararo munosabatlar, inson go'zalligi);

3) siyosiy mavzular (davlatning ichki va tashqi siyosati, dunyo voqealari, xalqaro munosabatlar va hokazolar);

4) ta'lim va bilishga oid mavzular (komot, hayvonot va o'simliklar dunyosi, elektronika va boshqalar).

Muhokama— tarbiyaning maxsus metodi bo'lib, qarama-qarshi fikrlarning to'qnashuvini ifodalaydi. Muhokamani tashkil etish mavzu nomini shakllantrishni, muhokama uchun savollarni tayyorlashni, boshlovchini tanlashni, muhokama qoidalari bilan ishtirokchilarni tanishtirishni, ko'rgazmali materiallarni tayyorlashni talab etadi.

Tarbiyalanuvchilar bilan ijtimoiy-axloqiy savollar bo'yicha muhokamalar tashkil etish tarbiyachilardan bilim va tajribani, uslubiy ko'nikmalarni talab etadi. Muhokamada bacha ishtirokchilarni ishtirok etishlarga erishish talab etiladi. Buning

uchun kichik guruhlarda ishlashni, blits so'rovlarini tashkillash hamda keys stadiylardan foydalanish zarur. Tarbiyalanuvchilar bilan axloqiy mavzularni muhokama qilishda qat'iy faktlarni, aniq vaziyatarni muhokama qilish ko'p hollarda samarali hisoblanadi.

Namuna - shaxsga atrofdegilar (xususan, o'qituvchilar, ota-onalar, yoshi katta kishilar)ning yurish-turish, muomala, tartib-muzom qoidalariga rioya qilish, kundalik faoliyatni tashkil etishda o'mak, ibrat bo'la olishlarini ifodalovchi metod sanaladi.

Yosh avlod uchun quyidagi pedagogik hodisalar namuna bo'la oladi:

- ota-onalarning yurish-turishi, bir-birlari bilan o'zaro munosabatlari, kundalik faoliyatni tashkil etishlari, atrofdegilarga nisbatan yondashuvlari;

- o'qituvchilarning hamkasblari, rahbarlari, shuningdek, o'quvchilar bilan o'zaro munosabatlari, nutq va muomala odobi, kasbiy faoliyatni olib borishdagi mas'uliyatlari;

- ishlab chiqarish ilg'orlari, unuminsomiy hamda milliy ilm-fan, madaniyat ravnaqiga munosib hissa qo'shgan shaxslarning hayoti va faoliyatlari;

- badiiy asarlar, kinofilmlar, spektakllar qahramonlarining xatti-harakatlari, ma'naviy qiyofasi;

- afsonaviy va tarixiy milliy qahramonlar, Vatan ozodligi uchun kurashgan shaxslarning jasoratlari;

- favqulodda vaziyatlarda fuqarolik, insoniylik burchini sidqidildan ado etgan shaxslarning xatti-harakatlari:

- tengdoshlarning ijtimoiy munosabatlar jarayonida, turli vaziyatlarda o'zlarini tuta olishlari, irodali, matonatli, axloqli ekanliklarini namoyon eta olishlari va boshqalar.

B. Xulqni shakllantirish va faoliyatni tashkil etish metodlari.

Xulqdagi ijobiy tajribaga tarbiyalanuvchilar faoliyatini pedagogik jihatdan to'g'ri tashkil etilganda erishiladi. Tarbiyaning faoliyatda mavjudligi qonuniyati asosida tashkillashga bo'lgan talablar shakllanadi. A.N.Leontevning ta'kidlashicha, faoliyat tarbiyanuvchi uchun ahamiyatli, shaxsiy mohiyat kasb etganda tarbiyalanuvchi shaxsini tarbiyalaydi. Bunda tarbiyalanuvchi faoliyatda faol ishtirok etsa, ularni vazifalari almashib turishi kerak. Tarbiyalanuvchilar faoliyatini boshqarish pedagogik vaziyatarga mos bo'lishi zarur.

An'anaviy pedagogikada tarbiyalanuvchi faoliyatini tashkil etish tarbiyaning asosiy metodlari hisoblanadi. Ushbu metodlar guruhiga pedagogik talab, mashq, ijtimoiy fikr, tarbiyalovchi vaziyat kiradi.

Pedagogik talab jamiyat va uning a'zolari tomonidan qabul qilingan aniq xulq-atvor normalarini, qoidalarini, qonunlarini, an'analarni bajarishga qo'yilgan talablar sifatida ifodalangan. Talab ijtimoiy xulq qoidalari yig'indisi, real vazifalar, biror xatti-harakat bo'yicha aniq ko'rsatmalar, iltimos, maslahat, ko'rsatma sifatida ifodalanadi. Shakliga ko'ra talab bevosita va bilvosita turlarga bo'linadi. Pedagogik talab turli xatti-harakatlarni bajarish, muayyan faoliyatda ishtirok etish jarayonida o'quvchi tomonidan amal qilinishi zarur bo'lgan ijtimoiy xulq-atvor me'yorlari va tarbiyaviy ta'sirning muhim usullaridan biri bo'lib, u ma'lum harakatlarni

rag'batlantirish yoki to'xtatish, shaxsni ijobiy harakatlarga undash harakteriga ega bo'ladi.

Talab o'quvchilarni xulqi qoidalariga, maktab Nizomiga, ta'lim muassasasining kun tartibiga nisbatan qo'yiladi. Talabda hech qanday majburlash, avtoritarizm bo'lmasligi kerak. Barcha amal talablarga bo'ysunadilar, demak, o'quvchilar ham talablarga amal qilishi zarur. Demak, xulq normalariga maktabning ichki tartib-qoidalariga birinchi navbatda o'qituvchilarni o'zlari amal qilishlari kerak. Masalan, maktabda chekish mumkin emas, shuning uchun o'quvchilar orasida ko'chada, burchak-burchaklarda bolalarni chekishini kuzatishimiz mumkin, ammo ayrim o'qituvchilar maktab hududida o'zlari chekadilar.

Jamoatchilik fikri — bu guruh talablarini ifodalaydi. Ular rivojlangan jamoalarda butun jamoaning xatti-harakatlarini baholashda qo'llaniladi. Bu barcha guruh a'zolarining hayotga bo'lgan qarashlarida, qadriyatlarida, me'yorlarida ifodalanadi. Pedagoglar jamoada sog'lom ijtimoiy fikrni shakllantirishga e'tibor berishlari kerak. Bunga sinf hayotiga oid faktlarni muhokama qilish, unda ular faoliyatini baholashda o'quvchilar ishtirokini stimullashtirish orqali erishiladi. Jamoatchilik fikri - ijtimoiy voqealarga, turli guruhlar, tashkilotlar, ayrim shaxslar faoliyatiga bo'lgan yashirin yoki oshkora munosabatlarni o'z ichiga oladigan ijtimoiy ong shakli bo'lib, u yordamida jamiyat a'zolarining xatti-harakatlari, xulq-atvorlari, yurish-turishlari, faoliyatlari, atrofdegilar bilan muomalalari, munosabatlari ijtimoiy axloq me'yorlariga muvofiq baholanadi va tartibga solinadi. Mohiyatiga ko'ra jamoatchilik fikri muayyan ijtimoiy masalalarni, taniqli shaxslar yoki umuman olganda, jamiyat a'zolaridan ixtiyoriy birining xatti-harakati, xulq-atvori, yurish-turishi, faoliyati, atrofdegilar bilan muomalasi hamda munosabatining ma'qullanishi yoki qoralanishini ifodalaydi. Ana shu jihatiga ko'ra jamoatchilik fikri tarbiyalovchi harakter kasb etadi.

Mashq — xulq-atvor asosi sifatida harakatlarni ko'p marotaba takrorlash orqali xulqni shakllanishi bilan harakterlanadi. Keng ma'noda bu tarbiyalanuvchilar faoliyati va hayotini jamiyat normalariga moslashtirish uchun sharoit yaratishni ifodalaydi. Mashq - aqliy yoki amaliy (jismoniy) harakatlarni bajarish ko'nikmalarini egallash yo'lida muayyan amal, harakatni ko'p marta takrorlash.

Mashq - muayyan xatti-harakatlarni ko'p marotaba takrorlashga qaratilgan harakat mohiyatini ifodalovchi metod hisoblanadi. Mashq natijasida muayyan ko'nikma, odat, yangi bilimlar hosil qilinadi, o'quvchining aqliy qobiliyati o'sadi, axloqiy sifatleri boyiydi, hayotiy tajribasi ortadi.

Tarbiya amaliyotida mashqning quyidagi turlari mavjud:

- 1) faoliyatda mashq qilish;
- 2) kun tartibi doirasida bajariladigan mashqlar;
- 3) maxsus mashqlar.

Faoliyatda mashq qilish mehnat, ijtimoiy va jamoa faoliyatini tashkil etish, o'zaro munosabatlarni yo'lga qo'yish odatlarini tarbiyalashga qaratilgan.

Kun tartibi mashqlari ta'lim oluvchilarni belgilangan kun tartibiga amal qilishga odatlantirish, u bilan bog'liq ravishda muayyan harakatlarni bajarish, ish va bo'sh vaqtdan to'g'ri foydalanishga o'rgatish uchun xizmat qiladi.

Maxsus mashqlardan tanlangan soha bo'yicha nazariy bilim, amaliy hamda xulqiy ko'nikma, malakalarni hosil qilishda foydalaniladi.

Tarbiyaviy vaziyatlar — bu harakatga undov, tanlash holati bo'lib, tarbiyachi tomonidan maxsus tashkil etilishi ham mumkin. Uning vazifasi ongli, faol faoliyat uchun sharoit yaratish hisoblanib, yangi xulq-atvor normalari va qadriyatlar shakllanishi bilan harakterlanadi. Tarbiyalovchi vaziyatlar - tabiiy ravishda sodir bo'ladigan yoki sun'iy hosil qilinib, shaxsda u yoki bu ma'naviy- axloqiy sifat, xulq-atvor, ko'nikma, malakalarni shakllantirishga yo'naltiriladigan holat, sharoit hisoblanadi.

V. Xulq va faoliyatni stimullashtiruvchi metodlar.

Taqdirlash — bu tarbiyalanuvchi va guruh a'zolarini xulq-atvorini, xatti-harakatlarini, fazilatlarini ijobiy baholash, ma'qullashda ifodalanadi. U o'z kuchiga ishonish, ijobiy o'z-o'zini baholash, qoniqish hissini uyg'otib, tarbiyalanuvchilarni o'z xatti-harakatlarini ijobiy o'zgarishga stimullashtiradi. Tarbiya jarayonida rag'batlantirishning quyidagi turlaridan foydalaniladi:

- 1) o'quvchining zimmasiga mas'uliyatli vazifani yuklash;
- 2) maqtash;
- 3) estalik sovg'asini berish;
- 4) maqto'v yorlig'i bilan taqdirlash;
- 5) maxsus stipendiyalar tayinlash;
- 6) qo'llab-quvvatlash;
- 7) fotosuratni hurmat taxtasiga qo'yish;
- 8) jamoa nomidan minnatdorchiilik bildirish;
- 9) safda birinchi o'rinda turishini ta'minlash;
- 10) musobaqalarda bayroqdor bo'lishiga imkoniyat yaratish;
- 11) nomini maktab devoriy gazetasi yoki radiosi orqali qayd etish.

Tarbiya jarayonida rag'batlantirish metodlarini samarali qo'llay olish uchun rag'batlantirishning mavjud pedagogik talablarga muvofiq bo'lishi; ketma-ket bo'lmasligi; o'quvchini yoki uning xatti-harakatlarini haddan oshirib maqtamaslik; ularni boshqa o'quvchilarga taqqoslab ko'rsatmaslik; o'quvchini kamsitmaslik; talabchanlikni bo'shashtirmaslik kabilarga e'tibor qaratilishi lozim.

Jazolash — bu xulq normalariga qarama-qarshi bo'lgan xatti-harakatlarni salbiy baholashda ifodalanadi. Jazolash metodi salbiy xatti-harakat sabablarini tahlil etishni, o'quvchi shaxsini kamsitmaslikni, obdon o'ylab chiqilgan xatti-harakatlarni talab etadi. Jazolash tanbeh, ogohlantirish, suhbat, boshqa guruhga o'tkazib yuborish, maktabdan chetlatish shakllarida bo'lishi mumkin. Jazolash o'quv tarbiyaviy muassasadagi tarbiyaviy holat, pedagoglarni madaniyati va jamoaning rivojlanganlik darajasi bilan uzviy bog'liq. Tarbiya jarayonida jazolash metodini qo'llashda quyidagi jazo choralari qo'llaniladi:

- tanbeh berish;
- ogohlantirish;
- uyaltirish;
- hayfsan berish.

Tanbeh berish eng muhim jazo chorasi bo'lib, o'qituvchi o'quvchiga yuzmayuz turib tanbeh beradi va buni kundaligiga yozib qo'yish mumkin.

Ogohlantirish - sodir etilishi mumkin bo'lgan muayyan xatti-harakatlarning oldini olish maqsadida qo'llaniladigan tarbiyaviy usul.

Uyaltirish - o'quvchining ma'lum xatti-harakatlariga jamoa yoki uning tarbiyasi uchun mas'ul bo'lgan subyektlar (ota-onalar, vasivlar, jamoatchilik vakillari va boshqalar) oldida baho berish usuli. Bolalarni tarbiyalashda shu his-tuyg'ularni ehtiyotkorlik bilan o'stirish lozim, lekin hadeb uyaltiraverish, qizartiraverish yaramaydi.

Hayfsan berish o'quvchining ma'lum xatti-harakatlarini qat'iy choralar asosida baholash bo'lib, u tanbeh va ogohlantirish kutilgan natijani bermagan holatlarda qo'llaniladi.

Jazolash metodini qo'llashda jismoniy jazoni qo'llash, o'quvchilarni urish, kaltaklash, qo'rqitish, g'azablantirish, jismonan va ruhan azoblash, tahqirlash, sha'nini yerga urish kabilar taqiqlanadi.

O'quv tarbiyaviy muassasalarda stimullashtiruvchi metodlardan biri musobaqa keng qo'llaniladi. Bu metod g'oyaviy-siyosiy va formal harakterga ega bo'lib, u yordamchi metod sifatida qo'llaniladi.

Ta'kidlash joizki, har qanday metod ta'lim muassasasining tarbiyaviy tizimi bilan uzviy bog'liq. Tarbiya amaliyoti tarbiyachilar oldiga tarbiyalanuvchilarga ta'sir etish uchun tarbiya metodlarini tanlash va qo'llash vazifasini qo'yadi. Tarbiya metodlarini tanlash va qo'llash o'z navbatida: tarbiya maqsadi va mazmuniga, tarbiyalanuvchilarni tarbiyalanganlik darajasiga, shaxslararo munosabatlarning rivojlanganlik darajasiga, tarbiyachining obro'siga va tajribasiga, tarbiyalanuvchilarning yosh va individual xususiyatlariga bog'liq.

Shu bilan birgalikda tarbiyachini tarbiya metodlarini tanlashi uning tajribasiga, madaniyatiga, yoshiga, harakteriga, temperamentiga ham bog'liq.

D. Nazorat, o'z-o'zini nazorat, o'z-o'zini baholash metodlari.

Ushbu metodlar tarbiya natijasini tahlil qilish va baholashga yo'naltirilgan bo'lib, bularga so'rov metodlari (suhbat, anketa), test, faoliyat natijalarini tahlil qilish kabi metodlar kiradi. Nazorat metodlarining asosiy vazifasi tarbiya jarayonining maqsadiga erishilganlik darajasini va tarbiya natijasi bo'yicha uning samaradorligini baholash.

Ushbu natijalar bo'yicha tarbiyachini kasbiy tayyorgarligi ham baholanadi. Ikkinchi tomondan bu metodlar yordamida tarbiyalanuvchilarning tarbiyalanganligi to'g'risidagi olingan ma'lumotlar bilan o'quvchilarni tanishtirib, muammolarni muhokama qilish, ularga psixologik pedagogik yordam berish mumkin. O'z-o'zini nazorat va baholash metodlari o'z-o'zini tarbiyalash metodlari hisoblanadi.

O'z-o'zini tarbiyalash metodlari o'quvchilarning o'zini-o'zi idora qilishlari, turli o'quvchilar organlari faoliyatida faol ishtirok etishlarini ta'minlash, ularning ijtimoiy mavqelarini oshirish maqsadida qo'llaniladigan usullardir. O'z-o'zini tarbiyalash metodlarining tarbiyalovchilik harakteri o'quvchilarning o'zini-o'zi idora qilishlar, o'quvchilar organlari faoliyatida faol ishtirok etishlarini ta'minlash, shuningdek, ijtimoiy mavqei oshirishning ta'sirchan vositasi ekanligida aks etadi. Mazkur metodlar o'quvchilarni tashabbuskorlikka, mustaqillikka undaydi.

Oʻz-oʻzini tahlil (nazorat) qilish metodi. Oʻz-oʻzini tahlil (nazorat) qilish oʻz shaxsi, mavjud fazilatlarini, xatti-harakati, xulq-atvorni tahlil qilish, mavjud sifatlarini boyitish yoki salbiy odatlarni bartaraf etishga qaratilgan faoliyat usulidir.

Oʻz-oʻzini baholash metodi. Oʻz-oʻzini baholash shaxs tomonidan mavjud fazilatlarini, xatti-harakati, xulq-atvorni tahlil qilish orqali oʻziga baho berishga yoʻnaltirilgan faoliyat usuli boʻlib, u shaxsning qobiliyatini oʻz kuchi bilan yuzaga chiqishiga yordamlashishi zarur. Oʻz-oʻzini baholash qiyin, lekin shaxsni bunga bevosita tayyorlash mumkin. Oʻz-oʻzini baholash oʻquvchi uchun shaxsiy imkoniyatlarini hisob-kitob qilish, oʻziga obyektiv baho berish, oʻzidan qoniqishiga yordam beradi.

Zamonaviy tarbiyachi uchun dunyoning rivojlangan davlatlarida tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda tarbiyani qaysi metodlari koʻp qoʻllanilayotganini bilishi ahamiyatlidir. Tarbiyaga boʻlgan gʻarbelia yondashuvda, asosan metodlar tizimini shakllantirishda bixeviorizm psixologiyasi va psixoanalizga asoslaniladi.

15.4. Tarbiya vositalari

Tarbiya vositasi — kam oʻrganilgan pedagogik kategoriya hisoblanadi. Biroq oxirgi yillarda ushbu muammoni oʻrganish dolzarbligi oshganligi kuzatilmoqda. Sababi maktab, oʻqish, kitob, oʻqituvchi nutqi, ota-ona soʻzi bolaga taʼsir etishning, shaxs rivojlanishi va shakllanishining asosiy omili, yagona manbai boʻlmay qoldi. Pedagoglar shaxsni ijtimoiylashuvi, muhitni pedagoglash-tirilatganligi, taʼlimiy muhitni yaratilishi toʻgʻrisida koʻplab fikrlar bildirmoq-dalar. Bu oʻz navbatida yoshlarni shakllanishida maktab va oʻqituvchidan tashqari boshqa omillarini taʼsir yuqori boʻlayotganligidan dalolat beradi. Bularga ommaviy axborot vositalari maʼlumotlari, kompyuter va internet, reklama va ommaviy madaniyat, yoshlar madaniyati, globallashuv, axborotlashuv jarayonlari kiradi.

Boshqacha aytganda zamonaviy bola, oʻsmir, oʻspirin axborotlar makonida yashayapti va shakllanmoqda. Pedagogik maqsadlarga erishishda tarbiyachilardan barcha manbalarni, omillarni, vositalarni mazmun-mohiyatini bilish talab etiladi. «Vosita» tushunchasi izohli lugʻatlarda bir necha maʼnolarni bildiradi. Vosita bu binnchidan - maqsadga erishishdagi harakat usuli, ikkinchidan - biror narsa uchun qoʻllaniladigan predmetlar, moddiy qadriyat, uchinchidan - falsafa, iqtisodda «vosita» xomashyo, inson faoliyati obyekti, ishlab chiqarish uchun dastlabki material, toʻrtinchidan, pedagogikada taʼlim-tarbiya jarayonida qoʻllaniladigan mehnat qurollari, narsa va predmetlar yigʻindisi.

Taraqqiyot natijasida bolaga pedagogik taʼsir etish vositalari koʻlami ortib borganligini koʻrishimiz mumkin. Oʻz davrida taniqli rus pedagogi K.D. Ushinskiy tarbiya vositalarini (oʻqish, mehnat, oʻyin, oiladagi va maktabdagi bola hayoti, uni tashqi olam bilan munosabati, hamkorlikdagi ish va muloqot)dan iborat deb taʼkidlagan edi. XX asr boshlarida amerikalik pedagog D.J. Dyui va rus pedagogi A.S. Makarenko oʻzlarining tarbiyaviy yondashuvlarida, pedagogik amaliyotlarida tarbiya vositalariga oʻqish bilan birgalikda mehnat, bolalarni ijtimoiy-jamoaviy faoliyati, oʻyin, sanʼatni ham kiritganlar. Makarenkoning taʼkidlashicha, «maktab, kun tartibi, maktab hayotidagi barcha narsalar» tarbiya vositasidir deb fikr bildirgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib tarbiya vositasi deganda birinchidan-umumiy ma'noda barcha ijtimoiy, madaniy, tabiiy borliqni, barcha ijtimoiy institutlar va sivilizatsiyani yaratishni, ikkinchidan-tarbiya jarayonida qo'llaniladigan narsa va predmetlarni tushunamiz.

O'z navbatida narsa va predmetlar o'z joyida turganda tarbiya vositasi bo'la oladimi degan savol tug'iladi. V.I.Juravlevning fikricha, buyum va narsa tarbiya vositasi emas, u qachonki tarbiyalanuvchi faoliyatida ishtirok etsagina tarbiya vositasi bo'la oladi.

V.S. Selivanovanning fikricha, tarbiyalanuvchilarning faoliyat turlari (o'qish, mehnat, o'yin, muloqot) bu tarbiyaning fundamental vositalaridir. Pedagogika va psixologiya inson o'z malakalarini, xulq-atvor modelini, qadriyatlarini, hissiyatini odamlar bilan muloqot qilish jarayonida shakllantiriladi va rivojlaniradi deb ta'kidlaydi. Shuning uchun pedagog, sinf rahbari tarbiya maqsadiga erishish uchun tarbiyalanuvchilarni turli faoliyatlarini tashkil etishni bilishi kerak.

Har qanday maktabda bolalarni darsdan tashqari faoliyatlarini tashkil etish o'qituvchining asosiy ish sohasi hisoblanadi.

Maktablarimizda sinfdan tashqari faoliyatning quyidagi turlari: bilish, qadriyatga yo'naltirilgan, ijtimoiy, estetik, dam olish, texnik, sport, sog'lomlashtirish faoliyatlari tashkil etiladi.

Bilish faoliyati o'quvchilarda bilishga qiziqishni rivojlantirish, bilishlarni to'plash, aqliy qobiliyatni shakllantirish maqsadida ekskursiya, olimpiada, konkurs, ilmiy konferensiya shakllarda tashkil etiladi.

Qadriyatlarga yo'naltirilgan faoliyat mohiyatiga ko'ra dunyoga bo'lgan munosabatni shakllantirish jarayonidir. Bunda e'tiqod va qarashlar shakllandi. Sinf rahbari ijtimoiy axloqiy muammalar bo'yicha suhbatlar, sinf majlislari, munozaralar tashkil etib, o'quvchilarda hayotga bo'lgan qarash va munosabatlarni shakllantirish uchun ulkan imkoniyatlarga ega bo'ladi.

Ijtimoiy faoliyat o'quvchilarni maktabni boshqarish organlarida, o'z-o'zini boshqarish organlari ishida, maktabdagi turli o'quvchilar va yoshlar tashkilotlarida, mehnat, ijtimoiy, iqtisodiy aksiyalarda ishtirok etishlarini, ifodalaydi. Bu o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish, maktab hududini tozalash, kecha va bayramlar shaklida tashkil etiladi.

Estetik faoliyat bolalarni badiiy hissiyatini, qiziqishlarini, madaniyatini, qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bu konkurs, konsert, festival, teatrga borish shakllarida amalga oshiriladi.

Dam olish faoliyati mazmunli, rivojlantiruvchi dam olishni ifodalab, dam olish kechalari, musabaqa, o'yin, bayramlar kechalarini tashkil etish shakllari amalga oshiriladi.

15.5. Tarbiya shakllari

O'quvchilar faoliyati turlari tarbiyaviy ishlarni tashkil etish shakli bilan uzviy bog'liq. Shakl hodisa va jarayonni ichki mazmunini tashqi tomondan uning tuzilishini tashkil etishni ifodalaydi. Tarbiya jarayoni tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning o'zaro aloqador faoliyati sifatida aniq tashkiliy shakllarda

amalga oshiriladi. Ta'limni tashkil etish shakli muammosi tarbiya jarayonini tashkil etish shakliga nisbatan ko'p o'rganilgan soha hisoblanadi. Shaki tashkiliy tomonni aniqlab, tarbiyalanuvchilar bilan tarbiyaviy ishlarni qanday sharoitlarda kim, qayerda, qanday, qachon tashkil etilishini ifodalaydi. Demak, tarbiyaviy ishlar shakli - bu aniq tarbiyaviy jarayonni vazifasi, mazmuni, metodlari amalga oshiriladigan tadbir, pedagogik ta'sirning tashkiliy tuzilishidir.

Shaki tarbiya jarayonining qismi sifatida uning maqsadiga, mazmuniga, metodlariga bog'liq. Shuning uchun tarbiya shakli aniq tarbiyaviy vaziyatlarga bog'liq bo'lib, ular turli xil, ijodiy takrorlanmas harakterga ega.

Tarbiya jarayonini tashkil etish shaklini turkumlashga nisbatan turlicha yondashuvlar mavjud. Masalan: N.E. Shurkova tarbiya shaklini asosiy faoliyat turi bo'yicha, bilish faoliyati, mehnat faoliyati, ijtimoiy foydali faoliyat, estetik faoliyat, jismoniy-sog'lomlashtirish, qadriyatli faoliyat shakllariga ajratgan.

N.I. Boldirev tarbiyaviy ishlar shaklini tarbiyaviy ta'sirni metodlarga bog'liqlik giga asosan tarbiya shaklini: og'zaki - (suhbatlar, ma'ruza, konferensiya, uchrashuv);

amaliy - (ekskursiya, spartakadialar, olimpiada, konkurslar, shanbaliklar);

kuzatish - (devoriy gazeta, muzeyga borish, ko'rgazma, stendlar) shakllariga bo'lgan.

An'anaviy pedagogikada tarbiya shaklini o'quvchilar miqdoriga ko'ra: yakka, guruhli, jamoa, ommaviy.

Vazifasiga ko'ra: madaniy, sport, huquqiy.

O'tkazish xususiyatiga ko'ra: ma'ruza, suhbat, munozara, uchrashuv, madaniy tadbirlar.

O'tkazish joyiga ko'ra: o'quv-tarbiyaviy, mehnat-tarbiyaviy, maktabdan tashqari, sport-tarbiyaviy.

O'tkazish vaqtiga ko'ra: rejalii, profilaktik, yakuniy shakllariga ajratilgan.

Zamonaviy tadqiqotchilar maktabdagi tarbiyaviy vazifalar bo'yicha darsdan tashqari tarbiyaviy ishlar shakllarni quyidagi uch guruhga ajratmoqdalar:

1) maktab hayotini boshqarish va o'z-o'zini boshqarish shakllari - majlis, sinf soati, linevka, namoyish, o'z-o'zini boshqaruv organlari majlisi;

2) bilish shakllari — ekskursiya, paxodlar, festivallar, mavzuli kechalar, ko'rgazmalar, dam olish shakllari — ertaliklar, kechalar.

Yuqoridagilardan ma'lumki, tarbiya jarayonini tashkil etish shakli klassifikatsiyasida yagona fikr mavjud emasligini kuzatishimiz mumkin. Tarbiyachi tomonidan nomigagina hisob-kitob uchun o'tkazilgan tadbirlar salbiy oqibatlarga olib kelishi ham mumkin. Tarbiya shaklini tashlash omillariga quyidagilar kiradi, tarbiya maqsadi, tarbiya mazmuni, tarbiyachilar yoshi, tarbiyalanuvchilarning tarbiyalanganlik darajasi, hudud xususiyatlari va analar, maktabning texnik va moddiy imkoniyatlari, o'quvchining pedagogik mahorati.

Tarbiya jarayonini tashkil etishning og'zaki-mantiqiy shakllarida tarbiyalanuvchilarga ta'sir etishning asosiy vositasi o'quvchilar hissiyatini uyg'otuvchi, unga emotsional tus beruvchi so'z bilan ishlantirish, va'mi so'z hisoblanadi. Bunda asosiy e'tibor ma'lumot almashishga, muammoni muhokama qilishga, o'quvchilarni xabardor qilishga e'tibor beriladi.

- tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda tarbiyachi tomonidan quyidagilarga e'tibor berilishi maqsadga muvofiq:
- tadbirning nomlanishini, vazifalarini, shaklini aniqlash;
- mazmun bo'yicha materallarni to'plash;
- ish ketma-ketligini rejalashtirish;
- ishtirokchilarni tayyorlash;
- tadbirni o'tkazish;
- tahlil va o'z-o'zini tahlil qilish.

Nazorat uchun savollar

1. Tarbiya shakllari, metodlari, vositalari o'rtasida qanday aloqadorliklar mavjud?
2. Tarbiya metodlari, vositalari, shakllari klassifikatsiyalarini izohlang?
3. Tarbiyaning asosiy metodlarini tavsiflang?
4. Tarbiya vositalarini izohlang.

16. TARBIYA JARAYONIDA SHAXSNING SHAKLLANISHI

16.1. Tarbiya mazmuni muammosi.

16.2. O'quvchilar ilmiy dunyoqarashini shakllantirish va aqliy tarbiyasi.

16.3. Yoshlarni fuqarolik tarbiyasi.

16.4. Ma'naviy-axloqiy tarbiya.

16.5. Mehnat tarbiyasi.

16.6. O'quvchilarni estetik tarbiyasi.

16.7. Yoshlarni jismoniy tarbiyasi.

16.1. Tarbiya mazmuni muammosi

Pedagogik adabiyotlar tahlilidan ma'lumki, mutaxassislar hozirgi paytda ta'lim va tarbiya mazmunini butun bir pedagogik jarayon mazmuni sifatida qarashmoqda. Ta'lim dasturi va standartlarida maktab o'quv fanlari mazmuni (dastur va darsliklarda) bilim fan asosi sifatida va ijtimoiy normalar, qadriyatlar, munosabatlar sifatida birgalikda berilmoqda. Ta'lim jarayoni ta'limiy rivojlantiruvchi funksiya bilan birga tarbiyalovchi funksiyani ham bajarishni unutmashimiz kerak. Ta'lim nazariyasida tarbiyalovchi ta'lim prinsipi mavjud. Bularning barchasi ta'lim va tarbiyaning jarayoniy va mazmuniy jihatdan bir butunlikni ifodalaydi.

Biroq yaqin o'tmishgacha maktablar sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkillashga asos bo'lgan o'quvchilarni tarbiyalash dasturlari mavjud edi. Bu shundan dalolat beradiki, ta'lim mazmuni bilan birga tarbiya mazmuni borligini anglatadi. Zamonaviy pedagogik nazariya ta'lim va tarbiyani yagona pedagogik jarayonda birlashtiradi.

Pedagogikada «tarbiya mazmuni» nimani anglatadi?, maktabdagi, oiladagi, maktabdan tashqari muassasa va tashkilotlarda tarbiyaviy ishlar mazmuni qanday

bo'lishi kerak? Sinf rahbari va pedagoglarning tarbiyaviy ishlari uchun asos sifatida o'quvchilar tarbiyasi dasturi zarurmi? degan savolga qanday javob berayotganini ko'rib chiqaylik.

Tarbiya mazmuni — bu shaxsning individual ichki dunyosiga aylanadigan, o'zlashtirishi lozim bo'lgan jamiyatning moddiy va ma'naviy madaniyati elementlari, g'oya va ideallar, qadriyatlar, xulq-atvor normalari, bilimlar yig'indisi. Mohiyatiga ko'ra bu insonni shaxs va jamiyat a'zosi sifatida shakllanadigan barchasi madaniyat hisoblanadi. Tarbiya mazmuni to'g'risida gap bog'anda ko'pincha turli qarashlar tushuniladi. Birinchidan, bu butun insoniyatning hamda odamlarni xulq-atvor normalari va hayot tajribasi, madaniy ijtimoiy qadriyatlarini Ikkinchidan tarbiya mazmuni shaxsiy yondashuv pozitsiyasini individ sifatlarini, tajribasi, ehtiyojlar, insonni ijtimoiy ma'qullangan va individual qabul qilingan uning madaniyati va qadriyatlar tizimi yig'indisi sifatida ochib beradi. Uchin- chidan, tarbiya mazmuni deganda tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar faoliyatining maqsadini, vazifalarini, shakllarini aniqlovchi muassasaning tarbiyaviy faoliyati.

Maktab, oila, jamiyatda tarbiyaviy ishlarni olib borish va tashkil etish uchun shaxs shakllanishi uchun xizmat qiluvchi madaniyat elementlarini tarbiya mazmuni deb qabul qilish zarur. Tarbiya mazmunini tanlash, tarbiyaviy ishlar dasturini tuzish ishlarini yengillashtiradi.

Bugungi kunda o'quv tarbiyaviy muassasalarda tarbiya mazmunini aniqlash va tanlashga bo'lgan bir qator yondashuvlar mavjud.

Birinchi, an'anaviy yondashuv: tarbiya mazmunini tarbiya maqsadi orqali belgilash. Ya'ni shaxsni har tomonlama garmonik jihatdan rivojlantirish, aqliy, axloqiy, mehnat, estetik, jismoniy tarbiya XX asrning 90-yillariga kelib, bu yondashuv tanqidga uchradi. Tanqidchilarning ta'kidlashicha, tarbiya jarayoni, shaxsni bir butun shakllanishi sun'iy qismlarga ajratilganligidir. Bundan tashqari, tarbiya mazmuni kommunistik g'oyalarga, davlat qiziqishlariga yo'naltirilgan edi. Shaxs qiziqishlari, imkoniyatlari, ehtiyojlariga kam e'tibor berilganligi bilan karakterlanar edi.

Shuning uchun XX asrning 90-yillarida tarbiya mazmunini aniqlashga bo'lgan ikkinchi yondashuv paydo bo'ldi. Bu yondashuvning mohiyati shuki, bunda tarbiya mazmuni shaxsning madaniyati elementlari asosida shakllantiriladi. Shaxsning aqliy madaniyati, jismoniy madaniyati, axloqiy madaniyati v. b.

Tarbiya mazmunini aniqlashga bo'lgan uchinchi yondashuv mohiyati shuki, bunda tarbiya mazmuni qadriyatlarga munosabat sifatida qarash bilan karakterlanadi. Bu yondashuv rus pedagogi N. E. Shurkova, mamlakatimizda O. Musurmonova, S. Mamajonovalar tomonidan asoslangan.

Yuqoridagi barcha tarbiya mazmunini tanlash, aniqlashga bo'lgan yondashuvlar tarbiyaning asosiy vazifalarini inkor etmagan holda bir-birini to'ldiradi.

Shunday qilib, tarbiya mazmuni tarbiya maqsadi, vazifalari, ijtimoiy qadriyatlar hamda ideallar asosida shakllanadi. Tarbiya jarayoni mazmuni qadriyatlarga bo'lgan munosabatlarni va shaxs madaniyatini shakllantirish faoliyati sifatida ifodalanadi. Tarbiyaviy jarayon mazmunini alohida yo'nalishlar bo'yicha ko'rib chiqamiz.

16.2. O'quvchilar ilmiy dunyoqarashini shakllantirish va aqliy tarbiyasi

Aqliy tarbiya shaxsda tabiat, jamiyat, inson tafakkuri haqidagi bilimlarni hosil qilish, bilish qobiliyati, tafakkur, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish jarayoni bo'lib, u yuksak ma'naviy va axloqiy sifatlarga ega shaxsni tarbiyalashda yetakchi o'rin tutadi.

Shaxs tomonidan bilimlarning o'zlashtirilganligini, ma'lumotga ega bo'lganlikni, shuningdek, uning aqliy qobiliyati darajasini ifodalovchi sifatlarga aqliy sifatlarga deyiladi. Shaxsda bilimdonlik, zukkolik, topqirlik, tezkor fikrlash, tasavvurning boyligi, ijodkorlik, geniallik, boy dunyoqarashga egalik kabi aqliy sifatlarni namoyon bo'ladi.

Aqliy tarbiya o'quvchilarni ilm-fan, texnika va texnologiya sohasida erishilayotgan yutuqlar, yangilik va kashfiyotlardan xabardor qilish, ijtimoiy va tabiiy fanlar bo'yicha bilimlarni berish orqali ularda tafakkur, dunyoqarashni rivojlantirish maqsadini amalga oshirishga yo'naltiriladi.

Aqliy tarbiya vazifalari:

1. O'quvchilarga ilmiy bilimlarni berish.
2. O'quvchilarda ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga ongli munosabatni qaror toptirish.
3. O'quvchilarda mavjud bilimlardan amaliyotda foydalanish ko'nikmalarini tarkib toptirish.
4. O'quvchilarda o'z bilimlarini doimiy boyitib borishga intilish tuyg'ularini shakllantirish.
5. O'quvchilarda bilimlarni o'zlashtirishga yordam beradigan psixologik qobiliyatlar (nutq, diqqat, xotira, tafakkur, ijodiy xayol) va xususiyatlar (aniq maqsadga intilish, qiziquvchanlik, kuzatuvchanlik, mustaqil fikrlash, ijodiy tafakkur yuritish, o'z fikrini asoslash, mavjud ma'lumotlarni umumlashtirish, guruhlash-tirish, mantiqiy xulosalar chiqarish va hokazolar)ni rivojlantirish.
6. O'quvchilarga zamonaviy bilimlarni berish asosida ilmiy dunyoqarashni shakllantirish.

Dunyoqarash shaxsning tabiatga, jamiyatga, o'zining ijtimoiy muhitdagi o'rniga, o'z-o'ziga, turli voqe'larga munosabatini belgilab beradigan qarashlari, e'tiqodi, hayotiy tajribasi va faoliyat tamoyillarining tizimidir.

Dunyoqarash — inson faoliyati yo'nalishini aniqlovchi va uning ongida dunyoning umumiy ko'rinishini ifodalovchi falsafiy, ilmiy, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy, estetik qarashlar tizimidir. Zamonaviy psixologiya dunyoqarashni shaxs rivojlanishining bir qismi deb hisoblaydi. Dunyoqarashning asosini ilmiy bilimlar tashkil etadi. Shaxs dunyoqarashi izchil, tizimli, uzluksiz, maqsadga muvofiq tashkil etiladigan ta'lim-tarbiyani yo'lga qo'yish orqali uning turli yo'nalish va mazmundagi ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishini ta'minlash, o'z-o'zini tarbiyalab borishi uchun zarur shart-sharoitni asosida shakllantiriladi. Shaxs dunyoqarashini shakllantirish uzoq muddatli, dinamik xususiyatga ega jarayon sanaladi. Dunyoqarashni shakllantirish uchun bilimlarni o'zlashtirish, mazmuni tanlash, o'qitish metodlarini, bilim va faoliyat sohasidagi fundamental g'oyalarni ajratib olish bilan, predmetlararo aloqa bilan ta'minlanadi. Har qanday ta'lim tizimi

dunyoqarashni shakllantiradi. Sobiq ittifoq davrida o'quvchilarda tabiat, jamiyat, inson, bilish to'g'risidagi dialektik materializm nazariyasini shakllantirishga e'tibor berilar edi. Hozirda ilmiy materialistik qarashlarni shakllantirishga e'tibor berilmoqda.

Dunyoqarashning mifologik, diniy, ilmiy turlari mavjud.

Mifologik dunyoqarash - ibtidoiy jamoa tuzumida borliqni obrazli qabul qilish asosida shakllangan tasavvurlar majmuasini ifodalovchi dunyoqarash.

Diniy dunyoqarash - borliqning ilohiy kuchga, ilohiyotga ishonish asosida qabul qilinishini ifodalovchi tasavvurlar, urf-odatlar, marosimlar majmui.

Ilmiy dunyoqarash - ilmiy metodlar yordamida ko'p bor tekshirish, umumiy holda insoniyat tajribasi bilan tasdiqlanish qonunlariga tayanuvchi dunyoqarash.

Ilmiy dunyoqarash uzluksiz, izchil ravishda insoniyat tomonidan orttirilgan, mavjud ilmiy bilimlarni puxta o'zlashtirish, hayotiy tajriba orttirish asosida shakllanadi. Ilmiy dunyoqarash ta'lim jarayonida shakllanadi. Ilmiy qarash muayyan hodisa, jarayonning mohiyatini yontuvchi, ilmiy jihatdan asoslangan fikr, g'oya bo'lib, u shaxs tomonidan mavjud ilmiy bilimlar tizimi puxta o'zlashtirilganda, bilimlarni bir-biri bilan taqqoslash, solishtirish, predmet, hodisa yoki jarayon mohiyatini tahlil qilish natijasida yuzaga keladi. Ilmiy qarash ilmiy dunyoqarashdan farqlanib, uning shakllanishi uchun asos vazifasini o'taydi.

Ilmiy dunyoqarashga ega bo'lgan shaxs:

- tabiat, jamiyatda ro'y berayotgan voqea, hodisalar mohiyatini to'g'ri talqin eta oladi;

- o'ziga va atrofdagilarga nisbatan oqilona munosabatda bo'ladi;

- hech qachon dalillar bilan isbotlanmagan voqelik, hodisalarni haqiqat sifatida qabul qilmaydi;

- ilmiy dunyoqarashga egalik shaxsda mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi;

- zamonaviy sharoitda inson ongini boshqarish ilinjida yurgan turli oqimlar, ularning missionerlik faoliyatlari ta'siriga, mistik g'oyalarga berilmaydi;

- shaxsiy hayotida, shuningdek, ijtimoiy jamiyatda ro'y berayotgan o'zgarishlarning muayyan qonuniyatlarga asoslanishiga ishonadi va ularni tabiiy qabul qiladi;

- o'zining va jamiyat hayotida sodir bo'layotgan salbiy hodisalarni o'tkinchi sifatida qabul qiladi, kelajakka ishonch bilan qaraydi.

16.3. Yoshlarni fuqarolik tarbiyasi

Huquq va majburiyatlarni anglaydigan fuqaroni tarbiyalash har qanday jamiyat ijtimoiy institutlarining vazifasidir. Fuqaro - fuqaroligi huquqiy jihatdan e'tirof etilgan hamda muayyan davlat a'zosi bo'lgan shaxsdir. Fuqarolik tarbiyasi - bu davlat a'zosi uchun zarur sifatlarini, ya'ni siyosiy madaniyat, huquqiy madaniyat hamda vatanparvarlik, millatlararo munosabatlardagi madaniyatni shakllantirish bo'yicha tarbiyaviy ishlar tizimidir. Demak fuqarolik tarbiyasi — bu davlat a'zosi uchun zarur bo'lgan sifat va fazilatlarini shakllantirish bo'yicha tarbiyaviy ishlarini tashkil etish jarayoni hisoblanadi. Fuqarolik tarbiyasi - o'quvchilarda yuksak

darajadagi fuqarolik madaniyatini shakllantirish, ularni xalq, Vatan, jamiyat manfaatlarini uchun kurashuvchi fuqaro sifatida tarbiyalashga qaratilgan pedagogik jarayon sanaladi. Fuqarolik tarbiyasi orqali shaxsning siyosiy va huquqiy madaniyati, unda vatanparvarlik va millatlararo munosabatlar shakllantiriladi. Fuqarolik tarbiyasi o'quvchilarga fuqaroning burch va majburiyatlari, huquqlari to'g'risidagi bilimlarni berish asosida ularda fuqarolik madaniyatini shakllantirish maqsadini ifodalaydi. Pedagoglar tomonidan siyosat, fuqarolik, vatanparvarlik, huquq tushunchalarining mazmun-mohiyatini bilishliklari yoshlar orasida fuqarolik tarbiyasini tashkil etishlarida yordam beradi.

Siyosat — qonun va huquq yordamida davlatni boshqarish san'ati bilan bog'liq bo'lgan, hukumat va insonlar guruhi orasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi faoliyat sohasidir. Ta'lim muassasalarining bitiruvchilarida fuqarolik ongi shakllangan, siyosiy va huquqiy madaniyatli bo'lishlari talab etiladi.

Fuqarolik - huquqiy va axloqiy me'yorlarga ongli rioya etish, ma'lum huquqlardan foydalanish, burchlarni bajarishga mas'ullik bilan yondashish, mehnat jarayoni va jamoadagi faollik, ma'naviy yetuklik asosida muayyan davlatga mansublik

Shaxsning fuqarolik madaniyati uch qismdan, ya'ni bilim (siyosat va qonun sohasidagi qarashlar, nazariyalar, tushunchalar), munosabat (mamlakatning siyosiy-ijtimoiy hayotiga ongli munosabat), xulq (siyosiy hayotda ishtirok etish, faol fuqarolik pozitsiyasini egallash, mamlakat qonunlariga bo'ysunish)dan iborat. Bugungi globalashuv jarayonida mamlakat qonunlariga amal qilish, qonunga bo'ysunuvchi fuqaro bo'lish, mamlakatning siyosiy va ijtimoiy hayotiga ongli munosabatda bo'lish, siyosat va huquq sohasidagi bilimlarga ega bo'lish jamiyatning har bir a'zosi qo'yilgan talabdir.

Ushbu talablardan kelib chiqqan olda, fuqarolik tarbiyasini tashkil etishda quyidagi vazifalar hal qilinadi:

1. Yosh avlodni jamiyatda ustuvor bo'lgan axloqiy va huquqiy me'yorlarga rioya etishga o'rgatish.

2. O'quvchilarga fuqarolik huquq, burchlari to'g'risida ilmiy jihatdan asoslangan bilimlar berish, ularda fuqarolik faoliyati ko'nikma, malakalarini hosil qilish.

3. O'quvchilarda davlat ramzlariga nisbatan hurmat, muhabbatni qaror toptirish, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sha'ni, or-nomusini himoya qilishga tayyorlik hissini shakllantirish.

4. O'quvchilarda xalq o'tmishi, milliy qadriyatlarga muhabbat hissini uyg'otish, ulardan g'ururlanish, faxrlanish, iftixor tuyg'ularini rivojlantirish.

5. Vatan, xalq, millat ishiga sodiqlik, o'z manfaatlarini yurt manfaatlarini bilan uyg'unlashira olishga erishish, fidoyi fuqaroni tarbiyalab voyaga yetkazish.

6. Vatan, yurt ozodligi, mustaqilligini e'zozlaydigan, uni himoya qilishga tayyor fuqarolarni tarbiyalash.

Ta'lim muassasalarida o'qituvchilar asosan yoshlarda siyosiy faollikni shakllantirish, ularni mamlakatni ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtiroklarini ta'minlashga e'tibor berishlari zarur. Yuqoridagi vazifalarni hal etish uchun ta'lim muassasalarida fuqarolik tarbiyasining quyidagi shakllarida tarix, jamiyatshunoslik

kabi fanlar o'qitilishida hamda sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar tashkil etilishi orqali erilishiladi.

Fuqarolik tarbiyasida vatanparvarlikning o'rni beqiyosdir. Vatanparvarlik — bu insonni tug'ilib o'sgan joyiga ona vatanga muhabbati, unga sodiqlik, o'z vatani qiziqishlarini himoya qilishiga intilishi, uni o'rinishi va hozirgi kundan mag'rurlanishidir. Vatanparvarlik - shaxsning o'zi mansub bo'lgan millat, tug'ilib o'sgan vatani tarixidan g'ururlanishi, buguni to'g'risida qayg'urishi, uning porloq istiqboliga bo'lgan ishonchini ifoda etuvchi yuksak insoniy fazilat. Vatanparvarlik - imon, e'tiqod, vijdon amri bilan, Vatan va millat oldidagi mas'uliyat va burchni anglashdir. Vatanparvarlik oldin. Vatanga hurmat va muhabbat bilan bog'langan tuyg'u sifatida shakllanadi. Demak, vatanparvarlik - o'z taqdirini vatan, millat taqdiri bilan bog'lagan, barcha kishilarga xos fazilatdir. Vatanparvarlik har bir o'quvchini qalbida, ongida, faoliyatida vatanning o'tmishi hozirgi kundagi holati va manfaatlari, istiqboli haqidagi fikrlar uyg'unlashib bir tizimga kelishi, uning faoliyatiga maqsad va yo'nalish beruvchi ichki ma'naviyatga aylanishidir.

Vatanparvarlik bo'yicha tarbiyaviy ishlar mazmuniga o'quvchilarni o'z mamlakatlari tarixini o'rganishlari hamda o'z xalqi madaniy merosini avaylab-asrashi hamda o'z ona tilisini saqlash faoliyati kiradi. Shuning uchun maktabning vazifasi o'quvchilarga vatanparvarlikning mohiyatini, vatanparvarlik his-tuyg'usini mazmun-mohiyatini tushuntirishdan iborat. Vatanparvar - o'z Vatani, ona yurtini, xalqini cheksiz sevadigan, vatan manfaatlari uchun kurashadigan, bu yo'lda fidoyilik ko'rsatadigan shaxs.

Vatanparvar shaxs o'zida quyidagi sifatlarini namoyon etadi:

Vatanga bo'lgan mehr-muhabbat, unga sadoqat;

- o'zi mansub bo'lgan millat o'tmishi, urf-odatlari, an'analari, qadriyatlariga sodiqlik;

- Vatan va millat tarixidan g'ururlanish;

- yurtning moddiy, shuningdek, millat tomonidan yaratilgan ma'naviy boyliklarini asrash, ularni ko'paytirish borasida g'amxo'rlik qilish, Vatan ravnaqi va millat taraqqiyoti yo'lida mehnat faoliyatini tashkil etish;

- yurt ozodligi va millat erkiga qilinayotgan har qanday tahdidga qarshi kurashish;

- Vatan va millat obro'vi, sha'ni, or-nomusini himoya qilish;

- yurt ravnaqi va millat taraqqiyotiga ishonish.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi yoshlarni vatan himoyasi va harbiy mudofaaga tayyorlash, ularda favqulodda holatlarda harbiy mudofaani tashkil etish ko'nikma, malakasini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon sanaladi.

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining maqsadi yoshlarni vatan himoyasi hamda harbiy mudofaaga tayyorlash, ularda favqulodda holatlarda harbiy mudofaani tashkil etish ko'nikma, malakalarini shakllantirishdan iborat.

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini tashkil etish jarayonida quyidagi vazifalar hal qilinadi:

- o'quvchilarga fuqaro mudofaasi, harbiy bilim asoslari bo'yicha boshlang'ich ma'lumotlarni berish orqali ularda amaliy ko'nikmalarni hosil qilish;

- o'quvchilarni milliy mustaqillik, O'zbekiston Respublikasining davlat qurilishi va konstitutsiyaviy tuzumiga qarshi uyushtiriladigan tahdidlarning oldini olishga tayyorlash;

- o'quvchilarda g'oyaviy onglik, terrorizm, diniy ekstremistik g'oyalarga qarshi nafrat tuyg'usini tarbiyalash,

- o'quvchilarning Vatan himoyasini ta'minlashga oid harbiy-texnik tayyorgarlikka ega bo'lishlari uchun zarur shart-sharoitni yaratish;

- o'quvchilarda favqulodda vaziyatlarda tegishli chora-tadbirlarni ko'ra olish, qurolli xurujlardan himoyalaniish ko'nikma, malakalarini shakllantirish; ularda hushyorlikni oshirish va hokazolar

Fuqarolik tarbiyasining yana bir ajralmas qismi huquqiy madaniyatni shakllantirish hisoblanadi

Prezidentimiz huquqiy madaniyat xususida «Huquq madaniyatning darajasi faqatgina qonunlarni bilish, huquqiy ma'lumotlardan xabardor bo'lishdangina iborat emas, u qonunlarga amal qilish va ularga bo'ysunish madaniyati demakdir» deb ta'kilaganlar. Insonda huquqiy ong va madaniyat o'z-o'zidan shakllanmaydi. U jamiyatda, oilada, jamoatchilik o'rtasida, ta'lim-tarbiya natijasida shakllanadi.

Huquqiy madaniyat — bu mamlakatning huquqiy tizimi, asosiy huquqiy me'yorlari, huquqiy normalarga amal qilishga intilish to'g'risidagi bilimlar. Huquqiy madaniyat shaxs tomonidan huquqiy bilimlarning samarali o'zlashtirilishi va huquqiy faoliyatni samarali tashkil etish darajasining sifat ko'rsatkichi. Huquqiy tarbiya shaxs tomonidan o'zlashtirilgan nazariy-huquqiy bilimlar negizida huquqiy faoliyatni tashkil etish borasidagi ko'nikma, malakalarni hosil qilish, unda ijobiy mazmundagi huquqiy sifatlarini qaror toptirish, huquqiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon hisoblanadi. Huquqiy tarbiya o'quvchilarga huquqiy bilimlarni berish orqali ularda huquqiy madaniyatni shakllantirish maqsadini ko'zlaydi. Huquqiy ta'lim - o'quvchilarga huquqiy me'yorlar, qonunlar, ijtimoiy-huquqiy munosabatlar to'g'risida tizimlangan bilimlarni berish, ularda huquqiy bilimlarni egallashga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirish, huquqiy ongni shakllantirish jarayoni hisoblanadi.

Ta'lim muassasalarida huquqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida quyidagi vazifalar hal etiladi

- o'quvchilarga huquqiy me'yorlar, qonunlar, ijtimoiy-huquqiy munosabatlar, ularning ijtimoiy ahamiyati to'g'risidagi ma'lumotlarni berish.

- o'quvchilarda huquqiy bilimlarni egallashga bo'lgan ehtiyojni hosil qilish;

- o'quvchilarda huquqiy ongni shakllantirish;

- o'quvchilarda huquqiy faoliyat ko'nikma va malakalarni hosil qilish;

- o'quvchilarda huquqiy madaniyat (huquqiy tasavvur, huquqiy idrok, huquqiy savodxonlik, huquqiy tafakkur, huquqiy mas'ullik, huquqiy faollik, huquqiy e'tiqod, huquqiy salohiyat)ni, huquqiy madaniyat elementlari (huquqiy me'yor, qonunlarning ijtimoiy ahamiyatini to'g'ri baholash, ijtimoiy harakat va harakatsizlikning qonuniy bo'lishiga erishish, davlat Konstitutsiyasi va ramzlarini, fuqarolik huquq va burchlarini hurmat qilish, yuridik xizmatlarga nisbatan ehtiyojni qaror toptirish, har qanday ko'rinishdagi huquqbuzarliklarga qarshi murosasiz kurashni tashkil etish kabilar)ni shakllantirish.

Fuqarolik tarbiyasining vana bir ajralmas qismi millatlararo totuvlik, baynalmilallikni shakllantirish hisoblanadi. Baynalmilallik - o'zga millat va elatlarning haq-huquqlari, erki, urf-odatlari, an'analari, turmush tarzi, tili, vijdon erkinligini hurmat qilish, ularning manfaatlariga ziyon yetkazmaslikni ifoda etuvchi shaxsga xos ma'naviy-axloqiy fazilatlaridan biridir.

Baynalmilallik tarbiyasi o'quvchilarda o'zga millat va elatlarning haq-huquqlari, erki, urf-odatlari, an'analari, turmush tarzi, tili, vijdon erkinligini hurmat qilish, ularning milliy manfaatlariga ziyon yetkazmaslik kabi sifatarni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat jarayoni sanaladi:

Baynalmilallik tarbiyasining maqsadi o'zga millat va elatlarning haq-huquqlari, erki, urf-odatlari, an'analari, turmush tarzi, tili, vijdon erkinligini hurmat qilish, ularning milliy manfaatlariga ziyon yetkazmaslik kabi sifatarni shakllantirish, o'zga millat va elatlarning vakillari bilan o'zaro do'stlik aloqalarini o'rnatishga tayyorlashdan iborat.

Baynalmilallik tarbiyasini tashkil etish jarayonida quyidagi vazifalar hal qilinadi:

- o'quvchilarni o'zga millat va elatlarning haq-huquqlari, erki, urf-odatlari, an'analari, turmush tarzi, til xususiyatlari bilan yaqindan tanishtirish;

- o'quvchilarga o'zga millat va elatlarning tarixi, bugungi taraqqiyoti, umuminsoniyat madaniyatiga qo'shgan hissasi, jahon sivilizatsiyasida tutgan o'rni, vijdon erkinligiga oid ma'lumotlarni berish.

- o'quvchilarda o'zga millat va elatlarning haq-huquqlari, erki, urf-odatlari, an'analari, turmush tarzi, til xususiyatlari, vijdon erkinligiga hurmat, milliy manfaatlariga ziyon yetkazmaslik kabi sifatarni shakllantirish;

- o'quvchilarni o'zga millat va elatlarning vakillari bilan o'zaro do'stlik aloqalarini o'rnatishga amaliy jihatdan tayyorlash.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya

Mamlakatning ta'lim tizimi, ya'ni maktab, oliy ta'lim muassasalari nafaqat ilmiy jihatdan intellektual rivojlangan, jismonan sog'lom, balki ma'naviy pok, axloqan tarbiyalangan bitiruvchilarni yetishtirib chiqarishi davr talabidir. Mamlakatimizda axloqiy tarbiya mazmuni professor Malla Ochilov tomonidan ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Uning yaxshilik qilish, sabr-qanoatli bo'lish, rostgo'ylik, adolatlilik, mehr-oqibat, saxiylik, poklik, kabi insoniy-axloqiy fazilatlar to'g'risidagi qarashlari yoshlar tarbiyasida ahamiyatlidir. O'quvchilarning axloqiy madaniyatini shakllantirishda o'tmish axloqiy merosini, ayniqsa ulug' mutafakkirlarning fikrlarini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Chunki ularning ilmiy ma'rifat, ta'lim-tarbiya sohasidagi fikrlari, axloqiy qarashlari bugungi taraqqiyot uchun ham o'z ahamiyatini yo'qotgan yo'q. Ularning hayot yo'li, axloq haqidagi fikrlari har bir o'quvchilarni axloqiy madaniyatini shakllantirishda muhim o'rin egallaydi. Sharq allomalarning axloqiy qarashlari o'quvchilar qalbida insoniylikni shakllanishga yordam beradi.

Butun dunyoda, jamiyatda axloqiy tarbiyaning ahamiyati ortib bora-votganini, lekin shu bilan bug'a ommaviy axborot vositalari, keng jamoatchilik, turli

soha mutaxassislari hayotning turli sohalarida axloqiy normalarni pasayishi kuzatilayotganligi haqida fikr bildirilayotganini kuzatishimiz mumkin. Nima uchun aynan yoshlar, bolalar orasida axloqiy normalarni buzilish holatlari kuzatilmoqda? Ushbu savolning javobi axloqiy tarbiyaning asosini tashkil etadi

Axloqning vujudga kelishi va mohiyati, odamlarni axloqiy ongi va xulqi to'g'risidagi muammolarni etika fani o'rganadi

Axloq ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, ijtimoiy munosabatlar va shaxs xatti-harakatini tartibga soluvchi, muayyan jamiyat tomonidan tan olingan, rioya qilinishi zarur bo'lgan tartib, odob, o'zaro munosabat, muloqot, xulq-atvor qoidalari, mezonlarining majmui sanaladi.

Axloq tarixiv, o'zgaruvchan xarakterga ega bo'lib, axloqiy qoidalar odamlar hayotining ijtimoiy sharoitlarida aniqlanadi va jamiyatning turli qatlamlarida turlicha bo'ladi

Axloqiy me'vor jamiyat tomonidan tan olingan bo'lib, uning a'zolari tomonidan bajarilishi majburiy-ixtiyoriy bo'lgan qoida hisoblanadi.

Axloqiy odat - axloqiy xatti-harakatlarning mukammallashtirishga bo'lgan ehtiyoj bo'lib, u o'quvchilarda qulay vaziyatlarda ijobiy mazmunga ega xatti-harakatlarning izchil, doimiy, tizimli takrorlanishi hisobiga hosil bo'ladi.

Axloqiy ong - ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlari, milliy istiqlol g'oyasining o'quvchilar ongida aks etishi

Axloqiy xulq motivlari va nazorat joviga ko'ra, axloqiy rivojlanish darajasi amerika olimi Ya. Kolbergning ta'kidlashicha, uchta guruhga bo'linadi.

1. Axloqgacha (bola axloq talablarini jazodan, va'ni tashqi nazoratdan qo'rqib bajaradi)

2. Konventional (axloq talablariga yaxshi vashash uchun amal qiladi). Avtonom (hayot qoidasiga aylanib bo'lgan, o'z ixtiyori bo'yicha amal qiladi)

Axloqiy tarbiya bu tarbiyalanuvchilarda axloqiy bilimlar, axloqiy his-tuyg'u, axloqiy xulqni shakllantirish bilan bog'liq pedagogik faoliyatdir. Axloqiy tarbiyaning ijtimoiy aspekti bu jamiyatda qabul qilingan axloq me'yorlari va prinsiplaridir

Axloqiy tarbiya o'quvchilar ongi, hayoti, turmush tarziga muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan tartib, odob, o'zaro munosabat, muloqot va xulq-atvor qoidalari, mezonlarni singdirish jarayoni

Axloqiy tarbiyani maqsadi o'quvchilarni ijtimoiy-axloqiy me'yorlar mazmunidan xabardor etish, ularga axloqiy me'yorlarning ijtimoiy ahamiyatini tushuntirish, ularda ijtimoiy-axloqiy me'yorlarga nisbatan hurmat hissini qaror toptirish asosida axloqiy ong va madaniyatni shakllantirish hisoblanadi

Axloqiy tarbiyani vazifalari:

1. O'quvchilarni odob-axloq qoidalari va ijtimoiy axloq me'yorlari bilan tanishtirish.

2. O'quvchilarda ma'naviy-axloqiy ongni shakllantirish

3. O'quvchilarning ma'naviy-axloqiy his-tuyg'ularini tarbiyalash va rivojlantirish.

4 O'quvchilarda ma'naviy-axloqiy sifat (ota-onani, kattalarni hurmat qilish, kichiklarga izzat ko'rsatish, mehnatsevarlik, bilim olishga intilish, kamtarlik, halollik, rostgo'ylik, olijanoblik, muruvvatlilik, rahmdillik, moddiy va ma'naviy ne'matlarni asrash, kelajakka ishonch bilan qarash va h.o.)larni tarbiyalash.

5. O'quvchilarda axloqiy xulq-atvor ko'nikma, malaka va odatlarini tarkib toptirish.

Hozirda zamonaviy dunyo insoniylik prinsiplariga asoslangan, axloq normalariga va insoniylik axloqiga tayangan qadriyatlarga muhtojlik sezmoqda. Ularga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

Insoniylik insonni axloqiy fazilati hisoblanib, insonni insonga hurmatini, insonni oliy qadriyat sifatida qarashni, uni tushunishni, unga yordam berishni ifodalaydi.

Insonga, uning qarashlari, qadriyatlariga ishonish, ushbu ideallarga xizmat qilish.

O'z mas'uliyatini bajarishda erkinlik, maqsadga erishishni bilish, o'z o'ziga talabchan bo'lish va jamiyat talablarini bajarish hamda intizomli bo'lish.

O'z xatti-harakati uchun javob berish, o'z xatolarini tan olish va tuzatish.

Yer yuzidagi barcha jonzotlarga, tabiatga nisbatan hurmatda bo'lish.

Halollik, adolatlilik, prinsipiallik, o'ziga va boshqalarga nisbatan talabchan hamda sabrli bo'la olish.

Yuqoridagilar O'zbekiston xalqini axloq kodeksi emas, balki oiladagi, maktabdagi, jamiyatdagi tarbiyaviy ishlarni tashkil etish uchun asos bo'la oladigan axloqiy normalardir.

Axloqiy tarbiyani tashkil etishning asosiy shakli bu umumta'lim maktablarimizda adabiyot, tarix, jamiyatshunoslik darslaridir. Bundan tashqari, sinfdan va maktabdan tashqari axloqiy mavzularda tashkil etilgan tadbirlar, uchrashuvlar ham o'quvchilarda axloqiy sifat va fazilatlarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Shaxsning tabiiy va ijtimoiy borliqqa, o'ziga hamda atrofida qilargalarga ijobiy munosabatini, shaxslararo munosabatda axloqiy me'yorlarga qat'iy amal qilishni ifodalovchi sifatlar ma'naviy-axloqiy sifatlar deb yuritiladi.

Shaxsning axloqiy sifatlariga vushmuomalalik, axloqlilik, mehnatsevarlik, kamtarlik, mehribonlik, rahmdillik, saxovatlilik, oqko'ngillilik, bag'rikenglik, vatanparvarlik, baynahmlilik, sabrlilik, bilimlilik, e'tiqodlilik, adolatparvarlik, haqiqatgo'ylik, o'zgalarni tushuna olish, muhtojlarga yordam ko'rsatish, kattalarni hurmat qilish, kichiklarga izzat ko'rsatish, intizomlilik v.b.

Maktabda, oilada axloqiy tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yilgandagina shaxsga xos quvidagi salbiy axloqsizlik, odobsizlik, manmanlik, kibrlilik, dangasalik, maqtanchoqlik, ko'ngli qoralik, vasislik, vatanfurushlik, sabrsizlik, bilimsizlik, e'tiqodsizlik, adolatsizlik, yolg'onchilik, qahr qattiqlik, berahmlilik, kattalarni hurmat qilmaslik, kichiklarga izzat ko'rsatmaslik, intizomsizlik kabi axloqiy sifatlarini shakllanishining oldini olishiga erishiladi.

Axloqiy tarbiya umuminsoniy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi sanaladi. Axloqiy tarbiya o'quvchilar ongi, hayoti, turmush tarziga muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rivoj qilmishi zarur bo'lgan tartib, odob o'zaro munosabat muqofot va xulq-atvor qoidalari, mezonlarni singdirish jarayoni.

Ushbu tarbiya asosini ijtimoiy axloqiy me'yorlar hamda shaxsni ulardan xabardor etish tashkil qiladi. Axloqiy me'yor jamiyat tomonidan tan olingan bo'lib, unda yashovchi kishilar tomonidan bajarilishi majburiy-ixtiyoriy bo'lgan qoida hisoblanadi.

Axloq axloqiy tarbiyaning asosiy kategoriyasi sanaladi. Axloq (lot «moralis» - xulq-atvor) ijtimoiy ong shakllaridan biri hisoblanib, ijtimoiy munosabatlar va shaxs xatti-harakatini tartibga soluvchi, muayyan jamiyat tomonidan tan olingan, noya qilinishi zarur bo'lgan tartib, odob, o'zaro munosabat, muloqot, xulq-atvor qoidalari, mezonlarining majmui sifatida aks etadi.

Qur'oni karim va Hadisi shariflardagi axloqqa oid ibratli maslahatlar, hikoyatlar asrlar davomida tarkib topgan milliy urf-odatlar, an'ana va qadriyatlar mazmunida o'z ifodasiga ega bo'lgan Sharq mutafakkirlari Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad al-Farg'oniy, Imom Ismoil al-Buxoriy, Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Nahshband, Amir Temur, Muhammad Tarag'ay Ulug bek, Abdurahmon Jomiy, Sa'diy Sheroziy, Alisher Navoiy Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqalarning axloq haqidagi qarashlari bugungi kunda ham o'z ifodasini topgan.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov aytganidek «Kattalarni hurmat qilish, oila va farzandlar to'g'risida g'amxo'rlik qilish, ochiq ko'ngillik, millatidan qat'i nazar odamlarga xayrixohlik bilan munosabatda bo'lish va o'zaro yordam tuyg'usi - kishilar o'rtasidagi munosabatlarning me'yorini hisoblanadi. O'zbeklar diyoriga, o'z Vatanga mehr-muhabbat, mehnatsevarlik, bilimga, ustozlariga, ma'nifatparvarlarga nisbatan alohida hurmat-ehtirom O'zbekiston aholisiga xos fazilatlardir».

Amir Temur - yaxshi xulqlar egasi bo'lgan. U oqil va tadbirli hukmdor sifatida kishilarni turli lavozimlarga tayinlash va vazifasidan ozod etishda ham shoshma-shosharlik va adolatsizlikka yo'l qo'ymagan, balki yetti o'lchab, bir kesgan.

Imom Ismoil al-Buxoriy «Axloqning yaxshi bo'lishi, taomning pokizaligi, rostlik va omonatga xiyonat qilmaslik - mana shu to'rt xislatni Alloh taolo senga bergan bo'lsa, dunyoviy ishlardan chetda qolgan bo'lsang ham, zarari yo'qdir», degan edi.

Demak, axloqiy tarbiya barkamol inson tarbiyasida yetakchi bo'g'in, insoniy sifatlarni yaratuvchi, shakllantiruvchi, mukammalikka erishtiruvchi vosita hisoblanadi. Abdulla Avloniy ta'kidlaganidek, axloqiy tarbiya insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir omildir. Yaxshi xulqlarning yaxshiligi, yomon xulqlarning yomonligini dadil va misollar bilan bayon qiladurg'on kitobdir.

Axloq kishining xulq-atvori, e'tiqod-imoni, yurish-turishi, fikr-mulohazalari, mushohada va muloqotida namoyon bo'ladi. Axloqli inson o'zini qattiq hurmat qiladi, intizomli bo'ladi. Suhbatdoshning ko'ngliga qarab gapiradi, kishi dilini og'ritmaydi, muloqot odobiga rioya qiladi.

Mamlakatimizda oilaviy tarbiya muammolari Oysha To'rayeva, Abdurashid Munavvarov, Ovnisa Musurmonovalar tomonidan o'rganilgan. Oilaviy tarbiyaning o'ziga xosligi shundaki, u bolalarga ota-onalarning ota-onalik, qon-qarindoshlik xislatlarini uzatib, shaxsning umumiy va hissiy rivojlanishiga ta'minlab qolmay.

balki shaxsning mavjud imkoniyatlarini va axloqiy kamolotini ham o'stiradi deb ta'kidlaydi. Oilaviy tarbiyada asosiy vazifani xalq, odobga doir tadbirlarni bolaga to'g'ri o'rgatish, maslahat berish, ota-onaning kasb-kori, oila a'zolarining ma'naviy-ruhiy munosabatlari o'ynaydi.

Oilaviy tarbiyada obyektiv va subyektiv omillar muhim rol o'ynaydi. Obyektiv omillarga oilaning moddiy farovonligi, daomadlarning turlari, o'ziga xosligi va saviyasi, uy-joy bilan ta'minlanganlik darajasi, oila a'zolarining soni, subyektiv omillarga oiladagi o'zaro munosabatlarning o'ziga xosligi, ma'lumoti, oila a'zolarining ma'naviy-madaniy saviyasi, ota-onaning muomala madaniyati kiradi. Har bir oila o'ziga xos bir olam, jamiyatning kichik bir uyushmasi bo'lib, tarbiya ishida o'ziga xos xususiyatlarni namoyon qiladi. Shuning uchun oilaviy tarbiyani shakl va metodlarini umumlashtirish va unga biror bir tavsiyalar berish qiyin. Ota-onalar qanchalik ma'naviy boy, e'tiqodli va yuqori darajadagi ma'lumotga ega bo'lsalar, shu darajadagi takomillashgan uslub orqali o'z farzandlarini tarbiyalaydilar. Ular faqat maslahat berish, ma'qullash, taqdirlash, jazolash, suhbat, hikoya, fikr almashish bilanгина emas, balki shaxsiy namunalari, bolalari bilan birgalikda ishlash, ularni mehnat faoliyatiga tortish orqali ham tarbiyalaydilar. Oila tarbiyasi ota-onalar yoki mas'ul shaxslar tomonidan tashkil etilib, bolalarni har tomonlama yetuk, sog'lom etib tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon. Oilaviy tarbiya deganda, ota-onalarning o'z hayotlari, turmush tarzlari asosda bola shaxsida, dunyoqarash asoslari, siyosiy, axloqiy, estetik va boshqa ijtimoiy omillarni shakllantirish maqsadida muntazam, izchil, g'oyaviy va ma'naviy ta'sir ko'rsatish jarayoni tushuniladi. O'rta Osiyoda yashab ijod etgan mutafakkirlarimizdan Ibn Sino oila tarbiyasi xususida «agar oila tarbiya uslubini to'g'ri qo'llay olsa, oiladagi bolalar o'z baxtlariga tez erishadilar» degan fikrni ilgari suradi. Oilaviy tarbiya - bu ota-ona qarindoshlar kuchi bilan, aniq oilaviy sharoitlarda amalga oshiriladigan, ko'p qurtali, murakkab ta'lim-tarbiya tizimi hisoblanadi. Unga irsiyat, bola salomatligi, ota-onalar, moddiy-iqtisodiy ta'minlanganlik, oila a'zolari soni, yashash joyi, bolaga munosabat ta'sir qiladi. Oilaviy tarbiya - bolalarni hurmat qilishga asoslangan, maqsadga yo'naltirilgan, oiladagi kattalarni kichiklarga ta'sir etish jarayonidir.

Oilaviy tarbiya maqsadi - shaxsda havot davomida uchraydigan qiyinchiliklarni, qarshiliklarni hal qila oladigan xislatlarni shakllantirish hisoblanadi. Oilaviy tarbiya vazifalariga

- bolani rivojlanishi uchun maksimal sharoit yaratish;
- oilani qurish, uni saqlash tajribasini o'rgatish;
- bolalarga foydali bilim, ko'nikma va malakalarni o'rgatish;
- bolada g'urur, shaxsiy qadr-qimmatni tarbiyalash kabilar kiradi.

Oilaviy tarbiya prinsiplari deganda, oilaviy tarbiyada ota-onalar va farzandlar amal qilishi kerak bo'lgan talab va qoidalar yig'indisini tushunamiz. Oilaviy tarbiya prinsiplariga,

- bolaga insoniy munosabatda bo'lish va g'amxo'rlik qilish;
- maqsadga yo'naltirilganlik;
- madaniyatlilik va insonivlik;
- tarbiyani bola hayoti va ehtiyoji bilan bog'liqligi;

- bola shaxsi rivojlanishining xususiyatlarini hisobga olish;
- oilani oilaviy hayotdagi ishtirokimi ta'minlash;
- oilaviy munosabatlarda ishonish va ochiqlik;
- munosabatlarda maqsad bo'lishini ta'minlash;
- kattalarni talabchanligi;
- bolaga yordam berish, savoligajavob qaytarish.

Oilada uvushtiriladigan axloqiy tarbiyaning maqsadi bolalarda eng oliy axloqiy sifatlar ota-ona va oilaning boshqa a'zolari, atrofdagilarga nisbatan mehr-muhabbat, kattalarga hurmat, kichiklarga muruvvat, kamtarlik, to'g'riso'zlik, mehnatsevarlik, saxovat, insonparvarlik, adolat, vijdon, or-nomus, g'urur, intizom, ijtimoiy burchni anglash va hokazolarni shakllantirishdan iborat.

Yosh avlodni tarbiyalashda ta'lim muassasalari tomonidan oilalarga, eng avvalo, metodik yordam ko'rsatiladi. Bu yordam maslahat, suhbat voki amaliy ishlar shakllari (masalan, psixologik treninglarni tashkil etish ko'rinishi)da bo'lishi mumkin.

Oiladan an'analar (yoki oilaviy an'analar) - oilaning tabiiy va ijtimoiy ehtiyojlari asosida vujudga kelib, avloddan avlodga meros sifatida o'tish orqali oila a'zolarining ma'naviy shakllanishiga ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy-madaniy hodisa sanaladi.

Oilaning moddiy, ma'naviy, milliy, psixologik, pedagogik imkoniyatlari oilaning tarbiyaviy imkoniyatlarini ifodalaydi. Oiladagi moddiy qadriyatlarga hurmat-sizlik, ota-onalarning axloqsizligi, oiladagi avtoritarizm, liberalizm, psixologik muhitning yomonligi oilaviy tarbiyaga ta'sir etuvchi salbiy omillar hisoblanadi.

Nazorat uchun savollar

- 1 Tarbiya mazmuni muammosi qanday yoritilgan?
- 2 O'quvchilar ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda nimaga e'tibor qaratish zarur.
- 3 Aqliy tarbiya maqsadini izohlang?
- 4 Yoshlarni fuqarolik tarbiyasi mazmunini nimalar tashkil etadi?
- 5 Ma'naviy-axloqiy tarbiyada nimalarga e'tibor qaratish zarur?

16.5. Mehnat tarbiyasi

Mamlakatimizda mehnat tarbiyasining mazmuni va bolalarni mehnatga tayyorlash muammolari Rahima Mavlonova, Mamat Haydarovlar tomonidan ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Rahima Mavlonovaning fikricha, bolalarni mehnatga tayyorlash - bu mehnatga nisbatan ularning yoshiga muvofiq keluvchi ongli va jobiy munosabatlarni tarkib toptirish, ularda amaliy ko'nikma va malakalarini egallashga qiziqishni shakllantirish demakdir. O'qituvchining vazifasi o'quvchilarga yoshligidan boshlab mehnat - bu har bir insonni vijdoni va burchi ekanligini, inson o'z mehnati bilan sharaflanishini, faqat Vatan farovonligi yo'lida qilingan mehnatdagina insonning eng yaxshi fazilatlarini rivojlanishi hamda takomillashishi mumkinligini anglashlariga yordam berishdir.

Oilada, maktabda, jamiatda mehnat tarbiyasi — bu mehnat ko'nikmalarini va axloqiy sifatlarini shakllantirish, tanlagan mutaxassislik bo'yicha ishlashni bilish, mehnatni va o'zgarlar mehnati natijasini hurmat qilish, mehnat qilishga ehtiyojni tushunadigan, his eta oladigan insonni shakllantirish tizimidir. Mehnat tarbiyasi shaxsga mehnatning mohiyatini chuqur anglatish, ularda mehnat va mehnat faoliyatiga ogli munosabatni, shuningdek, muayyan ijtimoiy-foydali harakat yoki kasbiy ko'nikma, malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

Mehnat tarbiyasini tashkil etish shaxsda mehnat va mehnat faoliyatiga ijobiy munosabatni shakllantirish maqsadini amalga oshirishga yo'naltiriladi.

Ta'lim muassasalarida mehnat tarbiyasini tashkil etishda mehnatning quyidagi turlaridan foydalaniladi:

- 1) o'quv mehnati;
- 2) ijtimoiy-foydali mehnat;
- 3) o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish;
- 4) ishlab chiqarish mehnati.

O'quv mehnati - o'quvchilar tomonidan ilmiy bilimlar, o'quv fanlari asoslarini o'zlashtirish orqali ularni amaliyotga tatbiq etishga doir ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan amaliy faoliyati

Ijtimoiy-foydali mehnat - o'quvchilar guruhi (jamoasi) tomonidan tashkil etilib, ijtimoiy ahamiyat kasb etgani holda bevosita shaxsni har tomonlama kamol toptirish, uning muayyan ijtimoiy ehtiyojni qondirishga yo'naltirilgan mehnat faoliyatining alohida turi sanaladi. O'quvchilar ijtimoiy-foydali mehnatini tashkil etishda sinf xonasi yoki oshxonada navbatchilikni tashkil qilish, hasharlar, mehnat bayrami, ko' kalamzorlashtirish, maktab binosini ta'mirlash, fermer hamda jamoa xo'jaliklarida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yig'ib olishda dehqonlarga ko'maklashish kabi shakllardan samarali foydalanish mumkin. O'z-o'ziga xizmat - o'quvchilar tomonidan oilada, ta'lim muassasasida, omma uchun xizmat ko'rsatiladigan muassasalarda o'z ehtiyojlarini qondirish, shuningdek, zimmalaridagi vazifalarni ado etish maqsadida tashkil etiladigan mehnat faoliyatidir. O'z-o'ziga xizmat ko'rsatishning eng oddiy ko'rinishlari umumiy ovqatlanish muassasalarida xodimlar xizmatidan foydalanmaslik, oilada yotoqxonani tartibga keltirish, kiyim-kechaklarni ozoda, o'quv qurollarini esa tartibli saqlash, shaxsiy gigiyena qoidalariga amal qilish yo'lida muayyan harakatlarni bajarish kabilar sanaladi. O'quvchilarning ishlab chiqarish mehnati ta'lim muassasalarida o'quvchilarni muayyan yo'nalishlar bo'yicha kasb yoki hunar asoslaridan xabardor qilish, ularda amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish yo'lida olib borilayotgan pedagogik faoliyat ko'rinishlaridan biri hisoblanadi. Mehnat tarbiyasining asosiy qismi kasbga yo'naltirish hisoblanadi. Kasbga yo'naltirish — bu o'quvchiga mehnat bozoriga va imkoniyat va ehtiyojlariga mos keluvchi kasbni tanlashlariga yordam berish jarayoni hisoblanadi. O'quvchilarni kasb tanlashga yo'naltirish ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan pedagogik faoliyat hamda o'quvchilar ishlab chiqarish mehnatining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, unga ko'ra o'quvchilar muayyan kasb yoki hunar borasidagi bilim, ko'nikma, malakalar bilan qurollantiriladilar.

Kasbga yo'naltirish tizimi quyidagi komponentlarni o'z ichiga oladi:

- kasbiy ta'lim — o'quvchilarni mehnat, kasblar dunyosi, kasb tanlash muammolari bilan tanishtirish,
- kasbiy tashhis—o'quvchilarni kasb tanlashga tavsiyalar berish uchun o'rganish. Tashhis tibbiy, psixologik, pedagogik bo'lishi mumkin:
- kasbiy maslahat — kasb tanlash bo'yicha maslahat va tavsiyalar berish;
- kasbiy tanlov — biror bir kasbga nomzodlarni tanlash.
- kasbiy moslashuv — ishlab chiqarish sharoitlariga va kasb talablariga yoshlarni moslashish jarayoni.

O'quvchilarni kasblar dunyosi bilan tanishtirish suhbat, ekskursiya, uchrashuvlar, anjumanlar, konkurslar shaklida tashkil etiladi. O'quvchilarni kasblarga bo'lgan qiziqish va qobiliyatlarini rivojlantirishda to'garaklarni, klublarni faoliyatini, bolalar markazlarini o'rni beqiyosdir.

O'quvchilarni kasb tanlashga tayyorgarlik ko'rsatkichlari quyidagilardan iborat. Kasb va uning shaxsiga nisbatan talablari to'g'risidagi bilimlari, o'zining individual xususiyatlarini bilishi, tanlagan mutaxassislik bo'yicha o'quv va amaliy ishlar, umumiy mehnat ko'nikmalari ko'lamini. Shaxsning kamolotida mehnat tarbiyasining ahamiyati, mehnatsevarlikni tarbiyalashning tarixiy asarlarini yoritishda R.Mavlonova, K.Xoshimov, M.Ochil, A.Zunnunov, O.To'raeva, K.Xolikberdiyevlarning ilmiy-pedagogik qarashlari biz uchun katta ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari shaxsni mehnatsevarlik ruvida tarbiyalashda xalq pedagogikasi imkoniyatlaridan foydalanish masalalarini o'rganishimizda M.Inogamova, O.Musurmanova, K.Xoshimov, M.Xaydarovlarning ilmiy tadqiqot natijalari muhim o'rin egallaydi. Hunarmandchilik insonning ishlab chiqarish faoliyati bilan vujudga kelib, jamiyat rivojlanishi davomida asta-sekin dehqonchilik va chorvachilikdan ajralib chiqdi va turli ijtimoiy-tarixiy davrlar davrasida texnika rivoji bilan aloqador holda takomillasha bordi. Turli ixtisosliklar (kulolchilik, duradgorlik, temirchilik, misgarlik, binokorlik, tosh-tashchilik, o'yimakorlik, kashtado'zlik, ko'nehilik, tikuvchilik, to'quvchilik, zargarlik, degrezlik, rixtagarlik, zardo'zlik, bo'yoqchilik, kemasozlik, tunukasozlik va boshqalar)ga ajraldi. Yoshlarni hunarmandchilikka jalb etish, hunar orqali tadbirkorlik faoliyatiga tayyorlab borish, usta-shogird an'analarni yo'lga qo'yish, usta-shogird maktablarini tashkil etishda Buxoro viloyati hamda Farg'ona vodiysi o'z yo'nalishlanga ega. Har bir hunarning o'ziga xos nozik jihatlari, murakkabliklari mavjud.

16.6. O'quvchilarni estetik tarbiyasi

Estetik qadriyatlar, ideallar, ommaviy madaniyat kabi masalalar keng jamoatchilik, olimlar, mutaxassislar tomonidan muhokama qilinayotganligini guvohi bo'lmoqdamiz.

Jamiviat a'zolarining estetik madaniyati masalalari barcha davrlarda o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Demak, bugungi kunda ham yoshlarni estetik jihatdan tarbiyalash o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q.

Estetik tarbiya - shaxsni tabiat va jamiyatdagi go'zalliklarni ideal nuqtayi nazardan idrok etishga o'rgatadi. Estetik tarbiya - o'quvchilarda estetik bilim ko'nikma, malakalarini shakllantirishni hamda estetik his-tuyg'u, qiziqish, ehtiyoj.

baho berish kabi xislatlarni tarbiyalash masalalarini o'z ichiga oladi. Estetik tarbiya mohiyati asosan quyidagilardan iborat:

- tabiat va voqelikdagi go'zalliklarni idrok etish va zavqlanish;
- san'at asarlarini to'g'ri tushuna bilish va baholash;
- o'zining qobiliyat va iste'dodlarini namoyon etishga intilish;
- hamma narsada, va'ni tabiatda, munosabatda, mehnatda, go'zallik uchun kurashish;
- xunuklik va tartibsizlikka murosasiz bo'lish.

Shunday qilib, estetik tarbiya —bu san'at va hayotdagi go'zalliklarni tushunish va his eta olish qobiliyatlarini shakllantirish, san'at sohasidagi qobiliyatlarni rivojlantirish, estetik bilim va his-tuyg'umi shakllantirish jarayonidir. Estetik tarbiyaning maqsadi shaxsda estetik madaniyatni shakllantirish hisoblanadi. Estetik tarbiyani tashkil etishda quyidagi vazifalar hal qilinadi:

- o'quvchilarga ijtimoiy voqelik, tabiat va mehnat munosabatlari, turmush go'zalliklari, ularni anglash to'g'risidagi bilimlarni berish,
- o'quvchilarni badiiy-estetik madaniyatni boyitish,
- o'quvchilarda musiqa, badiiy ziyalikni, ijodiy tafakkurni rivojlantirish,
- o'quvchilarda ijtimoiy voqelik, tabiat va mehnat munosabatlari, turmush go'zalligini anglash, his qilish qobiliyatini tarbiyalash,
- o'quvchilarda mavjud go'zalliklarni qadrlash hissi, estetik didni shakllantirish, go'zallikka muhabbat uyg'otish,
- o'quvchilarda go'zallikni yaratish ehtiyojini qaror topirish, estetik qobiliyat va madaniyatni shakllantirish.

Estetik madaniyat elementlari quyidagi komponentlardan iborat:

- estetik qarash - estetik ongning g'oyaviy negizi, tabiat, hayot, san'at mohiyati haqidagi estetik fikr-mulohazalar va g'oyalar tizimi;
- estetik idrok - ijtimoiy voqelik, buyum, hodisalarning go'zalligini ongda yaxlit aks etishi bo'lib, u go'zallik his etilganda yuzaga keladi va aniq maqsadga vo'naltiriladi;

- estetik ong - shaxsga nazariy tushunchalar berish asosida predmet, buyum, voqelik va hodisalar mohiyatini estetik baholay olish imkonini yaratadigan his-tuyg'ular, sezgilar, tasavvur va qarashlar shakli;

- estetik ong - estetik his-tuyg'u, estetik idrok, estetik bilim, estetik mulohaza, estetik baho, estetik did, estetik ideal kabilardan tarkib topadi.

Estetik faoliyat ko'nikmalari deb estetik ehtiyojlarni qondirish yo'lida muayyan xatti-harakatni amalga oshirishga imkon beradigan ko'nikmalarga aytiladi.

Estetik madaniyat - go'zallikni his etish, undan zavqlanish, mavjud go'zalliklarni asrash va boyitish yo'lida o'zlashtirilgan bilim, amalga oshiriladigan estetik faoliyat sifat darajasini belgilovchi ko'rsatkich.

O'quvchilarni estetik madaniyatligini quyidagi mezonlarga ko'ra aniqlash mumkin:

- estetik bilimlarning tarkib topganligi,
- estetik madaniyatning tarbiyalanganligi;
- estetik va madaniy meros namunalaridan xabardor bo'lish,
- estetik tuyg'uning rivojlanganligi.

- ijtimoiy hayot, tabiat va mehnat go'zalliklarini his etish;
- go'zallikka intilish ehtiyojining rivojlanganligi,
- estetik idealning shakllanganligi,
- fikrlash, faoliyat, xatti-harakat va tashqi ko'rinishda go'zal bo'lishga intilish.

Estetik tarbiyaning asosiy vositalarini tabiat, mehnat, madaniy-maishiy turmush shart-sharoitlari, insoniy munosabatlar va madaniyat (shu jumladan, san'at) tashkil etadi. Estetik tarbiya umumta'lim maktablarida ta'lim jarayonida, ya'ni adabiyot, rasm, musiqa darslarida amalga oshiriladi.

Bundan tashqari, sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish orqali ham estetik tarbiya ishlari olib borildi. Bularga konkurslar, konsertlar, festivallar tashkil etish, muzeylarga ekskursiyalar uyushtirish, tabiatga, tarixiy va badiiy yodgorliklarga sayohatlar tashkil etish orqali amalga oshiriladi. Estetik tarbiyaning asosiy vositalari mehnat, o'yin, tabiat, san'at, muloqot kabilar hisoblanadi. Estetik tarbiya asosan tushuntirish, suhbat, ma'ruza, namuna, mashq, rag'batlantirish metodlari orqali amalga oshiriladi.

16.7. Yoshlarni jismoniy tarbiyasi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoevning 2018 yil 28 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida "jamiyatda sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, jismoniy tarbiya va sportni yanada ommalashtirish yana bir dolzarb vazifadir. Sportni jadal rivojlantirish, xalqaro musobaqalarda yuksak natijalarga erishgan sportchilarni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlashga bundan buyon ham katta ahamiyat beramiz. Yosh avlodimiz o'rtasida sportni ommalashtirish maqsadida eng chekka tumanlarda ham bolalar va o'smirlar sport maktablarini tashkil etilishi" ta'kidlab o'tilgan.

Jismoniy tarbiya —bu sog'lom turmush tarzini va gigiyenik ko'nikmalarni shakllantirishga, salomatlik va jismoniy kuchlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan, sog'lomlashtirish va bilish faoliyatlarini tashkil etish jarayoni. Jismoniy madaniyat—jamiyat qadriyati bo'lib, insonni garmonik rivojlanishi, tana va ruh to'g'risidagi bilimlar hamda salomatlikni saqlash bo'yicha faoliyat tizimi, ma'naviy va jismoniy rivojlanish kuchlari to'g'risidagi tasavvurlar yig'indisidir. Buyuk mutafakkir Abu Ali ibn Sino birinchilardan bo'lib, jismoniy tarbiyani bir butun tizimini (jismoniy mashqlar, to'g'ri ovqatlanish, uyqu, badanni toza tutish, kun tartibi) yaratgan edi. To'g'ri tashkil etilgan jismoniy tarbiya shaxsning me'yoriy, jismoniy taraqqiyotini ta'minlaydi, salomatligini mustahkamlaydi, yoshlarni mehnatga, turmushga tayyorlaydi. O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida yosh avlodni jismonan sog'lom bo'lishni ta'minlovchi uch bosqichli tizim ishlab chiqildi. Ya'ni:

1. Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilar o'rtasida «Umid nihollari» sport musobaqasi tashkil etiladi

2. O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'quvchilari o'rtasida «Barkamol avlod» sport musobaqasi tashkil etiladi.

3. Oliy o'quv yurtlarining talabalari o'rtasida «Universiada» sport musobaqasi tashkil etiladi.

Jismoniy tarbiya o'quvchilarda jismoniy-irodaviy sifatlarni shakllantirish, ularni aqliy jismoniy jihatdan mehnat va Vatan mudofaasiga tayyorlashga yo'naltirilgan jarayon sanaladi.

Jismoniy tarbiyani tashkil etishda o'quvchilarning o'z sog'liqlarini saqlash va mustahkamlash, organizmini chiniqtirish, jismoniy jihatdan to'g'ri rivojlanish, uning ishchanlik qobiliyatini oshirish to'g'risida g'amxo'rlik qilish tuzg'ularni tarbiyalash, ularda yangi harakat turlari borasida ko'nikma, malakalarni hosil qilish, ularni maxsus bilimlar bilan qurollantirish, o'quvchilarning yoshi, jinsiga muvofiq keladigan (kuch, tezkorlik, chaqqonlik, chidamlilik, sabot, mehnat, chidam, iroda, harakateri qaror toptirish kabi) jismoniy sifatlarni rivojlantirish, shaxsiy gigiyenani saqlashga nisbatan ongli munosabatlarni tarbiyalash maqsadi ko'zlanadi.

Jismoniy tarbiyani tashkil etish jarayonida quyidagi vazifalar hal qilinadi:

- o'quvchilar sog'lig'ini mustahkamlash, ularni jismonan rivojlantirish,
- o'quvchilarning aqliy va jismoniy ish qobiliyatlarini oshirish,
- o'quvchilarda tabiiy harakatchanlikni rivojlantirish va mustahkamlash;
- o'quvchilarni harakatning yangi turlarga o'rgatish;
- o'quvchilarda irodaviy sifatlarni (kuch, chaqqonlik, dadillik, chidamlilik, qat'iyatlik va b.)ni rivojlantirish;
- o'quvchilarda axloqiy sifatlarni (intizomlilik, mas'uliyatlik, jamoa bilan bo'lish kabilar)ni tarbiyalash;
- o'quvchilarda jismoniy tarbiya va sport bilan doimiy, muntazam shug'ullanish ehtiyojini shakllantirish;
- o'quvchining jismonan sog'lom bo'lishini ta'minlash, shaxsiy gigiyena qoidalariga amal qilishga odatlantirish, o'z sog'ligiga ongli munosabatni tarbiyalash.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida tashkil etiladigan jismoniy tarbiya uning chaqiriqqa qadar boshlang'ich tayyorgarlik bilan bog'liqligiga ko'ra o'ziga xos harakter kasb etadi.

O'quvchilarning jismoniy madaniyat (kamolot)ga erishganlik darajasini quyidagi mezonlar asosida belgilash mumkin:

- 1) jismoniy harakat ko'nikmalariga egalik;
- 2) jismoniy mehnat qilish qobiliyatining rivojlanganligi;
- 3) jismoniy kamolotning aks etishi;
- 4) o'quvchilar tomonidan jismonan rivojlangan idealning tanlanganligi va undan namuna olish yo'lida amaliy harakatlarning tashkil etilayotganligi.

Chaqqonlik, ephillik, chopqirlik, egiluvchanlik, kuchlilik, chidamlilik, sabrlilik, irodalilik, kuchli harakterga egalik kabi sifatlarni shaxsning jismonan kamolotga yetganligini ifodalaydi.

Jismoniy tarbiya vositalariga gimnastika, o'yin, turizm, sport, tabiat shu bilan birga tabiiy kuchlar (quyosh, havo, suv), bundan tashqari gigiyenik omillar (kun tartibi va dam olish, ovqatlanish) tashkil qiladi. Jismoniy tarbiya metodlariga jismoniy mashqlar, trenirovka, tushuntirish, namuna hamda musobaqa kiradi.

Jismoniy tarbiya metodlari vordamida o'quvchilarda jismonan to'g'ri rivojlanishlari uchun zarur bo'lgan bilim, ehtiyoj va shaxsiy sifatlar shakllanadi.

Jismoniy tarbiyani tashkil etishning asosiy shakli bu jismoniy tarbiya darslari hisoblanadi. Jismoniy tarbiya darslarida harakatli, xalq va sport o'yinlaridan keng foydalaniladi.

Jismoniy tarbiya o'quvchilarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish bilan uzviy bog'liq. Bolalar va o'smirlar orasida chekish, spirtli ichimliklarni iste'mol qilish, narkotik moddalarni qabul qilish kabi salbiy odatlarni shakllamshini oldini olishda jismoniy tarbiyaning ahamiyati katta.

Nazorat uchun savollar

1. Mehnat tarbiyachi va yoshlarni kasb tanlashga o'rgatish xususiyatlari?
2. Estetik tarbiya metodlarini izohlang?
3. Jismoniy tarbiya va yoshlarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish yo'llari?

IV BOB. TA'LIM MUASSASASI MENEJMENTI

17. BOSHQARUV NAZARIYASINING UMUMIY ASOSLARI

18.1. Boshqaruv nazariyasining asosiy tushunchalari va prinsiplari.

18.2. Pedagogik tizimini boshqarishning asosiy prinsiplari, metod va shakllari.

18.1. Boshqaruv nazariyasining asosiy tushunchalari va prinsiplari

Boshqaruv — bu tizimni shakllantirish va rivojlantirish maqsadida uni sifatini ta'minlash, tartibga solish uchun ta'sir etishdir.

Ilmiy boshqaruv nazariyasining paydo bo'lishiga va rivojlanishiga butun dunyoga mashhur ilmiy menejment amaliyotchi va nazariyachilari F. Teylor, G. Ford, G. Emerson, A. Fayol, E. Meyolar katta hissa qo'shganlar. Masalan, o'z davrida Anri Fayol boshqarish bu - holatni ko'rish, kelajakni o'rganish harakat dasturini tuzishdir deb ta'kidlagan edi. Boshqaruv nazariyasi vakillarning qarashlari tahlili natijasida boshqaruvga quyidagi ta'rifni berishimiz mumkin. Boshqaruv deganda - boshqaruvchi va boshqariluvchi tizim o'rtasidagi rejalashtirilgan, maqsadga yo'naltirilgan o'zaro ta'sirni tushunamiz.

XX asrning oxirgi o'n yiligidagi ijtimoiy va iqtisodiy hayotda insonni shaxsiy va kasbiy sifatlarni, umumiy va maxsus ilmiy bilimlarni roli oshdi. Bu holat ta'lim sohasida inson faoliyati turli yo'nalishlarda rivojlanishini talab etdi. Ta'lim paradigmasi o'zgarib, yangi ta'lim mazmuni, ta'lim va tarbiyani texnologiyalari ishlab chiqilmoqda. Axborot makonining kengayishi boshqaruvning yangi vositalarini, metodlarini, shakllarini rivojlanishini taqozo etdi. Ijtimoiy tizimlarni jumladan ta'lim tizimini boshqarishda inson omilining va ijtimoiy fanlarning roli oshib borayotganligini kuzatishimiz mumkin. Mamlakatimizda ta'lim tizimida bozor munosabatlarini qo'llanilishi maktabni boshqarish nazariyasining rivojlanishini asosiy omil hisoblanadi. Mutaxassislar «boshqaruv» va «menejment» tushunchalari orasida farq yo'q deb hisoblasalarda, menejment tushunchasidan foydalanishni afzal ko'radilar. Menejment - bu faoliyat turi, boshqaruv apparati, boshqaruv san'ati, o'quv predmeti ma'nolarida qo'llanilmoqda. Menejment o'quv predmeti sifatida 1881-yilda amerika kollejlarda Djozef Varton tomonidan o'qitila boshlangan. Bugungi kunda olimlar menejment ijtimoiy tashkilotlarni boshqarish nazariyasi va amaliyotini ifodalashini ta'kidlaymoqdalar. Dunyoda tan olingan amerikacha, fransuzcha va yaponcha menejment maktablari mavjud.

Amerikacha boshqaruvda — tashabbuskorlik, yuqori kasbiy tayyorgarlik, tashkilotchilik, ishchanlik.

Yaponcha boshqaruvda — har bir xodimga g'amxo'rlik, ishlab chiqarishning ijtimoiy xavfsizligi, shakllanish istagi, ichki go'zallik.

Fransuzcha boshqaruvda—boshqaruv tizimini shakllantirish uchuninsoniy madaniyat, yuqori darajadagi aloqadorlik madaniyati, milliy, tarixiy, madaniy an'ana elementlaridan foydalanish.

Menajmentning asosiy prinsiplarini quyidagilar tashkil etadi: maqsadga yo'naltirilganlik va uzluksizligi.

- ilmiylikni san'at elementlari bilan uyg'unligi.
- markazdan boshqaruvni o'z-o'zini boshqarish bilan uyg'unligi.
- xodimlarni individual xususiyatlarini hisobga olish,
- huquq va mas'uliyat birligini ta'minlash,
- doimiylik va ketma-ketlik,
- harakatlarni nazorat qilish va boshqarish,
- shaxslararo munosabatlarni qonuniyat sifatida hisobga olish.

Pedagogik menajment — bu: birinchidan; pedagogik tizim sifatini rivojlantirishga yo'naltirilgan boshqaruv prinsiplari, metodlari, shakllari va texnologik usullari yig'indisini, ikkinchidan, pedagogik jamoa va o'quvchilar faoliyatini ilmiy boshqarishni ifodalaydi.

Pedagogik menajment xususiyatlari ta'lim menejeri mehnatining natijasida, mehnat qurolida, mahsulotida, mehnat predmetida ifodalanadi.

Ta'lim jarayoni menejeri mehnati predmeti u boshqarayotgan odamlar faoliyatidir.

Mehnat xomashyosi bu - o'quv tarbiyaviy jarayon to'g'risidagi ma'lumot.

Mehnat quroli - so'z, nutq.

Ta'lim jarayoni menejeri mehnati natijasi menajment obyekti, ya'ni o'quvchilarni ta'lim olganlik, tarbiyalanganlik, rivojlanganlik darajasidir. Pedagogik menajment pedagogik tizimni rivojlanishining samaradorligini oshirishga yo'naltiriladi.

18.2. Pedagogik tizimni boshqarishning asosiy prinsiplari, metodlari va shakllari

Pedagogik tizimni boshqarish ta'lim muassasasining faoliyat xususiyatiga ko'ra pedagogik jarayonni rejalashtirish, tashkil etish, rag'batlantirish, natijalarni nazorat va tahlil qilish maqsadida amalga oshiriladigan boshqaruv faoliyatidir. Pedagogik tizimni boshqarishda davlat-jamoatchilik boshqaruviga erishish ta'lim muassasalarining dolzarb masalalarini davlat va jamoatchilik hamkorligida hal qilish, o'qituvchilar, o'quvchilar, ota-onalarga ta'lim dasturlarini, ularning turlarini, ta'lim muassasalarini tanlashda huquq va erkinlik berishni kengaytirish ahamiyatlidir.

Pedagogik tizimni boshqarishda quyidagi prinsiplarga asoslaniladi. Boshqaruv prinsiplari - bu boshqaruvda amal qilinadigan asosiy talab va qoidalardir. Prinsiplar boshqaruv qonuniyatlarini ifodalaydi.

Pedagogik tizimni boshqarishning asosiy prinsiplariga quyidagilar kiradi

- boshqaruvni demarazitatsiyalashtirish va insonparvarlashtirish,
- boshqarishni tuzimliliigi va yagonaliligi
- boshqarishda markaz va hudud uyg'unligi

- boshqaruvda yakka boshqaruv va jamoatchilik uyg'unligi;
- boshqaruvni ilmiy asoslanganligi;
- boshqarishda ma'lumotlarni to'liqligi va haqqoniyligi.

Quyida ushbu prinsiplar mohiyatini ko'rib chiqamiz. Boshqaruvni demaralizatsiyalashtirish va insonparvarlashtirish prinsipi. Pedagogik tizimni boshqarishni demokratlashtirish kadrlarni tanlov, shartnoma asosida ishga qabul qilish, qabul qilinayotgan qarorlarni ochiq muhokama etish, axborotlarning barcha uchun ochiq, tushunarli bo'lishiga erishish, ta'lim muassasasi jamoatchiligi oldida ma'muriyatning muntazam hisobot berishi, o'qituvchi va o'quvchilarga ta'lim muassasasi hayotiga oid o'z fikrlarini bildirishlariga imkon berish, ta'lim muassasasida demokratik g'oyalarning ustuvor o'rin tutishini anglatadi.

Ta'lim tizimini boshqarishda shaxsga alohida hurmat bilan munosabatda bo'lish, unga ishonish, pedagogik faoliyatda subyektning subyektga munosabati darajasiga erishish, o'quvchi va o'qituvchining huquq, manfaatlarini himoya qilish, o'qituvchilar va o'quvchilarning o'z iste'dodlari, kasbiy mahoratlarini erkin namoyon etish uchun sharoit yaratish esa pedagogik tizimni boshqarishning insonparvarlik tamoyiliga asoslanganligini bildiradi.

Boshqarishni tizimlilik va yagonaligi prinsipi. Rahbar ta'lim muassasasini boshqarishga nisbatan tizimli yondashuv asosida ta'lim muassasasini bir butun yaxlit tizim sifatida ko'ra oladi, uning belgilari haqida aniq tasavvurga ega bo'ladi. Tizimning birinchi belgisi uning yagonaligi hamda bo'laklar, tarkibiy qismlarga ajratish mumkinligi; ikkinchi belgisi tizim ichki tuzilishining mavjudligi; uchinchi belgisi tizimning integratsiyalanishi sanaladi (yagona tizimning har bir tarkibiy qismi o'ziga xos sifatga ega bo'lishi bilan birga o'zaro harakat orqali qaytadan integratsiyalanishi bilan yangi sifat hosil bo'ladi); to'rtinchi belgisi esa ta'lim muassasalarining tashqi muhit bilan chambarchas bog'liqligidir (ta'lim muassasalari tashqi muhitga moslashib, ta'lim jarayonini qayta quradi va belgilangan maqsadlarga erishish uchun tashqi muhitni o'ziga bo'ysundiradi). Boshqaruvdagi tizimlilik va yagonalik rahbar bilan pedagogik jamoa o'rtasidagi o'zaro harakat va aloqani ta'minlaydi, bir yoqlama boshqaruvning oldini oladi.

Boshqarishda markaz va hudud uyg'unligi prinsipi. Boshqaruvni markazlashtirish keragidan ortiq bo'lganda, albatta, ma'muriy boshqaruv kuchayadi. Bu holat o'qituvchilar va o'quvchilarning ehtiyojlari, talab-istaklarini hisobga olmaslikka, rahbar va o'qituvchilarning keraksiz mehnat, vaqt sarflashlariga olib keladi. Shuningdek, birga boshqarishni markazlashtirilmalik ham pedagogik tizim faoliyatini susaytiradi. Shu bois boshqarishni markazlashtirish va markazlashtirmaslik o'rtasida o'zaro uyg'unlikka erishish zarur. Ta'lim muassasasi ichidagi boshqaruvda markazlashtirish va markazlashtirmaslikni uyg'unlashtirish ma'muriy hamda jamoatchilik boshqaruv rahbarlarining faoliyatini jamoa manfaatiga qaratib, kasb malakasi darajasida qarorlarni qabul qilishga sharoit yaratadi.

Boshqaruvda yakka boshqaruv va jamoatchilik uyg'unligi prinsipi.

Tamoyilning afzalligi ta'lim muassasasini boshqarishda yakka hokimlikka yo'l qo'ymaslik bilan belgilanadi. Boshqarish faoliyatida o'quvchilarning tajribalari, bilimlariga tavanagan holda turli qarashlarni taqqoslash, oqilona xulosalar chiqarish muhim sanaladi. Vazifalarni jamoa yordamida hal qilish har bir a'zoning

javobgarligini yo'qqa chiqarmaydi. Shu bilan birga boshqaruvda yakkahokimlikning namoyon bo'lishi ham ma'lum afzalliklarga ega. Ya'ni yakkahokimlik pedagogik jarayonda tartib-intizom, vakolat doirasi va unga amal qilishni ta'minlaydi. Shu sababli qarorni qabul qilishda kollegial yondashuv ma'qul sanalsa, qarorning ijrosini ta'minlashda yakkahokimlikka bo'ysunish zarurdir. Ta'lim tizimini boshqarishning davlat-jamoatchilik harakteri bu tamoyilni amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitni yaratadi.

Boshqaruvning ilmiy asoslanganligi prinsipi. Ushbu prinsip boshqaruv tizimini boshqaruv fanining so'nggi yutuqlari asosida tashkil etishni ifodalaydi. Rahbar pedagogik tizim va jamiyat rivojlanishining obyektiv tendensiyalarini, qonuniyatlarini tushunishi va hisobga olishi zarur. Boshqaruvni ilmiy asoslanganligi prinsipiga amal qilish pedagogik tizimni boshqarish holati to'g'risidagi ma'lumotlarni to'liqligiga va ishonchililigiga bog'liq.

Boshqarishda ma'lumotlarni to'liqligi va haqqoniyligi prinsipi.

Ta'lim tizimini boshqarish samaradorligi axborotlarning qanchalik aniq va to'liqligiga ham bog'liq. Agar axborotlar aniq bo'lib, to'liq yig'ilgan-da, biroq ular haddan ziyod ko'p bo'lsa ham qaror qabul qilishda yanglishishga olib keladi. Ko'p holatlarda ta'lim muassasalarida o'quvchilarning o'zlashtirishlari to'g'risidagi ma'lumotlar yig'iladi. Biroq ularning qiziqishlari, xulq-atvorlari, shaxs sifatida shakllanayotganliklarga e'tibor berilmaydi. Xuddi shu sababli, tarbiya jarayonida o'quvchilar xulqida ko'plab og'ishlar kuzatiladi.

Pedagogik tizimni boshqarish aniq metodlar yordamida amalga oshiriladi. Boshqaruv metodlari - bu ko'zlangan maqsadga erishish yo'lidir. Ular quyidagicha tavsiflanadi:

Boshqaruv obyektiga ko'ra (Respublika miqyosida, hudud miqyosida),

Boshqaruv subyektiga ko'ra (administrativ, xo'jalik);

Maqsadiga ko'ra (strategik, taktik, operativ);

Ta'sir mexanizimiga ko'ra (ijtimoiy-siyosiy, tashkiliy-pedagogik);

Boshqaruv stiliga ko'ra (avtoritar, demokratik, liberal);

Boshqaruv vaqtiga ko'ra (istiqbolli, uzoq manzilli, joriy).

Boshqaruv shakllari turli tuzilish va yo'nalishlarda bo'lishi mumkin. Bularga: instruktiv-uslubiy va nazariy seminarlar, o'quvchilar jamoasi majlisi, pedagogik kengashlar, maktab konferensiyalari, pedagogik o'qishlar va b.

Nazorat uchun savollar

1. Pedagogik tizimni boshqarish deganda nimanı tushunasiz?
2. Pedagogik tizimni boshqarish prinsiplarını tavsiflang.
3. Pedagogik tizimni boshqarish metodlari mohiyatini tushuntiring.
4. O'qituvchi boshqaruvning subyektı va obyektı bo'lishi mumkinmi?

19. O'ZBEKISTONDA TA'LIM TIZIMI VA UNI BOSHQARUV ORGANLARI

19.1. O'zbekistonda ta'lim tizimi va uni boshqaruv organlari.

19.2. Ta'lim muassasalari, ularning turlari va tashkiliy tuzilmasi.

O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi qonunining 10- moddasiga muvofiq Respublika ta'lim tizimi davlat ta'lim standartlariga muvofiq ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim muassasalari; ta'lim tizimining faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan tadqiqot ishlarini bajaruvchi ilmiy-pedagogik muassasalar, ta'lim sohasidagi davlat boshqaruv organlari, shuningdek, ularga qarashli korxonalar, muassasalar va tashkilotlar kabi subyektlarni o'z ichiga oladi.

Ta'lim tizimini maqsadi insonni ta'lim olish huquqini ta'minlash. Ushbu tizim faoliyatining samaradorligi mezonini bu fuqarolarni ta'lim olganlik va tarbiyalaganlik darajasi hisoblanadi.

Ta'lim to'g'risidagi qonunga muvofiq:

Ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatlari quyidagi vakolatlariga egadilar

ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini ro'yobga chiqarish; ta'lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish va uslubiy masalalarda ularga rahbarlik qilish,

davlat ta'lim standartlari, mutaxassislarning bilim saviyasi va kasb tayyorgarligiga bo'lgan talablar bajarilishini ta'minlash;

o'qitishning ilg'or shakllari va yangi pedagogik texnologiyalarni, ta'limning texnik va axborot vositalarini o'quv jarayoniga joriy etish,

o'quv va o'quv-uslubiy adabiyotlarni yaratish va nashr etishni tashkil qilish; ta'lim oluvchilarning vakuniy davlat attestatsiyasi va davlat ta'lim muassasalarida eksternat to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash,

davlat oliy ta'lim muassasasining rektorini tayinlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritish;

pedagog xodimlarni tayyorlashni, ularning malakasini oshirishni va qayta tayyorlashni tashkil etish;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlariga egahik qilish

Maktabga bevosita rahbarlik boshqarishning yuqori organlar tomonidan tayinlanadigan direktor tomonidan amalga oshiriladi.

Ta'lim muassasasi direktorining vazifasi quyidagilardan iborat:

- davlat va jamoat tashkilotlari oldida ta'lim muassasasining manfaatlarini ifodalash;

- o'quv-tarbiya jarayonining muvaffaqiyatini ta'min etish;

- o'quv dasturlarining bajarilishini nazorat qilish, ta'lim-tarbiya ishlarining sifati va samaradorligi, bolalik va mehnatni muhofaza qilish talablarining noya qilmishi, ta'lim muassasasidan tashqarida ma'naviyat ishlarini tashkil qilmishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish; pedagogik va rahbar kadrlarni tanlab joy-joyiga qo'yish, ularning vazifalarini belgilash, pedagogik kadrlar, kabinet va

ustaxona mudirlarini belgilash, sinf va guruh rahbarlarini tanlash, pedagog va xizmat ko'rsatuvchi xodimlarni ishga qabul qilish hamda bo'shatish,

- ta'lim muassasasi pedagogik xodimlarni attestatsiyadan o'tkazuvchi komissiyaga rahbarlik qilish;

- ta'lim muassasasi pedagogik xodimlarining ijodiy ishlari, ta'lim-tarbiyaning ilg'or shakl va usullarini qo'llashlari uchun shart-sharoitlarni yaratish;

- ta'lim muassasasiga ajratilgan moliyaviy mablag'lar, sarf-harajat hisobini yuritish;

- ta'lim muassasasi me'voriy hujjatlarining to'g'ri yuritilishini ta'minlash;

- ta'lim muassasasi Pedagogik kengashi, mahalliy hokimlik organlari oldida o'z faoliyati to'g'risida hisob berib turish

Ta'lim muassasasi direktorining o'quv-tarbiya ishlari bo'yicha o'rinbosari tomonidan quyidagi vazifalar bajariladi:

- o'quv haftasi va o'quv mashg'ulotlarining davomiyligini ta'minlash;

- dars jadvalini tuzib chiqish, jadvalga binoan darslarning o'z vaqtida samarali o'tkazilishini ta'minlash;

- har bir chorak oxirida, semestr davomida direktor va ta'lim muassasasi Pedagogik kengashi a'zolariga o'quv jarayonining borishi xususidagi axborot va ma'lumotlarni berib borish,

- yosh mutaxassislarga amaliy va uslubiy yordam ko'rsatish;

- sinf va guruh jumallarini to'g'ri yuritish va saqlanishiga javob berish,

- o'quvchilarning bilim darajasini reja asosida tahlil qilib borish;

- o'quvchilar tomonidan davlat dasturlarining bajarilishini ta'minlash va nazorat qilish

Ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari quyidagi vazifalarni hal qiladi:

ta'lim muassasasida o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish, jamoat tashkilotlari, mahalla, ota-onalar bilan aloqani ta'minlash;

ta'lim muassasasi va undan yuqori miqyosda o'tkaziladigan darsdan tashqari tadbirlarni rejalashtirish hamda amalga oshirish;

ta'lim muassasasi o'quvchilarning sinf, guruh yoki ta'lim muassasasidan tashqari olib borayotgan mashg'ulotlarini kuzatib borish, ularga amaliy va metodik yordam uyushtirish;

ta'lim muassasasidagi «Yoshlar yetakchisi»ning ishini nazorat qilish va unga yo'l-yo'riq ko'rsatish.

19.3. Ta'lim muassasalari, ularning turlari va tashkiliy tuzilmasi

Ta'lim to'g'risidagi qonunga ko'ra: Ta'lim muassasasining Nizomi ta'lim muassasasi faoliyatiga rahbarlik va boshqarish tuzimini aniqlovchi hujjatdir.

Ta'lim muassasasining Nizomida muassasaning joylashgan o'rnini, turi, ta'lim tili, guruh rahbarlari, o'qituvchilarning huquq va burchlari, ta'lim oluvchilar, ota-onalarning huquq va burchlari, ta'lim muassasasining iqtisodiy tuzilishi, xo'jalik faoliyati, boshqarish tartibi kabi ma'lumotlar yoritiladi

Ta'lim muassasasining Ustavida ta'lim jarayonining quyidagi ikki muhim tarkibiy jihati ajratib ko'rsatiladi:

davlat ta'lim standartida belgilangan bilimlar zaxirasini egallash yo'lida amaliy harakatlarni tashkil etish tartibi;

ta'lim oluvchilarda bilim, ko'nikma, malakalarni hosil qilishni tashkil etish (savodxonlik, mustaqil fikrlash, masalalarni yecha olishga o'rgatish).

Shuningdek, ta'lim muassasasining Ustavida muassasani boshqarishga qo'yiladigan talablar, o'qituvchi, o'quvchilar, ta'lim muassasasi rahbarlarining huquq va burchlari ham alohida ajratilib ko'rsatiladi.

Ta'lim muassasasining Ustavi quyidagi tarkibiy tuzilmaga ega:

Ta'lim muassasasi haqidagi qisqacha ma'lumotlar.

Ta'lim muassasasining maqsad va vazifalari.

Ta'lim muassasasini boshqarish:

a) ta'lim muassasasini boshqarishning oshkoralik, demokratik va o'z-o'zini boshqarish asosida amalga oshirilishi;

b) pedagogik jamoa Kengashi,

d) direktorning huquq va burchlari;

e) direktorning o'quv-tarbiya ishlari bo'yicha o'rinbosarining huquq va burchlari;

f) ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarining huquq va burchlari.

O'quv-tarbiya va ilmiy-uslubiy ishlarni tashkil etish:

a) ta'lim mazmunining davlat ta'lim standartlari bo'yicha ishlab chiqilgan o'quv reja va dasturlari asosida belgilanishi.

b) o'quv jarayonini tashkil etish;

d) iqtidorli yoshlar bilan ishlash;

e) ishlab chiqarish amaliyotini o'tkazish tartibi;

f) qo'shimcha pulli mashg'ulotlarni joriy etish;

g) kunlik ish tartibi (seminar, mashg'ulotlarning davom etishi, tanaffuslar, uy vazifalarini berish tartibi va h.o.).

O'qituvchining huquq va burchlari.

O'quvchining huquq va burchlari.

O'quv-ishlab chiqarish ta'limi ustalari, ma'muriy hamda yordamchi xodimlarning huquq va burchlari.

Ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning huquqlari, majburiyatlari va mas'uliyatlari.

Ta'lim muassasasining moddiy va moliyaviy xo'jalik ta'minoti.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim:

maktabgacha ta'lim; umumiy o'rta ta'lim; o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim; kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta'lim kabilarni o'z ichiga oladi.

Maktabgacha ta'lim bolaning sog'lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta'minlash, unda o'qishga intilish hissini uyg'otish, uni muntazam ta'lim olishga tayyorlash maqsadini ko'zlaydi.

Maktabgacha ta'lim oilalarda, maktabgacha ta'lim muassasalarida va mulk shaklidan qat'i nazar boshqa ta'lim muassasalarida olib boriladi.

Umumiy o'rta ta'lim:

boshlang'ich ta'lim (I-IV sinflar);

umumiy ta'lim (V-IX sinflar) kabi bosqichlarda tashkil etiladi.

Boshlang'ich ta'lim 6-7 va 10-11 yoshli bolalarda umumiy o'rta ta'lim olish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim va ko'nikma asoslarini shakllantirish maqsadini amalga oshirishga yo'naltirilgan.

Umumiy o'rta ta'limning maqsadi o'quvchilarga fanlar asoslari bo'yicha muntazam bilim berish, ularda o'quv-ilmiy, umummadaniy bilimlarni, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlarini, mehnat ko'nikmalarini, ijodiy fikrlash qobiliyatini, atrof-muhitga bo'lgan ongli munosabatni shakllantirishdan iborat.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining maqsadi ishlab chiqarishning birinchi bo'g'inidagi tashkilotchi va ish boshqaruvchilarni, oliy toifali mutaxassislarining yordamchilarini, yuqori ko'nikma, malakalarni talab qiluvchi ma'lum bir turdagi ishni mustaqil bajara oladigan, o'z ishining ustalari bo'lgan - texnik, agronom, boshlang'ich sinf va jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari, feldsher, stomatolog, konsertmeyster kabi mutaxassislarni tayyorlashdan iborat.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining majburiy harakterga egaligi umumiy o'rta ta'lim maktablarining bitiruvchilari akademik litsey yoki kasb-hunar kollejlari ta'lim olishga majbur ekanliklarini anglatadi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining ixtiyoriy harakterga egaligi esa umumiy o'rta ta'lim maktablari bitiruvchilarining o'z xohishlariga binoan o'qish yo'nalishini - akademik litsey yoki kasb-hunar kollejlari ta'lim olishni ixtiyoriy tanlash huquqiga egaliklarini bildiradi.

Akademik litseylar o'quvchilarning imkoniyatlari, qiziqishlariga ko'ra ularning jadal intellektual rivojlanishi chuqur, sohashtirilgan, tabaqalashtirilgan, kasbga yo'naltirilgan ta'lim olishlarini ta'minlash maqsadida davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'rta maxsus ta'lim beradigan, yuridik maqomga ega ta'lim muassasasidir.

Oliy ta'lim tizimida turli yo'nalishlar bo'yicha yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash vazifasi hal qilinadi.

Oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlash oliy o'quv yurtlari (universitet, akademiya, institut va oliy maktabning boshqa ta'lim muassasalari)da amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim ikki bosqich (bakalavriat va magistratura)da tashkil etiladi.

Nazorat uchun savollar

1. Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari mohiyatini tushuntiring?
2. Ta'lim tizimini boshqaruv organlari faoliyatini izohlang.
3. Ta'lim turlari vazifalarini izohlang?

20. MAKTABNI ICHKI BOSHQARUVI ASOSLARI

20.1. Maktabni ichki boshqaruv tushunchasi va vazifalari.

20.2. Boshqaruv faoliyatining tashkiliy shakllari.

20.3. Maktab xodimlarini malakasini oshirish.

20.1. Maktabni ichki boshqaruv tushunchasi va vazifalari

Maktab har qanday ijtimoiy tashkilot sifatida ochiq turdagi murakkab tizim hisoblanadi. Alohida ta'lim muassasa sifatida maktab ta'lim tizimiga tegishli. Maktabni tashqi muhit bilan aloqasi ikki tomonlama bo'lib, ya'ni maktab ijtimoiy muhitni ta'sirini sezgan holda jamiyatni rivojlanishiga o'zi ham ta'sir qiladi.

Ijtimoiy tashkilot sifatida ta'lim muassasasi boshqarishning o'zaro aloqador ikki tomonini ifodalovchi tashqi va ichki turlari mavjud.

Maktabni tashqi boshqaruv ta'lim tizimini boshqaruv organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Ta'lim muassasasining ichki boshqaruv quvidagi vazifalarni hal qilishga yo'naltiriladi:

Ta'lim-tarbiya jarayonini pedagogik tahlil qilish.

Maqsad qo'yish va rejalashtirish.

Tashkil etish.

Maktab ichki boshqaruvini nazorat qilish.

Tartibga solish.

Pedagogik tahlilning quyidagi uch turi mavjud:

kundalik tahlil,

tizimli tahlil;

yakuniy tahlil.

Kundalik tahlil o'quv jarayonining borishi va natijasi haqida har kuni ma'lumot yig'ib, yo'l qo'yilgan kamchiliklarning sabablarini aniqlashga qaratiladi. Kundalik tahlil natijasida pedagogik jaravonga o'zgartirishlar, tuzatishlar kiritiladi. Bu turdagi tahlilning predmetiga o'quvchilarning har kungi o'zlashtirishlari, intizomlari darajasi, ta'lim muassasasi rahbarlarining darsga va sinfdan tashqari darslarga qatnashishlari, maktabning tozalik holati, dars jadvaliga rioya qilish kabi holatlar kiradi.

Tizimli tahlil darslar va sinfdan tashqari mashg'ulotlar tizimini o'rganishga qaratiladi. Tizimli tahlil mazmuni ta'lim metodlarini to'g'ri uyg'unlashtirish, o'quvchilar tomonidan bilimlarning puxta o'zlashtirilishiga erishish, o'qituvchilarning sifatli tarbiyaviy ishlarni olib borishlari, ularning pedagogik madaniyatlarini oshirish, ta'lim muassasasida innovatsion muhitni tashkil qilishda pedagogik jamoaning hissasini ta'minlash kabilardan iborat.

Yakuniy tahlil o'quv choragi, yarim yillik va o'quv yili yakunida amalga oshirilib, asosiy natijalarga erishish yo'llarini o'rganishga qaratiladi. Yakuniy tahlil uchun ma'lumotlar kundalik va tizimli tahlillar, joriy hamda oraliq nazorat yakunlari, fan o'qituvchilarining, sinf rahbarlarining hisobotlaridan olinadi. Ta'lim muassasasini boshqarishni rejalashtirishning quvidagi shakllari mavjud:

- muddatli (perspektiv) rejalashtirish;
- yillik rejalashtirish;
- yakuniy rejalashtirish.

Muddatli rejalashtirish qoidaga muvofiq so'nggi yillarda ta'lim muassasasida amalga oshirilgan ishlarni chuqur tahlil qilish asosida bir necha yilga mo'ljallab qabul qilinadi.

Muddatli rejada quyidagi masalalar aks etadi.

Rejalashtirilgan muddatda ta'lim muassasasi oldiga qo'yilgan vazifalar.

Guruhlarning imkoniyyatlaridan kelib chiqib, o'quvchilarning yillik o'zlashtirish darajasi muddatlari.

Ta'lim jarayoniga pedagogik innovatsiya (yangilik)larni olib kirish muddatlari

Ta'lim muassasasini pedagogik kadrlarga qo'yilgan talablar.

Pedagog kadrlar malakasini turli shakllar (kurslar, seminarlar, treninglar) orqali oshirish.

Ta'lim muassasasini tashkiliy-texnik va o'quv-metodik (qurilish ishlari, axborotlashtirish, ko'rgazmali qurollar, kutubxona fondini boyitish) ko'lamini rivojlantirish.

O'qituvchi va o'quvchilarni ijtimoiy himoya qilish

Yillik rejalashtirish butun o'quv yili hamda yozgi ta'tilni qamrab oladi. Yillik rejalashtirish o'quv yili davomida ta'lim jarayonini tashkil etilishi (chorak, semestr)ga qarab bir necha bosqichlarni o'z ichiga olgan holda amalga oshiriladi.

Yakuniy rejalashtirish bir yillik rejaning aniqlangan ko'rinishi bo'lib, u o'quv choraklari uchun tuziladi. Rejalashtirishning bunday aniqlangan ko'rinishi o'qituvchilar, o'quvchilar, ota-onalar qo'mitasi faoliyatini boshqarishga yordam beradi. Bunday rejalashtirish o'qituvchilar va sinf rahbarlarining ish rejalari bilan aloqadorlikda aniqlashtirilib boriladi.

20.2. Boshqaruv faoliyatining tashkiliy shakllari

Boshqaruv faoliyatining tashkiliy shakllariga Pedagogik kengash, metodik kengash, Vasiylik kengashi, direktor huzuridagi majlis, metodik seminarlar v.b. kiradi.

Pedagogik kengash - ta'lim muassasasining boshqaruv organi sanaladi.

Pedagogik kengash maqsadi o'quv-tarbiya jarayonini rivojlantirish, takomillashtirish, muassasa faoliyati bilan bog'liq barcha tashkiliy masalalarni muvofiqlashtirish, o'qituvchi va tarbiyachilarning kasbiy mahoratlarini, ijodkorlik darajalarini oshirish maqsadida pedagogik xodimlarni birlashtirishdan iborat.

Pedagogik kengash quyidagi vazifalarni hal qiladi:

- ta'lim muassasasi (umumiy o'rta ta'lim maktabi, akademik litsey, kasb-hunar kolleji) faoliyatiga oid muhim hujjatlarni muhokamadan o'tkazadi, tasdiqlaydi va ularda belgilangan vazifalarning bajarilishini nazorat qiladi.

- ta'lim muassasasining maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda uni rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlarini belgilaydi.

- ta'lim muassasasida o'quv, tarbiya jarayonini tashkil etish, ta'lim samaradorligini oshirishda maqbul shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan qarorlarni qabul qiladi;

- ta'lim muassasasi boshqaruv tizimini takomillashtirish bo'yicha yo'l-yo'riqlarni ishlab chiqadi;

- pedagogik jamoaning ma'lum yo'nalishlardagi faoliyatini tahlil qiladi va yakuniy xulosaga chiqaradi;

- ta'lim muassasasi pedagogik jamoasi uchun o'z vakolati doirasida me'yoriy talablarni ishlab chiqadi, tasdiqlaydi va ularning bajarilishini nazorat qiladi.

Pedagogik kengash quyidagi huquqlarga ega:

- ta'lim muassasasini rivojlantirish yo'nalishlarini istiqbol rejasini belgilash.

- ta'lim muassasasi jamoasi oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarning bajarilishini amalga oshirish;

- o'quv rejada maktab ixtiyoriga berilgan soatlarni taqsimlash, yillik va taqvimiy ish rejasini mazmuni hamda dars jadvalini muhokama qilish,

- o'quv jarayonini tashkil qilishning turli shakl va metodlarini muhokama qilish, amaliyotga tatbiq etish;

- ta'lim muassasasi ta'lim jarayoniga oid barcha masalalarni o'z vakolati doirasida muhokama etish va tegishli qaror qabul qilish;

- pedagoglar malakasini oshirish tizimi, ularning ijodiy tashabbuskorliklarini rivojlantirish bo'yicha o'z takliflarini berish;

- o'quvchilarning bilim darajasini aniqlashda oraliq nazorat bo'yicha qaror qabul qilishda qatnashish, uni o'tkazish shakli va vaqtini belgilash.

- ta'lim oluvchilarni sinfdan-sinfga (kursdan-kursga ko'chirish), bituvchilarni yakuniy attestatsiyaga qo'yish bo'yicha qaror qabul qilish,

- ta'lim jarayonini tashkil qilish, ta'lim muassasasini rivojlantirishga doir masalalar bo'yicha maktab rahbariyatining hisobotlarini tinglash;

- ta'lim maqsadiga muvofiq holda o'quvchilarni rag'batlantirish va jazolash bo'yicha masalalarni hal etish;

- chorak, yarim yillik «semestr», yil yakuniga doir xulosalar chiqarish;

- pedagogik kengash a'zolaridan pedagogik faoliyatni bir yil tamoyillarga asosan amalga oshirishni talab qilish;

- ta'lim-tarbiya jarayonida alohida xizmat ko'rsatgan ta'lim muassasasi xodimlarini rag'batlantirishga tavsiya qilish;

- yakuniy attestatsiyadan muvaffaqiyatli o'tgan o'quvchilarga o'rnatilgan tartibda hujjatlar berish to'g'risida qaror qabul qilish.

Pedagogik kengash faoliyati quyidagi hujjatlarda yoritiladi:

1. Ish rejasini.

2. Kengash bayonnomasi yoziladigan muhurlangan daftar

3. Kengash materiallari.

4. Hisobot.

Pedagogik kengash faoliyatiga ta'lim muassasasining direktori (oliy o'quv yurtlarida rektor) rahbarlik qiladi.

Metodik kengash ta'lim muassasasida ta'lim jarayonining sifatini

ta'minlash, o'qituvchilarning g'oyaviy-nazariy jihatdan tayyorgarligi, pedagogik va metodik mahoratlarini takomillashtirilib borilishiga nazariy-metodik jihatdan rahbarlik qiluvchi organ sanaladi.

Metodik kengash faoliyati «Umumiy o'rta ta'lim maktabi Metodik kengashi to'g'risida»gi Nizomda o'z aksini topadi.

Metodik kengash quyidagi vazifalarni hal qiladi:

ta'lim jarayonining metodik ta'minot holatini o'rganadi, ta'lim muassasasi metodik ishlarini tashkil etadi va muvofiqlashtirib boradi;

ta'lim muassasasida olib borilayotgan metodik ishlarining istiqbolini aniqlaydi;

yo'nalish va fanlar bo'yicha metodika birlashmalariga umumiy rahbarlik qiladi, ularning faoliyatlarini muvofiqlashtiradi;

ta'limga doir me'yoriy va metodik hujjatlarni o'rganadi, ularni o'quv jarayoniga tatbiq etish usullari yuzasidan tavsiyalar beradi;

ta'lim muassasasi o'quv-metodik ishlariga ekspert sifatida baho berishni amalga oshiradi;

o'qituvchilarning g'oyaviy-nazariy bilim darajasini oshiradi, ularni fan yutuqlari, pedagogik innovatsiyalar, ilmiy-ommabop adabiyotlar bilan muntazam tanishtirib boradi;

o'qituvchilarga ish rejalarining tuzilishi va bo'limlari mazmuni bo'yicha tavsiyalar beradi;

ta'lim jarayonida qo'llash uchun ilg'or pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqib, ularning amaliyotga joriy etilishini nazorat qilib boradi;

o'qituvchilarning pedagogik va metodik mahoratini oshirishga doir ishlarni amalga oshiradi;

davlat ta'lim standartlari talablari, o'quv rejasi va dasturlarining bajarilish holatini tahlil qiladi, tegishli tadbirlarni belgilaydi;

tashqi va ichki nazorat natijalariga davlat ta'lim standarti talablarining bajarilishida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish chora-tadbirlarini belgilaydi va ularning bajarilishini nazorat qiladi;

o'quv jarayoniga o'qitish metodikasining zamonaviy va samarali usullarini olib kirish, pedagogik kadrlarni metodik jihatdan bilimlarini oshirish maqsadida o'quv seminarlarini tashkil qilish;

ta'lim jarayonida milliy mafkura va yoshlarda siyosiy ongini shakllantirishga doir ko'rsatmalar berib borish;

o'quvchilar bilimini nazorat qilish va ularning mustaqil ishlarini tashkil qilishga doir ko'rsatmalar berish;

yo'nalish va fanlar bo'yicha metodika birlashmalari hisobotini eshitish, muhokama qilish, ularning faoliyatini takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar berish.

o'qituvchilarning samarali mehnatlarini inobatga olgan holda ma'naviy va moddiy rag'batlantirishga tavsiya qilish;

pedagogik xodimlarning attestatsiyadan o'tkazish bo'yicha materiallarni tayyorlash;

ta'lim muassasasi miqvosida fan oyliklari (haftaliklari), fanlar bo'yicha darsdan tashqari (fakultativ, to'garak) ishlari, fan olimpiadalarining 1-bosqichlari, ko'rik-tanlovlarning o'tkazilishi va ularning samarasini nazorat qilib borish.

Metodik kengash faoliyati quyidagi hujjatlarda yoritiladi:

1. Ish rejasi.
2. Kengash yig'ilishi bayonnomasi.
3. Kengash tomonidan tahlil qilingan materiallar.
4. Ekspert qilingan materiallar va ishlab chiqilgan metodik ishlar.

20.3. Maktab xodimlarini malakasini oshirish

Pedagogning uzluksiz kasbiy ta'limi ijobiy qobiliyatlarni rivojlantirishning asosiy sharti hisoblanadi.

Malaka oshirish xodimning murakkab mehnat vazifalarini bajarishga tayyorgarligiga yo'naltirilgan, qo'shimcha kasbiy ta'lim sifatida tushuniladi. U yangi umumnazariy va maxsus texnologik bilimlarni o'zlashtirishni, fan va texnologiya orasidagi bog'liqliklarni chuqur tushunishi, ko'nikma va malakalarni ortishini ifodalaydi. Malaka oshirish bir vaqtni o'zda kasbiy mehnatni shakllantirishga yo'naltirilgan ilg'or tajribalarni o'zlashtirish shaklidir. Pedagoglar malakasini oshirishning asosiy yo'nalishlaridan biri maktabda metodik ishlar tizimini tashkil etish hisoblanadi.

Maktabda uslubiy ishlar maqsadi:

- o'quvchilar ta'lim tarbiyasining samarali metod va usullarini o'zlashtirish;
- o'quv tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda pedagoglarni uslubiy va umumdidaktik tayyorgarlik darajasini ko'tarish;
- pedagogik jamoa a'zolarining ilg'or tajribalarini almashish, ilg'or pedagogik tajribani targ'ib qilish.

Maktabdagi uslubiy ishlarning vazifalari:

- maktab jamoasini pedagogik faoliyatida pedagogika fani yutuqlarini qo'llash, ilg'or pedagogik tajribalarni tizimli o'rganish, umumlashtirish va targ'ib qilish bo'yicha innovatsion yo'nalishlarini shakllantirish;
- o'qituvchilarni nazariy va pedagogik-psixologik tayyorgarligi darajasini ko'tarish;
- yangi o'quv rejalari, dasturlari, davlat ta'lim standartlarini o'rganish bo'yicha ishlarni tashkil etish;
- o'quv-tarbiyaviy jarayonni yangi pedagogik tenologiyalar, ta'lim-tarbiyaning yangi metod va shakllari bilan boyitish;
- yangi me'voriy hujjatlarni, uslubiy materiallarni o'rganish bo'yicha ishlarni tashkil etish;
- ta'lim muassasasi xodimlarini kasbiy-pedagogik madaniyati darajasini oshirish.

Metodik birlashmalari - o'qituvchilarga ta'lim jarayonini tashkil etishni yaxshilashda yordam ko'rsatish, pedagogik tajribalar to'plash va ularni ta'lim jarayoniga tatbiq etish, o'qituvchilarning pedagogik malakasi va nazariy

tayyorgarlik darajasini oshirish maqsadida ta'lim muassasalarida fanlar yoki bir-biriga yaqin bo'lgan fanlar turkumlari bo'yicha tashkil etilgan uyushmalar sanaladi.

Metodik birlashmalari faoliyati «Umumiy o'rta ta'lim maktabi fan metodik birlashmalari to'g'risida»gi Nizomda yoritiladi.

Metodika birlashmalari o'zida metodik kengashning vazifalarini aks ettiradi. Shu bilan birga metodika birlashmalari quyidagi vazifalarni ham bajaradi:

- fanlar bo'yicha taqvimiy mavzu rejalarni tasdiqlashga tavsiya etish;
- oraliq va yakuniy nazoratlar uchun o'qituvchilar tomonidan tayyorlangan sinov materiallarini tasdiqlash;
- ilg'or o'qituvchilarning ish tajribalarini o'rganishni tashkil qilish va ommalashtirish;
- tegishli yo'nalish yoki fan bo'yicha ta'lim muassasasida metodik ta'minotga bo'lgan ehtiyojni aniqlash;
- darslarni o'zaro kuzatishlarni tashkil qilish, natijalarni tahlil etish va mutaxassislariga amaliy yordam berish;
- ta'lim metodlarini o'rganish maqsadida ochiq darslarni tashkil etish, ilg'or pedagogik tajribalarga doir takliflarni o'rganish, umumlashtirish va ommalashtirish;
- yosh mutaxassislariga metodik yordam berish;
- ko'rgazma va ko'rsatmali vositalardan foydalanish bo'yicha metodik tavsiyalarni berish;
- fan xonalarning me'yoriy hujjatlar talablari asosida jihozlanishini tashkil etish.

Nazorat uchun savollar

1. Boshqaruvning asosiy bosqichlarini tavsiflang.
2. Maktab faoliyatini rejalashtirishning asosiy yo'nalishlarini tavsiflang.
3. Maktabdagi uslubiy ishlar xususiyatlarini ochib bering.

VBQB. KORREKSION PEDAGOGIKA

21. KORREKSION PEDAGOGIKA ASOSLARI

21.1. Korreksion pedagogika pedagogik fanlarning tarmog'i sifatida.

21.2. Korreksion pedagogikaning asosiy vazifalari, prinsiplari va metodlari.

21.3. Anomal bolalar va ularning umumiy tavsifi.

21.4. Aqliy rivojlanishi, eshitishi, ko'rishi, nutqida nuqsoni bor bolalar.

21.5. O'zbekiston Respublikasida anomal bolalarning ijtimoiy holati.

21.1. Korreksion pedagogika pedagogik fanlarning tarmog'i sifatida

Korreksion pedagogika fani bu jismoniy va ruhiy rivojlanishida nuqsoni bor bolalarning psixofiziologik rivojlanishidagi xususiyatlarini o'rganadigan, ularning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanadigan fan. Korreksion pedagogika so'zi lotin tilida korreksiya-tuzatish, degan ma'nolarni anglatadi. Jismoniy va ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bor bolalar anomal bolalar deyiladi (yunoncha odatdan tashqari, noraso degan ma'noni bildiruvchi anomal so'zidan olingan). Hozirgi kunda chet davlatlarda ushbu bolalar maxsus yordamga muhtoj bolalar deb ham yuritiladi. Korreksion pedagogika fanining mavzui bahsi anomal bolalardir. Korreksion pedagogika nisbatan yosh fan. Atoqli psixolog L.V.Zankov, L.S.Vigotskiylar 1935-yildan hamkorlikda ishlay boshladilar. Ular anomal bolalar bilan rivojlaniruvchi ta'limni olib borish kerakligini, korreksiya, kompensatsiya usullari va bulami amalga oshirish yo'llarini ko'rsatib berdilar. L.S.Vigotskiy «Korreksion pedagogikaning asosiy muammolari» kitobida anomal bolaga nafaqat «salbiy», balki «ijobiy» tomonlarini o'rganib, aniqlab shularga tayangan holda va potensial imkoniyatlarini inobatga olib turib, ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil etish zarurligiga diqqatni jalb etdi.

O'zbekistonda Korreksion pedagogika fanining rivojlanishi 1967-yildan boshlab tezlashdi. Chunki shu yili Nizomiy nomidagi TDPI ning Pedagogika va psixologiya fakultetida Oligofrenopedagogika bo'limi tashkil etildi. 1972-yilda oligofrenopedagogika kafedrasini o'z faoliyatini boshladi. 1983-yilda surdopedagogika bo'limi qo'shildi. 1984-yili esa mustaqil kunduzgi va sirtqi Korreksion pedagogika fakultetlarida oligofrenopedagog, surdopedagog, tiflopedagog, logoped mutaxassisliklari bo'yicha kadrlarni tayyorlash ishlari boshlab yuborildi. Hozirgi kunda oligofrenopedagogika va logopediya, Korreksion pedagogika fanining klinik asoslari va surdopedagogika kafedralari qo'shilib, Maxsus pedagogika va metodika kafedrasiga aylantirildi, o'z faoliyatini Pedagogika va Korreksion pedagogika fakultetida amalga oshirmoqda.

Korreksion pedagogika fanining rivojlanishi natijasida undan quyidagi tarmoqlar mustaqil fan sifatida ajralib chiqdi: surdopedagogika (lotincha, surdus-

kar gung soʻzidan olingan). eshitishda nuqsoni boʻlgan bolalarning taʼlim- tarbiyasi bilan shugʻullanadigan fan; tilpedagogika (yunoncha tiflos - koʻr, soʻqir soʻzidan olingan), koʻrishda nuqsoni boʻlgan bolalarning taʼlim-tarbiyasi bilan shugʻullanadigan fan; oligofrenopedagogika (yunoncha-oligos kam, fren-aql soʻzlaridan olingan) aqliy tomondan zaif bolalarning taʼlim-tarbiyasi bilan shugʻullanadigan fan; logopediya (yunoncha logos-soʻz, padeo-tarbiyalash soʻzlaridan olingan) - ogʻir nutqiy nuqsonlarni oʻrganish, oldini olish, bartaraf etish yoʻllari, usullarini oʻrganadigan fan.

21.2. Korreksion pedagogikaning asosiy vazifalari, prinsiplari va metodlari

Korreksion pedagogika fanining vazifasi - anomaliyalarning kelib chiqish sabablari, turlari, anomal bolalarning psixofiziologik rivojlanishidagi xususiyatlarini oʻrganish, ularning taʼlim-tarbiyasi bilan shugʻullanishdir. Korreksion pedagogika fanining maqsadi -differensial va integratsiyalashgan taʼlimni tashkil etish, anomal bolalar uchun differensial va integratsiyalashgan taʼlimni tashkil etish uchun zarur boʻlgan shart-sharoitlarni oʻrganish, ulardagi nuqson va kamchiliklarni bartaraf etish, kompensatsiyalash, iloji boricha korreksiyalash, tuzatish, koʻzga koʻrinmaydigan darajagacha kamaytirish yoʻllari, usullarini belgilash va amaliyotga tatbiq etish usullarini tarbiyachi va oʻqituvchilarga koʻrsatib berishdir. Anomaliyalarning harakteriga qarab, baʼzilari toʻliq bartaraf etiladi, baʼzilari korreksiyalanadi, yaʼni qisman tuzatiladi, boshqalari esa kompensatsiya etiladi, yaʼni almashtiriladi. Agar bola nutqida qoʻpol kamchilik boʻlsa, toʻgʻri tashkil etilgan logopedik choralarni oʻz vaqtida koʻrish yoʻli bilan ularni toʻliq bartaraf etish mumkin. Boladagi nuqson organik kamchiliklar natijasida paydo boʻlgan boʻlsa, (masalan, oligofreniya shunday nuqson jumlasiga kiradi). Uni toʻliq bartaraf etib boʻlmasa ham, biroq qisman tuzatish mumkin. Korreksion pedagogika amaliyotida yana shunday anomaliyalar uchraydiki, ularni tuzatib ham korreksiyalab ham boʻlmaydi. Masalan, tugʻma koʻrlik va tugʻma karlik shular jumlasidandir. Bunda koʻrish analizatorining vazifasi sezgi organlariga, eshitish analizatorining vazifasi esa koʻrish analizatoriga yuklash, yaʼni kompensatsiyalash oʻrnini bosish mumkin. Koʻrish qobiliyati zaif bolalar sezgi organlariga tayangan holda barmoqlari bilan brayl shriftidan foydalanadilar. Bunda harf olitua nuqta kombinatsiyasi bilan belgilanadi. Eshitish qobiliyati zaif bolalar esa, imo-ishora, yaʼni daktill nutqdan, barmoqlar harakati bilan anglatiladigan nutqdan foydalanishlari mumkin.

21.3. Anomal bolalar va ularning umumiy tavsifi

Ijtimoiy jamiyat taraqqiyoti tarixi anomal bolalarga boʻlgan insonparvarlik munosabatining uzoq vaqt davomida evolyutsion tarzda shakllanib kelganligini koʻrsatadi.

Qadimgi Spartada rivojlanishi va xulqida nuqsoni boʻlgan bolalar qatl qilingan. Qabilalarning boshliqlari bola tugʻilganda uni sinchiklab koʻrib, uning birorta nuqsonga ega yoki ega emasligini aniqlashardi. Nuqsonli bola Tayget jarligiga tashlab yuborilgan (er av. IV-V asrlar).

O'rta asrlarda Yevropada bola rivojlanishidagi har qanday nuqson yovuz kuchlarning «namoyon bo'lishi» sifatida qabul qilingan, ruhiy kasalliklarga ega kishilar inkvizitsiya gulxanida yondirilgan.

Insoniyatning evalutsion yashash jarayonida aqliy va jismoniy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan insonlarning bunday holatga tushib qolishi sabablarini, ularda yuzaga kelayotgan sog'lom insonlarga xos bo'lmagan alomatlarini paydo bo'lishini va uni oldini olish yoki davolash zaruriyati tug'ildiki, natijada nevrologiya fani yuzaga keldi.

Nevrologiya mustaqil klinik fan sifatida bundan 150 yil muqaddam rivojlana boshlandi. 1835-yilning iyul oyida Moskva dorilfununining tibbiyot kuliyoti qoshida asab tizimini o'rganish sohasi alohida fan bo'lib ajralib chiqdi. 1869-yil ushbu dorilfunun qoshida asab kasalliklari kafedrasini birinchi bo'lib A.YA.Kojernikov rahbarligida ochildi. Bu iste'dodli olim asab tizimi morfologiyasi, gistologiyasi, fiziologiyasi va anatomiyasini nihoyatda chuqur bilan va asab kasalliklariga bag'ishlangan bir qancha ilmiy ishlar yozgan. Bundan tashqari, uning taklifi bilan asab xastaligiga uchragan va ruhiy bemorlarni davolash uchun alohida klinik shifoxona ochildi. 1960-yillarga kelib O'zbekistonda fan arboblardan A.R.Rahimjonov, N.M.Majidov, X.K.Salohiddinov, professorlardan M.X.Samiboyev, F.T.Abduhakimov, Sh.Sh.Shomansurov asab kasalliklari bo'yicha bir qancha yangiliklarni kiritdilar. Bolalarning tug'ruq vaqtidagi bosh miya va orq miya jarohatlari, ularda kuzatiladigan asab xastaliklari, tutqanoq xurujlari va ruhiy o'zgarishlar ilmiy jihatdan aniq yoritib berildi. Xususan, bosh miyada sodir bo'ladigan patologik jarayonlarning kelib chiqish sabablarini (etiologiyasi), klinik ko'rinishlarini (patogenezi) davolash usullarini va asoratlarini ilmiy jihatdan asoslab berdi.

Patologik jarayon nerv tizimining qaysi qismida sodir bo'lganligiga qarab; bosh miya asab tizimi kasalliklari, orqa miya asab tizimi kasalliklari, periferik asab tizimi kasalliklari va vegetativ asab tizimi kasalliklariga bo'linadi. Kasallik tug'ma yoki hayot davomida sodir bo'lishi mumkin. Kasallikni keltirib chiqaruvchi tashqi va ichki omillar bo'ladi. Tashqi omillarga mikroorganizmlar (bakteriyalar, zambrug'lar, viruslar, koklar), mexanik ta'sirlar (lat yeyish, suyak sinishi, chiqishi, jarohatlar), fizik ta'sirlar (yuqori va past harorat), kimyoviy ta'sirlar (kislota, ishqor va zaharli moddalar), biologik ta'sirlar (vaksina va zardoblar) va allergik ta'sirlar kiradi. Ichki omillarga organizmning o'zida sodir bo'ladigan o'zganishlar (suv, tuz, elektrolitik miqdorning o'zgarishi, oqsillar, yog'lar, uglevodlar, aminokislotalar, vitamin, gormonal buzilishlar, qon tarkibining buzilishi, genetik va moddalar almashinuvi buzilishlari) kiradi. Bunday ta'sirlar natijasida ko'proq bolalarda ko'rinishida, eshitishida, nutqida va aqliy rivojlanishida nuqsonlar paydo bo'ladi. Bunday bolalarga nisbatan insonparvarlik yondashuvi zaruriyati tug'iladi.

Uyg'unish davridan XIX asrning o'rtalarigacha Yevropada defektologiya fani va amaliyoti aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarga ijobiy ijtimoiy munosabat shakllandi. Ularga nisbatan insonparvarlik yondashuvi ilk bor fransuz shifokori, ruhiy kasalliklar turlarining asoschisi Filipp Pinel (1745-1826-yillar) tomonidan ilgari surilgan. Aqli zaif bolalarni maxsus usullar yordamida o'qitish va

tarbiyalash g'oyasini logan Genrix Pestalossi (1746-1827 yillar) tomonidan asoslandi.

Ya'ni bunday bolalar maxsus maktablarda ta'lim dasturini soddalashtirgan holda ishm astasekinlik bilan, materialni tez-tez qaytarib, ko'rgazmali qurollardan foydalanish ijobiy natija berishligini asoslab bergan.

1918-yili Rossiyada birinchi maxsus ta'lim muassasasi (V.P.Kashenko uvi) tashkil etildi.

Aqliy rivojlanishi, eshitishi, ko'rishi, nutqida nuqsoni bor bolalar

Homilaning ilk rivojlanish davrida, tug'ilishida yoki chaqaloqlik davrida mexanik shikastlanish ko'p hollarda lokal (sezgi, harakat, nutq, eshitish) yoki diffuz (psixik faoliyatdagi buzilishlar) holdagi buzilishlarni keltirib chiqarishi mumkin. Surunkali somatik kasalliklardan aziyat chekuvchi bolalarda miya faoliyatining funksional dinamik buzilishlar jarayonida jismoniy rivojlanishidagi nuqsonlar kelib chiqadi. Ba'zida neyroinfeksiyalar ta'siridan, bosh miya shikastlaridan, oiladagi notinchliklar oqibatida yuzaga keladi. Asab tizimining surunkali quvvatsizlanib borishi natijasida ruhiy faollik susayib, bola tez charchaydigan, biron bir faoliyat bilan band bo'lganda, tinka madori qurib oxiriga yetkaza olmaydi. Dars davomida uxlab qolishlik, diqqatni bir joyga to'play olmaslik holatlari kuzatiladi. Nutqida, eshitishida nuqsoni bo'lgan astenik bolalar darsda o'qituvchi berayotgan ma'lumotlarni to'la eshita olmaydi, eshitgan taqdirda ham chala eshitib, o'tilgan mavzudan to'la to'kis qoniqish ololmaydi. Shu sababli, o'qituvchining bergan savoliga tavakkal javob beradi. Bolalarni maktabga qabul qilayotganda bunday nuqsonlarga ahamiyat berilmaydi, ota-onalar esa bu nuqsonlarni berkitishadi. O'qituvchidan doimiy tanbeh olish, sinfdoshlarning kalakasi, kamsitilishlar, qulog'i og'ir bolalarda maktabga nisbatan ishtiyogi yo'qolishiga olib keladi. Bunday bolalarga tibbiy pedagogik qarov zarur bo'ladi. Qulog'i og'ir ekanligini hisobga olib uni oldi partaga o'tqazish lozim, balandroq ovozdagi gapirish, sinfdoshlarga esa, qulog'i og'ir bolalar bilan qanday muomala qilish zarurligi to'g'risida tushuntirish pedagoglar zimmasiga yuklatilishi zarur. Astenik holatning buzilishi ko'p holatlarda maktabga nutqi buziq bolalarni qabul qilganda yuzaga keladi. Pedagoglar bunday bolalarni logopedga murojaat etishlari lozim.

Ulgurmovchi o'quvchilar orasida ruhan sus rivojlangan bolalar ham uchrab turadi. Ularning bilish faoliyati markaziy asab tizimidagi modda almashinuvi buzilishidan kelib chiqqan yengil patalogik o'zgarishlar vaqtinchalik buzilgan bo'ladi.

Ruhan sust rivojlangan bolalar aqliy darajasi jihatidan 2 guruhga bo'linadi:

Yengil nuqsoni bor bolalar bular maxsus sharoitda 1-3 yil ta'lim-tarbiya olganlardan so'ng o'qishni umumta'lim maktabining tegishli sinfidagi davom ettirishlari mumkin.

Ruhij jihatdan rivojlanishida sezilarli darajada orqada qolgan bolalar - bular o'rtta maktabni biturgunga qadar maxsus sharoitda o'qitilishi maqsadga muvofiqdir.

So'nggi yillarda olimlar ruhiy sust rivojlangan bolalarni klinik-psixologik jihatdan quyidagi xillarga bo'lishni tavsiya etadilar:

Konsitutsional.

Somatogen.

Psixogen.

Serebral shakli.

Konstitutsional xilmi harakterlovchi belgilarga quyidagilar kiradi: bolaning gavda tuzilishi sog'lom tengdoshlarinikiga nisbatan 1-2 yosh kichik ko'rinadi. 7 yashar bola o'zini 5 yashar bolaga o'xshab tutadi va ta'lim olish uchun hali «yetilmagan» bo'ladi. Bunday bola o'quv faoliyatiga yaxshi kirishib ketmaydi, unda o'qishga qiziqish yo'q, ish qobiliyati past.

Somatogen xilida surunkali infeksiyalar, allergik holat, tug'ma porok va shu kabi kasalliklar ayniqsa tez uchrab turganligi tufayli bolada asteniya holati kuzatiladi. Bola o'z kuchiga ishonmaydigan, tez charchaydigan, injiq, qo'rqoq bo'ladi, hech narsaga qiziqmaydi.

Psixogen xilida bola noqulay, noto'g'ri sharoitda tarbiyalanadi. Natijada u ham ulgurmovchi o'quvchilar qatoriga qo'shilib qoladi. Psixogen xilida bolalarning 50% da asab tizimida organik jarohatlanish kuzatiladi, shuning uchun u nisbatan turgun bo'ladi. Bu narsa bolaning bilish faoliyati, his-tuyg'ulari, irodaviy holatlarining rivojlanishiga olib keladi, organik infantilizm kuzatiladi. Bola yo ko'tarinki ruhda, o'zidan yosh bolalarga o'xshab yoki aksincha kayfiyati past bo'lib, mayus tortib yuradigan, ishini mustaqil hal qila olmaslik tashabbus ko'rsata olmaslik, qo'rqish holatlari kuzatiladi.

Ruhan sust rivojlangan bolalar maxsus yordamga muhtoj, ular maxsus muassasalarda yoki differensial ta'limga jalb etilishi kerak.

Turg'un eshitish nuqsonlari kelib chiqish sabablariga ko'ra tug'ma va orttirilgan bo'lishi mumkin.

Kar-soqov bolalarning 25-30 foizida eshitish nuqsonlari tug'ma bo'ladi. Bunga sabab: onaning homiladorlik davrida turli kasalliklar, masalan, gripp bilan kasallanishi, ota-onalarning ichkilik ichib turishi, onaning homiladorlik davrida bilar-bilmas dori-darmonlarni iste'mol qilishi (ayniqsa streptomitsin, xinin, singari dorilarni), homilaning shikastlanishi; irsiyat, genetik faktorlar (quloq tuzilishidagi patologik o'zgarishlar bo'lishi, masalan, eshitish yo'li atreziiyasi — bituvi).

Eshitishdagi orttirilgan nuqsonlar quloq yoki eshitish analizatorining tuzilishidagi kamchiliklardan kelib chiqishi mumkin. Bunga oliy nerv markazi, o'tkazuvchi yo'llar yoki quloqning o'zidagi o'zgarishlar sabab bo'ladi. Bolaning ilk yoshida otit, parotit (teпки), meningit, meningoensefalit, qizamiq, qizilcha, gripp kasalliklari bilan kasallanishi ba'zi hollarda kar-soqovlik yoki turli darajalardagi zaif eshitishga olib kelishi mumkin. Hozirgi kunda ekologiya masalalalarining keng o'rganilishi eshitish nuqsonlarining oldini olishda ham katta ahamiyatga ega. Eshitish analizatoriga turli zaharli kimyoviy dorilar juda kuchli ta'sir etib, ayniqsa analizatorning o'tkazuvchi asab tolalarini ishdan chiqaradi, natijada bola yaxshi eshita olmaydigan bo'lib qoladi.

Eshitish nuqsonlariga ega bo'lgan bolalar anomal bolalar kategoriyasiga kiradi, chunki bu nuqson bolaning umuman rivojlanib, kamol topib borishiga, dastur materiallarini o'zlashtirishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Eshitish nuqsonlari bor bolalar maxsus sharoitda, maxsus usullar bilan o'qitilishi va tarbiyalanishi kerak. Eshitish nuqsonlarning yengil darajalari ham bolaning har tomonlama rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi, bog'cha va maktab

dasturlarning o'zlashtirishda bir qator o'ziga xos qiyinchiliklar kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Kichik yoshdagi bolalarning eshitish qobiliyati nutqi rivojlangandan so'ng, masalan, ikki yoshida yo'qolganida ham karlik natijasida bola atrofdagilar nutqni eshitmaydi va hattoki bilganlarini ham asta-sekin unutadi, boladagi karlik bilan soqovlik qo'shilib u kar-soqov bo'lib qoladi. Bolaga o'z vaqtida maxsus yordam ko'rsatilmasa, unda aqli zaiflik belgilari ham paydo bo'ladi. Biroq nuqsonning o'rmini to'ldirib, boshqaruvchi jarayonlarni aktivlashtiruvchi maxsus, korreksion rostdaydigan sharoit boladagi nuqsonlarni bartaraf etib, ularning ham nutqiy rivojlanishini, ham umumiy, aqliy rivojlanishini ta'minlaydi.

Zaif eshituvchi bolalar uchun maxsus tashkil etilgan maktabgacha tarbiya muassasasi hamda maktab-internatda barcha zarur shart-sharoitlar mavjud. Maxsus muassasalardagi tarbiyachi va o'qituvchilar bunday bolalarning tegishli ta'lim-tarbiya olishlariga yordam berishlari kerak.

Yuqorida qayd etilganidek, surdopedagogikada eshitish qobiliyati zaif bolalarga kar-soqov, tug'ma hamda keyinchalik zaif eshituvchi bo'lib qolgan bolalar kiradi. Zaif eshituvchi bolalar o'z navbatida eshitish qobiliyatining nechog'lik buzilganiga qarab yengil, o'rta va og'ir darajali kamchiligi bor bolalarga bo'linadi. Yengil darajadagi zaif eshituvchi bolalar ovoz bilan gapirilgan nutqni 6-8 m masofadan ovoz chiqarmay, shivirlab gapirilgan gapni quloq suprasidan 3-6 m masofada eshitadi. O'rta darajadagi qulog'i og'ir bolalar ovoz chiqarib gapirilgan gapni 4-6 m, ovozsiz pichirlab gapirilganini 1-3 m masofadan eshitadi. Og'ir darajali qulog'i zaif eshitishda bola o'rta me'yor- da ovoz bilan gapirilgan gapni quloq suprasidan 2 m. shivirlashni 0,5 m masofadan eshitadi, xolos.

Qulog'i og'irlik natijasida bola nutqida bir qator kamchiliklar kuzatiladi: lug'atning kambag'al bo'lishi, grammatik komponent rivojlanmagan — gap ichida so'zlarni tashlab ketish, so'zlarni noto'g'ri ishlatish, ularni o'zaro bog'lay olmaslik, kelishik, so'z yasovchi, so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalarni ishlata olmaslik; tovushlarni noto'g'ri talaffuz qilish — o'xshash, jarangli-jarangsiz undoshlarni bir-biri bilan adashtirish, tushirib ketish va boshqalar shular jumlasidandir.

Bola nutqidagi kamchiliklarning kelib chiqish sabablarini bilmaslik orqasida ayrim tarbiyachi va o'qituvchilar bolani dangasa, mas'uliyatsiz, bezori deb, unga noto'g'ri munosabatda bo'lishadi, natijada bola injiq, yig'loqi, serjahl, gap o'tmas bo'lib qoladi, ya'ni unda ikkilamchi ruhiy o'zgarishlar paydo bo'ladi.

Yengil darajadagi zaif eshituvchi bolalar sog'lom tengdoshlari qatorida ommaviy maktabgacha tarbiya muassasalarida va maktabda ta'lim-tarbiya olishi mumkin. Biroq ularga alohida munosabatda bo'lish, ular uchun qulay shart-sharoitlar yaratish talab etiladi.

Uzlüksiz ta'lim tizimida O'zbekistonda eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktabgacha tarbiya muassasalari, maktab va kasb-hunar kollejlari maxsus guruhlar faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Ushbu toifadagi bolalar uchun tashkil etilgan maktab-internatlarda maktabgacha tarbiya bo'limi hamda umumta'lim maktab bo'limi mavjud. Ushbu muassasalarda ta'lim umum ta'lim 9 yillik ta'limning davlat talablari va dasturlari asosida amalga oshiriladi.

Eshitish qobiliyati zaiflashgan bolalar bilan ishlashda surdopedagoglar katta yutuqlarga erishmoqdalar. Ushbu toifadagi anomal bolalar maxsus kechki maktablarda ta'lim olganlaridan keyin oliy o'quv yurtlarini ham muvaffaqiyatli bitirib chiqmoqdalar, mamlakatimizning turli korxonalarida hamma bilan baravar mehnat qilmoqdalar. Demak, eshitish nuqsonlarini bartaraf etish, to'la kompensatsiyalash mumkin. Tarbiyachi va o'qituvchilarning asosiy vazifasi — sog'lom bolalarni zaif eshituvchi bolalardan ajratib, ularga alohida yondashish, zarur bo'lsa, ularning maxsus muassasalarda ta'lim-tarbiya olishini yoki integratsiyalashgan ta'limga jalb etilishini ta'minlashdan iborat.

Maxsus muassasalarda o'z fikrini og'zaki ifodalay olmasligini his etgan o'quvchi yozma shaklda bayon etishni bilishi kerak. Buning uchun o'quvchilarni o'z fikrini og'zaki, yozma bayon etishga o'rgatish amaliy nutqiy ko'nikma va malakalarni shakllantirish asosida amalga oshiriladi.

Kar va zaif eshituvchi o'quvchilarda so'zlashuv (og'zaki, yozma) nutqni shakllantirish yuzasidan dars va mashg'ulotlarda muayyan tizimdagi mashqlar asosida o'qituvchi va o'quvchi faoliyati tashkil etiladi, didaktik vositalarning barcha turlarini nutqiy jarayonga moslay olish talab etiladi. Nutqiy materiallarning amaliy egallanishi ta'minlash uchun maxsus sodir etilgan muammoli nutqqa (gapirish, yozib tushuntirishga) ehtiyojni tug'diruvchi vaziyatlar oldindan rejalashtiriladi. Bunda nutqiy materiallar fanlar bo'yicha o'quv dasturlarida, rejalashtirishlarda oldindan belgilangan bo'ladi, ya'ni korreksion-pedagogik jarayon muayyan tizim asosida amalga oshiriladi.

Har bir dars uchun nutqiy materiallar korreksion-kommunikativ tizim tamoyillariga qat'iy rioya qilgan holda (o'quvchilarning eshitish, talaffuz qilish imkoniyatlariga mos, talaffuzi yaqqol va eshitilish diapazoni yengil, oddiydan murakkabga, noo'xshashlikdan-o'xshashlikka boruvchi tartibda) tanlanadi va tayyorlanadi.

So'zlashuv nutqiga ehtiyojni tarbiyalash oiladan boshlanishi, ya'ni maktabda egallangan nutqiy ko'nikma va malakalar oilada tabiiy vaziyatlarda mustahkamlanishi va o'quvchilar amalda (erkin, qo'rqmasdan, uyalmasdan) qo'llashlariga erishish uchun keng sharoit yaratilmoqda. Ushbu sharoit oila a'zolari ishtirokida yaratiladi. Ularning kar bola bilan keng muloqoti va iliq munosabati bolaning keyingi bosqich ta'lim-tarbiyasiga va umuman taqdiriga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omillardan hisoblanadi.

Kar va zaif eshituvchi bolalarning nutqiy axborotni qabul qilish va uzatish imkoniyati eshitish (har qanday daraja darajada u ma'lum miqdorda bo'ladi) qoldig'idan optimal ravishda foydalanishga bog'liq bo'lganligi tufayli maxsus muassasalarda ta'limni ovoz kuchaytiruvchi apparatlar asosida olib borish talab etiladi. Sinflar maxsus jihozlanadi. Ya'ni maktab-internet moddiy-texnika negizining yo'nalishga mos shakllanishi ta'lim mazmunining samaradorligini oshiradi.

Kar va zaif eshituvchi bola o'z ona tilini shu til qonuniyatlari, xususiyatlaridan kelib chiqqan, mazkur bolaning ruhiy, nutqiy imkoniyatlariga moslashtirilgan, korreksion-kommunikativ tamoyillarga asoslangan va mahalliy sharoitlarni inobatga olgan maxsus yondashuv asosida egallaydi.

Maxsus maktab-internatlarda ta'lim-tarbiya jarayonini, xususan ona tili ta'limini amalga oshirishda o'quvchilarning fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki, yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalashga o'rgatishda daktil belgilardan tegishli bosqichlarda o'rinli foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Kar va zaif eshituvchi o'quvchilarda so'zlashuv (og'zaki, yozma) nutqni shakllantirishga ijtimoiy ehtiyoj sifatida yondoshish dolzarb masaladir. Buni amalga oshirish mazkur bolalarning jamiyatga moslashuvi, ularning borliqni anglashlari hamda ularni atrofdegilar qanchalik tushunib qabul qilishlari bilan belgilanadi.

Kar va zaif eshituvchi bola jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida siyosiy, iqtisodiy, madaniy va boshqa ijtimoiy munosabatlarning barchasida me'yorda rivojlangan, sog'lom tengqurlari qatorida o'z ona tilida bemalol, erkin, samarali va barcha uchun (nafaqat o'zi kabi taqdir-doshlari) tushunarli tarzda muloqot qila olishini ta'minlash mumkinligi amalda o'z isbotini topmoqda.

O'quvchilarning nutqiy axborotni qabul qilish va uzatish imkoniyatini rivojlantirish, o'z ona tilida sog'lom tengqurlari kabi so'zlashuv, fikr almashishni shakllantirishga yo'naltirilgan o'quv-korreksion jarayonni yagona tizim asosida amalga oshirish orqali takomillashtirilmoqda.

Kar va zaif eshituvchi bolalar maktablari o'quv rejasiga «Labdan o'qish» ko'nikmalarini shakllantirish va mustahkamlash mashg'ulotlari kiritilgan.

Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar maxsus maktab-internatlarning barchasi ovoz kuchaytiruvchi apparatlar bilan ta'minlangan, xonalari maxsus tovush qaytarmaydigan qoplamalar bilan jihozlanadi, sog'lomlashtirish bo'yicha tadbirlarni maqsadli amalga oshirish uchun sharoitlar yaratilgan.

Ko'rish bolaning hayotiy faoliyatida va rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Ko'rishdagi nuqsonlar bolaning ruhiy, jismoniy rivojlanishida ikkilamchi nuqsonlar kelib chiqishiga olib keladi. Tiplopedagogika fanida ko'rish nuqsoni darajasiga hamda o'quv materialni idrok qilishga ko'ra quyidagi guruhlar farqlanadi:

A. *Ko'ri va deyarli ko'ri (qisman ko'ruvchi) bolalar.* Ko'rish o'tkirligi 0 dan 0,004 gacha. Bu bolalar umuman ko'rmaydilar, ko'rish imkoniyati kam saqlangan. Mashg'ulotlarda ular asosan o'quv materialini sezish, eshitish idroki asosida o'zlashtiradilar. Brayl tizimi bo'yicha o'qiydi va yozadilar. Ba'zi bir bolalar saqlangan ko'rish imkoniyatidan o'qish va yozishda foydalanishlari mumkin.

B. *Zaif ko'ruvchi bolalar.* Zaif ko'ruvchi bolalarning ko'rish o'tkirligi tuzatish(korreksiya) ko'zoynaklari bilan 0,06 dan 0,09 gacha. Bu bolalarda odatda ko'rishda murakkab nuqsonlar kuzatiladi. Ko'rish o'tkirligi pastligi bilan bir qatorda ayrim bolalarda ko'rish maydoni toraygan, fazoviy idrok buzilgan bo'lishi ham mumkin. Bularning barchasi o'quv materialini idrok etish, o'zlashtirishga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu toifadagi bolalar maxsus sharoitda, maxsus usul, uskunalar, texnik va optik vositalar yordamida o'qitilishi maqsadga muvofiqdir.

D. *Zaif ko'ruvchi bolalar.* Ko'rish o'tkirligi tuzatish ko'zoynaklari bilan 0,1 dan 0,3-0,4 gacha. Ma'lum sharoitlarda ular ko'rish orqali erkin o'qib, yozishlari mumkin, buyumlarni ko'rib idrok etadilar, katta fazoviy doirada ko'rib mo'ljalladilar.

Ko'rish analizatori yordamida dunyoni idrok etish bolaning ruhiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Teverak-atrof haqidagi eng kuchli

taassurotlar ko'z bilan idrok etiladi. Bola ko'rish qobiliyati orqali narsalarning rangi, shakli, hajmi, harakati, uzoq-yaqinligi, fazodagi o'rnini haqida tasavvurga ega bo'ladi.

Ma'lumki, ko'rish analizatori nurlarni qabul qiluvchi qism - ko'z olmasi (soqqasi) va uning yordamchi apparatidan ko'zga tushgan tasvirni avval po'stloq osti markazlariga, keyin esa oliy ko'ruv markazlari joylashgan katta miya po'stlog'iga (ensa bo'laklariga) yetkazib beradigan o'tkazuvchi yo'llardan tashkil topgan. Ana shu analizatorning har qanday qismlaridagi o'zgarishlar bolaning ko'rish qobiliyatiga albatta ta'sir ko'rsatadi.

Tiflopedagogikada ko'zi ojiz bolalar ko'r (so'qir), yaxshi ko'ra olmaydigan, ko'zi xira, zaif ko'ruvchi bolalar guruhiga bo'linadi. Ko'r bolalarning ko'rish qobiliyati keskin kamaygan (total ko'rlik) yoki korreksiya qo'llanilganida (ko'zoyinak tutilganda) ham ko'rish o'tkirligi 0,04 gacha pasaygan, ya'ni bunday bolalar amalda ko'r bo'ladi. Zaif ko'ruvchi bolalarda ko'rish o'tkirligi 0,05 dan to 0,4 gacha bo'lishi mumkin. Ushbu guruhdagi bolalar tevarak-atrofini ko'rish analizatori orqali idrok etadi.

Ko'rishga aloqador nuqsonlar kelib chiqish sabablariga ko'ra, tug'ma va orttirilgan bo'ladi. Tug'ma nuqsonlar sabablari orasida irsiy kasalliklar (masalan, tug'ma kataraktaning ba'zi shakllari va boshqalar), homilador ayolning toksoplazmoz, qizilcha kasalliklari bilan og'rish, honula ko'rish organlarining embrional rivojlanish paytida zararlanishi, miya o'smasi va shu kabi kasalliklar katta rol o'ynaydi.

Orttirilgan ko'rish anomaliyalari hozirgi kunda nisbatan kam uchraydi. Aholiga davolash-profilaktika, oftalmologiya yordamining yaxshilangani tibbiyot sohasidagi katta yutuqlar qo'lga kiritilgani munosabati bilan zaif ko'ruvchi bolalar ancha kamaydi. Traxoma, chechak, so'zak, ko'z sili, skarlatina va boshqa kasalliklar oqibatida bolalarning ko'r yoki zaif ko'ruvchi bo'lib qolish hodisalariga deyarli tamomila barham berildi.

Ko'z ojizligi, ya'ni ko'rish nuqsonlari zo'rayib boradigan va bir xil turadigan (muqim) bo'ladi. Zo'rayib boradigan xili kun sayin og'irlashib, bora-bora ko'rlikka olib keladi. Muqim xili esa turg'un bo'ladi, bolaning ko'rish darajasi doim bir xilda turaveradi. Ko'rish qobiliyatining zo'rayib boradigan zaifligi, ko'ksuv, ya'ni glaukoma kasalligi (ko'z ichki bosimining ko'tarilib ketishi) ko'ruv nervi atrofiyasi, to'r parda (ko'zning yorug'likni qabul qiladigan qismi) distrofiyasi (aynishi) ga bog'liq bo'lib, bolaning har qanday rivojlanish davrida vujudga kelishi mumkin. Gijiyenik talablarga rioya qilmaslik refraksiya anomaliyalar bilan bog'liq bo'lgan ko'z kamchiliklari zo'rayib borishiga ham olib keladi (faqat yaqindan yoki uzoqdan ko'rishga).

Yosh go'daklarda ba'zan ko'zga oid tug'ma nuqsonlar ham uchraydi. kriptoftalm — ko'z olmasi, qovoqlarining tug'ilishdan rivojlanmay qolgan; mikroblefaron — ko'z qovoqlar kaltaligi tufayli ko'zning yumilmay turishi, koloboma — ko'z qovoqlarining nuqsoni va boshqalar shular jumlasidandir. Bunday kamchiliklarning ko'pchiligini jarrohlik yo'li bilan davolab, ularni bartaraf etsa bo'ladi.

Ko'zi ojiz, so'qir bolalar ko'r tug'ilgan va ko'r bo'lib qolgan bolalar deb ikki guruhga ajratiladi. Birinchi guruhga tug'ilishdan ko'zi ojiz va tug'ilganidan so'ng to

uch yoshgacha bo'lgan davr ichida ko'rish qobiliyati buzilgan bolalar kiritilsa, ikkinchisiga keyinchalik ko'zi ko'r bo'lib qolgan bolalar kiritiladi, bunday bolalar xotirasida ko'rish tasavvurlari qolgan bo'ladi. Ko'rish qobiliyatining og'ir shakldagi buzilishlari bolaning harakterida, psixikasida ikkilamchi asoratlar paydo bo'lishiga olib keladi.

Ko'rish nuqsonlarining eng ko'p tarqalgan shakllaridan biri - refraksiya anomaliyalaridir. Ularga yaqin ko'rish (miopiya)ning turli darajasi, gipermetropiya, uzoqni ko'rish yoki yaqin ko'rish astigmatizmi kiradi.

Refraksiya anomaliyalari, ya'ni nurlarni sindiruvchi fokus ko'z turi oldida bo'ladi. Yaqin ko'rishda (blizorukos) bola uzoqdagi buyumlarni noaniq ko'radi. Yaqin ko'rishda harita, jadvallar, sayr vaqtida uzoqdagi buyumlarni kuzatish, o'qish, yozish, mehnat darslarida bajariladigan ishlar, rasmlarni o'zlashtirishda qiyinchiliklar kuzatiladi. Yaqin ko'rish ko'zoynaklar yordamida to'g'rilanadi. Yaqin ko'ruvchi bollarga boshni uzoq egib turish, tez engashish, og'ir ko'tarish, tana silkinishlari, mayda obyektlar bilan uzoq ishlash taqiqlanadi. Uzlüksiz ish 15 daqiqa. Xira yorug'lik man etiladi.

Uzoqdan ko'rishda - ko'zdan yiroqda ko'radi, ko'zga yaqin buyumlarni idrok etishda qiynaladi. Bunday bolalar mayda obyektlarni ko'rib o'rganishga mo'ljallangan darslarda juda qiynaladilar va o'qish, yozish hamda tarqatma material bilan ishlashda qiyinchilikka uchraydilar. Uzoqdan ko'rish maxsus korreksiya ko'zoynaklari bilan to'g'rilanishi mumkin. Ularga jismoniy vazifalarni bajarish taqiqlanmaydi. Yaqin obyektlar bilan uzoq ishlash taqiqlanadi.

Ba'zi bolalarda ambliopiya kuzatiladi. Ushbu nuqson ko'rishdan foydalanmaslik natijasida rivojlanadi. Bunda ikki tomonlama g'ilyalik hamroh bo'lishi mumkin. Ambliopiyada ko'zning ko'rish va kuzatish qobiliyati buziladi. Bu esa o'qish va yozish, rasm chizish, rasmlarni kuzatish, ko'rish, geografik va tarixiy haritalarni o'rganishda qiyinchilik tug'diradi.

Nistagm-ko'zning beixtiyor, ritmik takrorlanuvchi harakatlari. Ko'zning ortiqcha harakatlari natijasida ko'rilayotgan tasvir yoyilib ko'rinadi.

Shakllariga katarakta, ko'rish nervi atrofiyasi, albinizm, mikro^alm va boshqalarni kiritish mumkin.

Ko'rish nuqsonlarining qay darajadaliği ko'zning sindiruvchi sohalarining holatiga bog'liq (shox parda, gavhar)

Katarakta - ko'z gavharining loyqalanishi (pomutnenie). Bunda gavharni jarrohlik yo'li bilan Nistagmda bola ko'rayotgan obyektga ko'rish diqqatini jamlashda qiynaladi. Bu qiyinchiliklar, ayniqsa harakatdagi dinamik idroknı qiyinlashtiradi.

Astigmatizm, ko'pincha uzoq va yaqindan ko'rishning buzilishi qo'shib keladi. Shox pardaning shakli buzilishi natijasida nurlar noto'g'ri sindiriladi.

Astigmatizmi bor bolalar setchatkasida vertikal, gorizontal va boshqa yo'nalishdagi qiyshiq idrok kuzatiladi va natijada noto'g'ri tasvir paydo bo'ladi.

Ko'rish nuqsonlarining yana boshqa olib tashlash va yangisini qo'yish mumkin.

Afaksiya-gavharning yo'qligi.

Shox pardaning vazifasi-nurlarni sindirish. Afaksiya kasalligida va gavhar siljib ketgan bolalar jismoniy vazifalardan cheklanishi, tez harakatlar, og'ir ko'tarish, tana silkinishlaridan himoya qilinishi zarur.

Shox parda (rogovitsa)ning tiniqligini buzilishi ham ko'rish nuqsoniga olib kelishi mumkin. Uning sindiruvchi faoliyati me'yordan past darajada bo'lganligi tufayli, bola buyumlarni aniq ko'ra olmaydi.

Zaif ko'ruvchi bolalarda ko'rish asab tolasining qisman atrofiyasi, ko'z to'rqobig'ining turli tug'un o'zgarishlari tez-tez uchrab turadi. Bunga turli miya kasalliklari: meningit, meningoensefalit va boshqalar sabab bo'lishi mumkin. Ko'rish atrofiyasi esa bosh miya jarohatlari, ko'z to'rpardasi kasalliklari, miya shishlari, ko'rish nevriti natijasida ham kuzatilishi mumkin. Bunda ko'z markaz bilan bog'lanmaydi. Ko'rish atrofiyasi davolanmaydi. Biroq undan kelib chiqadigan ikkilamchi nuqsonlarni oldini olish, davolash muhim. Ko'z atrofiyasi bor bolalar doimiy ravishda izchillik bilan davolanishi lozim. Ularni charchatib qo'ymaslik uchun mashg'ulotlarda uzluksiz ko'z bilan ishlash 5-10 daqiqadan oshmasligi lozim.

To'rpardaning eng ko'p tarqalgan tug'ma kasalliklarga pigmentli retinit, albinizm, to'rpardaning ko'chishi kiradi.

Pigmentli retinit to'rpardadagi tayoqchalar faoliyatini buzilishi. Natijada kolbachalar faoliyati ham buziladi. Bu esa ko'rish maydonining torayishiga yoki ko'rishning butunlay yo'qolishiga olib kelishi mumkin. Kasallik davolanmaydi.

Albinizm - to'rpardada pigment yetishmasligi. Natijada kishining ko'zi qizil, sochi va tanasi oq bo'lishi mumkin. Ularga yorug'lik to'suvchi ko'zoyinak taqish, quyosh nurlaridan saqlanish tavsiya etiladi.

To'rpardaning ko'chishi-to'rparda tashqi qobig'ining oqib tushishi. To'rparda tarang tortilib turgan yuqori miopiyali kishilarda to'rpardaning ko'chishiga moyillik bor. Ular og'ir ko'tarish, jismoniy mashqlardan saqlanishi lozim. Ular bilan uzluksiz ishlash 5 daqiqadan oshmasligi kerak.

Glaukoma - ko'z ichki bosimining ko'tarilishi.

Mikroftalm - ko'z olmasining kichrayishi.

Ko'zi ojiz bolalar bilan barcha ishlar ularning ko'rish tasavvurlarini tiklash asosida olib boriladi va bunda ma'lum natijalarga erishish mumkin bo'ladi. Har holda bola rang, shakl va boshqalarni bir qadar eslab qoladiki, bu tegishli tushunchalar hosil qilishni osonlashtiradi. Ko'z ojizligi qancha kech paydo bo'lgan bo'lsa, bolaning tevarak-atrof haqidagi tasavvurlari shuncha boy va ularni musahkamlash, takomillashtirish, kengaytirish shunchalik oson bo'ladi.

Ko'rish qobiliyati keskin kamaygan ko'zi ojiz bolalar maxsus tashkil etilgan maktablarda yoki sog'lom tengdoshlari orasida ta'lim olishlari kerak. Bu maktablarda sog'lom analizatorlarning aktiv faoliyati asosida (tuyg'u va eshitish, boshqa sezgi analizatori) ko'rish analizatori faoliyatini qoplash ishlari olib boriladi. Maxsus ta'lim-tarbiya ishlari ko'rish qobiliyatining zaifligi natijasida paydo bo'lgan ikkilamchi psixik asoratlarning oldini olish, ularni bartaraf etish, korreksiyalashga qaratiladi. Bolada musaqil hayot uchun zarur bo'lgan barcha bilim ko'nikma hamda malakalar shakllantirib boriladi.

Zaif ko'ruvchi bolalar tevarak-atrofnii ko'rish analizatori orqali idrok etadilar. Ular ham ko'rish qobiliyati zaif bolalar uchun tashkil etilgan maxsus maktabda yoki

ko'rlar maktabi qoshidagi maxsus sinflarda sog'lom tengdoshlari orasida ta'lim olishlari kerak. Biroq bunday bolalar aksari ommaviy maktablarda o'qishni boshlashi ma'lum. Bir necha yil muvaffaqiyatsiz ravishda, qiynalib o'qigach, ular maxsus maktabga yuboriladi. Bunday bolalarni tarbiyachi va o'qituvchilar sog'lom tengdoshlaridan ajralib olib, iloji boricha vaqtli maxsus maktablarga jo'natishlari yoki inkluziv ta'limni tashkil etishlari kerak. Ko'rish qobiliyati zaiflashgan bolalar satrlarni yaxshi ajrata olmaydilar, shakli o'xshash narsa, harflarni bir-biri bilan adashtirib yuboradilar, natijada o'qish va yozishda ko'p xatolarga yo'l qo'yadilar. Raqamlarni bir-biridan yaxshi ajrata olmaslik oqibatida hisoblashda va matematika masalalarini yechishda qiynaladilar. Ular doskaga yozilganlarni, jadval, sxema va boshqa tasvirlarni yaxshi ko'rmaydilar, ko'rish bilan bog'liq ishni bajarish vaqtida tez charchab qoladilar.

Noto'g'ri muhit, noqulay sharoit bolaning ko'rish qobiliyati keskin pasayib borishiga olib kelishi mumkin.

Tarbiyachi va o'qituvchilar ko'rish qobiliyati zaif bolalarni o'z vaqtida oftalmolog huzuriga maslahatga yuborishlari kerak.

Oftalmolog bolani tekshirib, kerak bo'lsa, unga korreksiya qiladigan ko'zoynak taqib yurishni tavsiya etadi va bola qayerda ta'lim olishi kerakligini aniqlaydi. Ko'zoynak taqib yurishi kerak bo'lgan bolalarga bog'cha va maktab sharoitida to'g'ri sanitariya-gigiyena sharoitlari yaratilishi zarur. Bolaning ish o'rni to'g'ri va yetarli darajada yoritilgan bo'lishi lozim. Bola doska, jadval, kartada chizilgan tasvirlar va boshqa o'quv materiallarini qanchalik aniq ko'rayotganiga e'tibor beriladi. Anomal refraksiyali bolalarning ko'zi tez charchab qolishini hisobga olib, dars vaqtida ularga ish turlarini mumkin qadar o'zgartirib turish, ko'z qadash bilan bog'liq bo'lgan ishlar, topshiriqlar hajmini g'oyat jiddiy nazorat qilib borish zarur.

Ko'z o'tkirligi 0,05 dan to 0,4 gacha bo'lgan zaif ko'ruvchi bolalar maxsus bog'cha va maktablarda ta'lim-tarbiya olishadi. Bu joylarda o'quv ishlari ko'rish asosida olib boriladi, ammo turli texnik va kattalashtruvchi optik vositalardan, yirikroq harflar bilan bosib chiqarilgan darsliklardan, maxsus yontgichlardan va hokazolardan foydalaniladi. Maxsus maktabning asosiy vazifalaridan biri — bolalarda saqlanib qolgan ko'rish imkoniyatlaridan o'qish jarayonida to'g'ri foydalanish va ularni rivojlantirish, ko'rish qobiliyati pasayib ketmasligi uchun shart-sharoit yaratish, oliy ruhiy jarayonlarni tarbiyalab, bolaning bilim faoliyatini rivojlantirish, kengaytirish, bolada ko'rish qobiliyati zaifligi natijasida paydo bo'lgan ikkilamchi ruhiy asoratlarni bartaraf etish va boshqalardir.

Maxsus maktablarni bitirgach, ko'rish qobiliyati zaif bolalar jumhuriyat ko'rlar jamiyati qoshidagi muassasalarda ishlaydilar, intellektual faoliyat bilan shug'ullanadilar (yozuvchi, shoir, oliy va o'rta maktab o'qituvchilari, muzikachi, va boshqalar bo'lib).

Nutq nuqsoni logopediya fanida muayyan tilning me'yoridan chetga chiqish deb ta'riflanadi. Nutq nuqsoni o'z-o'zidan barham topmaydi, balki vaqt o'tgan sari yanada mustahkamlanib, zo'ravib boradi. Nutq nuqsoni gapiruvchining yoshiga mos kelmaydi. Nutq nuqsoniga ega bo'lgan kishilar logopedik yordamga muhtoj bo'ladi.

Og'ir nutq nuqsoni kishining nafaqat nutqiga, balki umumiy rivojlanishiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Hozirgi kunda nutq nuqsonlarining turli klassifikatsiyalari mavjud. Nutq nuqsonlari asosan uchta katta guruhga ajratiladi: fonetiko-fonematik harakterli nuqsonlar, sistemali nutq buzilishlari va yozma nutq nuqsonlari. Fonetiko-fonematik harakterli nuqsonlarga tovushlar talaffuzidagi nuqsonlar, ovoz nuqsonlari, nutq sur'ati, tempi, ritmi va ravonligidagi kamchiliklar, nutqni idrok etishni buzilishi oqibatida sodir bo'lgan nuqsonlar kiritiladi.

Sistemali nutq buzilishlarida kishining butun nutq sistemasi shakllanmaganligi natijasida u gapirmaydi. Bunday nuqsonli kishilarda qulog'i yaxshi eshitadi, oligofreniya yo'q. Sistemali nutq buzilishida nutqning umumiy rivojlanmaganligi kuzatiladi.

Yozma nutq nuqsonlari o'qish va yozish malakalarini katta qiyinchiliklar bilan yoki umuman o'zlashtira olmaydigan kishilarda kuzatiladi. Logopediya fanida ushbu nutq sistemasida nuqsonlar quyidagi terminlar bilan yuritiladi: fonetiko-fonematik harakterli nuqsonda tovushlar talaffuzidagi nuqsonlar dislaliya, rinolaliya, dizartriya, anartriya, ovoz nuqsonlaridan afoniya, disfoniya, fanaseniya, rinofaniya, laringomirlashgan ovoz kiradi. Nutq sur'ati, tempi ritmi ravonligining buzilishiga - taxilaliya, bradilaliya, logonevroz, qoqilib gapirish kiradi. Nutqni idrok etish nuqsonlari zaif eshituvchi aqlan zaif, fonematik eshitishi buzilgan kishilarda kuzatiladi, natijada bolaning talaffuzi, ovozi, nutq sur'atida ma'lum o'zgarishlar bo'lishi mumkin. Sistemali nutq nuqsonlariga alaliya va afaziyaalar kirsra, yozma nutq nuqsonlariga agrafiya, aleksiya, disgrafiya, disleksiyalar kiradi.

21.4. O'zbekiston Respublikasida anomal bolalarning ijtimoiy holati

O'zbekiston Respublikasi ta'lim to'g'risidagi qonunning 23-moddasiga ko'ra rivojlanishda jismoniy yoki psixik kamchiliklarga ega bo'lgan anomal bolalar ta'lim olish huquqiga ega.

Bizning mamlakatimizda anomal bolalarga yordamni tashkil etish - inson haqida g'amxo'rlik ko'rsatilishining yorqin namunalaridan biridir.

O'zbekistonda anomal va nogiron bolalarga yordam uch vazirlik qoshidagi muassasalarda tashkil etilgan. Xalq ta'limi vazirligi qoshida ular uchun uzluksiz ta'lim tizimida maktabgacha tarbiya muassasalari, maktab, maktab-internatlari faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Maktabgacha tarbiya muassasalarda va maktabda alohida yordamga muhtoj bolalar integratsiyalashgan ta'limga jalb etilmoqdalar. Differensial ta'limni tashkil etish ishlari maxsus maktabgacha tarbiya muassasalarida, jumladan nutqiy, yordamchi, ruhiy rivojlanishi sust, harakat tayanch a'zolari jarohatlangan, zaif eshituvchi, zaif ko'ruvchi bolalar bog'chalarida amalga oshirilmoqda. Maktab yoshidagi alohida yordamga muhtoj bolalar uchun barcha turdagi maxsus maktab internatlari, jumladan aqli zaif bolalar uchun mehnat ta'limi maktab-internatlari, zaif eshituvchi bolalar uchun maktab-internat, harakat- tayanch a'zolarida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun, kar bolalar uchun, ko'zi ojiz bolalar, og'ir nutq nuqsonli bolalar uchun, ruhiy rivojlanishi sust bolalar uchun maktab internatlari; aqlan zaif bolalar uchun kuni uzaytirilgan maktablar faoliyat ko'rsatib

kelmoqda. Umumta'lim maktablarida bunday bolalar uchun sinflar ham tashkil etilgan. Boshlang'ich maktabda ruhiy rivojlanishi sust bolalar uchun tenglashtiruvchi sinflar, og'ir nutqiy nuqsonli bolalar uchun nutqiy, aqli zaif bolalar uchun yordamchi sinflar tashkil etilgan. Uzlüksiz ta'lim tizimida alohida yordamga muhtoj bolalar uchun mehnat maktablari, kasb-hunar kollejlarida alohida guruhlar faoliyat ko'rsatmoqda. Yengil darajadagi nutqiy nuqsonli bolalar uchun o'rta umumiy ta'lim maktablari qoshida logopedik punktlar ishlab turibdi.

Sog'liqni saqlash vazirligi qoshida anomal bolalarga tibbiy yordam ko'rsatadigan maxsus psixonevrologiya sanatoriylari, stasionarlar bor, poliklinikalarda surdologik, logopedik kabinetlarda mutaxassis-defektologlar tibbiy xodimlar bilan hamkorlikda tegishli ishlarni olib bormoqdalar. Aqliy jihatdan og'ir nuqsonlari bor (imbetsil, idiot) bolalar tug'ilganidan to to'rt yoshgacha sog'liqni saqlash vazirligi qoshidagi muassasalarda davolanadi va tarbiyalanadi.

Mehnat va aholini muhofaza qilish vazirligiga qarashli muruvvat uyida murakkab nuqsonli anomal bolalar tarbiyalanadilar. Bu uylarga maktabgacha yoshdagi bolalar (4 yoshdan to 7 yoshgacha), maktab yoshidagi bolalar (7 yoshdan 18 yoshgacha) va kattalar (18 yoshdan umrini oxirigacha) qabul qilinadi,

Uzlüksiz ta'lim tizimida hamma yosh guruhlardagi alohida yordamga muhtoj bolalar o'qishga jalb qilinadi. 4 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar maxsus maktabgacha tarbiya muassasalarida tarbiyalanadilar

Maktab yoshidagi alohida yordamga muhtoj bolalar, masalan zaif ko'ruvchular bolalar ko'zi ojiz bolalar maktabida 9 yillik umumiy ta'lim maktab dasturini 11 yilda o'zlashtiradilar. Har bir sinfda 12 tadan bola ta'lim oladi. Ko'rish qobiliyati zaiflashgan aqliy qoloq bolalar uchun maxsus maktab-internat qoshida yordamchi sinflar tashkil etilgan. Ushbu turdagi muassasada tibbiy oftalmologik hamda korreksion pedagogik kompensatsiya ishlari olib boriladi. Ko'rlar maktabida umumiy ta'lim maktablarining Brayl sisemasi bo'yicha nashr etilgan darsliklar ishlatiladi. Zaif ko'ruvchular bolalar maktablarida umumiy ta'lim maktablarining yirik harflar bilan nashr etilgan darsliklari asosida ish olib boriladi, maxsus chiziqli daftarlar ishlatiladi.

Ko'rlar bolalar uchun tashkil etilgan maktab internatda bolalar 11 yil ichida 9 yillik umumiy ta'lim maktab dasturini o'zlashtirib, so'ngra xohlovchilar o'qishini kechki maxsus maktabda davom ettirishlari mumkin. 11 sinf o'quvchilari davlat imtihonlarini topshirgach 9 yillik ma'lumot to'g'risida guvohnoma oladilar. Ushbu maktablarda xalq xo'jaligi uchun malakali ishchilar tayyorlash, kasbga yo'naltirish ishlari ham olib boriladi. Mehnat ta'lim darslarida 5-7 o'quvchi, umumiy ta'lim darslarida esa taxminan 12 bola qatnashishi kerak. Debil darajasidagi kar bolalar maxsus tashkil etilgan yordamchi sinflarda ta'lim oladilar. Bu sinflarda bolalar soni 7-8 kishidan ortmasligi kerak. Zaif eshituvchi bolalar uchun tashkil etilgan maktab internat ikki bo'limdan iborat bo'lib, amaliy nutqqa ega bo'lgan bolalar, ya'ni gapira oladigan bolalar birinchi bo'limda, juda qiyinchiliklar bilan noaniq gapiradigan bolalar ikkinchi bo'limda ta'lim-tarbiya oladilar. Birinchi bo'limda o'qish muddati 10 yil, ikkinchi bo'limda esa-11, 12 yil. Har bir sinfda 12 tadan bola o'qishi lozim. Aqlan zaif eshituvchi bolalar 7-8 kishidan iborat bo'lgan maxsus sinfda ta'lim oladilar.

Og'ir nutq nuqsonlari bor bolalar uchun xalq ta'limi qoshida maktabgacha yoshdagi bolalarga mo'ljallab, nutqiy bog'chalar yoki bolalar bog'chalari qoshida nutqiy guruhlar tashkil etilgan. Bu turdagi maktabgacha tarbiya muassasalarining asosiy vazifasi nutq kamchiliklarini iloji boricha barvaqt aniqlab bularni bartaraf etish va shu yo'l bilan og'ir nutq nuqsonlarining odini olish, ikkilamchi asoratni bartaraf etish va bolani me'yorda rivojlangan tengxo'rlari orasida maktabda o'qishga tayyorlash.

Maktab yoshidagi logoped, va'ni nutqida kamchiligi bo'lgan bolalar uchun ommaviy umumiy ta'lim maktablariida logopedik punktlar tashkil etilgan. Logopedik punktga tumandagi bir necha maktabdan taxminan 25 ta sinf birlashtiriladi. Logoped birlashtirilgan sinf o'quvchilarini tekshirib, logopedik yordamga muhtoj bolalarni saralab oladi, shuningdek, ularni poliklinika yo'llanmasi bilan yoki maktab o'qituvchilari, ota-onalar iltimosi asosida tekshirib qabul etadi. Nutq nuqsonlarining turiga qarab guruhli va individual mashg'ulotlar olib boriladi. Mashg'ulotlarga bolalar kunora, haftasiga 3 martadan, to nuqson to'liq bartaraf etilmaguncha qatnashadilar.

Og'ir turdagi nutqiy kamchiliklar tufayli maktab darslarini o'zlashtira olmaydigan o'quvchilar maxsus nutqiy sinf yoki maktablarda ta'limoladilar.

Bunday bolalar uchun tashkil etilgan maxsus maktab-internatlar ikki bo'limdan iborat bo'lib, birinchi bo'limda nutqning rivojlanishi keskin orqada qolgan lilik, afazik, dizartrik, rinolalik, aleksik, agratik, tutilib gapiruvchi logopat bolalar, ikkinchi bo'limda esa 9 yil o'qish muddatida nisbatan nutqiy rivojlanishi me'yorda, biroq tutilib gapiruvchi bolalar ta'limoladilar.

Ushbu maktab-internatga bolalar shifokor-mutaxassi diagnozi hamda tibbiy pedagogik maslahat komissiyaning yo'llanmasi bilan qabul qilinadi. Maxsus bog'chalarga qatnamagan, nutqi rivojlanmagan bolalar tayyorlov sinflariga qabul etiladilar.

Maxsus maktabda bolalarga umumta'lim 9 yillik maktab dasturi hajmidagi bilimlar beriladi. Har bir sinfda 12 kishi o'qiydi. Pedagogik kengash qarori bilan nutqiy kamchiliklari bartaraf etilgan o'quvchilar oddiy ommaviy maktabning tegishli sinflariga o'tkaziladi.

Xalq ta'limi vazirligi qoshida aqlan zaif bolalar uchun maxsus yordamchi maktabgacha tarbiya muassasi tashkil etilgan bo'lib, bu yerga bolalar 4 yoshdan qabul etiladi va 7 yoshga to'lganlarda maxsus yordamchi mehnat ta'limi maktablariga yuboriladi. Ushbu bog'chalarni tashkil etishdan maqsad, aqli zaif bolalar bilan ertaroq korreksion tarbiyaviy ishlarni boshlash va aqli zaiflik natijasida paydo bo'ladigan ikkilamchi psixik qo'shimmalarni oldini olish, bolalarni yordamchi maktab dasturini o'zlashtirishga tayyorlashdir. Bunday chora-tadbirlar alohida yordamga muhtoj bolalarni saralab, ommaviy maktablarda inklyuziv ta'limga jalb etishga ham yordam beradi.

O'quv kum uzaytirilgan yordamchi mehnat ta'limi maktablariida aqlan zaif bolalarga 9 yil ichida maxsus dastur va darsliklar asosida umumta'lim beriladi hamda kasb-hunarlar o'rgatilib, ularni mustaqil hayotga hamda maxsus mehnat maktabiga tayyorlash ishlari olib boriladi. Yordamchi maktablarda barcha ishlar korreksion yo'nalishda amalga oshiriladi. Ushbu turdagi maktabning o'quv rejasida

mehnat darslariga eng ko'p vaqt ajratilgan bo'lib, mehnatning so'xda turlari bo'yicha o'quvchilarga malaka beriladi. (duradgorlik, slesarlik, tikuvchilik, chorvadorchilik, kartonaj ishlari bo'yicha mutaxassis va h.k.)

Mehnat darslarida 8-10 bola, boshqa darslarda esa bir sinfda 12-16 boladan oshmasligi kerak. Maktabda barcha ishlar maxsus aqli zaif o'quvchilarning aqliy rivojlanish darajasini hisobga olgan holda tuzilgan dastur va darsliklar asosida olib boriladi. Mehnat ta'limi maktabida murakkab fanlar (fizika, kimyo, geometriya, trigonometriya, algebra va h.k.) o'quv rejaga kiritilmagan.

Harakat tayanch a'zolari jarohatlangan bolalar uchun ham maxsus maktab-internatlar tashkil etilgan. Bu turdagi maktablarda o'quvchilar II yil ichida o'rta maktab dasturini o'zlashtirib, ma'lum kasb egasi bo'lib chiqadilar. Ushbu maktablarda kompleks ta'sir etish prinsiplariga amal qilgan holda o'qituvchi, shifokor, davolovchi fizkultura metodisti, logoped, uqalovchilar va boshqalar hamkorlikda ishlaydilar. Individual yordamga muhtoj bo'lgan bolalar bilan qo'shimcha yakka tartibda mashg'ulotlar o'tkaziladi. Mehnat darslariga 7-8, sinflarda 16 o'quvchi ta'lim oladi. Harakat-tayanch organlari jarohatlangan bolalarning rivojlanishidagi xususiyatlarni, tez charchab qolishini inobatga olib, ushbu maktablarda 40 minutlik darslar 20 minutga bo'linib, orasida 5 daqiqa fizininutlarga vaqt ajratiladi. Aqlan zaif harakat tayanch a'zolari jarohatlangan bolalar uchun maktab qoshida yordamchi sinflar tashkil etilgan.

Nazorat uchun savollar

1. Korreksion pedagogikaning vazifalarni va asosiy kategoriyalarini izohlang?
2. Nuqsonli bolalar qanday turlarga bo'linadi?
3. Salomatligida nuqsoni bor bolalarni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlarini taqqoslang?

VI BOB. PEDAGOGIKA TARIXI

22. PEDAGOGIKA TARIXI FAN SIFATIDA. ENG QADIMGI DAVRLARDAN VII ASRLARGACHA TA'LIM-TARBIYA VA PEDAGOGIK FIKRLAR

23.1. Pedagogika tarixi fanining maqsad va vazifalari

23.2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyevning talim-tarbiy jarayinida milliy meros, pedagogic qadriyatlardan foydalanish to'g'risidagi qarashlari.

22.3. Pedagogika tarixida davrlashtirish muammosi.

22.4. Eng qadimgi davrdan VII asrgacha ta'lim - tarbiya va pedagogik fikr taraqqiyoti.

22.5. Eng qadimgi yozma manbalarda ta'lim - tarbiya g'oyalari yoritilishi.

22.1. Pedagogika tarixi fanining maqsad va vazifalari

Pedagogika va ta'lim - tarbiyaga oid fikrlar bir necha ming yillik tarixga ega. Ushbu yo'lda nazariy pedagogik qarash va g'oyalarning rivojlanishi natijasida pedagogika fani paydo bo'ldi. Ta'lim-tarbiya institutlarining rivojlanishi qarama-qarshiliklarga boy, ko'p qirrali jarayondir. Pedagogik bilimlar va ta'lim tarixini o'rganish bu- bo'lg'usi mutaxassisning pedagogik va umumiy madaniyatini shakllantirishning asosiy sharti hisoblanib, ta'lim-tarbiya nazariyasi va amaliyotining rivojlanish jarayoni to'g'risidagi bilimlarni beradi. Pedagogika tarixi o'quv predmeti sifatida pedagogik ta'limning ajralmas qismi hisoblanadi. Pedagogika tarixi ta'lim nazariyasi va amaliyotini, turli tarixiy davrlardagi o'qitish va tarbiyalash jarayonlarini rivojlanishini zamonaviylik kontekstida tarixiy rivojlanishini o'rganadi.

Pedagogika tarixi fanining asosiy vazifasi turli tarixiy davrlarda jamiyatning rivojlanishida ta'limning roli qanday bo'lganligini ko'rsatib berib, ushbu davrda vashab o'tgan faylasuf va pedagoglar nima uchun u yoki bu nazariyalarni yaratganliklarini asoslab berishdir.

Pedagogika tarixi pedagogika fanining qismi sifatida quyidagi funksiyalarni bajaradi: a) ta'lim nazariyasi va amaliyotida o'qitish va tarbiyalash muammolarining hosil bo'lishi va uning hal etilishi tarixini belgilash; b) pedagogik nazariyalarni ishonchlilik mezonini bo'lib, yangi pedagogik tizimlarni yaratishga yo'naltiradi; d) pedagogik qarash, g'oya va nazariyalarni boyitilishini va ta'limni rivojlanish yo'lini ko'rsatib beradi; e) ta'limni an'analarni hosil bo'lishi va o'zgarish jarayonlarini ochib beradi; f) turli tarixiy davrlardagi pedagogik tizimlarni, nazariyalarni, g'oyalarni, konsepsiyalarni o'zaro aloqadorligini ko'rsatadi.

Pedagogika tarixi fanining obyekti ma'lum bir tarixiy davr hisoblanadi. Pedagogika tarixi fanining predmeti turli tarixiy davrlardagi hamda sivilizatsiya sharoitlaridagi ta'lim amaliyoti va pedagogik nazariyalarni shakllanishi va rivojlanishi jarayoni hisoblanadi. Pedagogika tarixi pedagogikaning yo'nalishi sifatida quyidagi ilmiy-nazariy vazifalarni bajaradi: 1) tarbiya qonuniyatlarini umuminsoniy va ijtimoiy hodisa sifatida o'rganish; 2) o'tmish pedagoglari tomonidan ishlab chiqilgan insonparvarlikka yo'naltirilgan vositalarni asoslash; 3) pedagogika fanining rivojlanish yo'lini tahlil qilish va tarixiy davrlardagi ijobiy holatlarini umumlashtirish; 4) har bir ijtimoiy-tarixiy rivojlanish davridagi maktab va pedagogikaning haqqoniy ko'rinish holatini ko'rsatib berish. Pedagogika tarixi o'quv predmeti sifatida bilimlar tizimini shakllantirish maqsadida, birinchidan, jamiyat, maktab, pedagogikaning o'zaro aloqadorligi natijalari to'g'risidagi; ikkinchidan, maktab va pedagogik jarayonlar to'g'risidagi; uchunchidan, ta'lim va tarbiya sohasi insoniy madaniy qadriyatlarini mustahkamlash mexanizmlari to'g'risidagi; to'rtinchidan, maktab va pedagogika hamisha ijtimoiy va madaniy sivilizatsiyaning markaziy qismi bo'lganligi to'g'risidagi bilimlarni shakllantiradi. Shunday qilib, pedagogik g'oyalari va ta'lim tarixini o'rganish tarbiya to'g'risidagi zamonaviy fanni o'rganishga yordam beradi.

22.2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning talim-tarbiya jarayonida milliy meros, pedagogic qadriyatlardan foydalanish to'g'risidagi qarashlari

Bizga ma'lumki, turli tarixiy davrlarda taraqqiyotning taqdirini ma'naviy jihatdan yetuk odamlar hal qilib kelgan. Texnikaviy bilim, murakkab texnologiyani egallash qobiliyati ma'naviy barkamollik bilan, mustaqil tafakkur bilan birga borishi kerak. Aqliy zakovat va ruhiy-ma'naviy salohiyat - ma'rifatli insonning ikki qanotidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev o'zining barcha asarlarida madaniyat, ma'naviyat, ta'lim-tarbiya masalalariga katta e'tibor berganligini, uning quyidagi fikrlarida buni yaqqol ko'rish mumkin: Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga etishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz - yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo'ravonlik g'oyasi "virusi" tarqalishining oldini olishdir. Buning uchun yosh avlodni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, uning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish lozim, deb hisoblaymiz. Mamlakatimizda yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'g'il-qizlarning zamonaviy bilim olishi, yuksak ma'naviyatli bo'lib ulg'ayishi uchun zarur sharoit yaratish borasidagi ishlar izchil davom ettirilmoqda.

Shavkat Mirziyoev Toshkentda bo'lib o'tgan "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dunyoning sofligini asrash - davr talabi" mavzudagi anjumanda so'zlagan nutqida yosh avlod tarbiyasi haqida alohida to'xtalib o'tdi. "Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala - bu yoshlarimizning oqib-axloqiy yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon

shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodumiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan", deya ta'kidladi Prezidentimiz.

Yurtboshimiz o'z asarlarida yoshlar tarbiyasiga e'tiborni kuchaytirish, ayniqsa, ijtimoiy va ma'naviy sohada quyidagilarga e'tibor qaratish lozimligini ta'kidlab o'tganlar.

1. Insonparvarlik g'oyalari sodiqlik. Ma'naviy va axloqiy qadriyatlarini qayta tiklash.

2. Qadimgi va zamonaviy madaniy boyliklarni, adabiyot va san'atning rolini teran anglash hamda ularni boyitib borishga harakat qilish.

3. Milliy va madaniy boyliklarni bilish hamda rivojlantirish.

4. Hur fikrlik, vijdon va din erkinligi qoidalarini qaror toptirish.

5. Ijtimoiy adolat qoidalarini ro'yobga chiqarish.

6. Hamma uchun ma'qul tibbiy xizmat.

7. Umumiy ta'lim, kasbi va tegishli maxsus tayyorgarlikni o'tishni erkin tanlashda barchaga barobar huquq berish.

8. Ijodning barcha turlarini rivojlantirish.

9. Milliy istiqlol g'oyasi tushunchalari asosida milliy mafkurani shakllantirish hamda uning asosiy tamoyillarini o'quvchular ongiga singdirish.

Ana shu ma'naviy-axloqiy negizlarning har birini yoshlarimiz ongida shakllantirish, ular ongi va qalbida mafkuraviy immunitet hosil qilishning muhim omillaridan biridir. Ma'naviyat qotib qolgan aqidalar yig'indisi emas, aksincha, doimiy harakatdagi uzluksiz jarayon bo'lib, taraqqiyot davom etar ekan, uning shiddatli yunshi tufayli ma'naviy hayot oldiga qo'yiladigan talablar ham muttasil paydo bo'laveradi.

I. Sh.M.Mirziyoev asarlarining mohiyati shaxs tarbiyasi, kamoloti vositasida butun bir xalq, mamlakat taraqqiyotini ta'minlash maqsadini ifodalaydi. Shu bois har bir asarning o'zgacha mazmun va ma'no talqini barkamol avlodni tarbiyalash uchun ulkan poydevor hisoblanadi.

Ta'lim-tarbiya sohasida borayotgan ishlarning pirovard maqsadi ham Prezidentimiz so'zi bilan aytganda: «Mustaqil dunyoqarashga ega, ajdodlarimizning bebaho merosi va zamonaviy tafakkuriga tayanib yashaydigan barkamol shaxs - komil insonni tarbiyalashdan iboratdir». Demak, bugungi yosh avlod rivojlanib borayotgan hozirgi zamon ilmlari bilan birgalikda o'tmishda o'tgan buyuk ajdodlar hayoti va faoliyatini ham mukammal bilish kerak.

Pedagogika tarixi fanining metodologiyasi esa milliy va umumbashariy qadriyatlar, xalq pedagogikasi, Markaziy Osiyo va Sharq mutafakkirlarining ilmiy va ma'naviy merosi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim - tarbiyaga oid asarlari va milliy istiqlol g'oyasi haqidagi nazariyalar hisoblanadi.

Davrlashtirish aniq mamlakat, hudud yoki butun insoniyat uchun xarakterli bo'lgan ta'lim tizimini asosiy mazmun-mohiyatini aniqlaydi. Zamonaviy

pedagogika tarixi fanida ta'lim tizimini davrlashtirish muammosiga turlicha yondashuvlar mavjud. Ushbu muammoning murakkabligi shundaki, butun tarixiy jarayonlarni asosli bo'linishini yagona mezonlarini, asoslarini belgilanmaganidadir. Har qanday davrlashtirish shartli xususiyatga ega. U yoki bu davlatning ta'lim tizimini davrlashtirish masalalarni jamiyatning rivojlanishi bilan uzviy bog'liq. Pedagogika tarixida davrlashtirish muammosi metodologik karakter kasb etadi. XX asrning 50-yillarida ta'lim tarixini davrlashtirish bo'yicha mutaxassislar tomonidan davrlashtirishning mezonlari, tamoyillariga oid turlicha qarashlar ilgari surilganligini kuzatishimiz mumkin. Biroq ta'lim tizimini davrlashtirishda mutaxassislar tomonidan yagona yondoshuvga kelinmagan. Sobiq sho'ro tuzumi davrida pedagogika tarixini ijtimoiy tuzumlar bo'yicha davrlashtirish muhim ahamiyat kasb etgan bo'lsa, mustaqillik yillarida tanikli olimlar O.Hasanboyeva, J.Hasanboyev, X.Xomidovlar pedagogika tarixini davrlashtirishga quyidagicha yondashganlar.

1. Qadimgi davrdan VII asrgacha bo'lgan tarixiy davrda ta'lim-tarbiya va pedagogik g'oyalari taraqqiyoti davri.

2. VII-VIII asrlarda Movarounnahrda madaniyat va pedagogik fikrlar rivojlanishi davri.

3. Sharq uyg'onish bosqichida fan va madaniyat hamda ta'lim-tarbiyaning taraqqiyoti davri.

4. Madaniyat va ta'lim-tarbiyaning Temuriylar hukmronligi davridagi taraqqiyoti.

5. XIX asrning oxiri XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida ta'lim - tarbiyaning rivojlanishi davri.

6. Mustaqil O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimi, istiqbol va istiqbol yo'llari davri.

M.Salayeva o'z tadqiqotlarida pedagogika tarixini davrlashtirishda quyidagi yondashuvni taklif qilgan:

1. Eng qadimgi davrdan VII asrgacha bo'lgan davr.

2. VII-XIV asrgacha bo'lgan davr.

3. XIV-XVI asrlarda ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar taraqqiyoti davri.

4. XVII-XVIII asrlarda va XIX asrning 1-yarmida ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar taraqqiyoti davri.

5. XIX asrning 2-yarmi Markaziy Osiyoda ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar taraqqiyoti davri.

6. Sobiq sho'rolar hukumati davrida ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar taraqqiyoti davri.

22.4. Eng qadimgi davrdan VII asrgacha ta'lim-tarbiya va pedagogik fikr taraqqiyoti

Eng qadimgi davrdan VII asrgacha ta'lim-tarbiya va pedagogik fikr taraqqiyoti tahlili shuni ko'rsatadiki, miloddan avvalgi birinchi mingyillikda yurtimiz hududida Baqtriyva, Xorazm, So'g'diyona, Marg'iyona, Partiya hamda Parkana kabir davlatlarda turli qabila va elatlar yashaganlar. Ular saklar, massagetlar,

so'g'dlar, xorazmiylar, baqtirlar, choebliklar, parkanaliklar kabi qabila va urug'lardan iborat bo'lib, hozirgi Markaziy Osiyo hududida yashovchi xalqlarning ajdodlari hisoblanadilar.

Ushbu davrdan boshlab, bu hududlarda o'ziga xos madaniy an'analar tarkib topa borgan, masalan, eramizdan oldingi asrning birinchi yarmida qadimiy davlatlar: Baqtriya va So'g'diyona, Marg'iyona. Xorazm, Parkana, Parfiya kabi o'lkalarda xalq xo'jaligining turli sohalarida rivojlanish ro'y bergan. Biroq islomgacha bo'lgan tarixiy davrda ta'lim-tarbiya, fan va madaniyat tarixini yoritish unkon chegaralangan. Chunki, dastlab Iskandar boshchiligidagi yunon - makedon qo'shinlari, so'ngra Qutayba ibn Muslim rahbarligidagi arab istilochilari olib borgan talonchiliklar, vayronagarchiliklar tufayli o'sha davrga tegishli deyarli barcha asarlar, manbalar yo'q qilingan. Lekin islom va islomdan keyingi mavjud pedagogik qarashlarni, milliy ta'lim-tarbiyaga oid an'analarni, qadriyatlarini, xalq pedagogikasini ilmiy o'rganish, puxta tahlil qilish va hayotga tatbiq etish, bugungi kunning muhim va dolzarb muammosidir. Respublikamizda istiqolga erishganimizga qadar biz ta'lim-tarbiya ishlarimizga sobiq sho'ro matkurasini asos qilib oldik va o'rgandik. Endigi vazifa Sharq pedagogikasi bilan G'arb pedagogika-sining eng ilg'or an'analarni o'rganishga e'tiborni qaraushdan iboratdir. Chunki ilmu fan avval Sharqda taraqqiy etgan.

Buyuk nevis olimi Xerler: «Sharq ovruponing muallimidir» -deb ta'kidlagan. Yuqoridagi fikrlarning o'zi madaniyat, ma'rifat Sharqdan Yevropaga tarqalgan deyishga asos bo'la oladi. Chunki, savodxonlik maktablarning, qadimiy yozuvlarning vujudga kelishi eng qadimgi manbalarda «Avesto», So'g'd, Baqtriya, Urxun-Enisey, Xorazm va boshqa yozuvlar Turon zaminida yuzaga kelganligi, shu muqaddas zaminda yashayotgan xalqlarning eng qadimgi ajdodlari savodxon kishilar ekanligidan dalolat beradi. Haqiqatan ham shunday, o'zbek xalqining madaniy merosi ulkan bir dengiz. O'tmishimizda unutilgan shunday ulkan sar-chashmalar borki, ularni puxta, atroflicha o'rganmoq birinchi galdagi vazifamizdir.

Eng qadimgi kishilarga xos bo'lgan xislatlar, ularning dastlabki, oddiy istaklari, orzu-umidlari qadimgi epos va miflarda aks etgan afsonaviy obrazlar handa qahramonlar qiyofasida o'z ifodasini topgan. Afsona va rivoyatlarda eng qadimgi ajdodlarimizning tafakkur dunyosi aks etgan. Taniqli o'zbek pedagogika tarixi sohasining yetuk mutaxassisi Komiljon Hoshimov eng qadimgi madaniy boyliklarimizni o'rganishida quvida uch guruh manbalarga tayangan holda o'rganishni tavsiya etadi:

1. Arxeologik qazilmalar natijasida topilgan ko'rgazmali ashyolar.
2. Xalq og'zaki ijodi materiallari hamda yozma manbalar.
3. Buyuk adiblar, allomalarning ijodiy merosi.

Ma'lumki, ibtidoiy kishilar mehnat faoliyati jarayonida o'z ehtiyojlarini qondirgan va bu jarayon yosh avlodda ham mehnat qilish, amaliy faoliyatni yo'lga qo'ya olish borasidagi nazariy bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilishga asos bo'lgan. Mehnat faoliyatini tashkil etish jarayoni dastlabki paytlarda butun ijtimoiy hayotni yo'lga qo'yish negizida amalga oshirilgan bo'lsa, keyinchalik tarbiya inson faoliyati asosiy jihati, ijtimoiy ongni shakllantirishning muhim omiliga aylandi.

Ibtidoiy jamiyatda tarbiya umumiy harakter kasb etsada, bola o'zi uddalay oladigan faoliyatning tashkil etilishida bevosita ishtirok etib, hayot kechirish va mehnat qilish ko'nikmalarini o'zlashtirgan. Bu davrda o'g'il bolalar erkaklar bilan ov qilish, ov qurol yasash kabi yumushlarni bajarsalar, qizlar ayollar tomonidan bajariladigan mehnat sirlarini o'zlashtirar edilar. Hech qayerda yozilmagan odat va an'analarga ko'ra, yosh bolalar keksalar nazorati ostida ma'lum tajribalarga ega bo'lardilar. Bola ma'lum tayyorgarliklardan so'ng maxsus sinovlardan o'tib, amaliy faoliyatda faol ishtirok eta olish huquqini qo'lga kiritar edi.

Urug'chilik jamoasi davrida bolalar mehnatining ko'lami kengayib, kasb-hunar faoliyatining turlari ko'payib boradi. Tajribali kishilar bolalarni tarbiyalash bilan birga ularni yozishga ham o'rgata boshlaydilar. Asta-sekin harbiy tarbiyaning boshlang'ich ko'rinishlari yuzaga kela boshlaydi. Bolalarga harbiy san'at sirlarini o'rgatish ancha murakkab ish bo'lib, ushbu tarbiyani tashkil etish maxsus bilim hamda tayyorgarlikka ega bo'lishni taqozo etar edi

Jamiyatning ijtimoiy jihatdan taraqqiy eta borishi bolalarga yer o'lash, suv toshqinlarining va turli kasalliklarning oldini olishga oid bilimlarni o'rgatishga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirdi. Bu boradagi harakatning tashkil etilishi natijasida turli maktablar faoliyat yurita boshladi. Maktablarda asosiy e'tibor bolalarga og'zaki bilim berish bilan birga ularni yozuv ko'nikmalarining shakllantirilishiga qaratildi.

22.5. Eng qadimgi yozma manbalarda ta'lim-tarbiya g'oyalarning yoritilishi

Ma'lumki, kishilik jamiyati vujudga kelish jarayonida inson ham biologik jihatdan, ham inson sifatida takomillashib borgan. Dastlabki diniy e'tiqodlar, oddiy ixtirolarning takomillashib borishi, inson ongining shakllanib borishiga turtki bo'ldi. Bu jarayon ming-ming yillar mobaynida davom etib inson ongi shakllanishining asosi bo'lgan xulq - odob qoidalari tarkib topishiga asos bo'ldi. Eng qadimgi kishilarning dastlabki oddiy istaklari, orzu-umidlari, xislatlari qadimgi eposlarda, ulardagi afsonaviy obrazlar qiyofasida o'z ifodasini topgan. Ruhga sig'inish: ongimiz, ajdodlar ruhiga sig'inish totemizm, sehrgarlik kabi diniy e'tiqodlar va marosimlar aks etgan afsonalar. Rivoyatlarda qadimgi ajdodlari- mizning tafakkur dunyosi aks etgan. Bu rivoyatlar, afsonalar massagetlar, saklar, xorazmiylar, so'g'dlar, parfiyaliklar yashagan davrlarga borib taqaladi.

Mutaxassislarining ta'kidlashicha eng qadimgi yozma manbalarda jumladan eramizdan oldingi, taxminan 484(480)—431(425) - yillari yashagan yunon tarixchisi Gerodotning «Tarix» kitobida qadimgi forslar, saklar, massagetlarning ta'lim-tarbiya tarziga oid muhim ma'lumotlar berilgan.

Bu ma'lumotlar qadimgi yurtimizda bolalar o'qitiladigan savod maktablari bo'lganligi va maktablardan tashqari bolalar maxsus murabbiylar tomonidan harbiy-jismoniy mashqlarni bajara olish va muayyan hunar sirlarini o'zlashtirish ishiga jalb etilganligidan darak beradi.

Eng qadimgi davrlarda ta'lim-tarbiyaga oid qimmatli ma'lumotlarni biz xalq og'zaki ijodi namunalarini afsonalar, qahramonlik eposlari, qo'shiqlar, maqol va iboralarda ham ko'ramiz. Xalqimiz o'z tarixiy - ijtimoiy taraqqiyoti mobaynida bov og'zaki ijodiy meros qoldirgan. Xalq folklorida ta'lim-tarbiyaga oid ilg'or

pedagogik fikrlar ilgari surilgan. Har tomonlama yetuk axloqli shaxsni shakllantirishning hamma tarkibiy qismlari, ya'ni aqliy tarbiya, axloqiy tarbiya va nafosat tarbiyasiga xos bo'lgan hamda tarbiya ishida qo'llash mumkin bo'lgan pedagogik ma'lumotlar o'zbek folklorining barcha jihatlarida o'z ifodasini topgan. Jumladan, alla dastlabki hayot darsligi, ma'naviy boylıklarning bitmas - tunganmas hazinasidir.

Ibtidoiy tuzum kishilarining orzu-istaklari, o'y-fikrlari, maqsad va intilishlarini yoritishga xizmat qilgan afsonalarning ko'pchiligi bizga eng qadimgi yodgorliklar - «Avesto», Firdavsiyning «Shohnoma» asarlari orqali ma'lumdır. Jasurlik, kuchlilik va mardlik - qadimiy kishilarda tarkib topishi zarur bo'lgan eng muhim fazilatlar sanalgan. Tarixiy shaxslarning hayoti va qahramonliklari borasida ma'lumotlar beruvchi rivoyatlar fikrimizning yorqin dalilidir. Ularda muayyan shaxs faoliyati, donishmandligi, qahramonliklari, tarixiy shaxs ega bo'lgan axloqiy fazilatlar: nazokat, kamtarlik, aql-idrok, o'zgalarga muhabbat, yorga vafo, sadoqat, baxt, odillik, odamiylik, oliyhimmatlihk va mehnatsevarlik kabilar ulug'langan.

M.Qoshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asarida esa ilm olishning qadri, bilimli, donishmand kishilarni hurmat qilish, mehmondo'stlik xush xulqlik mardlik va jasurlikni targ'ib etuvchi, o'z manfaatini ko'zlagan molparast, baxil, ochko'z, do'stiga va xalqiga xiyonat kabi salbiy tomonlarni qoralaydigan she'rlar ko'p uchraydi. Bunday she'rlar turkiy xalqlar qadim-qadimlardan boshlab, inson shaxsini shakllantirishda ta'lim-tarbiyaga katta e'tibor berganligini ko'rsatadi.

Markaziy Osiyoning ko'pgina joylarida qoyalarga o'yib yozilgan qadimiy suratlar saqlanib kelmoqda. Ibtidoiy jamiyatning surat solishga mohir bo'lgan kishilari bu suratlarda odamlarni va hayvonlarni, ov manzaralari va boshqa shu kabi manzaralarni tasvirlaganlar. Bunday suratkashlik rivojlana borib, bir qancha mamlakatlarda piktografik xatning paydo bo'lishiga imkon berdi, keyinroq ierogliflar bilan yoziladigan xat va harflar piktografik xatlardan vujudga keldi.

Markaziy Osiyo xalqlarining, shu jumladan, o'zbek xalqining madaniyati, ma'rifati, milliy qadriyati ibtidoiy jamoada davridagi ma'rifiy tafakkuming dastlabki kurtaklari folklorida o'z aksini topgan. Eramizdan avvalgi birinchi ming yillik o'rtalarida, ya'ni ibtidoiy jamoa tuzumi davrida odamlar insonning kamoloti to'g'risidagi g'oyalarni juda ko'p rivoyatlardan foydalanib baxshilik yo'li orqali avloddan-avlodlarga yetkazganlar, mazkur rivoyatlarda, kishilarni tarbiyalash, axloqiy barkamollik shaxsning ma'naviy yuksakligi masalalari asosiy o'rinni olgan.

Ajdodlarimiz tomonidan qo'lga kiritilgan qadimiy madaniyat tarkibidan ta'lim-tarbiyaga oid meros ham alohida o'rinni olgan. Zero, hozirgi turkiy va forsiy-zabon xalqlarning bizgacha yetib kelgan muhim arxeologik topilmalari, tarixchilar, adabiyot va san'at namoyandalarning asarlari buning dalilidir.

Eng qadimgi yodgorliklarda ifoda etilgan va qadrlangan xislatlar - jasurlik, mardlik, adolat, sadoqat, insoniylik, xushmuomalalikdan iborat bo'lgan. Tabiiyki, ushbu xislatlar insonda o'z-o'zidan shakllanmagan. Tabiat va jamiyat hayotidagi o'zgarishlar, urug'chilikka asoslangan turmush tarzi insonning ana shunday xislatlarga ega bo'lishini taqozo etgan. Ikki katta kuch - yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi ayovsiz kurash insonda yuqorida qayd etilgan xislatlarning bevosita shakllanishiga turtki bo'lgan.

Tarbiyaviy manba sifatida «Avesto» katta ahamiyatga ega. Zardusht qadimgi qabilalardagi diniy e'tiqodlarni isloh qilgan. Zardusht ta'limotining yangiligi shundaki. AxuraMazda (Qodirloh) dunyoda adolat va yaxshilikning ijodkori sanaladi. Anxramani esa (yovuz ruh) barcha yomonliklari sababchisi. «Avesto» ning mazmuni haqida uning bizgacha yetib kelgan parchalari matnlariga asoslanib quyidagilar ifodalanganini ko'ramiz: eng qadimgi turkiy tilda yaratilgan va turk-runiy yozuvida bitilgan Urxun-Enasoy bitiklari ham VI-VIII asrlarda yozib qoldirilgan bo'lib, ular ta'lim-tarbiyaga oid qimmatli ma'lumotlar beradi.

Zardushtiylik dinining g'oyalari ko'ra, shaxsning axloqiy xislatlarga ega bo'lishi adolat o'lkasini qaror toptirishda tayanch omil bo'lib xizmat qiladi. Zardushtning asosiy yo'riqlaridan biri ham Axura Mazdaning ko'makchisi sanalgan inson saxovatli bo'lishi kerak, degan aqidadir. Garchi, zardushtiylikda diniy rasm-rusumlarga rioya etish, Zardusht tomonidan ilgari surilgan barcha axloqiy yo'riqlarni bajarish har bir kishining muqaddas burchi ekanligi e'turof etilishi bilan birga, dunyoviy ishlar va ularning mohiyati ham ochib beriladi.

Zardusht Axura Mazdadan dunyoda shodlik va baxt makoni, eng sevimli joy qayerda ekanini so'raganda, u shunday javob beradi: baxt makoni shunday joyki, kishilar u yerda uy-joy quradilar, otashkada (ibodatxona) lar barpo etadilar, dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanib, bola-chaqali bo'ladilar; men har ikkala qo'li bilan mehnat qiluvchi kishini qo'llayman, uning ishiga baror, hosiliga baraka bag'ishlayman, deydi. Bunda mehnat, dehqonchilik yovuz kuchlarga qarshi kurash, yaxshilik manbai, tayanchi, deb ko'rsatiladi.

Turkiy xalqlarning yozma ma'nifiy yodgorliklari o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, pedagogika tarixi, xususan, yosh avlod tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. Bular «Urxun-Enasoy yodgorliklari», «Irq bitigi» («Ta'bimoma») kabi manbalar bo'lib, ulardan yangi davr kishisini tarbiyalashda foydalanish muhim vazifalardan sanaladi.

Eng qadimgi turkiy tilda yaratilgan va turkiy-run yozuvida bitilgan Urxun-Enasoy bitiklarini «toshlarga bitilgan kitoblar» ham deb ataydilar. O'ziga xos xat (yozuv) da bitilgan bu bitiklar eramizning VII-VIII asrlarida yozib qoldirilgan. Toshlariga bitilgan mazkur yodgorliklar ta'lim-tarbiyaga oid qimmatli ma'lumotlarni beradi.

Urxun-Enasoy yodgorliklari dastlab enasoy havzasida, so'ngra Mo'g'u-istonning Urxun daryosi bo'yida topilib, ushbu yozuvlarni 1893-yili birinchi bo'lib daniyalik olim Vilgelm Tomson o'qigan. V Tomsondan so'ng olimlar - N.M.Yadrinsev, V.V.Radlov mazkur manbalarni izlab topib, o'qishga muvaffaq bo'ldilar.

Urxun-Enasoy yodgorliklari S.E.Malov hamda I.V.Stebleva tomonidan rus tiliga tarjima qilindi. O'zbekistonda Oybek, O.Sharafuddinov, N.Mallavev, Aziz Qayumov va N.Rahmonov Urxun-Enasoy bitiklari ustida tadqiqot ishlarini olib bordilar va ushbu manbaning ta'lim-tarbiya ishlarini yo'lga qo'yishdagi ahamiyatini yoritib berdilar. Ma'lumki, eramizning VI asri o'rtalariga kelib, Oltoy, Yettisuv va Markaziy Osiyo hududlarida yashovchi turkiy qabilalarning Turk xoqonligi davlati tarkib topdi. Bu xoqonlik G'arbda Vizantiva, Janubdan Eron va Hindiston, Sharqdan Xitoy bilan chegaradosh bo'lgan. Turk xoqonligi Turkiyut davlati deb ham atalgan. Xoqonlik 604-yili sharqiy va g'arbiy xoqonlikka ajralgan. Eramizning 745-yiliga kelib esa Turk xoqonligi barham topgan.

Garchi Urxun-Enasoy yozma yodgorliklari bevosita ta'lim-tarbiya masalalariga bag'ishlanmagan bo'lsa ham, ulardan o'sha davr axloqiy talablar yuzasidan ma'lum bir ma'lumot olish mumkin. Xususan, xoqonlar va alplarning jangovor faoliyati, turmush tarzi, vatanparvarlik, birdamlik, ittifoq bo'lib yashashga intilishi, mardlik, jasorat, samimiylilik, insonparvarlik, ezigulik kabi insoniy xislatlari jamiyat har bir a'zosining axloqiy qiyofasini belgilovchi muhim fazilatlar sifatida ma'rifiy qadriyatlarimiz tarixida muhim ahamiyatga ega.

Turk xoqonligi asosan 3 kishi: Bilgaxoqon (Mog'ilyon), Kultegin, Tunyuquqlar qo'lida markazlashgan edi. Bilgaxoqon (Mog'ilyon) xoqon, Kultegin - sarkarda, Tunyuquq esa - vaziri dono bo'ladi. Bitiktoshlarda turk xoqonlarining yurishlari, yurishlar davrida alp kishilar, sarkardalar ko'rsatgan jasoratlar, ularning bilimli, mard, xalqparvar ekanliklari bayon etiladi. O'z vatanining mustaqilligi uchun kurashish, xalqni asoratdan olib chiqish, ularning birdamligini ta'minlash xoqonlar Bo'min, Istami, eltarish, eltarishning o'g'illari - Bilga xoqon, lashkar-boshi Kultegin, ma'naviy otalari Tunyuquqlarning ziramasiga tushgani hikoya qilinadi. Masalan, Kultegin bitigida uning ta'rifi berilgan. Kultegin xalqparvar, tadbirkor, xalqning kelgusi taqdirini ham o'ylaydigan jonkuyar sarkarda sifatida ta'riflanadi. U o'z jonidan vatan taqdiri, xalq manfaatini yuqori qo'ygan shaxs. Kultegin eltarish xoqonining kichik o'gli. U 731-yil 27-fevralda qirq yetti yoshida vafot etadi. Bitiktosh 732 -yili o'rnatilgan. Ushbu bitiktoshda barcha voqealar Kulteginning akasi Bilga xoqon tilidan hikoya qilinadi.

Kultegin bitigida Bilga xoqonning og'a-inilari va qarindosh-urug'lariga murojaat qilib, ularning xatolari tufayli turk elida ko'p falokatlar yuz berganini bayon etganligi ifodalangani. Turkiylarning harbiy yurishlari, ularga qo'shni bo'lgan tabg'achlarning bosqinchihgi tufayli xalq boshiga tushgan kulfatlar haqida so'z yuritiladi.

Eng qadimgi ma'rifiy yodgorliklardan biri sanalgan «Irq bitigi» («Ta'birnom») ham Urxun-Enasoy yodgorliklari sirasida ta'lim-tarbiya tarixida muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur asar turkiy xalqlarning turmushi, axloqiy munosabatlari mazmuni to'g'risida ma'lumotlar beradi. Ijtimoiy munosabatlar mohiyati asosan qushlar va hayvonlar obrazlari orqali ochiladi.

«Irq bitigi»da eng qadimgi ajdodlarimizning mifologik hamda totemistik qarashlari xalq og'zaki ijodi namunalarini tarzida o'z aksini topgan. An'anaga ko'ra, har bir epizodda yaxshilik g'ovalari targ'ib etiladi.

Inson doimo yaxshi hayot kechirishga intilar ekan, bu yo'lda u juda ko'p qiynchiliklarga duch keladi. Lekin inson qiynchiliklarni ilohiy qudrat - Tangri yordamida yengib o'tib, go'zal hayotga etishadi. Ana shu holat hara ta'birnomada o'z aksini topgan.

Ammo yaxshilik bor joyda yomonlik ham mavjud bo'ladi. Aynim qushlarga nisbatan berilayotgan ta'birlarda yomon hodisa-voqealar negizida yomonlikning mavjudligiga alohida urg'u beriladi. Xulosa qilib aytganda, o'zbek xalqi tomonidan eng qadimgi davrlardan eramizning IX asrigacha qaror topgan ma'rifiy qarashlari inson shaxsining shakllanishida, uning kamolotini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ularda turkiy xalqlarning inson xulq-odobi va uni tarbiyalashga oid dastlabki tasavvurlari ifodalangan.

Xalq ogʻzaki ijodi namunalarida jasurlik, mardlik, sadoqat, insoniylik, xushxulqlilik xislatlariga ega boʻlgan inson qiyofasi gavdalangan. Ibtidoiy turmush tarzi hamda odamlar oʻrtasidagi munosabatlar mazmuni insonlarda ana shunday sifatlarning shakllanishini taqozo etgan. Ikki katta kuch - yaxshilik va yomonlik oʻrtasida ayovsiz kurash borgan. Mazkur kurash jarayonida insonda eng yaxshi xislatlar shakllana borgan. Bilimlilik, xushxulqlik, muayyan kasb yoki hunarga ega boʻlish inson kamolotini belgilovchi asosiy koʻrsatgichlar hisoblangan.

Nazorat uchun savollar

1. Pedagogika tarixining obyektı va predmeti nima?
2. Oʻzbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I. Karimov asarlarida tarixiy manbalardan foydalanishning ahamiyati qanday izohlangan?
3. Pedagogika tarixida davrlashtirishga nisbatan qanday yondashuvlar mavjud?
4. Qadimgi davrdan VII asrgacha tarbiya qanday harakter kasb etgan?
5. Eng qadimgi yozma yodgorliklarda taʼlim-tarbiyaning ifodalanishini izohlang.

24. VII ASRDAN XIV ASRNING BIRINCHI YARMIGACHA OʻRTA OSIYODA TARBIYA, MAKTAB VA PEDAGOGIK FIKRLAR

- 23.1 Islom dinining tarqalishi, uning taʼlim-tarbiyaga taʼsiri.
- 23.2. Diniy kitoblarning tarbiyaviy ahamiyati.
- 23.3. Qurʼoni karim -axloqiy-falsafiy taʼlimotlar manbai.
- 23.4. Hadis ilmining paydo boʻlishi.

23.1 Islom dinining tarqalishi, uning taʼlim-tarbiyaga taʼsiri

Dunyo dinlari orasida islom dini yer yuzida tarqalgan jahon dinlaridan biridir. Islom soʻzi arabcha «boʻysunish», «taslim boʻlish», «oʻzini xudoning irodasiga topshirish» degan maʼnoni anglatib yagona Allohga boʻysunish tushunchasini beradi.

VII asr birinchi yarmida islom gʻoyasiga asoslangan Arab halifaligi tashkil topib, bu davlat oʻz mavqegini mustahkamlash uchun boshqa mamlakatlarni zabt eta boshladi. Butun Arabiston yarimoroli, Eron, Suriya, Janubiy Ispaniya, Kavkaz Movarounnahr, Xuroson hamda Shimoliy Afrikada joylashgan bir qancha mamlakatlar halifalik tarkibiga kiritildi.

Arablar tomonidan bosib olingan yerlarda xalqlar Islom dinini qabul qilishga majbur etildi. Arab istilochilarining Movarounnahr xalqining Islom dinini qabul qilish jarayoni qiyin kechgan va bu jarayon bir necha yillar davomida amalga oshirilgan. Shuningdek, islom dinining Movarounnahrda yoyilishiga sabab, arablar, dastlab mahalliy xalqlarni islom dinini qabul qilganlarni barcha soliqlardan ozod qildilar, soʻngra islom dinini qabul qilmagan aholiga nisbatan qatʼiy choralar koʻrdilar. Shu bois arab istilochilari xalqni oʻzlariga boʻysundirish va ular tomonidan Islom dinini qabul qilinishiga erishish maqsadida harbiylar hamda Islom dini

targ'ibotchilarining xizmatidan birdek foydalandilar. Movarounnahrda Islom ta'limoti g'oyalarning yoyilishi, kishilar tomonidan shariat qoidalari, Islom dini aqidalariga bo'ysunish, yagona va qudratli Allohga sig'inish, Allohning yerdagi rasuli (elchisi) bo'lgan Muhammad alayhis-salom ko'rsatmalariga rioya etish xalqning ongiga chuqur singib, ular tomonidan mazkur din asoslarining qabul qilinishiga zamin yaratildi. Natijada Movarounnahrda islomiy qadriyatlar tarkib topa boshladi.

Hahfalar davrida islom ta'limoti mustahkamlandi. Pavg'ambarimizga nozil bo'lgan «Quroni karim» g'oyalari sahobalar tomonidan kitob holda jamlandi.

G'arb va Sharq tadqiqotchilari «Qur'on» ni jahon madaniyatining eng nodir asarlaridan biri deb hisoblaydilar.

Xat-savodi bo'lgan Abu Bakr as-Siddiq, Umar ibn al-Xattob, Usmon ibn Affon, Ali ibn Abu Tolib, Zayd ibn Sobit, Ubay ibn Kaab «Qur'on» oyatlarini yod olib borganlar va xat bilan bitganlar.

Uchinchi halifa Usmon ibn Affonning topshirig'iga ko'ra, «Qur'on» suralari va oyatlari birinchi bo'lib sahoba Zayd ibn Sobit tomonidan kiyik terisidan tayyorlangan sahifalarga bitilgan. So'ngra ushbu manbadan 6 nusxa ko'chirtilib, markaziy shaharlarga bitta nusxadan yuborilgan hamda Qur'onning faqat ana shu nusxalaridan foydalanishga farmon berilgan. Shunday qilib, «Qur'on» musulmonlarning diniy, ijtimoiy va siyosiy hayotida asosiy qo'llanma bo'lib qoladi. «Qur'oni karimning» deyarli barcha oyat va suralari mazmunidagi g'oyalar insonni ma'naviy axloqiy pokhikka yetaklab, johillikdan qutqarib, ezgulikka yo'naltirib, ayniqsa yoshlarning ta'lim-tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

23.2. Diniy kitoblarning tarbiyaviy ahamiyati

Islom g'oyalari, musulmonchilikning talablari, huquqiy va axloqiy me'yorlari «Qur'on» va uning tafsirlari, «Hadisi sharif», shariat qoidalari bitilgan qo'llanmalar hamda ilohiyotga oid adabiyotlar mazmunida batafsil ifodalangan.

«Qur'on» - dunyo madaniyatining ulkan boyligi, musulmonlarning muqaddas kitobi bo'lib, arab tilida «qiroat» ma'nosini anglatadi. «Qur'on» 114 suradan iborat, ularning 90 tasi Muhammad alayhis-salom Makka shahrida, 24 tasi esa Madina shahrida istiqomat qilgan davrlarda nozil bo'lganligi to'g'risida manbalarda ma'lumotlar keltiriladi. «Qur'on» g'oyalari kishilarni tenglik, birodarlik, tinch-totuv yashash va ezgulikka undaydi. Shunga ko'ra, u katta axloqiy qimmatga ega. «Qur'on» g'oyalari-ning ma'naviy-axloqiy xususiyatlari xususida so'z yuritilar ekan, uning insonning ma'naviy kamolga yetishishida qay darajada muhim o'ringa ega ekanligiga amin bo'lamiz.

Qur'oni Karim kishilarni tinch-totuv yashash, birodarlik, tenglik, saxiylik va bir-biriga mehr-muhabbat ko'rsatishga undaydi. «Qur'on»ning axloqiy qimmatini insonning ma'naviy kamolotga erishishida rioya etishi lozim bo'lgan talablari bir butun holda mujassam eta olganligi bilan belgilanadi. Shu bois u necha asrlardan buyon insoniyatning eng ulug' qadriyatlaridan biri sifatida e'zozlanib kelinmoqda.

Aslini olganda, islomda ilohiy va dunyoviy hodisalar alohida-alohida olib qaralmaydi. Islom ta'limotida insonning ruhiy va jismoniy kamolotiga ham birdek e'tibor beriladi.

Islomiy g'oyalarni odamlarni yaxshilikka da'vat etadi, ularni yomonlikdan qaytaradi. Insonparvarlikni targ'ib etib, razolatni qoralaydi, odob-axloq, ruhiv-ma'naviy poklik, mehnat qilish hamda yer yuzmi obod va go'zal etishga undaydi. U adolat, tenglik, tinchlik, erkni targ'ib etadi.

Buni biz «Qur'on»ning inson kamolotga erishishidagi ahamiyati, uning insonga va butun borliqqa nisbatan munosabati mazmunidan ham bilsak bo'ladi. Sura va oyatlar vositasida zohir etilgan musulmon olami, xususan, islom dimga e'tiqod qiluvchi xalqlarning madaniyati, ma'naviyati va ma'rifatiga oid qarashlar axloqiy me'yorlarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, inson kamoloti avvalo uning bilim va tafakkur darajasi bilan belgilanadi. Islom dmi asrlar davomida insonlarni chuqur bilim olish, ilm-fan sirlarini puxta egallash, o'zlashtirilgan bilimlar asosida ijtimoiy faoliyatni tashkil etishga undab kelgan. Ilm-fan, ma'rifat taraqqiy etgan jamiyatgina ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan rivojlanadi. «Qur'on»ning «Zumar» surasi 9-oyatida kishilarni ilm o'rganishga da'vat etuvchi shunday fikrlar bayon etiladi: «Aytin: Biladigan zotlar bilan bilmaydigan kimsalar barobar bo'lurmi? Darhaqiqat, faqat aql egalaringina pand-nasihat qila olurlar».

Islomda insonning aqliy kamoloti va tafakkurini rivojlantrishga katta e'tibor beriladi: bular ilm va haqiqatni dalillar yordamida isbotlash, so'zlaganda va amaliy harakatni tashkil etganda aniqlikka e'tibor berish, fikr yuritishda va muayyan faoliyatni yo'lga qo'yishda o'zgalarga taqlid qilishdan saqlanish maqsadga muvofiq ekanligi qayta-qayta uqitiriladi.

«Qur'on»da ilm ishonchli dalillar bilan asoslash, taqlid qilishga yo'l qo'ymaslik masalalari ham talqin etilgan. Unda har bir fikrni ko'r-ko'rona, aql ishlatmasdan ilgari surish qoralanadi. Mavjud bilimlar mohiyatini tahlil etish asosida ular orasidan eng to'g'ri va maqbul deb topilgan g'oyalarni tanlab olish maqsadga muvofiq ekanligi uqitiriladi: «Mening bandalarimga - so'zga quloq tutib, uning eng go'zaliga (ya'ni najotga eltuvchi rost so'zga) ergashadigan zotlarga xushxabar bering! Ana o'shalar Alloh hidoyat qilgan zotlardir. Va ana o'shalarigina aql egalaridir» («Zumar» surasi, 18-oyat). Har bir fikrni diqqat bilan tinglab, uning mohiyatini chuqur anglab, tushunib, so'ngra unga rioya etganlar haqiqiy aql egalandur. Albatta, ilm aqliy mushohada yordamida o'zlashtiriladi. «Qur'on» g'oyalari inson o'zida aqliy mushohada yuritish ko'nikmalarini o'zlashtirishga undaydi. «Qur'on»da sabr-qanoatga ham yuksak axloqiy fazilat sifatida katta e'tibor beriladi.

«Qur'on»da ta'kidlanganidek, sabrli, sabotli bo'lish bu qiyinchiliklarga bardosh berish, yomon kishilar yetkazgan nohaqliklarga chidash, boshga tushgan musibatlariga nisbatan bardoshli bo'lishdan iboratdir. Quyida keltiriluvchi oyatlarda qayd etilgan fikrlarga rioya etish msonda sabr-toqat hamda matonat kabi xislatlarni tarbiyalaydi: «Va, albatta, sizlarni xavfu xatar, ochlik, molu jon va meva-chevalarni kamaytirish kabi narsalar bilan imtihon qilamiz. Biror musibat kelganda: «Albatta biz Allohning (bandalarimiz) va albatta, biz u zotga qaytguvchilarmiz», deydiyan zotlarga xushxabar bering (ey Muhammad)! Ana o'shalariga Parvardigorlari tomonidan salovat (ma'rifat) va rahmat bordir. Ana o'shalar haq yo'lini topguvchilardir» («Baqara» surasi, 155-157-oyatlar).

Yuqorida keltirilgan oyatlar mazmunidan anglanadiki, sabrli kishilar hayotda doimo to'g'ri yo'lni tanlab oladilar, har qanday qiyinchiliklarga bardosh beradilar, musibatlar oldida bosh egmaydilar. Qur'onu karim insonni sabr- bardoshli bo'lishga undaydi. Bu esa har bir kishining eng oliy xislati sanaladi.

«Qur'on»da insonda tarkib topishi kerak bo'lgan oliy xislatlardan yana biri sadoqat deb ta'lim beriladi.

Har bir jamiyatning ravnaqi shu jamiyatda yashayotgan kishilarning o'z vatani va xalqiga bo'lgan sadoqatiga ham bog'liqdir. Zero, sadoqat bor joyda ishonch, e'tiqod mayjud bo'ladi. Jamiyat a'zolarining vatani hamda xalqiga nisbatan sadoqatli bo'lishlari jamiyat ravnaqmi ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etuvchi omillardan biri hisoblanadi. «Qur'on»da sadoqat barcha yaxshiliklarning debochasi sifatida, rostgo'ylik ma'nosida ham talqin etilgan. Sadoqat o'zgalarning omonatiga xiyonat qilmaslik, bergan va'dasiga vafodan ibtido kabi holatlarni ham ifoda etadi.

«Qur'on»da kishilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yaxshilash to'g'risida ham gap boradi va bu oliy darajadagi insoniy xislat bo'lib, pok qalbli kishilargina bunga erisha oladi, deyiladi. Jamiyat a'zolarining bunday xislatga ega bo'lishlari ham jamiyatda, ham odamlar orasida tinchlik va osoyishtalikning barqaror bo'lishiga zamin hozirlaydi. Shu bois ham kishilar o'rtasidagi o'zaro aloqani mustahkamlash musulmonchilikning asosiy talablaridan biri sanaladi.

23.3. Qur'oni karim -axloqiy-falsafiy ta'limotlar manbai

Islom dinining muqaddas kitobi «Qur'on»da yaxshilik tushunchasi ostida rostgo'ylik, omonatga xiyonat qilmaslik, saxiylik, shijoat va boshqa barcha fazilatlar nazarda tutiladi.

Qur'oni karimda insondagi eng zarur xislatlardan sanalgan olijanoblik haqida ham fikr yuritiladi. Olijanoblik - yaxshilikning o'zi uchun emas, boshqalar uchun ham zarurligini anglash istagidir. Demak, olijanoblik ruhiy holat bo'lib, inson kamolotini ko'rsatuvchi xislatdir. «Qur'on»ning bir qancha oyatlarida shirinsuxanlik, to'g'ri so'z va muomala madaniyati borasida so'z yuritiladi. Muomala madaniyatiga rioya qilish qonun-qoidalari Islom dini g'oyalari yaratilgunga qadar ham shakllangan bo'lsada, biroq Islom ta'limotigina uning asl mohiyati, inson kamoloti va jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatini to'la ravishda ochib berdi. Shirinsozlik insonning muomala madaniyatiga ega ekanligini ko'rsatadi, uning obro'sini oshiradi, elning hurmatiga sazovor qiladi. Shu bois «Qur'on»da har bir insonning shirinsoz bo'lishi ham o'zi uchun, ham jamiyat uchun foydali ekanligiga alohida ta'kidlanadi. Boshqa oyatda esa, Alloh kishilarni so'zlashganda past ovoz bilan so'zlashganda undaydi: «Kishilarga chiroyli so'zlar so'zlangiz» («Baqara» surasi, 53-oyat).

So'zlashganda ochiq yuzli bo'lish, qo'pollik qilmaslik, xushmuomala bo'lish odoblari hayotda tinchlik va baxt-saodatga eltuvchi yorug' yo'l sifatida talqin etiladi. Haqiqatan ham so'zlashish madaniyati har bir inson uchun eng zarur, unga baxt-saodat, jamiyatga esa ravnaq keltiradigan muhim fazilatdir. Keltirilgan misollardan avon bo'lmoqdaki, muomala madaniyati barcha davrlarda ham insoniylikning eng ulug' sifati tarzida talqin etilgan. Zero, xalqaro maydonda davlatlar o'rtasidagi diplomatik aloqalarni o'rnatishda ham muayyan davlatning rasmiy vakili sanalgan

elchilarning soʻzlashuv madaniyati qoidalarining mohiyatidan nechogʻli xabardor boʻlishlari hamda ularga qatʼiy amal qila olishlari nihoyatda muhimdir.

«Qurʼon»da yaxshi fazilatlariga ega kishilar bilan hamsuhbat boʻlish insonning kamolotga erishuvini taʼminlovchi omillardan biri ekanligi ham alohida taʼkidlanadi. Bu yaxshilar bilan doʻst boʻlish imkoniyatini yaratadi. doʻstni dushmanidan ajrata olish layoqatining shakllanishiga imkon tugʻdiradi, oʻziga nisbatan hamkor - doʻst tanlashga yordam beradi

23.4. Hadis ilmining paydo boʻlishi

Movoraunnahrda VII - IX asrlarda islom dinning keng tarqalishi barcha sohalar, fan, madaniyat, falsafa, ijtimoiy hayot rivojiga oʻz taʼsirini koʻrsatdi. Bu davr tarixi, madaniyati, ilmi - fani, taʼlim-tarbiya jarayoni oʻziga xos tarzda boʻlib, turli xil silsilalari, urushlar, nizolar oqibatida ham oʻz tarqqiyot yoʻlida toʻxtamadi. Islom madaniyati shakllanishining ichki va tashqi manbalari, tamoyillari, ahkomlari, munosabatlari asta-sekinlik bilan rivojlana bordi, shuningdek taʼlim-tarbiya sohasiga oibd oʻzaro munosabatlar, ustoz - shogird munosabatlari paydo boʻla boshladi. Hadis bu paygʻambarimizning hayotiy faoliyatlarini davomida biron-bir fikrni bildirganliklari, biror-bir ishni amalda qilib koʻrsatganliklari hamda amaliy xatti-harakatlari toʻgʻrisida aytilgan rivoyatlardir. Hadislarni birinchi marta yozish bilan mashgʻul boʻlgan muhaddislar Rabez ibn Sabeh, Said bin Abi Aruba, Malik bin Anas, Abdumalik bin Jurayj Makkiy, Abdurahmon al-Avzoiy Shoshiy, Sufyon Savriy Kufiy va boshqalar deb koʻrsatilgan. Hadis ilmini oʻrganishning oltin davri deb VIII - IX asrlar tan olingan. Islom dunyosida eng nufuzli manbalar deb sanalgan oltita toʻplam (as- sahih as-sita) ni yaratgan muhaddislar ham vatandoshlarimiz boʻlib, ular hadis ilmi rivojlangan IX asrda yashab ijod etganlar.

Ulardan tashqari 6 yirik muhaddisni qilgan ishlari alohida eʼtiborga molikdur.

1. Imom Buxoriy 810-yil 13-may kuni Buxoroda tugʻilgan (810-870). Voyaga yetguncha 70 ming hadisini yoddan bilgan. Imom Buxoriy 600 ming hadis toʻplab shundan 100 ming sahih 200 ming nosahih hadislarni yodlagan.

Imom Ismoil al-Buxoriy isteʼdodli, oʻtkir zehni hamda ziyvak olim boʻlgan. Manbalarga koʻra, Bagʻdod shahrida istiqomat qilgan vaqtida koʻpincha qorongʻu kechalari sham yorugʻi va oying nurida ijod qilib, kitob yozar ekan. Tunda yodiga bexosdan biror-bir fikr-mulohaza tushib qolsa, shamni yoqib, darhol oʻsha fikrni qogʻozga tushirar, shu taxlitda baʼzan shamni yigirma martagacha oʻchirib-yoqar ekan» (U. Uvatov).

Imom Buxoriyning oʻtkir zehn egasi ekanligini quyidagi misoldan ham bilish mumkin.

Buxoriyning axloqiy tarbiyaga oid taʼlimoti komil, axloqan pok insonni tarbiyalashda katta imkoniyatlarga egadir. Chunki uning asarlarida asosiy oʻrin tutgan Qunʼom karim oyatlari va Hadisi sharifda qayta-qayta taʼkidlangan insonni oʻz amallari borasidaga masʼuliyati, uning doimo nazorat ostida ekani va mukofot hamda jazoning muqarrarligini his etish yuksak insoniy va axloqiy talablarning amal qilishi uchun imkon yaratadi. Masalan, «chingizdagi narsani xoh oshkor, xoh maxfiy tuting. Alloh baribir ularni hisob-kitob qilib qoʻygay» yoki «Sizlarning

quloqlaringiz, ko'zlarinigiz va terilaringizning o'zlarinigizga qarshi guvoh bo'lmog'idan yashirina olmas erdingizlar» - degan Qur'on oyatlarini olsak, bu so'zlar yaxshilik bilan yomonlik, halol bilan harom o'rtasida ikkilanib turgan insonni biroz bo'lsa ham o'ylantirib qo'yadi va yomo niyatidan qaytaradi.

Imom Buxoriy ta'limotining inson axloqi va tarbiyasidagi ahamiyati shundan iboratki, u insonni hech qachon umidsizlik tushkinlik holatiga qo'ymaydi, yaxshilik va tavba-tazarru uchun doimo imkon beradi, hatto yomonlikni ham yaxshilik va ezigulik bilan mahv etishga yo'l ochadi.

2. Imom Muslim (820-865) Naysabrning Qushayr qishlog'ida tug'ilgan. Iroq, Xijoz, Shom, Misr, Buxoro va boshqa joylarda bo'lib, mashhur ulamolardan tahsil olgan va hadis ilmiga ulkan hissasini qo'shgan.

3. Imom Abu Dovud (816- 889) Sijistonda hozirgi Eron va Afg'oniston hududida tavallud topgan. Yoshligidan hadis ilmiga qiziqib Iroq, Xuroson, Shom, Misr, Arab jazirasiga safar qilganlar va eshitgan hadislarini rivoyat etadi. Mashhur shayx roviy hofiz bo'lib yetishdi. U jami 50 ming hadis rivoyat qilib shundan 4800 ta sahih hadisni « Sunnat » kitobiga kiritgan.

4. Abu Iso Muhammad at-Termiziy 824-yili Termiz yaqinidagi Bug' (hozirgi Sherobod tumani) qishlog'ida tug'ilgan. Imom at-Termiziy Imom al-Buxoriyga shogird bo'lgan. Uning eng katta asari «Sunan» bo'lib, bugungi kunda shoir Mirzo Kenjabek tomonidan «Sunani Termiziy» nomi bilan o'zbek tiliga o'g'irgan va nashr qilindi (2 - jilddan iborat). Umrining so'nggi yillarida at-Termiziy ko'zlari ojiz bo'lib qoladi va 892-yili ona shahri Termizda vafot etadi.

Imom at-Termiziyning «Sunan» kitobida keltirilgan hadislarda uning ta'lim-tarbiya, axloq-odobga oid fikrlari ko'p uchraydi. Chunonchi, doim insonda yaxshilik fazilatlarini takomillashtirishni quyidagi hadislarda bayon etadi: «Alloh nazdida eng yaxshi do'st deb doimo xayrli ishlarni qilib yuruvchi kishilarga aytiladi». «Alloh nazdida eng yaxshi qo'shni o'z qo'shnilariga yaxshilik qilguv- chisidir», «Odamlarga shukur aytmaydigan kishi Allohga ham shukur qilmaydi».

Imom at-Termiziy to'plagan hadisleri orasida bolalarni axloq-odobga, marhumlarga hurmat ruhida tarbiyalashga da'vat kuchli: «Chinakam sabr-toqatli deb musulmon kishining musibat yuz bergandagi chidamliligiga aytiladi», «Haqiqiy mo'min deb xushxulq va ayoliga nisbatan xushmuomala kishiga aytiladi». Umuman, Imom at-Termiziyning ma'naviy qadriyatlar merosini, uning axloq-odob va ta'lim-tarbiyaga doir qarashlarini, dunyoqarashini o'rganishda va ulardan hozirgi yoshlar ta'lim - tarbiyasida foydalanishda u to'plagan hadislaru alloma yaratgan «Sunan» kitobining ahamiyati g'oyat katta.

5. Imom Nasoiy (830-918) Xurosonning Niso shahrida tavallud topgan. Shom o'lkalariga safar qilib zamonaning mashhur muhaddislaridan saboq oladi. Imom avval «As sunan Al Kubro» degan kitob yozadi. Keyinchalik undagi ishonarli hadislarini qoldirib «As sunan As Sug'ro» deb nomlagan.

6. Imom Ibn Mojja (824-888) Iroqning Qazvin shahrida tavallud topgan. Boshlang'ich ta'limni olgach hadis ilmi bilan shug'ullanish uchun Iroq, Shom, Misr, Ray kabi o'lkalarga safar qiladi. Jami 32 ta kitob yozadi. Ushbu kitob 1500 bobni o'z ichiga olgan Imomning «Sunan» kitobini Ishonarli Sahih va Fiqixda tengi yo'q manba sifatida e'tirof etadi.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov «Imom al-Buxoriy hazratlari nafaqat o'zbek xalqi, balki butun musulmon olamining faxriy xotini. Ul tabarruk zotning hayoti to'g'ri ma'nodagi ilmiy va insoniy jasorat, bukilmas iroda, so'nmas e'tiqod timsolidir» deb ta'kidlaydilar.

Hadislarda insonning kamolotga erishishi uchun talab etiladigan insoniy fazilatlar ifoda etilgan bo'lib, bu fazilatlar sirasiga o'zgalarga mehr-oqibat ko'rsatish, saxiylik, ochiq ko'ngillilik, ota-ona, kattalar va qarindoshlarga nisbatan muruvvatli bo'lish, ularga g'amxo'rlik qilish, vatanga muhabbat, mehnat va kasb-hunarni ulug'lash, halollik, poklik, do'stlik, oltinlik, rahm-shafqatlilik, kamtarlik, rostgo'ylik va vijdonlilik kabi xislatlar kiritiladi. Bundan tashqari, insonning o'zini yomon illatlardan tiyishi, yaxshilik sari intilishi kerakligi bora-sidagi pand-nasihatlar ham o'z aksini topganki, bularning barchasi Qur'oni karimda qayd etilgan ko'rsatmalarga asoslanilgan va komil insonni shakllantirishda asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi. Hadislarda jamiyat ravnaqi, insoniyat taraqqiyotining ta'minlanishiga ta'sir etuvchi muammolarga ham jiddiy e'tibor berilgan. Ularning orasida ekologik muammolarga alohida o'rin ajratilgan bo'lib, necha asrlardan buyon o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Ana shunday muammolar mohiyatini o'z mazmunida aks ettirgan hadislarda ekin dalada ko'chatlarni o'tqazish, ularni himoya etish, aniq-zovurlar qazish va ularni vaqti-vaqti bilan tozalab turish, suv chiqarish kabi ezgu ishlarni amalga oshirishga undovchi fikrlar mujassamlangan. Masalan, tirik jonivorlarni o'ldirmaslik; (shariatdan o'ldirishga buyurilgan ilon va chayondan bo'lak), jonivorlarga g'amxo'rlik qilish, ularga ozor bermaslik, inson yashaydigan joyni unga ozor beradigan narsalardan tozalash (227va 446-b.adislar), kishilarga soya beruvchi daraxtlarni kesmaslik, hovli sahnlarni toza tutish haqidagi hadislar shular jumlasidan.

Hadislarda yomon ishlar, illatlar, yomon xatti-harakatlar gunoh sifatida qoralansa, inson farovonligi, jamiyat ravnaqi uchun qilinadigan yaxshi, ezgu xatti-harakatlar, faoliyat savob tarzida o'qib olinadi.

Shunga ko'ra, yetim molini yeyish, mol-dunyoga hirs qo'yish, yolg'onchilik, g'iybatchilik, tuhmat, zino, ichkilikbozlik, g'iyovandlik, foydasiz gapni ko'p gapirish va boshqa illatlar gunoh hisoblansa, ota-ona, keksalar, zaiiflar va muhtojlarga g'amxo'rlik qilish, ularni yo'qlab turish, marhumlarni yaxshi so'zlar bilan xotirlash, omonatga xiyonat qilmaslik kabilar savob sanalishi alohida ta'kidlanadi.

Inson kamoloti bevosita uning salomatligi bilan bog'liqdir. Zero, sog'lom insonning ham oila, ham jamiyatning ravnaq topishi yo'lida faoliyat ko'rsata oladi. Hadislar, umuman, Islom ta'limotida tozalik va poklik, shu jumladan, ruhiy va jismoniy poklikka katta e'tibor beriladi: «Haq taolo o'zi pok, poklikni yaxshi ko'radi, o'zi toza, tozalikni yaxshi ko'radi, o'zi oliy himmatdir, oliy himmatlikni yaxshi ko'radi, o'zi ochiqko'ngil, ochiqko'ngillikni yaxshi ko'radi, eshiklarning oldini pokiza tutinglar» (190-hadis).

Hadislarda inson erki, ozodligi va unga dahl qilmaslik masalalarining yoritilishiga ham katta ahamiyat berilgan.

Islom ta'limotida har tomonlama yetuk bo'lishi uchun insonning erkin bo'lishi kerakligi borasidagi fikrlar Qur'oni karimda ham, Hadisu sharifda ham birdek e'tirof etilgan. Xususan: «Alloh taolaga farzlardan so'ng amali solihlarning eng sevimlisi musulmon kishining diliga xursandehilik solishdir» (33-hadis): «Alloh o'zi

kechirguvchi zot, kechirguvchini yaxshi ko'radi» (191-hadis), «Alloh taolo zulm qilmagan qozi bilan birgadir. Agar qozi jabr qilsa, Alloh undan uzoqlashadi va shayton unga yaqinlashadi» (194-hadis) kabi hadislar bunga yaqqoi dalilidir, chunki inson qanchalik qadrlansa, barcha ezgulik va yaxshiliklar insonga yo'naltirilgan bo'lsa, uning manfaati uchun xizmat qilsa, inson ham shunga ko'ra kamol topaveradi, yuksaklikka ko'tariladi, o'z navbatida bunday insonlar yashaydigan jamiyat ham rivojlanaveradi.

Demak, hadislar Muhammad payg'ambarimizning sunnatlari bo'lib, mazmunan har bir mo'inning ishonchi, e'tiqodini mustahkamlaydi, shu bilan birga insonni ma'naviy kamolotga yetaklaydi. «Islom dini ma'rifatga asoslangani uchun ham har bir shaxsni aqliy, jismoniy jihatdan kamolga yetkazishga oid e'tiqod va imondan iborat bo'lib, faqat ezgulikka xizmat qilish, olijanob bo'lish, pokiza yurish, bir burda luqmani halol qilib yeyish, jaholat va jaholatparastlikka yo'l qo'ymaslik, o'z birodarining, qarindosh-urug'larining, millatining va vatanining qadriyatlarini asrashdan iboratdir». Shunday ekan, hadislar komil insonni shakllantirishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi

Nazorat uchun savollar

1. Islom dinining tarqalishi va uning ta'lim - tarbiyaga ta'sirini yoritib bering.
2. Diniy kitoblarning axloqiy tarbiyaga oid fikrlaridan misollar keltiring.
3. Qur'oni karim-axloqiy-falsafiy ta'limotlar ekanligi nimalarda ifodalangan?
4. Hadis ilmining yo'nalishlari va uning oltin davri qaysi davrlar?
5. Islom dinining tarqalishi tub aholining ta'lim-tarbiyasiga qanday ta'sir etdi?

25. SHARQ UYG'ONISH DAVRIDA PEDAGOGIK FIKRLARNING RIVOJLANISHI. SHARQ UYG'ONISH DAVRIDA TA'LIMIY-AXLOQIY FIKRLAR RIVOJI.

- 24.1. IX-XI asrlar sharq uyg'onish davri.
- 24.2. Al-Xorazmiyning pedagogik qarashlari.
- 24.3. A^{^^}toMut[^] asarlarida pedagogik fikrlar.
- 24.4. Al-Beruniyning ilmiy pedagogik qarashlari.
- 24.5. Yu.X.Hojibning «Qutadg'u bilig» asari pandnoma asar sifatida.
- 24.6. A. Yugnakiyning «Hibbat-ul haqoyiq» asarida didaktik qarashlar.
- 24.7. Kaykovusning «Qobusnoma» asarining tarbiyaviy ahamiyati.

24.1. IX-XI asrlar sharq uyg'onish davri

IX-XI asrlar sharq uyg'onish davrining dastlabki bosqichi bo'lib, bu davrda arab halifaligida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, yagona Islom dinining tarkib topishi madaniy hayotga ham ta'sir etdi. Ana shu madaniy ko'tarilish butun Arab halifaligini. Yaqin va O'rta Sharqni qamrab olganligi uchun ham Sharq Uyg'onish davri deb ataldi. Bu Uyg'onish jarayoni IX asrdan boshlab XV-XVI asrlargacha davom etdi.

Arab halifaligida IX asrda vujudga kelgan Uyg'onish davri halifalikning Bag'dod, Damashq, Halab shaharlarida boshlanib, barcha boshqa xalqlar madaniy hayotiga tarqalgan, bu esa u davlatlarning ham madaniy rivojlanishi muhim ahamiyat kasb etdi. Halifalik yemirilishi jarayonida tashkil topgan mustaqil davlatlardagi madaniy rivojlanish halifalik davridagi madaniy rivojlanishning davomi edi.

Halifa Horun ar-Rashid va uning o'g'li al-Ma'munning hukumronlik davrida Bag'dodda «Bayt ul-hikma» («Donishmandlik uyi») (hozir Akademiya ma'nosida) tashkil topadi. Mazkur Akademiya ilm sohiblarining ilmiy markaziga aylanadi. Uning qoshida kutubxonasi tashkil etiladi. Akademiya 819-833-yillari yanada rivojlangan. Akademiya ikki rasadxona bo'lgan. keyinchalik yangi kutubxona qurilgan. Bog'doddagi bu ilm markazi, o'z navbatida, Sharq va g'arbda ilm-fanning taraqqiy etishiga, ma'naviy hayotning rivojlanishiga ta'sir etgan. Bu o'rinda halifa al-Ma'munning ilm-fan ravnaqida ko'rsatgan homiyligini alohida ta'kidlash joiz.

Zero, halifa al-Ma'mun ilm-fanni juda qadrlagan. IX asr boshlaridan halifalikning Xurosondagi noibi bo'lib turganda ham Movarounnahr va Xurosondagi olimlarni to'plab, ularning ilmiy ijodiga sharoit yaratib bergan. Bular orasida al-Xorazmiy, al-Farg'oniy, al-Xuttaliy, al-Javhariy, al-Marvazviy kabi vatandosh olimlarimiz ham bo'lgan. Al-Ma'mun halifalik taxtiga o'tirgach u olimlarning barchasini Bag'dodga chaqirib oladi va «Bayt ul-hikma» — Donishmandlik uyi («Ma'mun akademiyasi»)da arab olimlari bilan hamkorlikda ilm-fan ravnaq topadi.

Qadimgi yaratilgan madaniy yodgorliklar, ular xoh yunon, xoh arab, xoh Movarounnahr va Xuroson xalqining antik davrlar madaniyati bo'lsin, Uyg'onish davri madaniyatining yaratilishi va rivojlanishiga asos bo'lib xizmat qildi.

Agar arablar Markaziy Osiyoni bosib olib, bu yerda ilgari mavjud bo'lgan fan va madaniyat o'choqlarini yo'qotgan bo'lsalar, ko'p o'tmay qadimiy ilmiy an'ana asta-sekin tiklanib, natijada ilm-fanning yetuk siymolari yetishib chiqq boshlaydi. Bular barchasining bir-biriga qo'shiluvi natijasida Sharqda bir butun madaniyat tarkib topadi va taraqqiy etadi.

Yaqin va O'rta Sharqda, jumladan, Eron, Kavkaz va Movarounnahrda savdo aloqalarining rivojlanganligi, ilm-fan, hunarmandchilikning taraqqiy etishi, moddiy va madaniy aloqalarning barchasi umumiy rivojlanishga katta ta'sir ko'rsatadi. Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarining madaniy yuksalishiga olib kelgan asosiy sabab - feodal munosabatlarning yangi bosqichga ko'tarilgani bo'ldi. Bu davr madaniy taraqqiyotida Arab halifaligiga bo'ysungan mamlakatlar xo'jalik-iqtisodiy aloqalarining kuchayishi va natijada turli madaniyatlar hind, Movarounnahr, Eron, Arab, Misr, grek-yunon-rim madaniyatlarining yaqindan o'zaro aloqasi va bir-biriga ta'sir etib borishi katta ahamiyat kasb etdi. Haqiqatan ham bu davrda iqtisodiyot taraqqiy etdi, qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik rivojlandi.

Bu davrda qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yer maydonlari kengaydi, ko'plab sug'oriladigan yerlar ochildi, sug'orish mashootlari tiklandi, yangilari qurildi, paxta, zig'ir, kanop ekilib, ularning tolasidan mato to'qildi. Movarounnahrda, xususan, Xorazm, Urganch, Farg'ona, Samarqand va Buxoroning to'qimachilik mahsulotlari, ayniqsa, Samarqand va Buxoro shoyisi dunyoga mashhur bo'lgan.

Qishloq xo'jaligi va hunarmandchilik sanoat mahsulotlarining ishlab chiqarilishi savdoning rivojlanishiga yo'l ochdi. Natijada Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarining chet davlatlar: Ispaniya, Hindiston, Xitoy, Vizantiya bilan savdo ishlari ko'lami ortib bordi.

Pireney yarimorolining arablar tomonidan bosib olinishi insoniyat tarixining yangi sahifalarini ochdi. Bu jarayonning, ayniqsa, Ovrupo uchun ahamiyati beqiyos bo'ldi. Sharq faqatgina Ovrupo madaniyatining rivojiga ta'sir etibgina qolmay, balki umuman, Ovrupolik odamning psixologiyasi, tafakkuri, harakteri, hayot tarzini, tarixiy jarayonni tubdan o'zgartirib yubordi. Bu esa o'z navbatida matematika, falsafa, astronomiya, tabiiyot, tibbiyot, xulq-odob, turmush-tarzi, ijtimoiy-iqtisodiy hayotga ta'sir etdi.

X asrdan boshlab Movarounnahr va Xurosonda mustaqil feodal davlatlar-Tohiriyalar, Somoniylar, Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar, Xorazmshohlar davlatlarining paydo bo'lishi halifalikning yemirilishi hamda madaniy hayotning yanada ravnaq topishiga olib keldi.

Bu davrda pul muomalasi rivojlandi. Jamiyat siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'zgarishlar, albatta, madaniy hayotga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmadi.

Somoniylar davlatida Marv, Buxoro, Samarqand va Urganch o'sha davrning madaniy markazlari sanalardi.

Bu davrda arab tili ilmiy va aloqa tili edi. Maktablarda darslar arab tilida olib borilardi. Rasmiy hujjatlar arab tilida yuritilar edi. Ilmiy asarlar ham arab tilida yozilardi. X asr o'rtalariga kelib, fors tilida ham ish yuritila boshlandi.

Bu shaharlardagi maktablarga hatto tevarak-atrofdagi qishloqlardan oddiy xalq bolalari ham kelib o'qiganligi manbalarda keltiriladi.

O'sha davrda Buxoroda katta kitob bozori bo'lgan. Kitob do'konlarida olim va fozil kishilar uchrashib, ilmiy munozaralar o'tkazganlar.

Buxoro amiri saroyida esa yirik kutubxona mavjud bo'lgan.

Amir kutubxonasini o'sha davrdagi Sheroz kutubxonasi bilan bellasha oladigan yagona kutubxona sifatida tan olganlar.

Saljuqiylar davrida Alp Arslon Muhammad hokimiyatni boshqarganda uning vaziri Nizomul mulk o'z davrining mashhur siyosiy arbobi va eng ma'rifatparvar kishilaridan bo'lgan.

Saljuqiylar hokimiyati harbiylashgan bo'lib, bu hokimiyatning ichki va tashqi siyosatini Nizomul mulk boshqarar edi. U hokimiyatni boshqarish uslubini ishlab chiqadi va o'zining «Siyosatnoma» asarini yaratadi (1091-1092-yillar). Bu asarda davlatni boshqarish tamoyillari bayon etiladi. Nizomul mulk maorifni rivojlantirishda katta xizmat qiladi. 1067 -yili Bag'dodda o'zining shaxsiy jamg'armasiga o'sha davrning eng mashhur o'quv yurti - «Nizomiya» madrasasini qurdiradi. U olimlar, din peshvolari, so'fiylarga katta e'tibor berib, g'amxo'rlik qiladi. Uning katta xizmatlardan yana biri - uning davrida taqvimning isloh qilinishidir.

XI asrda Xorazmda ilm-fan taraqqiy etadi. Xorazm shohi Ma'mun II o'z saroyiga zabardast olimlarni taklif etadi. U tashkil etgan «Majlisi ulamo» - «Ma'mun akademiyasi» deb nom qoldirgan. Bu akademianing rivoj topishida Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, tarixchi Miskavayh, rivoziyotchi Abu Nasr ibn Iroq,

faylasuf Abu Sahl al-Mas'hiy, tabib Abulxayr Hammor kabi olimlar olib borgan ilmiy tadqiqot ishlarining o'zini beqiyosdir. Lekin toj-taxt uchun kurash natijasida bu ilm dargohi o'z faoliyatini to'xtatib, olimlar tarqab ketadi.

Movarounnahr va Xurosonda IX asrlarga kelib ma'naviy ko'tarilish Sharq Renessansi -Uyg'onish davrining boshlanishiga olib keldi.

Movarounnahrda ilm-fan va ma'rifat sohasida o'z xizmatlari bilan dunyoga mashhur bo'lgan faylasuf va munajjim, matematika, fizika, tibbiyot, tarix, til va adabiyot, pedagogika sohasida ilmiy merosi bilan nom qoldirgan Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Ahmad al-Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi qomusiy olimlar faoliyat olib bordilar. Qomusiy olimlar o'z ilmiy merosida ta'limiy-axloqiy asarlar yaratishga ham katta e'tibor berib, bu asarlarda ilgari surilgan g'oyalarni insonning ham aqliy, ham axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan kamol topishida, pedagogik fikr taraqqiyotida katta ahamiyatga ega bo'ldi.

24.2. Al-Xorazmiyning pedagogik qarashlari

Muhammad al-Xorazmiy (783-850) insonning kamolga etishi va insoniy munosabatlarni yo'lga qo'yishda ilm-fanning muhim ahamiyati to'g'risidagi g'oyani ilgari surgan.

Alloma o'ziga o'xshash bo'lgan ilmiy bilimlarning asosiy g'oyalari, metodlarini sintezlashtirdi. U ilmiy bilimlarni o'rganuvchilarning mustaqil bilim olishlariga e'tiborni qaratdi.

Xorazmiy bilim olishda talabning shaxsiy kuzatishlariga hamda olgan bilimlardan foydalanishga katta e'tibor berdi. Bunda u ilm izlovchilarning ilmiy manbalarni to'plash, ularni ifodalash va kuzatganlarni tushintira olish malakalarini hosil qilishga katta baho berdi. Masalan, «Al-kitob al-muxtasar fi hisob al-jabr val muqobala» asarida olimlarni uch guruhga bo'lib, shunday yozadi: «Ulardan biri o'zidan avvalgilarni qilgan ishlarini amalga oshirishda boshqalardan o'zib ketadi va uni o'zidan keyin qoluvchilarga meros qilib qoldiradi. Boshqasi o'zidan avvalgilarning asarlarini sharhlaydi va bu bilan qiyinchiliklarni osonlashtiradi, yopiqni ochadi, yo'lni yoritadi va uni tushunarliroq qiladi. Yoki bu ayrim kitoblarda nuqsonlar topadigan va sochilib yotganni to'playdigan odam bo'lib, u o'zidan avvalgilarni haqida yaxshi fikrda bo'ladi, takabburlik qilmaydi va o'zi qilgan ishidan mag'rurlanmaydi».

Muhammad al-Xorazmiyning bu fikrlari bir tomondan, olimlar faoliyatining ezgulikka xizmat qilishini yoritadi; ikkinchi tomondan, o'sha davrda ilmiy tadqiqot ishlari va o'qitishning metod va vositalaridan qay darajada foydalanganligini ko'rsatadi.

Barcha mutafakkirlar kabi Muhammad al-Xorazmiy ham ko'rgazmali-tajriba metodlari, bilim berishning turli vositalari, savol-javob, malaka va ko'nikmalarni shakllantirish metodlari, bilimlarni sinash metodlaridan foydalangan. Muhammad al-Xorazmiy bilishni sezgidan mantiqiy tasavvur orqali farq qilish haqida fikr bayon etgan: sezgi orqali bilish bu qisman bilish bo'lsa, mantiqiy bilish haqiqiy bilimning muhim tomonini namoyon etadi.

Muhammad al-Xorazmiy bilish nazariyasiga muhim hissa qo'shdi. U birinchilardan bo'lib, sinov-kuzatish va sinov metodlariga asos soldi. Alloma ilmiy faoliyatining metodologik jihatlariga katta ahamiyat berdi.

24.3. A.N. Forobiyning asarlarida pedagogik fikrlar

Abu Nasr Forobiy hijriy 260-yil (milodiy 873-yil)da Shosh - Toshkentga yaqin Forob (O'tror) degan joyda harbiy xizmatchi oilasida tug'ilgan. Forobda boshlang'ich ta'limni olgach, Shoshda, Buxoroda, Samarqandda ta'lim olganligi haqida ma'lumotlar bor. Lekin arab halifaligining yirik madaniy markazi Bag'dodga turli tomonlardan kelgan olimlar yig'ilganligi, uning yirik ilmiy markazga aylanganligi tuyfayli Forobiy ham ilm olish istagida Bag'dodga jo'na'yd. Bag'dodda Forobiy turli fan sohaslarini o'rganadi. Masalan, unga yunon tilida Abu Bashar Matta (Matta ibn Yunus), tibbiyot va mantiqdan Yuxanna ibn Haylon (Jilon) ta'lim bergan. Umuman, Forobiy Bag'doda matematika, mantiq, tibbiyot, ilmiy nujum, musiqa, tabiiyot, huquq, tilshunoslik, poetika bilan shug'ullandi, turli tillarni o'rgandi.

Ba'zi manbalarda Forobiy 70 dan oshiq tilni bilganligi haqida gapiriladi.

Abu Nasr Forobiy qomusiy olim hisoblanadi. Tadqiqotchilar uning 160 dan ortiq ilmiy asar yaratganligini qayd etadilar.

Forobiy taxminan 941-yillardan boshlab Damashqda yashaydi. Shahar chekkasidagi bog'da qorovul bo'lib ishlaydi va faqirona hayot kechirib, ilmiy ish bilan shug'ullanadi. 943-967-yillari esa Halabda yashaydi. 949-950-yillarida Misrda ham bo'lgan. So'ng yana Damashqqa qaytib, shu yerda 950-yili vafot etgan. Damashqdagi «Bob as-sag'ir» qabristoniga dafn qilingan. Abu Nasr Forobiy ilm-fan taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan olim. U tabiiy, ilmiy va ijtimoiy bilim-larning barcha sohaslarida ilmiy ish olib borgan. Forobiy o'zidan keyin juda boy ilmiy meros qoldirgan. Falsafa, musiqa, filologiya va boshqa tabiiy, ilmiy bilim-larning turli sohaslarida asarlar yaratgan. Demak, Forobiy inson baxt- saodatga erishuvi uchun ularni baxtli-saodatli qila oladigan jamoa rahbari bo'lishi kerak deydi.

Forobiy odamlarni turli belgilarga qarab guruhlariga bo'ladi. Bunda u kishilarning diniy mansabiga, millatiga, irqiga qarab emas, balki tabiiy xususiyatlari, qobiliyatlari, iqtidori, bilim ko'rmaklariga e'tibor berish zarur, deydi. U o'zning «Baxt-saodatga erishuv yo'llari haqida risola» asarida «Davlatning vazifasi insonlarni baxt-saodatga olib borishdir, deb yozadi. Bu esa ilm va yaxshi axloq yordamida qo'lga kiritiladi. Forobiy davlatni yetuk shaxs boshqarishi lozim, deydi; ya'ni jamoani idora etuvchi adolatli, dono bo'lishi, qonunlarga rioya etishi va qonunlar yarata olishi, kelgusini oldindan ko'ra olishi, boshqalarga g'amxo'r bo'lishi lozim deydi.

Forobiy ta'lim-tarbiyaga bag'ishlangan asarlarida ta'lim-tarbiyada mamlakatlarga e'tibor berish zarurligi, ta'lim-tarbiya usullari va uslubi haqida fikr yuritadi - «Fozil odamlar shahri», «Baxt saodatga erishuv to'g'risida», «Ixxo al-ulum», «Ilmlarning kelib chiqishi», «Aql ma'nolari to'g'risida» kabi asarlarida allomaning ijtimoiy-tarbiyaviy qarashlari ifoda topgan.

Forobiy ta'lim-tarbiyani uzviy birlikda olib borish haqida ta'lim bergan bo'lsa ham, ammo har birining insonni kamolga yetkazishda o'z o'rni bo'rligini alohida ta'kidlaydi.

Forobiy «Baxt-saodatga erishuv to'g'risida» asarida bilimlarni o'rganish tartibi haqida fikr yuritadi. Uning ta'kidlashicha, avval bilish zarur bo'lgan ilm o'rganiladi, bu - olam asoslari haqidagi imdir. Uni o'rgangach, tabiiy ilmlarni, tabiiy jismlar tuzilishini, shaklini, osmon haqidagi bilimlarni o'rganish lozim. Undan so'ng, umuman, jonli tabiat, o'simlik va hayvonlar haqidagi ilm o'rganiladi, deydi.

Forobiy inson kamolotga yolg'iz o'zi erisha olmaydi. U boshqalar bilan aloqada bo'lish, ularning ko'maklashuvi yoki munosabatlariga muhtoj bo'ladi. Uning fikricha, tarbiya jaravoni tajribali pedagog, o'qituvchi tomonidan tashkil etilishi muhim. Chunki har bir odam ham baxtni va narsa-hodisalarni o'zicha bila olmaydi. Unga o'qituvchi lozim.

Forobiy ta'lim-tarbiyaning asosiy vazifasi jamiyat talablariga javob bera oladigan va shu jamiyat uchun xizmat qiladigan yetuk insonni tarbiyalashdan iborat deb biladi.

Forobiy ta'lim va tarbiyaga birinchi marta ta'rif bergan olim sanaladi. Ta'limni - insonga o'qitish, tushuntirish asosida nazariy bilim berish; tarbiya - muayyan hunarni egallash uchun zarur bo'lgan axloq normalari va amaliy malakalarni o'rgatishdir, deydi olim.

Ta'lim faqat so'z va o'rgatish bilangina bo'ladi. Tarbiya esa, amaliy ish, tajriba bilan, ya'ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalardan iborat bo'lgan ish-harakat, kasb-hunarga berilgan bo'lishi o'rganishdir.

Forobiy nazariy bilimlarni egallashga kirishgan har bir kishi xulq-odobda ham qay darajada pok bo'lishi kerakligini uqtiradi. Bunga xulq-axloqni faqat so'zdagina emas, balki haqiqatda (amalda) tozalash orqali erishish mumkin. Shunday so'ng xato va adashishdan saqlovchi, haqiqat yo'limi tushunib olishga bosh-lovchi (notiq - so'zlovchi, fikrlash ma'nosida) nafsini, jonini, ruhini tozalash zarur.

Forobiy axloqiy fazilatlar deganda bilimdonlik, donolik va mulohazali bo'lish, vijdonlilik, kamtarlik, ko'pchilik manfaatini yuqori qo'yish, haqiqat, ma'naviy yuksaklikka intilish, adolatlilik kabi xislatlarni tushunadi. Ammo bu xislatlarning eng muhumi har bir insonning bilimi, ma'rifatli bo'lishidir. Shuning uchun ham Forobiy axloq tushunchasiga aql bilan uzviy bog'liq holda, tafakkurga asoslangan axloq sifatida qaraydi. Bundan biz Forobiyning axloqni xulq me'yorlari ifodasi sifatidagina emas, balki kishilar aqliy faoliyatining natijasi sifatida ham talqin etganligini ko'ramiz. Forobiy «Aql ma'nolari haqida» risolasida aql masalasini tahlil qilib, aql bilish haqidagi ta'limotda mantiq (logika) ilmi muhim o'rin tutadi, deydi. U mantiq ilmi bilan grammatika o'rtasidagi mushtaraklikni qayd etib, mantiqning aqlga munosabati, grammatikaning tilga munosabati kabidir; grammatika odamlar nutqini tarbiyalagan kabi, mantiq ilmi ham tafakkurni haqiqiy yo'lga yo'naltirib turadi, deydi.

Forobiy ta'limda barcha fanlarning nazariy asoslari o'rganilsa, tarbivada ma'naviy-axloqiy qoidalar, odob me'yorlari o'rganiladi, kasb-hunarga oid malakalar hosil qilinadi, deb uqtiradi.

Bu muhim vazifa tajribali tarbiyachilar tomonidan turli metodlar yordamida amalga oshiriladi. Forobiy ta'lim - tarbiya ishlarini ikki yo'l bilan amalga oshirishni nazarda tutadi.

Amaliy fazilatlar va amaliy san'at (kasb-hunar)lar va ularni bajarishga odatlanish masalasiga kelganda, bu odat ikki yo'l bilan hosil qilinadi: bulardan birinchisi — qanoatbaxsh, chorlovchi, ilhomlantiruvchi so'zlar yordamida odat hosil qilinadi, malaka vujudga keltiriladi, odamdagi g'ayrat, qasd-intilish harakatga aylantiriladi.

Ikkinchi yo'l (yoki usul) - majbur etish yo'li. Bu usul gapga ko'nmovchi, qaysar shaharliklar va boshqa sahroyi xalqlarga nisbatan qo'llaniladi. Chunki ular o'z istaklaricha so'z bilan g'ayratga kiradiganlardan emaslar. Ulardan birortasi nazariy bilimlarni o'rganishga kirishsa, uning fazilati yaxshi bo'ladi. Kasb-hunarlarini, san'atini egallashga intilish bo'lmasa, bunday odamlarni majbur etmaslik kerak. Chunki shahar xalqlariga tarbiya berishdan maqsad - ularni ijobiy fazilat egasi qilib, san'at ahlilariga aylantirishdir.

Demak, Forobiy ta'lim-tarbiyada rag'batlantirish, odatlantirish, majbur etish metodlarini ilgari surgan. Har ikkala usul ham pirovardida insonni har tomonlama kamolga yetkazish maqsadini ko'zlaydi.

Xulosa qilib aytganda, Forobiy pedagogik ta'limotning asosida komil insonni shakllantirish, insonni o'z mohiyati bilan ijtimoiy, va'ni faqat jamiyatda, o'zaro munosabatlar jarayonida komillikka erishadi, degan falsafiy qarashi turadi.

24.4. Al-Beruniyning ilmiy pedagogik qarashlari

Qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy (milodiy 973-yil 4-sentabr) da Xorazmning Qiyot (Kot) shahrida dunyoga keldi. Boshlang'ich ta'limni olgach, o'sha davrda fan-madaniyat taraqqiy etgan Xorazmning peshqadam olimlaridan saboq oladi

Beruniy Xorazm tili bilan birga, arab, so'g'd, fors, suryoniy, yunon tillarini, hatto qadimgi hind tili sanskritni ham o'rgangan. U yunon klassik ilmi, astronomiya, falsafa, geografiya, botanika, matematika, geologiya, tarix, etnografiya, filologiyadan ham chuqur bilim oladi.

Beruniy yirik olim Abu Nasr ibn Iroqdan Yevklid geometriyasi, Ptolomeyning astronomik ta'limotlaridan dars olgan.

Bundan tashqari, o'zidan oldin o'tgan Muhammad Xorazmiy, geograf olim Abul Abbos, Ahmad Farg'oniy, Marvaziy, Javhariy, Abu Nasr Forobiy, Abul Vafo Juzjoniy, sevestonlik Abu Said as-Sijiy, Abu Muhammad Hamid Xo'jandiy va boshqalarning asarlarini mustaqil o'rganadi.

995-yilgacha Beruniy astronomiya, geografiya, geodeziyaning amaliy masalalarini hal etish bilan birga, Sharqda birinchi bo'lib, globus yasadi va astronomiyaga oid bir necha kitob yozdi («Kartografiya», «Globus yasash kitobi», «Yerdagi joylarning uzunlama va kenglamalarini aniqlash haqida maqola» va boshqalar).

Beruniy hali yosh olim bo'lishiga qaramay, Kotda 994-995-villari astronomik asboblarni ixtiro qilib kuzatishlar o'tkazgan.

O'sha davrda Kaspiy bo'yi viloyatlarida Qobus ibn Vushmagir yosh olimga xayrixohlik ko'rsatadi, «Shamsal-ma'aliy» («Oliy martabalar quyoshi») laqabi bilan mashhur bo'lgan bu podshohga bag'ishlab Beruniy «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarini yozadi va unga taqdim etadi. Bu asar Beruniy nomini Yaqin va O'rta Sharqqa mashhur qildi.

1004-yili Beruniy Ma'mun II ibn Ma'mun tomonidan Xorazmga chaqirib olinadi va uning yaqin maslahatchisi etib tayinlanadi.

Ma'mun davrida Urganchda «Majlisi ulamo» - «Ma'mun akademiyasi» nomli ilmiy markaz tashkil etiladi va u yerda musulmon Sharqning yirik olimlari faoliyat ko'rsatadilar.

Beruniy bir necha yil kamyob maetallar va qimmatbaho toshlar ustida tajribalar olib boradi va keyinchalik ana shu tadqiqotlari asosida «Mineralogiya» asarini yaratadi.

1017-1018-yillari yana taxt va hokimiyat uchun kurash bo'shlanib. Movarounnahrda Qoraxoniylar davlati barpo etiladi. Xurosonda Mahmud G'aznaviy (998-1030) hukmronligi o'rnatilib, qoraxoniylar bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq Xorazm Mahmud G'aznaviy davlatiga tobe bo'ladi.

Ma'mun akademiyasidagi ko'plab olimlar qatori Beruniy ham g'aznaga olib ketiladi va u yerda ijodini davom ettiradi.

1030-yili Buruniy o'zining Sharq va G'arbda keng e'tirof qilingan mashhur «Hindiston» asarini yaratadi.

Kitobning to'liq nomi «Hindlarning aqlga sig'adigan va sig'maydigan ta'limotlarini aniqlash kitobi» bo'lib, aytishga qulay bo'lishligi uchun qisqacha «Hindistonga oid tadqiqqlar» yoki «Hindiston» deb yuritiladi.

Akademik V.R.Rozen asarni «Sharq va g'arbning qadimgi va o'rta asrdagi butun ilmiy adabiyoti orasida bunga teng keladigan asar yo'q», -deb baholaydi. Hindiston olimi Hamid Rizo esa, olim haqida gapirib, «Hind madaniyatining chugal muammolarini biron-bir o'rta asr yoki hozirgi zamon muallifi Abu Rayhon Beruniydek muvaffaqiyatli ravishda tushunib yetmagan. Uning «Hindiston» asari qadimgi Hind madaniyati va fanining klassik namunasi bo'lib qoladi», deydi.

Asarda Beruniyning Hindiston haqidagi barcha qarashlari o'z ifodasini topgan.

1030-yili Mahmud G'aznaviy vafot etadi. Uning kichik o'g'li Muhammad voris sifatida taxtga o'tirgan bo'lsada, ko'p o'tmay Mahmudning katta o'g'li Mas'ud (1030-1041) ukasini taxtdan ag'darib, o'zi hokimiyatni qo'lga oladi. Bilimdon va zukko, ilm ahlini qadrlovchi Mas'ud Beruniyning o'z himoyasiga olib, uning ijod qilishiga sharoit yaratib beradi.

Beruniyning ilmiy bilimlarni egallash yo'llari, usullari haqidagi fikrlari hozirgi davr uchun ham dolzarbdir. O'quvchiga bilim berishda:

- o'quvchini zeriktirmaslik;
- bilim berishda bir xil narsani yoki bir xil fanni o'rgatavermaslik;
- uzviylik, izchillik;
- tahlil qilish va taqqoslash;
- ma'lumdan noma'lumga, yaqindan uzoqqa, soddadan qiyungga qarab

borish.

- takrorlash;

- yangi mavzulami qiziqarli, asosan, ko'rgazmali bayon etishga e'tibor berish kerakligi uqtiladi.

Beruniy fan sohasidagi yodgorliklarni, ilmiy bilimlarga oid qoldirilgan barcha boyliklarni qunt bilan o'rganishga da'vat etadi.

Olim ilm toliblariga qalbni yomon illatlardan, inson o'zi sezishi mumkin bo'lmagan holatlardan, qotib qolgan urf-odatlardan, hirsdan, behuda raqobatdan, ochko'zlikdan, shon-shuhratdan saqlanish zarurligini uqtirgan.

U barcha illatlarining asosiy sababi ilmsizlikda deb biladi. Ilmlarni egallashda esa shaxsda intilish va qiziqish, muhitni alohida ko'rsatib o'tadi.

Bilim olishda tushumb o'rganish, ilmiy tadqiqotchining poklikka rioya etishiga alohida e'tibor beradi. Jamiyatning ravnaqi, ma'rifatning rivojiga bog'liq degan g'oyani ilgari suradi.

Beruniy bilim olishni axloqiy tarbiya bilan bog'laydi. Zero, insonda komillikning muhim mezonu yuksak axloqlilikdir, deydi .

Beruniy inson kamolotida axloqiy tarbiyaning muhim o'rmini ta'kidlashini uning yuqorida qayd etilgan «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», «Hindiston», «Mineralogiya», «Kitob as-Saydana», «al-Qonuni al-Mas'udiy», «Giodenziya» va boshqa asarlarida ko'ramiz.

Beruniyning fikricha, axloqlilik insonning eng asosiy sifati bo'lishi kerak. Bu xislat birdaniga tarkib topmaydi. U kishilarning o'zaro mulqoti, ijtimoiy muhit - jamiyat taraqqiyoti jarayonida tarkib topadi.

Beruniy axloqiy tarbiyaga musulmon dini talablaridan kelib chiqqan holda ta'rif beradi. Axloqivlik yaxshilik bilan yomonlik o'rtasidagi kurash natijasida namoyon bo'ladi va tarkib topadi, deydi u. Yaxshilik va yomonlik insonning xulq-atvorini belgilaydigan mezondir.

Insonning axloqiy kamolga yetishi muammosi ta'lim-tarbiyada markaziy masala bo'lib kelgan.

Abu Rayhon Beruniy ezgu tilakka yetishga to'sqinlik qiluvchi ziqnalik, yolg'onchilik, munofiqlik, manmanlik, takabburlik kabi nuqsonlarni qoralaydi, boylikka ruju qo'yish va ta'inagirlik, g'azab va johillik inson uchun eng ashaddiy dushman deb qaraydi.

Mutafakkir jamiyatda adolat o'rnatish, uni yovuzliklardan halos etish uchun dono, adolatli hukmdor bo'lishi kerak, deydi.

Beruniy kundalik turmush masalalariga ham katta e'tibor bergan. Har bir axloqan barkamol inson o'zining turmush tarzini uyg'un, go'zal eta oladi. Uyg'unlik, go'zallik va nafosatning asosi sanaladi. Beruniy insoniy xislatlardan muhimi - ozodlik, tarbiyalilik bo'lsa, insonga eng yaqin narsa uning tabiati, ruhi, deydi. Shuning uchun inson o'z tabiatiga yoqadigan ishlarni bajarishi zarur, deb ko'rsatadi. Bunda insonning ichki dunyosi bilan tashqi go'zalligi, turmush tarzidagi go'zallikning uyg'un bo'lishi talab etiladi. Bunga inson kiyadigan kiyimidan kundalik turmushdagi vuriish-turushi, so'zi, qalbi, qilgan ishi - hammasining go'zal bo'lishi kerakligi ta'kidlangan.

Har bir shaxsda sharm-havo, ozodalik, nafis did, iffat, latofat, shimsuxanlikning tarkib topishi turmushning go'zal bo'lishiga olib keladi

Olimning inson turmushiga xos xulq-odob qoidalari haqidagi fikrlari pedagogik jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Inson ham ichki, ham tashqi tomondan go'zal bo'lsagina haqiqiy kamolotga erishishi mumkin. U ozodlikni olijanoblik bilan tenglashtiradi. Inson doimo bularga rioya etishi zarur, deb ta'kidlaydi. Bunda inson o'zini boshqara olishga qodir bo'lishi, har bir yetuk inson uchun zarur bo'lgan xislatlarni tarkib toptirishda kuch va irodaga ega bo'lishi zarur, deydi. «Minerologiya» asarida bu fikrni quyidagicha ifodalaydi: «Inson o'z ehtiroslariga hukmron, ularni o'zgartirishga qodir, o'z jon va tanini tarbiyalar ekan. salbiy jihatlarni maqtogulik narsalarga aylantirishga hamda asta-sekin, axloq haqidagi kitoblarda ko'rsatilgan usullar bilan ilatlarni bartaraf etishga qodirdir».

Beruniy insonni kamolotga yetaklovchi xislatlardan yana biri ohjanoblik deb ko'rsatadi.

Olijanoblikning mazmunini yaxshilik tashkil etadi. Bunda olim insonga inson sifatida muomala qilishni nazarda tutadi.

Eng muhimi, mutafakkir inson kamolotida mehnat va mehnat tarbiyasi haqida muhim fikrlarni bayon etadi. U har bir hunar egasining mehnatiga qarab turlarga bo'ladi. Og'ir mehnat sifatida binokor, ko'mir qazuvchi, hunarmand, fan sohiblari mehnatini keltiradi. Ayniqsa ilm ahli - olimlar mehnatiga alohida e'tibor berish. hayrixoh bo'lishga chaqiradi, ularni ma'rifat tarqatuvchilar, jamiyat ravnaqiga hissa qo'shuvchilar deb, biladi: shu bilan birga, og'ir mehnat qiluvchi konchilar, yer ostida gavhar izlovchilar, dehqonlar haqida gapirib, ularning mehnatini rag'batlantirib turish kerak, deydi. Ayniqsa, podshohlar bunday mehnat ahliga g'amho'r bo'lishi kerakligini alohida eslatadi. Chunki ana shu mehnat ahli ular hukmronligining tayanchi, deb ta'kidlaydi.

Olim bolalarni mehnatga o'rgatish metodlari, yo'llari haqida ham fikr yuritadi. Masalan, bolalarni eng kichik yoshidan mehnatga o'rgatish kerak, deydi. Mehnat tarbiyasida o'sha davr tarbiya an'anasiga binoan katta ahamiyat beradi. Buni E.To'raqulov va S.Rahimov «Abu Rayhon Beruniy ruhiyat va ta'lim-tarbiya haqida» nomli risolalarida juda yaxshi bayon etganlar. Shuning uchun ham Beruniy inson har tomonlama kamolga yetishi uchun u ilmli bo'lishi bilan birga, mehnatsevar va hunar egasi bo'lishi ham kerak, deydi.

Beruniy inson kamolotida uch narsa muhimligini ta'kidlaydi. Bu hozirgi davr pedagogikasi ham e'tirof qiluvchi irsiyat, muhit, tarbiyadir.

Muayyan bir davrda olimlar inson kamolotiga irsiyat, muhitning ta'sirini inkor etib, faqat tarbiyani tan oldilar. Lekin Beruniy o'z zamondoshlari - buyuk mutafakkirlar Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino kabi inson kamolotida har uchalarini ham muhim deb hisoblaydi. Ya'ni u insonning kamolotga yetishida ilmu ma'rifat, san'at va amaliyot asosiy o'rin tutadi, nasl-nasab, ijtimoiy muhit va ijtimoiy turmush qonuniyatlari ham katta ahamiyatga ega bo'ladi, deydi.

Abu Rayhon Beruniy nazarida, inson kamolga yetishining eng muhim omillari ilm-ma'rifatli bo'lish va yuksak axloqlilikdir. Beruniy ilmiv bilishga oid, ta'lim metodlari haqidagi qarashlari bilan ta'lim nazariyasida o'ziga xos maktab yaratdi.

Yoshlarni tarbiyalashda esa axloqiy tarbiya, mehnat tarbiyasi, nafosat tarbiyasi, oila tarbiyasi, insonning shaxsiy g'iyenasi, xalqlar o'rtasidagi do'stlik, hamkorlik haqidagi tushunchalar katta ahamiyatga egadir. Olim axloqlilikning

belgilari sifatida yaxshilik, to'g'rilik, adolat, kamtarlik, saxovat, olijanoblik, do'stlik va hamkorlik, mehnat va humar egallash, poklik, go'zallikka intilish kabllarni ilgari surgan. Bularning barchasini u yaratgan asarlaridagi ijtimoiy- falsafiy fikrlarga bog'lab tushuntirgan.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, Beruniyning komil insonni shakllantirishga oid fikrlari faqat o'z zamonasi uchun emas, hozirgi davr ta'lim-tarbiya ishlarini takomillashtirishda ham katta ahamiyatga ega.

Zero, uning o'zi ham haqiqiy komil insonga xos xislatlarga ega ekanligini, hayotiy va ijodiy faoliyati, yozgan asarlari bilan isbotlab, kelajak avlodlarga katta ma'naviy meros qoldirdi.

Beruniy Sharq uyg'onish davri qomusiy olimlaridan biri sifatida nom qozondi.

Mashhur sharqshunos olim J.Sarton jahon fani tarixida XI asming birinchi yarmini Beruniy davri deb atadi. Uni o'z davrining jahondagi birinchi donushmandi deb baholadi.

Beruniyning ham tabiiy, ham ijtimoiy fanlarni qanrab olgan 150 dan ortiq yirik ilmiy asarlar yaratganligi ham bu fikrning g'oyat o'rinli ekanligini tasdiqlaydi.

24.5. Yu.X.Hojibning «Qutadg'u bilig» asari pandnoma asar sifatida

Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» («Baxt saodatga eltuvchi bilim, ta'lim» degan ma'noni bildiradi) asari ta'limiy - axloqiy asar sifatida pedagogika tarixida eng yuqori o'rinlarda turadi. «Qutadg'u bilig» pand-nasihati, ta'lim-tarbiya, tarkamol insonni tarbiyalash masalalariga oid yetuk didaktik asardir. Asar 6500 baytdan yoki 13000 misradan iborat. Mazkur asarning shuhrat topishiga sabab, u o'z asarida tibbiyot, falakiyot, tarix, tabiiyot, jo'g'rofiya, riyoziyot, xandasa, falsafa, adabiyot, diplomatiya, fiqh sohasiga oid fikrlarni bayon etib, faylasuf va olim sifatida tanildi. Shuning uchun ham «Qutadg'u bilig»ni chinliklar (Xitoy) «Adab ul-nuluk» («Hukmdorlar odobi»), mochinliklar (Sharqiy Turkiston) «Anis ul-namolik» («Mamlakatning tartib usuli»), eronliklar «Shohnomai turkiy», Sharqda «Ziynal ul-umar» («Amirlar ziynati»), turonliklar «Qutadg'u bilig», ba'zilar esa «Pandnomai muluk» («Hukmdorlar nasihatnomasi») deb ataydilar.

Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asarini ilmiy jihatdan o'rganishga juda ko'p olimlar hissa qo'shgan. V.V.Radlov, H.Vamberi, S.E.Malov, S.N.Ivanovlar uni tarjima etib, nashr qilgan bo'lsalar, V.V.Bartold, E.E.Bertels,

V.Stebleva, O.A.Valitova har tomonlama tadqiq etdilar.

«Qutadg'u bilig» axloq va odob, ta'lim va tarbiya hamda ma'lum ma'naviy tamolotning yo'l-yo'riqlarini, usullarini, chora-tadbirlarini mujassamlashtirgan qomusiy asardir. Bu asar tom ma'nosi bilan didaktik ruhda yozilgan ta'lim-tarbiya, odob-axloq va hikmat dasrligidir. Yusuf Xos Hojib asarda asosiy g'oyani Kuntug'di, Dyto'ldi, O'g'dulmish va O'zg'urmish deb nomlanuvchi to'rt qahramonning suhbatlari, munosabatlari asosida ishonarli qilib bayon etadi.

Yuqorida ta'kidlangan to'rt qahramonning suhbatlari, munozaralari asosida Yusuf Xos Hojib o'z maqsad va g'oyalarini bayon etadi.

Masalan, Oyoʻldining elig bilan uchrashuvida uning Elig sinovidan oʻtish jarayomidagi savol-javoblar natijasida davlatning sifati va fazilatlarini, uning bevafoqligi va behohligi, adolatning xislatlari, el-yurt boshqaruvchilarining xislatlari bayon etiladi.

Oyoʻldining oʻgʻli Oʻgdulmish bilan Eligning suhbatida esa saroy amaldorlari: beklar, vazirlar, lashkarboʻshilar, hojiblar, elchilar, sarkotib, xazinador, dasturxonchilar, sharobdorlarning oʻz xizmatkorlariga munosabati qanday boʻlishi kerakligi bayon etiladi.

Yusuf Xos Hojibning «Qutadgʻu bilig» asarida inson kamoloti masalasi markaziy masala boʻlib hisoblanadi. Mazkur asarda insonning jamiyat va hayotda tutgan oʻmi, burch va vazifalari haqidagi muammolar oʻziga xos tarzda bayon etiladi.

Buyuk mutafakkir Yusuf Xos Hojib «Qutadgʻu bilig» asarida ilm- maʼrifatning ahamiyatini koʻrsatibgina qolmaydi, u bilim va zakovatning amaliyotdagi oʻrni ham yoritadi. U bilimni buyuk, uquvni ulugʻ deb taʼriflaydi. Chunki zakovatli inson ulugʻ boʻladi, bilimli kishi buyuk boʻladi, deb ilmi kishilarni asl toifadagi kishilarga qoʻshadi. Olim ezgu ishlarning barchasi ilm tufayli amalga oshirilishini aytadi. Oʻsha davridayoq olim «Bilim hatto osmon sari yoʻl ochur» deb bashorat qiladi.

U dunyoda odam paydo boʻlibdiki, faqat bilimli kishilargina ezgu ish qilib, adolatlilik siyosat yurguzib kelgan, ana shu bilim va zakovatli tufayli kishilar razolatdan poklangan deydi. Hatto hukmdorlar ham yurtini, davlatni aql, ilm, zakovat bilan idora etsa, el-yurt farovon boʻladi, toʻq va tinch hayot kechiradi, deydi. U kuch va qurolni aql va bilimdan keyingi ikkinchi oʻringa qoʻyadi.

Yusuf Xos Hojib oilaviy-maishiy turmush ikir-chikirlariga ham katta eʼtibor beradi. U kishilarni oʻylab oila qurishdan farzand tarbiya etish, oilaning moddiy taʼminotini bilishgacha boʻlgan eng ezgu zaruriy vazifalarni birma-bir bayon etadi. Allohning fikricha, faqat oilaviy hayot orqaligina faravon hayotga erishish mumkin. Oilaviy hayot tarzi sogʻlom turmush tarzining bir qismidir. Kamolotga ham oilaviy tarbiya, oilaviy munosabatlarning yuksakligi, sadoqat, oilaviy totuvlik orqali erishish mumkinligini taʼkidlaydi. Shu oʻrinda buyuk mutafakkir farzandni oilada tarbiyalash masalasiga alohida eʼtibor beradi.

Yigitlik va keksalik fasllari haqida ham fikr yuritib, yigitlikni ehtivot qilish, yigitlik davrida qarilarning gʻamini yeyish, bu toʻgʻrida qaygʻurish kabi zaruriy narsalar haqida tavsiyalar beradi.

Yusuf Xos Hojib ilmi, maʼrifatli kishilarni qadrlash kerak, chunki ular mashʼala kabi yoʻlni yoritib, toʻgʻri yoʻl koʻrsatadi, yaxshi-yomonni farq etishni oʻrgatadi, deydi. Shuning uchun olimlarni hurmat etish kerakligini taʼkidlab, ilm ahlini oʻta qadrlasa, ilmsizlarni johil kishilar deb biladi. Dunyoda inson bilim va zakovatli tufayli orzu-tilaklarga, ulugʻlikka erishishi mumkinligini aytadi.

Olim bilimni ziyoga, tengi yoʻq javohirga oʻxshatib, u insonni yuksaltiradi, jahonning sir-asrorini bilib olishga yordam beradi, deydi. Insoniyat nimaga erishgan boʻlsa, bilim tufayli erishganligini taʼkidlaydi. Ammo bu boylikni hech kim oʻgʻiray olmaydi, deb bilim va zakovatni muqaddas doʻst, mehribon qarindosh, kiyim va ozuqa sifatida taʼriflaydi.

Mutafakkir o'zining axloqiy qarashlarini, ya'ni ijtimoiy munosabatlar, jamiyat a'zolarining barcha tiplari o'rtasidagi axloqiy munosabatlarni amaliyotga tayangan holda yoritadi. Bu axloqiy, xulq-odob prinsiplari, talab va vazifalari butun asar davomida qahramonlarning o'zaro munosabatlari asosida ifodalangan. Unda Elig(xon), uning vakillari, ijtimoiy guruhlarning o'zaro munosabati, axloqi, muomalasi, talablari bayon etiladi, turli kasb egalariga xos xislatlar, odatlar yoritiladi.

Mutafakkir ta'lim-tarbiya, axloq masalalarini insoniylik, rostgo'ylik, to'g'rilik, soflik, mehr-muhabbat, vafo, shafqat, muruvvat, insof, adolat, ishonch, sadoqat, xushmuomalalik, shirinso'zlik, saxovat, mardlik, himmatlilik, tavoze, hurmat va ehtirom, tadbirkorlik. Aql-zakovat, halollik, ezgulik kabi xislatlarni ulug'laydi, ularga yolg'onchilik, noinsoflik, fisqu fasod, bevafoqlik, dag'allik, qo'pollik, baxillik, nomardlik, quvlik, hurmatsizlik, nodonlik, johillik, haromxo'rlik, ochko'zlik kabi xislatlarni qiyoslab, ezgu xislatlarning yaxshi samaralari va salbiy xususiyatlarning yomon oqibatlarini misollar vositasida ishonarli qilib bayon etadi.

Insoniy munosabatlarning eng oliy mezonini sanalgan hurmat va ehtiromni tarkib toptirishning barcha ko'rinishlari asarda o'z ifodasini topgan. Mutafakkir ulug'lar va kichiklar o'rtasidagi xulq-odob qoidalarini haqida gapirar ekan, shu asnoda kamtarlik, salomlashish odobi, talablari, qoidalarini ham tavsiya etadi. Yusuf Xos Hojib tarbiyada kattalar namunasi, ajdodlar tajribasi alohida ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi.

Olim insonning turli marosimlar, yig'inlar, uchrashuvlar, ziyofatlarda o'zini tutishi, xulq-odob qoidalariga rioya etishi haqida fikr yuritib, mehmon va mezbonlik qoidalari, shartlari, tartib-intizomlari haqida muhim o'gitlar beradi. Masalan, «Qutadg'u bilig»dagi elchilar (diplomatlar) huzurida, shohlar saroyida, to'y va aza marosimlarida kishi o'zini qanday tutishi, odobi masalalari hozirgi davrda ham o'ta dolzarbdir.

Yusuf Xos Hojib «Qutadg'u bilig» asarini yozishda Sharqda keng yoyilgan o'git-nasihat janriga doir asarlarga tayanib ish ko'rsa ham mulohazalarni bayon etishda hayotiy dalillarga ko'proq murojaat etadi.

Yusuf Xos Hojibning o'zi kishilarga munosabatda o'rtaicha yo'l tutishni tavsiya etadi. Shunda do'st dushmanga aylanmaydi, ezgu ishlar amalga osha boradi.

Xulosa qilib aytganda, Yusuf Xos Hojibning mazkur asari insonni har tomonlama kamolga yetkazishda yirik asar bo'lib, u o'zining ilmiy, ma'naviy - ma'rifiy, tarbiyaviy ahamiyatini e'tirof etish zarur.

2.4.6 A.Yugnakiyning «Hibat-ul haqoyiq» asarida didaktik qarashlar

XII asr borshlarida yozilgan «Hibat ul-haqoyiq» («Haqiqatlar armug'oni») Ahmad Yugnakiyning qalamiga mansub asardir. Qaraxoniylar hukumronligi davrida yaratilgan ushbu ta'limiy-axloqiy asar mazmun jihatdan o'z davrning ijtimoiy-siyosiy, diniy, axloqiy hamda iqtisodiy masalalari, ularning o'ziga xos xususiyatlari, kishilar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar mohiyati borasidagi qarashlarni ifodalab bergan.

«Hibat ul-haqoyiq» asari o'n to'rt bobdan iborat bo'lib, mazkur boblar o'zida 512 misrani mujassam etgan. Dostonning dastlabki to'rt bobi an'anaga ko'ra, muqaddima bo'lib, beshinchi hamda o'n to'rtinchi boblarda asosiy g'oyalar ifoda etiladi. Asarda til odobi, sir saqlash, ilmning foydasi, saxiylik, kamtarlik, shukronalik, ta'zim-tavoze, insonparvarlik, kasbkorga mehr qo'yish, rizo va qanoat, halollik haqida pand - nasihatlar berilgan. Muallif asarda johllik, dilozorlik, achchiqzabonlik, ochko'zlik, noshukurlik, takabburlik, mol-dunyoga xirs qo'yishlik qattiq qoralagan.

Mutafakkir «Hibat ul-haqoyiq»ning birinchi bobldayoq ilm manfaati, ilmsizlik va jaholatning zarari haqida fikr bildiradi. Ilmi va ilmsiz kishini bir-biri bilan taqqoslash asosida ilm-ma'rifatning afzalligi, uning inson uchun qay darajada foydali ekanligini ochib berar ekan, bilimli insonni qimmatbaho dinorga, bilimsiz kishini esa qimmat-siz ilikka o'xshatib, er kishining ko'rki aql, deya ta'kidlaydi. Ilmi inson o'z ilmi bilan mag'rur bo'lib, nomi o'chmagani holda, ilmsiz kishi garchi tirik bo'lsada, nomi o'lik ekanligini e'tirof etadi. Alloma bilim egallash kishini yuksaklarga ko'tarsa, ilmsizlik tubanlikka tomon yetaklashiga alohida urg'u beradi.

Olim bilimli kishilarni mukammal kishilar sanaydi. Chunki bilimlilik barcha yaxshi ishlar va ezguliklarning omili bo'lsa, bilimsizlik razolatga yo'l ochadi.

Asarida, boshqa ta'limiy-axloqiy masalalardagi kabi, insonning barkamol-ligidan dalolat beruvchi ikkinchi belgi - uning xushxulqligidir, degan g'oya ilgari suriladi. Shuning uchun adib asarda axloqlilikning asosiy mezonlari bo'lgan ijobiy xislatlar va inson qiyofasida ularning qay darajada aks etishi yuzasidan fikr yuritadi va mol-dunyoga muhabbat qo'yishning salbiy xislat ekanligini alohida ta'kidlaydi.

Olimning ta'kidlashicha, insonning ma'naviy-axloqiy qiyofasini ko'rsatuvchi muhim belgilaridan birinchisi - til odobidir. Uning fikricha, tilni tiymaslik, huda-behuda so'zlarni aytaverish boshga balo keltiradi.

Tilingni tiy, tishing sinmasin, agar (so'zlab yuborsang) tishing chiqib qolsa, tishingni sindiradi, deya behuda so'zlashning yomon oqibatlari xususida o'z qarashlarini ilgari suradi.

Allomaning nuqtayi nazariga ko'ra, kishida quyidagi ikki holat, ya'ni haddan ziyod ko'p gapirish va ayni vaqtda yolg'on so'zlash odatlari mavjud bo'lsa, u holda unga nisbatan muruvvat yo'li yopiladi. Shunga ko'ra, adib, yolg'on va ko'p so'zlashning oldini olish yo'llarini ko'rsatib berishga urinadi.

Adib to'g'ri so'zlash bilan birga, sir saqlay olish xislatining ham insonga xos bo'lgan ijobiy fazilatlardan biri deya e'tirof etadi hamda ushbu fazilatni o'zlashtirish xususida bir qator foydali maslahatlarni beradi.

Inson sir saqlanishi lozim deb hisoblagan voqea yoki hodisa yuzasidan hatto do'stga ham gapirmasligi shartligiga alohida urg'u beradi. Zero, kishining o'ziki sir saqlay olmagan ekan, boshqalar ham shunday yo'l tutishi mumkin.

Asarning to'rtinchi bo'limida saxovat va baxillik kabi sifatlarning mohiyati hamda ularning oqibatlari yoritib berilgan. Ahmad Yugnakiy saxovatni eng ezgu insoniy xislatlardan biri deb biladi. Saxiyalar hamma tomondan ulug'lanib, faqat yaxshi va nuqsonsiz nom qoldirishi mumkinligini ta'kidlar ekan, qo'llar ichida in'om beruvchisi baxtli (qo'l)dir, o'zi olib, boshqalarga bermagan (qo'l) qo'llarning qutsizidir, deydi. Baxillik xislatini esa alloma davolab bo'lmaydigan kasallikka qiyoslaydi.

Ahmad Yugnakiy saxiylikni kamolot belgisi deb tushunadi. Saxiylik xislatiga nisbatan baxillik va ochko'zlik kabi illatlar qarama-qarshi qo'yiladi, boylik to'plab, yemay-ichmay, boshqalarga bermay yashagan kishining mol- dunyosi oxiri do'stga emas, dushmanga buyurishi xususidagi fikrlarni bildiradi.

Ahmad Yugnakiy kamtarlik ham insonning yetuklik darajasini ko'rsatuvchi belgilardan biri bo'lib, kibrli va xasis bo'lish insonni ruhan tubanlashtiradi, degan fikrni ilgari suradi.

Kimki kibru havoga berilib, boshqalardan o'zini baland tutsa, uni hech kim hurmat qilmaydi, aksincha, tavozeli, kamtar va muloyimlik sifatlariga ega bo'lishni esa insonning husni deb hisoblaydi.

U yaxshi xulq-odobni shakllantirish va yomon illatlardan soqit bo'lish yo'llarini ham tavsiya etadi. Masalan, boylik to'plashga mukkasidan ketgan kiishlarga mo'tadil hayot kechirishni maslahat beradi. Insonlarga boshchilik qilayotgan amaldor, mansabdor kishilarning o'z mavqelariga yarasha ish tutishlari, kattaga ham, kichikka ham birdek muruvvat ko'rsatishlari, so'zlarini muloyim qilishlari maqsadga muvofiq ekanligini alohida ta'kidlaydi.

Adib do'st hamda dushmanning farqiga borish, yaxshi kishilarni do'st tutish, badxulq kishilardan tizozqroq yurish, do'st tanlashda xato qilmaslik kerakligini ta'kidlaydi.

Ahmad Yugnakiy ham o'zining insonni kamolga yetkazish borasidagi qarashlari bilan pedagogik fikr taraqqiyotida o'z o'rniga ega. U «Hibat ul-haqoyiq» asarida komil insonni shakllantirishning o'ziga xos tamoyilini yaratadi hamda barkamol insonni quyidagicha ifodalaydi:

- yuksak darajada nazariy va amaliy bilimlarni egallash;
- til va so'z odobiga rioya etish;
- o'zida halollik, rostgo'ylik, kamtarlik, qanoatlilik, samimiylik kabi xislatlarni namoyon eta olish;
- vafodor do'st bo'lish va hokazolar.

Olimning nuqtayi nazariga ko'ra, o'zgaralar sirini saqlay olish, kamgaplik har bir so'zni o'z o'rnida va lozim topilgandagina so'zlash, yuqori mansab yoki mavqega ega bo'lganda kattalarga hurmat, kichiklarga izzat ko'rsata olish kishining obro'siga obro' qo'shuvchi sifatlar bo'libgina qolmay, ayni vaqtda, ijtimoiy munosabatlarni tashkil etish jarayonida yuzaga kelish ehtimoli bo'lgan salbiy holatlarning oldini oladi. Ahmad Yugnakiy insonda baxillik, ochko'zlik, yolg'onchilik, ikkiyuzlamachilik, takabburlik, zolimlik, jaholat, tanballik, shoshqaloqlik, bilimsizlik, sabrsizlik, ko'p gapirish va hokazo xislatlarning mavjudgi esa kishilar o'rtasida adovat, o'zaro urush-janjallarning kelib chiqishida asosiy omil bo'lib xizmat qilishini alohida qayd etadi.

24.7. Kaykovusning «Qobusnoma» asarining tarbiyaviy ahamiyati

Kaykovus 412-hijriy yili (milodiy 1021-1022) tug'ilgan. Uning avlodlari gil'on qabilasidan bo'lib. Tabaristonda (hozirda Kaspiy dengizining janubidagi hudud) yashaganlar.

Kaykovus o'z hayot faoliyati davomida tajribalarga asoslanib o'zining buyuk «Qobusnoma» asarini yaratdi. Kitobni u o'g'li Gilonshohga bag'ishlagan. Bu paytda Kaykovus taxminan oltmish yoshlarda edi.

«Qobusnoma» Sharqda saqlanib kelayotgan an'anaga ko'ra pand-nasihatchilik tarzida yozilgan bo'lib, mana bir necha asrlardan buyon xalqlarni, jumladan yoshlarni hayotga, amaliy faoliyatga tayyorlashda, ularni har tomonlama yetuk inson qilib tarbiyalashda muhim qo'llanma bo'lib kelmoqda.

Lekin asarning «Qobusnoma» deb atalishining sababi, uning umuman Qobusga aloqasi haqida eslatilmaydi.

Kitob Eronda sakkiz marta nashr etilgan. Bularning eng mukammali mashhur olim Rizoqulixon Hidovat tomonidan 1890-1891 -yillari chop etilgan nashri hisoblanadi. Asar keyinchalik Bombayda, Isfahonda Fatxulla ibn Amulla Vali Urduni Baxtiyoriy tomonidan chop etildi.

Bundan tashqari, «Qobusnoma» ko'plab Sharq va G'arb tillariga tarjima qilinib, nashr etilgan. Jumladan, 1432 -yili Merjomak Ahmad ibn Ilyos tomonidan, 1705-yil Hasanposha Nazmizoda Murtazo tomonidan, 1881-yili Qozon tatarlari tilida Qavum Nosiriy tomonidan, 1860-yili Muhammad Rizo Ogahiy tomonidan o'zbek tiliga, g'arb tillaridan — nemis, fransuz, ingliz tillariga tarjima qilingan.

Tarixiy manbalarda Qobusning arab tilida yozgan, uchta kitobdan iborat mashhur «Nomalar»ni bo'lganligi qayd etiladi. Bular «Kamol al-balag'» («Suxandonlik kamoloti»), maqol va hikmatlar to'g'risidagi «Al-forida fil amsal val adab» («Nodir nomalar»), «Risola fil iftixor va kitob» («Tanbeh va maqto'v nomalari»)dir.

«Qobusnoma» murakkab yo'lni bo'shib o'tdi. Sho'ro mafkurasi davrida asarning insonni aqliy, axloqiy tarbiyalashdagi ahamiyati hokim sinf axloqini targ'ib qilish deb baholandi. Kaykovusning Vatan haqidagi, kasb-hunarni ulug'lovchi, bilimlarni egallash haqidagi fikrlari, diniy qarashlari siyosiy nuqtayi nazardan qoralanadi. Asarning qiymati faqat uning adabiy-badiiy, til xususiyati va tarixiy jihatlari deb ta'kidlandi.

Ammo «Qobusnoma» asariga davr va shart-sharoitlar, siyosiy qarashlar ta'sirida qay darajada soya tashlanmasin, bu asar mashhur hind asari «Kalila va Dimna», Nizomul-mulkning «Siyosatnoma», Nosir Hirsavning «Saodatnoma», Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig», Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'atit-turk», Sa'diyning «Guliston», Ahmad Yugnakiyning «Hibbat ul-haqoyiq», Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub», Voriz Koshifiyning «Axloqi Muhsiniy», Davoniyning «Axloqi Jaloliy» kabi axloqiy-talimiy asarlari bilan bir qatorda Sharq pedagogik fikr taraqqiyotida inson kamolotini shakllantirishda muhim o'rinni egallaydi. Unda Sharq pandnomalaridagi an'anaga binoan va XI asrda paydo bo'lgan yoshlar jamoasi juvonnardlik tarbiyasi ifodalandi. Muallif juvonnardlik haqida eng oxirgi bobda so'z yuritadi. U odamlarning xislatlarini uch xilga bo'ladi: biri aql, biri rostlik va yana biri juvonnardlikdir. Juvonnardlikni asosini Kaykovus uch narsada deb biladi. Birinchisi, aytgan so'zning ustidan chiqish, ya'ni rostlik. Ikkinchisi rostlikka xilof qilmak; uchinchisi, xayrli ishni ilgari tutish.

Insondagi boshqa barcha xislatlar shu uch narsaga bog'liq, deydi Kaykovus. Juvonnardlikning ustunlarini (ruklari) quyidagilarda deb ko'rsatadi: jasurlik

mardlik, sabr-matonat, va'daga vafo qilmoq, pokdil va pokzabon bo'lmoq; asirlarga ziyon yetkazmaslik, bechora kishilarga madad berib, yomonlarning yomonlig'idan yaxshilarni yiroq tutish, rostgo'ylik, yaxshiga yomonlik qilmaslik, ziyon-zahmatdan saqlash, odamlarga ziyon-zahmat yetkazmaslik. Juvonmard sipoxiyalar esa sabr-bardosh bilan ish tutishlari, kamtarlik va mehmondo'stlik, saxiylik, to'g'rilik, pok kiyinish, yaxshi qurollanishi zarurligini qayd etadi.

Mazkur bobda yana juvonmardlik yo'lini tanlagan yoshlarga uch narsadan o'zini: ko'zni yomon nazardan, qo'lni yomon ishdan, tilni yomon so'zdan saqlashni tavsiya etadi.

Uch narsani do'st va dushmanga ochiq tut: uy eshigini, sufra boshini, hamyonning bog'ichini, deydi. So'ng hamma vaqt rostgo'y bo'lish. xiyonat qilmaslik ham juvonmardlikning ko'rinishlaridan, deb biladi. Kaykovus juvonmardlikning kamolot nuqtasini ko'rsatuvchi mezon deb o'z mol-mulkini o'zganikidan ajrata bilish, xalq mulkiga ta'ma qilmaslik, bironing mol-mulkiga xiyonat qilmaslik, xalqqa yomonlik qilmaslik, qanoatli bo'lish kabilarda deb biladi.

Kaykovus shunday deydi: «... barcha fikr va tushunchalarimning sening uchun kitobga yozdim va har bir ilm, ham hunar va har peshakim bilur edim, hammasini qirq to'rt bobda bayon etdim». Kitobda juvonmardlar egallashi zarur bo'lgan quyidagi yo'nalishlarda ta'lim-tarbiya berish nazarda tutilgan:

1. Kaykovus bilim olish haqida.
2. Hunar va turli kasb egalari haqida.
3. Turmush va xulq-odob qoidalari haqida.
4. Jismoniy yetuklik haqida.

Chunki har bir juvonmard uchun tan, jon, havos va maoniy, ya'ni ham sipoxiylik, ham marifat, ham donishmandlikka ega bo'lish zarur bo'lib, bu xislatlar ana shu yuqoridagi to'rt yo'nalishda zikr etilgan. Kaykovus ilmni uchga bo'ladi: biror kasb-hunarga bog'liq bo'lgan ilm, ilm bilan bo'g'liq kasb-hunar hamda xayr va dalolatga taalluqli odat.

Birinchisiga, ya'ni biror kasb bilan bog'liq ilmlarga tabiblik, munajjimlik, muhandislik, yero'lehash va boshqalar kiritiladi. Ilmga taalluqli kasblar musiqa asboblari ustasi, hayvonlarni davolovchi, binokorlik va boshqalar bo'lib, har qanday usta bo'lsa ham bu boradagi ilmni bilmasa, hech ish qila olmasligi ta'kidlanadi.

Ilm olish yo'liga kirgan taliblariga ham yo'llanmalar beradi:

Hamma vaqt parhezli va qanoatli bo'lish, bokorchilikdan o'zini tiyish, doimo shod-xurram va harakatchan bo'lish, kitob o'qishga berilish, ilm yolida qayg'u-hasaratga berilmashk, ilmni yodda saqlash uchun takrorlab borish, yod olish, ilmda haqiqat uchun kurashish, taqlid qilmaslik, doimo o'z yonida kitob va boshqa o'quv qurollarini saqlash, oz so'zlab, ko'p tinglash haqida fikr bildiradi. Ilm yo'lida munozaradan chekinmaslik, lekin uni janjalga aylantirmaslik, isbot va dalillar bilan o'z fikrini bayon qilish zarurligini ta'kidlaydi. Yana u olimning aytgani bilan qilgan ishi bir bo'lishi kerakligi, ilmni chuqur o'rganish, har bir kasb, sohaning bilimdoni bo'lishda doimo kamtar, oqil, xalqparvar, har bir narsani oldindan ko'ra oladigan bo'lish kerakligini ham ko'rsatib o'tadi. Zero, ilmni faqat kitobdan o'rganish bilan cheklanib qolmay, aql, tafakkur bilan hukm chiqarish zarurligini ham ta'kidlaydi. Ana shu talablar asosida u tijorat ilmi, tib ilmi, nujura (yulduzlar) ilmi, handasa

(geometriya) ilmi borasida o'z qarashlarini tarbiyalashda ularga ilmu odob o'rgatishlari zarurligi ta'kidlanadi.

Kaykovus bilim va aqlning ahamiyatini ulug'lar ekan, uni mol-dunyodan yuqori qo'yadi: «Agar molsizlikdan qashshoq bo'lsang, aqlidan bo'y bo'lmoqqa sa'y ko'rguzginki, mol bila bo'y bo'lg'andan, aql bila bo'y bo'lg'on yaxshiroqdur, nedinkim aql bila faol jam etsa bo'lar, ammo mol bila aql o'rganib bo'lmas. Bilg'il, aql bir moldurki, uni o'g'ri ololmas, u o'tda yonmas, suvga oqmas»— deb ta'riflar ekan, inson adabi ham aqlning belgisi («al-adab-suratil aql»), deya xulosa chiqaradi.

Kaykovus jarmiyat taraqqiyotida ilm bilan birga kasb-hunarning ham zarurligini ta'kidlaydi: «Agar kishi har qancha oliynasab va aslzoda bo'lsayu, ammo hunari bo'lmasa, u haloyiqning izzat va hurmatidan noumid bo'lur. Ulug'lik aql va bilim biladur, nasl-nasab bilan emas. Otni senga ota va onang qo'ymishlar, sen unga mag'rur bo'lmag'il... Ammo sen hunar bila bir nomga ega bo'lg'il». Shuning uchun ham asarda turli kasb egalari ulug'lanadi. Kasb-hunar o'rganishni bilim olish bilan qo'shib olib borishni tavsiya etiladi. Fan amaliyot bilan uzviy aloqada qaraladi. Kaykovusning bu qarashlari o'sha davmning ilg'or qarashlaridandir.

«Qobusnoma»da yoshlar tarbiyasida - juvonmardlik talablaridan eng muhimi — axloq tarbiyasi deb ko'rsatiladi. U yoshlarda insonga nisbatan insoniy munosabatda bo'lish, adolatlilik, samiylik, saxiylik kabi xislatlarni tarkib toptinshni istaydi va asarning bo'shidan oxirigacha ana shu ezgu maqsadni amalga oshirishga harakat qiladi

Ko'rtinib turibdiki, Kaykovus qarashlarida inson tarbiyasi omili muhim o'rin tutadi.

U axloqlilikning birinchi belgisi suxandonlik deb biladi. U (suxango'ylik) notiqlikda rost so'zlash kerakligini ta'kidlaydi. Kaykovus so'zlarni to'rt xilga bo'lgani kabi odamlarni ham to'rt xilga bo'ladi. Birinchi xil kishilar ko'p narsani biladi va yana bilgisi kelaveradi. Bular olimlar bo'lib, ularga bo'ysunish kerak, deydi. Ikkinchisi, bilmagan narsasini bilishga harakat qiladi, ular qobil kishilar bo'lib, bunday kishilarga o'rgatish kerak. Uchinchisi, bilganini ham bilmaydi, uyquda yashagandek, ularni «uyg'otish» kerak. To'rtinchisi, bilmaydi va bilmaganini tan olmaydi. Bular johil kishilar bo'lib, ulardan qochish kerak, deydi.

So'zlarning esa birinchi xili bilinmaydi va aytilmaydi; ikkinchisi aytiladigan va biladigan; uchinchisi ham bilinadi, ham bilishga zarurati vo'q, ammo aytsa bo'ladi. To'rtinchisi, bilinadigan va aytiladigan. Eng yaxshisi, to'rtinchisi, ya'ni bilinadigan va aytiladigani, deydi. So'zlaganda andishali bo'lish, sovuqso'zli bo'lmaslik, kam gapirish, kamtarlik, maqtanmaslik, birovning so'zini diqqat bilan eshitish odoblarini ta'kidlaydi.

Kaykovus vuksak axloqlilikning yana bir tarkibiy qismi do'stlik deb biladi va do'st tutmoq odobi haqida fikr bayon etar ekan, uning asosiy talablarini talqin etadi

Kaykovus, avvalo, inson do'stsiz bo'lgandan ko'ra, birodarsiz bo'lgani durustdir, deydi. Kishining do'sti qancha ko'p bo'lsa, aybi shuncha sir tutiladi va fazilati ko'pavadi. Kaykovus qivinchiliklarda hamdard, tavanch bo'ladigan, sadoqatli, ta'magir, hasadgo'y bo'lmagan, aqli, ilmi, muruvvatli kishilarni do'st tutish mumkin, deb ta'kidlaydi. Do'st bilan dushmani ajrata bilish, dushman oldida

o'zini ojiz ko'rsatmaslik, kuchli dushman va xiyonatchi, chaqimchi, sir ochuvchi do'stdan saqlanishni maslahat beradi.

Kaykovus do'stlikni insonning kamolotini ko'rsatuvchi axloqiy xislatlardan biri sifatida talqin etgan.

«Qobusnoma»da jismoniy tarbiyaga ham katta ahamiyat berilgan. Zero, Kaykovus asarini juvonnardlar tarbiyasiga bag'ishlar ekan, ularning eng avvalo jismonan sog'lom bo'lib kamolga yetishini alohida ta'kidlaydi.

Buni biz asardagi «Shikorga chiqmoq zikrida», «Urush qilmoq zikrida», «Chavgon o'ynamoq zikrida». «Sipohsolarlik shartlari va odatlari zikrida» va boshqa boblarda ko'ramiz.

Kaykovus, avvalo har bir tartibli, aqlli kishi o'z vaqtini to'g'ri taqsimlashi va undan to'g'ri foydalanishini tavsiya etadi. «Hushmand (aqlli) kishilar o'zlarining har bir ishlanga aniq vaqtni tayin etibdurlar. Ular kecha va kunduzning yigirma to'rt soatini o'z ishlariga taqsim qilibdurlar. Bir ishni yana bir ishdan farq etib, unga vaqt, had (chegara) va andoza (o'lchov) paydo qilibdurlar, toki ishlar bir-biriga aralashmag'ay».

Kaykovus inson o'z tanining toza, pokiza bo'lishiga ham e'tibor berishi kerak, deydi. Uning «Hammomga borish zikrida», «Uxlamog va osuda bo'lmoq zikrida», «Tamkin sharofatining va taom tartibining bayoni» kabi boblarida uxlamog, yemoq-ichmog, hammomga bormog qoidalari asosida yoshlarga jismoniy-axloqiy tarbiya asoslari singdirilgan.

Demak, «Qobusnoma» XI asrda yuzaga kelgan yirik tarbiyaviy asardir. Bunda o'sha davrga xos har bir yosh egallashi zarur bo'lgan aqliy, axloqiy, jismoniy tarbiya bilan bog'liq faoliyat turlari: otda yurish, merganlik, suvda suzish, harbiy mashqlar san'ati, ifodali o'qish, hattotlik san'ati, she'r yoza olish, musiqiy bilimga ega bo'lish, shatranj va nard o'yinini bilish kabilar ham o'z ifodasini topgan. Kaykovusning katta xizmati shundaki, u yoshlarni hayotga tayyorlashda ularni har tomonlama kamolga yetkazishning nazariy masalalarini amaliy faoliyatga tatbiqi nuqtayi nazaridan ifodalashi bilan hamma zamonlarda, har qanday tuzumda ham o'z qadr-qimmatini yo'qotmadi va amaliy hayot dasturi sifatida o'z o'rninga ega bo'ldi.

Nazorat uchun savollar

- 1 IX-XI asrlar sharq uyg'onish davrini izohlang.
- 2 Al-Xorazmiyning pedagogik qarashlari mohiyatini ochib bering.
- 3 A N Forobiy asarlarida pedagogik fikrlarni izohlang.
- 4 Al-Beruniyning pedagogik qarashlari mazmunini tavsirlang.
- 5 Yu.X.Hojibning «Qutadg'u bilig» asari mazmun mohiyatini izohlang.
- 6 A. Yugnakivning «Hibbat-ul haqoyiq» asaridagi didaktik g'oyalarni mazmunini tasvirlang.
- 7 Kaykovusning «Qobusnoma» asarining tarbiyaviy ahamiyati nimada?

25. XIV ASRNING IKKINCHI YARMI VA XVI ASR MOVAROUNNAHRDA TARBIYA, MAKTAB VA PEDAGOGIK FIKRLAR RIVOJI

25.1. Ijtimoiy hayotning ta'lim-tarbiya, maorif pedagogik fikrlar rivojlanishiga ta'siri.

25.2. Amir Temurning maorif rivojlanishiga qo'shgan hissasi.

25.3. Mirzo Ulug'bekning pedagogik g'oyalari.

25.4. Boburning pedagogik fikrlari.

25.1. Ijtimoiy hayotning ta'lim-tarbiya, maorif pedagogik fikrlar rivojlanishiga ta'siri

Tarixdan bizga ma'lumki, Movarounnahrda qariyb bir yarim asr davomida Movarounnahr mo'g'ul istilochilari tomonidan vayron etildi. Fan-madaniyat, ma'rifatga juda katta putur yetkazildi. Xonavayron bo'lgan Movarounnahr xalqi XIV asrning boshlariga kelib, mo'g'ul istilochilari zulmidan qutila boshladi. Movarounnahrda kuchli davlat tuzishga bo'lgan intilish g'olib keldi. Mo'g'ul istilochilariga qarshi Buxoroda xalq Mahmud Torobiy boshchiligida qo'zg'aldi. Samarqand va Xurosonda esa Sarbadorlar qo'zg'olonlari ro'y berdi. Natijada Sarbadorlar uzoq muddat hatto hokimiyatni ham boshqarib turdilar.

XVI asrning o'rtalarida Markaziy Osiyoda mayda feodal hokimlar o'rtasida nizo kuchaydi. iqtisodiy qiyinchiliklar yuz berdi. siyosatda qat'iyatsizlik avj oldi. Hokimlar o'rtasida nizolar kuchayishi natijasida mamlakat 10 ta mustaqil beklik va amirliklarga bo'linib ketdi. Beklar va amirlar o'rtasida o'zaro kurash kuchaydi. mamlakat urush va tolon-tarojlar iskanjasida qoldi. Shunday og'ir bir parokandalik vaziyatda el-yurtning og'ir yukini Amir Temur o'z yelkasiga oldi va qariyb 10 yil (1360-1370) davom etgan og'ir kurashdan so'ng mamlakatni mo'g'ullar istibdodidan halos qildi. 1370-1380-yillar mobaynida Amir Temur say'i harakatlari samarasi natijasida beklar va amirlar o'rtasida nizolarga barham berildi va Movarounnahrda tarqoq, amirliklar markazlashgan yagona feodal davlatning bayrog'i ostida birlashtirildi.

Shunday qilib, XVI asrning ikkinchi yarmida Movarounnahrning feodal tarqoqligiga barham berildi, mamlakat mo'g'ul bosqinchilaridan tozalandi. XIV asrning oxiri XVI asrlarda Markaziy Osiyoda feodal munosabatlar yanada rivoj topa boshladi. Sohıbqiron Temur va dastlabki temuriylar hukmronlik qilgan davr Movarounnahr tarixida alohida o'rin egalladi. Markazlashgan buyuk Temur davlatining barpo etilishi bilan Movarounnahrda yana fan va madaniyat, maorif qaytadan ravnaq topa boshladi. Shuning uchun ham tarixda XIV asrning ikkinchi yarmi va O'rta Osiyoda Sharq o'yg'onish davrining ikkinchi bosqichi deyalishi bejiz emas... chunki, bu davrga kelib, Markaziy Osiyoda iqtisodiyot, fan va madaniyat gurkirab rivojlandi. Amir Temur Ko'ragon ibn Muhammad Tarag'ay bahodir 1336-yilning 9- aprelida hozirgi Shahrisabzga qarashli Xojailg'or qishlog'ida tavallud topgan.

Temurbek bilim olishni yetti yoshidan boshlagan. 9 yoshidan Qur'oni hofiz bo'lgan, 12 yoshidan katta hayot yo'li - Vatanimizni mo'g'ullar zulmudan ozod etish haqida o'ylay boshlagan.

Ta'lim-tarbiya va ilm-fanga hissa qo'shgan Amir Temur farzandlari, nabiralari, avlodlari: Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur, Sulton Husayn Boyqaro, Humoyun Mirzo, Komron Mirzo, Hindol Mirzo, Gulbadanbegim va boshqalardir.

Bir so'z bilan aytganda, XIV asrning ikkinchi yarmidan XVII asrgacha bo'lgan davr Movarounnahrda iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy yuksalish davri bo'ldi. Markazlashgan davlatning asoschisi Amir Temur o'tmishda Turon deb atalmish davlatning iqtisodiy va madaniy qudratini yuksaklikka ko'tarib, uni Ovrupa va Sharqda eng qudratli davlatga aylantirishga erishdi. Amir Temurning Ko'ragon - xon kuyovi, Qutbiddin - zamona peshvosi, Abulmansur - zafarmand, g'alaba qozonuvchi, Sohirqiron - yulduz, baxtli burjlarida tug'ilgan kabi unvonlari bo'lgan. Buyuk saltanat sohibi Amir Temur «Kuch - adolatdadir» degan shiorga qat'iy amal qilib, davlatni boshqargan. Uning tamg'asi naqshi «Rosti-durusti» («To'g'ri bo'lsang qutulasan») yoki «Haqgo'y bo'lsang najot topasan» degan ma'noni bildiradi.

25.3. Mirzo Ulug'bekning pedagogik g'oyalari

Mirzo Ulug'bek Movarounnahrda, butun O'rta Osiyoda madaniy rivojlanish, dunyoviy ilmlarga qiziqish kuchaygan davrda yashagan, ijod etgan. O'rta Osiyo xalqlari ilm-fani va madaniyatini jahon miqyosiga olib chiqqan ulug' siymolardandir. U 1394-yil 22-martda tug'ilgan. Otasi Shohruh Mirzo Amir Temurning uchinchi o'g'li bo'lib, Xuroson hukmdori, ma'rifatli, ilm-fanga qiziqqan shoh edi.

Ma'rifatparvar ota-ona o'z farzandlari Ulug'bekning tarbiyasiga alohida e'tibor berib, jismonan sog'lom, aql-zakovat, axloq-odob va ilmida barkamol bo'lib yetishiga harakat qildilar. Ulug'bekni o'z davrining bilimdoni va tajnbali murabbiylari tarbiyalab savodini chiqardilar, uni diniy va dunyoviy ilmlarning asosi bilan tanishtirdilar. Ulug'bek arab va fors tillarini mukammal o'rgandi, ko'p vaqtini kutubxonada mutoala qilish bilan o'tkazadi.

Mirzo Ulug'bek 1424-yilda Samarqandda Obirahmat arig'i yonida G'iyosiddin Jamshid, Abduali Birjandiy, Mansur Koshiy, Maryam Chalabiy va boshqa olimlar bilan birgalikda qurgan Rasadxonasida sayyoralar sirini o'rgandi. Natijada Ulug'bek 1018 ta yulduzning holati va harakatini aniqlaydi, astronomiyaga doir bir necha asarlar yozadi. Bu asarlarning asosiy mazmunini «Z'ji jadidi Ko'ragoniy» deb ataluvchi astronomiya jadvali tashkil etadi.

Ulug'bekning astronomiya maktabi o'z davrining akademiyasi («Dorul - ilm») bo'lgan va O'rta asrlar musulmon Sharqi astronomiyasining rivojiga katta ta'sir qilgan. Bu maktab dastavval bundan 225 yil muqaddam mashhur fransuz faylasufi, yozuvchi va tarixchi olim Volter (1669-1778) tomonidan e'tirof etilgan.

25.4. Boburning pedagogik fikrlari

Zahiriddin Muhammad Bobur 1483-yilning 14-fevralida Andijonda, Fargʻona hokimi Umar Shayx Mirzo oilasida dunyoga keldi. Bu davrda Markaziy Osiyo va Xurosonda turli hokimlar, aka-ukalar, togʻa-jijyanlar, amakivachchalar oʻrtasida hokimiyat ulugʻ bobolari Amir Temur tuzgan yirik davlatga egalik qilish uchun kurash nihoyat keskinlashgan edi.

Ilmga yoshligidan mehr qoʻygan Zahiriddin Muhammad Bobur barcha Temuriy shahzodalar kabi oʻz dunyoqarashidagi bilimlar asosini otasi saroyida yetuk ustozlar rahbarligida egalladi. Biroq uning betashvish yoshligi uzoqqa choʻzilmadi. 1494-yili otadan yetim qoldi. 12 yoshida otasi oʻrniga Fargʻona ulusining hokimi etib koʻtarilgan Bobur butun aqliy qobiliyatini, irodasini qilichga almashtirib, Andijon taxti uchun ukasi Jahongir Mirzo, amakisi Sulton Ahmad Mirzo, togʻasi Sulton Mahmudxon va boshqa qarindosh raqiblariga qarshi kurashishga majbur boʻldi. Bobur ukasi Jahongir Mirzo bilan murosaga kelish uchun unga yon berishga Fargʻona ulusini 2 ga taqsimlab, yarmini ukasiga topshirishga qaror qildi va oʻzi Samarqand uchun olib borilayotgan kurashga otlandi. Bir necha yil davom etgan bu kurashda Shayboniynonning qoʻli baland kelib Bobur Samarqandni tashlab ketishga majbur boʻldi. 1504-yili Shayboniynon Andijonni ham qoʻlga kiritgandan soʻng Bobur janubga qarab yoʻl oldi va Qobul ulusida oʻz hokimiyatini oʻrnatdi. Keyinchalik 1526-1527 yillarda Bobur Hindistonga yurish qiladi. Ibrohim Loʻdi ustidan gʻalaba qozonib, Hindisonda «Boburiylar sulolasi»ga asos soladi. Bobur bu gʻalabadan keyin uzoq yashamadi. 1530-yil dekabr oyida Agra shahrida vafot etdi va keyinroq vasiyatiga koʻra farzandlari uning hokimi Qobulga olib kelib dafn etdilar.

«Bobur Hindistonga kelgandan keyin davlatning ijtimoiy hayotida katta siljish yuz berdi va yangi hayotni boshlab bergan sanʼatga, ilm-maʼrifatga, arxitekturaga toza havo baxsh etgan, madaniyat va maʼnaviyatni barcha sohalarini bir-biriga tutashtirib bergan buyuk shaxsdir» deydi Javaharlal Neru.

Boburning ilmiy maʼnaviy, tarixiy, adabiy merosini oʻrganish va ommalashtirishda XIX-XX asrda Georg Kerr, N. Ilminskiy, O. Senkovskiy, M. Sale, Porso Shamsiyev, Sodiq Mirzayev, V. Zohidov, Ya. Gʻulomov, R. Nabiyev, S. Azimjonova, A. Qayumov kabi olimlarning saʼy-harakatlari katta boʻldi.

Bobur oʻzining maʼlum va mashhur asarlari bilan maʼrifatni xalq orasiga yoyishga, ilm va jamoat ravnaqi yoʻlida xizmat qilishga intildi. Tarix, adabiyot, ijtimoiy masalalar vechimiga oʻz hissasini qoʻshgan olim sifatida xalqimiz maʼnaviy madaniyati tarixida munosib oʻrin egallaydi.

Nazorat uchun savollar

1. XIV-XVI asrlarda ijtimoiy hayotning taʼlim-tarbiyaga taʼsirini izohlang
2. Amir Temurning maonif rivjolanishiga qoʻshgan hissasini asoslang.
3. Mirzo Ulugʻbekning pedagogik gʻoyalarning mazmun-mohiyatini oʻqib bering?
4. Boburning pedagogik fikrlarini izohlang?

26. XIV ASRNING IKKINCHI YARMI XVI ASRDA MOVAROVUNNAHARDA PEDAGOGIK FIKRLAR RIVOJI

26.1. Alisher Navoiy asarlarida ta'lim-tarbiya masalalari.

26.2. A. Jomiyning pedagogik qarashlari.

26.3. J. Davoniyning pedagogik qarashlari.

26.1. Alisher Navoiy asarlarida ta'lim- tarbiya masalalari

Alisher Navoiy yosh avlodning ilm-hunar egallashini va eng yaxshi insoniy fazilatlarga ega kishilar bo'lishini orzu qiladi. Uning ta'lim-tarbiya sohasidagi fikrlarida insonparvarlik g'oyalari markaziy o'rinda turadi. Navoiyning fikricha, inson dunyoda hammadan yuksak va qadrlidir.

Alisher Navoiy bolaning voyaga yetishida, kamol topishida tarbiyaning kuch-qudratiga alohida e'tibor beradi. Navoiy fikricha, oqil, qobiliyatli, dono inson o'zining kuch-quvvatiga, aqlu-zakovatiga ishonadi. Shuning uchun Navoiy ilm-fanning ahamiyatini yoritib berar ekan, ilmi qorong'ulikni yorituvchi chiroq, hayot yo'limi nurafshon etadigan quyosh, odamlarning haqiqiy qiyofasini ko'rsatadigan omil sifatida ta'riflaydi.

Kishilarning pok qalbli, rostgo'y, adolatli bo'lishi Navoiyning buyuk armonidir. Navoiyning ta'kidlashicha, to'g'ri va chun so'zlagan kishilar mo'tabar, pok ko'ngilli, xalq nazdida ishonchli va obro'li bo'ladilar. Haqiqiy inson to'g'ri so'zlashi va to'g'ri bo'lishi kerak.

26.2. A.Jomiyning pedagogik qarashlari

Abdurahmon Jomiy XV asrda yashagan mutafakkirlar kabi inson va uning yuksak axloqiy xislatlari, go'zal fazilatlarini tarannum etish orqali kishilarning baxt-saodatini ta'minlash yo'llari xususidagi g'oyalarni ifoda etadi. Allomaning to'liq ismi Nuriddin Abdurahmon ibn Ahmad bo'lib, u 1414-yilning 7-noyabrda Jom shahrida tavallud topgan. Abdurahmon Jomiyning oilasi keyinchalik Hirot shahriga ko'chib o'tadi. Bu davrda Xurosonda Shohruh Mirzo hukmronlik qilar, Hirot shahri esa eng yirik madaniy markazlardan biri sanalardi. Yosh Nuriddin Abdurahmon maktabga juda erta qatnay boshlagan. Uning otasi o'z davrning ziyoli kishilaridan biri bo'lganligi uchun o'g'lining bolalikdan bilim olishiga katta e'tibor bergan.

Jomiy asarlarida yetuk inson tarbiyasiga oid ma'naviy-axloqiy sifatlar har tomonlama asoslangan holda berilgan bo'lib, bugungi jamiyatimizning bosh muddaosi bo'lmish komil inson tarbiyasini amalga oshirish uchun katta ahamiyat kasb etadi. Jomiy o'zining «Silsila tuz zahab» («Oltin tizmalar») dostonidagi «Sevimli aziz farzandinga nasihat» bobida, eng avvalo har bir yosh bilim olishi zarurligi, chunki inson umri juda qisqa bo'lib, bu umrni behuda o'tkazmasligi, ammo bilim olgandan so'ng unga amal qilish lozimligini ta'kidlaydi va amaliyosiz ilm ham behuda ekanligini alohida uqtirib o'tadi.

Shuningdek «Nasihat» bobida yoshlikning qadriga yetish, elga manfaat keltirish, yaxshilikka yaxshilik bilan javob qaytarish, do'stlarga mehribon va

sadoqatli bo'lish, baxillikdan hazar qilib ehson tomon yuz tutish, kitobga ufat bo'lib, uni beminnat ustoz bilish, ma'rifatga oshno bo'lib, manmanlik va takabburlikdan saqlanish, va'daga vafo qilish, muloyimlikni peshva qilib donolar nasihatidan bahramand bo'lishni uqtirib o'tadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, alloma o'z asarlarida insonni ulug'lavdi, uni ma'naviy kamolot darajasiga ko'tarishning asosiy mezonlaridan biri bilimlilik, aqliy kamolotning yuksak darajasiga erishishi zarurligiga alohida e'tibor bergan. Jomiy ma'naviy barkamol insonni tarbiyalashning ikkinchi bir jihati ahloqiy barkamollik deb bildi va axloqiylik - yuksak xulq-odob mezonlari sifatida insoniylik, adolat, mehnasevarlik, saxovat va karam, mehr-muruvvat, chunkin insoniy muhabbat, rostgo'ylik, kamtarlik, jasorat, mardlik kabi xislatlarni ulug'ladi va takabburlik, mol-dunyoga hirs qo'yish, yolg'onchilik, johillik bilan bog'liq illatlarni qoraladi.

26.3. J.Davoniyning pedagogik qarashlari

Jaloliddin Davoniy 1427-yilda Eronning Kazarun viloyatiga qarashli Davon qishlog'ida tug'ilgan. U yoshligidanoq ilm-fanga ayniqsa, fiqhshunoslikka qiziqadi va boshlang'ich maktabni qishlog'ida bitirgach Sherozga kelib, madrasada yirik olimlar qo'lida tahsil oladi. Keyinchalik Sheroz shahrining qozisi etib tayinlanadi. Qozilikdan iste'foga chiqqach, madrasada mudarrislik qiladi. Ilmiy ishlar bilan shug'ullanadi. 1502-yilda Kazardi shahrida vafot etadi va Davon qishlog'iga dafn qilinadi. Tadqiqotchi olimlarning xabar berishicha Eron, Iroq, Hindiston, O'rta Osiyoning ko'p shaharlarini kechib, olimlar bilan uchrashadi, ular bilan falsafaning turli muammolari bo'yicha bahs yuritadi.

Maryam Mirhodiyning (Tehronlik tarixchi olim) aytishicha «Davoniy yuksak qobiliyat egasi» bo'lgan u o'zining topgan butun boyligini ilm-fan ravnaqi yo'lida sarflangan. Jaloliddin Davoniyning ilmiy merosi juda boy bo'lib, o'sha davr olimlari orasida yozgan risola va asarlari ko'p fanlarni o'rganish uchun qo'llanma vazifasini o'tagan. J.Davoniy asarlari Xuroson Movarounnahrda ham tarqalib bu yerda turli ilmiy yo'nalishga ma'naviy hayotga ta'sir ko'rsatdi. Davoniyning eng katta yirik asari «Axloqi jaloliy» asari bo'lib, bu asar 1470-1478-yillar orasida yozilgan. Bu asar 1839-yilda olim V.F.Tompson tomonidan ingliz tiliga tarjima qilingan. Bu asar fors tilida yozilgan bo'lib, qo'lyozmasi dunyoning juda ko'p kutubxonalarida mavjud. Asarni J.Davoniy G'arbiy Eron hokimi, Oq qo'yinlilar sulolasi vakili Uzun Hasanga bag'ishlagan.

«Odamlar birlashib, bir-biriga yordamlashganda boshqalar to'g'risida chinakamiga qayg'uradi, o'zaro yordam va aloqa o'rnatilganda adolatning sinalgan yo'llari paydo bo'ladi, yashash vositalari tartibga tushadi, kishilarning ahvoli mustahkamlanadi va inson zoti saqlanadi».

Nazorat uchun savollar

1. Komil inson qiyofasini A.Navoiy qanday tasvirlagan?
2. A. Jomiyning pedagogik qarashlarini izohlang
3. J. Davoniyning pedagogik g'oyalarni mazmun-mohiyatini ochib bering

27. XVII ASRLARDAN XIX ASRNING BIRINCHI YARIMIGACHA TARBIYA, MAKTAB VA PEDAGOGIK FIKRLAR

27.1. Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklarida ta'lim-tarbiya, maktab, fan va madaniyat.

27.2. Munis Xorazmiyning «Savodi ta'lim» asari.

27.3. Muhammad Sodik Qoshg'ariyning «Odob as- solihin» asari.

27.1. Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklarida ta'lim-tarbiya, maktab, fan va madaniyat

Movarounnahrda bir yuz ellik yil hukmronlik qilgan temuriylar sulolasi XVI asr boshlarida inqirozga uchradi. Uning o'rniga Shayboniylar hukmronligi o'rnatildi. Shayboniyxon (1451—1510) Movarounnahrda kuchli markazlashgan davlat barpo qilishga qay darajada harakat qilgan bo'lsa ham, uning o'limidan so'ng o'zaro kurashlar avj olib ketib, oqibatda bu hududda uch xonlik, Buxoro va Xiva, XVIII asr oxiriga kelib esa, Qo'qon xonligi tashkil topdi.

Xonliklar davrida boshqa davlatlar bilan har tomonlama aloqalar o'rnatilishiga erishildi. Jumladan, Hindistonda shoh Akbar, Sharqiy Ovrupoda Ivan Grozniy bilan xalqaro munosabatlar o'rnatildi.

Abdullaxon atrofiga yozuvchi, shoir va olimlarni yig'ib, ularga homiylik qildi. Shoirilar orasida Mushfiqiy o'z madhiyalari, lirik she'r va hajvlari bilan shuhrat topdi. Buyuk muarrix Hofiz Tanish Buxoroda «Abdullanoma» nomli katta tarixiy kitob yozdi.

Bu davrda tibbiyot sohasida Sultonali Samarqandiy «Dastur al-iloj», Muhammad Yusuf «Tahqiq al-humayyot», «Zubdat ul-kahholin» asarlarini; shoir va adiblardan Muhammad Solih, Majlisiy, Hasan Nisoriy, Binoiy, Vosifiy, Ubaydiy, G'oyibiy Samarqandiy barakali ijod qildilar.

Bu davrda maktab va madrasalarda grammatika, xandasa, qiroat, tafsir, shariat, hikmat, islom tarixi va aqidalarga oid ilmiy- nazariy bilimlar o'rgatilgan. Buxoro amirligida XVII-XVIII asrlarda shahar va qishloqlarda ko'plab maktablar faoliyat ko'rsatgan. O'g'il va qiz bolalar alohida-alohida maktablarda o'qitilgan. O'g'il bolalar maktablari masjidlar, madrasalar qoshida yoki xususiy maktabdorlar xonadonlarida tashkil etilgan bo'lib, masjid imomi yoki madrasani tugatgan ziyoli kishilar o'qituvchilik qilgan. Qiz bolalar maktablari badavlat kishilar yoki o'qituvchi ayollar uyalarida tashkil etilgan, qizlarni otinoyi, otinbibi, bibiotin, bibihalifa deb atalgan ayol o'qituvchilar o'qitishgan.

O'quvchilarga avval harflar o'rgatilgan, keyin bo'g'inlar, ularni qo'shish orqali so'z tuzish, «Haftiyak» kitobini o'qish o'rgatilgan. O'quvchilar Navoiy, Fuzuliy, Bedil, Mashrab, Hofiz Sheroziy, So'fi Olloyor asarlarini, «Chor kitob» ni o'qib saboq olganlar. Qizlar maktablarida uy-ro'zg'or tutish, pazandachilik, odob-axloq, pokizalik sirlarini o'rganishga ko'proq ahamiyat berilgan.

Madrasa o'rta va oliy o'quv yurti hisoblangan. Madrasa ta'limi talabalar iqtidoriga qarab 7-12 yil davom etgan. Buxoro amirligi shaharlarida 150 dan ortiq madrasa bo'lgan. Madrasada arab, fors tilida yozilgan kitoblar o'qitilgan, ular

talabalarga mudarris tomonidan turkiy tilda sharhlab berilgan. O'qish «Avvali ilm» deb nomlangan fors tilidagi o'quv qo'llanmasini o'zlashtirishdan boshlangan. Keyin arab tili grammatikasi o'qitilgan. Fiqh kursi majburiy kurs hisoblangan.

Madrasani bitirganlardan mudarris, mutavali, qozi, imomlar, fan arboblari, shoirlar yettishib chiqqan. Ulardan Boborahim Mashrab, Muhammad Amin Kosoniy Namangoniy, Faziy Namangoniy, Shavqiy Namangoniy, Sayido Nasafiy, Abulg'oz Sofiy Olloyor, Dilshod-Barno, Uvaysiy, Muhammad Mir Olim Buxoniy, Abulg'oziy Bahodirxon ana shunday ilm sohiblaridandir.

XVI-XVIII asrning birinchi yarmi Xiva xonligida ilm-fan taraqqiyoti butunlay to'xtab qolgan emasdi. Bu davrda tarix ilmi o'ziga xos o'rinda turadi. Xiva xoni Abulg'oziyxon tarixshunosligi maktabiga asos solgan.

Abulg'oziy Xorazmda ilm-fanni, madaniyatni taraqqiy ettirish maqsadida o'z saroyiga binokorlar, tabiblar, shoirlar, tarixnavislar, adibu xattot va boshqa kasb egalarini to'pladi. Abulg'ozixon fan va madaniyat tarixiga ikki muhim asari «Shajarai turk» va «Shajarai tarokima» bilan o'chmas nom qoldirgan. Abulg'ozixonning yana bir katta xizmati shundan iboratki, u o'z asarlarini oddiy xalq uchun turkiy tilda yozgan. Shuning uchun ham ayrim olimlar uning asarlarini yangi o'zbek tili yozma yodgorligi deb hisoblashgan.

XVIII asrda yashab ijod etgan ma'rifatparvarlar orasida So'fi Olloyor (asli ismi Ollohyor) mashhur bo'lib, uning asarlaridan maktab va madrasalarda o'quv qo'llanmalari sifatida keng foydalanilgan.

So'fi Olloyor «Siroj ul-ojizin», «Sabot ul-ojizin», «Murod ul-orifin», «Najot ul-tolibin» kabi asarlarni yaratgan. «So'fi Olloyor» nomi bilan xalq orasida mashhur bo'lgan «Sabot ul-ojizin» asari maktablarda savod chiqarilishi bilan o'qitular edi. Unda islom dinining asosiy aqidalari bayon etilgan. Ular insoniy fazilatlar, badiiy hikmatlar tarzida ifodalangani. Kitobda ilgari surilgan masalalar oyatu hadislarga muvofiq yozilgan. Asar fors va arab tilini bilmagan oddiy xalq uchun mo'ljallab yozilgan edi.

Barcha madrasalarda majburiy fan sifatida «Qur'on», «Tafsir», «Odob as-solihin», «Maslak ul-muttaqin», «Sabot ul-ojizin», «Kimyoi saodat», «Hadis» o'qitilgan.

Ta'lim-tarbiya jarayonida ayollar tarbivasi alohida e'tibor qaratilgan. O'qimishli, ma'rifatli, ziyoli ayollar tomonidan ko'plab maktablar tashkil etilgan va u otinlar maktabi deb nomlangan.

Markaziy Osiyoda otinlar maktabining asoschilaridan, ayollar ta'limida katta xizmat qilgan, o'ziga xos maktab yaratib shuhrat qozongan otinlardan biri Jahon otin Uvaysiy (1779-1845) hisoblanadi.

Jahon otin Uvaysiy Marg'ilon shahar Childuxtaron mahallasida, Farg'ona tumani, Arsun qishlog'ida 1780-yilda tug'ilgan. Uning otasi Qaynar devona yoki Devonai Qalandar deb yuritilgan. (Uning ismini Siddiqbobo deb ataganlar). Onasining ismi Chinnibibi edi. Ularning Uvaysiydan tashqari Oxunjon hofiz degan o'g'li ham bor edi.

Uvaysiy oilasi o'z davrning ilg'or va marifatli oilalaridan edi. Otasi kosiobchilik qilgan, onasi esa savodli ayol bo'lib, maktabdorlik qilgan va mahalla ahli qizlarini o'qitgan.

U 1796-97-yillarda onasi otinlik qilgan xususiy maktabda dastlab halfalik va keyinchalik mustaqil ravishda otinlik qilgan. Jahonotin o'z maktabida ta'lim- tarbiya sohasida o'ziga xos ilg'or usullarni qo'llashga harakat qilganligini ko'ramiz.

Avvalo, shuni ta'kidlash kerakki, XIX asr sharoitida maktablarning aniq bir ta'lim tizimi haqida gapirish bir oz qiyin.

Bu davrda asosan maktablarning, ya'ni ta'lim muassasalarining quyidagicha boshlang'ich maktablar tuzilishiga ega ekanini kuzatamiz:

Maktablar:

a) o'g'il bolalar maktablari — o'g'il bolalarga diniy ta'lim-tarbiya beradigan boshlang'ich maktablar,

b) otinoyi maktablari — qiz bolalarga islom qoidalarini o'rgatadigan va boshlang'ich ta'lim beradigan maktablar.

Madrasalar o'g'il bolalarga diniy ta'lim beruvchi oliy ta'lim muassasalari yuqorida sanab o'tilgan ta'lim o'choqlari (otinoyi maktablaridan tashqari) vaqf daromadlaridan kelgan mablag' hisobiga ta'minlanardi.

Qizlarga boshlang'ich diniy ta'lim beradigan otinbibi maktablari esa asosan xususiy bo'lib, otinlarning uylarida tashkil qilinardi. Bunday maktablar muayyan bir o'quv rejasi va dasturiga ega emas edilar. O'quvchilar ham sinflarga bo'lib emas, balki bolalar o'qitiladigan kitoblarni o'zlashtirish darajasiga qarab guruhlarga bo'lib o'qitilgan.

Domla yoki Otinoyi darsni berilgan vazifani o'qitib ko'rish va yangi topshiriq berishdan boshlar edi. Hech bir domla yoki otinoyida o'ziga xos ishlar, umumiy o'quv darsligi yo bo'lmas o'quv uslubi bo'lmas edi.

Uvaysiy o'z maktabida qizlarga boshlang'ich ta'lim berar ekan, Jahon otin ularning zehni o'stirishga katta ahamiyat beradi. Otin o'z shogirdlariga savod o'rgatibgina qolmay, ular orasidan iqtidorli qizlarni tanlab sharq she'riyati bilan tanishtiradi. Qizlarni nazm bo'stoniga yetaklaydi.

Tajribali murabbiya o'zining muammo san'ati orqali shogirdlari zehni o'stirishga harakat qilgan. Xuddi ana shu she'riy topishmoqlar orqali qancha-qancha yosh qalblarga ziyo oqib kirgan. Oltmish yildan ko'proq umr ko'rgan Uvaysiydan bizga kattagina adabiy meros yetib kelgan. Uning qo'lyozma devonlari O'zbekiston fanlar akademiyasi Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti va Andijon Davlat pedagogika universiteti kutubxonasida saqlanmoqda. Shoir devonining qo'lyozmalarini aniqlash, ommalashtirish va tadqiq etishda akademik Qayumov, professor X. Razzoqov va E. Ibrohimovalarning xizmatlari kattadir.

Jahon otin Uvaysiy o'zbek pedagogikasi maktablari tarixida o'z o'miga ega bo'lgan buyuk shaxs desak adashmagan bo'lamiz.

U o'zining maktabdorlik va ijodiy faoliyati bilan yoshlar ta'limida yuksak o'ringa ega. Uvaysiyning ma'rifiy faoliyati ayo'llar savodxonligini oshirish, aqliy tarbiya, musiqa san'ati, qobiliyatli qizlar bilan ish usullari alohida o'ringa ega. U o'z davrining yosh talabalariga hayotga muhabbat tuyg'ularini singdirib borgan, tez fikrlash, chiroyli so'zlash va boshqa tarbiya vositalari bilan bog'liq bo'lgan chiston-topishmoq usullarini yaratishni o'rgatgan. Shuning uchun ham Uvaysiy ijodiy merosini o'rganish va uni hozirgi davr maktablar ta'lim-tarbiya tizimi mazmuniga kiritish muhimdir.

27.2. Munis Xorazmiyning «Savodi ta'lim» asari

Xorazm adabiy muhitini tarixini ko'zdan kechirsak, badiiy ijod sohasida Abulg'oziy Bahodirxon boshlab bergan ishlar XVII asrdan keyin yanada rivojlandi, keng quloqch yovdi, an'anaga aylandi. Shu an'anani yuksak pog'onaga ko'targan Munis Xorazmiy katta iste'dod egasi: buyuk shoir, adolatgo'y tarixchi olim, mohir tarjimon va noziktab xattot sifatida el orasida shuhrat topdi, e'tibor qozondi.

Shermuhhammad Munis Xorazmiy Xorazm adabiy muhitida ustozlik maqomida turadigan mutafakkirlardan biridir. Ijodkor sifatida mo'tabar mavqega sazovor bo'lgan Munis haqida tazkiralarda tarixiy va badiiy asarlarda ma'lumotlar yetib kelgan. Ahmad Tabibiyning «Majmuat ush-shuaro», Laffasiyning «Xiva shoir va adabiyotchilarining tarjimai hollari» tazkiralarda Ogahiy va Bayoniyning tarixiy asarlarida Munis ehtirom bilan eslanadi.

Munis haqidagi dastlabki ilmiy maqola Rahmat Majidiy tomonidan yozilgan. Shoir asarlari, faoliyati A. Bobojonov, V. Zohidov, V. Abdullayev, J. Sharipov, A. Murodov, N. Jumayevlarning tadqiqotlarida tahlil va talqin etilgan.

Xiva shahriga tutash Qiyot qishlog'idagi Avazbiy oilasida 1778-yili bo'lajak xorazm faxri, ulug' shoir Munis Shermuhhammad Avazbiy o'g'li tavallud topdi. Uning padari buzrukvori Avazbiy mirob fan va madaniyat qadriga yetadigan, ijod ahlini hurmat qiladigan, ma'rifatparvar inson bo'lgan. Shul bois u o'g'li Shermuhhammadning ilm va ijod bilan bog'liq barcha orzu-umidlarini ro'yobga chiqarishda shaxsan o'zi bosh-qosh bo'ldi.

Shermuhhammad boshlang'ich ta'limni qishlog'idagi maktablardan birida oldi. Keyin o'qishni Xiva madrasalarida davom ettirdi. Ilm sirlarini o'sha davrdagi mashhur ustoz Saideshonxo'jadan o'rgangan. Shermuhhammad o'qish jarayonida, olim va shoir Hasanmurod Qori Laffasiyning xabar berishicha, arab va fors tillarini puxta o'rgangan hamda xattotlik san'atini egallagan.

Munisdan bizga katta meros qolgan. Shoirming 10000 baytga yaqin she'riy merosi mavjud. Devonida gazal, muhammas, ruboiy, tuyuq, qita, qasida, chiston, kabi o'ndan ortiq mumtoz janrlarda bitilgan asarlari jamlangan. Munis hayoti davomida ikki devon tuzgan. Birinchisi 1804-805-yillarda jamlangan. U ilmda "Ik devon" nomi bilan yuritiladi. Ikkinchisi 1813-1814-yillarda jamlangan bo'lib, «Munis ul-ushshoq» deb nomlangan. «Munis ul-ushshoq» devoni debocha bilan boshlanadi. Unga shoirming 8446 bayt asari kiritilgan. Ushbu devonning 10 dan ortiq qo'lyozma va toshbosma nusxalari O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar fondida shakllanadi.

Tarixchi olim sifatida Munis «Firdavsul-iqbol» (Baxt bog'i) asarini Xiva xonlari tarixiga bag'ishladi. Unda 1812-yilgacha bo'lgan davr yoritilgan, keyingi voqealar esa Munisning jiyani Ogahiy qalamiga mansubdir.

Munis shariyatida chuqur ma'naviy-axloqiy muammolarga e'tibor qaratiladi. Asarlarida jamiyatdagi mehr-oqibat, insof, adolat, do'stlik, go'zallikni, anglash kabi insoniy fazilatlarini sog'inish tuyg'ularini ifodalaydi. Ularni avaylashga va zamondoshlar yuragidagi mudroqni uyg'otishga intiladi. Hayotning mazmun-mohiyatini chuqur idrok qiladi:

Ma'rifatparvarlik Munis shariyatining yetakchi g'oyalari dandir. «Savodi ta'lim» risolasi uning bu boradagi xizmauning salmoqli qismini tashkil etadi. Garchi bu asar asos e'tibori bilan xattotlik ilmiga oid bo'lsa-da, unda Munisning ustoz Ibn Xonjib haqida, yozuvning madaniyat taraqqiyotidagi o'rnini, xususan, husnixat ta'limi va unuman, ta'lim-tarbiya to'g'risidagi qimmatli fikrlari mavjud. Shoir asarning yozilishi sabablari, tarixi haqida asarning o'zida ma'lumot beradi. Yozuv san'atiga bag'ishlangan «Savodi ta'lim» she'riy asari 1804-yil dekabr oyida yozib tugatilgan.

Asarning hajmi 352 misradan iborat. Uni shartli ravishda 3 qismga bo'lib o'rganish mumkin. Birinchi - muqaddima qism. U 18 ta kichik bobdan tarkib topgan. Ularda hamd, nat va risola nazmining sabablari, qalam tarifi, xat tarifi, yozuv asboblarining qulayligi, yaxshiligi, ularni tayyorlash mahorati kabi masalalar yoritilgan. Ikkinchi - asosiy qism. U 22 ta kichik bobdan iborat. Ularda arab harflarini yozish yo'llari, usullari va mahoratiga e'tibor qaratiladi. Uchinchi - xotima qism. Unda risola tarixi bitilgan. Uning to'liblar ko'ngliga ilm rag'batini uyg'otishga xizmat etishi muallif tomonidan orzu qilinadi.

Shoir va tarixchi olim Munis Xorazmiyning she'riy asarlarida ham, tarixiy kitoblarida ham ma'rifatparvarlik, xalqparvarlik, vatanparvarlik g'oyalari ilgari suriladi. U barchani mardlik va jasoratga, ilm-fan rivojiga hissa qo'shishga da'vat etadi. Munis endigina ijodi gullab -yashnagan bir paytda, ya'ni 1829-yilda vabo kasaliga chalinib vafot etadi.

27.3. Muhammad Sodiq Qoshg'ariyning «Odob as-solihin» asari

Muhammad Sodiq Qoshg'ariy haqida bizgacha juda oz ma'lumot yetib kelgan. Lekin hozirgi paytda bizga ma'lum bo'lgan «Odob as-solihin» asarining o'z yoq bizga uni mashhur pedagog olim sifatida tanitadi.

Muhammad Sodiq Qoshg'ariy 1740-yilda Qoshg'arda kambag'al dehqon oilasida tug'ilgan va 1843-yilda u shu yerda vafot etgan. Biz olimning qay darajada tarbiyashunos ekanligini u tomonidan yaratilgan asarlarning mazmunidan bilamiz. Bizgacha uning «Odob as-solihin» («Yaxshi kishilar odobi»), «Zubdat al-masoyil» («Masalalarning qaymog'i»), «Dur al-muzoxir» («Ko'makdoshlarning durdonasi») hamda «Tazkirai xojagon» («Xojalar tazkirasini») nomli asarlari yetib kelgan.

O'zida shaxs va uning tarbiyasini yo'lga qo'yish masalalarini aks ettiruvchi asarlarni yaratish an'anasi mavjud bo'lgan davrda Muhammad Sodiq Qoshg'ariy tomonidan turkiy tilda «Odob as-solihin» («Yaxshi kishilar odobi»), «Zubdat as-masoyil» («Masalalarning qaymog'i») nomli asarlar yaratildi. «Odob as-solihin» asari 5 marta. 1889 hamda 1901-yillarda Toshkent shahrida va 1891, 1892 hamda 1986-yillarda Istanbul shahrida qayta nashr etilgan.

Mazkur asarning nomi va mazmunidan ham anglanib turganidek, unda ilgari surilgan g'oyalari insonning hayoti davomida zarur ahamiyat kasb etuvchi xulq-odob qoidalari xususida kishilar, shu jumladan, yoshlarga muayyan darajada ma'lumotlar berishga xizmat qiladi. «Odob as-solihin» asarida ijtimoiy hayot hamda kundalik turmushda har bir inson tomonidan qat'iy amal qilinishi zarur bo'lgan zohiriy (tashqi) va botiniv (ichki) odob va axloq qoidalari, ularning ijtimoiy

ahamiyati, yoshlar tarbiyasini yo'lga qo'yishdagi o'rni va roli borasida batafsil so'z yuritiladi.

Muhammad Sodiq Qoshg'ariyning «Odob as-solihin» asari muallifning o'zi ta'kidlaganidek, muqaddima va 7 bobdan hamda har bir bob 4 fasldan iborat.

Muqaddimada asarning maqsadi ifoda etiladi, va'ni insonga yaxshi xulq egallash zarurligi ta'kidlanadi va u odob qoidalarini egallab olmasa, nafaqat o'ziga, balki butun dunyoga yomonlik tarqatadi, deydi. Asarning yozilishidan ko'zda tutilgan maqsad borasida so'z yuritilar ekan, insonning ijobiy xulq-atvoriga ega bo'lishini taqozo etuvchi ijtimoiy zaruriyat mohiyati batafsil ochib beriladi. Asarda ilgari surilgan asosiy g'oya - insonlarning ijobiy xulq-atvoriga ega bo'lishlari jamiyatda ruhiy xotirjamlik va moddiy farovonlikni qaror toptiruvchi asosiy omil ekanligini asoslashdan iboratdir. Alloma mazkur g'oya mohiyatini sharhlar ekan, inson odob-axloq qoidalarini egallay olmasa hamda ijobiy xulq-atvori bilan muaddab (odobli) va muzazzab (toza) bo'lmasa, nafaqat o'zi, balki butun dunyoga yomonlik tarqatadi degan qarashni ilgari suradi.

Birinchi bob salomlashish, ko'rishish, qo'l olishish hamda ruxsat so'rash qoidalari to'g'risida ma'lumotlar berishga yo'naltirilgan bo'lib, mazkur bob to'rt fasidan tashkil topgan.

Ma'lumki, Sharq xalqlarida biror kimsa birorta uyga kirganda u yerga ruxsatsiz kirib boravermay, ma'lum urf-odat qoidalariga rioya qiladi. Ana shu qoidalarning eng muhimlari deb, Muhammad Sodiq Qoshg'ariy har bir odam kelganligini bildirish (eshikni qoqish yoki yo'talish), ovoz berilgandan so'ng kirishga ruxsat so'rash va so'ng kirish kerakligi bayon etiladi.

Ikkinchi faslda esa salomlashish odobining o'n ikki qoidasi borasida fikr yuritiladi. Shunda savol berish va javob masalasida hozirgi paytda ham yuz berayotgan munozarali fikrlarga nuqta qo'yilgan. Muallifning fikriga ko'ra, adabi avval-ikki mo'min kishi kelsalar, xoh oshno va nooshno, salom berisgaydiki, salom bermak sunnatdir, javob fayz ayndur, deydi.

Ikkinchi bobda uxlamoq, kiyim kiyish, yo'l yurish odoblari haqida fikr yuritiladi. Masalan, uxlash oldidan eshiklarni mahkamlab yopish, idishlarning og'zini berkitish, o'midagi ko'rpa-to'shaklarni bir bora qoqib yozish, o'choqdagi olovni hamda chiroqni o'chirish, uxlaydigan o'rinni yumshoq qilmaslik, o'ng qo'lga bir oz suyanib yotish tavsiya etiladiki, ushbu qoidalarning ahamiyati ularga rioya qilmaslik natijasida ro'y bergan noxush voqealar misolida ochib beriladi.

Ilibos kiyish qoidalari ham xulq-odob qoidalarining tarkibiy qismi sanaladi. Bunda eng muhimlaridan kishi imkon darajasida kiyinishi lozimligi, qulayligi va yoshi, jinsiga, joyiga, fasliga mos bo'lishi, uni toza tutish, yaxshi libos kiyganda manmanlik qilmaslik, kiymaydigan ortiqcha liboslaridan muhtojlarga in'om qilish kabi tavsiyalar hozirgi davrda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Uchinchi bobda suhbatlashish odobi bayon etiladiki, bu odob qoidalariga inson har bir daqiqada rioya etishi zarur.

Suhbatning yaxshi niyatlarga boy hamda beqarar bo'lishi muhim sanaladi. Muavyan mavzularda tashkil etilayotgan suhbat (bahs-munozara)ga tanning tozaligiga erishgan, shuningdek, og'iz va tishlarni tozalagan holda pokiza libos bilan tashrif buyurish, suhbat ahlining bir-birlariga hurmat va iltifot ko'rsatishlariga

erishish, ulug'larga e'tiborini qaratish, o'tirish qoidalariga rioya etish, ahli suhbat kimganda va chuqqanda o'zidan turish va ulug'larni yuqoriga o'tkazish, beadab so'zlar, yomon xatti-harakatlar hamda noo'rin jimlikdan saqlanish, barchaga yaxshi muomalada bo'lish, ularni izzat qilish, aksa kelsa og'zini to'sib, past ovozda, yengil aksa urish, suhbat ahliga ish buyurmaslik, ularga beminnat xizmat ko'rsatish, do'st va notanishlarga bir xil ochiq chehra, go'zal xulq va odob bilan muomalada bo'lish, aka-ukalar, opa-singillarning xatosini kechirish hamda ularning aybini yuzlariga solmaslik, agar joiz bo'lsa, ularga boshqalarning e'tiboridan chetda nasihat qilish, suhbat jarayonida ishtirok etayotgan biror kishining yomon qilg'i yoki qabih fe'lga baho bermaslik, zaruriyat yuzaga kelgan holda uni suhbatdan chetlatish chora-tadbirini ko'rish va hokazo kabi odob-axloq qoidalariga rioya etish har bir kishining insoniy burchi ekanligini ta'kidlab o'tadi.

Mazkur o'rinda quyidagi fikrlar ilgari suriladi: uylanadigan yigit nikohdan oldin o'zi uylanmoqchi bo'lgan qizni ko'rmog'i, uylanadigan qizning bokira bo'lishi, shuningdek, to'rt narsa: umrda, qomatda, molda va nasabda erdan past va uch narsa: husnu jamolda, xulq (odob)da hamda iffatda erdan yuqori bo'lishi zarurligi muallif tomonidan alohida ta'kidlanadi. Bu fikr turmushda tinch-totuv oila qurish masalalarida isbotlangandir.

Muhammad Sodiq Qoshg'ariy «Odob as-solihim» asarida, kasal holini so'rash, ta'ziya va musibat odoblari haqida ham fikr yuritadi. Bu narsalarni har bir kishining bilishi muhimdir.

Bemor holini so'rash qarindosh-urug', qo'ni-qo'shni, yoru birodar, shuningdek, do'st uchun farz ekanligi, bemorning mullati va diniy e'tiqodidan qat'i nazar, uning yoniga ochiq yuz bilan kirish, unga ko'ngilni ko'taruvchi so'zlar bilan murojaat qilish, bemor oldiga bashang kiyinib yoki kir libosda bormaslik, bemor yotgan xonaga kulib kirib, uning bosh tomoniga yaqin o'tirish, ko'p so'zlanishib bemorni to'liqtirib qo'ymaslik, qo'lni peshonasiga qo'yib hol so'rash, bemorni kun yoki kunora kelib to'liqtirib qo'ymaslik, bemorning ko'ngli tilaydigan narsalarni so'rab-surishtirib, ularni topib kelish, ammo bemorning muolajasida uni harom narsalardan saqlash, bemor oldida ko'p o'tirmaslik, agar bemor oldida uzoq vaqt qolish zaruriyati yuzaga kelsa, uning ko'ngliga yoqadigan, xush keladigan so'zlar yoki hikoyatlardan so'zlab o'tirish maqsadga muvofiq ekanligiga alohida urg'u beradi.

Asarda musibat odoblari haqida bayon etiladiki, bularni bilish ayniqsa yoshlarga zarurdir.

Biron mo'minning vafoti haqidagi xabarni eshutilganda ahli musibatga ta'ziya ado etiladi. Bu dafndan oldin yoki keyin ham bo'lishi mumkin. Ta'ziya bildirish uch kungacha joiz, undan so'ng makruh deyiladi. Tobutni olib chiqib ketayotganlar sukut saqlashlari lozimligi, ayollar tobut ko'targan erkaklarga hamroh bo'lib, eshikka chiqmasliklari, boshiga musibat tushgan kishilar yig'ilganlarida ovozni baland qilib, fig'on chekmasliklari, mayit dafn etilgach, har kim o'z ishiga ketishi, bir yerda yig'ilib o'tirmasliklari kerakligi, yig'ilish uyushtirish uchun turli tadbirlarni izlab topish va ularni o'tkazish bid'at ekanligi, biroq qo'ni-qo'shni, qarindosh-urug', yoru do'stlarning turli taomlarni tayyorlab, boshiga musibat

tushgan kishilarning xonadonlariga yuborish odamgarchilikning muhim ko'rinishlaridan biri ekanligi ta'kidlanadi.

So'ng qabr ustida g'isht va tosh hamda boshqa narsalarni qo'yish, qubba va imorat qilishni bid'at sanalishi ta'kidlab o'tiladi. Shu o'rinda olimlar qabrlar odobiga ham to'xtalib o'tadi. Yana qabristonni tonggi ziyorat qilish ko'proq erkaklaga mansubligi, ota-ona qabrlarini xotinlar ham ziyorat qilsa, man etilmasligi ta'kidlanadi. So'ng qabristonlarni oyoq osti qilmaslik kabi odob to'g'risida gapirib o'tiladi.

Asarda ziyorat, mehmondorchilik odobi haqida ham ko'pgina ibratli gaplar yozib qoldirilgan.

Asarda ziyofat uyushtirish va mehmon kutish odobi borasida ham ko'pgina ibratli fikrlar bayon etiladi. Xususan, mehmondorchilik odobi yuzasidan quyidagi fikrlar ifoda etiladi: mehmondorchilikka kishining boyligi, mavqe'i yoki mansabiga qaramay, hammaning baravar chaqirish, oila a'zolarini ham ajratmaslik, mehmonning izzat-hurmatini joyiga qo'yish, lekin uch kundan so'ng ortiqcha takalluf ko'rsatmaslik, dabdaba qilmaslik, mehmon uchun uyni ortiqcha bezamaslik, lekin ozoda va toza ko'rpa-to'shaklardan foydalanish, dasturxon tuzashda isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslik, dasturxonga taom qo'yilganda avval mezbonning taomga qo'l uzatishi, mehmondan oldin taomdan qo'l tortmasligi, mehmonga nisbatan ortiqcha takalluf qilavermaslik, imkoni bo'lsa, lazzatli va latif taomlar tayyorlab mehmonning ko'nglini olish kabi qoidalarining mohiyati ochib beriladi.

Asarda mehmon tomonidan xonador sohiblariga nisbatan ko'rsatiladigan hurmat borasidagi qoidalar yuzasidan ham fikr-mulohazalar bayon etiladi. Xususan, ziyofat yoki mehmondorchilikka chaqirilganda, u xoh faqir, xoh ulug' martabali kishi bo'lsin, albatta, chaqirilgan xonadonga borishi zarurligi, zolim, axloqsiz, ikkiyuzlamachi hamda xurofotchi kishilar ziyofatga chaqirganda esa bormaslik kabi odob-axloq qoidalariga rioya etish nihoyatda muhim ekanligi ta'kidlab o'tiladi.

Yettinchi bobda eng zaruriy safar qoidalariga to'xtalib o'tiladi. Safar qilishni olim uch qismga bo'linadi: farz, fazilat, muboh (ruxsat etiladigan). Bundan safar farzining o'zimi besh bo'g'inga bo'ladi: jihod, hajji farz, ota va ona chaqirig'iga binoan, raddi mazolim (zulmni qaytarish uchun) va beshinchi ilm olish uchun safar qilish.

Safar mubohni ham ikki bo'g'inga bo'ladi: 1) o'z manfaati yo'lida, o'zgalardan biror narsani ta'ma qilmagan holda uyushtirilgan tijorat safari. Agar kim tijoratda faqat mol-dunyo ortirish maqsadida bo'lsa, unda bu tijorat safari ham unga ziyon yetkazadi, deydi olim. 2) ma'naviy tafarruj (ko'ngil ochish) maqsadida safar uyushtirish. Ba'zida bunday safarlarning ham joizligi ta'kidlanadi. Ammo safarlarning barchasida ham ayollarga albatta mahrami haromlik qilishi zarur, deb hisoblaydi.

So'ng olim safarlarning foydalari haqida og'iz ochadi, unda safar qilgan kishi birinchidan, g'am-anduhdan forig' bo'lishi, ikkinchidan tirikchilik uchun sarmoya yig'ish, uchinchidan ilm olish, to'rtinchidan, to'liq odob va axloq o'rganish, beshinchidan, ulug' kishilarning suhbatlaridan bahramand bo'lish mumkin deyiladi. Olim safarning ba'zan mashaqatlari ham bo'lishi mumkin degan savolga yoshlarga

chaqimchi va hasadchilar orasida tirik yurgandan ko'ra, safar mashaqqatlari afzalroqdir, deb to'g'ri xulosa chiqaradi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, Muhammad Sodiq Qoshg'ariy tomonidan yaratilgan «Odob as-solihin» asari jamiyat a'zolari, shu jumladan, yoshlarning ma'naviy-axloqiy jihatdan barkamol bo'lishlarida katta ahamiyatga ega. Mazkur asar har bir inson tomonidan o'rganilishi va kundalik turmushda qat'iy amal qilinishi zarur bo'lgan xulq-odob qoidalarining majmui sanaladi. Shuning uchun Sharq pedagogikasi tarixida «Qobusnoma» kabi bu asar ham, o'z o'zini, o'z mavqeiga ega. Bu asarni bobma-bob o'rganish yosh avlodning kamol topishida foydalaniladigan bebaho xazinadir, deyish joiz.

Nazorat uchun savollar

1. Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklaridagi ta'lim-tarbiyaga izoh bering.
2. Munis Xorazmiyning «Savodi ta'lim» asarini mazmun-mohiyatini ochib bering.
3. Muhammad Sodiq Qoshg'ariyning «Odob as-solihin» asari haqida qisqacha ma'lumot bering.

28. XIX ASRNING IKKINCHI YARMI VA XX ASR BOSHLARIDA TURKISTON O'LKASIDA MAKTAB, TARBIIYA VA PEDAGOGIK FIKRLAR

28.1. XIX asrning ikkinchi yarimida Turkistonda maktab tuzilmasi.

28.2. Turkistonda rus-tuzem maktablarining ochilishi.

28.3. Turkistonda jadidchilik harakati M.Behbudiy M.Qori Abdu-rashidxonov, A.Avloniy va A.Shakuriylarning yangi usul maktablarini ochishdagi xizmatlari.

28.1. XIX asrning ikkinchi yarimida Turkistonda maktab tuzilmasi

Markaziy Osiyo zaminida Temuriylar hukmronligi inqirozga yuz tutgandan keyin, bu o'lkani qo'lga kiritish uchun jahonning ko'pgina mamlakatlari harakat qildilar. Ana shulardan biri chor Rossiyasi edi. Rossiyaning bosqinchilik yurishi XIX asrning ikkinchi yarmiga to'g'ri keladi. Chunki bu davrda sobiq imperiya o'mida 3 ta xonlik - Buxoro amirligi, Xiva hamda Qo'qon xonliklari bo'lib, bular o'rtasida nizo kuchaygan edi. Bundan foydalangan chor hukumati o'zining yovuz niyatlarini amalga oshirishga kirishib dastlab Qozog'istonni o'zlariga tobe qildilar. So'ngra Qozog'iston orqali 1864-yilda Turkmaniston, Chumkent, Avliyo otani, 1865-yilda Toshkentni zabt etdilar. 1867-yilda Yettisuv viloyati, 1868-yilda Samarqand, 1876-yilda Farg'ona viloyati Rossiya qo'lga o'tdi. 1876-yil 19- fevralda podsho Aleksandr II Qo'qon xonligi tugatilganligi to'g'risida buyruqqa imzo chekdi. 1885-yilga kelib Markaziy Osiyoning hamma yerlari Rossiya tasarrufiga o'tdi va o'lkada Turkiston general-gubernatorligi tashkil etiladi.

1875- yil Turkistonda xalq maorifi haqida qonun e'lon qilindi, unga binoan general-gubernatorlik tasarrufida o'lka o'quv yurtlari boshqarmasi tashkil etildi

Tadqiqotchi olim Y. Abdullayevning ilmiy tadqiqot ishlarida ko'rsatilishicha Markaziy Osiyoda, jumladan, Turkiston o'lkasida mahalliy maktablarning xususiyati, ta'lim-tarbiyaning mazmuni uni tashkil etish usullari o'sha davr tarbiyasi maqsadiga mos bo'lgan. 1876-1917-yillar oralig'ida Turkiston o'lkasida turlicha ta'lim muassasalari bor edi. Bular:

A. Mahalliy xalq mablag'i hisobiga tashkil etilgan musulmon diniy maktablari:

- 1) maktab (xona)---- eski maktab;
- 2) qorixona (Qur'onni o'quvchilar maktabi);
- 3) madrasa

B. «Yangi usul» maktablari (usuli jadid).

S. Boshqaruvchi tizim xalq ta'limi maktablari:

1. Umumrus tipidagi maktablar:

a) umumiy ma'lumot maktablari (boshlang'ich, kuchaytirilgan tipdagi va o'rta);

b) kasb maktablari;

2. Tub aholi uchun maktablar

a) rus-tuzem maktablari va bilim yurtlari;

b) rus tilini o'rgatish kurslari.

3. Ovrupoliklar uchun mahalliy til kurslari.

XIX asrning o'rtalarida Turkiston o'lkasida boshlang'ich ma'lumot beradigan maktab hamda o'rta va oliy diniy ta'lim beradigan madrasalar faoliyat olib borgan. Maktablarning aksariyati, shu jumladan, qishloq maktablarining ko'pchiligi diniy ta'lim beruvchi eng oddiy boshlang'ich maktablar edi. Bunday maktabda machitlarning imomlari, savodxon mullalar dars berardilar. Maktablarda o'qitish eng oddiy diniy vazifalarni o'rgatish bilan, ya'ni arab tilida yozilgan Qur'onni o'qishni o'rgatish, har bir musulmon uchun zarur bo'lgan asosiy vazifalarni bildirish bilan cheklanardi.

Shahar maktablarida o'quvchilar soni 20-30 taga qishloq joylarida esa 10-15 taga yetar edi. O'qishga 6 yoshdan qabul qilinib, o'zlashtirishga qarab 17-18 yoshlarigacha davom etardi. Maktabda o'g'il bolalarni «Domla» deb ataluvchi o'qituvchi (odatda machitlar imomlari) dars berganlar. Qizlarni esa savodxon ayollar (Toshkentda otinibi, Buxoroda bibihalifa yoki bibiotin, Xivada - editbibi) dars berishgan. Savod chiqarishda harflarni hijjalash (arabchada hiyo - bo'g'in) usulidan foydalanilgan. Savod chiqarish uch bosqichda: I bosqichda arab alfavitidagi harflarni yodolishdan boshlangan. Undan keyin kalimai shoadat yod olingan. Bunday o'quvchilarni odatda taxtaxonlar deb atalgan.

II boqichda so'zlar ichida qo'yiladigan diakritik belgilar (zer-zabar arabcha harakat) o'rgatilgan.

III boqichda Xaftivak (Qur'onning vettidan biri) o'rgatilgan.

«Chor kitob» 4 bo'limdan iborat bo'lib, birinchi bo'lim - haq-xudoning nomlari tushuntirilardi, din qoidalari, tahorat, namoz bayon etiladi, ikkinchisida yvdon-e'tiqodni anglash, uchunchi bo'limda rivovatlar bahs etilgan. Shuningdek,

xalq orasida mashhur shoirlarning sheʼr va gʻazallari oʻqitilar edi. Odatda, bunday maktablarning oʻquvchilari badavlat oilalarning bolalari boʻlar edi. Ular oʻqishni tamomlab, olgan bilimlarini savdo-sotiq ishlarida, hunarmandchilik ustaxonalarida qoʻllar edilar, baʼzilari qoʻshuncha taʼlim olib, xattotlik kasbi bilan shugʻullanar, baʼzilari madrasaga kirib oʻqishni davom ettiradilar.

Oliy diniy maktab boʻlgan madrasada oʻrta asrga oid diniy falsafa va musulmon huquqlari, arab tilining grammatikasi va mantiq ilmlaridan dars oʻtilardi. Uning oʻquv rejalari vaqt va sharoitga qarab oʻzgarib turgan. Madrasa uch boʻlimdan iborat boʻlgan: birinchi boʻlimda musulmon diniy aqidalari bayon qilingan kitob - arab tili va qonunchilik oʻrgatilar edi. Bu boʻlim talabasi 9-10 yil oʻqigan.

Ikkinchi boʻlimda qonunchilik, ilohiyot, (qonunchilik), mushkulot, mantiq, arab tili grammatikasi, notiqlik mahorati, kalom oʻqitilgan. Unda 7-8 yil oʻqishgan.

Uchinchi boʻlimda ilohiyot, qonunchilik, kalom oʻqitilgan. Qonunchilik kursida geografiya va arifmetikadan baʼzi maʼlumotlar berilgan. Madrasani tamomlab chiqqanlar imomlik bilan shugʻullanish va qozixonalarda ishlash huquqiga ega boʻlar edi. Maktab va madrasalarda asosan oʻgʻil bolalar oʻqitilar edi. Shaharlardagi diniy maktablarda baʼzi domlarning xotinlari - otmoyilar qizlarni ham oʻqitish bilan shugʻullanar edilar. Maktab va madrasalarda dars oʻzbek, arab va fors-tojik tillarida olib borlardi.

Eski maktablarda baʼzi oʻzgarishlar sodir boʻldi. Rus tuzem maktablari hamda yangi maktablarning taʼsiri ostida baʼzi eski usul maktablarda birmuncha yangiliklar joriy qilindi, - litografiyada bosilgan alifbelar yordamida tovush metodi asosida savod oʻrgatish joriy qilindi, qizlarga oʻqishni oʻrgatish bilan birga yozishni ham oʻrgatishga kirishildi. Bu yangiliklarga koʻra oʻzbek maktablari hayotida muhim rol oʻynadi.

Tadqiqotchi olim O. Muhammadjonovning maʼlumotlariga koʻra, XIX asrning birinchi yarmida Turkiston oʻlkasining yirik markaziy shaharlarida quyidagi taʼlim muassasalari bor edi.

Shahar	Maktablar soni	Oʻquvchilar soni
Toshkent	120	2000
Buxoro	360	6000
Qoʻqon	300	5500
Andijon	90	1700
Samarqand	80	1000
Margʻilon	70	800
Namangan	60	900
Jizzax	10	150

1906-yilga kelib, birgina Samarqand viloyatining oʻzida 1510 ta musulmon maktabi bor edi, ularda 1482 oʻqituvchi 12740 talabaga saboq bergan.

Umuman olganda Turkiston oʻlkasida 1905-1906-yillarda 5290 ta maktab boʻlib, ularda 70955 talaba taʼlim olgan.

Bu davrga kelib mahalliy fuqaro bolalaridan ilmiy kishilar tayyorlash maqsadida Xiva xoni Sayid Muhammad Rahimxon Bahodirxonni soniy - Feruz (1844-1910 y.) katta ishlarni amalga oshirdi. Bevosita uning tashabbusi bilan 1884-yili o'z saroyida maktab ochilib, bu maktabda rus o'qituvchisi va Mirzo Rahmonquli qori kabi mahoratli ta'lim-tarbiya ustalari yoshlarga bilim berish ishi bilan shug'ullandilar.

Feruz farmoniga muvofiq 1904-yilning 10-noyabrida Urganchda birinchi yangi usul maktabi ochildi. Unda Husayn Qo'shayev degan Turkiy adan kelgan o'qituvchi yoshlarga ta'lim-tarbiya bera boshladi.

Husayn Qo'shayev 1906-1907 o'quv yilida xonlikdagi ilg'or ma'rifatparvar kishilarning istaklarini hisobga olib, Urganchda qizlar maktabini ham tashkil etdi. Feruz unga homiylik qilib, xazina hisobidan maktab uchun alohida mablag' ajratib berdi.

Feruz homiyligidagi bu maktabda Husayn Qo'shayevning turmush o'rtog'i Komila Qo'shayeva qizlarga bilim bera boshladi.

1909-yilga kelib, Feruz qo'li ostidagi madrasalar soni 130 taga yetib, undagi mullavachchalar 2300 kishidan ortib ketdi.

Feruz Xiva ziyolilari orasida nufuzli o'rinni egallagan ma'rifatparvar Komil Xorazmiyni Toshkent shahrida gimnaziya va maktablardagi o'qitish usulini o'rganib kelishi maqsadida safarga jo'natadi. Safardan qaytgach, Komil Xorazmiy bu sohadagi ishlarni anchagina jonlantirib yubordi.

Mazkur maktab o'quv dasturi hamda rejasiga - riyoziyot, tarix, jo'g'rofiya, tabiat, rus tili, mahalliy savod (ona tili) va islomshunoslik kabi fanlarni o'qitish kiritildi. Mashg'ulot jarayonida Sharq mutafakkirlari - Navoiy, Fuzuliy, Bedil, Sa'diy Sheroziy, Mashrab, So'fi Olloyor kabilar bilan bir qatorda rus shoir, yozuvchilarining asarlari ham o'rganildi. Shuningdek, u, vohada san'at, maorif va madaniyat rivojiga rahnamolik qilib, saroyda «Podshohi zamon tipolitografiyasi»ni tashkil qildi.

«Litografiya» - yunoncha so'z bo'lib «Litos» - tosh va «grafos» yozaman degan noni bildiradi. Bu atama o'zbek tilida toshbosma tarzida qo'llanib kelingan.

Feruz saroyidagi bu toshbosmaxonada ilk bor Abu Nasr Forobiyning «Nisobus - sibiyan» (Bolalar nasibasi), Alisher Navoiyning «Hamsa» asaridan parcha, «Hayrat ul-abror» dostoni, Shermuhammad Munisning «Munis ul ushshoq» devoni, Yoqubxo'ja ibn Ibrohimxo'janing «Devoni Xolis» to'plami, Feruzning «Devoni Feruz» va boshqa o'nlab asarlari nashr etilgan.

Rus muhojirlari Turkiston general - gubernatorining farmoniga binoan o'lkada rus maktablari, rus - tuzem maktablari, gimnaziya kabi maktablarni ochish va bu maktablarni kengaytirish hisobiga mahalliy maktablar, maktab madrasalarni siqib chiqarish maqsadida maorif islohotini o'tkaza boshladilar.

Bu bilan go'yoki, ular Markaziy Osiyo aholisining savodxonlik darajasini oshirmoqchi bo'ldilar va har bir qilingan ishni bo'rtirib ko'rsatishga urindilar. Tarixchi olim I.Y. Tursunov ning «Istiqlolga intilgan qalblar nidosi» nomli asanda quyidagi ma'lumotlar berilgan:

O'lkani aholisini savodxon qilish uchun eng avvalo rus, rus-tuzem, gimnaziya kabi o'quv maskanlari kerak, madrasa va «usuli qadimiya» eski usul maktablarida, otinlar maktablarida savod chiqarib bo'lmaydi degan siyosatni yurgizishga harakat qildilar.

Bunga biz 1897-yildagi Rossiya tomonidan o'tkazilgan aholini ro'yxati ma'lumotlarini ko'rsatishimiz mumkin. Masalan, o'sha aholi ro'yxatida qayd etilishicha, Markaziy (O'rta) Osiyo aholisining savodxonlik darajasi quyidagicha belgilangan:

- Tojiklar - 99,5 % savodsiz;
- Qirg'izlar - 99,4 % savodsiz;
- Turkmanlar - 99,3 % savodsiz;
- O'zbeklar - 98,4 % savodsiz;
- Qozoqlar - 97,9 % savodsiz deb hisoblangan.

Bu ko'rsatkichlarning barchasi uydurma edi. Aslida Turkiston o'lkasi xalqlarining savodxonlik darajasi chor Rossiyasi aholisining savodxonlik darajasidan past emas edi. Chunki, Turkiston o'lkasi xalqlari 1917-yilgi to'ntarishdan oldin shaxsiy va ommaviy maktablar, madrasalarda bilim olganlar, yuksak ilmiy egasi bo'lganlar. (I. Y. Tursunov «Istiqlolga intilgan qalblar nidosi»). Rus va rus-tuzem maktablarini bitirganlarigina savodli deb hisoblanganlar. Hatto, ular dunyoviy maktablar ochish, ona tilidagi darsliklar, gazeta va jurnallar nashr qilish va hokazolarni qat'iy ta'qib qilar edilar.

Ayni vaqtda chor hukumati rus bo'lmagan aholi yashaydigan joylarda maktablar ochar, bu maktablar esa o'z oldiga ruslashtirish maqsadini qo'yar edi. Bu kabi maktablarning ochishdan maqsad musulmon bolalarga rus tilini o'rgatish edi. Shu maqsadda birinchi rus-tuzem maktablari ilk bor Toshkent shahriining Shayxontahur dahasida 1884-yilning dekabrda ochildi. Aslida «Tuzemes» degani ruscha - o'zbekcha lug'atda «mahalliy xalq», «tub aholi» degan ma'noni anglatadi.

Maktabni boshqaruvchi va rus tili o'qituvchisi V.P. Nalivkim «musulmon yozuvi» o'qituvchisi mulla Solixovga Kichkina Xo'janov edi. Rus-tuzem maktablarida odatda asosan mahalliy xalqning o'g'il bolalari tahsil olishgan. Lekin ruslar uchun maxsus maktablari bo'lmagan joylarda ayrim rus o'g'il va qiz bolalari ham birga qo'shib o'qitilgan.

Turkiston o'lkasining rus-tuzem maktablarida o'qitish jarayoni o'n oy, ta'til esa ikki oy davom etgan. Mashg'ulotlar birinchi sentabrdan boshlanib may oyining oxirida tamomlangan. Iyun va iyul oylari - ta'til oyi hisoblangan. Rus-tuzem maktablariga o'quvchilar qat'iy aniq bir vaqtda, ma'lum tartib qabul qilinib, madrasalardagi kabi sinflarga bo'lib o'qitilgan. O'quv yilining maktabga qabul qilingan o'quvchilarning soni 20-30 ta bo'lishiga qaramay, ular bir sinf deb hisoblanib, bitta kitobni o'qishgan va bir xil xatni yozishni mashq qilishgan. O'quv yilining oxirida bolalar ikkinchi sinfga o'tishgan. Shundan so'ng ular uchinchi sinfga, keyin esa to'rtinchi sinfga o'qish tamom bo'lgandan so'ng maktab rahbarlari, mahalla mulozimlari oldida imtihon topshirib guvohnoma olishgan. Maktabga qabul qilinish yoshi 15 yoshdan oshmasligi kerak edi.

Turkistonning 1880-yilda Rossiya tasarrufiga o'tganidan keyin Markaziy Osiyodagi rus-tuzem maktablari ancha mashhur bo'ldi. Turkiston o'lkasidagi

viloyatlarda (Sirdaryo, Samarqand va Farg'ona) rus-tuzem maktablarining o'sib borishi quydagicha bo'lgan:

Yillar	Rus-tuzem maktablari soni	O'quvchilar soni	
		O'g'il bolalar	Qizlar
1870	1	29	-
1874	2	69	-
1884	3	110	-
1886	4	116	-
1889	17	374	-
1891	22	418	8
1894	23	527	3
1896	28	698	3
1898	32	1171	-
1900	35	1471	-
1901	45	1579	-
1904	57	1830	104

Bunday maktablarda rus pedagoglardan K.D.Ushinskiyning «Rodnoe slova» («Ona tili»), «Detskiy mir» («Bolalar dunyosi»), L.N. Tolstoyning «Pervaya russkaya kniga dlya chteniya» («O'qish uchun birinchi rus tili kitobi»), V.P. Vaxterovning «Mir v rasskazax dlya detey» («Dunyoni bilish uchun bolalarga hikoyalari») kabi darsliklari mashhur bo'lgan. Bundan tashqari L. Grigorevaning «Russkoe slova» («Rus so'zi»), M. Vol'peraning «Pervaya kniga dlya chteniya» («O'qish uchun birinchi kitob») kabi darsliklardan foydalanilgan. Rus-tuzem maktablarida o'qitish rus tilida, diniy ta'limot esa o'quvchilarning ona tilida olib borilar edi. Mahalliy xalq bolalariga Saidrasul Saidazizovning «Ustodi avval», Ali Asqar Kalilinning «Muallimi soniy» va boshqa darsliklardan foydalanilgan.

Rus maktablariga ruslar bilan birga o'qish uchun mahalliy aholi bolalari ham qabul qilinardi. Turkistondagi boshlang'ich rus maktablarida hunarga Rossiyaning Yevropa qismidagiga qaraganda, ancha ko'proq o'rgatilar edi; bundan maqsad mahalliy aholining bolalarini maktabga ko'proq jalb qilish edi.

Turkistonda dastlabki rus o'rta o'quv yurtlari 1870-yillardan ochila boshladi: 1876-yili Toshkentda, Verniyda (hozirgi Olmaotada) erlar va xotin-qizlar gimnaziyalari. 1879-yili esa Toshkentda o'qituvchilar seminariyasi ochildi. Gimnaziyalarga ham yerli aholining bolalari qabul qilinardi. O'qituvchilar seminariyalarida esa mahalliy aholi bolalarga 1/3 o'rin ajratilgan edi.

Rus maktabiga o'qishga kirgan bolalar rus tilini mutlaqo bilmas edilar, natijada ancha qiyinchilik tug'ilar edi. Shuning uchun rus maktabiga kirgan, lekin rus tilini mutlaqo bilmaydigan o'quvchi rus tilida so'zlashishni o'rganib olmaguncha odatda quyi bo'limda o'qir, rus tilida so'zlashishni o'rganib olgandan keyingina yuqori bo'limga o'tkazilardi. Yuqori bo'limlarga o'quv yilining o'rtalarida ham o'tkazilar edi, chunki maktablar kichkina bo'lib, bir vaqtning o'zida mashg'ulotlar bir necha bo'limlar bilan olib borilar edi.

Toshkentdagi gimnaziya dastlabki yillarda, mahalliy aholining bolalarini rus tili bilan ko'proq shug'ullantirish uchun lotin tilini o'rgatishdan ozod qilinar edi.

Rus-tuzem maktablarida o'quvchilarga rus muallimi rus tilini hamda arifmetikani va boshqa fanlarni o'rgatar, buning uchun o'qish vaqtining yarmi ajratib qo'yilgan edi. O'qish vaqtining qolgan yarmi «Musulmon domla» ixtiyoriga berib qo'yilgan bo'lib, u eski usul maktablaridagidek bolalarga diniy darslar o'qitish bilan shug'ullanardi.

Rus-tuzem maktablarida faqat o'g'il bolalar o'qitilar edi. Ota-onalar qizlarini bunday maktablarga bermas edilar. 1903-yilda Turkiston pedagogika to'garagi, Toshkentda qizlar uchun rus-tuzem maktabi ochildi. Lekin bu maktabning faoliyati uzoqqa cho'zilmay, ikki yildan keyin yopilib qoldi.

Rus-tuzem maktablarida rus tilini o'qitish dasturi va uslubi rus bo'lmagan o'quvchilar uchun mo'ljallab tuzilar edi. (bu maktablarda ba'zan rus bolalar ham uchrab qolar edi).

Namangan yaqinida bir qishloqda 6 yil yashagan va o'zbek tilini yaxshi o'rganib olgan V.P.Nalivkin, bu maktabda birinchi bo'lib o'zbek tilini o'qitgan edi. U sinash uchun ochilgan rus-tuzem maktabining birinchi o'qituvchisi edi. V.P.Nalivkin seminariyada 1890-yilgacha dars berdi. Dars chog'ida Nalivkin bo'lajak o'qituvchilarga faqat o'zbek tilinigina o'rgatib qolmasdan, balki ularda o'lkani o'rganishga ham havas uyg'otgan edi. Seminariyada o'qib chiqqanlar orasida rus-tuzem maktablarida ishlashga tayyor bo'lgan va bu ishini sevib qolganlar anchagina edi.

1879-yilda Toshkentda Turkiston muallimlar seminariyasi ochildi. Bu seminariya maktablari rus boshlang'ich sinflari uchun o'quvchilarga ona tilidan muallimlar tayyorlab berishi lozim edi. XIX asrning 80-yillari o'rtalaridan boshlab seminariya rus-tuzem maktablari uchun ham muallimlar tayyorlashga ham kirishdi. Mahalliy tilni o'rganish majburiy qilib qo'yilganligi Toshkentdagi bu seminariyaning xususiyatlaridan biri bo'ldi. Seminariyada V.P.Nalivkin o'zbek tilida dars bera boshlagan birinchi o'qituvchi bo'ldi. 1887-yilda Nalivkin tuzgan lug'at va grammatika risolasi nashr etildi. Bular tilshunoslik tarixida o'zbek tiliga doir birinchi qo'llanma edi.

28.3. Turkistonda jadidchilik harakati M.Behbudiy M.Qori Abdurashidxonov, A.Avloniy va A.Shakuriylarning yangi usul maktablarini ochishdagi xizmatlari

XIX asrning boshlaridan Buxorodagi ma'rifatparvar musulmon ruhoniylari va ziyolilari orasida madrasa va maktablar tizimiga hamda islom diniga kirib qolgan bid'atlarni isloh qilish fikri paydo bo'la boshlaydi. Jadidizm (arabcha «jadid» so'zidan olingan bo'lib «yangi» degan ma'noni bildiradi). O'sha davrlardan boshlab bunga qarama-qarshi turgan oqim, ya'ni «usuli qadim» diniy ruhida bo'lgan kishilarni esa qadimchilar, deb atay boshladilar. XIX asr boshlarida bir qancha ma'rifatparvar mudarrislar Buxoro shahridagi 200 ga yaqin madrasani isloh qilish g'oyasi bilan chiqdilar. Bu harakat boshida madrasa mudarrisi Abu Nasr Al Kursaviy turgan edi. Qadimchilar esa ularni kofirlik va xudosisizlikda aybladilar.

Buxoro amiri Haydar esa Kursaviyning zindonga tashlatib, o'lim jazosiga hukm qiladi. Ammo uning tarafdorlari uni zindondan qochiradilar. Kursaviy Qozonda o'z faoliyatini davom ettirib, 1813-yilda vafot etadi. XIX asrning 50-60- yillarida diniy islohotchilik harakati yanada kengaya boshlavdi. Endi bu harakat boshida buxorolik mudarris va tarixchi olim Marjoniy (1818-1889), g'ijduvonlik domla Fozil, Mo'minjon Vobkandiy, mulla Xudoyberdi Boysuniy va boshqa mudarrislar turar edilar. Ular madrasa va maktablarni isloh qilishni emas, balki ortiqcha darslarni olib tashlash tarafdori ekanliklarini yozadilar. Islohotchilar rahnamosi Marjoniy o'zining dasturida quyidagi olti asosiy masalalarni kiritadi:

- Qur'ondagi har qanday diniy masala yuzasidan kishilar bilgan holda o'zlarini erkin fikr yuritsinlar.

- Birovning birovga ko'r-ko'rona ergashishi qat'iy man' qilinсин.

- Madrasalarda Qur'oni karim, Hadisi sharif, ularning tarjimalari va islom tarixi kabi darslar o'tilsin.

- Arifmetika, tarix, jo'g'rofiya, tabobat, xandasa, mantiq, falsafa va boshqa dunyoviy fanlarni o'qishga qarshilik ko'rsatilmasin.

-Har bir ishda musulmonchilikni Muhammad alayhissalom davridagi qadimiy islom madaniyatiga qaytarish ko'zda tutilsin.

Marjoniy va uning tarafdorlari bo'lgan o'sha davrning jadidlari musulmon taraqqiyparvarlaridan edilar, ular madrasalarda diniy darslar bilan bir qatorda qadimiy islom madaniyati davridagidek dunyoviy darslarni o'qitishni shart qilib qo'ydilar. Biroq qadimchilar va amirning kuchli ta'ziqi natijasida ta'qibga uchraganlar. Uning maslakdoshlaridan ko'pchiligi zindonga tashlanib, orqalariga 75 darra urilgach, ular tavba qilib, qaytib bunday ishlarni qilmaslikka va'da berdilar.

XIX asr oxiri - XX asrning boshlarida Turkistonda chor mustamlakachiligining kuchayishi natijasida Markaziy Osiyoning ko'p joylarida jadidchilik harakati kuchayib ketdi. Bu harakat mavjud jamiyatning ijtimoiy-madaniy asoslarini qayta qurishga qaratilgan sababli eski tuzum, eski turmush, eski maktab tarafdorlarining kuchli qarshiligiga duch keldi. Shu tarzda asrimiz boshlarida jadidlar va jadidchilik harakati yuzaga keldi. Yangi asrning boshlanishi bilan avvalgidек ijtimoiy xorlik, iqtisodiy va madaniy qo'loqlik sharoitida yashashi mumkin emasligi, ular uchun oydek ravshan edi. Nafaqat Markaziy Osiyo, balki Rossiyada yashovchi xalqlar ham o'z taqdirini o'zgartiribgina, feodal tuzumning negizlarini parchalabgina yangi hayotga qadam qo'yishlari mumkin edi. Oq podsho idora qilgan mamlakatdagi ana shu og'ir vaziyat tufayli 1905-yil to'ntarishi sodir bo'ldi. Bu to'ntarishdan maqsad jamiyatni demokratlashtirish, sakkiz soatlik ish kunini joriy etish, dvoryanlar ixtiyorida katta yer-mulkni olib, dehqonlarga bo'lib berish va hokozolar edi. Birinchi rus to'ntarishining bu dasturi bilan tanishgan Markaziy Osiyolik taraqqiyparvar ziyolilar tatar qardoshlari ortidan borib, jadidchilik harakatiga kelib qo'shildilar. 1907-yil Eron burjua to'ntarishi, 1908-yil Turkiya burjua to'ntarishi, Markaziy Osiyoda jadidchilik harakatining rasmiylashuvi va kuchga kirishida katta ahamiyat kasb etdi. Ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy islohotlar yo'li bilan xalq va jamiyat hayotini yaxshilashga, madaniy yuksaklikka olib chiqishga qaratilgan dasturni bajarishga kirishdilar. Ular ta'sirida o'zbek zamining boshqa go'shalarida ham jadidchilik harakati avj oldi.

Jadidlar 1906-yildayoq «Taraqqiy» deb nomlangan gazeta nashr ettirib, o'z g'oyalari tarqata boshladilar, oradan ko'p o'tmay, «Xursud», «Shuhrat» singari yangi gazetalar dunyo yuzini ko'rdi. Markaziy Osiyoning turli shaharlarida jadid maktablari bodroqdek ochilib, ularda diniy ilmlar bilan birgalikda dunyoviy bilimlar ham keng targ'ib qilindi. «Jadidlar nima haqida gapirishunasin, hammasi yangi nafas, yangi g'oya edi, proletar mafkurasi ham, ishchilar sinfi ham yo'q edi, tabiat birlamchi deguvchilarning mafkurasini deyarli hech kim tushunmas, biladiganlar esa juda ozchilikni tashkil qilar edi. Shuning uchun jadidchilikning yangi g'oyalar bilan paydo bo'lib, ruhoniyarlarga, hukmron sinflarga qarshi turishi, madaniyatni yaratishi, bir so'z bilan aytganda, yangilik edi, «jadid» jumlasining ma'nosi ham «yangi» demakdir.

Turkistonda jadidlar harakati asoschilaridan biri, jahonga mashhur bo'lgan o'zbekning yagona jo'g'rofiyashunosi, atoqli jamoat arbobi, buyuk islomshunos, ulug' pedagog va axloqshunos, yuksak didli jurnalist, Mahmudxo'ja Behbudiy 1874-yil 10-martda Samarqandning Baxshitepa qishlog'ida ruhoniy oilasida tavallud topdi.

Mahmudxo'ja 6-7 yoshlarida o'qib xat-savod chiqargach, otasi uni qori qilish maqsadida Qur'onni yodlata boshladi. Mahmudxo'ja Qur'onni yod olgach, qorilik bilan qanoatlanmay 15 yoshlaridan tog'asi mufti mulla Odil huzurida dars olishga kirishdi. Bu yerda u «Qofiya», «Shahri mullo», mantiqdan «Shamsiya», «Muxtasar al vakoya», «Hoshiya» va hisob ilmini ham o'rganadi. Mahmudxo'ja o'quvchilar orasida ibratlisi hisoblangan, o'tkir zehni va o'qishga havasi balandlardan edi.

Mahmudxo'ja Behbudiy otasi vafot etganidan so'ng o'qishni tark etib, kasbkorlik qilishga majbur bo'ladi. Samarqand muzofati «Chashmi ob»da endigina qozi bo'lgan tog'asi Muhammad Siddiq huzurida mirzolik xizmatida ishladi. Bu yerda ikki yil xizmat chog'ida, qozixonada ishlari bilan keng tanishdi. Ish yuritish, huquqqa xos hamda muftilikka tegishli barcha yumushlardan xabardor bo'ldi. U ikki yildan so'ng «Qibud» bo'lisiga o'tib mirzolik qiladi va tez orada muftilikka ko'tariladi. 1916-yilgacha shu yerda ishlaydi.

Behbudiy Makkaga borish uchun jiddiy tayyorgarlik ko'radi, arab tilini o'rganadi, islom nazariyalari bilan tanishadi. Hajni yetuklik imtihoni deb biladi va nihoyat 27 yoshida Makkada bo'lib. Hoji va mufti unvonlari bilan qaytadi.

Behbudiy «usuli jadid» maktabining zarurligi, uning qonun-qoidalari, maktabda o'tiladigan darslar, qanday imtihonlar olinishi, maktabning qay tarzda tuzilishi, unga qanday asbob-uskunalar kerakligi, muallimlarning vazifalari, ularning ta'minot masalalari va boshqa ko'p jihatlarini G'aspiralidan va uning asarlari hamda maqolalaridan o'rgandi. Shular asosida Turkistonda «usuli jadid» maktablarini tashkil etish uchun bor kuchini sarfladi. Nafaqat tashkil etish, u shu maktablarni kitoblar bilan ta'minlashda ham jonbozlik ko'rsatdi. U Samarqandning eski shahar qismida bepul kutubxona, qiroatxona, o'z hovlisida maktab ochdi. Mashhur pedagog Abdulqodir Shakuriyning yangi usuldagi maktabini o'z hovlisiga ko'chirib keldi.

1918-yilda Samarqandda «Musulmon ishchi va dehqon sho'rosi» tuzilganda Behbudiy maorif komissari etib tayinlanadi. Shunda u yangi maktablar tarmog'ini

yanada kengaytiradi. O'quv rejaları tuzish, yangi darsliklar yaratish, o'qituvchilar tayyorlaydigan kurslar ochish kabi ishlarini rivojlantirib yuboradi.

Mahmudxo'ja Behbudiy «usuli jadid» maktablari uchun bir qancha darsliklar yozadi. «Muxtarasi tarixi islom» («Islomning qisqacha tarixi»), «Madhali jo'g'rofiya umroniy» («Aholi jo'g'rofiyasiga kirish»), «Muxtarasi jo'g'rofi rusiy» («Rossiyaning qisqacha jo'g'rofiyasi»), «Amaliyotchi islom» va hokazo kitoblari darslik sifatida o'qitilgandi.

Mahmudxo'ja Behbudiyning «usuli jadid» maktabidagi o'qitish ishlari quyidagi tartibda olib borilar edi: «Maktab ikki bosqichdan iborat bo'lib, birinchi bosqich - ibtidoiy qism, deb nomlangan. Buning tahsil muddati to'rt yil. Birinchi yilida: forscha va arabcha yozuv hamda o'qishni o'rganilgan Suralar yod olingan. Hisob darsi o'rgatilgan. Umuman bir yil davomida yozma o'qimoqni to'liq o'rganganlar. Ikkinchi yilida: haftiyak, imon va e'tiqoddan dars, fors, turkiy va arab tilida she'rilar, qasidalar o'qitilgan. Uchinchi yilida: Qur'oni karim, islom ibodati, tajvid, Sa'diydan nasihatlar, fors va turkiy til puxta o'rgatilib, undan insholar yozdirilardi. Hisobdan turli taqsimot va ish yurtish kabi zaruriy jihatlar o'qitilgan. To'rtinchi yilida esa Kalomu sharif, mufassal tajvid, forsiy va turkiy nazm va nasr, axloq darsi, turkiy va forsiy til, hisob tarix, jo'g'rofiya o'qitilgan. Bu to'rt sinfni tamomlagan bolalarni muallimlarning o'zi taqsimlagan. Xohlasa ikkinchi bosqichga qoldirar, ularning o'zlashtirishlariga qarab madrasaga yuborar, bolaning o'zi xohlasa Yevropa maktablarga yuborar yoki tirikchilik uchun ishlashga yo'llanma berardi.

Maktabning ikkinchi bosqichi - rushadiya bo'lib, bunga to'rt sinf - ibtidoiy qismni tamomlaganlar o'tkazilar edi. Bu bosqichda o'qitiladigan dars va ilmlarning mundariyasi quyidagicha: birinchi yili arab tili, jo'g'rofiya, shafaqiya, fors tili, tarjima jumla muxtasar, tarixi anbiyo va islom tarixi, Sa'diyning «Guliston», turkiy tili o'qitilgan; ikkinchi yil - arab tili, shifoxiya, tarix, islom axloq, turk tili, hisob, fors yozuvi va hokazolar, uchinchi yil - arab tili, hisob, xat yozuvi, tarix turkiy til, rus tili ham o'qitilgan; to'rtinchi yil - arab tili, rus qozixonaxatlari, turk tili va adabiyoti, salomatlik, maktab va hayot, ishq va muhabbatsiz axloq va boshqa ko'pgina hayotiy darslar o'qitilgan.

Behbudiy axloq va tarbiyaning asosi - maktab, barcha ilmning boshi va ibtidosi maktab, saodatning, fozil insonning ma'naviy chashmasi - maktab degan aqidaga amal qilardi. Bu borada «Turkiston vilovatining gazetasi», «Taraqiyiy», «Xurshid», «Shuhrat», «Osiyo», «Turon», «Hurriyat», «Oina», «Samarqand», «Mehnatkashlar tovushi», «Ulug' Turkiston», «Najot», «Tirik so'z», «Tarjimon», «Vaqt», «Sho'ro» kabi matbuot sahifalarida yuzlab maqolalar bilan chiqishlar qildi. Ushbu maqolalar asosan tahsil va ta'limning taraqqiyotiga bag'ishlanardi. Masalan: «Tahsil oyi», «Ehtiyoji millat», «Samarqand usuli jadid maktabi xususida», «Majlis intihon», «Tarix va jo'g'rofiya», «Samarqand kitobxon islomiy», «Samarqand kitobxona va matbaaxona», «Samarqand isloh rusum majlisi», «Buxoroda usuli jadida» kabi chiqishlarida yangi usul maktablari, uning ahamiyati o'qitish tizimlari, yangi maorif va madaniyatni rivojlantirish, dunyoviy fanlarning nafi, ma'rifatga rag'bat, komil insonning tarbiyasi haqidagi muhim ma'rifiy fikrlarni o'qish mumkin edi.

Behbudiy ta'lim va tarbiya hamda uning muammolari to'g'risida boy publisistik meros qoldirdi. Jumladan, «Imon va islom», «Ixtiyoji millat», «Buxoroda usuli jadida», «Hurriyat - ozodlik - erkinlik», «Tahsil oyi», «Ikki emas, to'rt til lozim», «Turkiston», «Millatni kim isloh etar», «Yoshlarga murojaat», «Vatanparvarlik kerak», «Bizni kemiruvchi odatlar», «Buxoro xonligiga sayohat», «Ibtidoiy maktablarning tartibsizligi yoxud taraqqiyning yo'li», «Bizga isloh kerak», «Haq olinur, berilmas», «Samarqandda milliy ishlar haqida» va boshqalar.

Mahmudxo'ja Behbudiyning yangi maktablar uchun yozgan asarlari maktablarning islohida katta hodisa bo'ldi. Ayni davrda bu darsliklar nazariy, ilmiy va amaliy jihatdan keng qo'llanildi. Bu kitoblarning bugungi kunda ham qadri yo'qolganicha yo'q. «Kitobatul atfol» («Bolalar maktubi») asari o'z davrida bir necha marta nashr etilgandi. Bu kitobga qirqtaga yaqin forsiy va turkiy insholardan namunalar kiritilgan. Shahodatnoma va boshqa ish yuritishga doir hujjatlar yozishni o'rganishdan ta'lim beradi hamda namunalar ham keltirilgan. Volostnoyxona, qozixonada yoziladigan hujjatlar ham mana shu kitob orqali o'rgatilgan. Yosh va kattalarga mo'ljallangan 36 sahifalik to'plam Respublikamizga davlat maqomi berilgan, mustaqillik qaror topayotgan damlarda bu kitob nazariy-ma'rifiyga emas, balki amaliy ahamiyatga ham egadir. O'zbek tilida ish yuritishimizda bu kitob juda qo'l keladi. Kitobning maqsadi ham shunga qaratilgan.

Behbudiy Turkistonda yetishtirilayotgan mahsulotlar arzon baholarda Ovrupo bozorlariga olib ketilayotganidan achinadi. Bizda ham Ovrupo bozorlarida savdosotiq qiladigan mutaxassislarning yetishib chiqishlarini istaydi: «Turkiston mevasi... donasi, toshi, tufrog'i... va nemuslari Ovrupo bozoriga ketar. Muni Ovrupo dollari kelib oz bahoga olib ketar. Mehnatni biz qilarmiz, foydani ular ko'rar». Shuning uchun deydi, Behbudiy: «Ovrupa ila savdo qilaturgon kishi avvalo zamona ilmi o'qimog'i lozim. U millat taraqqiyotining ma'naviyati - ham tarbiyasi, ham iqtisodi, ham ma'rifati» deb qaradi.

Behbudiy Turkistonning kelajagini o'ylar ekan, millatimizning taraqqiyoti borasida turli yo'llarni qidirdi. Boylarga ham murojaat etdi: «Boshqa millatlarning boylari faqir va yetimlar uchun maktab va donlfununlar soldururlar, faqir va etimlarning o'qimog'i uchun vaql (stipendiyalar) tayin qilur. Butun Turkiston o'n boy elinda ming so'mdan bersa, 25 bola uchun Toshkentda (diniy va zamonaviy) bir pansionli va nahorli mukammal maktab bino bo'lur, har yil hukumat maktabinda 50 bola tayyorlaydur». Agar shunday bo'lsaki, o'n yillar orasida bizda yaxshi-yaxshi o'qimishli muhandis, shifokor, huquqshunos, iqtisodchi kabi mutaxassislar yetishib chiqardi, deb umid qiladi.

Behbudiy ijodiy faoliyatidagi bosh masala Turkistonda maorif taraqqiyotidir. U «- dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdir. Zamona ilm fanidan bebahra millat, boshqa millatlarga paymol bo'lur» - degan shiorga sodiq harakat qildi.

Mustamlaka Turkistonni ilmsizlik jaholatidan qutqarish uchun eski maktabni isloh qilishni zarurligini isbotlab, usuli jadidiyaga asos soldi.

Behbudiyning g'oyalari milliy pedagogika tarixga qo'shilgan ulkan hissadir. Uning pedagogik fikrlari faqat u yashagan davr uchungina emas, balki hozirgi yoshlar tarbiyasida ham samarali xizmat qiladi.

Turkistonda jadidlar harakatining rahbarlaridan biri - Munavvar qori Abdurashidxon o'g'li Turkiston tarixida milliy maorif va madaniyat, ijtimoiy-siyosiy sohada tub burilish yasagan shaxsdir.

U o'z millati fidoyisi sifatida Turkiston musulmon xalqlari milliy-ozodlik harakatining Toshkentdagi «Sho'roi Islomiy», Qo'qondagi «Turkiston muxtoriyati» tashkilotlariga rahbarlik qilgan.

Munavvar qori 1901—1904-yillarda qirimlik do'sti Rasm Keshod yordamida Toshkentda «usuli savtiya» maktabini ochadi, ayni vaqtda maktabda imomlik ham qiladi. 1906-yilda esa yangi usul maktabi sohasidagi faoliyatini o'z uyining tashqari hovlisida davom ettiradi, oradan ko'p vaqt o'tinay maktab uchun ikki xonalik qo'shimcha bino qurdiradi. Qisqa muddat ichida bu maktab dovrug'i ortadi, bolalar soni ko'payib ketadi. Natijada qori akaga hammahalla bo'lgan Buvaxon to'ra Poshshaxon o'g'lining tashqi hovlisida maktabning ikki sinfli sho'basi ochiladi. Bu yerda 1, 2-sinflarni bitirgan bolalar o'qishni Munavvar qori hovlisida davom ettirganlar.

1913—14 o'quv yilida maktabda yuqori sinflar (5 va 6-sinflar) ochila boshlaydi. To'rtinchi sinfdan rus tili ham o'quv fani sifatida o'rgatiladi. U maktabni isloh qilmay turib, odamlarning ongida o'zgarish yasab bo'lmasligini yaxshi tushunib yetgan edi. Munavvar qori farzandlarning taqdiri uchun otalar zimmasida katta mas'uliyat borligini ta'kidlaydi. Munavvar qori maktab o'qituvchilarining qiyofasini tavsiflab, aksar o'qituvchilar — badxulq, zolim, bolalarni kaltaklashadi, ya'ni «Muallim afandi qo'lida zo'r bir tayoq, qaysi bolani boshi harakatdan qolsa, ushbu tayoq shu bolani boshida o'lur. Ammo o'qug'on- o'qumag'on ila hech kimni ishi yo'q. Boshni qimirlatib o'tursa, kifoya qilur. Hattoki o'tgan yillarda bu tariqa zolim muallimlarni tayoqini ostida vafot qilmoq ham voqe' o'ldi. Bu tariqa zolim va badxulq, johil muallimlarni tarbiyasida o'skan bolalardan nima umid qilmoq kerak»... Munavvar qori o'qitishning bunday yaramas usuli qanday oqibatlariga olib kelishi haqida kuyunib yozadi: «... boshqa viloyatlarda xat bilmayturg'on kishi yuzdin o'n bo'lsa, Turkiston viloyatida yuzdin to'qsondir»¹⁸. Bunga bois maktabda o'qitiladigan dars va kitoblarning usul (metodika) jihatidan maqsadga muvofiq emasligi, muallimlarni pedagogik talablarga javob berolmasligi kabilardir deydi.

Munavvar qori maktab tartib qoidalariga qat'iy amal qilishni muallimlardan ham talab qilgan, bolalar bilan qo'pol muomalada bo'lishni, ularni urish va jerkishni taqiqlagan. U bolalarga beriladigan jazo va tanbeh juda demokratik va insonparvarlik ruhida bo'lishi lozim, deydi.

Munavvar qori ziyoli yoshlarni chet elga yuborishni, u yerda ilm-fanni o'rganishni targ'ib qiladi. Masalan, u 1916-yili Toshkentda yig'ilishda nutq so'zlab shunday deydi: «O'zbek ziyoli bolalarining Germaniyaga vuborib o'qitishga juda muhtojmiz, bolalar o'qib, ilm tahsil olib kelsalar, millatga katta xizmat qila oladilar»¹⁹.

Munavvar qori 1909-yili Ubaydulla Xo'jayev, Abdulla Avloniy, Toshpo'latbek Norbo'tabekov, Karim Norbekov va boshqalar bilan hamkorlikda toshkentlik bir boynig ransligida «Jamiyati xayriya» tashkil etadi. Bu jamiyat orqali qashshoq

¹⁸ Munavvar qori. («Тараqqiёт» газетаси, 1906 йил, 14 июнь, №1)

¹⁹ «Шарк юлдузи» журнали 1992 йил, 5-сон, 108-бет

va kasalmand kishilarga, o'quvchilarga yordam ko'rsatadi va bu bilan cheklanmaydi, u Rossiya va Turkiyadagi oliy o'quv yurtlariga talabalar yuborish bilan ham shug'ullandi. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda shu jamiyatning yordami bilan Mirmuhsin Shermuhammedov Ufadagi «Oliya» madrasasida o'qigan. Munavvar qori 1906-vil sentabrida «Xurshid» jurnalini nashr ettirib, o'zi muharrirlik qiladi. Bu jurnal o'zbek xalqining ko'zini ochishga, fikriy uyg'onishga, o'z haq-huquqini tanishiga xizmat qilgani uchun oq poshsho malaylari tomonidan tezda yopib qo'yildi. Keyinroq u «Najod», «Surat», «Haqiqat», «Turon» gazetalarida bosh muharrir bo'lib ishladi. U matbuotni elni g'afolat uyqusidan uyg'otuvchi buyuk kuch, madaniyat va ma'rifatga chorlovchi qudratli vosita, haqiqat ko'zgusi, deb qaradi. U Turkistonning mustamlakaga aylanishi, millatning inqirozga uchrashi sabablarini ochib beradi: «Bu zamondan yuz yildan ziyodroq muqaddam zamondan boshlab ohista-ohista millat devorlarining har tarafiga rahna paydo bo'ldi. Munga sabab ulamo va ulamlarimizning o'z nafslari riyosida harakat qilmoqlari bo'ldi. Podshoh va xonlarimiz bo'lsa, millatga qilgan xizmatlari tanho xotin olmoq va kuchuk urushtirmoq va beg'ayrat va behaqqoniyat dindor kishilarni badarg'a qilmoq va tutib o'ldirmoq bo'ldi. Millat nima va shariyat nima bilmadilar. Shuning uchun millat devorining rahnalari tobora ziyoda bo'ldi».

Munavvar qori fors, arab, rus, turk tillarini mukammal bilgan, u ko'p ulug' adiblarning asarini mutolaa qilgan. Munavvar qorining yangi usul maktabida, 1908-yil sentabrida o'quvchilarning imtihoni bo'lib, imtihonga o'z bolalarining yutuqlaridan quvonish uchun ota - onlar tashrif buyurishadi. Yig'inda 200 dan ortiq odam yig'ilganligi haqida ma'lumotlar yozib qoldirilgan. Tartibni nazorat qilib tunsh uchun kelgan mirshab va Shayxontohur mahalla oqsqoqli qatnashgan. Yangi usul maktablariga, umuman olganda, salbiy munosabatda bo'lgan, ularning faoliyatini kuzatib, nazorat qilib turgan, Turkiston chor hukumatining ma'murlaridan biri - N. Sayfi majburan tan olib «Ular bolalarga foydali ma'lumotlar va bilimlar bermoqda va ularning ongini o'stirmoqda. Yangi usul maktablari o'quvchilari o'zlarining fahmli, ongli ko'rinishi bilan jur'atsiz, qo'rqqoq, tortinchoq eski maktab bolalaridan, ayniqsa. Toshkentda ajralib turadi» (O'zR MDA. 47-f. 1-op. 1148-ish. 149-bet).

O'sha davr jadid maktablarida dunyoviy fanlarni o'qitishga katta e'tibor berilgan. To'rt yillik yangi usuli jadid maktablarida arifmetika, geografiya, tarix, tabiatshunoslik, adabiyot, odohnoma, arab, fors tillari o'qitilgan. Munavvar qori o'zi ochgan maktablar uchun 1910-yilda o'quv dasturi tuzgan. Bu dastur ixcham va namunaviy bo'lganligi uchun ko'pchilik jadid maktablari o'qituvchilari undan o'z ish faoliyatlarida foydalanganlar. Dasturda har bir sinf uchun o'qitiladigan fanlarning haftalik soatlari alohida bo'lib ko'rsatib berilgan. Dasturdan jadid maktablarining yana bir afzallik tomoni maktabda o'qitish, fanlarni o'zlashtirishning tezlashtirilganligi ko'rinadi. 4 yillik boshlang'ich jadid maktablandan 5-6 yil eski maktabda o'qitilgan asosiy diniy fanlar o'rganilgan va qo'shimcha ikki baravar ko'p miqdordagi dunyoviy darslar o'qitilgan. Munavvar qori jadid maktablari o'quvchilari uchun diniy va dunyoviy fanlar bo'yicha ko'plab darsliklar yozgan. Dasturda ko'rsatilgan darsliklardan tashqari «Sabzazor» (She'riy to'piram), «Yer

yuzi» (Jug'rofiya), va «Tarixi islomiy» nomli darsliklarni ham tayyorlagan va ular maktablarda o'qitilgan

Umuman, Munavvar qori Abdurashidxon o'g'li ma'rifatparvar inson, istiqloq uchun kurashgan, pedagogik fikr rivojiga munosib hissa qo'shgan mutafakkir olim sifatida shuhrat qozondi.

Taniqli ma'rifatparvar adib Abdulla Avloniy pedagogik fikr taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shgan, o'z asarlarida o'zbek xalqining eng yaxshi an'analarni, ta'lim-tarbiyaga oid muhim hayotiy masalani aks ettirgan pedagog, olimdir.

Abdulla Avloniy 1878-yil 12-iyulda Toshkent shahriining Mergancha mahallasida, mayda hunarmand-to'quvchi oilasida dunyoga keldi.

XX asr boshlarida O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy hayotida pedagogik fikrlarning rivojida Abdulla Avloniy alohida o'rin egalladi. Butun faoliyati davrida u o'z xalqiga xizmat qiladigan komil insonni yetishtirish, uning ma'naviyatini shakllantirishga alohida e'tibor berdi.

Abdulla Avloniy o'zbek xalqning san'ati va adabiyoti hamda milliy madaniyatini, xalq ta'limi ishlarini yo'lga qo'yishda katta xizmatlar qilgan adib, jamoat arbobi va iste'dodli pedagog hisoblanadi.

Abdulla Avloniy 1907-yilda Toshkentning Mirobod mahallasida, keyinchalik Degrez mahallasida yangi usuldagi maktablar ochdi. Maktablardagi o'quv asbob-jihozlarini o'zgartirdi, o'z qo'li bilan parta va doskalar yasadi. Maktabga qabul qilingan bolalarning asosiy qismi kambag'al kishilarning bolalari bo'lganligi uchun ularni kiyim-kechak, oziq-ovqat, daftar-qalam bilan ta'minlash maqsadida, do'stlarining ko'magida «Jamiyati xayriya» tashkil etadi va bu jamiyatga o'zi raislik qiladi. «Nashriyot» shirkati tuzib, Xadrada «Maktab kutubxonasi» nomli kitob do'konini ochdi. Avloniyning maktabi o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalariga ko'ra mashg'ulotlarni sinf-dars tizimi asosida o'z ona tilida olib borilishi bilan eski usul maktablaridan farq qiladi. U o'z maktabida bolalarga geografiya, tarix, adabiyot, til, hisob, handasa, hikmat kabi fanlardan muayyan ma'lumotlar beradi.

Abdulla Avloniy «Usuli jadid» maktablari uchun to'rt qismdan iborat «Adabiyot yoxud milliy she'rlar» hamda «Birinci muallim» (1912), «Turkiy guliston yoxud axloq» (1913), «Ikkinchi muallim» (1915), «Maktab gulistoni» (1917) kabi darslik va o'qish kitoblari yaratdi. Bu asarlarida hamda publisistik maqolalarida dunyo xalqlari madaniyatini, ilm-fanni, maktab va maorifni ulug'lab, o'z xalqini ilmi, madaniyatli bo'lishga chaqirdi.

XX asr boshlarida yangi maktablar uchun yozilgan alifbelar anchagina edi. Shular orasida Avloniyning «Birinci muallim»i ham o'ziga xos o'ringa ega; «Birinci muallim» 1917-yil to'ntarishiga qadar 4 marta nashr etilgan. Avloniy uni yozishda mavjud darsliklarga, birinchi navbatda Saidrasul Azziyning «Ustozi avval»iga suyanadi (dars berish jarayonida orttirgan tajribalaridan samarali foydalanadi).

Avloniyning «Ikkinchi muallim» kitobi «Birinci muallim» kitobining uzviy davomidir.

Abdulla Avloniyning pedagogikaga oid asarlari ichida «Turkiy guliston yoxud axloq» asari XX asr boshlaridagi pedagogik fikrlar taraqqiyotini o'rganish sohasida katta ahamiyatga molikdir.

«Turkiy guliston yoxud axloq» asari axloqiy va ta'limiy tarbiyaviy asardir. Asarda insonlarni «yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlardan qaytaruvchi» ilm-axloq haqida fikr yuritiladi. Shu jihatlardan qaraganda bu asar Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig», Nosir Hisravning «Saodatnoma», Sa'diyning «Guliston» va «Bo'ston», Jomiyning «Bahoriston», Navoiyning «Mahjub ul-qulub», Ahmad Donishning «Farzandlarga vasiyat» asarlari shaklidagi o'ziga xos tarbiyaviy asardir.

Abdulla Avloniy pedagog sifatida bola tarbiyasining roli haqida fikr yuritib «Agar bir kishi yoshligida nafs buzulib, tarbiyasiz, axloqsiz bo'lib o'sdimi, allohu akbar, bunday kishilardan yaxshilik kutmoq yerdan turub yulduzlarga qo'l uzatmak kabidur», — deydi. Uning fikricha, bolalarda axloqiy xislatlarning tarkib topishida ijtimoiy muhit, oilaviy sharoit va bolaning atrofidagi kishilar g'oyat katta ahamiyatga ega.

O'zbek pedagogikasi tarixida Abdulla Avloniy birinchi marta pedagogikaga «Pedagogiya», ya'ni bola tarbiyasining fanidir», deb ta'rif berdi. Tabiiy bunday ta'rif Avloniyning pedagogika fanini yaxshi bilganligidan dalolat beradi.

Abdulla Avloniy bola tarbiyasini nisbiy ravishda quyidagi to'rt bo'limga ajratadi: 1. «Tarbiyaning zamoni». 2. «Badan tarbiyasi». 3. «Fikr tarbiyasi». 4. «Axloq tarbiyasi» haqida hamda uning ahamiyati to'g'risida fikr yuritadi.

«Tarbiyaning zamoni» bo'limida tarbiyani yoshlikdan berish zarurligini, bu ishga hammani: ota-ona, muallim, hukumat va boshqalarning kirishishi kerakligini ta'kidlaydi.

«Al-hosil tarbiya bizlar uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir» deb uqtiradi, Abdulla Avloniy.

Tarbiya xususiy ish emas, milliy, ijtimoiy ishdir. Har bir xalqning taraqqiy qilishi, davlatlarning qudratli bo'lishi avlodlar tarbiyasiga ko'p jihatdan bog'liq, deb hisoblaydi adib.

Tarbiya zurniyot dunyoga kelgandan boshlanib, uning oxiriga qadar davom etadi. U bir qancha bosqichdan — uy, bog'cha, maktab va jamoatchilik tarbiyasidan tashkil topgan. Avloniy tarbiyaning doirasini keng ma'noda tushunadi. Uni birgina axloq bilan chegaralab qo'ymaydi. U birinchi navbatda bolaning sog'ligi haqida g'amxo'rlik qilishi lozimligini uqtiradi.

Avloniyning fikricha, sog'lom fikr, yaxshi axloq, ilm-ma'rifatga ega bo'lish uchun badanni tarbiya qilish zarur. «Badanning salomat va quvvatli bo'lmog'i insonga eng kerakli narsadir. Chunki o'qumoq, o'qutmoq, o'rganmoq va o'rgatmoq uchun insonga kuchli, kasalsiz jasad lozimdir».

Abdulla Avloniy badan tarbiyasi masalasida bolani sog'lom qilib o'stirishda ota-onalarga murojaat qilsa, bolani fikr tomondan tarbiyalashda o'qituvchilarning faoliyatlariga alohida e'tibor beradi.

Bolalarda fikrlash qobiliyatini o'stirish va bu tarbiya bilan muntazam shug'ullanishi benihoya zarur va muqaddas bir vazifa. Binobarin, u muallimlarning «diqqatlariga suvangan, vijdonlariga yuklangan muqaddas vazifadur... Negaki fikrning quvvati, ziynati, kengligi, muallimning tarbiyasiga bog'liqdur»²⁰.

Ayni zamonda muallif ta'lim va tarbiya uzviy bog'liq ekanini ham ta'kidlaydi: «Dars ila tarbiya orasida bir oz farq bor bo'lsa ham, ikkisi bir-biridan ayirmaydurgan, birining vujudi biringa boylangan jon ila tan kabidur»²¹ - deydi.

«Aql, - deydi Avloniy, — insonlarning piri komili, murshidi yagonasidur, ruh ishlovchi, aql boshlovchidur. ... insonni hayvonlardan so'z va aql ila ayir- mishdur. Lekin inson aql va idroki soyasida o'ziga keladigan zarar va zulmlardan saqlanur. Yer yuzidagi hayvonlarni asir qilib, bo'ynidan boylab, iplarining uchini qo'llariga bergan insonlarning aqlidur». Avloniy insonga va uning aqliga ana shunday yuksak baho beradi. «Ilm insonlarning madori, hayoti, rahbari najotidur. Agar aqlingni qo'li nafsingni jilovini ushlasa, sani yomon yo'llarga kirmoqdan saqlar. Har narsa ko'p bo'lsa, bahosi arzon bo'lur, ammo aql esa ilm va tajriba soyasida qancha ko'paysa, shuncha qimmatbaho bo'lur».

Abdulla Avloniy «Turkiy guliston yoxud axloq» kitobida ma'nfatparvarlik g'oyalarini targ'ib qilib ilm to'g'risida bunday deydi: «Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidur. Ilm inson uchun g'oyat oliy, muqaddas bir fazilatdur. Zeroki, ilm bizga o'z ahvolimizni, harakatimizni oyma kabi ko'rsatur. Zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o'tkur qilmoq, ... Ilmsiz inson mevasiz daraxt kabidur...». Avloniy ilmni umuman emas, balki uning amaliy va hayotiy foydalarini aytib, «Bizlarni jaholat, qorong'ulikdan qutqarur. Madaniyat insoniyatni ma'rifat dunyosiga chiqarur, yomon fe'llardan, buzug' ishlardan qaytarur, yaxshi xulq va odob sohibi qilur... Alhosil butun hayotimiz, salomatimiz, saodatimiz, sarvatimiz, maishatimiz, himmatimiz, g'ayratimiz, dunyo va oxiratimiz ilnga bog'lidur»²².

Abdulla Avloniy o'tmish mutafakkirlari kabi yoshlarni foydali kasb-hunar egallashga chaqiradi. Adib boylik ketidan quvuvchilarni, ularning odamgarchilikka to'g'ri kelmaydigan ishlar bilan shug'ullanayotganini ko'rib, ulardan nafratlanadi. Avloniy yoshlarni boylikka ruju qo'ymaslikka undaydi. Boylikni o'tkinchi bulutga o'xshatadi.

Avloniy intizomni inson karakterini tarbiyalovchi, mukammallashtiruvchi manba, deb biladi hamda unga doim rioya qilish kerakligini ta'kidlaydi: «Intizom qiladurgan ibodatlarimizni, ishlarimizni har birini o'z vaqtda tartibi ila qilmoqni aytilur. Agar yer yuzida intizom bo'lmasa edi, insonlar bir daqiqa yashay olmas edilar. Har bir millatning taraqqiysi va toliysi ishlarini vaqtda, nizomdan chiqarmay tartibi ila yuritilmoqqa bog'liqdur... Chunki tartib va nizomni rioya qilmagan kishilarning ishleri hamma vaqt notamom, o'zlari parishon bo'lurlar. Ammo ishlarini tartib uzra yuritgan kishilarning ishleri yerda, o'zlari tinch va rohatda o'tkarurlar»²³.

Vatan tuyg'usi eng insoniy va eng mo'tabar tuyg'ulardan biri. Vatanni shunchaki sevish mumkin emas. uning dardi bilan yashamoq, uning baxtidan quvonmoq u bilan faxrlanmoq kerak. Avloniy Vatan va uning oldidagi burchni shunday tushunadi:

«Har bir kishining tug'ulib o'sgan shahar va mamlakatini shul kishining vatani devilur. Har kim tug'ilgan, o'sg'on verini jonidan ortiq suyar. Hatto bu vatan

²¹ Usha kitob, 15-bet

²² A. Avloniy, «Turkiy guliston yoxud axloq», 17-bet

²³ Abdulla Avloniy, «Turkiy guliston yoxud axloq», 26-bet

his-tuyg'usi hayvonlarda ham bor. Agar bir hayvon o'z vatanidan — uyuridan ayrilsa, o'z yeridagi kabi rohatda vashamas...

Biz turkistonliklar o'z vatanimizni jonimizdan ortiq suydig'imiz kabi, arablar Arabistonlarini, qumlik, issiq cho'llarini, eskimular shumol taraflarini, eng sovuq qor va muzlik yerlarini boshqa yerlardan ziyod suyarlar. Agar suymasalar edi, havosi yaxshi, tiriklik oson yerlarga o'z vatanlarini tashlab hijrat qilur edi»²⁴, — deydi Avloniy.

Abdulla Avloniy 1920-yildan boshlab Toshkentda tashkil qilingan o'lka bilim yurtida, so'ngra xotin-qizlar bilim yurtida mudirlik qildi. U xalq maonf institutida, turkfront harbiy maktabida (harbiy bilim yurti) o'qituvchi bo'lib ishladi. 1924—29-yillarda O'rta Osiyo Davlat universitetida (SAGU) va boshqa oliy o'quv yurtlarida o'qituvchilik qilish bilan birga ilmiy tadqiqot ishlari olib bordi.

Abdulla Avloniyning ta'lim-tarbiya sohasidagi qarashlari o'zbek xalqining ruhiyati, turmush tarzi, milliy qadriyatlar bilan chambarchas bog'langan. Uning boy pedagogik merosi milliy maktab va pedagogikani rivojlantirishda qimmatbaho manba bo'lib xizmat qiladi.

Abduqodir Shakuriy 1875-yilda Samarqandning Rajabamin qishlog'ida bog'bon oilasida tug'ildi.

Shakuriy eski usuldagi maktabni tamomlaganidan keyin Samarqand shahridagi madrasaga o'qishga kirdi. Shakuriy o'zbek va tojik tillarida yozgan tarjimai hollarida rus gimnaziyasiga borib, uning ichki tartib qoidalari va o'qitish usullari bilan tanishligini qayd qiladi. Shundan keyin yosh muallimda o'z xalqining bolalari uchun ham shu tartibdagi yangi maktab tashkil qilish orzusi paydo bo'ladi.

Shakuriy do'stlari yordamida Qo'qon shahriga boradi va u yerda o'n kun davomida yangi maktabdagi o'qish-o'qitish usullari bilan tanishadi. Samarqandga qaytib kelgach, bu yangi usullarni o'zi ochgan maktabda qo'llay boshlaydi.

Shakuriy dastlab maktabda o'quv jihozlarini o'zgartiradi. U ustalarga parta va doskalar buyuradi. Shu asosda birinchi marta o'z qishlog'i Rajabaminda 1901-yilning kuzida yangi usuldagi maktab tashkil qiladi. U davrlarda darslik va qo'llanmalar bo'lmaganligi sababli Shakuriy harflarni doskaga yozib qo'yar, o'quvchilar esa shuni o'z daftarlariga ko'chirib yozar edilar. Shuningdek, u qisman tatar tilida yozilgan kitoblardan ham foydalanar edi.

Shakuriy o'z xotiralarida tatar pedagogi Abdulkodiy Maqsudiyning «Muallimi avval», «Muallimi soniy» kabi darsliklaridan o'z vaqtida foydalanganligini ko'p marta eslaydi.

Chor hukumatining mahalliy amaldorlari bu maktabning ochilishiga rasman qarshi bo'lib, uning o'quv dasturini qattiq nazorat qilardilar. Ular maktabda o'tiladigan diniy darsliklarga hech qanday to'siqlik qilmas, ammo dunyoviy fanning o'qitilishidan tashvishlanar edilar.

Shogirdlarining aytishicha, Shakuriy qiyinchiliklar bilan qo'lga kiritgan yagona globusni faqat maxsus vaqtda sinfga olib kirar, boshqa vaqtda esa yashirib qo'yar ekan.

²⁴ Usha kitob, 28-bet.

Shakuriy maktabida tojik va o'zbek bolalari birga o'qitilar edi. Bu yerda tojik tili asosiy til hisoblanar, bolaning savodi chiqqach, o'zbek va tojik tillarida yozilgan kitoblar o'qitilar edi. Shu bilan bir qatorda, o'quvchilarni ozarbayjon va tatar adabiyoti namunalari bilan tanishtirish maqsadida shu tillarda yozilgan ayrim parchalar ham o'qitilar edi. Shakuriyning tarjimai holida aytilishicha, bu maktabning to'liq dasturi bo'lgan.

U vaqtlarda maktablarda Qur'oni karim o'qitilar va yodlatilar edi. Shuning uchun yangi usul maktablarida ham diniy kitoblar o'qitilar edi, chunki hech bir ota-ona Qur'on yoki biror diniy kitob o'qitilmagan maktabga bolalarini bermas edi. Shuning uchun maktablarda «Haftiyak» ham asosiy o'qish kitoblaridan biri hisoblanar edi.

Tatar pedagogi Maqsudiy o'z maktabi uchun darsliklar tuzganda, arab tili qoidalarini va alfavitini o'qitishga alohida e'tibor bergan. Shakuriy ham o'z maktabida bunga rioya qilgandi. O'qitishdagi bu usul eski maktablardagi o'qitish usullariga qaraganda savod chiqarishni ancha yengillashtirar edi.

Shakuriy o'z o'quvchilar uchun bir yilda bir marta imtihon uyushtirar edi. Imtihonda u ota-onalar oldida o'quvchilar bilimining natijalarini namoyish qildirar edi, ota-onalar esa o'z bolalarining qisqa muddat ichida xat-savodli, hisob, geografiya va tibbiyotdan ma'lumotga ega bo'lganini ko'rib hayratlanardilar.

Shakuriy maktabining shuhrati keng tarqala boshladi, O'rta Osiyodagi boshqa ma'rifatparvar kishilarning diqqatini jalb etdi.

Jumladan, o'zbek adabiyotining asoschisi, buyuk shoir, dramaturg va pedagog Hamza Hakimzoda Niyoziy Shakuriy ochgan maktab bilan juda qiziqqan.

U 1909-yilda Shakuriy ochgan maktabini ko'rish, uning imtihonlarida qatnashish uchun Samarqandga keladi. Bu maktabdagi o'qish-o'qitish tartibi va imtihon natijalari Hamzada yaxshi taassurot qoldiradi. Hamza va Shakuriy bir-birlari bilan do'stlashib, ko'p yillar davomida xat yozishib turadilar.

Shuni qayd etish kerakki, Shakuriy taqat o'qituvchilik qilish bilangina cheklanib qolmagan, u o'z maktabi uchun darsliklar yozib, ularni o'z mablag'lari hisobiga nashr qildirgan. Chunki, tojik va o'zbek bolalarini tatar tilida yozilgan darsliklar bilan o'qitish katta qiynchiliklar tug'dirar, bu darsliklar bolalar uchun uncha tushunarli emas edi. Shuning uchun, u o'quvchilarga ularning ona tilida darsliklar yaratish zarur, deb hisoblardi.

Shunday bir sharoitda Shakuriy bolalarning o'z ona tilida o'qish kitoblari, darsliklar yaratish zaruriyatini yaxshi tushunadi. U bolaning yosh xususiyatiga muvofiq tarzda axloq, odob va turmush qoidalaridan dastlabki ma'lumot berishni ko'zda tutib, ana shunday darsliklar tuzishga kirishadi. Birinchi navbatda, alifbeni Shakuriyning o'zi tuzdi. «Rahnamoi savod» («Savod chiqarish rahbariyati»), deb atalgan bu kitob yaxshi qog'ozda nasta'liq xati bilan yozilgan edi. Shakuriyning shogirdi, yozuvchi Rahim Hoshimning aytishiga qaraganda, bu kitobda so'zlar bo'g'inlarga ajratib ko'rsatilgan, kitob oxirida o'qish uchun kichik-kichik material berilgan ekan. Shakuriy ko'p yillik pedagog faoliyati natijasida bolalarni o'qitishda «tovush-harf» metodi (har bir tovushni alohida harf bilan yozish)ning qulay va oson ekanligini aniqladi va 1913-yilda uning rahbarligida o'z shogirdlaridan va Samarqandning mashhur pedagoglaridan biri Ismatulla Rahmatullayev tovush-harf

usuli asosida yangi alifbe tuzdi. Bu kitob Toshkent shahrida nashr qilindi. Bu kitob arab harfida tojik tilida yozilgan bo'lib, u ko'p yillar davomida savod chiqarishda eng yaxshi o'quv qo'llanmasi sifatida qo'llanib kelindi. Kitobning kirish qismida tez va osonlik bilan savodli bo'lish masalasiga oid metodik maslahatlar beriladi.

«Alifbe ta'limi» Ismatulla Rahmatullayevning 10—12 yillik ijodiy ishlari va uning ustozlari Abduqodir Shakuriyning ko'p yillik amaliy faoliyatining natijasida yaratildi. Ular ko'p yillar davomida boshlang'ich ta'limning turlicha metodlarini qo'llash, o'z tajribalari, shuningdek yangi usuldagi o'qish-o'qitish usullari va ko'pdan-ko'p alifbe kitoblarini o'rganish, umumlashtirish asosida bu kitobni tuzdilar. Alifbe 46 betdan iborat bo'lib, taxminan 90 ta dars uchun mo'ljallangan.

Shakuriy tomonidan 1907-yilda yozilgan ikkinchi kitob «Jome' ul hikoyat» («Hikoyalar to'plami»)dir. U qayta tuzatilib, to'ldirilib, 1911 -yilda ikkinchi marta nashr qilingan. Kitob boshlang'ich maktabning ikkinchi sinfi uchun xrestomatiyadir.

Yetmish ikki betli bu kitobning matni nafis qog'ozda aniq, chiroyli xat bilan yozilgan. Birinchi qismiga tarbiyaviy ahamiyatga molik 48 ta kichik-kichik hikoyalar kiritilgan. Ikkinchi qismida mumtoz yozuvchilarning asarlari va tarjumalaridan olingan 15 ta she'riy parcha berilgan.

Kitobning ta'lim-tarbiyaviy ahamiyati shundan iboratki, undagi o'quv materiallarining hammasi bolalarda axloqiy sifatlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shakuriy tomonidan tuzilgan va nashr qilingan yana bir kitob «Zubdat ul ash'or» to'plami bo'lib, unda ko'p shoirlarning she'rlari berilgan.

Kitobdagi yangi usul maktabiga atab yozilgan tojik tilidagi she'rda shunday deyiladi:

— Ey muallim, maktabing taraqqiyot topib, semur bo'lsin, yaxshi noming to abad dunyoda mashhur bo'lsin. G'ayrat qil, toki biz olimu dono bo'laylik, - axir, bir savtiya usulning sevguchilarimiz, tarbiyat qil, har kishining xotirini shod qil. Har fandan bizga o'rgat, biz bahramand bo'lib nodonlikni nari quvaylik. Garchi nodon kishilar senga ta'na-haqqorat etsalar ham g'am yema. Albatta, dushmanlar shamsor bo'lurlar!

O'sha davrdagi qiyinchilik va to'sqinliklarga qaramay, xalqning bu sodiq do'sti, ma'rifatparvar pedagog Shakuriy butun kuch-quvvatini yangi usuldagi maktab tashkil qilishga sarf qildi, katta g'ayrat, zo'r havas bilan yangi usul asosida o'qish-o'rgatish tartiblarini o'rgandi, savodga o'rgatishning eng qulay va oson usullarini tanlab oldi, yangi usul maktablari uchun darslik va qo'llanmalar tuzib nashr qildirdi.

Shakuriy dastlab qizlar uchun ham yangi usuldagi maktab tashkil qilib, unda o'z rahbarligida xotini muallimlik qilar edi. Keyinchalik o'g'il va qiz bolalar guruhini birlashtirib o'qita boshlaydi.

Demak, u Samarqandda yangi usuldagi maktabning targ'ibotchi va tashkilotchilaridan biri edi. Bu ishda u hech qanday moddiy manfaatni ko'zda tutmas va ayni choqda hech kim unga moddiy yordam bermas edi.

Abduqodir Shakuriy 1917-yil to'ntarishiga qadar o'qituvchilik faoliyati bilan shug'ullandi. 1917-yilda Samarqand shahrining bir guruh ilg'or kishilari A.Shakuriyning pedagogik faoliyatining 15 yilligini nishonladilar.

1921-yilda Samarqand shahridagi 13-maktabga mudir qilib tayinlandi. U bolalarni tarbiyalash, o'qitishga katta g'ayrat bilan kirishdi, ko'p yillar davomida shu maktabning mudiri hamda ona tili va adabiyot o'qituvchisi vazifalarida ishladi.

Samarqand maktablariga Shakuriy birinchi bo'lib, mehnat va musiqa darslarini kiritdi. U bolalarni qishloq xo'jalik va bog'dorchilik ishlari bilan tanishtirishdan tashqari, ularga muqovasozlik, duradgorlik va boshqa hunarlarni ham o'rgatar edi, bu mashg'ulotlar uchun alohida soatlar ajratgan edi.

1923-yilning boshlarida «Pravda» gazetasi mamlakatimiz bo'vicha eng namunali ilg'or maktab hamda molir va tajribali o'qituvchilar uchun tanlov e'lon qildi. 1923-yilning 8-iyulida gazetada shu tanlov natijalari e'lon qilinadi. Ana shu o'qituvchilar tarkibida respublikadagi maktab o'qituvchilaridan A.Shakuriy bor edi. Boshqa ilg'or o'qituvchilar qatorida uning nomi ham «Pravda» gazetasining qizil doskasiga kiritiladi hamda pul mukofoti topshiriladi va Shakuriy haqida bir yaxshi maqola e'lon qilinadi.

Bundan ko'rinadiki, ma'rifatparvar pedagog Shakuriy yangi usuldagi maktablar tashkil qilishda, o'qish-o'qitishning yangi tartiblarini joriy etish va o'qituvchilarning katta guruhini tarbiyalab yetishtirishda xizmatlari juda ko'p bo'lgan va gazeta tahriryati tomonidan yuqori baholangan.

1925-yilda A.Shakuriyning tashabbusi bilan qishloq aholisi o'z mablag'lari hisobiga to'rt sinfli yangi maktab qurib ishga tushiradi.

Nazorat uchun savollar

1. XIX asrning ikkinchi yarimida Turkistonda maktablar tuzilishini izohlang.
2. Turkistonda rus-tuzem maktablarining ochilishini tushuntiring.
3. Turkistonda jadidchilik harakati M.Behbudiy M.Qori Abdurashidxonov, A.Avloniy va A.Shakuriylarning yangi usul maktablarini ochishdagi xizmatlariga qisqacha izoh bering.

29. 1924-1991 YILLARDA O'ZBEKISTONDA TA'LIM TIZIMI VA PEDAGOGIK FIKRLAR RIVOJI

- 29.1. Turkiston o'lkasida ta'lim siyosati.
- 29.2. 1924-1945-yillarda ta'lim va pedagogika fani.
- 29.3. 1945-1991-yillarda O'zbekistonda ta'lim tizimi va pedagogika fani.

29. 1. Turkiston o'lkasida 1917-1924-yillardagi ta'lim siyosati

XX asrning boshlarida 1917-yildan boshlab barcha mustamlaka o'lkalar qatorida Turkistonda mahalliy aholining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-mafkuraviy hayotida, shuningdek, maktab va maorifi tizimida keskin o'zgarish yuz bera boshladi. Jumladan:

1) 17 yoshgacha bo'lgan hamma o'g'il va qiz bolalarga tekin hamda majburiy umumiy va poltexnika (nazariya va amaliyotda ishlab chiqarishning

muhim tarmoqlarining hammasi bilan tanishtiradigan) ta'limi berishni amalga oshirish.

2) Ijtimoiy tarbiyani yaxshilash va xotin-qizlarni ozod qilish maqsadida maktabgacha tarbiya muassasalari tarmoqlarini: yashilar, bog'chalar va shunga o'xshashlarni vujudga keltirish.

3) O'quvchilarni o'z ona tillarida o'qitadigan, o'g'il va qiz bolalarni birga tarbiyalaydigan, albatta dunyoviy bo'lgan, ya'ni har qanday diniy ta'sirdan halos bo'lgan, o'qitishni ijtimoiy foydali mehnat bilan mahkam bog'laydigan, yangi jamiyatning har jihatdan yetuk a'zolarini tayyorlaydigan birlashgan mehnat maktabi prinsiplarini to'la ravishda amalga oshirish.

4) Barcha o'quvchilarni davlat hisobiga oziq-ovqat, kiyim-bosh, poyabzal o'quv qurollari bilan ta'minlash.

5) Yangi g'oyalar bilan qurollangan yangi maorif xodim kadrlarni.

6) Mehnatkash aholini maorif ishiga faol qatnashuviga jalb qilish.

7) Ishchi va dehqonlarning o'z-o'zidan o'rganish va o'z-o'zidan o'qib bilim olishlariga davlat tomonidan har tarafdin yordam berish (maktabdan tashqari ta'lim muassasalari tarmoqlarini: kutubxonalar, kattalar uchun maktablar, xalq uylari va universitetlar, kurslar, ma'ruzalar, kinematografiyalar, studiyalar va shunga o'xshashlarni vujudga keltirish).

8) 17 yoshdan yuqori kishilar uchun umumiy politexnik bilimlar bilan birga professional bilimlar berishni keng miqyosda rivojlantirish kabi masalalar maktab va maorif ishlarini taraqqiy ettirishning asosiy omili deb ko'rsatildi.

Milliy pedagog kadrlar tayyorlash. Milliy darsliklar nashr qilish, o'z yozuvi bo'lmagan xalqlar uchun esa, ularning tillarida alifbe tuzish yuzasidan katta ishlar boshlanib ketdi. O'zbekiston hududida pedagog kadrlar masalasi juda qiyin ahvolda edi, faqat 704 o'qituvchi va bittagina pedagogika o'quv yurti - Toshkent shahrida o'qituvchilar seminariyasi bor edi. Talab qilingan juda ko'p o'qituvchi kadrlarni tayyorlash uchun dastlab Toshkent, Samarqand va boshqa shaharlarda qisqa muddatli kurslar ochildi. 1918 - 1919-yillardan boshlab pedagogika bilim yurtlari ochildi. 1920 - 1921-yilda esa yuqori tipdagi o'quv yurtlari: O'zbek erlar dorulmuallimini. O'zbek xotin-qizlari va boshqa mahalliy millatlar uchun dorulmualliminlar ochildi. 1920-yilda Toshkentda K.A.Temiryazev nomida oliy pedagogika o'quv yurti, Xalq maorifi instituti ochildi.

Dastlab, universitet tarkibida ijtimoiy-iqtisodiy, tabiiy-matematika, tarix-filologiya, qishloq xo'jaligi va texnika fakultetlari mavjud edi. 1919-yil fevraldan universitet tarkibida yangi fakultet - ishchi fakulteti ham o'z faoliyatini boshladi. Bu universitet 1920-yil 7-sentabrdan boshlab Turkiston davlat universiteti deb atala boshlandi. Bu paytga kelib unda ta'lim oluvchilarning 60%ini mahalliy yoshlar tashkil etdi.

Universitet nafaqat O'zbekiston, shu bilan birga O'rta Osiyo va Qozog'iston Respublikalari uchun ham xodimlar tayyorlar edi. Shuning uchun ham Turkiston MIQning 1923-yil 19-iyuldagi qaroriga muvofiq, Turkiston davlat universiteti nomi O'rta Osiyo davlat universiteti (SAGU)ga o'zgartirildi. Unda Fitrat ona tilidan, Kamol Shams arifmetika va geometriyadan, Havdar Shavqiy gigiyena, gimnastika va nemis tilidan. Rahimboyev arifmetikadan, Abdurahmon Ismoilzoda san'atdan,

Rizayev madaniyat tarixi siyosiy iqtisoddan, Munavvar Qori ona tilidan dars berishadi.

1917 - 1924-yillar davomida har yili 129 tak maktab yangidan ochilib, ularga 10700 dan o'quvchi jalb qilindi.

O'zbekiston hudidida umumiy ta'lim maktablarining soni 1914 - 1915 o'quv yilida 160 bo'lsa, 1924-yilda 907 ga yetdi, ya'ni 5,7 marta ko'paydi, ularda o'quvchilar soni ham shu tariqa o'sdi. 17,299 dan 75,543 gacha yetdi yoki 4,4 marta ko'paydi. O'sha vaqtlarda o'rta maktablar ham 2 marta. O'quvchilar soni esa 2,5 marta ko'paydi.

Bu davrda milliy demokratiya vakillari, mashhur ma'rifatparvar ziyolilar tomonidan yangi usuldagi maktablarning keng ko'lamdagi tarnog'ini yaratish, maktab-maorif borasida zudlik bilan islohotlarni amalga oshirish yuzasidan bir qancha takliflar ishlab chiqildi. Sobiq sho'rolar hokimiyatni o'z qo'llariga olganlaridan keyin 1917-yil 11-dekabrda «Ta'lim va tarbiyani cherkov qaramog'idan maorif xalq komissarliklari ixtiyoriga berish to'g'risida» qaror qabul qildi. Oldin dimy idoralar qaramog'ida bo'lgan barcha o'quv yurtlari dunyoviy maktablarga aylantirildi va Xalq maorifi qaramog'iga o'tkazildi. Maktablar mutlaqo dunyoviy bo'ldi. Maorif xalq komissarligining 1918-yil 31-maydagi qarori bilan maktablarda o'g'il bolalar bilan qiz bolalar birgalikda o'qitila boshladi.

Dm, xususan, «Qur'oni karim»ni o'rganish umuman taqiqlandi. Adabiyot darslarida esa ko'proq rus millatiga mansub yozuvchilarning asarlarini o'rganishga alohida e'tibor berildi. Lekin shunga qaramay, milliy ziyolilar faoliyati keng tus oldi, jumladan, jadidlardan Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar Qori, Sadridin Ayniy, Abdurauf Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy kabi bir qator ziyolilar madaniyat va maorif sohalarida samarali ijod bilan shug'ullandilar.

Har qanday ijtimoiy tuzum maktab-maorif, ilm-fan va shu kabi muhim soha vazifalarini hal etmasdan istiqbol sari ko'z tikolmasligi ayondir. Shu bois sho'rolar hokimiyati mutasaddilari ham bu masalalarga ahamiyat berar ekanlar, avvalo, ularni o'z sinfiy manfaatlaridan kelib chiqib, hal etishga intildilar. Ayniqsa, yangi tuzum xalq ta'limi tizimini o'z maqsad va g'oyalari ruhida shakllantirishga alohida urg'u berdilar.

Ushbu davrda maktablarning moddiy-texnik bazasi talab darajasida emas edi. Ularda o'quv qurollari, dasturlar, qo'llanmalar va darsliklar hamda yetuk bilimli o'qituvchi mutaxassislar yetishmasdi. Buxoro respublikasida 1921-yilda jami 175 ta yangi maktab bo'lib, ularda 11ming o'quvchi tahsil olar edi. Xorazm respublikasidagi 40ta umumta'lim maktablari va internatlarda 2600 ta bola tahsil oldi.

Hatto poytaxt Toshkentning Eski shahar qismida maktab yoshidagi 40 ming boladan faqat 10 ming nafari, ya'ni 25%i o'qirdi, xolos.

1920-yil 17-sentabrda Turkiston o'lkasi hukumati o'lkadagi 8 yoshdan 40 yoshgacha bo'lgan fuqarolarni o'qitish savodxon qilish to'g'risida qaror qabul qildi. Yuqoridagi qarorga binoan o'lkaning barcha hududlarida minglab savodsizlikni tugatish kurslari faoliyat ko'rsata boshladi.

1917-yil 9-14-may kunlari Toshkentda o'qituvchilarning I-o'lka qurultoyi bo'lib o'tdi va bu qurultoyda «Turkiston o'qituvchilar ittifoqi» ta'sis etildi.

Ta'lim tizimidagi ba'zi kamchilik va nuqsonlar natijasida 1922-yilga kelib, Turkistonda bolalarning 25 foizigina maktablarga jalb qilingan edi. Buxoro respublikasida 1921-yilda jami 175 ta yangi maktab bo'lib, ularda 11 ming o'quvchi tahsil olar edi.

29.2. 1924-1945-yillarda ta'lim va pedagogika fani

O'zbekiston hududida 1924-yildan boshlab ijtimoiy-madaniy soha qurilishining eng muhim vazifalaridan hisoblangan ta'lim tizimini shakllantirish ishlari boshlab yuborildi. Bundan ko'zlangan maqsad o'lkada xalq ta'limi bo'g'inlarini ravnaq toptirish, yoppasiga xalq savodxonligiga erishish emas, balki eng avvalo, mahalliy aholi ongiga, shueringa kommunistik g'oyalar va idealarni chuqur singdirilgan avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish edi.

Bu davrga kelib, bolalar hamda o'smirlarga umumiy ta'lim berishni tezlashtirish, shuningdek, kattalar o'rtasida savodsizlikni butunlay tugatish harakati boshlab yuborildi. O'sha davr statistik ma'lumotlariga qaraganda, O'zbekiston Respublikasi tashkil topgan dastlabki davrda jami 1500 ta maktab bo'lib, ularda 116 ming o'quvchi tahsil olar edi. Ularning 160 tasi sho'ro tipidagi maktablar bo'lib, dastlab ularda 17209 nafar o'quvchi ta'lim olgan bo'lsa, 1941-yilga kelib ularning bunday maktablar soni 5504 taga va ularda o'qiyotgan bolalar soni esa 1 mln. 315 ming nafarga yetadi.

Qishloqlarda 1923/1924-o'quv yilidan boshlab 1-bosqich maktablari orasida o'qish muddati uch yil bo'lgan dehqon yoshlari maktabi (DYOM) paydo bo'la boshladi. Bunday maktablarning asosiy maqsadi qishloq yoshlari orasida savodxonlik darajasini oshirish va ulardan yaxshi jamoatchilar tayyorlash edi. Dehqon yoshlari maktabining o'quv rajalariga yetti yillik maktablardagi umumiy ma'lumot fanlaridan tashqari agronomiya bilimlari ham kiritilgan. Ular qishloqdagi asosiy umumiy ma'lumot maktablari qatorida 1934-yilgacha faoliyat ko'rsatdi.

30-yillarga kelib, umumiy yetti yillik ta'lim joriy etilib, hayotga tatbiq etildi. Bundan tashqari, respublikada o'qituvchi mutaxassislar tayyorlovchi ko'plab o'rt maxsus pedagogika bilim yurtlari va pedagogika institutlari tashkil qilindi. Yuqorida keltirib o'tilgan islohotlar xalq ta'limi tizimi faoliyatini nisbatan yaxshilashiga turki bo'ldi.

1930- yil 14-avgustda «Umumiy majburiy boshlang'ich ta'lim haqida» qaror qabul qilindi. Bu qarorga binoan 8,9 va 10 yoshidagi o'g'il va qiz bolalarni boshlang'ich maktabning kamida to'rt yillik kursi hajmida umumiy majburiy o'qitish joriy qilindi.

Umumiy majburiy boshlang'ich ta'limning joriy etilish sur'ati pedagogika texnikumlarini bitirgan o'qituvchilarning yetishtirish sur'atidan ancha yuqori bo'lganligi tufayli 1931-yil va undan keyingi yillarda boshlang'ich maktab o'qituvchilari tayyorlash uchun bir necha minglab qisqa muddatli kurslar ochildi. Xususan, O'zbekistonda qisqa muddatli kurslar 1932-yildan 1940-yilgacha 20,7 ming o'qituvchi tayyorlab berdi. Agar statistikaga murojaat qiladigan bo'lsak, 1928/1929-o'quv yilida respublikadagi o'qituvchilar soni 5,5 ming kishini tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 1932/1933-o'quv yilida 19 ming kishiga, 1941-yilda

esa 42 mung kishiga yetdi. Garchi bu raqamlar xalq ta'limi tizimida erishilgan muayyan ijobiy o'zgarishlarni ko'rsatsa-da, lekin bu sohada xuddi shu davrlarda ko'plab jiddiy xato va kamchiliklarga yo'l qo'yildi. Masalan, maktablar soni ko'payib borayotgan bo'lsa ham, ularning moddiy-texnik bazasi mutlaqo zamon talabiga javob bermas edi. Ko'pgina maktablarda o'qituvchilarning bilim va saviyasi yetarli bo'lmaganligi sababli o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi past edi. Shuningdek, maktab yoshiga yetgan bolalarning bir qismi jalb qilinmay qolib ketdi. Bolalar va o'smirlar orasida o'qishni tashlab ketish holatlari ortib bordi.

Sho'ro hukumati ta'lim tizimi, shu jumladan, yangi avlod tarbiyasini butunlay o'z manfaatlariga bo'ysundirish uchun arab alifbosiga asoslangan eski o'zbek yozuvini ham tubdan isloh qilishga kirishdi. Shu maqsadda 1929-yil 7-avgustda qabul qilingan qaroriga asosan, arab imlosi asosidagi o'zbek yozuvi tugatilib, undan lotin grafikasiga o'tildi. 1940-yilning may oyida O'zbekistonda «O'zbek yozuvini lotinlashtirilgan alfavitdan rus grafikasi asosidagi yangi o'zbek alfavitiga ko'chirish to'g'risida»gi qonun qabul qilindi. O'zbek yozuvini o'zgartirish borasidagi bunday xatti-harakatlar respublika xalq ta'limining keyingi rivoji va istiqboli uchun salbiy oqibatlar keltirib chiqardi.

Agar, 1920-yillarda respublikada ta'lim jarayoni nisbatan milliy ziyoli olimlar yetuk pedagog mutaxassislar tomonidan tayyorlangan o'quv darsliklar, o'quv qurollari asosida tashkil etilgan bo'lsa, 1930-yillardan boshlab ahvol keskm o'zgardi, ya'ni bu soha boshqaruvi to'liq holda Markaz mutasaddilari qo'liga o'tdi. Endilikda milliy respublikalardagi, shu jumladan, O'zbekistondagi ta'lim jarayoni bevosita Markazdan tayyorlab yuboriladigan o'quv dasturlar, darsliklar qo'llanmalar asosida olib borila boshladi. Har qanday tuzumda bo'lgani singari sho'ro hokimiyati ham yangi tuzum g'oyalari ruhida tarbiyalangan unga sadoqat bilan xizmat qiladigan, yuqori malakali, o'qumishi, ziyoli mutaxassislarga ehtiyoj sezdi.

Bu davrda yuqori malakali pedagogik mutaxassislarga talab muttasil ortib borganligidan Buxoro, Samarqand, Toshkent, Nukus, Xiva, Urganch, Farg'ona va Namangan singari shaharlarda pedagogika va o'qituvchilar tayyorlash institutlari tashkil etildi. Buning natijasida 1932-yilga kelib, respublikadagi jami oliy o'quv yurtlari soni 31 taga yetdi. Ularda ta'lim olayotgan talabalar soni esa 12.2 mung nafarni tashkil etdi.

1943-yili O'zbekistonda 154 ta bolalar uyi mavjud bo'lib, 1945-yilda ular soni 242 taga, tarbiyalanuvchilar soni esa 31 500ga yetdi. Hukumatning maxsus ko'rsatmasiga asosan 1943-yildan boshlab ba'zi maktablarda o'quv ishlab chiqarish ustaxonalari ochila boshladi.

O'zbekistonning sho'ro hokimiyati organlari, hukumat ko'rsatmasiga binoan, 1943-yilning 1-yanvaridan 8-10-sinf o'quvchilari hamda katta yoshdagi o'zbek o'quvchilarini o'qish haqi to'lashdan ozod qildi.

Moskva, Leningrad, Kiyev, Harkov, Varonej, Odessa va boshqa shaharlardan 1941-1943-yillarda ko'chirib keltirilgan 35 ta oliy o'quv yurti va 7 ta akademiya qabul qilib olindi, ularning ba'zilari o'zaro xoki O'zbekiston oliy o'quv yurtlari bilan birlashtirildi. O'z professor-o'qituvchilari bilan ko'chirib keltirilgan oliy ta'limning yanada rivojlanishiga ijobiy ta'sir etdi. Moskvalik va leningradlik olimlar

talabalarga yangi kurslar bo'yicha ma'ruzalar o'qidilar, mahalliy millat vakillaridan ilmiy-pedagogik mutaxassislar tayyorlashga ko'maklashadigan, yangi mutaxassislik bo'yicha kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi.

O'zbekiston hukumati oliy o'quv yurtlaridagi qiyinchiliklarni bartaraf etish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, o'qituvchilar bilan ta'munlash masalalarida ko'maklashdi. Ayniqsa, ko'chib kelgan tajribali pedagoglar, olimlar 1943-1944-yillarda o'z shaharlariga qayta boshlagan, urushning dastlabki davrida vaqtincha yopilgan yoki birlashtirilgan institutlar qayta tiklanayotgan. yangidan Chimboy va Urganch pedagogika institutlari, Toshkent teatr san'ati instituti ochilgan, ilmiy-pedagogik kadrlarga muhtojlik ortgan bir paytda respublika hukumatining oliy o'quv yurtlariga bergan ko'magi yuqori darajada bo'ldi. Jumladan, yirik oliy o'quv yurtlarida doktorantura va aspiranturaga qabul kengaytirildi. Respublika miqyosida ishlab turgan rahbar xodimlar oliy o'quv yurtlariga ishga yuborildi.

Urush davrida respublikaning boshqa sohalarini qatori xalq maorifi ham jiddiy qiyinchiliklarga uchradi. Maktab binolarining anchagina qismi gospitallarga, evakuatsiya qilingan harbiy qismlarga, bolalar uylariga va harbiy-o'quv punktlariga berildi. Buning oqibatida maktablar birlashtirildi, shaharlardagi maktablarda uch smenalik o'qish joriy etildi. Darslar 40 daqiqaga qisqartirildi. Ashula va rasm darslari umuman o'tilmay qo'yildi.

Urushgacha respublika maktablarida ishlayotgan jamoat o'qituvchilarning 74,6% ni erkaklar tashkil etardi. Urush boshlanishi bilan ular frontga, ishlab chiqarish ishlariga ketdi. Respublika bo'yicha birgina 1940-1941 o'quv yilining o'zida 36267 o'qituvchidan 30616 kishi qoldi. Buning ustiga darsliklar, uskunalar, daftarlar yetishmasdi. Qisqa muddatli kurslar tashkil etilib, boshlang'ich sinflar uchun o'qituvchilar tayyorlandi. 1944-yilda o'qituvchilar armiya safidan maktabga qaytarildi. Shunga qaramay, o'qituvchilar yetishmasligi eng dolzarb muammolardan biri bo'lib qolayotgandi. 1945-yilning avgust oyida sobiq SSSR Xalq Komissarligi Soveti «O'qituvchilar tayyorlash ishlarini yaxshilash to'g'risida» qaror qabul qildi. Bu qarorga asosan, yetishmayotgan o'qituvchilarni hatto to'liq o'rta ma'lumot olmagan kishilardan ham qisqa muddatli kurslarda tayyorlash orqali o'rta ma'lumot shu vaqtdan boshlab to'xtatildi.

Urush yillarida maktablarning o'quv dasturlari sharoitga moslashtirildi. Unga ko'ra, harbiy-fizika darslari soati ko'paydi, harbiy o'qish 1-sinfidan boshlab o'tila boshlandi, harbiy ta'lim nafaqat o'g'il bolalarga, balki qiz bolalarga ham o'rgatila boshlandi.

Urush davrida maktablar tarmog'i birmuncha qisqargan, o'quvchilar soni ham shunga yarasha qisqargan edi. Masalan, 1940/1941-o'quv yilida 5504 ta umumta'lim maktablarida 1368,9 ming o'quvchi o'qigan bo'lsa, 1945/1946-o'quv yilida 4976 ta umumta'lim maktablarida 989,2 ming bola ta'lim oldi. Ko'pchilik o'quvchilar turli sinflardan o'qishni tashlab, frontga, front uchun qurol-aslaha ishlab chiqaruvchi zavod va fabrikalarga ishga ketib qolishdi. Lekin barcha qiyinchiliklarga qaramay, bir qator ijobiy natijalarga erishildi. Jumladan, maktablarda ta'lim-tarbiya sifatini yaxshilash maqsadida o'quvchilar bilimini baholashning besh balli tartibi, boshlang'ich va yetti yillik maktablarni tamomlovchilar uchun bitiruv imtihonlari, o'rta maktabni tamomlovchilar uchun

yetuklik attestati — guvohnomasi uchun imtihonlar topshirish majburiyati, maktab o'quv dasturlarini a'lo o'zlashtirgan namunali hулqqa ega o'quvchilarni oltin va kumush medallar bilan taqdirlash joriy etildi. Bu chora-tadbirlar dars mashg'ulotlari saviyasini ko'tarilishga, o'quvchilar intizomini yaxshilashga olib keldi. Kundalik o'qish foydali mehnat bilan qo'shib olib borildi. Jumladan, o'qishdan tashqari vaqtlarda o'quvchilar gospihallarga otaliq yordami berdilar, frontdagilarning oilalariga ko'maklashdilar, temir-tersak to'plab topshirdilar, qishloq xo'jalik ishlarida qatnashdilar.

O'zbekistonning bu davrdagi ta'lim tizimida o'rt maxsus ta'lim o'quv yurtlari faoliyati ham alohida o'rin egallaydi. Buning asosiy sababi shuki, respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti ko'p jihatdan maxsus bilim, tajriba va ko'nikmaga ega bo'lgan kadrlarga bog'liq edi. Shu boisdan ham o'lkada hunar-texnika ta'limi maktablari, texnikumlar, maxsus bilim yurtlarini tashkil qilish va faoliyatini olib borishga e'tibor berildi.

O'zbekistonda pedagogika faniga barkamol shaxs ma'naviy atini shakllantirishning asosiy vositasi sifatida yondashiladi. 1929-yil 17-yanvarda Samarqandda pedagogika nazariyasi va tarixi, ta'lim nazariyasi va metodikasi, xususiy metodika sohasida ilmiy pedagogik tadqiqotlar olib boradigan muassasa Qon Niyoziy nomidagi O'zbekiston davlat ilmiy tadqiqot instituti tashkil etildi.

1931- yili O'zbekiston Madaniy qurilish instituti, 1934-yildan O'zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot institutiga aylantirildi. 1939-1941-yillarda O'zbekiston Maktablar ilmiy tadqiqot instituti, 1941-1946-yillarda Respublika Maorif xalq komissarligining metodik boshqarmasi sifatida faoliyat ko'rsatdi. Institutning Qoraqalpog'iston filiali 1967-yilda tashkil etilgan. Institutning tarkibida aspirantura 1960-yildan mavjud bo'lib, u orqali mamlakatimiz uchun ilmiy pedagog kadrlar tayyorlangan.

29.3. 1945-1991-yillarda O'zbekistonda ta'lim tizimi va pedagogika fani

Urushdan keyingi yillarda maktab qurilishi, bolalarni maktabga jalb qilish ishlari anchagina ijobiy natijalarga erishildi. Xususan, 1943-yili ochila boshlangan ishchi va dehqon yoshlar maktablari (kechki va smenali) tarmog'i birnuncha kengaytirildi. Boshlang'ich maktablarda to'rt yillik boshlang'ich ta'limdan uch yillik boshlang'ich ta'limga o'tish amalga oshirildi. O'qituvchilarning bilimiga, ularning pedagogik faoliyatiga qo'yiladigan talablar ortib borgan sari ularning moddiy ahvolini yaxshilashga ham katta e'tibor berila boshlandi. 1951-1955-yillarga mo'ljallangan beshinchi besh yillik rejada politexnika ta'limiga katta o'rin berildi. Shu munosabat bilan ittifoqdosh respublikalarning ta'lim vazirliklari o'quv rejalari va dasturlarini qayta tuzib, politexnika ta'limini oshirish to'g'risida maktablarga ko'rsatmalar berdilar.

1956-yil sentabridan boshlab maktabning yangi turi — internat maktab vujudga keltirildi. Chunki urush natijasida ota-onasini yo'qotgan bolalar, o'z bolalarini mustaqil tarbiyalashi qiyin bo'lgan beva avollar ko'pavib ketgan edi. Bunday maktablarga bolalar faqat ota-onalarning yoki ota-ona o'rnida bolani tarbiya qilayotgan kishilarning istagi bilangina qabul qilingan. Ota-onalari bo'lmagan

bolalar, shuningdek, ayrim hollarda, mehnatkashlar deputatlari shahar va tuman Sho'rolari Ijroiya qo'mitalarining qarori bilan ko'p bolali, ta'mimoti yaxshi bo'lmagan oilalarning bolalari internat-maktablarda to'liq ravishda davlat ta'mimotiga o'tkazildi

1958-yil dekabrda «Xalq maorifi tizimini yanada rivojlantirish to'g'risida» qonun qabul qildi. Qonunda o'qitishni turmush bilan bog'lab olib borish, yoshlarni aqliy, ma'naviy, jismoniy jihatdan yetuk qilib shakllantirish, ularga umumiy politexnik bilim berish vazifalari qo'yildi. 1959-yilda 10 yillik o'rta maktablar 11 yillik maktablarga aylantirildi. Maktablar uchun yangi o'quv rejalari, dasturlari va darsliklar yaratildi. Maktablarda ustaxonalar qurildi, maktab tajriba uchastkalari vujudga keldi. Fizika va matematika fanlarini o'rganish uchun ajratilgan soatlar ko'paytirildi. O'quvchilarga mashinasozlik, sanoat, qurilish va qishloq xo'jaligi bo'yicha amaliy mashg'ulotlar o'tish yo'lga qo'yildi. 1962-yildayoq to'liqsiz umumiy majburiy sakkiz yillik ta'limga o'tish amalga oshdi. Barcha yetti yillik maktablar sakkiz yillik maktablarga aylantirildi. Sakkiz yillik maktabni tamomlagan o'quvchilar quyidagi o'quv yurtlarida o'qishlari mumkin edi: 1) to'liq umumiy ta'lim o'rta maktablarida (IX-X sinflarda); 2) o'qish muddati uch-to'rt yillik bo'lgan texnikumlarda; 3) hunar-texnika bilim yurtlari; 4) ishchi va qishloq yoshlari maktablarida.

1959/1975-yillari respublikada internat-maktablar, maxsus maktablar va kuni uzaytirilgan guruhlar tarmog'i rivojlandi; jismonan nuqsonli bolalar uchun maxsus maktablar tashkil qilindi, pedagog xodimlar tayyorlash va ular malakasini oshirish tarmog'i kengaytirildi.

Sanoat, qurilish va qishloq xo'jaligida ish bilan band bo'lgan yoshlarga ta'lim berish maqsadida ishlab chiqarishdan ajralmagan holda o'qish imkoniyatini beruvchi kechki va sirtqi maktablar tashkil etildi. 1958—1965-yillarda 1000 ga yaqin shunday maktablar ochildi, ularda o'qiyotgan yoshlar 1965-yilda 134,5 ming kishini tashkil etdi.

O'zbekiston hukumatining «Respublika umumta'lim maktablari ishini yanada yaxshilash choralari to'g'risida» (1966) va «Respublika umumiy o'rta ta'limga o'tish munosabati bilan xalq maorifini yanada yaxshilash choralari to'g'risida» (1969) qarorlari qabul qilindi. Bu qarorlarga asosan respublikada yoshlar uchun umumiy o'rta ta'limga o'tish, yangi maktab binolari, o'quv kabinetlari, laboratoriyalar, ustaxonalar barpo etishga yo'naltirilgan kapital qurilish ishlari bajarildi. Maktab-internatlar, o'quvchilarning badiiy iste'dodlarini rivojlantiruvchi maktablar ko'paydi. Jumladan, Glier nomidagi o'rta maktab-internat, milliy musiqa va milliy amaliy san'at maktab-internatlari, sport maktab-internati va boshqa o'nlab musiqa maktablari ochildi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari 1970-yilda ishlab chiqilgan nizomga muvofiq mahalliy sharoitlardan kelib chiqqan holda alohida boshlang'ich (1-3-sinflar), 8 yillik (1-8-sinflar) va o'rta (1-10-sinflar) maktablariga aylantirildi. Ishlab chiqarish ta'limi berish maqsadida maktablararo o'quv ishlab chiqarish kombinatlari tuzildi. Shahar va tumanlarda kasb-hunar bilim yurtlari tashkil etildi. Ko'pchilik maktablarda yoshlarni o'quv mashg'ulotlaridan keyin maktabda olib qolish, ularga ta'lim-tarbiya berish ishlari yo'lga qo'yildi, ya'ni kuni uzaytirilgan maktablar tashkil

topdi. Alohida fanlarni chuqur o'rgatuvchi maktablar, shuningdek, aqliy va jismoniy jihatdan zaif bolalar maktablari vujudga keldi.

70-yillarning o'rtalarida umumiy o'rta ta'limga o'tish yakunlandi. 1965-1985-o'quv yillari orasida o'tgan 20 yil davomida barcha turdagi umumta'lim maktablari 8716 tadan 9188 taga ko'paydi, o'quvchilar soni esa 3055,8 ming boladan 6519,6 ming bolaga ko'paydi. 1965-1985-yillarda respublika maktablarida o'rta ma'lumot olganlar soni 5,7 million kishidan oshdi.

O'rta maktabni tamomlaganlarning maxsus kasbiy tayyorgarligini oshirish maqsadida texnikumlar soni ko'paytirildi, texnikumlar qoshida o'rta ma'lumotli kishilarni qabul qiladigan bo'limlar ochildi. Bu bo'limlarda o'qish muddati 2-3 yil qilib belgilandi.

Urushdan keyingi yillarda oliy va o'rta maxsus ta'lim ancha o'sdi. 50-yillarda 3 ta oliy o'quv yurti — Andijon meditsina instituti, Toshkentda elektrotexnik aloqa, Fizkultura institutlari, 60-yillarda yana 8 ta yangi oliy o'quv yurti — Andijon paxtachilik instituti, Farg'ona politexnika instituti, Samarqand arxitektura-qurilish instituti, Termiz, Sirdaryo, Toshkent viloyat pedagogika institutlari, Andijon tillar pedagogika instituti, Toshkent rus tili va adabiyoti pedagogika instituti tashkil etildi. 70-yillarda yana 5 ta oliy o'quv yurti — Nukus davlat universiteti, Toshkent avtomobil yo'llari instituti, Pediatriya instituti ochildi. Shuningdek, yangi fakultetlar, viloyatlarda yirik oliy o'quv yurtlarining filiallari ochildi. Yangi mutaxassisliklar bo'yicha kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi.

1960-yilda 30 ta oliy o'quv yurtlarida mutaxassislar tayyorlangan bo'lsa, 1985-yilda ularning soni 42 tani tashkil etdi. 1961-1985-yillardan respublika oliy o'quv yurtlari 828 mingga yaqin muhandislar, iqtisodchilar, agronomlar, huquqshunoslar, o'qituvchilar, madaniyat va san'at xodimlari yetishtirib berdi. Shuningdek, o'rta maxsus o'quv yurtlari tarinog'i ham kengaydi. 1960-yilda 75 ta o'rta maxsus o'quv yurtlari faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, 1965-yilda ularning soni 249 taga yetdi. 1961—1985-yillarda 1 mln. 135 mingga yaqin o'rta maxsus ma'lumotli mutaxassis kadrlar tayyorlandi. Mutaxassis kadrlarni tayyorlashda jiddiy kamchiliklarga ham yo'l qo'yildi. Mutaxassislar tayyorlash sifatini ko'tarish sohasidagi sa'y-harakatlar kutilgan natijani bermadi. Buning sabablari esa quyidagicha edi:

— o'quv yurtlarining moddiy-texnik bazasi talabalarning o'sish darajasidan ancha past darajada bo'ldi, zamonaviy texnika vositalari bilan yetarli darajada ta'minlanmadi;

— Respublika partiya va sho'ro organlari tomonidan oliy o'quv yurtlari uchun har bir viloyatdan talabalar qabul qilish rejasini belgilangan bo'lib, bu rejaning qanday qilib bo'lsa ham bajarish majburiy edi. Bu o'z navbatida bilim saviyasi nihoyatda past bo'lgan yoshlarning ham oliy o'quv yurtlaridan o'rin olishiga olib keldi.

— oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida fan-texnika taraqqiyoti ta'sirida o'quv rejalarini va dasturlarini 60-70-yillarda uch marta o'zgartirdi, har safar o'qitiladigan fanlar yangilari hisobiga ko'payib, o'quv materiallari hajmi oshib bordi, talabalarning mustaqil o'qib o'rganishlari uchun vaqt tobora kamayib bordi;

— xalq xo'jaligining mutaxassislarga bo'lgan talabi yaxshi o'rganilmadi, natijada kadrlar tayyorlashni rejalashtirishda jiddiy xatolarga yo'l qo'yildi, ba'zi sohalarida keragidan ortiqcha mutaxassislar tayyorlandi, boshqa sohalarida, ayniqsa, texnika taraqqiyotining hal qiluvchi tarmoqlarida kadrlar yetishmovchiligiga yo'l qo'yildi;

—o'quv yurtlari faoliyatida tanish-bilishlik, oshna-og'aynigarchilik kabi salbiy holatlarning tarqalishi ham kadrlar tayyorlash sifatini pasaytirdi, son ketidan quvish ustunlik qildi. Bunday vaziyatda yosh mutaxassislarning ma'lum qismi olgan bilimlarini turmush bilan bog'lay olmadilar, g'ovaviy-professional va axloqiy jihatdan yetuklik va qat'iylik ko'rsata olmay, ko'zbo'yamachilik, qo'shib yozish yo'lga kirib qoldilar. Respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida keng tarqalgan salbiy holatlarning ildizi mutaxassislar tayyorlashdagi nuqsonlarga borib taqaladi. Umuman, xulosa qilib aytganda, urushdan keyingi va tinch qurilish davridan mustaqillik davrigacha O'zbekiston maorifi, fan va madaniyati rus hamda Yevropa madaniyati ta'sirida rivojlandi, ammo bu - o'zbek xalqining milliyligidan, asrlardan beri meros bo'lib kelayotgan qadriyatlaridan muayyan darajada ajralgan holda rivojlanish edi.

O'zbek pedagogika fani rivojida T.N. Qori-Niyoziy, S.Rajabov, O.Muhammadjonov, M.Ochilov, O.Roziqov, K.Zaripov, D.Shodiyev, A.Zunnunov, O.Hasanboyeva, J.Hasanboyev, S.Temirova, S.Mamajonova, K.Hoshimov, J.Yo'ldoshev, Y.Abdullayev, N.Shodiyev, M.Quronov, L.Mo'minova, B.Qodirov singari olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari katta ahamiyatga ega. Bulardan pedagogika fanlari doktori, akademik Siddiq Rajabovni alohida ta'kidlab o'tish joiz. U ilmiy-pedagogik faoliyati davomida bir necha yo'nalishlarda: pedagogika fanining metodologik muammolari; axloq-odob va tarbiya; oliy ta'lim didaktikasi; pedagogika tarixini o'rganish; barkamol shaxsni tarbiyalashda xalqimizning tarixiy an'analari bo'yicha tadqiqotlar olib bordi. S.Rajabov «Pedagogika fani taraqqiyotining ba'zi masalalari», «Xalq maorifi va pedagogika fani buyuk allomalari», «Inson omili va yangicha fikrlash» kabi risola, 300 dan ortiq ilmiy-uslubiy maqolalar muallifidir. 1941-yilda «XIX asr va XX asr boshlarida Buxoroda maktab va maorif taraqqiyoti ocherklari» risolasi bo'yicha O'zbekistonda birinchi bo'lib pedagogikadan nomzodlik, 1961-yili esa «O'zbekistonda maktablarning tashkil topishi va taraqqiy etishi (1917-1941- yillar)» mavzusida doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. Bu davrda olim pedagogika fanini chin qalbdan sevgan mutaxassislarni, ko'pgina iqtidorli yoshlarni o'z atrofiga chorladi. Yosh olimlarga hamisha yordam berib keldi. Yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash ularning hayotiy e'tiqodi va turmushining mazmunga aylanib ketdi. Shu bois 10 dan ortiq fan doktorlari, 200 ga yaqin fan nomzodlari bevosita Siddiq Rajabovning ilmiy maslahatchiligi va rahbarligi asosida dissertatsiyalarini muvaffaqiyatli himoya qildilar. 1964-yilda S.Rajabovning ilmiy pedagogik faoliyati yuksak baholandi. unga «Respublikada xizmat ko'rsatgan fan arbobi» unvoni berildi.

Malla Ochilov - O'zbekiston Respublikasi va hamdo'stlik mamlakatlari pedagogik jamoatchiligi orasida tanqli pedagog-olim, pedagogika fanlari doktori, professor, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi. U pedagogika fanida

o'qituvchi muammosi yo'nalishida mutaxassislar tayyorlash va malakasini oshirish, bo'lajak o'qituvchilarni professional axloqiy tarbiyalash bo'yicha fundamental ilmiy-pedagogik tadqiqotlarni bajargan nazariyachi va amaliyotchi pedagogdir.

Uning «O'qituvchi odobi», «Studentlarning axloqiy tarbiya jarayoni», «Studentlarning ilmiy tadqiqot ishlari», «Yangi pedagogik texnologiyalar», «Muallim-qalb me'mori», «Oliy maktab pedagogikasi» kabi asarlari pedagogic jamoatchilik tomonidan iliq kutib olingan. Iqtidorli olim mashhur pedagog Yan Amos Komenskiyning «Buyuk didaktika» asarini o'zbek tiliga tarjima qilgan. Bu asar jahon xalqlari pedagogikasiga ulkan ta'sir o'tkazgan durdonalardan biri sanaladi. Bu esa tarjimon-pedagog salohiyati yuksakligidan dalolat beradi.

Nazorat uchun savollar

1. Turkiston o'lkasida 1917-1924-yillardagi ta'lim siyosatini mazmun - mohiyatini yoritng.
2. 1924-1945-yillardagi ta'lim va pedagogika fani taraqqiyotiga izoh bering.
3. 1945-1991-yillarda O'zbekistonda ta'lim tizimi va pedagogika faniga rivojiga qisqacha tavsif bering.

30.1. Mustaqil O'zbekistonda ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar.

30.2. Mustaqillik yillarida pedagogik fikrlarning rivojlanishining asosiy yo'nalishlari.

30.1. Mustaqil O'zbekiston ta'lim tizimi. Mustaqillik yillarida pedagogik fikrlar rivoji

Jahon tarixiy tajribasining guvohlik berishicha hech bir xalq va millat ta'lim-tarbiyaga e'tiborsiz taraqqiyotga erisha olmagan. Bugungi kunda ma'naviyatga, ta'lim-tarbiyaga, milliy kadrlar tayyorlashga birinchi darajali ahamiyat bermaydigan jamiyat, davlat, xalq va millat ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy muam-molarni bartaraf etolmaydi. Xalqi ma'naviy, ma'rifiy jihatdan yetuk bo'lmagan mamlakat tabiiy - iqtisodiy boyliklariga behisob, harbiy jihatdan qudratli bo'lgan taqdirda ham buyuk davlat bo'la olmaydi.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi o'zgarishlari jamiyatimiz hayotining barcha sohalarida olamshumul ahamiyatga ega bo'lgan o'zgarishlar amalga oshirildi. Yosh mustaqil davlatimizning kelajak taraqqiyoti albatta, uning intellektual salohiyatli va ma'naviy yetuk yoshlariga bog'liq. Mamlakatimizning Birinchi Prezidenti I.Karimov «Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch» asarida: «Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi - bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi», - deb ta'kidlaydi. Mamlakatimizda mustaqillikka erishgan dastlabki yillardan boshlaboq ta'lim sohasida tub islohotlar amalga oshirildi. Bular qatoriga 1992-yil 2-iyunda qabul qilingan ilk «Ta'lim to'g'risida»gi qonunni kiritishimiz mumkin. Bu yangi «Qonun» 7 bo'lim 45 ta moddadan iborat edi. «Qonun» o'tish davri uchun

mo'ljallangan bo'lib vaqt o'tishi va jamiyatning jadal rivojlanishi natijasida o'zining kamchiliklarini ko'rsatdi. 1997-yil 29-avgustda jahon standartlarini va respublikamizning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda yangi tahrirdagi «Ta'lim to'g'risida»gi (5 bo'lim, 34 modda)qonun va unga hamohang «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»qabul qilindi. Uning natijasida O'zbekistonda ta'lim sohasida jahon andozasidagi kadrlarni yetishtirib berishga qaratilgan ta'lim tizimi ishlab chiqilib hayotga joriy qilindi. Mamlakatimiz hayoti uchun muhim bo'lgan mazkur dasturlarni qabul qilimshi hozirgi kunda ta'lim-tarbiya sohasida erishgan yutuqlarimiz uchun asos bo'ldi. Shu munosabat bilan pedagogikaga doir tadqiqotlarga qator sohalar asos qilib olinishi maqsadga muvofiq edi. Pedagog olim J.G'. Yo'ldoshev bu borada quyidagi vazifalarni ilgari suradi:

- yosh avlodni mustaqillik, istiqloq g'oyalari ruhida tarbiyalash;
- shaxsning ilmiy salohiyatini rivojlantirish;
- o'z oldidagi burch va mas'uliyatni his etadigan barkamol shaxsni shakllantirish;
- axloqan pok, jismonan baquvvat, vatanparvar, tashabbuskor shaxsni shakllantirish;
- har bir shaxsda o'z bilimni hayotga tatbiq eta olish qobiliyatini tarbiyalash;
- yosh avlodni yangilanayotgan jamiyat taraqqiyoti uchun xizmat qiladigan fuqaro sifatida tarbiyalash va hokazolar

Bu muhim ustuvor vazifalarni amalga oshirish uchun ta'lim sohasida davlat siyosatining asosiy prinsiplari ham berilgan edi. Bular: ta'lim va tarbiyaning insonparvarligi hamda demokratik harakterda ega ekanligi, ta'lim tizimining uzluksizligi va izchilligi, uning ilmiyligi hamda dunyoviyligi; ta'limda umuminsoniy hamda milliy-madaniy qadriyatlarining ustuvorligi; davlat ta'lim standartlari doirasida hammaga ta'lim olish uchun imkoniyat yaratilganligi ta'limning majburiyligi; ta'lim, ma'naviy va jismoniy tarbiya dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashirilgan yondashuv; bilimdon va iste'dodlarni rag'batlantirish; ta'lim muassasalarida chet tillarni o'rganish, din tarixi va jahon madaniyati sohasida bilim olish uchun sharoitlar yaratish, ta'lim muassasalarining siyosiy partiyalar va ijtimoiy-siyosiy harakatlarning ta'siridan holi bo'lishi; tarbiyalanuvchilar va ta'lim oluvchilarni hurmatlash; pedagog shaxsini, uning ijtimoiy mavqeiini hurmatlash; amaldagi qonunlar doirasida mulkchilikning barcha shakllaridagi ta'lim muassasalarining teng huquqliligi, ularning mustaqilliligidan iborat edi.

30.2. Mustaqillik yillarida pedagogik fikrlarni rivojlanishining asosiy yo'nalishlari

Mustaqil Respublikamizda xalq ta'limi tizimi mazmunini yangilash va yangi ijtimoiy muhit sharoitida uni yanada rivojlantirish zarur edi. Chunki huquqiy, iqtisodiy, ma'naviy sohalarida olib borilayotgan islohotlarda asosiy maqsad ham barcha fuqarolarning hayotini ijtimoiy himoyalash, ularning turmush sharoitini yaxshilash, ma'naviy jihatdan yuksaltirish, eng muhimi, ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishdan iboratdir. Ana shu maqsadni amalga oshirish

borasida Respublikamiz hukumati xalq ta'limi tizimini tubdan isloh qilish vazifasini qo'ydi. Jamiyatni ma'naviy yangilashda avvalo ta'lim tizimini isloh qilishni va milliy kadrlarga bo'lgan ehtiyojni tobora ortib borayotganligini hisobga olib, ta'lim tizimini ham yangilashni taqozo etar edi. Shu maqsadda 1997-yil 29-avgustda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning IX sessiyasida yangi «Ta'lim to'g'risida» Qonun hamda «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» keng muhokama qilindi va tasdiqlandi.»Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va tarbiya fuqarolar kasbga tayyorgarligi hamda har bir fuqaroning ilm olish konstitutsion huquqini ta'minlash kabi qator dolzarb vazifalarni belgilab berdi. Respublikamiz bugungi kunda tubdan yangi davlat bo'lib, unda har bir siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy sohadagi islohotlar ham yangi ta'lim tizimida bosqichma - bosqich olib borishni nazarda tutadi. Zero, ta'lim sohasidagi islohotlar ham yangi bosqichma - bosqich o'tish tamoyiliga asoslangandir. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ham uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilishning tashkiliy, ilmiy va metodik asosi bo'lib hisoblanadi. Milliy dasturning asosiy maqsadi uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish bo'lib, u ijodiy va mustaqil fikrlovchi, tafakkuri rivojlangan, erkin shaxsni shakllantirish bilan barcha sohalarda raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni kafolatlash bilan ahamiyatlidir.

Shunga ko'ra, mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridanoq boy madaniyatimizni tiklash va uni rivojlantirish, ta'lim tizimini takomillashtirish, uni zamon talablariga jabob bera oladigan jahon andozalari darajasiga ko'tarish maqsadiga e'tibor berib borilmoqda. Ta'lim sohasida «Ta'lim to'g'risida» Qonun qabul qilinganligi, 1996-1997-yildan boshlab birinchi sinflarda o'qishning lotin yozuviga asoslangan yangi alifboda olib borilgani, ular uchun yangi alifboda dastur, qo'llanma, darsliklarning yaratilganligi - bu ta'lim sohasida qo'yilgan dastlabki odimlar edi. O'tgan davrda yangi turdagi ta'lim muassasalari tashkil etildi. Oliy o'quv yurtlari qoshida litseylar ochildi. Qobiliyatli o'quvchilar chet ellarda ta'lim ola boshladi. O'qituvchilar xorijiy davlatlarda bo'lib, ilg'or tajribalarni o'rganib kela boshladilar. Viloyatlarda yangi - yangi biznes maktablari, kichik va o'rta kasb-hunar kurslari ochila boshladi va bozor iqtisodi sharoitida fermer, soliq va bojxona xodimlari, audit va boshqa yangi mutaxassisliklar kiritildi. Oliy maktab sohasida test usuli joriy etildi. Oliy ta'lim sohasida ham islohot o'tkazishni talab qila boshladi. Bularning barchasi hisobga olinib, 1997-yil mart oyida Vazirlar Mahkamasining farmoyishiga muvofiq, ta'lim tizimini isloh etilish, kadrlar tayyorlash jarayoniga zamon talabi darajasida o'zgartirishlar kiritish maqsadida maxsus komissiya tuzildi va natijada «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» hamda «Ta'lim to'g'risidagi» Qonun Oliy Majlis sessiyasida qabul qilindi. Bu ikki hujjatga binoan ta'lim tizimi isloh qilishni bosqichma - bosqich amalga oshirish nazarda tutiladi: «Ta'lim to'g'risidagi» Qonunga asosan Ta'lim O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyot sohasida ustuvor deb e'lon qilindi. O'zbekiston Respublikasida quyidagi uzluksiz ta'lim tizimi asos qilib olingan. Ta'lim tizimi bola shaxsini sog'lom va yetuk o'qishga tayyorlash maqsadini ko'zlaydi. Mazkur ta'lim uch yoshdan olti-yetti yoshgacha oilada, bolalar bog'chasida va mulk shaklidan qat'i nazar, boshqa xil ta'lim tashkilotlarida olib boriladi. Umumiy o'rta ta'lim quyidagi bosqichlarga bo'linadi: Boshlang'ich ta'lim (I-IV sinf) Umumiy o'rta ta'lim (I-IX sinflar) Boshlang'ich ta'limda umumiy o'rta ta'lim olish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim va

ko'nikmalar asoslari shakllantiriladi. Birinchi sinfga bolalar 6-7 yoshdan qabul qilinadi. Oliy ta'limda yuqori malakali mutaxassislar tayyorlanadi Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash universitet, akademiyalar, institutlar va oliy maktabning boshqa ta'lim muassasalarida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim asosida amalga oshiriladi. Oliy ta'lim ikki bosqichda: bakalavriat va magistraturaga ega. Bakalavriat - oliy ta'lim yo'nalishlaridan biri bo'yicha puxta bilim beriladigan, o'qish muddati kamida to'rt yil bo'lgan tayanch oliy ta'limdir. Magistratura - aniq mutaxassislik bo'yicha bakalavriat negizida kamida ikki yil davom etadigan oliy ta'limdir. Ikkinchi va undan keyingi oliy ta'lim shartnoma asosida amalga oshiriladi. Oliy o'quv yurtidan keyin malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarga bo'lgan ehtiyojga qarab oliy o'quv yurti va ilmiy tadqiqot muassasalarida doktorantura, mustaqil tadqiqotchilik tarzida davom ettiriladi. Oliy ta'limdan so'ng kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyoriash kasb bilimini va ko'nikmalarini chuqurlashtirish va yangilashga qaratiladi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturda intellektual, ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan bog'liq bo'lgan uzluksiz ta'lim tizimi orqali har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirish nazarda tutiladi. Kadrlar tayyorlash milliy modelida fan, jumladan, pedagogika fani, ham yangi fundamental va bilimlarni shakllantirish orqali muhim ilmiy natijalarni jamlaydi. Oliy malakali va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlashning amalga oshirilishi, ilg'or pedagogik texnologiyalarni yaratish va o'zlashtirish orqali ilm-fanning ta'lim amaliyoti bilan aloqasini ta'minlashni amalga oshirish ko'zda tutiladi, ilg'or axborot va tendensiya texnologiyalarini joriy etish mexanizmlarini ishlab chiqishga e'tibor qaratildi. Mustaqillik yillarida pedagogika fanining eng dolzarb muammolari ustida doktorlik dissertatsiyalari himoya qilindi. Chunonchi, O.Musurmonova «Yuqori sinf o'quvchilarida ma'naviy madaniyatni shakllantirishning pedagogik asoslari»,

S.Nishonova «Sharq Uyg'onish davri pedagogik fikr taraqqiyotida barkamol inson tarbiyasi», U.Mahkamov «Yuqori sinf o'quvchilarining axloqiy madaniyatini shakllantirish», M.Inomova «Oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning pedagogik asoslari», R.Shodiyev «O'quv biluv faoliyatida tushunish muammolarini amalga oshirishning didaktik asoslari», A.Choriyev «Pedagogikaning fanlararo aloqasi va badiiy adabiyot bilan o'zaro bog'liqlik qonuniyati», T.Nuriddinov «Talabalarning umumnazariy tayyorgarligida fanlararo aloqalar», M.Hoshimova Talabalarning axloqiy tarbiyasini rivojlantirishda ruhiyatga oid bioenergetik bilimlardan foydalanish», M.Quromov «O'zbek maktabida milliy tarbiya nazariyasi va amaliyoti», D.Ro'ziyeva «Oliy ta'lim muassasalari talabalarida milliy iftixor tuyg'usini tarbiyalash» kabi doktorlik dissertatsiyalari shular jumlasidandir. O'tgan davr mobaynida jahon hamjamiyati O'zbekiston davlatining „o'zbek modeli« deb nom olgan rivojlanish yo'lidani boxabar ho'ldi, tan oldi. Ana shu tarixiy jarayonda ta'lim sohasidagi islohotlar, ularning natijalari katta o'rinni tutdi. Buni birinchi davlatimizning rahbari 2012-yil 17-fevral kuni Toshkentda mezbonlik qilgan «Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash - mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti» mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochilish marosimidagi nutqida ham alohida ta'kidlab, shunday degan edi: Mamlakatimizda 9+3 sxemasi bo'yicha 12 yillik umumiy majburiy bepul ta'lim tizimi joriy etildi. Yurtimizda amalga oshirilayotgan

modelning prinsipial xususiyati avvalo shundaki, umumta'lim maktabidagi 9 yillik o'qishdan so'ng o'quvchilar 3 yil davomida ixtisoslashgan kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarda tahsil olib, ularning har biri umumta'lim fanlari bilan birga mehnat bozorida talab qilinadigan 2-3 ta mutaxassislik bo'yicha kasb-hunarlarni ham egallaydi. Shuni ta'kidlash lozimki, O'zbekistonda 12 yillik ta'lim barcha uchun majburiy va bepul ekani qonunlarimizda belgilab qo'yilgan. Bu o'sib kelayotgan yangi avlodimiz 12 yillik majburiy ta'lim olish bilan birga mutaxassislik va kasb-hunarga ega bo'lishini taqozo etadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, «Ta'lim to'g'risida»gi qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi yosh avlodni jismonan sog'lom, ma'nan barkamol qilib voyaga yetkazishning muhim huquqiy asosidir. Umumiy o'rta ta'limning takomillashirilgan Davlat ta'lim standartlari va modernizatsiya qilingan o'quv dasturlaridagi o'zgarishlar O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2004-yil 21-maydagi 3134-sonli Farmoniga muvofiq qabul qilingan «2004-2009- yillarda maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi»da davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlarini ko'rib chiqish vazifasi qo'yildi. «2004-2009- yillarda maktab ta'limni rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi» ijrosini ta'minlash maqsadida umumta'lim fanlar bo'yicha mavjud DTSlar yangidan tahrir etilib, o'quv dasturlari modernizatsiya qilindi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida boshlang'ich ta'limda o'quvchi ta'limiy faoliyatning asosiy ko'nikma va malakalarini egallashi, erkin o'qishi, husnixati, tez sanash, matematik masalalarni yechishi, amaliy fikrlashi, o'z o'quv faoliyatini, nutq madaniyatini va xulqini nazorat qila bilishi, shaxsiy gigiyena va sog'lom turmish tarzi asoslarini o'zlashtirishiga alohida e'tibor qaratilgan. Davr talabi hisobga olingan holda umumiy o'rta va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limining Davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari va darsliklari uzviylik, uzluksizlik hamda o'quvchilarning Yoshu va psixofizologik xususiyatlariga mosligi jihatidan tahlil qilinib, 1260 soat hajmdagi mavzular optimallashtirildi. Bugun esa umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarida o'qitiladigan 18 ta umum ta'lim fanlari bo'yicha yangi- kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari loyihalari ishlab chiqilib 76 ta umumiy o'rta ta'lim muassasalari 52 ta kasb-hunar kolleji va 18 ta akademik litseylarda tajriba sinovdan o'tkazildi. Vazirlar Mahkamasining 390- sonli qarorida belgilangan davriylik asosida umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1- sinf o'quvchilar uchun har yili, 2-4- sinf o'quvchilari uchun har 2 yilda bir marta va 5-9- sinf o'quvchilar uchun har 4 yilda bir marotaba qayta nashr qilinayotgan darslik va o'quv-metodik adabiyotlarda mazkur takomillashtirishlar o'z aksini topmoqda. Xalq ta'lim, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirliklari, O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi markazining 2015-yil 11-avgustdagi «Umumiy o'rta va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limining umumta'lim fanlari bo'yicha o'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari loyihalari tajriba-tadqiqotini tashkil etish to'g'risida»gi qo'shma buyrug'i qabul qilindi. Unga asosan umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarida uzviy o'qitiladigan 18 ta umumta'lim fanlar bo'yicha amalyotchi o'qituvchilar, metodistlar hamda yetakehi olimlardan iborat ishchi guruhlar tuzildi. Ishchi guruhlar rivojlangan davlatlarning hamda mamlakatimizda yaratilgan chet tillardan uzluksiz ta'lim tizimi standartlari va o'quv

dasturlarini ishlab chiqish tajribasidan kelib chiqib, umumta'lim fanlar bo'yicha kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari loyihalari tayyorlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida» 2017-yil 20-apreldagi qaroriga binoan oliy ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, mamlakatni - ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan kelib chiqqan holda, kadrlar tayyorlash mazmunini tubdan qayta ko'rish, xalqaro standartlar darajasiga mos oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratilishini ta'minlash maqsadida: Oliy ta'lim tizimini kelgusida yanada takomillashtirish va kompleks rivojlantirish bo'yicha eng muhim vazifalar belgilab berildi: har bir oliy ta'lim muassasasi jahonning yetakchi ilmiy ta'lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalari o'rnatish, o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni keng joriy qilish, o'quv-pedagogik faoliyatga, master-klasslar o'tkazishga, malaka oshirish kurslariga xorijiy hamkor ta'lim muassasalaridan yuqori malakali o'qituvchilar va olimlarni faol jalb qilish, ularning bazasida tizimli asosda respublikamiz oliy ta'lim muassasalari magistrant, yosh o'qituvchi va ilmiy xodimlarining stajirovka o'tashlarini, professor-o'qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil qilish; oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlashning maqsadli parametrlarini shakllantirish, oliy ta'lim muassasalarida o'qitish yo'nalishlari va mutaxassisliklarini istiqbolda mintaqalar va iqtisodiyot tarmoqlarini kompleks rivojlantirish, amalga oshirilayotgan hududiy va tarmoq dasturlarining talablarini inobatga olgan holda optimallashtirish; -ta'lim jarayonini, oliy ta'limning o'quv reja va dasturlarini yangi pedagogik texnologiyalar va o'qitish usullarini keng joriy etish, magistratura ilmiy ta'lim jarayonini sifat jihatidan yangilash va zamonaviy tashkiliy shakllarni joriy etish asosida yanada takomillash-tirish; yangi avlod o'quv adabiyotlarini yaratish va ularni oliy ta'lim muassasalarining ta'lim jarayoniga keng tatbiq etish, oliy ta'lim muassasalarini zamonaviy o'quv, o'quv-metodik va ilmiy adabiyotlar bilan ta'minlash, shu jumladan, eng yangi xorijiy adabiyotlar sotib olish va tarjima qilish, axborot-resurs markazlari fondlarini muntazam yangilab borish, -pedagog kadrlarning kasb mahorati sifati va saviyasini uzluksiz yuksaltirish, xorijda pedagog va ilmiy xodimlarning malakasini oshirish va stajirovkasini o'tkazish, oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini PhD va magistratura dasturlari bo'yicha o'qitish, oliy ta'lim muassasalari va qayta tayyorlash hamda malaka oshirish markazlari o'quv jarayonlarga yuqori malakali xorijiy olimlar, o'qituvchi va mutaxassislarni keng jalb qilish; -oliy ta'lim muassasalari ilmiy salohiyatini mustahkamlash, oliy ta'limda ilm-fanni yanada rivojlantirish, uning akademik ilm-fan bilan integratsiyalashuvini kuchaytirish, oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarining ilmiy tadqiqot faoliyati samaradorligi va natijadorligini oshirish, iqtidorli talaba-yoshlarni ilmiy faoliyat bilan shug'ullanishiga keng jalb etish; -oliy ta'limning ma'naviy-axloqiy mazmunini oshirish, talaba-yoshlarga mustaqillik g'oyalari, yuksak ma'naviyat va insoniylikning milly an'analariga sodiqlik ruhini chuqur singdirish, ularda yot g'oya va mafkuralarga nisbatan amnitet va tanqidiy tafakkurni mustahkamlash

bo'yicha keng ko'lamli ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni olib borish; -oliy ta'lim muassasalari moddiy-texnika bazasini o'quv va ilmiy-laboratoriya bino va korpuslari, sport inshootlari, ijtimoiy-muhandislik infratuzilmasi obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash, oliy ta'lim ilm-fanning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha o'quv-ilmiy laboratoriyalarini zamonaviy asbob va uskunalar bilan jihozlash orqali yanada mustahkamlash; oliy ta'lim muassasalarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari bilan jihozlash, oliy ta'lim muassasalari talabalari, o'qituvchilari va yosh tadqiqotchilarning jahon ta'lim resurslari, zamonaviy ilmiy adabiyotlarning elektron kataloglari va ma'lumotlar bazalariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish.

Nazorat uchun savollar

1. Mustaqil O'zbekistonda ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlarga qisqacha izoh bering.

2. Mustaqillik yillarida pedagogik fikrlarning rivojlanishining asosiy yo'nalishlarini tushuntiring.

31. ENG QADIMGI DAVRLARDAN XIX ASRNING BIRINCHI YARMIGACHA JAHON PEDAGOGIKA FANINING TARAQQIYOT TARIXI

31.1. Qadimgi Sharq, qadimgi Yunoniston va Rim davlatlarida maktab va tarbiya.

31.2. Qadimgi yunon va rim faylasuflarining tarbiya to'g'risidagi fikrlari.

31.3. XII asrlarda Rossiyada pedagogik asarlarning nashr etilishi.

31.4. Ya.A.Komenskiyning pedagogik nazariyasi.

31.5. I.G.Pestolotsining didaktik qarashiari.

31.6. A.Distervegning didaktik g'oyalari.

31.1. Qadimgi Sharq, qadimgi Yunoniston va Rim davlatlarida maktab va tarbiya

Tarixiy manbalardan bizga ma'lumki, qadimiy sharqda ibtidoiy jamoa tuzumi yengilib, uning o'rniga yangi quldorlik tuzumining paydo bo'lishi moddiy va ma'naviy madaniyatga asos solinishiga zamin yaratdi. Ayniqsa qadimiy Yunoniston (Gretsiya) xalqlari bu madaniyatni ma'lum darajada qabul qilib, uni qaytadan rivojlantirdi va butun jahon madaniyatiga, maonfiga ulkan hissa qo'shganlar. Masalan: Xitoyda birinchi marta qog'oz ixtiro qilingan. Hindistonda hisoblashning o'nlik tizimi kashf etilgan. Mesopotamiyada esa yer kurrasini graduslarga, sutkani soatlar, minutlar va diqqalarga bo'lish o'ylab topilgan.

Bizga ma'lumki, quldorlik tuzumi davrida Qadimiy sharq mamlakatlari orasida, ayniqsa Yunonistonda madaniyat, tarbiya, maktab va dastlabki pedagogik

fikrlar boshqa mamlakatlarga nisbatan juda erta rivojlangan. Yunoniston unchalik katta bo'lmagan quldorlik davlatlaridan (polislardan) iborat mamlakat bo'lgan.

Lakoniya (bosh shahri Sparta) va Attika (bosh shahri Afina) Yunonistondagi davlatlarning eng mo'tabarlari edi. Bu davlatlarning har qaysisida tarbiyaning o'ziga xos tizimi yaratildi va shunga monand Sparta usulidagi tarbiya va Afina usulidagi tarbiya deb ataldi. Ammo bu ikkala davlat ham quldorlik davlati bo'lganligi uchun ijtimoiy tarbiya tizimi quldorlarning bolalariga xizmat qilgan.

Spartada o'g'il bolalar 7 yoshgacha uyda yashar, keyin agella deb ataluvchi davlat maktablariga joylashtiriladi va 18 yoshga yetguncha ana shu muassasalarda tarbiyalanib o'qitiladi. Hukumatga taniqli kishi (pelenom) butun tarbiyaviy ishlarga rahbar bo'lib tayinlanadi. O'smurlarni jismoniy jihatdan tarbiyalashga alohida e'tibor berilgan. Shu bilan birga bolalarga musiqa, ashula va dimy raqslar ham o'rgatiladi. Tarbiya butun jamoaning ishi hisoblanadi, lashkarboshilar, davlat arboblari bolalar bilan axloqiy va siyosiy mavzularda suhbatlar o'tkazib turdilar.

Qadimgi yunon tarixchisi, faylasuf olim Plutarx Sparta maktablaridagi ta'lim-tarbiya haqida gapirib, shunday deydi:

«O'qish va yozishga kelganda bolalarga faqat ularning eng zaruri o'rgatiladi edi, tarbiyaning qolgan qismi esa bitta maqsad: hech so'zsiz itoat qildirishni, chidamli bo'lishni va yengish ilmini o'rgatishni ko'zda tutar edi».

Spartada ta'lim-tarbiyaning yana bir muhim vazifasi yoshlarni qullarga nisbatan shafqatsiz, ularni mensimaydigan qilib tarbiyalashdan iborat edi. Shu maqsadda yoshlar «Kreptiyalar»da, ya'ni kechalarni qullarni tutish mashqlarida qatnashar, shubhali bo'lib ko'ringan har qanday qulni o'ldirar edilar.

Davlat rahbarlari yoshlar bilan maxsus suhbatlar o'tkazib, shu yo'l bilan ularga axloqiy va siyosiy tarbiya berar edilar, bunday suhbatlarda ular bolalarga vatan dushmanlari bilan kurashda ota-bobolarning ko'rsatgan mardligi va jasurligi haqida hikoya qilardi.

Yoshlarga axloqiy tarbiya berishda davlat rahbarlari maxsus suhbatlar o'tkazib, shu yo'l bilan ularga axloqiy va siyosiy tarbiya berar, bolalarni savol-javob jarayonida aniq va lo'nda javob berishga o'rgatgan. Yigitlar 18-20 yoshga yetganda «Efeblar» o'spirinlar guruhida harbiy xizmatni o'taganlar.

Qizlar uyda tarbiyalandilar, tarbiyada ularning ham jismoniy sog'lom bo'lishlariga, harbiy tayyorgarlikka ega bo'lib yetishuvlariga e'tibor berildi.

Spartada qizlar tarbiyasiga ham alohida e'tibor berilgan. Ularni harbiy va jismoniy tarbiya malakalari bilan qurollantirib borilgan. Chunki erkaklar jangga ketganlarida ular shaharni qo'riqlab qullarni itoatda saqlashini ta'minlar hatto jangga ham qatnashardilar.

Afinada esa havot, tartib, intizom, maktab tizimi va undagi ta'lim-tarbiya spartanikidan butunlay farq qilardi, qullar xususiy mulk hisoblanar edi. Afinada eramizdan ilgarigi V-IV asrlarda madaniyat gullab yashnadi. Fan, me'morchilik va haykaltaroshlik rivoj topdi.

Ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan yetuk kishini, Afinada eng ko'rkam va barkamol inson (ideal) hisoblangan.

Bolalar 7 yoshga yetguncha uyda tarbiyalanar, o'g'il bolalar 7 yoshdan boshlab maktabga qatnar, qizlar esa oilada ona ko'magida uy-ro'zg'or ishlarga

o'rgatilar, chunki xotin-qizlar uy doirasidan chiqmas edi. Afinada bolalar dastlab 7 yoshdan 13—14 yoshgacha «grammatist» (savod o'rgatish ma'nosida) yoki «kifarist» (yunoncha musiqa o'qituvchisi ma'nosida) maktablarda tahsil olganlar. Bu xususiy maktablarda o'qish pullik bo'lgan. Shuning uchun kamharj fuqarolarning bolalari ushbu maktablarda ta'lim ololmagan.

Maktablarda «didaskol» deb atalgan o'qituvchilar mashg'ulot olib borar edilar. (Men o'qitaman, degan ma'nodagi «didasko» so'zidan keyinroq «didaktika» — ta'lim nazariyasi kelib chiqqan).

O'g'il bolalarni maktabga qullar yetaklab borar edi, bunday qul pedagog deb atalgan («pays» - bola, «agogeyn» - yetaklab borish degan so'zlardan olingan). Grammatist maktabida o'qish, yozish va hisoblash o'rgatilar edi, o'qishda harflarni hijjalab o'qitish usuli, so'ng qo'shib o'qish usulidan foydalanganlar. Yozuvni o'rgatishda mo'm surilgan yaltiroq taxtachalardan foydalangan va ingichka cho'p yordamida yozganlar. Sonlar barmoqlar, sopol toshlar, sanoq taxtasi yordami bilan hisoblangan. Kifarist maktabida adabiy bilim va estetik tarbiya berilar, ashula, diplomatsiyalar o'rgatilar edi.

O'g'il bolalar 13-14 yoshga yetganlaridan keyin palestra («kurash maktabi») deb atalgan o'quv yurtiga o'tar, bu yerda ikki-uch yil davomida jismoniy mashqlar bilan shug'ullanardilar. Masalan: sakrash, yugurish, kurashish, disk va nayza uloqtirish, suvda suzish kabilar. Palestrada o'qish tekin bo'lgani uchun yoshlarning ko'pchiligi shu yerda o'qish bilan cheklanib qolar edi. Badavlatroq oiladan bo'lganlari esa palestrani tugatgach gimnasiyaga (jismoniy, ijtimoiy tarbiya) kirar edi. Ularga falsafa, siyosat, adabiyot fanlari o'rgatilar, tahsilni tugatganlar esa davlat boshqaruvida qatnashishlari mumkin edi.

Nihoyat, Spartada bo'lgani kabi. Afinada ham 18 dan 20 yoshgacha bo'lgan yoshlar efeblar qatoriga o'tib, harbiy xizmatga tayyorlanar va o'zlarining siyosiy bilimlarini oshirishni davom ettirar edilar.

Aholining ko'pchilik qismi bolalarni maktablarda o'qita olmaganligi sababli ularga kasb-hunar o'rgatish odat tusiga kirgan edi. Ayrim xat-savod bor ota-onalar bolalariga o'qishni o'zlar o'rgatar edilar. Bu davlat tomonidan qonunlashtirilib qo'yilib bechorahol tabaqaga mansub ota-onalar o'z bolalariga biror kasbni o'rgatishga majbur edilar. Aks holda ularning bolalari kelgusida keksayib qolgan ota-onalari to'g'risida moddiy g'amxo'rlik qilishdan ozod etilar edilar.

31.2. Qadimgi yunon va rim faylasuflarining tarbiya to'g'risidagi fikrlari

Pedagogika nazariyasiga olim va faylasuflardan Suqrot, Platon, Aristotel va Demokritlar asos soldilar. Quyida bu faylasuf olimlar haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz. Suqrot (Sokrat) (eramizdan avvalgi 469-399-yillar) o'zining ijtimoiy kelib chiqishiga qaramay (Suqrot haykaltaroshning o'g'li edi) konservativ zamindor aristokrallarning ideologi edi. Bu albatta, uning falsafiy va pedagogik qarashlarida o'z aksini topdi. Suqrot keng maydonlarda so'zga chiqar, axloqqa doir masalalar yuzasidan suhbatlar o'tkazar, tinglovchilarni savol-javob yoki u bilan haqiqatni topishga undar edi. Bu «Suqrot metodi»(Evristik) nomi bilan fanga kirgan.

Suqrot — falsafiy dialektikaning asoschilaridan biri. Baxs orqali, ya'ni muayyan narsalarni o'rtaga qo'yish va ularga javob topish yo'li bilan haqiqatni aniqlash mumkin deb uqtiradi faylasuf. Aristotelning yozishicha, Suqrot mavjud haqiqatan umumiy tushunchalarga o'tishdagi induktiv ta'limotni hamda har bir narsaning mohiyatini bilishning birinchi imkoniyatini beradigan tushunchalarni aniqlashdagi ta'limotni yaratgan. Suqrotning etika sohasidagi asosiy tezislari quyidagilardan iborat: ezgulik bilimdir, donishmandlik, ya'ni yaxshilikni biluvchi yaxshilik qiladi, yomonlik qiluvchi esa yaxshilikni yo bilmaydi yoki pirovardida yaxshilikning tantanasi uchun yomonlik qiladi. Suqrotning ta'biricha, aql bilan axloq o'rtasida ziddiyat bo'lishi mumkin emas. Ulug' faylasuf tarbiyada axloqiy, estetik, jismoniy tarbiya mezonini ishlab chiqdi. Lekin Suqrotning axloqiy qarashlarida tengsizlikni yaqqol sezish mumkin. Uning fikricha, axloq faqat imtiyozli «mumtoz»largagina xos, «mumtoz» kishilar haqiqiy axloqning yagona egalari bo'lganliklari uchun hokimiyat ham ularning qo'llarida bo'lmog'i kerak deydi.

Aflotun (Platon) eramizdan ilgari (424-347-yillari) yashagan. Qadimgi yunonistonning mashhur - idealist faylasufi, Suqrotning shogirdi, obyektiv idealizm nazariyasining asoschisi «g'oyalar dunyosi»ni birlamchi, his qiluvchi narsalar dunyosini ikkilamchi deb hisobladi. Aflotun olamni hodisalar dunyosi va g'oyalar dunyosi deb ikkiga bo'ldi. Uning fikricha g'oyalar abadiy va o'zgarmasdir. Uning nazarida, narsalar g'oyalar olamining soyasidir. Afina aristokratiyasining namoyandasi bo'lgan Aflotun, zodagonlarning abadiy hukmronligi nazariyani ilgari surdi. Uning fikricha ideal aristokratik davlat uch xil ijtimoiy guruh: faylasuflar, jangchilar, hunarmandlar va dehqonlar guruhidan iborat bo'lishi lozim. Faylasuflar davlatni boshqaradilar, jangchilar uni har qanday dushmandan himoya qiladilar, uchinchi guruh esa mehnat qilib, mo'l hosil yetishtirib, faylasuflar va jangchilarni boqadilar. Uning tasavvuridagi ideal davlatda qullar ham hunarmandlar ham huquqsizdirlar, qanoat va itoatkorlik fazilatlariga xos deb ta'kidlaydi u. Aflotun davlat tomonidan tashkil etilmog'i va hukmron guruhlarining — faylasuflar va jangchilarning manfaatini ko'zlamog'i lozim. Aflotun o'zining pedagogika tizimida Sparta va Afina tizimining ba'zi bir belgilarini birlashtirishga intiladi. Aflotunning fikricha, bolalar 3 yoshdan 6 yoshgacha davlat tomonidan tayinlab qo'yilgan tarbiyachilar rahbarligida maydonchalarda turli o'yinlar o'ynash bilan shug'ullanishlari lozim. Aflotun o'yinlarni maktabgacha tarbiya vositasi deb hisoblab, ularga katta ahamiyat beradi, shuningdek, bolalarga hikoya qilib beriladigan materiallarni sinchuklab tanlash kerakligini ham uqtirib o'tadi. U bolalarga yoshlik chog'idanoq ijtimoiy tarbiya berish tarafdori edi. Aflotun xotinqizlar tarbiyasi xususida fikr yuritib, Spartadagi usulni ma'qullaydi. Umuman Aflotun tarbiya tizimining butun mazmuni va mohiyati jismoniy mehnatdan g'oyat nafratlanish ruhi bilan sug'orilgan. Aflotun g'oyasiga ko'ra bo'lajak faylasuflar va jangchilarni «jismoniy mehnat to'g'risida xato o'ylashlari» ham taqiqlab qo'yilgan, shuningdek, qullarning bolalarini o'qitnagan ma'qul. Biroq Aflotun maktabgacha tarbiya to'g'risida, davlat tomonidan izchillik bilan olib borilishi lozim bo'lgan tarbiya tizimi to'g'risida bir qancha muhim fikrlarni aytib, ijobiy o'rnam namunasida tarbiyalashni talab qilgan.

Aflotun o'zining axloqiy g'oyalarni ilgari surar ekan, ustozni Suqrotga ergashib, obyektiv idealizm yo'lini tutadi.

Arastu (Aristotel) (eramizdan avvalgi 384-322-yillar)da yashagan. Aflotun olamni g'oyalar va hodisalar dunyosiga bo'lgan bo'lsa, uning shogirdi Arastuning aytishicha, g'oyani shaklga o'xshatish mumkin. Har qandav buyumda biz uning moddasini va shaklini ko'rishimiz mumkin. Moddada narsalar bo'lishi uchun imkoniyatlar bor. modda biron shakl olganidan so'nggina narsa bo'lib qoladi. Chunonchi, marmarning o'zi bir moddadir, ammo unga ma'lum shakl berilsa, haykal tusini olishi mumkin.

Arastu olamda tana va jon bor, tana bilan jon materiya bilan shakl tariqasida bir-biridan ajralmagan holda mavjuddir, deydi. Uningcha, uch xil jon bor: o'simlikdan tarkib topgan jon oziqlanish va urchib ko'payishda namoyon bo'ladi; hayvonotdan tarkib topgan jon, o'simlik xossalaridan tashqari sezgilarda va istaklarda namoyon bo'ladi; aqlning ifodasi bo'lgan jon, o'simlik va hayvonot xossalaridan tashqari, u tafakkur yoki bilish xislatlariga ega. Insondagi jonning hayvoni qismi aqlga tobe bo'lganligi sababli, uni iroda deb atash mumkin.

Arastuning fikricha, jonning mana shu uch xiliga muvofiq uch xil tarbiya - jismoniy, axloqiy va aqliy tarbiyalardir. Tarbiyaning maqsadi aql va irodani kamol toptirishdan iborat. Har bir moddada rivojlanish imkoniyati bor bo'lganidek, insonga ham tabiat faqat qobiliyatlarning boshlang'ichiniga beradi, insonda kamol topish imkoniyati mavjud va bu imkoniyat tarbiya vositasi bilan ro'yobga chiqariladi. Tabiat jonning uch xilini bir-biri bilan chambarchas bog'lab qo'ygan, biz ham tarbiyada tabiat belgilab bergan yo'ldan borib, jismoniy, axloqiy va aqliy tarbiyani bir-biri bilan chambarchas bog'lab olib borishimiz lozimligini uqtiradi.

Arastuning fikriga ko'ra, davlatning umumiy bitta oxirgi maqsadi bor, u ham bo'lsa, davlat hamma fuqarolarga bir xilda tarbiya berilishini ta'minlashi lozim, mana shunday tarbiya berish esa xususiy tashabbusning vazifasi bo'lmasdan, balki davlatning ishi bo'lishi lozim.

Oilaviy tarbiya bilan ijtimoiy tarbiya o'zaro bog'liq bo'lishi lozimligini uqtirib, u hatto oilaviy tarbiyaga doir bir qancha tavsiyalar beradi. Ammo Arastu davlat hamma fuqarolar uchun «bir xilda» tarbiya berishi lozim, deb aytganida qullarni nazarda tutmaydi.

Arastu pedagogika tarixida birinchi bo'lib, yoshni davrlarga bo'lishga urinib ko'radi. U insonning yoshlik yillarini uchga bo'lib o'rganadi: 7 yoshgacha bo'lgan davr; 7 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan davr (jismoniy balog'at davrining boshlanishi) va jinsiy balog'at davrining boshlanishidan 21 yoshgacha bo'lgan davr. Uning fikricha, bunday davrlarga bo'lish tabiatga mos bo'lib tushadi.

Arastu o'g'il bolalar 7 yoshdan boshlab davlat maktabida o'qishi lozim, deb uqtiradi. Bolalarga aqliy tarbiya berilishi kerakligini aytib, u o'g'il bolalar avvalo badantarbiya muallimlarining qo'lga topshirilsin, deb talab qiladi; bunda u bolalarni haddan tashqari charchatib qo'ymaslik kerakligini aytadi va ularning jismi mustahkamlanib olguncha yengil mashqlar bilan shug'ullanirishni tavsiya etadi.

Arastu jismoniy, axloqiy va aqliy tarbiyani bir-biri bilan bog'langan, deb qaraydi. Boshlang'ich ta'lim vaqtida, badantarbiyadan tashqari, Yana o'qish, yozish, grammatika, rasm va musiqa o'rgatilishi kerakligini alohida uqtirib o'tadi. O'simlar

maktabda jiddiy ma'lumot olishlari kerak, ular adabiyot, tarix, falsafa, hisob, falakiyot, musiqani o'rganishlari shart. Go'zallikni his qilishni o'stirish uchun musiqa o'rganmoq kerak, ammo rasm chizish singari musiqa o'rganish ham oddiy hunarga aylanib ketmasligini kuzatib turish muhim deydi. U xotin-qizlarning tarbiyasi xususida gapirib, bu erkaklarning tarbiyasiga o'xshab ketmasligini, chunki ularning tabiati mulqat erkaklikidan farq qitishini aytadi. Arastu o'z pedagogik qarashlarida iroda, faoliyatni asos qilib olgani holda, aqliy tarbiya sohasida axloqiy ko'nikmalarga katta ahamiyat beradi. Tabiiy iste'dod, shu bilan birga, ko'nikma orttirish (matlub harakatlarni o'rganish, tez-tez takrorlab turish) va aql — bular axloqiy tarbiyaning uch manbaidir, - deydi.

Fazilatlar hosil bo'lishi uchun ezgu xulq-odatlarini va ko'nikmalarini tarkib toptiradigan, yaxshi o'ylab o'tkaziladigan mashqlar bo'lishi ham zarur, bunga odatlanish, buning uchun doimiy harakat qilish lozim, odatdan, ko'nikishdan esa axloqiy xatti-harakat hosil bo'ladi, deb ta'lim beradi.

Arastu Afлотundan farq qilib, oilani tarbiyadan chetlashtirmaydi, axloqiy tarbiya berish, asosan, oilaning zimmasida bo'lishi kerak, deydi.

Arastuning qarashlari antik pedagogikaning taraqqiyotiga katta ta'sir o'tkazadi. Uning «Nikoh axloqi» va «Siyosat» asarlari axloq masalalarini nazariy ishlab chiqishga bag'ishlangan.

Arastu, axloqning jamiyat hayotida muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlab, «Tabiat inson qo'liga qurol — aqliy va axloqiy kuch bergan, ammo u shu qurolni teskari tomonga nisbatan ham ishlatishi mumkin: shu sababli axloqiy tayanchlari bo'lmagan odam eng insofsiz va yovvoyi, o'zining jinsiy va did mayllarida eng tuban mavjudot bo'lib qoladi», - deydi.

Arastu antik davrining boshqa faylasuflariga qaraganda axloqiy munosabatlarning tabiatini teran tadqiq qila oldi. Uning fikriga ko'ra, axloqiy fazilat — faoliyat, xatti-harakat demakdir. Barcha axloqiy fazilatlar adolat, do'stlik, muhabbat, saxiylik, sulhparvarlik, xushfe'llik va hokazolar faqat inson faoliyatida namoyon bo'lishini asoslab beradi.

Odam jamiyatda yashagani sababli uning axloqiy fazilatlari hech qachon sof, xolis holda namoyon bo'lmaydi, balki faqat ijtimoiy faoliyatdagina amalga oshadi. Shuning uchun barcha axloqiy fazilatlar ijtimoiydir, deydi Arastu.

Inson tabiatan fazilatlariga ega bo'lmagani, balki fazilatga o'rgangan sababli, tarbiyaning (faqat bolalarnigina emas, shu bilan birga barcha aholini tarbiya qilish) roliga katta ahamiyat berib, xususan hissiyotlarni tuyg'ularda idrokli tarbiyalashiga ahamiyat qaratadi. Uning fikricha, bunday tarbiya kishilarning axloqli bo'lib yashashga o'rganishlari uchun zarur bo'lgan mavjud qonunlar yordamida armalga oshiriladi. Mutafakkir fazilat deganda, hamisha ota-ona o'mini bosishi mumkin bo'lgan davlatga xizmat qilishni nazarda tutadi

Arastu axloqiy fazilatlar bilan bir qatorda inson uchun muhim bo'lgan aqliy fazilatlariga— bilim, donishmandlik, fahmlash va boshqalarga ham katta ahamiyat beradi. Ammo axloqiy fazilatlarini aqliy fazilatlariga bo'ysundirgan holda ifodalaydi.

Arastu faqat aql faoliyatini tan oladi. Shu sababdan u baxt idealini haqiqatan intellektual mushohada etishda deb biladi.

Umuman antik faylasuflar Suqrot, Afilotun, Arastular o'zlarining nazariyalarda har bir narsada me'yor bo'lmog'i lozimligini uqitirib o'tganlar. Ular axloqni insonning baxtga erishish vositasi deb qaraganlar.

Demokrit (eramizdan avvalgi 460-370-yillar) qarashlari qadimgi yunon falsafasining cho'qqisidir. U atomizm nazariyasini yaratgan materialist faylasufdir. Demokrit o'z asarlarida yuqorida nomlari qayd etilgan mutafakkir faylasuflar kabi tarbiya masalalariga katta e'tibor beradi. U o'z nazariyasida tabiat qonunlariga, xurofotni va qo'rquvni yemirib tashlaydigan chimakam bilimlarga murojaat qiladi.

Demokrit tarbiyani tabiatga muvofiqlashtirish masalasini birinchi bo'lib ilgari surdi. «Tabiat bilan tarbiya bir-biriga o'xshaydi» deb yozadi u. Demokrit «ta'lim mehnat asosidagina go'zal narsalarni hosil qiladi», deb, tarbiya ishida mehnatning roli juda katta ekanligini ta'kidladi. U doimo mehnat qilib turishni talab qildi, mehnatga odatlana borgan sari, mehnat yengil bo'lib boradi, deydi. U yomon o'makdan ehtiyot bo'lish kerak, deb ta'kidlaydi va yaxshi hulq hosil qilishda mashqning ahamiyati katta, deb hisoblaydi.

Demokrit axloqni odamning o'z tabiatidan kelib chiqib, asoslashga harakat qiladi. Bilish nazariyasida Demokrit moddiy olamni bilish va haqiqatga erishish mumkinligini ta'kidladi, bilish jarayonida sezgi va tafakkur rolini ko'rsatdi. Uningcha sezgilarimiz orqali olingan bilim «qorong'i», u olamning mohiyatini ochib berolmaydi; aql orqali olingan bilim «yorug'», haqiqiy bilimdir. Tabiat sirlarini faqat fikrlash yo'li bilan bilib olish mumkin.

Demokritning axloqiy va pedagogik qarashlari diniy qobiqdan xoli edi. Shuning uchun ham u o'z g'oyalari bilan o'zidan keyingi faylasuf olimlarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ayniqsa, ularning inson kamolotidagi nazariy qarashlari, tarbiyaning roliga bergan katta ahamiyatlari pedagogika tarixi nazariyasini yaratishda asosiy zamin bo'lib xizmat qildi.

31.3. XII asrlarda Rossiyada pedagogik asarlarning nashr etilishi

XI-XIII asr pedagogika adabiyoti yodgorliklari «Viladimir Monomaxning bolalarga o'g'itlari» XI-XII asrlarda tarjima qilingan va mavjud maqolalar to'plamlarida iborat bir qancha va ko'p yozma kitoblar vujudga keladi. Bunday maqolalar orasida pedagogika mazmunidagi maqolalar va fikrlar bor edi.

Bunday to'plamlar «Pechla» Izamragd» (Yangi zumrad) «Sbornik Svyatoslava (Ya'ni Svyatoslava to'plami), «Zlatostruy» Zlatoust» deb atalar edi (grek cherkov yozuvchisi va va'xonasi Ioanni Zlatoust tahallusidan olingan) Unda Demokrit Aristotilning bildirgan fikrlari va maqolalari e'lon qilingan edi. Svyatoslav «to'plami»ga masalan, Aristotelning matematikaga oid asrlari va kiyevlik kishining o'qish metodikasi to'g'risidagi mavjud pedagogika asarlari kiritilgan edi. O'sha davrdagi tarbiya masalasiga bag'ishlangan maqolalarda bolalarni insof-tavfiqli qilib tarbiyalash to'g'risida, ota-onalarni o'zlaridan kattalarni hurmat qilish to'g'risida ota-onalarga bolalarni jismoniy o'sishini axloqiy va aqliy rivojlanishini qanday qilib ta'minlash ularni qattiq ushlab, agar bolalar gapga quloq solmaydigan bo'lsa, ularni kaltaklashga ruxsat berilar edi. Viladimir Monomaxning

bolalarga o'g'itlari XII asr oxirlaridagi pedagogikaga oid adabiyotlarning ajoyib yodgorliklaridir. Davlatni oqillik bilan idora qilgan Viladimir Monomax o'z bolalariga qanday yashash yo'lini ko'rsatib maslahatlar beradi. U bolalarni vatanga muhabbat qo'yishga vatani dushmanlardan himoya qilishga serharakat, mehnatsevar botir kishilar bo'lishga da'vat qiladi.

U bolalarni qahramonlik jasurlik va shu bilan birga insonparvarlik kishilarga jonkuyarlik ruhida tarbiyalash zarurligini alohida ko'rsatib o'tadi. Viladimir Monomax, yetim-yesirlar va beva-bechoralarning homiysi bo'lmog'i kerak, kuchlilarning kishini halok qilishlariga yo'l qo'ymaslik kerak. Katta kishilarni hurmat qilmoq tengqurlar bilan xushmomala bo'lmoq kerak. Xudoni tarki dunyo qilish ro'za tutish yo'li bilan emas, balki garchi andakkina bo'lsada, savobli ishlar bilan ro'za qilmoq kerak deb yozgan edi. Viladimir Monomax, bolalarga murojaat qilib ularga o'qishni maslahat beradi. O'zni otasini misol qilib uni chet tillarni bilganini aytadi.

Mo'g'ul - tatar istilolari davrida uchta mustaqil xalq -velikoruslar ukranlar belaruslarga bo'limb ketgan yagona qadimgi xalqlarning zo'r berishi tufayli Kiyev davlatida maorif va o'qitish ishlari yuqori darajaga ko'tarildi.

Kelib chiqish birligini tarixiy va madaniy birligni anglash bu xalqlarda XIV-XVII asrlarda maorif maktab va pedagogikaga oid fikrning rivojlanishini ma'lum darajada belgilab beradi.

Odatda to'rtta fakultetdan tuzilgan bo'lib, bular tayyorlov fakulteti, ridik, medisina va teologiya (din aqidalari) fakultetlaridan iborat edi. Tayyorlov fakulteti talabalari yuqorida aytilgan triviumga, kvadrivium tarkibiga kirgan fanlarni o'qir edilar. Tayyorlov fakultetida o'qish muddati 6-7 yilgacha, asosiy fakultetlarda esa 5-6 yilgacha cho'zilar edi. Universitetlarda o'qitish metodlari ma'ruza, cherkov tomonidan tasdiqlangan darslik va asarlarni yodlash va disput (munozara)lardan iborat edi. Universitetlarda o'qish faqat lotin tilida olib borilar edi.

31.4. Ya.A.Komenskiyning pedagogik nazariyasi

Buyuk slavyan pedagogi Yan Amos Komenskiy 1592-yilda Chex diniy jamoasida tegirmonchi oilasida tug'ildi, jamoadagi maktabda o'qidi.

Komenskiy ota-onasidan erta judo bo'ladi, jamoa a'zolarining yordami bilan universitetga kirib, o'qishni tamomlagandan keyin, Fulkenns shahridagi qardoshlik maktabida o'qituvchi bo'lib xizmat qildi. So'ngra mahalliy jamoada rahbarlik vazifasida ishlaydi, ilmiy ishlar bilan shug'ullanib, chex tilining xususiyatlarini, xalq og'zaki ijodini o'rganadi, qardoshlik maktablaridagi o'qitish mazmuni va usullarini takomillashtirish ustida ish olib boradi. 1628-yilda chex xalqi bilan birga Polianing Leshno shahriga ko'chib keladi, bu shaharda ham qardoshlik maktabini ochib, o'qituvchi bo'lib ishlaydi, o'ziga olamshumul shuhrat keltirgan «Buyuk didaktika» va «Onalar maktabi» asarlarini nashr qildiradi. Bu davrda u tabiat va jamiyat haqidagi bilimlar ensiklopediyasi - «Pansofiya»ni yaratish ustida ish olib boradi. Komenskiy 1641-yilda ingliz olimlarining taklifiga binoan Londonga boradi, katta tantana bilan kutub olindi. Shvetsiya va Vengriyada bo'lganda ham maktablarni isloh qilish bilan shug'ullanadi, «Hislar vositasi bilan idrok qilinadigan narsalarning

suratlari» darsligini, «Insoniy ishlarni tuzatish haqida umumiy maslahatlar» asarlarini yozadi. Komenskiy 1670-yilda vafot etadi.

Komenskiy oʻrta asrdagi tarbiyadan farqli oʻlaroq, tugʻilganidan boshlab bola egallagan qobiliyatini xudoning tuhfasini hisobladi va ayni paytda, bu qobiliyat faqat tarbiya jarayonida rivojlanishini uqtirdi. Komenskiy insonning rivojlanishida tarbiyaning oʻmi benihoya ekanligiga ishonadi va tarbiya tufayligina har qanday bolani yuksak axloqli, maʼlumotli qilib yetishtirish mumkin degan fikrni bildirdi, bolani yoshlik chogʻidan jismonan sogʻlom, maʼnaviyatli qilib tarbiyalashni talab qildi.

Komenskiyning fikricha, tarbiya tabiatga uygʻun boʻlishi, tarbiyada bolaning shaxsiy xususiyatlari hisobga olinishi lozim.

Komenskiy oʻz pedagogik qarashlarida insonni tabiatni bir qismi deb hisobladi va tabiatdagi barcha mavjudotni yagona bir qonunga buysunadi, degan gʻoyani olgʻa suradi. Uning fikricha, taʼlimni bolalarni narsa va mavjudotlar bilan tanishtirishdan, ularni idrok qildirishdan boshlash,²⁵ undan keyin ularga xos xususiyatlarni oʻrganishga oʻtish zarur. Komenskiyning oʻqitirishicha, rassom ham shu zaylda ish koʻradi. U avval tasvirlaydigan buyumning umumiy, xomaki rasmini chizadi, keyin uning ayrim qismlarini tasvirlaydi.

Bu uqtirishda Komenskiyning oʻz pedagogik qarashlarining toʻgʻriligini tasdiqlash uchun zarur boʻlgan oʻziga xos usul oʻz ifodasini topgan. Bu usul oʻz davrida Komenskiyga oʻzining shaxsiy tajribasini asoslashga yordam bergan.

Komenskiyning fikricha, bolaning yosh xususiyatlarini hisobga olish asosiga qurilgan taʼlimning uygʻun boʻladi.

Komenskiy taʼlim va uning uzviyligi haqida

Komenskiy barcha bolalarni bilimlarni idrok qilishga qodir deb hisoblab, «barchani hamma narsaga oʻrgatish» zarurligini, taʼlimning umumiy boʻlishini talab qiladi. Bu taʼlim barchaga, jumladan, oʻgʻil bolalar va qizlarga ham taalluqli boʻlishi lozim.

Komenskiy maktab bolalariga har tomonlama bilim berishi, ularning aql-idroki, axloqi, his-tuygʻulari va irodasini rivojlantirishi lozinligini taʼkidlaydi.

Komenskiy inson rivojlanishini toʻrt bosqichga: goʻdaklik, bolalik, oʻsmirlik, yetuklik davrlarga boʻladi. Komenskiy tugʻilganidan boshlab 6 yoshgacha boʻlgan bolalar uchun alohida onalar maktabini ochishni, ularga onalar rahbarligida taʼlim va tarbiya berishni tavsiya etadi. Uning tavsiyasi boʻyicha, 6 yoshdan 12 yoshgacha boʻlgan bolalar oʻqish ona tilida olib boriladigan maktabda taʼlim oladilar. Bu turdagi maktab har bir jamoada ochilishi kerak. Ilm olishga moyilhgi sezilgan 1218 yoshli oʻsmir va yigitlar shaharda tashkil etiladigan lotin maktabi yoki gimnaziyaga borishlari lozim. Komenskiy olim boʻlishni xohlagan 18 yoshdan 24 yoshgacha boʻlgan yoshlar uchun har bir davlatda akademiyalar tashkil etishni taklif qiladi.

Uning fikricha, yosh avlodning har tomonlama tarbiyali boʻlishini taʼminlaydigan taʼlim bosqichlarida izchillik va oʻzaro birlik boʻlishi, qatʼiy va yagona tizim qaror topishi dardkor.

²⁵ «Н.А. Константинов, Е.Н.Мединский Коменский Я.Л. Буюк дидактика. -Т.: Уқитувчи, 1975. 238 б й, М.Ф. Шаббаева История педагогика.

Komenskiy barcha bosqichlar uchun (akademiyadan tashqari) ta'limning mazmunini ishlab chiqadi. U har bir fanning o'qitilishini «eng oddiy elementlardan» boshlab, bolalar bilimi rivojini hisobga olgan holda takomillashtirib borishini tavsiya etadi.

31.5. I.G.Pestalotsining didaktik qarashlari

Pestalotsi avval boshlang'ich maktabda, so'ngra lotin maktabida o'qib ilm oldi. Pestalotsi o'rta maktabni tamomlagach, ko'proq gumanitar fanlar o'qitiladigan oliy o'quv yurtiga - kollegiumda, uning filologiya va falsafa bo'limlarida o'qidi. Pestalotsi kollegiumni tamomlamay turib, xalqning ahvolini yaxshilash to'g'risida o'zining azaldan orzu qilib kelgan niyatini amalga oshirishga qaror qildi. 1769-yilda Pestalotsi o'zining ijtimoiy tajribasini boshladi. U pul qarz olib, kichikroq qo'rg'on va yer sotib oldi, bu yerga «Neygof» («yangi qo'rg'on») deb nom berdi va tevarakatdagi dehqonlarga o'z xo'jaliklarini unumdor xo'jalikka aylantirishni o'rgatish maqsadida, bu yerda namunali ferma tashkil qilmoqchi bo'ldi. Tajribasiz va xo'jalik ishlaridan bexabar bo'lgan Pestalotsi oradan ko'p o'tmay sindi va u xalq foydasini ko'zlab yana yangi yo'llar qidirishga majbur bo'ldi.

U 1774-yili «Neygof»da «Kambag'allar muassasasi»ni ochib, yetim va boqimsiz bolalardan 50 ga yaqin kishini shu muassasaga to'pladi. Pestalotsining fikricha, bolalarning o'zlari ishlab topgan pullar shu yetimxonaning harajatini qoplashi kerak edi. Yetimxonada tarbiyalanayotgan bolalar dalada ishlar, shuningdek, to'quv va yigiruv dastgohlarida ip yigirib, mato to'qir edilar. Pestalotsining o'zi bolalarga o'qish, yozish va hisob o'rgatar, ularni tarbiyalash bilan shug'ullanar edi. Hunarmand ustalar esa bolalarga ip yigirish va to'qishni o'rgatardilar. Shu tariqa, Pestalotsi o'z muassasasida bolalarni o'qitishni ularni unumli mehnatga o'rgatish bilan qo'shib olib borishga urindi.

Pestalotsi boshlagan ish tezda barbod bo'ldi, chunki siyosiy hokimiyat va moddiy mablag'larning egalari uni qo'llab-quvvatlamadilar. Bolalar ming mashaqqat bilan mehnat qilishi tufayli o'zlari yashab-ishlab turgan yetimxona harajatlarini ko'tara olar edilar, lekin gumanist va demokrat Pestalotsi o'zi tarbiyalayotgan bolalarni bunday og'ir sharoitda yashashini istamasdi va bunga yo'l qo'ya olmasdi. U bolalar mehnatini, avvalo, bolalarning jismoniy kuchlarini aqliy va axloqiy qobiliyatlarini o'stirish vositasi, deb bildi. Bolalarga faqat hunar o'rgatibgina qolmasdan, balki ularni keng ravishda mehnatga o'rgatishga intildi.

Pestalotsi Neygofda o'tkazgan tajribaning pedagogika uchun ahamiyati katta bo'ldi. Tajribani davom ettirish uchun mablag' bo'lmaganhgi sababli oradan ko'p vaqt o'tmay yetimxona yopildi. Lekin bu muvaffaqiyatsizliklar uni, xalqqa yordam berish maqsadidan qaytara olmadi.

Pestalotsi 1798-yil Shveysariya inqilobi natijasida yetim qolgan 5 yoshdan 10 yoshgacha bo'lgan 80 bolaga mo'ljallangan Yangi yetimxona ochdi.

«Ertalabdan to kechgacha ularga yakka o'zim hamroh edim! Mening qo'llarim ularning qo'lida, ko'zlarim ularning ko'zlarida edi. Ular yig'lasa, men ham yig'lar, kulsa kular edim! Ular nima yesa, men ham shuni yer, nima ichsa, shuni

ichardim. Mening o'shalardan boshqa uyim ham, do'stim ham, xizmatchim ham yo'q edi!», deb yozgandi keyinchalik bu haqda Pstalotsi.

Afsuski, urush harakati boshlangandan keyin yetimxona yopildi. Keyingi o'n sakkiz yil davomida Pstalotsi o'sha davmning eng muhim masalasini: dehqon xo'jaliklarini qanday qilib tiklash, ularning turmushini yaxshilash, mehnat-kashlarning axloqiy va aqliy holatini qanday qilib o'zgartirish masalasini hal qilishga jamoatchilik e'tiborini tortishga intilib, adabiy faoliyat bilan shug'ullandi. U «Lingard va Gertruda» (1781-1787) degan ijtimoiy-pedagogik roman yozib, bu romanda xo'jalikni oqilona, usulda olib borish va bolalarni to'g'ri tarbiyalash vositasi bilan dehqonlarning turmushini yaxshilash to'g'risidagi o'z g'oyalarni olg'a surdi.

XIX asming boshlaridayoq Pstalotsining «Gertruda o'z bolalarini qanday qilib o'qitadi», «Onalar kitobi yoki onalar uchun o'z bolalariga kuzatish va gapirishni qanday o'rgatish haqida qo'llanma», «Kuzatish alifbesi yoki o'lchash haqida ko'rsatmali qo'llanma», «Son to'g'risida ko'rsatmali ta'lim» degan kitoblari bosilib chiqdi. Bu kitoblarda boshlang'ich ta'limning YAngi usullari bayon qilingan edi.

Pstalotsining ijtimoiy-pedagogik va falsafiy qarashlari. Pstalotsi o'z xalqini oyoqqa turg'azishni orzu qildi, u mehnatkashlarni o'qitish va tarbiyalash yo'li bilan ularning turmushini o'zgartirish mumkin, deb o'yladi. U xalq boshiga tushgan kulfatlarning manbai iqtisodiy sharoit emas, balki ma'rifatning yo'qligi deb bildi.

Pstalotsi hamma odamlar tarbiya va ilm olish huquqiga ega bo'lishi lozim, maktablar jamiyatni ijtimoiy jihatdan o'zgartirishning muhim vositalaridan biri bo'lishi kerakligini ta'kidladi. Uning fikricha, har bir kishining haqiqiy insoniy kuchlari harakatga kelib, mustahkamlangandagina eng muhim ijtimoiy masalalar hal qilinadi. Bunga tarbiya yo'li bilan ham erishish mumkin.

Mehnat odamni tarbiyalashning eng muhim vositasidir, mehnat odamning jismoniy kuchlarinigina emas, aqlini ham o'stiradi.

Bilish sezgi organlari orqali idrok qilishdan boshlanadi va tasavvurlarni qayta ishlash yo'li bilan g'oyalar darajasiga ko'tariladi, g'oyalar esa, garchi ravshan bo'lmasa ham odamning ongida tarkib toptiruvchi kuch tariqasida mavjud, lekin o'zining namoyon bo'lishi va jonlanishi uchun sezgilar yetkazib beruvchi materialga muhtojdir.

Pstalotsining dunyoqarashi insonparvarlik va demokratik intilishlar ruhi bilan sug'orilgan hamda ba'zi bir materialistik davolarni va dialektik qoidalarni o'z ichiga olgan edi.

Tarbiyaning maqsadi va mohiyati. Pstalotsining fikricha, tarbiyaning maqsadi odamning barcha tabiiy kuchlarini va qobiliyatlarini o'stirish, o'stirganda ham har tomonlama va bir-biriga uyg'un ravishda o'stirishdir. Tarbiyaning bolaga ko'rsatayotgan ta'siri uning tabiatiga uyg'un bo'lishi lozim.

Pstalotsi tarbiyaning mohiyati to'g'risidagi tasavvurga asoslanib, insonning kuchini inson tabiati bilan muvofiqlashtirib, o'stirishga yordam beradigan metodlarni yaratishga intiladi.

- Bolani tarbiyalashni,- deydi u, - tug'ilgan kunidanoq boshlash lozim: «Bola tug'ilgan soat — unga ta'lim berishning birinchi soatidir». Chinakam pedagogika onani to'g'ri tarbiyalash metodlari bilan qurollantirishi kerak. Pedagogika san'ati

esa shu metodikani har bir ona, jumladan, oddiy dehqon ayoli ham egallab oladigan qilib soddalashtirib berishi lozim. Oilada tabiatga muvofiq tarzda boshlangan tarbiya maktabda ham davom ettirishi lozim.

Barcha insoniy kuchlar va imkoniyatlar eng oddiy narsalardan rivojlana boshlaydi va asta-sekin murakkab darajaga ko'tariladi. Tarbiya ham ana shu yo'ldan borishi lozim.

Har bir bolaga xos bo'lgan tug'ma kuch va qobiliyatlarni tabiiy tartibga muvofiq holda o'stirish kerak.

Elementar ta'lim nazariyasi. Pestalotsining elementar ta'lim nazariyasi jismoniy tarbiyani, mehnat tarbiyasini, axloqiy va estetik tarbiyani hamda aqliy tarbiya va o'qitishni o'z ichiga oladi. Tarbiyaning mana shu jihatlarini Pestalotsi bir-biriga bog'lab olib borishni taklif qildi, mana shunday tarbiyalash natijasidagina insonning hamma jihatlari bir-biriga uyg'un bo'lib kamol topishini ta'minlash mumkin, dedi.

Jismoniy tarbiya va mehnat tarbiyasi. Pestalotsi bolaning barcha jismoniy kuchlari va imkoniyatlarini o'stirishni ularni jismoniy jihatdan tarbiyalashning maqsadi deb, bolaning harakatga, o'ynashga, bir joyda o'tirib qolmaslikka, hamma narsaga yopishishga, hamisha harakatda bo'lishga majbur qiluvchi tabiiy intilishini jismoniy tarbiyalashning asosi, deb hisobladi.

U inson shaxsini kamolotga yetkazishda jismoniy tarbiyaga juda katta ahamiyat beradi va uni bolalarning o'sishiga kattalarning oqilona ta'sir ko'rsatish, deb hisobladi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, o'qitishni unumli mehnat bilan qo'shib olib borish Pestalotsining pedagogik tajribasi va nazariyasidagi asosiy qoidalardan biri bo'ldi.

Axloqiy tarbiya. Pestalotsi tarbiyaning asosiy vazifasi — kelgusida ijtimoiy hayotda qatnashib foyda yetkaza oladigan va hamma jihatlari uyg'un bo'lib kamol topgan inson yetishtirishdir, deb biladi. Bolani boshqalarga foyda keltiradigan ishlarda muttasil jalb qilish yo'li bilan uning axloqi voyaga yetkaziladi. Pestalotsining fikricha, bola organizmning kundalik ehtiyojlarini qondirish asosida bolada onaga nisbatan tug'ilayotgan mehr-muhabbat axloqiy tarbiyaning eng oddiy elementidir. Bolaning axloqiga oilada asos solinadi. «Ota-onaning uyi, — deydi Pestalotsi, — axloq maktabidir!». Bolaning onaga bo'lgan muhabbati asta-sekin oilaning boshqa a'zolariga ham o'tadi.

Aqliy ta'lim. Pestalotsining aqliy ta'lim to'g'risidagi ta'limoti boy va mazmunli ta'limotdir. Pestalotsi insonning hamma jihatlarining bir-biriga uyg'unlashib kamolga yetishi to'g'risidagi asosiy g'oyasiga tayanib, aqliy ta'limni axloqiy tarbiya bilan bog'lab olib borish kerakligini talab qiladi. Har qanday ta'lim kuzatishga va tajribaga asoslanishi hamda xulosalar va umumlashmalar darajasiga ko'tarilishi lozim, deydi. Pestalotsi kuzatishlar natijasida bolada ko'rish, eshitish sezgilari va boshqa sezgilar hosil bo'ladi, bu sezgilar bolada fikrlash va so'zlash ehtiyojini tug'diradi, deydi.

Odamning sezgi a'zolari yordamida tashqi dunyo to'g'risida hosil qilgan tasavvurlari dastlab ravshan va aniq bo'lmaydi. Ta'limning vazifasi ham shundan iboratki, u mana shu tasavvurlarni tartibga solishi va aniqlashi, ravshan tushunchalar

darajasiga yetkazishi, «tartibsiz tasavvurlarni ravshan tasavvurlarga va ravshan tasavvurlarni ochiq koʻrinib turgan tasavvurlarga» aylantirishi kerak. Taʼlim, birinchidan, oʻquvchida oʻzining sezgi aʼzolari vositasi bilan hosil qilgan tajribalar asosida bilimlar zaxirasini toʻplashga yordam beradi, ikkinchidan, bolaning aqliy qobiliyatini oʻstiradi.

Pestalotsi taʼlimni soddalashtirishga va psixologiya negiziga qurishga intilib, narsalar va bular toʻgʻrisidagi har qanday bilimning eng oddiy elementlari bor, odam shu elementlarni oʻzlashtira borib, oʻz atrofidagi olamni bilib oladi, degan fikrga keldi. U son, shakl va soʻzni mana shunday elementlar deb hisobladi. Pestalotsi oʻz zamonidagi boshlangʻich maktabda oʻqitishning mazmunini tubdan oʻzgartiradi, oʻqitiladigan darslar qatoriga oʻqish, yozish, arifmetikani va geometriyaning boshlangʻich qismlarini, oʻlchash, rasm chizish, ashula, gimnastika, geografiya, tarix va tibbiyotga doir eng zarur bilimlarni kiritdi. Shunday qilib, Pestalotsi boshlangʻich maktabning oʻquv rejasini ancha kengaytirdi va bu maktabda oʻqitishning yangi metodikasini vujudga keltirdi. Oʻqitish metodikasi bolalarni bilimlar bilan boyitishga hamda ularning aqliy kuchlarini va qobiliyatlarini oʻstirishga yordam beradi.

31.6. A. Distervegning didaktik gʻoyalari

Atoqli nemis pedagogi Fridrix Vilgelm Adolf Disterveg 1790-yil Vestfaliyadagi Zigen sanoat shaharchasida huquqshunos oilasida tugʻildi. Disterveg oʻzi oʻqigan maktabidagi dogmatik taʼlimiga umrbod nafrat bilan qaraydi. 1808-yil Disterveg Gerborn universitetiga oʻqishga kiradi, u yerda matematika, falsafa va tarixni chuqur oʻrganadi, soʻngra Tbingen universitetiga oʻqishni oʻtkazadi va 1811-yili shu universitetni tamomlaydi. Oʻzgina fursatda oʻz ustida tinmay ishlab falsafa fanlari doktori unvonini oladi. Disterveg talabalik chogʻidayoq Russo,²⁶ Pestalotsining pedagogika sohasidagi gʻoyalari bilan tanishadi. 1813-1818-yillari Frankfurt Mayn shahridagi namunali maktabda oʻqituvchilik qiladi. Disterveg shvetsariyalik olim Pestalotsining ilgʻor pedagogik qarashlariga astoydil muxlis boʻlib qoladi.

U xalqiga maʼrifat - ziyo nurini tarqatuvchi fidoyi murabbiy, ustoz boʻlishga qaror qiladi. Dastlab, Myors-Revnda, soʻngra esa Berlinda oʻqituvchilarni tayyorlash maktabiga boshchilik qiladi. Disterveg pedagogika, matematika va nemis tilidan tayyorlov guruhlariga dars beradi. Boshlangʻich tajriba maktablarida ham oʻqituvchilik qiladi. 1835-yili «Nemis oʻqituvchilarini oʻqitish uchun qoʻllanma» degan kitobini nashr qildiradi. Matematika, nemis tili, geografiya, astronomiyaga doir yigirmadan ortiq darslik va oʻquv qoʻllanmalar nashr qiladi.

Disterveg 1827-yildan to umrining oxirigacha «Tarbiya va taʼlim uchun Reyn varaqlari» degan jurnal chiqarib turdi. Shu jumalda pedagogikaning turli muammolariga bagʻishlab 400dan ortiq maqolasi nashr qilindi. Boshlangʻich maktab oʻqituvchilarini tayyorlash ishini tubdan yaxshilash uchun kurashdi. Disterveg umuminsoniy tarbiya gʻoyasini himoya qilib chiqadi, shu gʻoyaga

tayanib pedagogika masalarini yuqori pog'onaga ko'taradi. Uning fikricha, maktabning vazifasi «chinakam prussiyaliklar» emas, balki insonparvar kishilar va ongli fuqarolarning tarbiyalab yetishtirishidir. Odamlar insoniyatga va o'z xalqiga bo'lgan muhabbat bir-biriga chambarchas bog'langan holda rivojlanishi lozim. «Inson - mening nomim, nemis - mening laqabimdir» deydi. Disterverg Pestalotsi singari, tabiiyaning eng muhim prinsipi tabiatga uyg'un bo'lishidir, deb hisoblaydi.

Disterverg rivojlanib boruvchi ta'lim didaktikasini yaratdi, bu didaktikaning asosiy talablarini ta'limning 33 qonuni va qoidasini bayon qilib berdi. Mustahkam o'zlashtirishga o'sha vaqtdayoq ko'p e'tibor beradi. «O'quvchilar bilan birga adolatli bo'lishi shundagina o'quvchilar orasida obro' qozonishi mumkin deydi». Distervergning rivojlantirib boruvchi ta'lim didaktikasi va uning darsliklari boshlang'ich ta'lim maktablarini taraqqiy ettirishda katta ta'sir ko'rsatdi. Uning g'oyalari XIX asr o'rtalarida Rossiyada ham keng tarqaldi.

Nazorat uchun savollar

1. Qadimgi Sharq, qadimgi Yunoniston va Rim davlatlarida maorif rivojini izohlang.
2. Qadimgi yunon va rim faylasuflarining tarbiya to'g'risidagi fikrlaridan misollar keltiring.
3. XII asrlarda Rossiyada pedagogik asarlarning nashr etilishini tushuntiring.
4. Ya.A.Komenskiyning pedagogik nazariyasi mazmunini izohlang.
5. I.G.Pestolotsmning didaktik qarashlarini tushuntiring.
6. A.Distervergning didaktik g'oyalari mazmun-mohiyatini ochib bering.

32. XIX ASRNING IKKINCHI YARMI VA XX ASRNING BOSHLARIDA JAHON PEDAGOGIKA FANINING RIVOJI

32.1. XIX asr oxiri XX asr boshlarida G'arbiy Yevropa va AQSH da pedagogika sohasida fikrlar.

32.2. M.V. Lomonosov va uning rus pedagogikasi hamda maktablari rivojiga qo'shgan o'rni.

32.3. L.N. Tolstoyning pedagogik qarashlari.

32.4. K.D.Ushinskiyning didaktik qarashlari va pedagogik merosi.

32.1. XIX asr oxiri XX asr boshlarida G'arbiy Yevropa va AQSH da pedagogika sohasida fikrlar

XIX asr oxiri XX asr boshlarida G'arbiy Yevropa mamlakatlarida fan va texnika o'sib bordi va XX asr boshlariga kelib moliya kapitalining hukmronligi o'rnatildi. Yirik taraqqiy etgan mamlakatlar (AQSH, Angliya, Fransiya, Germaniyada) maktab ta'limini kengaytirishga va yaxshilashga majbur bo'ldi, chunki u ishlab chiqarishda ishlaydigan, murakkab mashinalarni ishlata oladigan savodli ishchilarga muhtoj edi. Shu bilan bir vaqtda ishchilarning soni ko'paya

bordi, uning hukmron sinflarga qarshi olib borayotgan tashkiliy kurashi mustahkamlana bordi. Ishchilar sinfi maktab va maorifni xalq manfaatlarini ko'zlab qayta qurishni zo'r berib talab qildi. O'sha davrdagi sotsial-demokratlar davrning ilg'or kishilarning ta'limotiga amal qilib, mehnatkashlarni ma'rifatli qilish va ularning bolalariga haqiqiy bilim berish uchun faol kurash olib bordilar.

Fransuz sotsialisti P. Lafarg Parij komunasini ishchilarning birinchi hukumati deb va uning maorif sohasidagi tajribasini qizg'in tabrikladi. U proletariatning dushmani bo'lgan ideologlarga qarshi, dinga qarshi maktab ta'limni to'la ravishda dunyoviylashtirish uchun, xalq bahramand bo'ladigan maktab uchun butun hayoti davomida kurashdi. Germaniya sotsial-demokratlaridan biri bo'lgan A.Bebel ham ishchilarning ilm olishini qattiq himoya qilgan. Bebel nazariyaga juda katta ahamiyat berib, ishchilarga chinakam ilmiy asosda keng va chuqur ilm berishni talab qildi va insoniyatning ma'lum qismi bo'lgan xotin-qizlarning ham manfaatini himoya qildi. Atoqli sotsial-demokratiyasining mashhur arbobi Klara Setkin XIX asrning 80-yillaridan boshlab ishchilarni bilim bo'lishi uchun xotin-qizlarni kapitalizm kishilaridan qutqarish uchun yangi maktab uchun otashin kurashdi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida burjua pedagogik nazariyalari juda xilma-xil bo'lsa ham, lekin bu nazariyalarning hammasining ham vazifasi bir tomondan, ommaga ta'lim berish ishlarini burjuaziyaning manfaatlariga muvofiqlashtirishni asoslab berishdan, ikkinchi tomondan esa hukmron sinf bolalariga jamiyatda va davlatda rahbarlik mavqeini egallashlariga yordamlashishdan iborat bo'ldi. Yirik burjuaziyani qanoatlantridigan maktablar vujudga keltirish maqsadida yangi maktablar deb ataluvchi pedagogik oqim paydo bo'ldi va keng yoyildi. Jenvada «Yangi maktablarning» xalqaro birlashmasi tuzildi va Angliya, Fransiya, Belgiya, Shveysariya, AQSH hamda boshqa mamlakatlarda ochilgan shu tipdagi maktabga nisbatan qo'yiladigan umumiy talablarni tariflab berdi. Internat tipidagi o'quv yurti bo'lgan bu yangi maktablar xususiy kishilar burjua pedagogika tashkilotlari tomonidan ochilmoqda edi. Yangi maktablarning harajati va ularga to'lanadigan haq odatda juda katta bo'lganligi uchun, bu haqni to'lash uchun faqat badavlat kishilargina qodir bo'lar edi. Bu maktablarda ta'lim va tarbiyaning yangi»erkin va aktiv «qo'llanilar edi. Yangi maktablarning mashhur nazaryachisi bo'lgan Shveysarilik pedagog A.Fererning aytishicha «yangi maktablar» amaliy pedagogikaning laboratoriyasidir. Bu maktablarda bolalarning yodlab olingan bilimlar bilan to'ldirish o'runga, ularning fikrlash qobiliyatini umumiy o'stirish yo'li bilan ta'lim berishga harakat qilinadi. Ferer yangi maktablarda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini sinchiklab hisobga olib borish, har bir o'quvchiga individual ta'lim va tarbiya berish uning ijobiy sifatlarini topish va bu sifatlarini o'stirish zarur deb hisoblaydi. Ammo bu maktablarda mavjud tartib oldida bo'ysunishga, shovinizmga o'rgatdilar nodon xalq uchun din kerak, diplomsiz yashash mumkin emas deb ta'lim beradilar.

XIX asrning 90-yillarida AQSH da pragmatizm falsafasi degan yangi falsafa dunyoga keldi va keng rivojlandi. Pragmatizmning nazariyachilari bizning falsafamiz idealizmdan ham materializmdan ham yuqori turadi obyektiv haqiqat yo'q va odam unga yaqinlasha olmaydi deb davo qildilar. Pragmatizm yunonchada «ish, amal, tajriba» so'zidan olingan bo'lib, analiyot falsafasi demakdir.

Pragmatizm materializmni ham idealizmning ham metafizikasini mashara qilib kuldi, tajribani va faqat tajribani ko'klarga ko'tarib maqtadi, birdan bir kriteriya deb tajribani oladi umuman pozitivizm oqimini asos qilib oladi. Pragmatistlar haqiqatning kriteriyasi maydoni deb foydam tan oladilar shu bilan birga foydaning ahamiyati ichki qanoatlantirish yoki o'z-o'zini qanoatlantirishi bilan belgilanadi deb ta'kidlaydilar. Djon Dyui (1859-1952) amerikalik filosof hozirgi zamon pragmatizm oqimlaridan biri bo'lgan instrumentalizmning ko'zga ko'ringan namoyandasi. Dyuning pedagogika masalalaridagi qarashlari uning butun umri davomida bir necha marotaba o'zgartgan bo'lsada, lekin uning asosi o'zgarmasdan qolaverdi. Dyuning XIX asr oxiridagi maktabni tanqid qilib aytgan gaplarini ko'p kishilar umuman burjua maktabiga nisbatan opozitsiya deb pedagogika sohasiga jumladan mehnat asosiga qurilgan tarbiya va maktabni turmush bilan bog'lash sohasidagi yangi fikr deb yurdilar. Dyuning fikrlaridan ba'zilar 30-yillar boshigacha bo'lgan sobiq sho'ro maktabining tajribasida qo'llanildi. Dyui bolaning o'sishida irsiyatga katta ahamiyat beradi. Uning so'zi bilan aytganda, indivi- dumdagi aqliy va jismoniy xususiyatlarning majmui irqning o'ziga xosdir va nasldan naslga o'taveradi degan qoidani irsiyat nazariyasi hamma e'tirof qilgan qoidaga aylantirdi. Djon Dyuning ta'kidlashicha tarbiya irsiyatga suyanishi hamda bolaning manfaatlaridan va amaliy tajribasidan kelib chiqishi lozim. Tarbiya shu tajribaning kengayib chuqurlashib borishidir. Tarbiya markazidagi figura bolaning o'zidir u bamisoli quyoshdirki pedagogik jarayon uning atrofida aylanadi. Hamma gap bolaning o'zidir. Uning kuchi ro'yobga chiqishi qiziqishlari qondirishi qobiliyati esa mashq qildirilishi kerak. Dyuning pedagogik jarayonda bolaga ko'proq e'tibor berilishi va o'qishni faqat bolaning manfaatlarini ko'zda tutgan holda yo'lga qo'yishga dav'at etishli oqibati natijasida sistematik ta'limdan voz kechishga, bolalarni tarbiyalashda ularni jiddiy va muntazam bilimlar bilan qurollantirishga qarshi chiqishga olib keldi. Dyui sistematik bilimlarga yetarlicha ahamiyat bermay biror ish qilish vositasi bilan o'qitishning o'zini bolalarning turmushi bilan bog'lashi mumkin deb hisobladi. Mehnat bilan shug'ullanish deydi Dyui maktab hayotining ochiqdan-ochiq markazi bo'lib qolmoqda. Madomiki turmushda mehnat xilma-xil ekan deydi Dyui o'quvchilar ham mehnatning xilma-xil formalari bilan tanishishlari lozim. Ularning ishlari xilma-xil bo'lishi polizda, bog'da, oshxonada zamonaviy mashinalar bilan uskunalangan turli sanoat ustaxonalarida bajarilishi lozim. Mashg'ulotlarni biror topshiriq bilan masalan, kichikroq uy qurish ishi bilan bog'lab olib borishi kerak, bunday sharoitda bolalar dastlab mashtabga qarab plan chizish bilan shug'ullanadilar arifmetika darslarida shu uyni qurish ucun kerakli materialning qiymatini hisoblab chiqadilar til darsida uyga taalluqli so'zlarning imlosini organadilar rasm solish va loydan turli buyumlar yasash darsida har xil buyumlar yasaydilar. XIX asr oxiri XX asr boshlarida pedagogika sohasida bir qancha nazariyalar, paydo bo'ldi. bu nazariyalar g'arb mamlakatlaridagi pedagoglarga o'z ta'sirini XX asrning dastlabki o'n yillarida ham o'tkazib keldi. Djon Dyuning fundamental g'oyalari bugungi kunda ham ta'lim tizimini modernizatsiya qilishda tayanilmoqda

32.2. M.V.Lomonosov va uning rus pedagogikasi hamda maktablari rivojiga qo'shgan o'rni

Atoqli olim M.V.Lomonosovning dehqonlarga ilm olishga ruxsat berish to'g'risidagi orzusi universitetda amalga oshmay qoldi. Gimnaziyalarda rus tili, lotin tili va bitta chet el tili, til adabiyoti, matematika va tarix o'qitilar edi. Universitet gimnaziyasida o'rta ma'lumot olish o'z ona tilini o'rganishdan boshlanar edi. M.V. Lomonosov rus xalqining buyuk farzandi, u o'z xalqining har tomonlama boy va ma'rifatli bo'lishi uchun bor imkoniyatlaridan foydalandi. Peterburgda 1731-yilda dvoryanlar tabaqasi uchungina bo'lgan birinchi yopiq maxsus maktab quruqlidagi harbiy qismlar korpusi ochildi, bu maktablarda dvoryanlar bolalari maxsus harbiy ta'limdan tashqari keng miqyosda ta'lim olish bilan birga dunyoviy tarbiya ham olar edilar. Kadet korpusida 4 ta sinf bor edi. Bularing har birida o'qish 2 yildan 4 yilgacha davom etar edi. Shunday qilib, umumiy o'qish muddati 10 - 12 yilga borib yetar edi. Sinflarning hisobi teskarisiga yurar edi, birinchi sinf 4- sinf deb, oxirgi o'qishni tamom qiladigan sinf esa birinchi deb yuritilar edi. Dastlabki ikki sinfda (4-3-sinflarda) umumiy ma'lumot fanlari: adabiyot, matematika, tarix va geografiya o'qitilar edi, yuqori sinflarda esa maxsus fanlar o'qitilar edi. Bundan tashqari, bu sinflarda otda yurishga, qilichbozlik, raqs va musiqaga juda katta e'tibor berilar edi. Dvoryan bolalarida nazokat «oliy martabali kishilar». «zodagonlar» orasida o'zini tuta bilish odatlari tarbiyalanar edi.

Pyotr I ochgan davlat maktablaridagi kabi bu korpusda o'quvchilarning kelajakdagi kasbi majburiy ravishda belgilanmas, balki kasb uning moyilligi va xohishiga qarab belgilanar edi: ular o'z xohishlari bilan yo fuqarolik ishlariga yoki harbiy ishlarga tayyorgarlik ko'rishlari mumkin edi. Dvoryanlar o'z bolalari uchun maxsus o'quv yurti ochganlarida o'sha zamon pedagogikasi yutuqlaridan foydalandilar. O'quvchilarning jismoniy hamda estetik tarbiyasiga katta ahamiyat berildi, ta'limning insonparvarona metodlari qo'llanildi. Korpus qoshida yaxshi tuzilgan kutubxona, teatr bor edi, o'quvchilr orasida she'r yozish ishlari keng taraqqiy etgan, ular jumal chiqarishar, turli kechalar ko'ngil ochishlar, sayllar va hokazolar o'tkazishar edi. 1752-yilida Dengiz akademiyasiga Dengiz kadet korpusi nomi berilib, u dvoryanlar tabaqasiga mansub yopiq maktabga aylantirildi. Peterburgda davom etib turgan Artilleriya va injinerlik maktablari Artilleriya va injinerlik korpuslariga aylantirildi. Peterburgda va Moskvada chet el pansionlari - tarbiya va ma'lumot beradigan xususiy bilim yurtlari ochildi. Dvoryan bolalarini Fransuz tiliga va dunyoviy odatlarni o'rgatish uchun pomeschchik usadbalarga chet eldan ayniqsa Fransiyadan muabbiylar va guvmermolar chaqirib keltirildi.

32.3. L.N. Tolstoyning pedagogik qarashlari

L.N.Tolstoyning pedagogika sohasidagi faoliyati 1849-yildan boshlandi. L.N.Tolstoy bu vaqtda Yasna-Polyaniyadagi dehqon bolalarini o'qitar edi. U pedagoglik sohasidagi faoliyatini ancha faollik bilan 1859-yildan boshlab olib bordi. L.N.Tolstoy Qrim urushidan keyin Yasna Polyanaga qaytgach, u yerda maktab ochdi va yaqin atrofdagi qishloqlarda maktab ochilishiga ham yordam berdi.

L.N.Tolstoy 1859-yilda ochgan Yasnaya Polyana maktabi 1861-yildan boshlab butunlay boshqa asosda qayta tuzildi. L.N.Tolstoy o'quvchilar yordami asosida o'quvchi bolalarda erkin va samarali ijod erkinligini uyg'unishi to'g'risidagi fikri uning ishi uchun asos bo'lib xizmat qildi. L.N.Tolstoy xalq maktabida faqat rus, slavyan tillarida savod, hisob va din darsi o'tilishi kerak deb hisoblaydi. Nihoyat pedagogik faoliyatning so'ngi davrda ta'limning mazmunini yoki hech bo'lmasa, bu mazmundagi asosiy narsani belgilaydigan yo'riq yana o'zgardi. L.N.Tolstoy ta'limida eng asosiy narsa uning dini (tozalangan xristianlik) ruhidagi diniy axloqiy tarbiya deydi. L.N.Tolstoy o'qituvchi arifmetika, grammatika imloni yuzaki mexanik suratda o'rgatish bilan chegaralanadigan maktabni befoyda quruq bir narsa deb atadi.

L.N.Tolstoyning bu davrdagi qarashlarida tarbiyani ta'limdan ajratib bo'lmaydi, degan etiqodi to'g'ri edi. Ta'lim ham tarbiya ham ajralmas bir narsadir. Bilim bermasdan turib tarbiya berib bo'lmaydi har qanday bilim esa tarbiyaviy ta'sir etadi.

L.N.Tolstoy o'zining ilgari qarashlariga qarama-qarshi o'laroq bu mutlaqo to'g'ri qoidani tarbiyalovchi ta'lim prinsipi (qoidasi)ni ilgari surgan edi, ammo bu qoidani reaksion mazmun bilan to'ldirdi. L.N.Tolstoy ta'lim metodikasi to'g'risida juda ko'p fikrlar aytdi o'qitish metodini tanlaganda o'quvchilarning ma'lum bir metodga qarshi qanday qarashlarini e'tiborga olish kerak dedi. L.N.Tolstoy o'quvchilarga xush kelgan ta'lim uslubigina to'g'ri usuldir deb yozdi. U qandaydir bir metodni ushlab olish yaramaydi, chunki barcha xususiyatlarni o'z ichiga qamrab olgan metod yo'q ekanligini aytdi.

L.N.Tolstoy bolalar ijodkorligini o'stirishga katta ahamiyat berib ularga mustaqil ish berishni, masalan, turli mavzuda insholar yozishni tavsiya etdi. L.N.Tolstoy ta'limning mazmuni va o'qitiladigan fanlarning hajmini belgilashda o'quvchilarning qiziqishi asosiy mezon bo'lishi kerak deb hisoblaydi. U maktabda o'n ikkita fan o'qitilishi kerak deb ta'kidlangan. U ta'lim metodlari haqida fikr bildirib, o'qitish metodini tanlaganda o'quvchilarning ma'lum bir metodga nisbatan munosabatlarni e'tiborga olish zarur deydi. L.N. Tolstoy «o'quvchilarga xush kelgan ma'lum usuligina to'g'ri usuldir» deb yozadi. Uning fikricha, turli o'qitish metodlari orasida o'qituvchining jonli so'zi, ya'ni hikoya va suhbat metodi asosiy o'rinni egallaydi. L.N.Tolstoyning fikricha «agar - dars ortiq darajada qiyin bo'lsa-yu, o'quvchi berilgan vazifani bajarish uchun bo'lgan ishonchini yo'qotadi, boshqa narsalar bilan mashg'ul bo'lib, uni bajarishga urinmaydi; agar dars ortiq darajada yengil bo'lsa ham, shunday hol ro'y beradi. O'quvchining butun diqqatini berilayotgan darsga jalb etish lozim. Buning uchun o'quvchiga shunday ish beringki, u har bir darsni bajarishda bir qadam ilgari siljitish, deb his qilsin».

O'quvchilar bilimni ongli ravishda o'zlashtiruvlari lozim; o'quvchilarga qoida va ta'riflar ular yetarli darajada o'zlashtirib olgan daliliy materialning xulosasi qilib berilishi lozim».

L.N.Tolstoyning o'qish kitoblari uchun yozgan hikoyalari mazmuni boy va turli-tumandir. Ular bolalar adabiyoti uchun qimmatli merosdir. Bu hikoyalarning ko'plari boshlang'ich maktablar darsliklariga kiritilgan va ayrimlari hozir ham kitobchalar holida chop etilmoqda. L.N.Tolstoyning pedagogika sohasidagi

jo'shqin, har taraf lama faoliyatida rus pedagogikasi sohasidagi fikrini burungi maktablarni boyitgan ko'pgina ijobiy tomonlari ham bor edi. L.N.Tolstoy pedagogikasidagi ijobiy xususiyatlar quyidagilardan iborat; bolalarga chuqur mehruhahabbat qo'yish, bolaning shaxsini hurmatlash, bolalarning ijodkorligini uyg'otish va taraqqiy ettirish, har bir o'quvchining xususiyatini psixologik jihatdan mohirlik bilan analiz qilish.

L.N.Tolstoyning pedagogika sohasidagi doimiy izlamshi, pedagogik faoliyatiga fidokorona berilishi, pedagogik ijodkorlikka intilishi, bugungi kun o'qituvchisining pedagogik mahoratini shakllanishida muhim rol o'ynaydi.

32.4. K.D.Ushinskiyning didaktik qarashlari va pedagogik merosi

Mashhur rus pedagogi, rus pedagogikasi va xalq maktablarining asoschisi, Konstantin Dmitriyevich Ushinskiy 1824-yilning 19-fevralida Tula shahrida tavallud topdi.

K.D.Ushinskiyning didaktika sohasidagi qarashlari pedagogika tarixida juda katta ahamiyatga egadir. U ta'limni bolalarning psixologiya jihatidan kamol topishlarining yosh bosqichlarini hisobga olish va psixologiyaning xususiyatlarini e'tiborga olib tashkil etish kerakligini asosiy vazifa deb bildi. Jumladan, u o'qitish vaqtida bolaning diqqatidan foydalanish to'g'risida qimmatli ko'rsatmalar berdi. Ushinskiy ikki turli diqqat: faollik, ya'ni ixtiyoriy va sust, ya'ni g'ayri ixtiyoriy diqqatning mavjudligini ko'rsatib, bolalarning yosh xususiyatlarini e'tiborga olib, sust diqqatga oziq berish kerak, shu bilan bir vaqtda, eng muhim bo'lgan faollik diqqatni har tomonlama taraqqiy ettirish lozim, chunki insonga kelajakda bu diqqatdan foydalanishga to'g'ri keladi, deb hisobladi.

Ushinskiy xotira bilan esda saqlab qolish to'g'risida gapirib, unutishning oldini oladigan tez-tez takrorlash yo'li bilan tarbiya oluvchilarda o'z xotiralariga ishonchni mustahkamlash kerak deb ko'rsatadi.

Ushinskiyning aytishicha, ta'lim mana shu tamoyillarga asoslanishi kerak: U ham bo'lsa, bolalarning kuchi yetadigan va izchil bo'lishi kerak.

Bola charchab qolmasligi uchun birinchi o'quv yilining boshida ularni o'quv materiallari bilan haddan ortiq band qilib qo'ymaslik kerak.

Ushinskiy bola yoshidagi psixologik xususiyatlarini e'tiborga olib, darsda ko'rsatmalilik tamoyiliga katta ahamiyat berdi. «Bolalar shakllar, ranglar, tovushlar, umuman sezgilar bilan fikrlaydi...»; bundan bolalar uchun ko'rsatmali o'qishning zarurligi kelib chiqadi, «bu o'qish mavhum tasavvurlar va so'zlarga asoslanmay, balki bola bevosita o'zlashtiradigan aniq fikrlarga asoslanadi»,—deb yozdi Ushinskiy va psixologiya nuqtayi nazaridan ko'rsatmali ta'limni asoslab berdi.

Ushinskiy ko'rsatmali ta'limni gnoseologik tomondan asoslab, u bizning bilimlarimizning birdan-bir manbai «tashqi sezgilar orqali beriladigan tajriba» bo'lishi mumkin, deb ko'rsatdi. U: «Biz tashqi dunyodan bevosita o'zlashtirib olgan obrazlar, demak, bizning fikriy qobiliyatimiz ustida va ular vositasi bilan ishlaydigan birdan-bir materiallar demakdir»,—deydi.

Ushinskiyning so'zicha, «shunday ta'lim yo'li, ya'ni aniqlikdan mavhumlikka, tasavvurdan fikrga o'tish yo'li shunday tabiiy va psixologiyaning

shunday aniq qonunlariga asoslanadiki, uning lozimligini ta'limning umuman inson tabiati, ayniqsa bola tabiati talablariga muvofiq bo'lishini rad etgan kishilargina e'tirof etmasliklari mumkin».

Ushinskiy ko'rsatmali ta'lim tamoyillarini nazariy jihatdan ishlab chiqishga va uni amalda tatbiq etishga ko'p qimmatli fikrlar kiritdi: U ko'rsatmali ta'lim to'g'risidagi: o'z tushunchasini materialistik asosda ko'rsatib berdi. Ko'rsatmalilikni tushunishda Ushinskiyda Komenskiyga xos bo'lgan bunday ko'rsatmali ta'limga ortiqcha baho berish va hatto bir daraja ko'kka ko'tarish hollari va Pestalotsiga xos bo'lgan bolalarni tevarak-atrofni o'rab olgan muhit bilan tanishtirishda rasmiylik va bachkanalik hollari yo'q edi. Ushinskiy o'qitish jarayonida ko'rsatmali ta'limga munosib o'rin berdi; u ko'rsatmali ta'lim o'quvchilarning to'la qimmatga ega bo'lgan ma'bumot olishlarini, ularning mantiqiy fikrlashlarini o'stirishni ta'min etadigan shartlarning biridir, deb bildi.

Ushinskiy Pestalotsi taqdim etgan formal mashqlarni rad qilib, bolalarni buyumlar bilan har tomonlama tanishtirishga harakat qildi, ular bu buyumlar o'rtasidagi haqiqiy aloqalarni aniq bilib olishlarini istadi. U, ajoyib yoki hatto buyuk aql — bu «buyumlarni ularning haqiqiy holatida, ular o'rtasidagi barcha munosabatlarni har tomonlama ko'ra olish qobiliyatidir», - deb yozdi.

Ushinskiy ilgari Komenskiy, Pestalotsi, Disterveglar yaratgan ko'rsatmali ta'lim uslublarini yangi usullar bilan ancha kengaytirdi va boyitdi. Masalan, u bolalarga rasmlarga qarab so'zlab berish to'g'risidagi ko'rgazmani batafsil ishlab chiqish; suhbat vaqtida foydalanilgan rasmlarni, suhbatlardan olingan ma'lumotlarni mustahkamlash va takrorlash maqsadida sinfning devorlariga osib qo'yish kerak, deb ko'rsatdi.

Ushinskiy bolalarning o'quv mavzularini anglab, puxta va mustahkam o'zlashtirishi qoidalarga katta e'tibor berdi. U bu qoidalarni tushunish va tatbiq qilishda o'zidan ilgari o'tgan pedagoglarga nisbatan ko'pgina yangiliklar kiritdi. Masalan, o'quv mavzusini takrorlash to'g'risida batafsil usul ishlab chiqdi (esdan chiqarib qo'yishning oldini olish, takrorlaganda o'quv materialini kengaytinish va chuqurlashtirish, yangi materialni yaxshi tushunishda takrorlashning roli va hokazolari). Ushinskiy ayrim ko'rsatmali tasavvurdan bolalarda umumiy tasavvur va tushunchalar hosil qilish uslublarini, bolalarda nutqni o'stirish bilan bir vaqtda ularning tafakkurini taraqqiy ettirish yo'llarini batafsil ishlab chiqdi, bularni ishlashda noaniqlikka yo'l qo'ymadi.

Ushinskiy ta'lim yo'nalishida ikki yo'nalish borligini qayd etdi. Birinchi yo'nalish bolalar o'qituvchining rahbarligi bilan buyum yoki hodisani kuzatadilar va shu buyum yoki hodisa to'g'risida umumiy tushuncha hosil qiladilar. Bu yo'nalishning o'zi uch bosqichga bo'linadi: birinchi bosqichda, bolalar o'qituvchining rahbarligi ostida buyum yoki hodisani bevosita idrok qiladilar. Ikkinchi bosqichda o'qituvchining rahbarligi bilan o'rganilayotgan buyum yoki hodisa to'g'risida olingan tasavvurlarni bir-bidan ajratadilar va farq qiladilar, solishtirib ko'radilar va taqqoslaydilar hamda ular to'g'risida tushuncha hosil qiladilar. Uchinchi bosqichda o'qituvchi o'zi izoh berib, bolalar olgan tushunchalarni to'ldiradi, asosiy bosqichni ikkinchi darajali bosqichdan ayirib,

tushunchalarni bir tizimga soladi. Ikkinchi yo'nalishda olingan bilimlar umumlashtiriladi va mustahkamlanadi.

Ushinskiy maktabning ikki xodimi: murabbiy bilan o'qituvchi o'rtasida tarbiya va ta'lim jarayonini bo'lib qo'yishga qarshi norozilik bildirdi. U ta'limni tarbiyaning eng muhim vositasi deb hisobladi. Shuning uchun har bir ayrim fandan dars beradigan o'qituvchilar o'miga o'sha sinfdagi butun fanlardan dars beradigan sinf o'qituvchilari bo'lishini talab qildi.

K.D.Ushinskiy o'zining pedagogik tizimida dars hamda ta'lim usuliga katta ahamiyat berdi.

Darsda mashg'ulotlar turlicha bo'lishi mumkin: yangi bilim berish, o'quvchilarning mashhar qilishi, o'tilganlarni takrorlash, o'quvchilarning bilimni hisobga olish, o'quvchilarning yozma ishlarni bajarishlari. Har bir dars ma'lum maqsadga qaratilgan, tugallangan bo'lishi va yetarli darajada tarbiyaviy xususiyatga ega bo'lishi lozim. Ushinskiy bolalar (ayniqsa kichik yoshdagi bolalar) diqqatining nisbatan tez charchashini e'tiborga olib, mashg'ulotlarni almashtirib va usullarni xilma-xil shakllantirib turishni tavsiya qildi.

Ushinskiy, bolalarda mustaqil ishlash qobiliyatini o'stirish ishiga zo'r ahamiyat berib, o'qituvchi maktabda mashg'ulotlar boshlagandayoq maktabga yangi kirgan bolalarga darsda mustaqil ishlashning to'g'ri usullarini o'rgatish kerak, buning uchun uning fikrini dastlabki vaqtlarda, bolalar to mustaqil ishlash malakalarini mustahkam o'zlashtirib olmaguncha, ularga uyga vazifalar berish yaramaydi, deydi. Ushinskiy boshlang'ich ta'lim jarayonida (boshlang'ich maktabda) tarix, geografiya, tabiyot fanlaridan, kerakli ma'lumotni ona tili darslarida izohli o'qitish yo'li bilan olib borishni tavsiya etadi, shuningdek, izohli o'qish jarayonida anglashilmaydigan so'zlar ham tushuntiriladi, tarbiyaviy natijalar chiqariladi va hokazolalar. Ammo o'qituvchi bu tushuntirishlar, izohlarga berilib ketib, bolalarning diqqatini o'qilayotgan maqola yoki she'rdan boshqa tomonga burib yubormasligi lozim, chunki o'qishdagi asosiy matn hamisha diqqat markazida bo'ladi.

K. D. Ushinskiy chet el maktablarida olib borilayotgan ta'lim-tarbiyani o'rganib, o'zining «Boshlang'ich ta'lim usullari» asarini yozdi.

Unda boshlang'ich maktabdagi ta'lim mazmunini asoslab berish bilan birga uning qoidalari, tartibi, usuli va vositalarini ham ishlab chiqib didaktika faniga katta hissa qo'shdi.

Ushinskiy oila mamlakatning ko'pchilik aholisi uchun maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga ta'lim va tarbiya berishning eng tabiiy muhiti deb hisoblaydi. Oilada bolalar dastlabki taassurotlar hosil qiladilar, eng oddiy bilim, ko'nikma va malakalarni egallaydilar, o'z iste'dodlarini rivojlantradilar. Bola shaxsining rivojlanishi va tarbiyasida ota-onalar, tarbiyachilar, ularning hayoti va yurish-turish namunalari juda katta o'rinni egallaydi. «Har bir shaxs va oila boshlig'ining eng birinchi vazifalaridan biri, - deb yozgan edi Ushinskiy, - o'z bolalaridan jamiyat uchun foydali shaxslar tayyorlashdan iboratdir. Olamda tug'ilayotgan kishining muqaddas burchlaridan biri - to'g'ri va yaxshi tarbiya ko'rish huquqidir».

Jamiyat oldidagi ana shu mas'uliyatli vazifa va shaxs burchini bajarish uchun ota-onalar o'zlarining xususiy baxt-saodatlarini jamiyat foydasi bilan- qo'shib olib

borish kerakligini batamom anglagan bo'lishlari kerak. Ular pedagogik bilimlarga ega bo'lishi, buning uchun pedagogik adabiyotlarni o'rganishi lozim, tarbiya ishiga, tarbiyachi va o'qituvchilar tanlashga, o'z bolalari uchun bo'lajak hayot yo'llarini aniqlashga ongli yondashishlari darkor K.D.Ushinskiy «Pedagogik adabiyotning foydasi» nomli asarida ota-onaning tarbiyachilik san'ati, mahorati, maqsad va vazifalarini ham asoslab berdi.

Yaxshi tarbiya olgan odam, degan tushuncha juda keng bo'lib, uni har kim har xil tushunadi. Har qanday ota-ona o'z bolasiga har jihatdan yaxshilik istaydi, lekin uning mazmunini turlicha tushunadi.

Ota-onalar o'z bolalari uchun munosib tarbiya yo'lini belgilash uchun farzandlarini chuqur o'rganishi, ularning xohish-istaklarini bilishlari kerak.

Bola go'daklik paytida tevarak-atrofdaga narsa-hodisalar haqida juda yorqin va aslo unutilmaydigan taassurotlar oladi

Oilada bola bilan tarbiyachi o'rtasida uzviy va samimiy munosabat o'zining tabiiyligi va oddiyligi, mazmundorligi, iliqiligi, hech qanday rasmiyatchilikning yo'qligiga bilan ajralib turishini hisobga olib, Ushinskiy oila tarbiyasiga yuqori baho bergan edi.

K.D.Ushinskiy asl rus pedagogikasi, jumladan maktabgacha tarbiya pedagogikasining asoschisidir; u jahon pedagogika g'oyalarning rivojlanishiga juda muhim hissa qo'shdi. Ushinskiy chet eldagi tarbiya hamda tajribani chuqur tahlil qildi, shu sohadagi muvaffaqiyatlar va kamchiliklarni ko'rsatdi va bu bilan boshqa xalqlar pedagogikasi taraqqiyotiga katta hissa qo'shdi.

U tarbiyaning xalqchilik g'oyasini asoslab berdi. Bu esa asl rus pedagogikasini yaratish uchun asos bo'lib xizmat qildi. Uning bolalarni aqliy va axloqiy tarbiyalashda hamda ularga ta'lim berishda ona tilining o'rnini haqidagi, xalq maktabi to'g'risidagi ta'limoti, uning bolalarni maktabgacha tarbiyalash nazariyasi ko'p millatli Rossiyaning o'sha zamondagi pedagoglar avlodigagina emas, balki keyingi avlodiga ham katta ta'sir ko'rsatdi.

K. D. Ushinskiyning xizmati shundaki, u o'z vataniga, o'z xalqiga xizmat qilishni pedagogik faoliyatining asosiy burchi deb hisobladi. K.D.Ushinskiy ilmiy-amaliy pedagogik faoliyatining asosiy g'oyasi va yo'nalishi ham yuqoridagi mehnatlari bilan bevosita bog'liqdir. K. D. Ushinskiy rus pedagogikasining o'ziga xosligini, milliy xususiyatlarini himoya qildi, shuningdek, tarbiyani xalqchil bo'lishi kerakligini lozim, deb hisobladi. K.D.Ushinskiy mehnatga inson baxt- saodatining asosi sifatida qaradi, bolalarni mehnat orqali tarbiyalashga katta e'tibor berdi. Ushinskiy ta'limotning mazmuni, tamoyillari, shakl va usullarini ishlab chiqishda ham ko'p ishlar qildi. U ta'limni va uning ko'rsatmaliligini, ongli va uzviy ta'lim-tarbiya masalalarini ishlab chiqdi, o'qitish shakl va usullarining rang- barangligiga erishishni talab etdi.

K. D. Ushinskiyning tarixiy xizmati shundan iboratki, u didaktika — o'qitish nazariyasining psixologik asoslarini o'sha vaqtdagi ilmiy muvaffaqiyatlarga muvofiq ravishda bayon qilib berdi. U qanday qilib ta'lim jarayonida mashqlar yo'li bilan bolalarning faol diqqatini rivojlantirish, qanday qilib ongli xotirani tarbiyalash, takrorlash yo'li bilan o'quv dasturlarini o'quvchilar ongida mustahkamlash (bu ta'lim jarayonining uzviy qismidir) haqida qimmatli ko'rsatmalar berdi. Takrorlash,

deb hisoblaydi Ushinskiy, «unutilgan narsalarni qayta tiklash (agar biror narsa unutilgan bo'lsa, yomon-da)» uchungina kerak emas, «balki unutilib qo'yish mumkinligining oldini olish uchun ham» zarurdir, o'qitish ishida olg'a qo'yilgan har bir qadamda o'atilgan bilimlarga tayanish kerak.

Ushinskiy tarbiyalovchi ta'limning eng muhim didaktik tamoyillarini: Ko'rsatmalilik, uzviylik va izchilik, o'quvchilarning o'quv dasturini asosli ravishda va puxta o'zlashtirib olishi, o'qitish usullarining xilma-xilligini psixologik nuqtavi nazardan asoslab berdi.

Nazorat uchun savollar

1. XIX asr oxiri XX asr boshlarida G'arbiy Yevropa va AQSH da pedagogika sohasida fikrlarni izohlang
2. M.V.Lomonosov va uning rus pedagogikasi va maktablari rivojida qo'shgan hissasini asoslang.
3. L.N. Tolstoyning pedagogik qarashlarining mazmun mohiyatini ko'rsatib bering.
4. K.D.Ushinskiyning didaktik qarashlari mazmunini izohlang.

33. HOZIRGI DAVRDA JAIION MAMLAKATLARI TA'LIM TIZIMI VA PEDAGOGIKA FANI RIVOJI

33.1. Jahon ta'lim tizimidagi global tendensiyalar.

33.2. Rivojlangan davlatlar ta'lim tizimi.

33.3. Xalqaro grantlar va ta'lim dasturlari.

33.1. Jahon ta'lim tizimidagi global tendensiyalar

Jahonning yuksak darajada taraqqiy etgan davlatlarida ta'lim-tarbiya ishlarining yo'lga qo'yilishi, maktablarda amalga oshirilgan muvaffaqiyatlarni o'rganish orqali biz mustaqil O'zbekistonda milliy ta'lim tizimlarini yangidan tashkil qilishda boy manbaalarga ega bo'lamiz. Zotan, hozirgi zamon ta'limida davlat va jamiyat talabi va manfaatlari aks etib turishi kerak.

Bugungi ta'lim tizimlarimizda, chet ellarda o'quv tarbiya ishlarining yo'lga qo'yilishiga e'tibor va qiziqishning tez sur'atlar bilan o'sib borayotganligidan dalolatdir. Xalq ta'limi muassasalarida chet el ta'lim tizimi tajribasini o'rganish bilan shug'ullanuvchi muassasalar ham tashkil topmoqda. Chet el ta'limi tizimlaridan bizning mutaxassislarni voqif qilishda BMUning O'zbekistondagi vakolatxonasi, elchixonalar AQSHning Tinchlik korpusi mutaxassislari, YUNESKO va YUNISEFning vakolatxonalari va boshqa ko'plab tashkilotlar yaqindan yordam bermoqdalar.

Bugungi kunda butun dunyo ta'lim muhitini rivojlantirish jarayonini me'yoriy-huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash va koordinatsiya qilish YUNESKO tashkiloti tomonidan bajarilmoqda. Bu tashkilot barcha mamlakatlar uchun global va huquqiy harakterdagi xalqaro-huquqiy aktlarni ishlab chiqmoqda.

YUNESKOning xalqaro-huquqiy aktlari zamonaviy ta'limni globallashtirib, tarbiya muammolarini insoniy sivilizatsiyaning dastlabki darajasidan tinchlik, demokratiya, insoniylik, diniy bag'rikenglik, inson huquqlarini hurmatlash, boshqa xalqlarning tarixiy-madaniy an'ana va qadriyatlarini hurmat qilish, atrof-muhitni asrash.

YUNESKOning me'yoriy-ijodiy faoliyati quyidagilarga yo'naltirilgan:

- fan, madaniyat, ta'lim sohasida xalqlar o'rtasidagi hamkorlik uchun sharoitlarni yaratish;

- qonunchilik va inson huquqlarini hurmat qilishni ta'minlash;

- ta'lim sohasida xalqaro integratsiya uchun huquqiy asoslarini tayyorlash jarayoniga ko'plab mamlakatlarni jalb qilish;

- dunyo ta'lim holatini tadqiq qilish, rivojlanish va integratsiyaning eng samarali yo'llarini tashhishtirish;

- qabul qilingan konvensiya va tavsiyanomalarni targ'ib qilish;

- ta'lim holati to'g'risidagi yillik hisobotlarni to'plash va tizimlashtirish.

Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda ta'limni tabaqalashtirish,

informatizatsiyalashtirish, gumanizatsiyalashtirish eng dolzarb masalaga aylangan. O'quv jarayonini tabaqalashtirib olib borish bo'yicha AQSHda juda ko'p tadqiqotlar olib borilmoqda. AQSH tizimidagi bunday ibratli jihatlarimiz Vatanimiz ta'lim tizimlarida qo'llash yosh, mustaqil Respublikada o'quv-tarbiya ishlarini isloh qilish jarayonini tezlashtiradi.

33.2. Rivojlangan davlatlar ta'lim tizimi

Rivojlangan davlatlardan biri Yaponiya ta'limining shakllanishi 1867-1868-yillarda boshlangan. Yaponiya o'z oldiga ikki vazifani: 1-boyish, 2-G'arb texnologiyasini Yaponiya ishlab chiqarishiga kiritish masalasini qo'yadi va bu ishni amalga oshirish uchun birinchi galda ta'lim tizimini tubdan o'zgartirish kerakligi aytiladi. 1872-yili «Ta'lim haqida Qonun» qabul qilindi. Bunda yapon ta'limi G'arb ta'limi bilan uyg'unlashtiriladi. 1908-yil Yaponiyada boshlang'ich ta'lim majburiy 6 yillikka aylantirildi. 1893-yili kasb yo'nalishidagi dastlabki kollej paydo bo'ldi. 1946-yili qabul qilingan Konstitutsiya fuqarolarning ta'lim sohasidagi huquq va burchlarini belgilab berdi. Unda barcha bolalar bepul umumiy ta'lim olishlari shart ekanligi belgilab qo'yilgan. Hozirgi zamon yapon ta'lim tizimlarining tarkibi quyidagicha: bog'chalar, boshlang'ich maktab, kichik o'rta maktab, yuqori o'rta maktab, oliy ta'lim tizimlariga kiruvchi o'quv yurtlari. Bolalar yosh xususiyatlariga qarab 3, 2, 1 yillik ta'lim kurslariga jalb qilinadi. Yaponiyada maktabgacha ta'lim muassasalarining 59.9% xususiy, 40.8% munisipal, 0.3% davlatnikidir.

Majburiy ta'lim. Ta'limning pog'onasi 6 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan bolalarni o'z ichiga oladi. 6 yillik boshlang'ich ta'lim va 3 yillik kichik o'rta maktab, 9 yillik majburiy ta'limni tashkil etadi va u bepuldir, tekin darsliklar bilan ta'minlangan. Muhtoj oilalarning bolalari bepul nonushta, o'quv qurollari, tibbiy xizmat bilan ta'minlanadi. Zarur bo'lgan taqdirda ularning oilalariga moddiy yordam ko'rsatiladi. Shu qatorda xususiy maktablar ham mavjud.

Yuqori bosqich o'rtta maktab 10, 11, 12-sinflarni o'z ichiga oladi, bunday maktablarning kunduzgi, sirtqi va kechki bo'limlari mavjud. O'quvchilarning 95% kunduzgi maktablarda o'qiydilar.

Yaponiyada o'quv yili 240 kun (AQSH 180). O'quv yili 1 apreldan boshlanib martda tugaydi. Yozgi tatil iyun oyining oxirida boshlanib, avgustda tugaydi. Darslar 7 soatdan o'tiladi.

Dorilfununlarga katta o'rtta maktabni yoki 12 yillik oddiy maktabni tugatgan o'quvchilar qabul qilinadi. U yerda 460 ta universitet bo'lib, 95 tasi davlat tasarrufida, 34 tasi munisipal, 331 tasi xususiy, 1-toifadagi universitetlarda har bir o'qituvchiga 8 nafar, 2-toifali universitetlarda esa 20 tadan talaba to'g'ri keladi. Universitetlarga qabul qilish ikki bosqichga bo'linadi: 1-bosqichi turar joyda o'tkaziladi; buning uchun yapon, eski yapon tili, matematika, fizika, kimyo, jamiyatshunoslik, tarix bo'yicha test sinovlardan o'tadilar.

Bu sinovlardan o'tgan o'quvchilar universitetlarga yo'llanma oladilar va yana sinovdan o'tadilar. Xususiy universitetlarga esa to'g'ridan-to'g'ri test topshiriladi. Bir qator xususiy universitetlar o'zining uzluksiz shaxobchasiga esa (bog'chadan boshlab hamma bosqichlarni qamrab oladi). Universitetdan talabalarni haydab yuborish mumkin emas. Lekin o'qish muddatini cho'zish mumkin (4 yillik o'qish 5-6 yilgacha cho'zilib ketishi mumkin).

Kollejlar:

1- kichik kollej;

2- texnik kollej

3- maxsus kollejlariga bo'linadi.

Uni bitirgan talabalar bakalavr diplomini oladi va universitetning 3 yoki 4 kurslariga qabul qilinadi.

Yaponiyada ta'lim-tarbiyaga yondashuvda «Oila faktor» bilan bir vaqtda pedagogik texnologiyalarga munosabat pragmatizmga asoslangan o'ziga xos bir tartibdadir.

Yaponiyada milliy mafkura tarbiyasi ham o'ziga xosdir. Sharqning eng ilg'or mamlakatlaridan biri Yaponiyada fuqaroni, yoshlarni tarbiyalashning eng samarali va ta'sirchan usulidan foydalaniladi. Bunday tarbiyaning asosiy maskani sifatida maktab tanlangan. Chunki maktabda bola bilim olishdan tashqari shaxs sifatida ham shakllanadi. Kunchiqar mamlakatda fuqaro tarbiyasi «axloqiy tarbiya» tizimi doirasida amalga oshiriladi. Rasmiy hujjatlarda «axloqiy tarbiya» tizimi quyidagicha nomlanadi: 1) «haraktni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim»; 2) «davlat uchun maqbul axloqiy sifatlarni tarbiyalashga qaratilgan faoliyat»; 3) «fuqarolik axloqi asoslarini tarbiyalash». Aslida, bu tizim millatni tarbiyalash tizimi vazifasini o'taydi. Undan qudratli g'oyaviy ta'sir vositasi sifatida ham foydalaniladi. Ko'pchilik olimlarning fikricha, aynan «axloqiy tarbiya» tizimi Yaponiya mamlakati iqtisodiy ravnaqning g'oyaviy asosini tashkil etadi. Chunki bu tizim ishlab chiqarishda ma'naviy salohiyatdan unumli foydalanishga yo'naltirilgan. Shu boisdan ham ingliz faylasufi Tomas Gobbs (1588-1679) «Davlatning qandavligi haqida xulosa chiqarish uchun avvalo odamlarning axloqi, qiziqishlari va fe'l-atvorini o'rganish joizdir» degan edi. Ikkinchi jahon urushidan haroba bo'lib chiqqan Yaponiya mamlakatining 3040 yilda ishlab chiqarish hajmi bo'yicha dunyoda ikkinchi o'ringa

chiqib olgani ko'pchilikning hayratini uyg'otadi. «Kichik bir orolning bunday qisqa vaqtda hunarmandchilik ustaxonalaridan avtomatlashgan sanoatgacha bo'lgan yo'lni bosib o'tganligini qanday tushuntirish mumkin?». Mazkur savolga yaponlar quyidagicha javob beradilar: «Salohiyat insonlarda yashirin». Yaponiya menejmentining oltin qoidasiga ko'ra, insondan qimmatroq boylik yo'q. Yapon kishisida quyidagi qadriyat va sifatlar qaror toptiriladi: mehnatsevarlik, intizomlilik va jamoaviylik yapon milliy harakteriga xos xususiyatlar sanaladi. Biroq davlat bu bilan qanoatlanmay, o'z fuqarolarida ushbu sifatlarini mustahkamlash va kuchaytirish vazifasini maonifga yuklaydi. Natijada, maktablarda guruhiy birdamlikni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratiladi. Bunda jamoaning yutug'i ham, mag'lubiyati ham guruhning har bir a'zosiga bog'liq ekanligi haqidagi g'oya singdiriladi, o'z rolini aniq bilish va shunga yarasha mas'uliyatni his qilish talab etiladi. Bunday tarbiya ko'rgan fuqaro jamoa muammolarini o'zining shaxsiy muammolari sifatida qabul qiladi. Olimlarning fikricha, aynan shunday guruhiy birdamlik (yaponchada «aydagarasyugi») tufayli mamlakat misli ko'rilmagan iqtisodiy yutuqlarga erishdi. Mehnat yapon kishisi uchun axloqiy qadriyat sanaladi. Uning qadriyat darajasiga ko'tarilishida «axloqiy tarbiya» tizimining roli beqiyos. Gap shundaki, yapon kishisiga maktabdayoq quyidagi g'oyalar singdiriladi: 1) «Faqat tirishqoqlik va mehnat bilan muvaffaqiyatga erishish mumkin», 2) «O'z ustingda tinimsiz ishla, shunda birovdan kam bo'lmaysan». Bu kabi g'oyalar ta'sirida ulg'aygan yapon kishisi o'zining barcha harakatlarini quyidagi mantiqqa bo'ysundiradi: «Bor imkomyatlaringni ishga sol!» Shunday qilib, davlat o'z fuqarolarida tinshqoqlik va hafsala, qunt hamda g'ayratni maqsadli ravishda qaror toptiradi. Intizomdan jamiyat manfaatlarida foydalanish borasida esa yaponlar boshqalarga o'rnak bo'la oladi. «Axloqiy tarbiya» natijasida Yaponiyada fuqarolar mehnat intizomining buzilishini shunchaki salbiy illat deb hisoblamay, balki uni Vatanga xiyonat deb qabul qiladilar. Yaponiyada fuqaro tarbiyasi zamon ehtiyojlari va jamiyat manfaatlariga moslashtirib boriladi. Aynan shu tufayli yapon fuqarolari jamiyat taraqqiyotini harakatlantiruvchi qudratli kuch deb biladilar. Ko'rinib turibdiki, millat kelajagini o'ylaydigan hech bir davlat fuqaro tarbiyasi masalasini e'tiborsiz qoldira olmaydi.

Yaponiya ta'lim-tarbiya tizimi bo'yicha quyidagi fikr-mulohazalarni keltirish mumkin:- milliy an'analaridan (kattalarga hurmat, kichiklarga izzat; juda nozik istihola, vazmin ruhiy barqarorlik, shirin so'z bilan o'z maqsadiga qat'iy intilish, chiroyli niqoblangan o'tkir mulohazalar bilan ish yuritish va h.k.) kelib chiqilgan holda ulardagi ta'lim-tarbiya masalalarida oila omili hali ham ustuvor ekanligini kuzatish mumkin bo'ladi; - ulardagi ta'lim-tarbiya bo'yicha talablari qattiqligining ayrim tarixiy jihatlari (samuraylarning «Busido» kodeksidan kelib chiqadigan achchiq bo'lsada to'g'ri gapirish, qiymchiliklarga sabr qilish, doimiy izlanishda bo'lish va h.k.) hali ham davom etayotganligi kuzatiladi; - yapon ta'lim-tarbiya tizimida an'anaviy asoslarning zamonamizning ilg'or texnologiyalari bilan uyg'unlashib ketganligini qayd etish mumkin bo'ladiki, bu ayniqsa informatsion - kommunikatsiya texnik vositalarning nafaqat keng qo'llanilishi, balki ularning yangidan-yangi turlari yaratilishida yaqqol ko'zga tashlanadi; - ta'lim-tarbiya sohasining yirik konsernlar ehtiyojlaridan kelib chiqib, uning tarqoq natijaga

yo'naltirilgan «tor ijod maydonchasida» korporativ tus olayotganligini (masalan «Toyota» avtokonsernining o'z ta'lim tizimi tayyorgarligidagi bosh shiori «AQSH ning bir mashinasida beshta kamchilik bo'lsa, Toyotaning beshta mashinasida bitta kamchilik bo'lishi kerak», - degan talab diqqatini o'ziga tortadigan holdir) qayd etish mumkin bo'ladi; - juda yuqori moddiy-texnika bazasiga ega yapon ta'lim-tarbiya tizimida o'quvchi va o'qituvchi munosabatining «ustoz-shogird» usulidan «teng hamkorlik» usuliga o'tib borayotganligi kuzatiladi va bu o'quvchi ta'lim tizimining bevosita ijod bilan mashg'ul faol obyektiga aylanishiga olib keladi.

Koreyaning zamonaviy ta'lim tizimi rasman Yaponiya mustamlakasidan 1945-yildan ozod bo'lgan. Ammo kengroq qaraydigan bo'lsak, koreyslarda ta'lim tizimi 1894-yilgi islohotlardan keyin yuzaga kelgan, deyish mumkin. 1881-yili Koreyadagi Choson hukumati mamlakat xavfsizligini kuchaytirish maqsadida maxsus armiya tuzadi va g'arbliklar harbiy san'atdan dars bera boshladilar. Bu o'z navbatida chet tili va boshqa fanlar ta'limini yuzaga kelishini ta'minladi. Garchi 1882-yili maxsus qo'shin uchun darslar to'xtab qolgan bo'lsa-da, bir qancha amaliy fanlar darsi davom etaverdi. Bu davrda asta-sekinlik bilan Gvangxevon, Bejexakdan, Ixvaxakdan kabi shaxsiy ta'lim muassasalari ham vujudga kela boshladi va keyinchalik universitetlar uchun asos bo'lib xizmat qildi. 1894-yili shaxsiy bilim maskanlari birlashtirilib, mamlakat ta'lim tizimini boshqaruvchi institut tashkil etildi. Shu bilan birga 1895-yildan boshlang'ich maktablar va maktab uchun kadrlar tayyorlaydigan pedagogika maktablari tuzildi. Bundan tashqari bir qancha xususiy maktablar ochilib, 1900-yilda ular faoliyatini tartibga solib turadigan «Xususiy maktablar to'g'risidagi qonun» qabul qilindi. 1910-yili Koreya va Yaponiya o'rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq Koreya Yaponiyaning rasman mustamlakasiga aylantirildi. Natijada bu mamlakat ta'lim tizimiga ham katta ta'sir ko'rsatdi. Yapon mustamlakachilari Koreyaning ta'lim tizimini keskin o'gartirish yo'lidan bordi va xususiy maktablar faoliyati cheklab qo'yildi. Bu davrda 1911-yil 23-avgustda qabul qilingan «1-Choson ta'lim buyrug'i» amal qildi. Unga ko'ra, koreys va yapon fuqarolarining farqli ta'lim siyosati olib borildi. Ya'ni mahalliy xalq faqat 4 yil mobaynida boshlang'ich ta'lim olar, o'rta va oliy ta'lim berilmas edi. Ammo 1919-yili boshlangan norozilik harakatlari oqibatida Yaponiya hukumati biroz yon berishga majbur bo'ldi va buyruqqa o'zgartirish kiritib, boshlang'ich ta'lim 4 yildan 6 yilga o'zaytirildi. 1922-yil 4-fevralda «2-Choson ta'lim buyrug'i» qabul qilindi. Bu buyruqqa ko'ra, ta'lim muddatlari o'zaytirildi. Ya'ni oddiy maktablarda ta'lim 6 yil, ayollar maktablarida esa 5 yil etib belgilandi. Shuningdek, asta-sekinlik bilan universitetlar ham paydo bo'la boshladi. Jumladan, 1924-yili Kyongson davlat universiteti ochildi. Xitoy-Yaponiya urushi boshlanishi munosabati bilan mustamlaka Koreyada nazorat yanada kuchaytirildi. Oddiy maktablar va boshlang'ich maktablar, yuqori va o'rta maktablar birlashtirildi. Koreys tili fanlari kamaytirilib, imperiya xalq demokratiyasi fani kiritildi. 1943-yil 3-avgustda «4-Choson ta'lim buyrug'i» imzolandi va yapon mustamlakachiligining ta'lim sohasidagi zo'ravonligi kuchaydi. Jumladan, o'rta va yuqori maktablarda ta'lim 4 yilgacha kamaytirilib, koreys tili fan dasturidan olib tashlandi. Uning o'rniga yapon tili darslari kiritildi. Koreyani yoppasiga savodsizga aylantirish siyosati natijasi o'laroq, 1944-yilgi Koreya Umumiy Arxiv qo'mitasi ma'lumotlariga

qaraganda o'sha paytda Koreyaning savodxonlik darajasi bor-yo'g'i 13,8%ni tashkil etgan. 1945-yili Ikkinchi Jahon urushi bilan birga Koreyadagi Yaponiya mustamlakachiligi ham tugadi. Endilikda Koreyada tabiiy boshqa sohalar qatori ta'lim tizimini o'zgartirish vazifasi turardi. Eng avvalo «Ta'limni rivojlantirish qo'mitasi» tashkil etildi va qo'mita oldiga darsliklar yaratish majburiyati qo'yildi. Ta'lim tizimi tadqiq etilishi davom ettirilib, axloq, etika, texnikaga oid fanlar kiritildi. 1963-yillardan boshlab esa ta'lim tizimida tabiiy va ijtimoiy fanlarga e'tibor kuchaydi. 1981-yili Prezident Chon Du Xvan mamlakatda shaxsiy ta'lim berish va xususiy ta'lim maskanlari faoliyatini qonunan taqiqlab qo'ydi. Lekin maktabda mustaqil shug'ullanish uchun imkoniyatlar yaratib berdi. 1992-yilga kelib esa boshlang'ich maktablar faoliyati yanada rivojlanishi uchun hukumat tomonidan bir qancha imtiyozlar yaratildi. Zamonaviy Koreya ta'lim tizimida boshlang'ich maktablarning roli muhim. Koreyada boshlang'ich ta'lim uchun o'quv yilida 1-martga qadar 6 yoshdan yuqori bo'lgan bolalar qabul qilinadi. Lekin

5 yoshli bolalar ham o'qishga kirishga huquqli bo'lib, buning uchun maktab mas'ul shaxsining ruxsatnomasini olishi lozim bo'ladi. O'quv yili esa 1-mart Koreya respublikasida davlat bayrami munosabati bilan 2 martdan boshlanadi. 6 yil davom etadigan boshlang'ich ta'lim majburiy etib belgilangan. Boshlang'ich ta'limda 1 yil ikki semestrga bo'lingan holda olib boriladi. Boshlang'ich ta'limdan keyingi «zinapoya» vazifasini o'rtta ta'lim bajaradi. O'rtta ta'lim Koreya respublikasida 3 yil davom etadi. O'rtta ta'lim ham majburiy bo'lib, bir o'quv yili 1-martdan keyingi yil mart oyiga qadar davom etadi. Darslar 45 daqiqadan etib belgilangan bo'lib, bir yilda 1222 soatni tashkil etadi. O'rtta ta'lim maktablarida davlat tili, axloq, ijtimoiy fan, matematika, jismoniy tarbiya, musiqa, san'at, chet tili kabi 10 ga yaqin fanlar o'qitiladi. Shuningdek, o'rtta maktabda o'quvchi uchun tanlov fanlar mavjud. Bular qatoriga axborot, chet tili (ko'pincha nemis, fransuz, ispan, xitoy, yapon, rus, arab tillari) kabilarni kiritish mumkin. O'rtta maktab tugatilgach yuqori maktablarda ta'lim davom ettiriladi. Yuqori maktablar bir necha turlarga bo'linadi: davlat yuqori maktablari (Koreya Ta'lim va Texnika fanlari vazirligi, Madaniyat, Jismoniy tarbiya va sayyohlik vazirligi boshqaradi), umumiy yuqori maktablar (har bir viloyatdagi yuqori tashkilotlar tomonidan boshqariladi), xususiy yuqori maktablar. Shuningdek, yuqori maktablar o'qitish fanlariga ko'ra ham bir qancha turlarga bo'linadi: umumiy maktablar, ixtisoslashtirilgan maktablar (qishloq xo'jaligi, sanoat, dengiz xo'jaligi, axborot), maxsus maktablar (litsey shaklidagi maktab), texnika maktablari, chet tili maktabi, jismoniy tarbiya maktabi, san'at maktablari. Koreya Respublikasida Ta'lim vazirligi maxsus tashkil etgan yuqori maktablar ham bor. Bular asosan qishloq xo'jaligi, baliqchilik, sanoat, xalqaro tillarga ixtisoslashgan bo'ladi. Janubiy Koreyada ta'lim haqidagi Qonun 1948-yilda qabul qilingan. Ta'lim tizimiga asos qilib an'anaviy g'arb modeli olingan: 6 yil — quyi maktab, 3 yil — o'rtta, yana 3 yil — oliy maktab; so'ngra to'rt yillik kollej va bakalavr unvoni beriladi; tanlangan fan yana 2 yil chuqur o'rganilgandan so'ng magistr unvonini olish mumkin. Fan doktori bo'lish uchun yana 3 yil vaqt sarflash lozim. Mamlakatda oliy o'quv yurtlarining ishlari yaxshi yo'lga qo'yilgan. Koreyada 104 ta oliy o'quv yurti bor, ularning 80 foizi xususiydir. Illozir mamlakatda oliy o'quv yurtlarida o'qishga qiziqish juda kuchayib ketgan. Har yili maktablarni bitiruvchilarning 40 foizi o'qishga kiradi.

Talabalar soni bo'yicha Koreya dunyoda birinchi o'rinda turadi. Lekin maktabgacha ta'lim muassasalarida islonda muammolar bor. Talab ehtiyojini qondira olmayapti. Shuning uchun 1982-yilda maktabgacha tarbiya haqida qonun qabul qilindi. Bu yerda tarbiyaga bolalar bog'chasida asos solinishini yaxshi tushunishadi. Shu tufayli bu tarmoq keyingi yillarda 60 foizga kengaydi. Bunda diniy tashkilotlarning hisssasi kattadir. Boshlang'ich maktab masalasiga kelganda (bu maktabga olti yoshlilar kelishadi) sinflarning tig'izligini kuzatish mumkin. Har sinfda 50 nafargacha bola o'qiydi. Dars yuklamalari ham ko'proq. Lekin o'yinlar dam olish o'quv dasturiga kiritilgan. Shuning uchun dam olishga imkoniyat bor. Boshlang'ich maktabda dars 40 daqiqa davom etadi. O'rta maktabda esa darslar 45 daqiqa. Oliy maktabda darsning davomiyligi 50 daqiqaga teng. Bu yerda ikki muhim jihatga to'xtalib o'tish zarur. Oliy maktabga, albatta, kirish imtihonlari topshirib kiriladi, o'qishlar pullik. Boshlang'ich maktabda 9 ta fan o'qitiladi. Koreys tilini o'rganishga alohida e'tibor beriladi. Bundan tashqari arifmetika, ayrim ijtimoiy fanlar ham o'qitiladi. O'rta maktabda fanlar yana 4 taga ko'paytirilgan. 7-sinfdan boshlab chet tillar o'rgatiladi. Mamlakatda ingliz tiliga e'tibor kuchli. Ko'pchilik bu tilda bemalol gaplasha oladi. Chet tillarni o'qitishga haftasiga 4-5 soat ajratilgan. Koreyslar yana bir tilni — klassik xitoy tilini majburiy ravishda o'rganadilar. 8-sinfdan boshlab Xitoy tarixi o'rganiladi. Hunar maktablari Koreyada 600 tani tashkil etadi. Bu maktablarning 45 foizi bo'lajak mulkdorlarni tayyorlaydi, 23 foizida texnik kasb egalari yetishib chiqadi. Qolgan maktablarda dengizchilik, qishloq xo'jalik ixtisoslari o'zlashtiriladi. Shunisi diqqatga sazovorki, bu maktablarga korxonalar otaliq qiladilar. Ta'lim haqidagi qonun talablaridan biri shudir. Koreyada ham alohida iqtidorli bolalarga e'tibor kuchli. So'nggi yillarda 5 ta sport, 6 ta ilmiy maktab ochilgan. Jismoniy tarbiyaning rivojlanishiga Seul olimpiadasi katta ta'sir ko'rsatgan. Koreyada nogironlarga ko'rsatilayotgan g'amxo'rlikni har qadamda kuzatish mumkin. Aytaylik, bu yerda aravachalar yordamida harakatlanuvchilar uchun yer osti liftlari mavjud, maxsus jihozlangan past qilib qurilgan telefon-avtomatlardan nogironlar bemalol foydalanadilar, rivojlanishdan orqada qolgan bolalar uchun maxsus maktablar mavjud. Bu maktablarning aksariyati xususiy yoki diniy tashkilotlarning xayriya mablag'lari hisobiga qurilgan. Davlat maktablarida din o'qitilmaydi. Lekin 3-sinfdan boshlab «Odobnoma» kabi maxsus fan joriy etiladi. Bu fan 12-sinf gacha o'qitilib, haftasiga 2 soat vaqt ajratilgan. Bu fan o'z ichiga dini ham qabul qiladi. U qotib qolgan bir narsa sifatida emas, qadriyat sifatida o'qitiladi. Bu butun tarbiya izimi natijasidir. Ehromlarga borish, tarixiy vodgorliklar bilan tanishish, ma'naviy tarixni o'rganish maktab fanining majburiy davomi hisoblanadi. Maktablar uchun o'qituvchi kadrlar tayyorlash masalasiga ham katta e'tibor beriladi. Koreyadagi barcha talabalarning 6,5 foizi bo'lajak pedagoglardir. Mamlakatda 11 ta o'qituvchilar kollejlari mavjud. Har bir provinsiya o'z kollejiga ega. Boshlang'ich sinflar o'qituvchisi bo'lish uchun 2 yil o'qish kerak. Fan o'qituvchisi birmuncha ko'proq o'qiydi. Janubiy Koreyada ta'limning obro'si naqadar kattalagini quyidagi misoldan ham ko'rsak bo'ladi: Soliqlar tizimida ta'limiy soliq joriy qilingan: ishlab chiqaruvchilar foydaning ma'lum foizini maorifga yuboradilar. Davlat budjetining 24 foizi ta'limga sarflanadi. Mamlakat prezidenti (u xalq ta'limi Davlat kengashini boshqaradi) shaxsan provinsiyalar ta'lim boshqarmalari (bizdagi xalq ta'limi

boshqarmalari kabi) boshliqlarini tayinlaydi. Bu ham ushbu mamlakatda maorifga qanchalar zo'r ahamiyat berilishini ko'rsatib turibdi.

Janubiy Koreya ilg'or pedagogik tizimi asoslari ham Yaponiya pedagogik tizimidagi kabi o'ziga xos xususiyatlarga egadir:

- Janubiy Koreya ta'lim-tarbiya tizimidagi asosiy ustuvor jihat bu bizning xalqimizga xos bo'lgan bolajonlik va uning tarbiyasiga nisbatan o'ta jiddiy yondashish, ya'ni «bola aziz, tarbiyasi esa undan aziz» tamoyili bo'yicha yondashuvdir;

- Janubiy Koreya umumkoreys yaxlit madaniyatining ajralmas bir qismi bo'lib, u koreys ma'naviy-ma'rifat mentalitetida albatta milliy tamaddun to'laonlilikini taqozo etadi;

- Janubiy Koreya ta'lim-tarbiya tizimida xitoy, yapon, manjur, mug'ul jihatlarining tarixiy qo'shilib ketishi natijasida o'ziga xos bir multimedaniyat tizimi yuzaga kelganki, u barcha davrlarda bir xil yashovchanlik immunitetini hosil qilgan;

- Janubiy Koreya ta'lim-tarbiya an'analari davlat ta'sirining hal qiluvchi kuchga ega ekanligi har qanday yangi texnologiya bo'yicha ishlarning davlat kuzatish doirasida ko'plab quvvatlanishida o'z aksini topadi;

- Janubiy Koreya ta'lim tizimida avlodlar almashinuvi natijasida yangi texnologiyalarning yanada turlicha ko'rimish olishi jarayoni uning ilg'or dinamik harakteridan dalolat beradi;

- Janubiy Koreya ilmiy tadqiqot sohasida (ayniqsa SAMSUNG va DAYVO kompaniyalari faoliyatida) rivojlangan davlatlar AQSH va Yaponiyada bo'lganidek «Silikon», «Kremen» vodiylari kabi markazlarning vujudga kelganligi hozirda bu yerdagi ta'lim-tarbiya tizimiga juda katta samarali ta'sir ko'rsatmoqda.

Xitoyda ta'lim tizimi miloddan avvalgi X-XI asrlarda Daosizm, Konfusiychilik va Buddaviylik dinlari ta'siri ostida yuzaga kela boshlagan. Unga oid ayrim ma'lumotlar tarqoq holda bo'lsada, Qadimgi Xitoy qonunchiligiga oid to'plamlarda uchraydi. Xitoy ta'lim tizimi qadimgi va boy tajriba an'nalarga ega tizimdir. Bu yerda ta'lim tizimining shakllanishi bevosita davlat ma'muriy - boshqaruv tizimining qurulishi bilan bog'liqdir. Qadimda Xitoy imperatorining asosiy uchta maslahatchilari (uchta gunn) «buyuk murabbiy», «buyuk ustoz» va «buyuk homiy» deb atalgandir. Ular davlatda ta'lim-tarbiya me'yorlari (li) ni nazorat qilib borganlar. Bunda «yoshlarning kattalarga buysinishi» goyasi (syao) asosiy o'rin egallagan. Keyinchalik, ya'ni o'rta asrlarda bu sohaga oid ma'lumotlar Chijao xonadonidagi yetim (Xasr) «Aslzoda o'spirinning xatosi»(XIII asr) kabi mashhur asarlarda uchraydi. Xitoyning XIX asr oxiridan

XX asrning 60-yillarigacha bo'lgan davr ma'naviy va ma'rifiy hayotiga oid ma'lumotlar esa Van Menning mashhur «Metamorfozalar» asarida uchraydi. Xitoyda Mao Sze Dunning «Madaniy inqilobi» natijasida yuzaga kelgan ta'lim tizimining «qora davri» (1966-1976-yillar)da bu yerda ma'naviy-ma'rifiy sohalarda og'ir oqibatli holatlarga olib keldi. 1980-1990-yillar davomida Xitoyda amalga oshirilgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar natijasida ta'lim-tarbiya sohasida yangi zamonaviy tizim shakllantirildi. Hozirgi Xitoy ta'lim-tarbiya tizimi bir qancha o'ziga xos jihatlarga ega ilg'or milliy tizimlardan hisoblanadi. Xitoyda bolalar boshlang'ich maktabga 6-7yoshdan borb, bu yerda 5-6 yil dastlabki ta'lim oladilar,

mamlakat bolalarining (boshlang'ich maktab yoshidagi) 95% boshlang'ich maktablarga boradilar. Boshlang'ich sinflarda bolalarga xitoy tili, geografiya, tarix, matematika, musiqa, tabiatshunoslik tasviriy san'at jismoniy tarbiya va siyosiy ta'lim o'rgatiladi. Boshlang'ich maktabni tamomlagach, bolalar o'rta maktabga borishlari mumkin. Quyi o'rta maktabda ta'lim 3 yil, yuqori o'rta maktabda esa 2 yoki 3 yil davom etadi. O'rta maktabda boshlang'ich sinflardagi ko'pchilik fanlar, ya'ni biologiya, kimyo, fizika, huquqshunoslik ingliz va boshqa xorijiy tillar o'qitiladi. Professional va texnik o'rta maktablarda esa qishloq xo'jaligi asoslan, industrial texnologiya va boshqa ixtisoslikka oid fanlar o'qitiladi. Xitoylik bolalarning 2/3 qismi o'rta maktabda ta'lim ola boshlaydi, ammo ularning hammasi ham o'qishni yakuniga yetkazmaydi. Oliy o'quv yurtlariga kirish uchun yoshlar maxsus imtihonlardan o'tishlari kerak. Imtihonlardan o'tgan yoshlar talabalar qatoriga qabul qilinadi. Universitetlarda o'qitiladigan asosiy fanlar: iqtisod, xorijiy tillar, matematika, tibbiy va gumanitar fanlar imtihonlardan o'tgan yoshlarning bir qismi texnik kollejlarda qabul qilinadi. Har bir kollej o'z ixtisosligiga ega bo'lib, qishloq xo'jaligi, o'rmon xo'jaligi, tibbiyot, tog'-kon yoki o'qituvchilik yo'nalishlarda mutaxassis tayyorlaydi. Ko'pchilik maktablar tegishli soha vazirligi (masalan, tibbiyot yo'nalishidagi texnik kollejlarda tibbiyot vazirligi) tomonidan boshqariladi. Xitoyda jami 1000 ga yaqin oliy ta'lim muassasalari mavjud. (universitet va kollejlarda). Ulardan 1, 700 000 (1 million 700 ming) talaba tahsil olmoqda. Oliy ta'lim olishni istagan yoshlar soni tobora ortib bormoqda. Ammo fakultetlar va imkoniyatlar yetishmasligi bois yoshlarning oz qismigina oliy ta'lim jarayoniga jalb etilmoqda. Kirish imtihonlaridan o'ta olmagan yoshlar «isbchi universitetlar» deb atalmish qisqa muddatli kurslarda ta'lim olishlari mumkin. O'rta maktabni tashlab ketgan yoshlar erkin vaqt o'rgatiladigan maxsus maktablarda yoki televizion kurslar orqali ta'lim olishni davom ettirishlari mumkin. Xitoyda hozirda 2020- yilgacha mo'ljallangan ta'lim tizimi islohotlari amalga oshirilmoqda. Uning bosh maqsadi ta'lim-tarbiya sohasida butunlay yangi o'zgacha bir zamonaviy ilg'or asosli samarali tizimni yaratishdan iboratdir. Hozirgi Xitoy ta'lim-tarbiya tizimining zamini hisoblangan psixo-didaktik asoslar esa quydagi jihatlarda namoyon bo'ladi: Xitoy ta'lim-tarbiya tizimiga xos bo'lgan xususiyatlar quydagi jihatlarda kuzatiladi:

- millat mentalitetida ta'lim-tarbiya va shu sohada mehnat qilayotganlarga nisbatan chuqur hurmat-ehtirom munosabatining uzoq asrlar davomida keng ko'lamda saqlanib kelayotganligi;

- an'ana sifatida davom etib kelayotgan va qat'iy nazorat mahoratli buyuk ustozlar hurmati oldidagi ta'zim yoshlarning ta'lim-tarbiya talablariga chin dildan ixlos bilan bo'ysunish va uni to'la-to'kis bajarishga harakat qilishida kuzatiladi;

- yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalarning keng ko'lamda qabul qilinishi va ularni tezkor tarzda bevosita amaliyotga joriy etish jarayonining kuchli tarzda borayotganligi;

- keng xalq ommasi orasida ilm olishga intilishning kuchliligi mavjud ta'lim muassasalarining jamiyatda yuzaga kelayotgan ehtiyojlarni qondirishga o'zlik qilib qolayotganligida ko'zga tashlanadi.

Maktabgacha tarbiya tizimi Germaniya ta'lim tizimida ham muhim bosqich hisoblanadi. Uning 100 yildan ortiq tarixi bor. Bolalar bog'chalari ta'limning quyi

bosqichi hisoblansada, lekin u davlat tizimi tarkibiga kirmaydi. Bog'chalarni mablag' bilan ta'minlash turli jamoat tashkilotlari, xayriya birlashmalari, korxonalar, xususiy shaxslar, diniy muassasalar zimmasidadir. Ota-onalar bolalar bog'chalariga o'z farzandlarini tarbiyalayotganliklari uchun ancha muqaddor pul to'laydilar. 3 yoshdan 6 yoshgacha bolalarning 80% bog'chalarga qatnaydi. Germaniyada odatda bolalar bog'chada tushgacha tarbiyalanadilar. Kunning yarimida esa uyda, oilada bo'ladilar. Germaniyada kuni uzaytirilgan bog'chalar ham bor.

Majburiy ta'lim 6 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan bolalarga tegishli, ya'ni bu jarayon 12 yil davom etadi. Bundan 9 yillik (ba'zi joylarda 10 yil) maktabda to'la haftalik o'qishda o'qiydi. O'qish davlat maktablarida tekis. Xususiy maktablar ozroq. O'qish 6 yoshdan boshlanib, 4 yil davom etadi (faqat Berlinda 6 yil). Boshlang'ich maktabdan so'ng o'quvchilar yo'nalish bosqichidagi maktabga o'tadilar. Bu yerda 5-6-sinf bosqichidagi yo'nalish maktablarda maxsus dastur asosida o'qiydilar. Keyin navbatdagi maktab tipiga ko'chadilar: bular — asosiy, maxsus maktab, real bilim yurtlari. Deyarli 30% bola asosiy maktabga o'tadi. 9 yoki 10 yillik o'qish tugatilgandan keyin kasbiy tayyorgarlikka o'tiladi. Maxsus maktablarda nuqsonga ega bo'lgan bolalar o'qiydi. Real bilim yurtlari asosiy maktab va yuqori bosqich maktabi o'rtasida turadi. Qoidaga ko'ra bu yerda o'qish 6 yil davom etadi (5-10-sinf gacha) va to'la o'rta ma'lumot berish bilan tugallanadi. Bilim yurtini tugatganlar o'rta maxsus o'quv yurtiga yoki yuqori bosqichdagi hunar-texnika maktabiga kirib o'qish huquqiga ega bo'ladi. Germaniyada gimnaziyalar ham mavjud. Ular 5-13-sinflarni o'z ichiga oladi. 11-13-sinflar oliy o'quv yurtlariga tayyorlash vazifasini ham bajaradi. Gimnaziyani bitirganlik haqidagi yetuklik attestati oliy o'quv yurtida o'qish imkonini beradi. Germaniya ta'lim tizimida hunar ta'limi muhim ahamiyatga ega, chunki yuqori malakali ishchilarga bo'lgan talab kuchlidir. To'liqsiz o'rta maktabni bitiruvchilarning esa 20% hunar ta'limi tizimida bilim olishni davom ettiradilar. Aksariyat hollarda o'qish muddati 3-3,5 yilni tashkil etadi. O'qish uch bosqichdan iborat bo'lib, birinchi yili asosiy hunar ta'limi beriladi. Bunga o'qitilayotgan kasbga taalluqli maxsus fanlardan nazariy asoslar berilib, yirik korxonalarda amaliy mashg'ulotlar o'tkaziladi. Ikkinchi yil davomida maxsus hunar ta'limi beriladi. O'quvchining birinchi yilda ikkinchi yilga o'tishi sinov imtihonlari o'tkazilib o'qishni davom ettiruvchi yoshlar tanlab olinadi. Uchinchi yil davomida maxsus hunar ta'limi yanada chuqurlashtirilib boriladi. Bitiruv imtihonlari maxsus komissiya tomonidan qabul qilinadi. Komissiya a'zolari korxonalarining yetakchi mutaxassislari, federal yerlardagi sanoat palatasi, hunarmandchilik palatasi vakillaridan tashkil topadi.

Hunar maktablarining diplomlari oliy o'quv yurtlariga kirish uchun huquq bermaydi. Buning uchun 1 yillik tayyorlov kurslarini tugatish talab etiladi. O'qishga qabul qilish imtihonsiz maktab ta'limi to'g'risidagi hujjatga asosan oshiriladi. Oliy maktab o'z-o'zini boshqarish huquqiga ega. Oliy o'quv yurtini shtatdagi rektor yoki bir necha yilga saylangan Prezident boshqaradi. O'z-o'zini boshqarishda vazifalari aniq taqsimlab berilgan bir necha guruhlar bosqichma-bosqich ishtiroki prinsipiga amal qilinadi. Uning tarkibiga professor-o'quvchilar, o'quvchilar, ilmiy xodimlar va boshqa xodimlar kiradi. Talabalar o'qishi erkin tashkil etilgan. Ko'p sonli o'quv

bosqichlari bilan birga o'quv rejaları taklif etiladi. O'qishga haq to'lanmaydi. Agar talaba yoki ularning ota-onalari oziq-ovqat harajatlarini ko'tara olmasa, o'qish uchun moliyaviy yordam ko'rsatish to'g'risidagi federal qonunga ko'ra ular moliya yordanida oladilar. Bu yordamning yarmi stipendiyaga qo'shib berilsa, ikkinchi yarmi qarz tariqasida beriladi. Mamlakatda ta'limning isloh qilish masalasi ko'pdan buyon muhokama qilinmoqda, bunda o'quv jarayonini qisqartirish taklif qilinmoqda. Hozir universitetlarda talabalar 7 yil o'qiydi. Ular o'qishga kirganlariga qadar korxonalarda bir necha yil ishlashlari yoki bundesverda xizmat qilishni hisobga olsak, talabalar haqiqiy mehnat faoliyatlarini ancha kech boshlayotganligini tushunamiz. Germaniyada Xalq universitetlari mavjud bo'lib, ular partiya va dindan tashqari muassasa. Ularning ko'pchiligi kechki bo'lib, faqat 1989-yilda universitetlarda 400000 kurslar tashkil etilgan va bu kurslarda, 5,5 mln. tinglovchi malaka oshirgan. Davlat malaka oshirganlarni rag'batlantiradi va bu uchun har yili 5,5 mln. marka mablag' ajratadi. Malaka oshirish kurslarida o'qish davrida tinglovchilarga mablag' bilan moliyaviy yordam beradilar. Oliy o'quv yurtlarida tadqiqot bilan shug'ullanish ularning qadimiy an'analaridan biri. O'tgan asr boshlarida Vilgelm fon Gumboldt pruss universitetlarini isloh qildi, o'shandan beri «Tadqiqot va o'qitish birligi» ularning hayotiy prinsiplariga aylanib qolgan. Oliy o'quv yurtlari tadqiqotlarining asosiy yo'nalishi-fundamental amaliy tadqiqot bo'lib, ularga boshqa ilmiy-tekshirish institutlari, sanoat laboratoriyalari yaqindan yordam beradi. Germaniya ta'limi o'ziga xos yo'nalishga, juda murakkab tizimga ega. Shu bilan bir qatorda hozirda Germaniyada ta'lim tizimini isloh etish yo'lida yangi izlanishlar olib borilmoqda.

33.3. Xalqaro grantlar va ta'lim dasturlari

Butun dunyo ta'lim tizimidagi muammolarni hal etishda yirik xalqaro loyihalar va dasturlar muhim rol o'ynamoqda. Ushbu loyiha va dasturlarda turli ta'lim tizimidagi o'quv muassasalari va pedagoglarining ishtirok etishlari bu sohadagi ishlarni jonlantirilishiga asos bo'lmoqda.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim va ilmiy tadqiqot sohasida keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda. O'quv rejalarining takomillashuvi, ilmiy darajalar berishning bir bosqichli tizimiga o'tish, ta'lim jarayonining axborot ta'minoti va boshqa jihatlar oliy ta'lim muassasalarida Tempus va Erasmus+ dasturlari bo'yicha amalga oshirilayotgan loyihalarda ma'lum darajada o'z aksini topmoqda. Tempus - bu G'arbiy Bolqon mintaqasi, Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo, Shimoliy Afrika va Yaqin Sharqdagi hamkor davlatlarda oliy ta'limni isloh etishga qaratilgan va asosan, universitetlararo hamkorlik loyihalari orqali ko'maklashuvchi Yevropa Ittifoqi tomonidan moliyalashtiriladigan dasturdur. O'zbekistonda Tempus dasturi 1994-yilda o'z ish faoliyatini boshlagan bo'lib, hozirgi kunga qadar 80 dan ziyod xalqaro hamkorlik loyihalari amalga oshirib kelinmoqda. O'tgan davr mobaynida mazkur loyihalarni moliyalashtirish uchun Yevropa Komissiyasi tomonidan jami 34 million yevrodan ziyod mablag' ajratilgan. Erasmus+ - bu Yevropa Ittifoqining ta'lim, kasbiy ta'lim, yoshlar va sportni rivojlantirishga qaratilgan hamda 2014-2020-yillar uchun

mo'ljallangan yangi dastur. Yangi dastur yuqorida ko'rsatilgan sohalar bo'yicha Yevropa Ittifoqining xalqaro hamkorlik dasturlarining eng muvaffaqiyatli dasturlarini, ya'ni Tempus va Erasmus Mundus dasturlarini o'z ichiga qamrab oldi. Hozirgi kunga qadar, ular O'zbekiston oliy ta'limini islohotlashtirish bo'yicha Yevropa Ittifoqining asosiy vositalaridan hisoblanadi. O'zbekiston OTMlari, o'qituvchilari va talabalar Erasmus+ dasturining quyidagi 3 ta yo'nalishlar bo'yicha ishtirok etish imkoniyatiga ega: Xalqaro kredit mobilligi (International Credit Mobility) - Yevropaning bir yoki bir nechta universitetlari bilan almashinuv dasturi, Oliy ta'lim salohiyatini oshirish loyihalari (Capacity Building in Higher Education), Qo'shma magistrlik dasturlari (Joint Master Degree programme) hamda Jan Mone (Jean Monnet) dasturi. Oliy ta'lim salohiyatini oshirish (SVNE) yo'nalishining 2015-yildagi 1-tanlovi doirasida O'zbekiston OTMlari ishtirokida 12 ta loyiha faoliyat boshlagan bo'lib, ulardan 10 tasi qo'shma va 2 tasi strukturaviy loyihalardir: MIND, ECCEM, CACTLE, ACADEMICA, MEDIPHYS, ModeHED, ECAP, TechReh, IQAT, FSAMP, IMEP, NURSLIN. Erasmus+: Xalqaro kredit mobilligi loyihalari Erasmus+ dasturining «Xalqaro kredit mobilligi/ International Credit Mobility» (ICM) yo'nalishi - talabalar va oliy ta'lim muassasalarining akademik va administrativ xodimlari uchun 33ta Dastur- davlatlarda ta'lim va professional tajriba olish imkoniyatlarini beradi. Bu nafaqat mobillik ishtirokchilari uchun, balki OTMlari uchun ham birdek foydali hamkorlikdir. Amalga oshiriladigan mobilliklar davomida OTMlardagi o'quv- dasturlarini solishtirish va yangilash hamda c'qitish va boshqaruv usullarini yaxshilash imkoniyatlari yuzaga keladi. Oddiygina universitetlararo imzolangan shartnoma asosida talabalarni o'qishga yuborish va chet ellik talabalarni qabul qilish kelgusida xorijiy diplomlarni dastlab universitetlar o'rtasida, keyinchalik esa mehnat bozorida tan olinishiga zamin yaratadi.

Nazorat uchun savollar

1. Yaponiya ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlarini izohlang.
2. Janubiy Koreya ta'lim tizimida oliy ta'limning roli qanday?
3. Xitoyning taraqqiy etishida ta'lim tizimining o'zini izohlang.
4. Germaniya ta'lim tizimida real maktablarning ahamiyati nimada?

VII BOB. PEDAGOGIK MAHORAT

34. PEDAGOGIK FIKR TARIXI VA MAKTAB AMALIYOTIDA O'QITUVCHI MAHORATI MASALALARI

- 34.1. Pedagogik faoliyat va uning xususiyatlari.
- 34.2. Pedagogik faoliyatga qo'yilgan talablar.
- 34.3. Pedagogik mahorat tushunchasi.
- 34.4. Pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari.
- 34.5. Pedagogik fikrlar taraqqiyotida o'qituvchi mahorati masalalari.

34.1. Pedagogik faoliyat va uning xususiyatlari

Pedagogik mahorat asoslari fani dastlab 1979 yilda Ukrainaning Paltava shaxridagi Korolenko nomidagi pedagogika instituti pedagog olimlari tomonidan maxsus kurs sifatida paydo bo'ldi. Dastlab Paltava institutida so'ngra boshqa pedagogika institutlarida ham o'qitila boshlandi.

Pedagogik mahorat fanining ob'ekti- o'qituvchining pedagogik faoliyati hisoblanadi. Pedagogik mahorat fanining predmeti esa- o'qituvchining pedagogik faoliyatidagi pedagogik mahoratidir. Pedagogik mahorat fanining kategoriyalari- pedagogik qobiliyat, kasbiy bilim, pedagogik texnika kabilar tashkil qiladi. Pedagogik mahorat fanining masqadi- ma'lum bir pedagogik tizimdagi o'qituvchining pedagogik faoliyatida pedagogik mahoratni shakllanish qonuniyatlarini o'rganish hisoblanadi.

O'qituvchining pedagogik mahoratini ta'minlovchi xususiyatlar

Tayanch bilimlar; Kasbiy pedagogik tayyorgarlik, asosiy fanlarni va o'qitish metodikasini bilishi, falsafiy bilimlar, pedagogik bilimlar, psixologik bilimlar, pedagogik axloq.

Metodologik bilimlar: Falsafiy, umumilmiy va aniq fanlarni, metodoloik bilimlarni, ta'lim muammolarini, mustaqil o'zlashtira olish qobiliyati.

Ijodiy pedagogik mahorat; kasbiy qadriyatlarga yo'naltirilganlik, ijodkorlikka yo'naltirilganlik, innovatsiyalarni, muammolarni tushumishi, rejalashtirish qobiliyati, ilmiy tadqiqot metodlarini, texnologik, grafik, metodologik madaniyati, kasb axloqi, moslashuvchanlik. o'z-o'zini baholash.

Pedagogik faoliyat ob'ekti bu o'quvchi, sub'ekti esa o'qituvchi hisoblanadi. Pedagogik faoliyat - bu o'qituvchining o'quvchilarga ta'lim va tarbiya berish, vazifalarini hal qilishga qaratilgan hamda pedagogik ta'sir ko'rsatish vositalari bilan amalga oshiriladigan professional faolligidir. O'qituvchi mazkur faoliyat jarayonida o'qitadi, yo'l-yo'riqlar ko'rsatadi, tarbiyalaydi, o'quv-tarbiya ishlarini tashkil qiladi. Mamlakatimizda olib borilayotgan oqiloni, adolatli siyosatni, milliy istiqbol g'oyasini mazmun, mohiyatini targ'ibot qiladi. o'z malakasini oshirish uchun

mustaqil bilim olishni rejalashtiradi, oqibat natijada o'zi ham kamol topadi, o'quvchilarni ham kamol toptiradi.

Pedagogik faoliyat yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash uchun xalq oidida, davlat oldida javob beradigan bolalarga ta'lim-tarbiya berish maxsus tayyorlangan insonlarning mehnat faoliyatidir. Uzliksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida xizmat qilayotgan o'qituvchilarning faoliyati inson shaxsini shakllantirishga qaratilgan.

Har bir bola o'z xulq-atvoriga, harakteriga ega. Tarbiyada ana shu xususiyatlarni hisobga olish kerak. Bunda odamlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning murakkabligini o'zida aks ettiruvchi maxsus usullardan foydalaniladi. Pedagogik faoliyatga tayyorgarlik ko'rayotgan yoshlar ana shunday xususiyatlarni bilishi lozim. O'qituvchilik ixtisosining bu xususiyatlari profессиogrammasida ifodalanadi, profессиogramma quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. O'qituvchi shaxsining xususiyatlari.
 2. O'qituvchining ruhiy pedagogik tayyorgarligiga qo'yiladigan talablar
 3. Maxsus tayyorgarlikni hajmi va mazmuni.
 4. Ixtisosga oid umumiy tayyorgarlikning mazmuni.
- O'qituvchi shaxsining xususiyatlari:

G'oyaviy sohada: Ilmiy dunyoqarash va e'tiqod, ijtimoiy ehtiyoj va axloqiy zaruriyatlarni chuqur tushunish, ijtimoiy va fuqarolik burchini anglash, ijtimoiy-siyosiy faollik

Pedagogik kasbi sohasida: bolalarni sevish va ular bilan ishlashga qiziqish, pedagogik ismi sevish, ruhiy pedagogik ziyraklik va kuzatuvchanlik, pedagogik nazokat, pedagogik tasavvur, tashkilotchilik qobiliyati, haqqoniylik, dilkashlik, talabchanlik qat'iylik va maqsadga intilish, vazminlik, o'zini tuta bilish kasbiy layoqatlilik.

Bilim sohasiga: keng ilmiy saviya, ma'naviy ehtiyoj va qiziqish, intellektual qiziqish, yangilikni his qila bilish.

Pedagogik faoliyatlar kishini o'ziga duch kelgan hodisalarni tahlil qilish va umumlashtirish tajribasi bilan boyitadi.

Pedagogik malaka - egallagan bilim va ko'nikmalarni faoliyatning ma'lum turini egallab olish, yaxshi bajara olish qobiliyatidir.

O'qituvchi faoliyatiga oid bunday malakalarga quyidagilar kiradi:

a) amaliy konstruktiv malakalar:

1. Amaliy tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish faoliyatining eng muhim qoidalarini tanlay bilish.

2. Har bir o'quvchiga nisbatan uni jamoa sharoitida tarbiyalashning individual rejasini amalga oshira bilish.

3. O'quvchilarning yosh va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularga nisbatan individual munosabatni amalga oshira bilish.

b) Tashkilotchilik malakalar:

1. O'quvchilar orasidagi qobiliyatli bolalarni aniqlay bilish, tanlay bilish va ularni idora qilish

2. O'quvchilarning turli xildagi jamoa individual holatini uyushtira bilish, ularni ijtimoiy faolliklarini bilish.

3. O'quvchilarga berilgan jamoa ijtimoiy topshiriqlarini berilishi yuzasidan nazorat o'rnatish va ularga zarur vaqtda amaliy yordam berish.

4. O'zi rahbarlik qilgan sinfda amaliy ishlarni boshqarish.

5. Ota-onalar va keng jamoatchilik o'rtasida ishlar tashkil eta bilishi, maktab rejimi shunday tuzilishi kerakki: bola maktabda yaxshi o'qisin, samarali xizmat qilsin, yaxshi dam olsin, hamma vaqt foydali va qiziqarli mashg'ulot bilan band bo'lsin, bunday faoliyatni uyushtirishga doir pedagogik talablar qo'yiladi. Inson faoliyatining boshqa turlari kabi pedagogik faoliyat ham o'z xususiyatlarini bilan bir-biridan ajralib turuvchi: maqsad, obyekt va subyekt hamda vositalardan tashkil topadi.

34.2. Pedagogik faoliyatga qo'yilgan talablar

Pedagogik faoliyat bilan shug'ullanuvchi o'qituvchi shaxsi

Mafkuraviy soxada- ilmiy dunyoqarash va e'tiqod, ijtimoiy ehtiyoj va axloqiy zaruriyatlarni chuquv tushunishi, fuqarolik burchini anglashi, ijtimoiy faollikga ega bo'lishi

Kasbiy pedagogik soxada bolalarni sevish, ular bilan ishlashga qiziqish, psixologik-pedagogik ziyaliklik, kuzatuvchanlik, pedagogik takt, pedagogik tasavvur. tashkiloschilik, talabchanlik, o'z o'zini tuta olish

Bilish soxasida keng ilmiy saviya, yangilikni his qila bilishi, pedagogik ma'lumotni oshirishga intilish kabi sifatlariga ega bo'lishi kerak.

O'qituvchining pedagogik-psixologik tayyorgarligiga qo'yiladigan talablarga quyidagilar kiradi

O'qituvchi bilim egallash soxasida – pedagogikaning metodologik asoslarini, shaxsning rivojlanishi, shakllanishi qonuniyatlarini bilishi. tarbiyaning mohiyati, maqsadi, vazifalarini, shakl va metodlarini, bolalar va o'smirlarning fiziologik rivojlanish qonuniyatlarini psixik rivojlanish qonuniyatlarini, individual xususiyatlarini bilishi.

ko'nikma va malakalarni hosil qilish soxasida- pedagogik vaziyatni taxlil qilish. pedagogik ta'sirlarni rejalashtirish, pedagogik hodisalarni paydo bo'lishi va rivojlanish sabablarini shart sharoitlarni taxlil qila bilish, baholay olish, tarbiyalanganlik, bilims darajalarini baniqlash, jamoaning rivojlanishini belgilay olish, o'quvchilardagi qiyinchilik va xat olarni ko'ra bilish, aniq pedagogik vazifalarni va va ularni hal qila olish, o'quv tarbiyaviy ishlarni shakl, metod va vositalarni tanlay olish ko'nikmalarga eza bo'lishi

o'quv-tarbiya jarayonini rejalashtirish va amalga oshirish soxasida – O'quvchilarning tarbiyalanganlik va bilims darajasini hisobga olgan holda ta'lim-tarbiya maqsadiga muvofiq o'quv materialini tanlash, uni analiz, sintex qila olish ko'nikma. ilmiy materialni qayta ishlab o'quv materialiga aylantira olish ko'nikmasi, darsni ijodiy va asosli tashkil eta olish ko'nikmasiga ega bshlishi

bolalar faoliyati turlarini, imkoniyatlarini aniqlash va harakatga keltirish soxasida – o'quvchilar va jamoa uchun vazifalar belgilash, bolalarga ta'sir ko'rsatish va ularni faoliyatiga raxbarlik qilishning rejalashtirish ko'nikmasi, o'quvchilar xulqi va faoliyatini boshqarish ko'nikmasi, o'zini xayolan tarbiyalanuvchi o'miga

qo'ya olish ko'nikmasi, to'g'ri talablar qo'ya bilish, til topa olish, to'g'ri muomala qila olish ko'nikmasi,

pedagogik jarayonni to'g'ri uyushtirish soxasida -qo'yilgan pedagogik vazifani asosli ravishda o'zgartira olish ko'nikmasi, tashqi ta'simlarga moslashish, sharoitga qarab harakat vositalarini tanlash, qayta o'zgartira olish malakasi, o'quvchilarni o'zaro munosabatlarni raxbarlik qila olish, o'zaro nizolarni yo'qota bilish, o'quvchilar o'rtasida do'stlik va o'rtoqlikni rivojlantiroa olish ko'rikmasi, o'quvchilar ishi ustidan joriy nazorat qila oshish

yakuniy hisob, olingan natijalarni baholash, pedagogik vazifalarni belgilash soxasida – olingan natijalarni maqsadga taqqoslabtaxlil qila olish ko'nikmasi, ta'lim-tarbiya usullarni o'qllashning sharoitlarini aniqlay bilish ko'nikmasi pedagogik faoliyatning yutuq va kamchiliklarini taxlil qila bilish ko'ni kmasi, o'z tajribasi bilanpedagogik nazariya o'rtasidagi bog'lanishni aniqlash bilim , *ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi kerak.*

O'qituvchining maxsus tayyorgarlik xajmi va mazmuniga – ixtisoga doir bilimlarni bilishi, ilmiy bilimlarni, metodologik va metodlarni bilishi, fanning nazariy va am aliy ahamiyatinizirgi darajasi, qonuniyatlar tarixi, rivojlanish bosqichlari, yo'nalishlarini lilishi, maktab kursi fan muqaddimasi ekanligini tushunishi, bilimlarni mustaqil to'ldira olish uchun bibliografik ma'lumotnomalar kotologlardan foydalani olish kiradi.

O'qituvchining ixtisosga doir metodik tayyorgarlik mazmuniga- fanlarni o'qitushning maqsad va vazifalarini bilishi, DTS, maktab dasturi, darsliklar, o'quv qo'llanmalarini puxta bilishi, kursning qaysi mavzulari qiyinchilik tug'dirishini tez payqash, o'qitish metodikasini nazariy asoslarini bilishi, ko'rgazmali qurollar tayyorlashni bilim, ko'nikma va malakalarni kiradi.

O'qituvchi jamiyatning yosh avlod ta'lim - tarbiyasiga qo'yilgan ijtimoiy buyurtmasining asosiy ijrochisidir. SHuning uchun ham mamlakatimizning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov «Tarbiyachi - ustoz bo'lish uchun, boshqalarning aql-idrokini o'stirish, ma'rifiy ziyosidan bahramand qilish, haqiqiy fuqaro etib yetishtirish uchun, eng avvalo, tarbiyachining o'zi aynan shunday vuksak talablarga javob berishi, ana shunday buyuk fazilatlariga ega bo'lishi kerak» - degan edi. Darhaqiqat, o'qituvchilik kasbida chuqur bilimdonlik, zukkolik o'z kasb mahoratini muntazam takomillshitirib borishga ishtiyok bo'lmas ekan, u yaxshi ustoz-o'qituvchi bo'la olinaydi. Zero, davlatimizning istiqboli, Prezidentimiz tomonidan olg'a surilayotgan barcha islohotlarning ijobiy yechimi ana shu kun minglik ziyokorlik ishining samarasiga bog'liq. SHuning uchun ham bugungi mustaqillik sharoitida o'qituvchilik kasbiga bo'lgan e'tibor va ehtiyoj har qachongiga nisbatan ortib bormoqda

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ko'tarilgan barcha tadbiri amallar respublikamizning aqliy salohiyatini oshirishga qaratilgan ekan. Bu eng avvalo o'qituvchi kasbiga bo'lgan munosabatni tub jihatdan o'zgartirishni, uning ma'naviy - axloqiy va aqliy kamolotini oshirish lozimligini taqozo etadi. Pedagog faoliyati bilan shug'ullanadigan o'qituvchi shaxsiga Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida bir qancha talablar qo'yilgan bo'lib, har bir pedagog-xodim mazkur talablarni so'zsiz bajarishlari lozim. Bular:

- o'qituvchi pedagogik faoliyatga qobiliyati bor, ijodkor, ishbilarmon, bolajon bo'lmog'i;

- milliy va umuminsoniy qadriyatlarni yaxshi anglaydigan va mukammal egallagan. diniy va dunyoviy bilimlardan ogoh. ma'naviy - axloqiy barkamol inson sifatida obro' - e'tiborga ega bo'lmog'i;

- imon-e'tiqodi butun, har qanday o'qimlarga va ko'rinishlarga o'zining qat'iy munosabatini bildiradi. eng muhimi O'zbekistonning mustaqil davlat sifatida maydonga chiqishiga ishonadigan va boshqalarni ham ishonтира oladigan bo'lishi;

- o'qituvchi vatanparvarlik g'oyasi bilan sug'orilgan bo'lmog'i va o'z tarbiyalanuvchilarini ham ana shu yo'lda fidokorlikka undamog'i;

- pedagogik kasbiga doir bilimlarni, ya'ni psixologik, pedagogik malaka va mahoratni, ilmiy-nazariy va amaliy bilimlarni puxta egallagan bo'lishi;

- bolalarni sevish, ular ruhiyatini yaxshi bilishi, shuningdek, ularning yosh va individual xususiyatini hisobga olgan holda ular bilan muomalaga kirisha olishi;

- o'qituvchi erkin va ijodiy fikrlay olishi, talabchan, adolatli bo'lmog'i;

- o'qituvchi odobli, iboli va hayo sohibi bo'lish bilan birga, o'z tarbiyalanuvchilarini ham ana shunday sifatlar bilan qurollantirishga harakat qilmog'i;

- o'qituvchi o'z so'ziga va qilayotgan ishiga bolalarni ishonтира oladigan, obro'-e'tiborli shaxs bo'lmog'i;

- o'qituvchi o'tkir suhandon, mantiqiy fikrlovchi, o'quvchilarga berilishi lozim bo'lgan ma'lumotni izchil va ketma - ketlik prinsipi asosida yetkazishi;

- o'qituvchi madaniyatli, estetik didli bo'lishi bilan o'zining tarbiyalanuvchilari uchun ibrat bo'lib qolmog'i kerak.

Har bir pedagog xodim o'z faoliyatiga tanqidiy yondashib, o'z ustida muntazam ravishda tinmay aqliy faoliyat bilan shug'ullanib borishi, o'z kasbining mohir ustasi bo'lishi bilan birga boshqa fanlarning ham mazmun-mohiyatini chuqur bilishi talab qilinmoqda. Agar o'qituvchi ana shunday sifatlarini o'zida mujassam qila olsa, u kadrlar tayyorlash milliy modelida qayd etilgan o'qituvchi tamoyiliga qo'yilgan talablarga to'liq javob bera oladi deb hisoblash mumkin.

34.3. Pedagogik mahorat tushunchasi

Mutaxassislarning pedagogik mahorat tushunchasi mohiyatini ochib berishga oid turlicha qarashlarni kuzatishimiz mumkin. "Pedagogik ensiklopediya" da "pedagogik mahorat bu - o'z kasbining moxir ustasi bo'lgan, yuksak darajada madaniyatli, o'z fanini chuqur biladigan, turdosh fanlar sozasini yaxshi taxlil qila oladigan, tarbiyalash va o'qitish usullarni mukammal egallagan mutaxassis" deb ta'rif berilgan.

Taniqli ukrain pedagogi Zyazyunning fikricha, Pedagogik mahorat - bu o'qituvchining yuqori darajadagi kasbiy tayyorgarligini ta'minlovchi kasbiy va shaxsiy sifatleri yig'indisidir.

Pedagogik mahorat - bu o'qituvchi nutqining ravon va ta'sirchan o'tilayotgan mavzuga o'quvchi diqqatini tortib oladigan, mavzuga mos ko'rgazmalar - ijod

qilib va undan unumli foydalana oladigan, har qanday sharoitda ham o'quvchi qalbiga yo'l topa oladigan, har bir dars bolaning qiziqish va faoliyatini oshira oladigan kishini tushunamiz.

Pedagogik mahorat - izlanish, ijodiy mehnat mahsuli. Pedagogik mahorat hamma o'qituvchilar uchun bir qolipdagi ish uslubi emas, balki u har bir o'qituvchi o'z ustida ishlashi, ijodiy mehnati jarayonida yuzaga keladigan jarayondir. Pedagogik mahorat bir qator komponentlardan tarkib topadi. U pedagogika va psixologiya bo'yicha ilmiy bilimlarni, ya'ni kasbiy bilimlar, kasbiy qobiliyat, pedagogik etika va pedagogik texnikani o'z ichiga oladi. Pedagogik mahorat - bu pedagogik (o'quv tarbiyaviy) jarayonining barcha shakllarini eng qulay va samarali holatda tashkil etish, ularni shaxs kamoloti maqsadlari tomon yo'llantirish, tarbiyalanuvchilarda dunyoqarash, qobiliyatni shakllantirish va ularda jamiyat uchun zarur bo'lgan faoliyatga moyillik uyg'otishdir.

Pedagogik mahoratning asosiy negizi bu - kasbga oid bilimlarni puxta o'zlashtirishdan iboratdir. O'qituvchi o'quv yurtidayoq ilmiy bilimlar tizimini puxta egallab olishi kerak. Pedagogik mahoratni egallashda psixologiya va pedagogika faniga doir bilimlar katta rol o'ynaydi. Ilmiy psixologik va pedagogik bilimlar sistemasining mavjudligi o'qituvchiga faqat o'z sinfini hamda ayrim o'quvchilarni o'rganish va ularning to'g'ri fe'l-atvollarini tushinishiga emas, balki bolalar jamoasi va uning har bir a'zosini rivojlanish istiqbolini ham belgilash unkonini beradi.

Muvaffaqiyatli ishlash uchun har bir o'qituvchi pedagogik mahoratga ega bo'lishi zarur. Pedagogik mahorat egasi oz mehnat sarf qilib, katta natijaga erishadi. Ijodkorlik hamisha uning hamkori bo'ladi. Pedagogik ishga qobiliyatli, iste'dodli kishidagina pedagogik mahorat bo'lishi mumkin. Qobiliyat esa faoliyat jarayonida paydo bo'ladi va rivojlanadi. Qobiliyatli va mahoratli o'qituvchi oldida esa hozirgi kun talabi asosida vatanimiz ravnaqi uchun xizmat qila oladigan, buyuk vatanni dildan sevadigan va bu yo'lda o'z jonini ham ayamaydigan yoshlarni vatanga mehr - muhabbat ruhida tarbiyalash vazifasi turadi.

Uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish muammolari to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A. Karimov: «O'qituvchi va murabbiylarning hayotiy talablarini qondirish, ularni rag'batlantirish, ularning o'z ishi, kasbidan mamnun bo'lishini ta'minlashimiz lozim va ... bu masalani yechmasdan turib, kelajak avlod tarbiyasi to'g'risida gapirishning o'zi mutlaqo nomaqbuldir», - deb ta'kidlagan edi.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» o'qituvchilar oldiga juda katta va mas'uliyatli vazifalar yukladi. Bu esa o'qituvchilardan o'z ustilarida muntazam tinmay ishlashlari va yosh avlodni o'z Vatanga, xalqiga munosib insonlar qilib tarbiyalashni talab etadi.

O'qituvchilik kasbi ulug' va sharaflil, murakkab, o'z o'mida mas'uliyatli kasblardan birlidir. Dunyodagi barcha insonlarni komil bo'lib yetishishida o'qituvchi sababchi bo'ladi. Barcha joylardagi hamma kasb-hunar, ilmiy, olimu fuzalolar o'qituvchining mehnati samarasidir. O'qituvchi mehnatini biror narsa bilan taqqoslab bo'lmaydi. O'qituvchilik kasbini egallashga intilayotgan har bir inson o'zida avvalo iroda, sabr-matонат, pedagogik mahoratni, o'qituvchilik ixtisosligiga

xos bilim, malaka, ko'nikmalarni egallashi lozimdir. Bugungi kun o'qituvchisi: dunyoqarashi keng, hamma voqea, hodisa ustida erkin fikr yurita olishi; o'zi o'qitadigan fanni chuqur egallagan bo'lishi; hozirgi zamon fan-texnika talabiga muvofiq yaxshi dars berishi va uning har daqiqasidan umumli foydalanishi; pedagogika, psixologiya hamda o'z fanining metodikasini yaxshi bilishi zarur.

Va nihovat muallimda o'qituvchiga xos bo'lgan qobiliyatlar mujassam etgan bo'lishi lozim.

Pedagogik mahoratga pedagogik bilimlar, fahm-farosat bilan bir qatorda pedagogik texnika sohasidagi malakalar ham kiradi, ular tarbiyaga ozroq kuch sarflab ko'proq natijalarga erishish imkonini beradi.

Pedagogik mahorat o'ziga bolalar haqidagi ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va uning mazmuni, metodlari haqidagi keng bilimlarni qamrab oladi. Bu bilimlar umumiy pedagogik madaniyatni tashkil etadi, o'qituvchi-tarbiyachi bu madaniyatni egallamas ekan hech vaqt o'z kasbining chinakam ustasi bo'la olmaydi.

Zamonaviy o'qituvchiga birgina umumiy madaniyatning o'zi kifoya qilmaydi. Bolalarni kuzatish, ularni o'sishidagi muhim narsalarni jamiyatda vujudga kelgan asosiy g'oyalarni taqqoslash, ularni rivojlanish yo'llari va usullarini aniqlash turli vositalar, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish usullarining o'zaro bir-biriga o'tishi dialektikasini chuqur tahlil qilish, pedagogik izlanishlar va yutuqlarni ilmiy jihatdan bir sistemaga solish malakalari zarur bo'ladi.

34.4. Pedagogik mahoratning asosiy tarkibiy qismlari

Taniqli olim Zyazyunung fikricha, o'qituvchi pedagogik mahoratining tarkibiy qismlariga a) o'qituvchi faoliyatining insonparvarlik yo'nalishi; (qiziqishlari, kasbga bo'lgan ijobiy munosabati, ideali);

b) kasbiy bilimlar (ixtisosga doir bilimlar mutaxassislik fanini, uni o'qitish metodikasini pedagogika va psixologiyani chuqur bilish);

d) pedagogik qobiliyat (bilish, tushuntira olish, kuzatuvchanlik, obro' orttira olish, to'g'ri muomala qila olish, kelajakni ko'ra bilish, diqqatni taqsimlay olish qobiliyatlari va pedagogik nazokat odob-axloq); pedagogik texnika (nutq texnikasi, mimika, pantamimika, o'z hissiy holatini boshqarishi) kiradi.

Demak, pedagogik mahorat yaxlit sistema sifatida quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: pedagog shaxsining insonparvarlik yo'nalishiga ega bo'lishi, uning qiziqishlari, qadriyat yo'nalishlari va idealarning oliy maqsadga-barkamol avlod tarbiyalab yetishtirishga yo'naltirilganligi, mutaxassislik fanlari, o'qitish metodikasi, pedagogika va psixologiyadan professional bilimlarga ega bo'lishi; pedagogik qobiliyatga ega bo'lishi (muloqotga moyillik, ishchanlik, kelajakni tasavvur qila olish, kasbiy musaqillik, sensor axborotlarni tezlik bilan anglash («yuzidan uqib olish»)); pedagogik texnikani egallashi, ya'ni o'z-o'zini boshqara olishi, o'zaro ta'sir etish va hamkorlikda ishlashni uddalashi.

Pedagog shaxsining insonparvarlik yo'nalishiga ega bo'lishi - o'quvchi shaxsini hurmat qilish, ayrim masalalarni-o'zini o'quvchi o'mida sezib hal etishi, adolatli bo'lishi, pedagogik faoliyatni pirovard maqsadga - barkamol avlod tarbiyalashga yo'naltirishda ifodalanadi. O'z davrida Ibn Sino ham o'qituvchi

shaxsida halollik, adolat, poklik, mehnatsevarlik, fidoyilik, odamgarchilik kabi xislatlarni qadrlagan.

Professional bilimlar pedagogik mahoratning tub asosini tashkil qiladi. Pedagog bilimi, bir tomondan u dars berayotgan fan to'g'risidagi bilimiga, ikkinchi tomondan esa, uni o'zlashtirayotgan o'quvchilarga qaratilgan bo'ladi. O'zi dars berayotgan fanni, o'ni o'qitish metodikasi, pedagogika va psixologiya fanlaridan puxta bilimga ega bo'lishi, pedagog professional bilimlari mazmunini tashkil etadi. Professional-pedagogik bilimlarni o'ziga xosligi, ularni kompleks harakterga ega bo'lishi va har bir o'quvchida shaxsiy «ohang» kasb etishidir.

Professional bilimlar negizida pedagog xatti-harakati va xulqining asosini tashkil etuvchi pedagogik prinsiplar va qoidalar vujudga keladi. Bu prinsip va qoidalarni har bir pedagog o'z tajribasiga tayangan holda yaratadi, lekin ularning qonuniyatlarini ilmiy bilim yordamida aniqlaydi. Bu bilimlar doimo takomillashib borishi zarur.

Pedagogik qobiliyatlar, pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli o'tishiga ta'sir ko'rsatuvchi psixik jarayonlarni qanday kechayotganligini bildiradi. Bir qator olimlarning ilmiy tadqiqot natijalariga asoslangan holda, oltita yetakchi pedagogik qobiliyatlarni ajratib ko'rsatish mumkin: kommunikativlik (muloqotga moyillik), odamlarga nisbatan ko'ngilchan bo'lish, mehnobonlik, aql bilan sezish-kasbiy ziyraklik, boshqalarga hamdard bo'lish, ichki (hissiy) sezgirlik; shaxsning harakatchanligi, irodaviy ta'sir ko'rsatish va mantiqiy ishontirish qobiliyatlari; hissiy barqarorlik-o'zini boshqara olishi; kelajakni eng maqbul holda bashorat qilish; kasbiy mustaqillik-ijod qilishi qobiliyati.

Pedagogik texnika ikki turdagi ko'nikmalar guruhidan iborat. Birinchisi - o'zini-o'zi (gavdasi, hissiy holati va nutq texnikasi) boshqara olishi, ikkinchisi - pedagogik vazifalarni hal etishda o'quvchilar bilan hamkorlikda ishlashni uddalash (didaktik, tashkilotchilik malakalari, bevosita ta'sir etish texnikasi), bu haqda keyingi ma'ruzalarda batafsil to'xtalamiz.

Pedagogik mahoratning biz yuqorida ko'rib chiqqan tarkibiy qismlari, uni tuzilmaviy harakterga ega ekanligini anglatadi. Pedagogik mahoratning yaqqol tashqi belgilari: faoliyatni aniq maqsadga yo'naltirilganligi, vazminlik, mulohaza yuritish, o'quvchilar bilimini puxtaligi, eng maqbul vositalarni tanlanganligi, o'z faoliyatiga ijodiy yondashuvidir.

Ayrim pedagoglar kasbiy mahorat sirlarini egallash uchun avvalo ta'lim va tarbiya metodlarini takomillashtirishga intiladilar. Bu tabiiy hol, chunki aynan metodlar yordamida pedagog o'z o'quvchilarini turli o'quv faoliyatiga jalb qiladi. Bu bilan o'quvchilarda muayyan bilim, ko'nikma, malakalar va xulqni shakllantiradi.

Lekin aynan bir xil metod bilan ishlagan turli o'qituvchilarning erishgan natijalari ham turlicha bo'lishi aniqlangan. Buni sinovdan o'tkazilgan metodlardan foydalangan bo'lsalarda, ayrim o'qituvchilar, hatto eng quyi darajadagi o'zlashtirish natijalariga ham erisha olmaganlar. Bunday o'qituvchilar: «Hamma narsani metodik tavsia asosida bajardim, nima uchun bolalar mavqiy solish, qaysarlikni va dars tayyorlamaslikni yana davom ettirmoqdalar?» - deb hayron bo'ladilar. Gap

shundaki, o'quvchilarni bilim olishga qiziqtirishda o'qituvchi tomonidan tanlangan metodlar, usullar va topshiriqlardan boshqa sabablar ham ta'sir ko'rsatadi.

Demak, pedagogik mahorat tushunchasi bir-biri bilan bog'liq bo'lgan bir necha qismlardan tashkil topar ekan. Bunday holda pedagogik mahoratni «pedagogik sistema» sifatida tasavvur qilinadi va u quyidagicha ta'riflanadi: «Pedagogik mahorat shaxs sifatleri majmui va o'qituvchi tomonidan professional-pedagogik faoliyatni mustaqil ravishda yuqori saviyada tashkil etishni ta'minlash bo'lib, u pedagogni o'z faoliyati mohirligining eng yuqori cho'qqisiga erishganligini bildiradi». Bundan ko'rinib turibdiki, pedagogik mahorat - bu pedagogik faoliyatning barcha turlarini eng qulay va samarali holatda tashkil etish, ularni shaxs kamoloti va har tomonlama rivojlantirish maqsadlariga yo'naltirish, o'quvchilarda dunyoqarash qobiliyatni shakllantirish va ularda ijtimoiy zarur mehnatga moyillik uyg'otishdir.

34.5. Pedagogik fikrlar taraqqiyotida o'qituvchi mahorati masalalari

SHarq mutafakkirlari va allomalarning ijodiy meroslarida o'qituvchi tarbiyachi mahorati, ustozlik-shogirdlik shartlariga ham alohida o'rin berilgan. Quyida shulardan misollar keltiramiz: Masalan, mashhur faylasuf va mutafakkir, qomusiy ilmlar bilimdoni Abu Nosr Forobiy (873-930) ustoz - o'qituvchiga shunday talab qo'yadi: «Ustoz-shogirdlariga qattiq zulm ham, haddan tashqari ko'ngilchanlik ham qilmasligi lozim. Chunki ortiqcha zulm shogirda ustozga nisbatan nafrat uyg'otadi, bordiyu ustoz juda ham yumshoq bo'lsa, shogird uni mensimay qo'yadi va u beradigan bilimdan sovib ham qoladi. U o'qituvchiga bolalarning fe'l-atvoriga qarab tarbiya jarayonida «qattiq» yoki «yumshoq» usullardan foydalanishni maslahat beradi:

1. Tarbiyalanuvchilar o'qish o'rganishga moyil bo'lsa, ta'lim-tarbiya, jarayonida yumshoq usul qo'llaniladi.

2. Tarbiyalanuvchilar o'zboshimcha, itoatsiz bo'lsa, qattiq usul (majburlov) qo'llaniladi.

U o'qituvchining tarbiya usullarini hukumat (davlat) va shohlarning xalqni tarbiyalash va boshqarishdagi usullariga o'xshatadi, ularni qiyoslaydi. Har ikkalasida ham yumshoqlik va majburlov zarurligini o'qitiradi.

Mashhur olim Abu Rayhon Beruniy (973-1048) o'qituvchiga o'quvchini zenktirmaslikni, o'tiladigan mavzuni qiziqarli va ko'rgazmali holda bo'lishi lozimligini maslahat beradi. Beruniy Hindiston asarida esa olimlarni, ilm aqlarini hurmat qilishga chaqiradi. Bularni kishilar aymiqsa, hukumdorlar hurmat qilsa, ularga o'z o'rnida baho bersa, ilmlar ko'payadi, demak, jamiyat iqqbolli bo'ladi. gullab-yashnaydi.

Buyuk alloma Ibn Sino (980-1037) talabaga bilim berish o'qituvchining mas'uliyatli burchi ekanligini ta'kidlaydi. U o'qituvchining qanday bo'lish kerakligi haqida fikr yuritir ekan, ularga shunday yo'l -yo'riqlar beradi: bolalar bilan muomalada bosiq va jiddiy bo'lish; berilayotgan bilimning talabalar qanday o'zlashtirib olayotganiga e'tibor berish; ta'limga turli metod va shakllardan foydalanish; talabanning xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarni

bilishi; berilayotgan bilimlarning eng muhimini ajrata bera olish; bilimlarni talabalarga tushunarli, uning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berilishi; har bir soʻzning bolalar hissiyatini uygotish darajasida boʻlishiga erishishi lozim.

XI asrda yashab oʻtgan allomalardan biri YUSuf Xos Hojib (XI asr) ham oʻz ijodida ilm ahllarini, yaʼni ustozlarni ulugʻlaydi. «Qutadgʻu bilig» asarida ilm ahli ulugʻlanadi.

Az - Zamaxshariy (1075-1143) «Nozik iboralar» risolasida ilmu fan ahllari, oʻqituvchilarga nisbatan hurmat eʼtiborning pasayib ketganidan kuyinib yozadi: «oʻtgan zamonlarda ilmu fazilat sohiblari podshohlardan oʻz ogʻirliklariga barobar oltin hadya olardilar, asta-sekin zamonlar oʻtishi bilan ularning qiymatlari kamayib, itlaru olmaxonlar ulardan afzal boʻlib qoldi, yaʼni nodonlar oltinlardan ortiq koʻriladigan boʻlib qoldi».

Muslihiddin Saʼdiy SHeroziy (SHavx Saʼdiy) (1184-1204) taʼlim-tarbiyada muallimlarning talabchanligi bilim va tarbiya berishda qatiqqoʻl boʻlishning tarafdori boʻladi.

«Gulistonda» yana ustoz-shogird munosabatiga oid hikoyat keltiriladi: «Bir odam kurash sanʼatiga zoʻr mahorat qozondi, u 360 xiyalani bilar va har kuni bir hiylani ishlatib koʻrishar edi. SHogirdlardan biriga 359 xiyalani oʻrgatdi. Ammo bir hiylani oʻrgatmadi: Ustozning hurmatini bilmagan shogird, ustozidan ham ustunligini aytib maqtanadi. Bu soʻz podshoga voqmaydi. Ulami kurash tushmoqlarini buyuradi. Ustoz oxirgi hiylasini ishlatib shogirdini yengadi. Ustoz hurmatini bilmagan shogird esa haloyiq va podshoning nafratiga uchraydi.

Burxoniddin Zarnudjiy «oʻqituvchiga taʼlim yoʻlida qoʻllanma» Burxoniddin kitobining bir boʻlimi «oʻqituvchi, oʻrtoq fanlarni tanlash haqida» deb nomlanadi. Unda oʻqituvchiga quyidagicha maslahat beradi:

«Oʻqituvchi tanlaganingizda eng avvalo bilimliligiga, eng olijanobiga va yana keksasiga toʻxtamoq kerak ... Muallim, ustozga nisbatan hurmatda boʻlish ifodasi shuki shogird muallimdan oldin yurmasligi, uning oʻrniga borib oʻtirmasligi lozim».

Sohibqiron Amir Temur ham oʻz hukmronligi davrida ilm ahllari, muallim, mudarisslarga hurmat bilan qaravdi. Kishilarga mansab berishda ham ularning ilmlarini hisobga oladi. Jamiyatning rivojida ularning oʻrnini muhim deb biladi. Koʻplab maktab, madrasalar ochadi, ularga muallim va mudarrislar tayin etadi. oʻzining ustozlarini ham juda qadrlaydi.

Alisher Navoiy ijodida ham muallimlar ishi ularga munosabat masalalariga keng oʻrin beriladi. U yoshlarga chuqur bilim berish uchun muallimlar mudarrislar hamda ustoz murabbiylarning oʻzlari ham bilimli va tarbiyali boʻlishi zarurligini uqtiradi. Nodon, mutaassib, johil domlarni tanqid etadi va oʻqituvchi maʼlumotli oʻqitish yoʻllarini biladigan muallim boʻlishi zarur deydi. Masalan: «Mahbub-ul-qulub» asarida maktabdorlar haqida fikr yuritarkan, ularning oʻta qattiqqul, johil va taʼmagirlarini: «Maktab tutuvchi gunohsiz yosh bolalarni jafo qiluvchidir», - deb yozadi. SHu bilan birga oʻqituvchining mehnatining ogʻirligini xolisona baholaydi.

Navoiy oʻqituvchining hurmatini qanchalik joyiga qoʻysa, unga boʻlgan talabni ham shunchalik oshiradi. Ayniqsa, madrasa mudarrislarining bilimli, fozil va dono, kamtar, maʼnaviy pok boʻlishlarini talab etadi. «Mudarris kerakki gʻarazi

mansab bo'lmasa va bilmas ilmni aytishga urunmasa manmanlik uchun dars berishga havas ko'rgazmasa, yaramasliklardan qo'rqsa va nopoklikdan qochsa».

Husayin Voiz Koshifiy (1440-1505), (Xuroson) «Futuvatnomai Sultoniy yoxud javomardlik tariqati» asarida ustoz-shogird munosabatlariga keng to'xtaladi. «Agar shogirdlikning binosi nimaning ustiga quriladi deb so'rasalar, irodad ustiga deb javob bergin. Agar irodad nima deb so'rasalar, samo va toatdir deb aytgin. Agar samo (eshitish) va toat nimadir deb so'rasalar nimani ustoz aytsa, uni jon qulog'i bilan eshitish, chin ko'ngli bilan qabul qilish va vujud a'zolari orqali amalda ado etishdir deb ayt.

U shogirdlikning 8 ta odobini ko'rsatadi: Birinchi bo'lib salom berish. Ustozning oldida oz gapirish. Boshni oldinga egib turish Ko'zni har tomonga yugurtimaslik. Gap so'ramoqchi bo'lsa oldin ustozdan ijozat olish. Ustoz javobiga e'tiroz bildirmaslik. Ustoz oldida boshqalarni g'iybat qilmaslik. O'tirib turishda hurmat saqlash.

Koshifiy ustozlik shartlarini ham ko'rsatadi. «Bilgilkim hech bir ish ustozsiz amalga oshmagay va kimki ustozsiz bir ishni qilur ersa, ul ishning asosi mustahkam bo'lmagan».

Kimki ustozsiz ish boshlagan bo'lsa, ishi va amali samara qozonmaydi, ustozning etagini tutib shod bo'l, bir muddat ustozga xizmat qilginda, so'ngra o'zing ustoz bo'l ... Agar komil inson kim deb so'rasalar, u pok mazxabli, o'z aybini ko'radigan dono va tamizli kishidir deb aytgil. Unda hasad, gina va baxillikdan asar bo'lmaydi.

Qadimgi Yunoniston va Rim faylasuflari - Suqrot, Pluton (Aflotun), Demosfen, Aristotel (Arastu), Siseron va Kvintillianlarning murabbiy shaxsi, faoliyatiga yondashuvlari. O'qituvchi tomonidan notiqlik san'atining egallanishi - qadimgi Yunoniston va Rim davlatlarida shaxs tarbiyasini tashkil etishga qo'yilgan muhim talab ekanligi manbalarda yaqqol ko'zga tashlanadi. YA.A.Komenskiy, A.Disterveg, K.D.Ushinskiy va boshqalarining o'qituvchi shaxsi, uning kasbiy tayyorgarligi, pedagogik mahorati borasidagi qarashlari muhim ahamiyatga ega. M.F.Kvintilian (Notiqni tarbiyalash asarida) O'qituvchining bilim saviyasi yuqori bo'lishi, bolalarni sevishi, ularni kuzatib o'rganishi, axloqi yuksak darajada bo'lishi, maqtoq va jazolashni me'yoringinibilishi, tarbiyalanuvchiga o'mak bo'lishi kerak" ded ta'kidlaydi.

YA.A.Komenskiy " O'qituvchi o'z bilimlari bilan o'quvchini ongigiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi, o'quvchi bilmaganini uchun uni jazolamasligi, har bir o'quvchini yaxshi xislatlarini topib tarbiyalashi kerak" deb ta'kidlagan.

A.V.Disterveg " O'qituvchi o'z fanini yaxshi bilgan, o'z kasbini sevgan holda ishchan, talabchan, o'z fikrini o'quvchi ongigiga singdira oladigan, o'z ustida doimiy ishlashi, talabchan, odil bo'lishi kerak" deb ta'riflasi.

K.D.Ushinskiy " O'qituvchi talabchan, oq ko'ngil, adolatli, faol ishtirokchi, faol jamoatchi, vatanparvar, baynalminal bo'lishi kerak" deb ta'kidlaydi.

Nazorat uchun savollar

1. Pedagogik faoliyat va uning xususiyatlarini izohlang.

2. Pedagog faoliyati bilan shug'ullanuvchi o'qituvchi shaxsiga qanday talaflar qo'yiladi?
3. Pedagogik mahoratning tarkibiy qismlarini izohlang.
4. Pedagogik mahorat nima? Uning mazmun- mohiyatini qisqacha yoritng.
5. Pedagogik fikrlar taraqqiyotidagi o'qituvchining mahorati masalalarini qisqacha tushuntiring.
6. SHarq mutafakkirlarining pedagogik faoliyati haqida so'zlab bering.
7. Pedagogik fikr tarixi haqida SHarq mutafakkirlarining g'oyalarini izohlang.

35. O'QITUVCHI FAOLIYATIDA PEDAGOGIK QOBILIYAT

35.1. Qobiliyat va pedagogik qobiliyat tushunchasi.

35.2. Pedagogik qobiliyatning turlari va ularning tavsifi.

35.3. O'qituvchining kommunikativ madaniyati.

35.4. Pedagogik boshqaruv mahorati.

32.1. Qobiliyat va pedagogik qobiliyat tushunchasi

Qobiliyat - shaxsning individual psixik xususiyati bo'lib, muayyan faoliyat yuzasidan layoqati va ishini muvaffaqiyatli amalga oshirish subyektiv shart-sharoitini ifodalovchi individual psixologik sifatlar yig'indisidir. Qobiliyat insonni hayotiy faoliyati davomida shakllanadi. Tanqili olim Govard Gardner qobiliyatlarni intellektlar to'plami deb ta'riflagan. Bizga ma'lumki, bilim bu ilmiy mutoalalar natijasidir. Qobiliyat esa insonning psixologik va fiziologik tuzilishiga xos bo'lgan xususiyatdir. Qobiliyat bilim olish uchun shart-sharoit yaratadi. Tug'ma qobiliyat zehn deb atalsada, iqtidor, iste'dod, donolik-insonning ijodiy faoliyati jarayonida erishiladigan qobiliyatlarning rivojlanish bosqichlari hisoblanadi. Qobiliyatlar shaxsning faqatgina ma'lum faoliyatidagina mavjud bo'lgan sifatlaridir.

Ijodkorlik bu sifat jihatidan yangi, original, takrorlanmas biror yangilikni paydo qiluvchi faoliyatdir. Ijodkorlik mahsuldor, evristik, kreativ turlarga bo'linadi. Mahsuldor ijodkorlikda har qanday muammo muvaffaqiyatli hal qilinadi. evristik ijodkorlik jamiyatda ro'y berayotgan kasbiy faoliyatga oid yangiliklarni o'zlashtirishni anglatadi. Kreyativ ijodkorlik yangi nazariyalarni yaratadi. Qobiliyat umumiy (aqliy faollik, tanqidiylik, tahlil qilish, diqqatni jamlash, e'ti-borlilik), maxsus (tashkilotchilik, loyihalashtirish, matematik, ijodiy, badiiy, musiqiy) turlarga bo'linadi. Qobiliyatning yuqori darajasi talant deb yuritiladi. Talant - biror faoliyatni muvaffaqiyatli mustaqil va mukammal bajarishni ta'min-laydigan noyob qobiliyatlar birkmasidir.

Pedagogik qobiliyatning sifatleri: o'z kasbiga muhabbat, o'quvchilarni seva olish; mutaxassislik fanini mukammal bilishi, unga qiziqishi; pedagogik odobga ega bolishi; bolalar jamoasiga singib keta olishi; o'z mehnatiga ijodiy yondashishi; javobgarlikni his qilishi; tarbiyaviy bilimlarni egallaganligidan iborat.

Odanning qobiliyatlarini bilim va ko'nikmalarni egallash uchun faqat imkoniyat hisoblanadi. Bu bilim va ko'nikmalar egallanadimi yoki yo'qmi,

bularning hammasi, juda ko'p sharoitlarga bog'liqdir. Bolada namoyon bo'lgan musiqa qobiliyati uning musiqachi bo'lishiga kafil bo'la olmaydi. Bolaning musiqachi bo'lishi unga maxsus ta'lim berilishi, qat'iylik, salomatligining yaxshi bo'lishi, musiqa asbobi, notalar va boshqa sharoitlar bo'lishi kerak. Bularsiz qobiliyat taraqqiy etmay, so'lib ketishi ham mumkin. O'quvchida hali zaruriy ko'nikma va malakalar sistemasi hamda mustahkam bilimlar va tarkib topgan ish uslublari yo'qligiga asoslanib, jiddiy tekshirmay shoshilinch ravishda unda qobiliyatlar yo'q deb xulosa chiqarish pedagogning jiddiy xatosi bo'ladi. Bolalik paytida ma'lum qobiliyatlarning atrofdagilar tomonidan tan olinmaganligi, keyinchalik shu qobiliyat tufayli shon-shuhrat topgan odamlar ko'p.

Qobiliyatlar faoliyatining muhim komponentlari bo'lishi bilim, malaka, ko'nikmalar bilan aynan bir narsa bo'lmasa-da, ular bir-birlari bilan bog'liqdir. Qobiliyatlar bilim, malaka, ko'nikmalarning o'zida ko'rinmaydi, balki ularni egallash dinamikasida namoyon bo'ladi, va ni boshqacha aytganda mazkur faoliyat uchun muhim bo'lgan bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish jarayoni turli sharoitlarda qanchalik tez va chuqur, yengil va mustahkam amalga oshirishingizda namoyon bo'ladi. Xuddi shu yerda yuzaga chiqadigan fikrlar bizga qobiliyatlar haqida gapirish huquqini beradi.

Demak, qobiliyatlar shaxsning (qobiliyatini) faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish sharti hisoblangan bilim, ko'nikma hamda malakalarni egallash dinamikasida yuzaga chiqadigan farqlarda namoyon bo'ladigan individual-psixologik xususiyatdir. Agar shaxsning ma'lum sifatleri yig'indisi odamning pedagogik jihatdan asoslab berilgan vaqt oralig'ida egallagan faoliyati talablarga javob bersa, bu narsa bizga mazkur faoliyatga nisbatan qobiliyati bor deb xulosa chiqarishga asos bo'ladi. Agar boshqa bir odat bo'lgan shunday holatlarda faoliyat talablariga javob bera olmasa, unday paytda bu unga tegishli psixologik sifatlar boshqacha aytganda qobiliyatlar yo'q deb faraz qilishga asos bo'ladi. Bunday odam kerakli ko'nikma va bilimlarni umumiy egallab olmaydi degan xulosaga borilmaydi. Bularni egallash jarayoni cho'zilib ketadi, pedagogdan ko'p kuch va vaqt sarflashni talab qiladi.

Qobiliyatlar taraqqiyotining yuksak bosqichiga iste'dod deb ataladi. Iste'dod deb odamga qandaydir murakkab mehnat faoliyatini muvaffaqiyatli mustaqil va original tarzda bajarish imkonini beradigan qobiliyatlar uyushmasiga aytiladi. Iste'dod mahoratning dastlabki sharti bo'lib, lekin mahoratning o'zidan ancha uzoqdir. Mohir usta bo'linoq uchun juda ko'p ishlash kerak. Iste'dod mehnatdan ozod qilmaydi, balki katta, ijodiy va zo'r mehnatni taqozo qiladi. Iste'dodli kishilar shubhasiz mehnat orqali olanga mashhur bo'lgan mahorat darajasiga erishganlar. Haqiqiy mahorat inson iste'dodining faoliyatida nomayon bo'lishidir.

Qobiliyatlar murakkab strukturaga ega bo'lgan psixik sifatlar yig'indisidan iboratdir. Qobiliyat sifatida namoyon bo'ladigan psixik sifatlar yig'indisining struktura natijasida konkret faoliyat talabi bilan belgilanadi va har xil turdagi faoliyatlar uchun turlicha bo'ladi, endi shulardan pedagogik qobiliyat va uning tuzilishini ko'rib chiqamiz.

32.2 Pedagogik qobiliyatning turlari va ularning tavsifi

Pedagogik faoliyatning samarali bo'lishi pedagogik mahoratga erishish uchun o'qituvchida quyidagi qobiliyat turlari mavjud bo'lmog'i va tarbiyalab yetishtirilmog'i lozim. Bilish qobiliyati, kuzatuvchanlik qobiliyati, nutq qobiliyati, tashkilotchilik qobiliyati, obro' orttira olish qobiliyati, to'g'ri muomala qilish qobiliyati, kelajakni ko'ra bilish qobiliyati, diqqatni taqsimlay olish qobiliyati. Bu pedagogik qobiliyatlar shaxsning aqliy tomonini ham, emotsional - irodaviy tomonini ham harakterlab beradi. Bu sifatlarning hammasi bir-biri bilan o'zaro bog'langan bo'lib, bir-biriga ta'sir etadi va bir butunlikni hosil qiladi.

Tushuntira olish qobiliyati - o'qituvchining o'quv materialini o'quvchilarga tushunarli qilib bayon etishi, material yoki muammoni ularga aniq va tushunarli qilib aytib berish, o'quvchilarda mustaqil ravishda faol qiziqish uyg'otish qobiliyatidir.

O'qituvchi zarur hollarda o'quv materialini o'zgartira olishi, qiyin narsani oson, murakkab narsani oddiy, noaniq narsani tushunarli qilib o'quvchilarga yetkaza olishi dardor.

O'qituvchi o'quvchining mustaqil fikrlashini rag'batlantira oladi. Lekin avrim hollarda shunday fikrlarni uchratamiz: «o'qituvchi opamiz hech narsaga yaramas edilar, yo'l-yo'lakay biror narsani mutlaqo tushuntirib bera olmasdilar.»

O'quvchilar ruhiyatini hisobga olib borish bu qobiliyatlarga asos qilib olinadi. Qobiliyatli pedagog o'quvchilarning bilim va kamolot darajasini hisobga oladi, ularning nimani bilishlari va nimani bilmashklarini, nimani unutib qo'yganliklarini tasavvur etadi. Ko'pchilik o'qituvchilarga, ayniqsa tajribasi katta o'qituvchilarga, o'quv materiali oddiy tushunarli va qandaydir alohida izohni talab etmaydigandek tuyulmaydi.

Qobiliyatli, tajribali o'qituvchi o'zmi o'quvchining o'rni qo'ya oladi, u kattalarga aniq va tushunarli bo'lgan narsaning o'quvchilarga tushunarsiz va mavhum bir narsa bo'lishi mumkin ekanligiga asoslanib ish tutadi. SHuning uchun u bayon etishni harakter va shakli alohida o'ylab chiqadi hamda rejalashtiradi. Qobiliyatli o'qituvchi materialni bayon etish jarayonida turli o'quvchilarning tushuntirayotgan materialni qanday o'zlashtirayotganlarini qator belgilar asosida to'g'ri aniqlab oladi va zarurat tug'ilgan hollarda bayon qilish usulini o'zgartiradi. SHuningdek qobiliyatli o'qituvchi o'quvchilarning saboqni o'zlashtirib olishlari uchun zamin tayyorlab, ularning dam olishdan ishga o'tishlari bo'shshish, lanjlik, loqaydliklariga barham berish uchun minimal darajada vaqt ajratish zaruratini hisobga oladi. U tegishli vaziyat yuzaga kelmagunga qadar ish boshlamaydi. Masalan, darsning haddan tashqari zo'riqish bilan va kuchli boshlanishi o'quvchilarda muhofaza qiluvchi tormozlanish deb atalmish holatiga sabab bo'ladi, miya faoliyati tormozlanadi va o'qituvchining so'zlari yetarli darajada idrok qilinmaydi.

Kuzatuvchanlik qobiliyati o'quvchining tarbiyalanuvchining ichki dunyosiga kira olish qobiliyati o'quvchi shaxsini va uning vaqtinchalik ruhiy holatlarini juda yaxshi tushuna bilish bilan bog'liq bo'lgan psixologik kuzatuvchanlikdir. Qobiliyatli o'qituvchi uncha katta bo'lmagan tashqi ko'rinishlar asosida o'quvchining ichki holatidagi juda arzimagan o'zgarishlarini ham fahmlab oladi. O'quvchilarning ba'zan shunday gaplarini eshitamiz: «qaramavotganga o'xshaydi- yu, hamma

narsani ko'rib turadi», «o'qituvchimiz biror o'quvchining xafa bo'lganini yoki dars tayyorlamaganligini ko'zidan biladi».

Nutq qobiliyati - nutq yordamida shuningdek imo-ishora vositasida o'z fikr va tuyg'ularni aniq va ravshan ifodalash qobiliyatidir. Bu o'qituvchilik kasbi uchun juda muhimdir. O'qituvchining nutqi darsda hamisha o'quvchilarga qaratilgan bo'ladi. O'qituvchi yangi mavzuni tushuntirayotgan, o'quvchining javobini tahlil qilayotgan, ma'qullayotgan yoki qoralayotgan bo'lsa ham uning nutqi hamisha o'zining ichki kuchi, ishonchi, o'zi gapirayotgan narsaga qiziqayotganligi bilan ajralib turadi.

Fikrlar ifodasi o'quvchilar uchun aniq, sodda, tushunarli bo'ladi. O'qituvchining bayoni o'quvchilar fikri va diqqatini yuqori darajada faollashtirishga qaratiladi. O'qituvchi o'quvchilar oldiga savollar qo'yib, ularni asta-sekin to'g'ri javob berishga olib boradi, o'quvchining diqqatini ishga soluvchi hamda fikrini faollashtiruvchi so'z va iboralar qo'llaniladi. O'qituvchi o'zundan uzoq jumalalar, murakkab so'z brikmalari, murakkab iboralarni qo'llashdan qochadi. O'rinli yumor, hazil, yengilgina istehzo nutqni jonlantirib yuboradi, uni o'quvchilar yaxshi qabul qiladilar. O'qituvchining nutqi aniq, jonli obrazli, talaffuzi jihatidan erkin ifodali, hic-hayajonli bo'lib, unda stilistik, grammatik, fonetik nuqsonlar uchra-masligi lozim. Bir xildagi cho'ziq zeriktiradigan nutq o'quvchilarni tez charcha-tadi, ularni lanj, loqayd qilib qo'yadi. Ayrimlar tez, ayrimlar sekin gapirishga moyil bo'ladilar. O'quvchilarning o'zlashtirishlari uchun o'rtacha, jonli nutq yaxshi natija beradi. Haddan tashqari keskin va haqiroq nutq o'quvchilar asabini buzadi, toliqtirib qo'yadi.

Tashkilotchilik qobiliyati - birinchidan o'quvchilar jamoasini uyushtirish muhim vazifalarini hal etishga ruhlantirishni, ikkinchidan o'z ishini to'g'ri uyushganligini nazarda tutadi. O'z ishini tashkil etish deganda ishini to'g'ri rejalashtira olish va uni nazorat qila bilish nazarda tutiladi. Tajribali o'qituvchilarda vaqtni o'ziga xos his etish ishanmasini vaqtga qarab to'g'ri taqsimlay olish, belgilangan muddatda ulgurish xususiyati hosil bo'ladi. Dars davomida, kutilmaganda ortiqcha vaqt sarflash hollari uchrab turadi. Ammo tajribali o'qituvchi zarur hollarda darsning rejasini o'zgartira oladi.

Obro' ortira olish qobiliyati - o'quvchilarga bevosita emosional irodaviy ta'sir ko'rsatish va shu asosda obro' ortira olishdir. Obro' faqat shu asosidagina emas, balki o'qituvchining fanni yaxshi bilishi, mehnatlonligi, nazokatligi va hokazolar asosida ham qozoniladi. Avtoritar qobilivatlar o'qituvchi shaxsiy sifatlarining butun bir irodaviy sifatlariga (dadilligi, chidamligi, qat'iyligi, talabchanligi va hokazolar) shuningdek o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish mas'uliyatini his etishga o'zini haq ekanligiga ishonishga, bu ishonchni o'quvchilarga yetkaza olish kabilarga ham bog'liq. O'quvchilar qo'pollik qilmaydigan, qo'rqitmaydigan, to'g'ri talab qo'ya oladigan o'qituvchini hurmat qiladilar.

Kommunikativ qobilyat - to'g'ri muomala qila bilish qobiliyati. Bolalarga yaqinlasha olish, ular bilan pedagogik nuqtayi nazardan juda samarali o'zaro munosabat o'rnatish bilish pedagogik nazokatning mavjudligini bildiradi.

Kelajakni ko'ra bilish qobiliyati - o'z harakatlarning oqibatlarini oldindan ko'rinishda, o'quvchining kelgusida qanday odam bo'lishi haqidagi tasavvur bilan

bog'liq bo'lgan shaxsni tarbiyalab yetishtirishda, tarbiyalanuvchining qanday faziladlarini taraqqiy etishini oldindan aytib bera olishda ifodalanadigan maxsus qobiliyat. Bu qobiliyat pedagogik optimizmga, tarbiyaning qudratiga, odamga ishonish bilan bog'liq bo'ladi.

Diqqatni taqsimlash qobiliyati - o'qituvchi uchun diqqatning barcha xususiyatlari hajmi, kuchi, idora qilina olishi ham taraqqiy etgan bo'lishi muhimdir.

32.3. O'qituvchining kommunikativ madaniyati

O'qituvchining kommunikativ qobiliyati- o'qituvchining fikr almashuv bilan bog'liq xususiyatidir. O'qituvchining kommunikativ qobiliyati o'qituvchi va o'quvchi munosabatida majburiy itoatkorlik o'rni orqali intizom egallashi bilan harakterlanadi.

Kommunikativ qobiliyat yo'nalishlari-o'quvchilarni ishontrish, o'quvchilar ongiga ta'sir etish, o'zgalarga taqlid qilish yo'nalishlariga bo'linadi.

O'quvchilarni ishontrish- o'quvchilar ongiga qaratilgan bo'lib, o'qituvchi fikr-muloxazalarini ta'sirchan nutq orqali o'quvchining bilimlar tizimiga, dunyoqarashiga, xulq-atvoriga, xatti -harakatiga ta'sir etadi va uni qisman o'zgartiradi. ishontrish ta'sir ko'rsatishning asosiy vositasi va usulidir.

O'quvchilar ongiga ta'sir- o'zaro fikr almashish jarayonida shakllanadigan murakkab psixologik xususiyat bo'lib, o'qituvchi kommunikativ qobiliyatining universalomili hisoblanadi.

Taqlid qilish-shaxsning psixik xususiyati bo'lib, o'zi sevgan biror bir inson harakatiga, namunasiga amal qilishidir.

Pedagogik ta'sir ko'rsatish usullariga -talab, istiqbol, rag'batlantirish va jazolash, jamoatchilik fikri kiradi.

Ta'sir ko'rsatishda o'qituvchi amal qiladigan qoidalar

1. Tarbiyaning aniq maqsadga yo'naltirilganligi
2. Tarbiyaning hayotiy faoliyat bilan bog'liq hodisa ekaniigi
3. SHaxs xususiyatlarini inobatga olish
4. SHaxsga nisbatan hurmatda va talabchan bo'lish
5. Tarbiyaviy ishini izchil, muntazam olib borish.

So'z bilan og'zaki ta'sir ko'rsatishda xushnuomalalik mezonlari

1. O'quvchilarga og'zaki ta'sir qilishda shirinsuxanlik va insoniylik tuyg'ularini namoyish qilish

2. So'z bilan ta'sir qilish bosqichlarida hissiy osoyishtalikning namoyon bo'lishi

3. O'zaro fikr almashishga doir sifatlar, ko'nikmalar va malakalarnimavjudligi

4. O'quvchilovarni bilim olishga bo'lgan ishtiyoqlarini kuchaytirish

5. Mustaqil fikr vuritish, o'z fikrini erkin bayon eta olish, insoniy qadr qimmat tuyg'usini shakllantirish.

O'qituvchining kommunikativ qobiliyati eng oldingi o'rindagi ta'sir qilish vositasi ham hisoblanadi.

Nutq bu ogʻzaki kommunikatsiya, yaʼni til yordamida munosabat qilish jarayoni demakdir. Ijtimoiy tajribada biron-bir mohiyatni anglatadigan soʻzlar ogʻzaki kommunikatsiya vositasi hisoblanadi. Soʻzlar eshitirib yo ovoz chiqarmasdan aytilishi, yozib qoʻyilishi yoki kar-soqov kishilarda biron - bir mohiyatga ega boʻlgan imo - ishoralar bilan almashtirilishi (buni harf barmoqlar harakati bilan ifoda etiladigan daktilologiya va imo-ishorali nutq deb ataladi) mumkin.

Quyidagi nutq turlari farq qilinadi: yozma va ogʻzaki nutq, oʻz navbatida ogʻzaki nutq dialogik va monologik nutqlarga ajratiladi.

Ogʻzaki nutqning eng sodda turi dialog, yaʼni allaqanday masalalarni birgalikda muhokama qilayotgan va hal etilayotgan hamsuhbatlar tomonidan olib boriladigan suhbat hisoblanadi.

Gaplashayotganlarning bir-birlarga lukmalarni, suhbatdoshdan keyin iboralarni va avrim soʻzlarni takrorlash, savollar hamda qoʻshimchalar berish, izoh berish, faqat soʻzlashayotganlar tushunadigan shamalar qilish turli xil yordamchi soʻzlar va undovlar soʻzlashuv nutqi uchun xos xususiyatdir. Bu nutqning oʻziga xos xususiyatlari koʻp jihatdan ham suhbatlarning hamjihatligi darajasiga, ularning oʻzaro munosabatlariga bogʻliq boʻladi. Aksariyat hamma joyda ham pedagog oilaviy muhitdagi dialogni hech qachon sinfda oʻquvchilar bilan munosabatda boʻlgani kabi olib bormaydi. Soʻzlashuv chogʻida hissiy hayajonlanish darajasi katta ahamiyatga ega boʻladi. Hayratlangan, quvongan, qoʻrqqan jahli chiqqan kishi xotirjam holatidagi kabi gapirmaydi, oʻzgacha ohangdagina gapirib qolmasdan, balki koʻpincha boshqa soʻzlarni iboralarni ishlatadi.

Ogʻzaki nutqning ikkinchi bir turi monolog nutq boʻlib, uni bitta kishi boshqasiga yoki uni tinglayotgan koʻplab kishilarga qaratib gapiradi: bunga oʻqituvchining hikoyasi, oʻquvchining kengaytirilgan javobi maʼruza va shu kabilar kiradi. Monologik nutq tuzilishi jihatidan juda ham murakkab boʻlib, fikrning tugallanganligini, grammatik qoidalarga ancha qatʼiy amal qilinishini, monolog aytayotgan kishining bayon etmoqchi boʻlgan fikrda qatʼiy mantiq diapogik va izchillik boʻlishini taqozo etadi. Monologik nutqni egallash nutqqa nisbatan katta kiymchiliklar tugʻdiradi, uning kengaytirilgan shakllari antogenezida (yuzaga kela boshlaganidan takomillashuviga qadar) kechikibroq rivojlanadi, oʻquvchilarda bu nutqni shakllantirish maxsus vazifa hisoblanadi va pedagoglar uni taʼlimning qator yillar mobaynida bajarishlariga toʻgʻri keladi.

Qiyalmasdan, bemaol suhbatlasha oladigan, lekin oldindan yozilgan matndan foydalanmasdan monologik harakterga ega boʻlgan ogʻzaki axborot (maʼruza, keng maʼruzalar va shu kabilar) bilan chiqishga qiyinaladigan katta yoshli odamlar ham uchrab turish tasodifiy hol emas. Koʻpincha bu oʻqituvchilarning oʻquvchilarda monologik nutqni shakllantirish ishiga yetarli eʼtibor bermaganliklari oqibati hisoblanadi.

Yozma nutq insoniyat tarixida ogʻzaki nutqdan ancha keyin paydo boʻldi. U bir-birlaridan makon va zamon bilan ajralib turuvchi odamlar oʻrtasida munosabat qilish ehtiyojining natijasi sifatida paydo boʻldi va fikr shartli sxematik suratlar yordamida ifoda etiladigan paytlardagi piktografiya yordamida ifoda etilayotgan hozirgi zamon yozuviga qadar rivojlandi

Yozuv tufayli odamlar to'plagan tajribani avloddan-avlodga eng yaxshi tarzda yetkazish imkoni tug'ildi.

Negaki og'zaki nutq yordamida o'tkazilgan taqdirda u buzilishi, o'zgarib va hatto usiz yo'qolib ketish mumkin edi. Yozma nutq foydalanladigan murakkab umumlashmalarning rivojlantrilishida, badiiy timsollarni yetkazishda muhim rol o'ynaydi.

Nutqsiz kommunikatsiya vositalari bamisoli o'ziga xos his-tuyg'u tili bo'lib, so'z bilan ifodalanadigan til kabi u ham ijtimoiy taraqqiyot mahsuli hisoblanadi va turli milliy madaniyatlarda bir-birlariga o'xshamasligi mumkin.

Nutqsiz kommunikatsiyani amalga oshirish uchun turli xil yosh guruhlarda turlicha vositalar tanlanadi. Jumladan, bolalar yig'idan ko'pincha katta yoshdagilarga ta'sir qilish va ularga o'z istaklari hamda kayfiyatini yetkazish vositasi sifatida foydalanadilar.

Og'zaki kommunikatsiya ta'sirini kuchaytirishda munosabatga kirishuvchilarning fazoda joylashuvi muhim ahamiyatga egadir.

Nutqsiz kommunikatsiyada qo'llanilayotgan vositalarning axborotni so'z bilan yetkazish maqsadlariga va mazmuniga muvofiqligi munosabat madaniyatining tarkibiy qismlaridan hisoblanadi.

Ayni paytda nutqsiz kommunikatsiya - imo - ishora pantomimika, nutqning ohangidagi rang - baranglik ham rivojlanishi mumkin.

Bo'lajak o'qituvchilar faqat nazariy bilimlarni egallash bilan chegaralanmasdan amaliy malaka va ko'nikmalarni ham egallash zarur, ya'ni bular pedagogik, psixologik bilimlar asosida o'quvchilarni ilmiy bilim, malaka va ko'nikmalar bilan dars bera bilish, tarbiyaviy ishlarni rejalashtira bilish, o'quvchilarning jamoa, usullarini tanlay bilish, o'quvchilarni individual, jamoa ishlarini tashkil qila olish, sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni uyushtira bilish va ularga rahbarlik qilish, ota-onalar, jamoatchilik o'rtasidagi ishlarga rahbarlik qila olish, sport, sayohat va boshqa tarbiyaviy malaka va ko'nikmalarni olib borishlaridan iboratdir.

So'z mahoratli o'qituvchining egallashi lozim bo'lgan bilim malaka ko'nikmalari ustida ekan, o'qituvchining kommunikativ ko'nikmalari haqida to'xtalishimiz va mohiyati haqida fikr yuritishimiz maqsadga muvofiq va muhim ahamiyatga egadir.

Mahoratli o'qituvchining kommunikativ ko'nikmasi - bu o'qituvchilik kasbiga ilk tayyorgarlik ko'ra boshlagan davrdan, umuman hayotda odamlardagi o'z fikrini ifoda etish usullarini bilish, o'zida mana shu xislatlarni namoyon qila olishdir.

O'qituvchidagi kommunikativ ko'nikmalar bular oldindan o'qituvchining og'zaki va yozma nutq, imo - ishora orqali fikr ifoda etishni bilish va kishilarni ifoda etayotgan fikrini to'g'ri angelay olishdir.

Yuzni o'qish san'ati - boshqa kasblar singari o'qituvchilikka ham xos bo'lgan sifatlardan biridir.

Yuzni o'qish, va'ni biror shaxsning o'z fikrini namoyon (ya'ni og'zaki va yozma holatda) qilmaganda uning yuz tuzilishi, yuzidagi a'zolarning ba'zi bir harakatlardan anglash, tushuna olishdir. Yuzni o'qish avvalo psixologik jihatdan idrok, diqqat va kuzatuvchanlikka bog'liqdir. Insonlarning xursandligini uning

yuzidagi ko'rim b turgan tetiklik, xushchaqchaqlikdan anglashimiz yoki xafalikni esa yuzlarning mayus tortganligi, ko'zlarning toliqib ko'nmishdan bilishimiz mumkin.

O'zgaralar holatini tushuna olish o'qituvchi uchun muhimdir. Sababi u qanday holat, sharoitda o'sgan o'quvchilarga dars berayotganligini bilish lozimdir. O'qituvchilarning yurish-turishi, o'tirishi, harakatidan ularning qay holatda yurganliklarini bilish mumkin.

O'zini namoyon qila olish - bu bir qiyin yoki narsa orqali emas, balki bilim, malaka, ko'nikma, odob - axloq muomala, nutq, munosabat orqali o'zini namoyon qila olishdir.

Nutq insonning ongida paydo bo'lgan fikrning nutq tovushlariga til yordamida ko'chishidir. Nutq ta'sirli yoki ta'sirsiz, to'g'ri yoki noto'g'ri bo'lishi mumkin.

Nutq orqali kishi holatini tushunish - kishilar o'z nutqlarida o'zlarida kechayotgan jarayonni namoyon qiladilar. SHu holatni tushunishdir.

Monoton nutq bolani zeriktiradi, noaniq intonatsiya esa yaxshi o'zaro yaqin suhbatning uyushtirilgandan baland ton bolalarda ishonchsizligini keltirib chiqaradi.

Tovush odamlarda tabiatan beriladi, ammo bu esa juda ham ko'p uchraydi. hamda yaxshi tovush maxsus mashqlarsiz yillar o'tgan sari buziladi, o'zgaradi.

Pedagogik nutq quyidagilarni ta'minlab berishi mumkin:

A) pedagog va o'quvchilar orasida o'zaro ta'sir etish va muloqotning natijaliligini;

D) faoliyat motivlarini, tushunchalarni to'g'rilash va shakllantirish maqsadida o'quvchi, bolalar tafakkuriga, his - tuyg'ulariga ijobiy ta'sir etish kerak; ta'lim berish jarayonida bilimlarni to'liq tushuntirish va mustahkanlash, o'zlashtirib olish;

E) o'quvchilarning amaliy va o'quv faoliyatini samarali tashkil etish.

O'qituvchi nutqining o'ziga xosligi - o'quvchilarga yo'nalganligi bilan bog'liqdir. Kuzatuvchan o'qituvchi mavzuni tushuntirishda o'quvchilarga qanday ta'sir etishni hisobga olgan holda ish yuritadi.

O'qituvchi nutqiga qo'yiladigan talablar, quyidagilardan iborat funksiyalar bilan belgilanadi. Asosiy funksiyalardan biri bu bilimlarni to'liq uzatishni ta'minlab berish. YAngi bilim berishda o'qituvchi o'z nutqi orqali faqatgina yangi bilimlarni berib qolmasdan, balki his-tuyg'ulariga ham ta'sir etishi kerak.

Boshqa funksivalardan biri bu o'quvchilarni o'quv faoliyatining samaradorligini ta'minlab berish.

Pedagogik kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, o'qitishning muvaffaqiyatlariga asosan o'qitishning muvaffaqiyatlariga asosan, o'qitishning muloqotga kirilishida uchraydigan pedagogik nizolarni keltirib chiqarmaslik, xato va kamchiliklarga yo'l qo'ymaslikdir.

Bu xato va kamchiliklar bolalarni to'g'ri, tushuna olmaslikdan nutqni to'g'ri tuza olmaslikdan, muomalada hammani bir nazar bilan ko'ra olmaslikdan kelib chiqadi. Ularni oldini olish yo'llari turli xildir. Buning uchun eng avvalo, o'quvchilarni fanga qiziqtirish shart. O'qituvchi o'z shogirdlaridan doimo hech bo'lmaganda bir necha pog'ona yuqori turishi kerak, aks holda bolalar oldida uning obro'si bo'lmaydi, chunki kutilmagan savollarga o'qituvchi javob beraolmasdan

qolish mumkin. Holbuki, bola sezgir bo'ladi va juda tez fursatda o'qituvchining kamchiliklarini bilib oladi. O'qituvchilar oldida yo'qotilgan obro'ni tiklash juda qiyin hatto ba'zi vaqtlarda mumkin ham emas. Yosh avlod tarbiyalash murakkab va olijanob vazifa bo'lishi bilan birga ayni zamonda u g'oyat darajada murakkab, mas'uliyatli ishdur. Bu vazifani muvaffaqiyat bilan bajarish uchun, eng avvalo, o'qituvchi o'z ishining ustasi bo'lishi, bolalarni sevishi, mas'uliyatlarini, burchlarini, xulqlarini anglab yetishlari lozim. Xulosa qilib, aytganda mustaqil O'zbekistonimizda o'zining pedagogik faoliyatini olib borayotgan har bir o'qituvchi o'z ustida tinmay ishlashi, doimiy izlanishda bo'lishi, o'zidan oldingi pedagoglarning ilg'or tajribalari bilan doimiy tanishib borishi va shu yo'llar bilan o'z mahoratining tuzimlarini kengaytirishi lozimdir.

35.2. Pedagogik boshqaruv mahorati

Dars jarayonida o'quvchilar bilish faoliyatini boshqarish bir necha omillarga bog'liq. Ularning eng asosiylaridan biri o'quvchilarni o'z faniga qiziqitira olishdir. Olimlar ta'kidlaganidek, faqat qiziqishgina psixik jarayonlar va ularning idrok, diqqat, xotira, tafakkur va iroda kabi funksiyalariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchining bilishga oid qiziqishlari ko'p qirrali qiyofalarda namoyon bo'ladi: o'quvchini harakatchan va qiziquvchanligi, o'quvchining ayrim o'quv faoliyatiga shunimgdek, umuman o'qishga bo'lgan motivlari, o'quvchi shaxsining o'ziga xos belgilari va uning yo'nalishimi qaror topishi ana shular jumlasidandir.

O'quvchi yosh davriga xos tabiiy faolligi, biror bir aqliy qiziqish bilan qamrab olinmasa, uni qaysi tomon boshlab ketishini oldindan aytish qiyin. SHuning uchun ham K.D.Ushinskiy «zo'rlash va majburlashga asoslangan o'qitish» o'quvchining aqliy rivojlanishiga hech qanday ta'sir ko'rsatmasligini alohida ta'kidlab o'tgan edi. SHuni ta'kidlash lozimki, qiziqishlar va motivlar o'quvchilar o'quv faoliyatlarining shakllanish darajasiga qarab shaxsning shakllantiruvchi (o'quvchining nazariy fikri, o'qish faoliyatini o'quvchi shaxsi uchun ahamiyati) dastlabki omillar bilan o'zaro murakkab munosabatlarda namoyon bo'ladi.

O'quvchilarning o'qishga (bilishga) bo'lgan qiziqishlarini shakllantirish shartlari qanday? Mohir o'qituvchi ularni darsda o'quvchilarda shakllantirish uchun nima qilishi kerak? O'quv faoliyatini faollashtirish va o'qishga bo'lgan qiziqishlarni doimo rivojlantirib borish uchun nima qilish kerak?

Mohir o'qituvchi o'quvchilarda o'qishga bo'lgan qiziqishlarni shakllantirish va doimo rivojlantirib borish uchun quyidagilarga amal qilishi muhimdir: O'quvchilarni bilishga intilishini, fanga umuman olganda aqliy mehnatga qiziqishlarini rivojlantirish o'quv jarayonini shunday tashkil etilishini ta'minlaydiki, unda o'quvchi faol harakat qiladi, mustaqil izlanish va yangi omillarni «kashf etish» ga, muammoli vaziyatlarni o'zi hal etishga intiladi. O'quv faoliyati boshqa faoliyatlar kabi faqat turlicha bo'lgandagina, qiziqarli bo'ladi. Bir xil usulda axborot berish va bir xil usuldagi harakatlar tez orada zenkishni vujudga keltiradi. Fanga bo'lgan qiziqishni shakllantirishda bu fanni va uning ayrim qismlarini o'rganishning zarurligi, muhimligi va maqsadga muvofiqligini o'quvchilarga anglatish juda

zarurdir. O'tilayotgan material oldingi material bilan qanchalik ko'proq bog'lab tushuntirilsa, u o'quvchilarga shunchalik qiziqarliroq tuyuladi. O'quv materialini o'quvchilarni qiziqtiradigan narsalar bilan bog'lab tushuntirish ham, ularni darsga qiziqtirishda muhim rol o'ynaydi. O'rtacha qiyinlikdagi o'quv materiali ham o'quvchilarda qiziqish uyg'otmaydi. O'quv materiali bir oz qiyinroq, lekin o'quvchilar kuchi yetadigan bo'lishi kerak. O'quvchilar bajargan ishlarni tez-tez tekshirish ham ularni fanga bo'lgan qiziqishini uyg'otadi. O'quv materialining aniqligi, hissiyotga boyligi, o'qituvchining zavqlanib gapirishi ham o'quvchiga, uni fanga bo'lgan qiziqishini ortishiga juda katta ta'sir ko'rsatadi.

YUqondagi ta'riflarda pedagogik boshqaruv mahoratining qaysi jihati yaqqol ko'zga tashlanadi? Pedagogik boshqaruv mahorati o'qituvchilar tomonidan o'qitish metodlarini tanlashga alohida e'tibor beradilar. O'quvchilarning frontal, differensiyalashgan va yakka tartibdagi faoliyatlarining umumiy jihatlarini ko'proq bo'lsa-da, ularni tashkil etish o'qituvchining o'ziga xos ijodiy yondashishini talab qiladi. O'quvchilik faoliyatining obyektini tarkibi va o'ziga xosligi uning har bir aniq vaziyatga ijodiy yondashishini taqozo qiladi. Agar butun sinf, guruh va alohida shaxsga nisbatan bir xil metod bilan ta'sir ko'rsatilar ekan, unda tarbiyasi ham, ijodiy yondashish ham barbod bo'ladi.

Ayrim hollarda o'qishga qiziqtiruvchi metodlardan, boshqa hollarda esa burch va javobgarlikni his etishni rag'batlantiruvchi metodlarga ko'proq e'tibor berish tavsiya etiladi. Tajribali o'qituvchilar o'tilayotgan mavzuni xalq xo'jaligi masalalarini hal etishdagi ahamiyatiga oid qiziqarli misollar keltiradilar. didaktik o'yinlardan, o'quvchilar faolligini rag'batlantiruvchi turli usullardan foydalanadilar. Lekin o'quvchi faoliyatida hamma narsani ravshan va qiziqarli holda tasavvur etish qiyin. SHuning uchun ham o'qituvchi o'quvchilarda paydo bo'ladigan qiyinchiliklarni yengish uchun o'ziga iroda va qat'iylikni ham tarkib toptirishi zarur.

Ayrim pedagoglar kasbiy mahorat sirlarini egallash uchun avvalo ta'lim va tarbiya metodlarini takomillashtirishga intiladilar. Bu tabiiy hol, chunki aynan metodlar yordamida pedagog o'z o'quvchilarini turli o'quv faoliyatiga jalb qiladi. Bu bilan o'quvchilarda muayyan bilim, ko'nikma, malakalar va xulqni shakllantiradi.

Lekin aynan bir xil metod bilan ishlagan turli o'qituvchilarning erishgan natijalari ham turlicha bo'lishi aniqlangan. Buning ustiga, sinovdan o'tkazilgan metodlardan foydalangan bo'lsalarda, ayrim o'qituvchilar, hatto eng quyi darajadagi o'zlashtirish natijalariga ham erisha olmaganlar. Bunday o'qituvchilar: «Hamma narsani metodik tavsiya asosida bajardim, nima uchun bolalar mavqey solish, qaysarlikni va dars tayyorlamaslikni yana davom ettirmoqdalar?» - deb hayron bo'ladilar. Gap shundaki, o'quvchilarni bilim olishga qiziqtirishda o'qituvchi tomonidan tanlangan metodlar, usullar va topshiriqlardan boshqa sabablar ham ta'sir ko'rsatadi.

Pedagog faoliyatining boshqaruv mahorati uning shaxsi, harakteri, o'quvchilar bilan muomalasiga ham ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Odatda bularning ta'lim-tarbiya jarayoniga ta'siri ahamiyatsizdek tuyuladi. Lekin tajribali pedagog uning xatti-harakati o'quvchilarga qanday ta'sir ko'rsatayotganligiga ahamiyat

herib, unga kerakli tuzatishlar kiritib, takomillashtirib boradi. Bunday o'qituvchilarning ilhomboxsh muammolaridan o'quvchilarda o'qishga intilish o'zlarida yanada yaxshiroq o'qishni uddalay olishiga ishonch hissi paydo bo'ladi. Bu holda ta'lim va tarbiya metodlari pedagog shaxsida mujassamlangan sifatlarni amalga oshirish va undan o'quvchiga axloqiy fazilatlarini o'tkazish vositasiga aylanadi. SHuning uchun ham, pedagogik mahoratni o'qituvchi shaxsi sifatlarining majnui sifatida qarab, uni o'qituvchi yuqori darajada psixologik-pedagogik tayyorgarlikka ega bo'lishi bilan bog'liq bo'lishini e'tirof etish lozim.

Nazorat uchun savollar

1. «Qobiliyat» va «pedagogik qobiliyat» tushunchalarining mohiyatini izohlang?
2. Pedagogik qobiliyatning asosiy turlari haqida ma'lumot bering.
3. «Pedagogik boshqaruv» tushunchasining mohiyati haqida tushuncha bering.
4. Pedagogik boshqarish turlarini izohlab bering.
5. O'qituvchining turli vaziyatlarda o'zini tuta olish holatini izohlang.

33. O'QITUVCHI FAOLIYATIDA MULOQOT MADANIYATI VA PSIXOLOGIIYASI

33.1. Pedagogik muloqot haqida tushuncha. Muloqotga qo'yiladigan talablar.

33.2. Pedagogik muloqot tuzilishi.

33.3. Pedagogik nizolar va ularning oldini olish yo'llari.

36.1. Pedagogik muloqot haqida tushuncha. Muloqotga qo'yiladigan talablar

Muloqot –yunoncha suxbatlashuv, shaxslararo suxbat , o'zaro fikr almashuv ma'nolarini anglatib, ikki va undan ortiq kishilarning so'zlashuvida paydo bo'ladi.

Pedagogikada muloqot- O'qituvchi va o'quvchilar jamoasining o'zaro ta'sir malakasi, usuli va tizimini anglatib, uning mohiyati , o'zaro fikr almashish ta'limiy, tarbiyaviy ta'sir o'tkazishida , o'zaro bir birlarini tushunishlariga erishishlarida namoyon bo'ladi.

Pedagogik muloqot- o'qituvchining o'quvchilarga ta'sir o'tkazishi asosida o'zaro munosabatini faol tashkil qilishi. muayyan bir maqsadni dastur asosida amalga oshirishning rejalashgan faoliyatini bajarishdir Pedagogik muloqot xususiyatlari

Muloqot –o'qituvchining pedagogik faoliyatidagi eng muhim kasbiy kuroi hisoblanadi

Muloqot jarayonida uning maqsadga muvofiq amalga oshirishni ta'minlash uchun ijtimoiy nazorat va ijtimoiy qonuniyatlar muhim ahamiyatga ega

Muloqot o'qituvchi va o'quvchilar munosabatlarining eng muhim tarkibiy qismi. Muloqot hamkorlik faoliyatning ehtiyojidan vujudga kelib chiqadi va

shaxslararo munosabat rivojlanishining ko'p qirrali jarayoni hisoblanadi. Noto'g'ri pedagogik muloqotdan o'quvchilarda qo'rquv, o'z kuchiga ishonmaslik paydo bo'ladi.

Kasbiy pedagogik muloqot deganda, o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorlik tizimi tushuniladi. Uni asosiy faoliyat mazmuni o'zaro axborot almashish, shaxsni bilish, tarbiyaviy ta'sir o'tkazish sanaladi. O'qituvchi bu jarayonni faollashtiradi, uni tashkil etadi, boshqaradi. Pedagogik faoliyatda muloqot - o'quvchilarga zamon talablari asosida ta'lim berish vazifalarini hal qilish vositasi, tarbiyaviy jarayonlarni ijtimoiy-pedagogik jihatdan ta'minlash tizimi sifatida namoyon bo'ladi. Muloqot yunoncha so'zlashuv shaxslararo suhbat, o'zaro fikr almashuv ma'nosini bildirib, ikki va undan ortiq kishilarning so'zlashuvida paydo bo'ladi. Pedagogikada muloqot - o'qituvchi va o'quvchilar jamoasining o'zaro ta'sir malakasi, usuli va tizimini anglatib, uning mohiyati o'zaro axborot almashishda, ta'lim. Tarbiyaviy ta'sir o'tkazishda, o'zaro bir-birlarini tushunishga erishishlarida namoyon bo'ladi. Pedagogik muloqot quyidagi xususiyatlarga ega. Muloqot o'qituvchining kasbiy faoliyatida eng muhim kasbiy qurol hisoblanadi; muloqot jarayonida uning maqsadga muvofiq amalga oshirishni ta'minlash uchun ijtimoiy nazorat va ijtimoiy qonuniyatlar muhim ahamiyatga ega; muloqot o'qituvchi va o'quvchilar munosabatlarining muhim tarkibiy qismi. pedagogikada muloqot - o'qituvchining o'quvchilarga ta'sir o'tkazishlari asosida o'zaro munosabatini faol tashkil qilishi, muayyan bir maqsadni dastur asosida rejalashtirgan funksiyasini bajarishdir; muloqot - hamkorlik faoliyatining ehtiyojidan vujudga keladi va shaxslararo munosabat rivojlanishining ko'p qirrali jarayoni hisoblanadi; noto'g'ri pedagogik muloqotda o'quvchilarda qo'rquv, o'z kuchiga ishonmaslik paydo bo'ladi. Pedagogik muloqot quyidagi funksiyalarni bajaradi

1. O'zaro axborot almashishini yo'lga qo'yish.
2. Ta'lim - tarbiya faoliyatini birgalikda tashkil etish.
3. O'quvchilarni erkin fikr yuritishga o'rgatish.
4. Salbiy holatlarni sinf bilan birgalikda bartaraf etish.
5. Do'stlar uchun qayg'urish va ularga yordam berishga erishish.
6. O'zligini anglash, o'quvchilar bilan muloqotda qoniqish his etish.

Muloqot - axborot jarayonidir. Axborot ikki yo'nalishda: boshqarish subyektidan (pedagogdan) boshqarish obyektiga (o'quvchilarga) boradi va aksincha - obyektidan subyektga boradi. Pedagog bevosita shaxslararo muomaladan o'z tarbiyalanuvchilariga ham maqsadga qaratilgan axborotni ma'lum qiladi.

Pedagog muomala vositasi orqali qanday axborot olishini qarab chiqar ekanmiz, o'quvchining shaxsi haqidagi axborotning muhimligini alohida ta'kidlab o'tish kerak. Bevosita muomala shaxsni g'oyat xilma-xil sharoitlarda va ko'rinishlarda o'rganishga imkon beradi. U faqat shaxsning xulq-atvorida namoyon bo'ladigan vorqin va eng ta'sirchan tashqi belgilarinigina qayd etish imkonini berib qolmaydi. Pedagog o'quvchilar bilan muomala qilar ekan, juda mavda detallarni ham anglab olishga qodir bo'ladi, bu detallar sirtidan qaraganda unchalik ahamiyatli bo'lmay, shaxsda sodir bo'layotgan, uni tushunish uchun juda muhim bo'lgan zarur ichki jarayonlar ko'rinishlarining alomatlari bo'lishi ham mumkin. Bu hol shaxsni

chuqur tushunish imkonini berib, tashqi qatlam ostida boshqa usullar bilan aniqlab bo'lmaydigan narsalarni topish imkonini beradi.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, pedagogik jarayonning borligi o'qituvchiga munosabatni ijodiy hissiyotlar asosida tashkil etishga, bolalar bilan psixologik muloqot o'rnatishga imkon beradi. O'qituvchi o'quvchilarga biron-bir narsani o'rgata olishi uchun ular bilan munosabatga kirishishi shart. Munosabat odamlar o'rtasidagi birgalikdagi faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan bog'lanishlar rivojlanishning ko'p qirrali jarayonidir. Munosabat birgalikda faoliyat ko'rsatuvchilar o'rtasida axborot ayriboshlashni o'z ichiga oladi. Tunday axborot ayriboshlanishi munosabatning kommunikativ jihati sifatida ta'riflanishi mumkin. Munosabatga kirishuvchilarning o'zaro birgalikdagi harakati nutq jarayonida faqat so'zlar bilan emas, balki turli xatti-harakatlar bilan ham ayriboshlashdan iborat.

Munosabatga kirishuvchilarning bir-birlarini idrok eta olishlarini taqozo qilishdir. SHunday qilib, yagona munosabat jarayoniga shartli ravishda uchta jihatni kommunikativ (axborot uzatish), interaktiv (o'zaro birgalikdagi harakat) va persepektiv (o'zaro birgalikda idrok etish) jihatlarni alohida ko'rsatish mumkin.

Nutq bu og'zaki kommunikatsiya, ya'ni til yordamida munosabat qilish jarayoni demakdir. Ijtimoiy tajribada biron bir mohiyatni anglatadigan so'zlar og'zaki kommunikatsiya vositasi hisoblanadi. So'zlar eshitirib yo ovoz chiqarmasdan aytilishi, yozib qo'yilishi yoki kar-saqov kishilarga biron bir mohiyatga ega bo'lgan imo-ishoralar bilan almashinishi mumkin. Odamlar o'rtasidagi munosabatni telegraf orqali axborot berishga o'xshatish mumkin emas. Odamlar munosabatiga aloqa bog'lovchilarning his-hayajoni ham qonuniy ravishda jalb etilgan. U kommunikatsiyaning mazmunini hisoblanishi nazarga ham, munosabatga ham, kirishganlarga nisbatan ham muayyan tarzda taalluqli bo'lib nutqiy fikr mulohazalar bilan qo'shilgan holda yuzaga chiqadigan bu his-hayajonli munosabatda axborot ayriboshlashning alohida nutqsiz jihati o'z-gacha nutqsiz kommunikatsiya tarkib topadi.

Pedagog bitta so'zning o'zini o'quvchiga goho buyruq, goho iltimos, goho nasihat va hokazo ma'no baxsh etgan xilda turli ohangda talaffuz eta bilishi kerak. Nutqsiz kommunikatsiya imo-ishora, pantomimika, nutqning ohangidagi rang-baranglik ham rivojlana boradi. Kommunikatsiya jarayonida teskari aloqalar shakllanadi, ya'ni bola ham suhbatining yuzlaridagi ifodani o'qishga uning ohangida ma'qullash yoki ma'qullamaslik alomatini payqashga katta yoshdagi kishining so'zlariga ilova bo'ladigan va kuchaytiradigan qo'l-barmoqlari va yuz-harakatining ma'nosini tushunishga o'rganadi.

O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqotga bir qancha talablar qo'yiladiki, pedagogik jarayonlar davomida bularga qat'iy rioya qilish kerak. Bu talablar quyidagilardan iborat:

O'qituvchining nutqi ravon bo'lishi, o'qituvchining fikrlar bayoni aniq, tushnarli bo'lishi, nutq jarayomida qo'l, ko'z, yuz imo-ishoralardan foydalanishda ularning uzviy (bog'liq) ligiga erishish, nutq orqali o'quvchilar ongi, qalbi, xatti-harakatiga pedagogik ta'sir ko'rsatish, nutq talaffuzi orqali o'quvchi bilan muloqotga kirishish jarayomida ularning o'ziga xos xususiyatlarini (pedo-psixotizologik) hisobga olish, o'qituvchi nutqning talaffuzida axloqiy normalarning

shakllangan bo'lishi, o'qituvchi shaxsiga xos va mos tarzda o'quvchilar bilan muloqotga kirishishi, o'qituvchi o'zining nutq talaffuzida uslubiy, stilistik xatolarga yo'l qo'ymasligi, o'qituvchining nutq qobiliyati rivojlangan bo'lishi, o'qituvchi dars jarayonida mavzuni tushuntirishda o'quvchilarga ovoz monotonidan ijobiy foydalanib muloqotga kirishishi, o'quvchilar bilan muloqotga kirishish jarayonida ularni tarbiyalab borish, ongi, xulqida insoniy fazilatlarini shakllantirish, axloqiy normalarni qaror toptirishi, muloqot jarayonida badiiy so'z san'atiga qat'iy rioya qilishi, o'qituvchi notiqlik san'atini egallab borishi va so'ngra muloqotga kirishishi, muntazam ravishda nutq talaffuzini rivojlantiruvchi mashqlar bilan shug'ullanib borishi, o'qituvchi o'zining nutq talaffuzida pauza, intonatsiyalardan oqilona foydalanishi, muloqot jarayonida o'qituvchi to'liq va to'g'ri fikrlay olishga o'rganishiga bog'liq.

36.2. Pedagogik muloqot tuzilishi

Muomala-munosabatlar kishi o'z xulqi va faoliyatida axloqiy prinsiplar, qoidalar, talablar, an'analarga, urf-odatlariga qay darajada amal qilayotganiga qarab baholanadi.

Pedagogik muloqotda muallimning axloqiy madaniyati, tarbiyalanganlik darajasi aks etadi. Muallimning pedagogik kasb egasi sifatida o'ziga, o'z kasbiga, o'quvchilarga, kasbdoshlariga, ota-onalarga muomalasini belgilovchi asosiy qoidalar, talablar mavjud. Bu mezonlar jamiyat davlat o'qituvchiga, ta'lim-tarbiya ishlariga nisbatan qo'yayotgan axloqiy talablariga, pedagogik faoliyatning axloqiy harakteri va xususiyatlariga asoslanadi.

Pedagogik jarayonda muomala odobi o'qituvchining faoliyatida namoyon bo'ladi. O'qituvchilik faoliyatiga qo'yiladigan axloqiy talablar, o'z navbatida. O'zbekiston Respublikasi rahbariyati yosh avlodni umuminsoniy va milliy-ma'naviy, madaniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash sohasida kun tartibiga qo'yayotgan vazifalarga bog'liq. Ular pedagogik jarayondagi muomala odobida unda qatnashayotgan kishilarning xulqi, xatti-harakatlarida ifodalanadi. Bu xatti-harakatlar pedagogik jarayon qatnashchilarining ta'lim-tarbiya maqsadi, vazifalari usul va vositalarini, axloqiy qadriyatlarini qay darajada qabul qilishlari shaklida namoyon bo'ladi.

Pedagogik muloqotning tuzilishi juda murakkabdir. U pedagogik faoliyatda subyekt-obyekt munosabatlari shaklida ifodalanadi. Subyekt-obyekt munosabatlari muallim o'zining professional burchini bajarayotganida o'quvchilar, kasbdoshlari, ota-onalar, jamoat tashkilotlarining vakillari bilan o'qituvchi o'rtasidagi aloqalarda vujudga keladi. U o'zaro hurmat darajasi, ishonch, talabchanlik, xayrixohlik, tashabbuskorlik, o'zaro g'amxo'rlik, har birlarining inson sifatida qadr-qimmatini e'zozlash kabilarda namoyon bo'ladi. Ular o'qituvchining pedagogik faoliyatda boshqalar bilan muomalasining harakterini baholashga xizmat qiladi. O'zaro ta'sirlar o'quv ishida, turmushda, dam olish paytlarida, oiladagi muomala-munosabatlarning xususiyatlarini aniqlashga imkon beradi.

Pedagogik etikada muomala odobining biror jihati, masalan, o'qituvchining o'z kasbiga munosabati, burchi alohida tahlil etilishi mumkin. O'qituvchilik kasbi

kishiga ma'lum talablarni qo'yadi. lekin muallim bu talablarni qanday bajarayotgani bu talablarda hali aks etmaydi. O'qituvchining pedagogik faoliyati natijalarini xalq ta'limi bo'limlari, maktab ma'muriyati, metodik birlashma xodimlari baholaydi. O'qituvchining pedagogik jarayon qatnashchilari bilan muomalasi — bu kishilarning o'zaro bir-birlariga bo'lgan shaxsiy insoniy munosabatlari sifatida ham qaraladi, ular pedagogik jarayon qatnashchilarining xatti-harakatlarida, xulqida, ish shakli va usullarida namoyon bo'ladi. Ular o'rtasidagi o'zaro axloqiy baholashlar ham muhim rol o'ynaydi.

Pedagogik jarayonda o'qituvchi axloqiy munosabatlarning subyekti hisoblanadi. U pedagogik jarayonning asosiy kishisi — figurasi sifatida o'quvchilar, kasbdoshlar, ota-onalar bilan muomalada bo'ladi. Pedagogik muomala odobi tizimida o'qituvchi asosiy figuradir. O'quvchilar, kasbdoshlari, ota-onalar, pedagoglar jamoasi va jamoat tashkilotlarining vakillari o'qituvchi uchun pedagogik muomala-munosabatlarning obyektini hisoblanadi. Ular bilan bo'ladigan aloqalar yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish vazifalarini bajarish jarayonida sodir bo'ladi. Bu muomala jarayonida ishtirok etadigan kishilar bir-birlariga nisbatan xayrixoh, ijobiy hissiyotda bo'lishlari, bir-birlarining fazilatlarini o'zaro baholashlari, qadrlashlarini nazarda tutadi.

Demak, o'qituvchining muomala odobi - u aloqa qiladigan odamlar, muassasalar bilan o'z professional vazifasini bajarayotganda sodir bo'ladigan axloqiy munosabatlar majmuidir. Bu yondashuv asosida pedagogik muomala odobini shartli ravishda quyidagi guruhlariga ajratish mumkin: O'qituvchi bilan o'quvchilar o'rtasidagi muomala; O'qituvchi bilan pedagogik jamoa o'rtasidagi muomala; O'qituvchi bilan ota-onalar o'rtasidagi muomala; O'qituvchi bilan maktab rahbarlari o'rtasidagi muomala.

Muomala odobida o'qituvchining axloqiy ongi, axloqiy faoliyatining yetuklik darajasi, axloqiy ehtiyojlari va axloqiy yo'nalishlari, so'zi bilan ishining birlik darajasi, xullas, muallimning faol hayotiy nuqtayi nazari namoyon bo'ladi.

Muomala odobi bevosita baho beruvchilik xususiyatiga ham ega. Axloqiy baho esa kishilarning xulqini, xatti-harakatlarini nazorat qiladi, tartibga soladi. Muomala-munosabatlar kishi o'z xulqi va faoliyatida axloqiy prinsiplar, qoidalar, talablar, an'analarga, urf-odatlariga qay darajada amal qilayotganiga qarab baholanadi.

Pedagogik jarayonda sodir bo'ladigan muomala odobida muallimning axloqiy madaniyati, tarbiyalanganlik darajasi aks etadi. Muallimning pedagogik kasb egasi sifatida o'ziga, o'z kasbiga, o'quvchilarga, kasbdoshlariga, ota-onalarga muomalasini belgilovchi asosiy qoidalar, talablar mavjud. Bu mezonlar jamiyat davlat o'qituvchiga, ta'lim-tarbiya ishlariga nisbatan qo'yayotgan axloqiy talablariga, pedagogik faoliyatning axloqiy xarakteri va xususiyatlariga asoslanadi.

36.3. Pedagogik nizolar va ularning oldini olish yo'llari

Nizo - o'zaro kelishmovchilik asosida sodir bo'ladigan holat va vaziyatlardan iborat tushunchadir. Pedagogik nizolar o'zaro ta'lim-tarbiya jarayonlarida vujudga keladigan o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi tushunmovchiliklar,

kelishmovchilik holatlarida kelib chiqadigan vaziyatlardir. Ta'lim jarayonida pedagogik nizolar va ularning kelib chiqish sabablari quyidagilardan iborat:

1. O'qituvchining ta'lim jarayonida o'quvchilar bilan muomala madaniyatiga rioya qilmasligi.

2. O'quvchilarning psixologik (temperament) xususiyatlarini dars jarayonida hisobga olmaslik.

3. O'quvchilarning pedagogik (bilimlilik, tarbiyalanganlik darajalari) xususiyatlarini ta'lim jarayonida hisobga olmaslik.

4. O'quvchilarning fiziologik (jismaniy rivojlanish darajasi) xususiyatlarini hisobga olmaslik.

5. O'quvchilarning yoshlik (bola yoshiga nisbatan murakkab ish va topshiriqlarni bermaslik) va individual (qobiliyati, xotirasi, diqqatini rivojlanishi) xususiyatlarini hisobga olmaslik.

6. O'quvchilarning ongi, qalbi va xatti-harakatiga ijobiy tarzda pedagogik ta'sir ko'rsata olmaslik.

7. Pedagogik jarayonlarda rag'batlantiruvchi va jazolovchi usullardan oqilona foydalana olmaslik.

8. O'quvchilar bilan pedagogik jarayonlarda individual ishlamaslik.

9. O'quvchilar haqida berilgan ma'lumotlarni, ya'ni ularning pedagogik - psixologik tavsifnomalari bilan tanishmaslik.

10. O'quvchilarning o'smurlik davridagi o'tish holatlarini pedagoglar tomonidan hisobga olinmasliklari.

11. O'qituvchilarning pedagogik jarayonlarda o'z o'quvchilarning oilaviy imkoniyatlarini hisobga olmaslik.

12. O'qituvchi - xodimlarda pedagogika va psixologiya fanlariga oid ilmiy - nazariy va amaliy bilim asoslarini yetishmasligi.

13. Pedagogik xodimlarning hayotiy tajribalariga ega emasligi.

14. Pedagogik ta'sir ko'rsatishning usul va uslublarini, metodikalarni, texnologiyalarni to'liq tushunib yetmaslik.

15. Ta'lim jarayonida pedagogning odob-axloq va nazokatiga (yaxshilik qilish, muruvvat ko'rsatish, kechirimli bo'lish, mehribon bo'lish, pedagogik jihatdan talabchanlik, burch va mas'uliyatni anglab yetish, adolatli bo'lish, vaziyatga qarab qattiqqo'llik qilish va h.k.) axloq me'yorlariga amal qilmaslik.

Pedagogik nizolarni yuzaga keltirmasligi uchun ziddiyatlarni, muammolarni oldini olishda o'qituvchi pedagogik qobiliyatli bo'lishi, o'qituvchilik ishida muvaffaqiyatga erishish uchun har bir muallim pedagogik mahoratni egallashi zarur. Pedagogik faoliyatning samarali bo'lishi uchun o'qituvchida qobiliyatning quyidagi turlar mavjud bo'lmog'i lozim. Bilish-qobiliyati o'z mutaxassisligini kuchli bilishi, o'z fani sohasida kashfiyotlarni hamisha kuzatib borishi kerakdir. Tushuntira olish qobiliyati - o'quv materialini o'quvchilarga tushunarli qilib yetkazib bera olish muammoli ziddiyatli mavzularni hayotiy misollar asosida tushuntirib berish: kuzatuvchanlik qobiliyati-o'quvchining tarbiyalanuvchining ichki dunyoga kira olishi, o'quvchi shaxsini va uning vaqtinchalik ruhiy holatlarini yaxshi tushinish bilish bilan bog'liq bo'lgan kuzatuvchanlikka ham e'tiborini qaratish.

Ta'lim jarayonida o'qituvchi nizolarni yuzaga keltirmasligi uchun o'quvchini yosh va individual xususiyatlarga ham e'tibor berish lozim. Har bir guruh talabalarini harakteri, temperamentiga qarab munosabatga kirishsa, o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida konfliktlar yuzaga kelmaydi.

O'zaro munosabatlarni keskinlashtiruvchi pedagogik vaziyat. Pedagogik vaziyat ta'lim-tarbiya jarayonida yuz beradigan turli xil shart-sharoitlardir. Pedagogik vaziyatda shunday holatlarga duch kelishimiz mumkin. Ta'lim jarayoni olib borilayotgan, ya'ni o'qituvchi ma'ruza o'tayotgan paytda talabalarimiz tushunmagan narsalarni o'z vaqtida o'qituvchining fikrini to'xtatib savolini beradi. Agar pedagog o'z fanini puxta egallagan bo'lsa, savolga javob berib, keyin ma'ruzani davom ettira oladi. Bunday pedagogik vaziyatda ayrim pedagoglarimiz fikrim bo'lindi deb talabalarga tanbeh beradi. Bu vaziyatdan chiqishga qiyinalib qoladilar. Ayrim guruhlarda iqtidorli talantli talabalarimiz borki, ularning fikrlari juda keng turli xil mavzudagi savollarni o'rta tashlaydilar, bunday vaziyatda o'qituvchi nima qilishi kerak, o'qituvchi biladi. lekin talabaga kengroq umumiyroq tushuntiray yana savol beraveradi. Demak, bunday vaziyatda o'qituvchi darsni bahs munozara tarzda tashkil qilsa, guruh talabalaridan yangi-yangi fikrlarni eshitishi va so'ng umumiy xulosa qilib o'z fikrlarini bildirishi lozimdir. Pedagogik vaziyatlarda ham pedagogik konfliktlarni ko'rishimiz mumkin. Darsni bahs-munozara shaklida qarama-qarshilik, tafovut, mo'joralarni oldini olishda talabalar bir-biriga bildirayotgan fikrlarini ba'zan umuman rad qilib tashlaydilar. Pedagogik vaziyatda talabani ham fikrlarini qaysidir tomonlama to'g'riligini ta'kidlash pedagogni pedagogik vaziyatdagi yutuq'idir.

To'qnashuv qarama-qarshilik ziddiyatlar guruhlarda jamoalarda vujudga keladi. SHaxsning jamiyatdagi o'rni o'zini qanday tutishi egallangan mavqeyi ham sababsiz o'z-o'zidan ro'y bermaydi. Faoliyatni amalga oshishi va shaxs xulq atvorini tushuntirish uchun pedagogik konfliktologiyada motiv tushunchasiga to'xtalamiz. Motiv aniqroq tushuncha bo'lib, u shaxsdagi u yoki bu xulq atvorga nisbatan turgan moyillik, hozirlikni tushuntirib beruvchi sababni nazarda tutadi. Jamiyatimiz keng qamrovli bo'lib, u yerda turli xil harakterdagi shaxslarni uchratishimiz mumkin. SHaxslararo konfliktlar albatta faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Masalan, guruh misolida ko'ramiz. Tasavvur qiling bir guruhda iqtidorli talantli shaxslarimiz bor. Ular har bir mazmunni yaxshi o'zlashtirib mustaqil fikrlarini bildiradi oladilar, fikr doiralari keng bo'lganligi sababli u shaxslar o'rtasida to'qnashuv, majoro kelishmovchilik, konfliktlar yuzaga keladi. Har bir guruh a'zosi o'z fikrini to'g'riligini isbotlay oladilar, bunday holatlarda konfliktni boshqarish o'qituvchi tomonidan bartaraf etiladi. Har bir sohada shaxslar o'rtasida konfliktlarni ko'rishimiz mumkin. SHaxslar o'z ustida ishlasa, fikrini isbotlay oladimi, ular konfliktlarni yechimini ham topadilar.

Bunda muloqot pedagogik konfliktlarning yechish va boshqarishning usuli sifatida namoyon bo'ladi. Muloqotdagi ziddiyat shakllari turlichadir. Masalan, yuzma-yuz yoki texnik vositalar (telefon telegraf va shunga o'xshash vositalar) bilan amalga oshiriladi. Oilada konflikt, muloqot ayrim a'zolari o'rtasida bo'lishi mumkin. O'zaro munosabatlarga kirishilganda konfliktni yuzaga kelishmasligini

asosiy sabablari, o'zaro til topishish, bir-birini tushunishdir. Bu jarayonning murakkabligi, kerak bo'lsa, o'zaro til topishishi bir-birini tushuna olish lozim.

Har qanday faoliyatdan zerikishi mumkin, faqat odam muloqotdan ayniqsa, uning norasmiy, samimiy, bevosita shaklidan charchamaydi, yaxshi suhbatdoshlar doimo ma'naviy jihatdan rag'batlantiriladilar. Aslida har bir insonning ijtimoiy tajribasi, uning insoniy, qiyofasi, fazilatlarini, hattoki nuqsonlari ham muloqot jarayonlarining mahsulidir. Har qanday muloqotlarning elementar funksiyasi suhbatdoshlarning o'zaro bir-birini tushunishlarini ta'minlashdir. Pedagogik konfliktlarni oldini olishda gaplashayotgan odamlar biri gapiradi, ikkinchisi tinglaydi, eshitadi. Muloqotning samaradorligi ana shu ikki qirraning qanchalik o'zaro mosligi, bir-birini to'ldirishga bog'liqdir. Noto'g'ri tasavvurlardan biri shuki, odamni muomola yoki muloqotga o'rgatganda, uni faqat gapirishga, mantiqan asoslangan so'zlardan foydalanib ta'sirchan gapirishga o'rgatishadi. Uning ikkinchi tomoni - tinglash qobiliyatiga deyarli e'tibor berilmaydi. Mashhur amerikalik notiq, psixolog Deyl Karnegi «yaxshi suhbatdan -yaxshi gapirishni biladigan emas, balki yaxshi tinglashni biladigan suhbatdoshdir» deganda aynan shu qobiliyatning insonlarda rivojlangan bo'lishini nazarda tutgan edi. Pedagogik muloqot - o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatiga aytiladi. Pedagogik jarayondagi aloqalar tizimida o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi muomola -munosabatlar katta o'rin egallaydi.

O'qituvchining kasbiy faoliyatida muloqot madaniyatini shakllanishi

Muloqot madaniyati individual individual uslublarini shakllanish metodikasi

A) o'quvchilar bilan muloqot qilish madaniyatini individual shaxsiy xususiyatlarini o'rganish bunda, o'quvchilar shaxsiy xususiyatlarini mustaqil taxlil qilish, o'quvchilar ichki imkoniyatlariga har tomonlama tavsif berish, o'qituvchining muloqot madaniyatini to'g'ri tashkil qilish.

B) SHaxsiy muloqotda ro'y beradigan kamchiliklarni darhol bartaraf etish bunda, kamchiliklarga barham berish choralarini darhol izlab topish, har qanday vaziyatda o'quvchilarga qo'pollik qilmaslik, o'quvchi shaxsini mensimaslik kabi salbiy xossalarni bartaraf etish.

S) O'qituvchi o'zi uchun muloqot madaniyatining eng qulay uslublarini tanlab olishi bunda, pedagogik faoliyatga monand muloqot madaniyati modelitni ishlab chiqish, o'z-o'zini kuzatish bilan muloqotdagi yutuq va kamchiliklarni muntazam taqqoslab borish, muloqotda milliy misanaviyatimiz, urf-odat va an'analarni imkoniyatlaridan doimiy foydalanish, muloqot madaniyatida pedagogik faoliyat qonuniyatlaridan chetga chiqmaslik, har bir o'quvchini individual xususiyatiga mos muloqot tizimini ishlab chiqish, muloqotni ng tarbiyaviy ta'sirini va samarasini e'tirof etish, muloqot madaniyati asosida pedagogik mahoratni namoyish etish.

Nazorat uchun savollar

1. Pedagogik muloqot nima? Muloqotga qanday talablar qo'yiladi?
2. Pedagogik muloqot tuzilishini tavsiflang.

3. Pedagogik nizo deganda nimani tushunasiz? Uning turlariga qisqacha tavsif bering.

4. O'quvchilarga pedagogik ta'sir ko'rsatishning qanday usullari mavjud?

34. PEDAGOGIK TAKT VA PEDAGOGIK ETIKA

34.1. Takt va pedagogik takt haqida tushuncha

34.2. Pedagogik axloq

34.1. Takt va pedagogik takt haqida tushuncha

“Takt” so‘zi “tegib turish” ma‘nosini anglatib, odamlar o‘rtasidagi munosabatlarni boshqaruvchi axloqiy kategoriya hisoblanadi. Gumanizm prinsiplariga asoslangan, taktik xulq atvor murakkab va ziddiyatli vaziyatlarda ham insonni hurmat qilishni talab etadi.

Pedagogik takt-o‘qituvchi xulq atvori va xatti harakatlarida o‘zida yuqori darajadagi insoniylikni, o‘quvchi qadri qimmatini hurmat qilishni, adolatlilikni, o‘quvchilar, ota-onalar hamda hamkasblar bilan munosabatlarda bosiqlik va o‘z-o‘zim boshqarishda me‘yorni his etishdir. Pedagogik takt-pedagogik axloqni amalga oshirishning bir shakli. Bu o‘qituvchini o‘quvchilarga maqsadli ta’sir etishining o‘lchovidir.

Pedagogik taktning asosi o‘qituvchining yuqori darajadagi ilmiy va maxsus tayyorgarligi, o‘quvchilar va ularni bilimiga bo‘lgan muxabbati, pedagogik mahorati, xulq-atvor madaniyati va o‘qituvchi obro‘si hisoblanadi.

Umumiy va pedagogik takt-bu bir narsa emas. Har qanday odam taktik (odobli), nozik tabli, pedagogik odobli bo‘la olmaydi. Pedagogik takt umumiy taktidan o‘qituvchini shaxsiy sifatlarini (hurmat, bolalarni sevish, mexribonlik) ifodalab qolmay, ammo o‘quvchilarga ta’sir etishning to‘g‘ri yondoshuvni tanlashni ham ifodalaydi. Pedagogik takt- bu o‘qituvchini kasbiy sifati, uning mahoratini bir qismi hisoblanadi.

O‘qituvchining pedagogik takti ahamiyati:

O‘qituvchi takti (odobi) ahamiyati pedagogik faoliyatning ijodiy xarakteri bilan aniqlanadi.

Pedagogik takt o‘qituvchini o‘quvchilar o‘rtasidagi obro‘sini qozonishi uchun zarur bo‘lgan sharoit hisoblanadi.

Pedagogik takt o‘quvchilarda ongli intizomni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Takt pedagogik faoliyatning barcha turlarida paydo bo‘lib, o‘quvchilar xarakteridagi ijobiy sifatlarini tarbiyalaydi.

34.2. Pedagogik axloq

Axloq – bu ijtimoiy ongning bir shakli bo‘lib, odamnixulqini, xatti-harakatlarini, tarbiga soluvchi, boshqarib turuvchi qoidalar, prinsiplar, yo‘l-yo‘riqlar, mezonlar, me‘yorlar, pand-nasixatlar majmuidan iborat.

Odob-esa odamlar o'rtasidagi paydo bo'lgan muomala-munosabatlarning xususiyatlari tushuniladi. Axloq- umuminsoniy va milliy barakterga ega. Umuminsoniy axloq-turli davrlarda barcha xalqlardja kishilarning turmushi, hayot tarzida shakllangan, insonlarni muomala-munosabatlarini tarbtibga solib turuvchi umumiy axloqiy sifatlar tushiniladi.

Milliy axloq-deganda umuminsoniy axloqqa xos xususiyatlarni saqlagan holda millat va elat kishilariga gina xos blo'gan axloqiy xususiyatlari tushuniladi. Kasb axloqi-inson mehnati va faoliyatini tarbtibga solib turuvchi axloqiy normalardir. O'qituvchi odobi-O'qituvchining o'quvchilar, kasbdoshlar, ota-onalar bilan muomala-munosabatlarida ifodalanadigan kasbiv axloqiy xususiyatlaridir.

O'qituvchi odobini shakllanishining qonuniyatlari

O'qituvchi odobining umumiy qonuniyatlari:

-o'qituvchi odobining harakteri jamiyatda mavjud bo'lganishlab chiqarish ehtiyojlari bilan belgilanishi

- o'qituvchi odobining maqsadi, mazmuni, usullarini birligi

-pedagogik jarayonda axloqiy marifiy, axloqiy tarbiya, o'qituvchi odobining birligi

O'qituvchi odobining xususiy qonuniyatlari:

- O'qituvchilik kasbini va bolalarni sevishi

- O'z fanini, uni metodikasini, psixologiyani bilishi

- O'qituvchi shaxsinin axloqiy pokligi

- Jamiyat oldidagi burchni, mas'uliyatni anglashi

- O'ziga o'z kuchiga ishonishi

- Muomala odobi qoidalariga amal qilishi

- Barcha o'quvchilarga nisbatan xolis, talabchan, aolatl bo'lishi.

Pedagogik axloqning tarixiy ildizlari o'qituvchilik kasbning paydo bo'lishi bilan bog'liq O'qituvchilik kasbi paydo bo'lishi bilan o'qituvchilik odobi ham paydo bo'la boshladi. Bu yozuv ixtiro qilmgach o'qish, yozishni o'rgatish uchun maktablarni paydo bo'lishi bilan bog'liq. Odamlar to'plagan turmush tajribasini yoshlarga o'rgatish, ularni hayotga, mehnat faoliyatiga tayyorlash ehtiyoji natijasida qadim zamonlardavoq ta'lim-tarbiya mustaqil ijtimoiy faoliyat sifatida paydo bo'ldi.

O'qituvchi hayotga endigina kirib kelayotgan, barkamol shaxs sifatida shakllanayotgan insonlar yosh bolalar bilan muloqotda bo'ladi. O'qituvchining biror tasodifiy xatti-harakati natijasida o'quvchilarda u haqda sodir bo'lgan fikr ham ta'lim-tarbiya jarayoniga salbiy ta'sir etishi, o'qituvchining ishini murakkablashtirishi mumkin. Odatda, bunday ziddiyatlar uzoq davom etadi va o'qituvchi foydasiga hal etiladi. O'qituvchi obro'sini saqlayman deb, kattalar ba'zan o'quvchining qadr-qimmatini yerga uradilar, o'quvchidan kechirim so'rashni talab etadilar, vaholanki bu nizoga o'qituvchining noto'g'ri xatti-harakati sabab bo'lgan. O'qituvchining ishi axloqiy tarbiya talablariga to'g'ri kelmaydi. Bolalar bilan muomola va munosabatlarda ularning har biriga alohida yondashishi lozim. Agar o'qituvchi va o'quvchi bir-birini tinglasa, o'z-o'zini ham tarbiyalavdi. Demak, tinglash jarayoni ko'pchilik tasavvur qilgani kabi unchalik passiv jarayon emas. Tinglash qobiliyati gapiruvchi shaxsni ilhomlantiradi, uni ruhlantiradi, yangi fikrlar g'oyalarning shakllanishiga imkoniyat yaratadi. Shuning uchun ma'ruzachi

professorning har bir chiqishi va ma'ruzasi, agar talabalar tomonidan diqqat bilan tinglansa, bu pedagogik muloqotdan ikkala tomon ham teng yutadi.

Har qanday mutaxassis odob-axloq namunalariga ega bo'lishi tabiiy holdir. Chunki tabiatga, jamiyatga, notanish kishilarga, jism va ashvolarga, o'z-o'ziga munosabatda haqiqiy mezon rolini bajaruvchi qobiliyatga ega bo'lishlik aynan o'qituvchi shaxsida mujassamlashadi. Pedagogik odob o'qituvchining kasbiy sifati, uning mahoratining bir qismidir.

Pedagogik odob etnopsixologik his-tuyg'ulari, milliy karakter xususiyati, xulq, faoliyat, muomala qoidalar, qonuniyatlari va ko'nikmalaridan me'yoriy ravishda maqsadga muvofiq tarzda foydalanishda o'z aksini topadi: emotsional his-tuyg'ular, kechinmalar, stress va affektiv holatlar xossalari, chegaralarga batamom rioya qilish; xulq-atvor malakalarini amaliyotda oqilona qo'llash; bachkana qiliqlar, ortiqcha harakatlar qilishdan o'zini tivyish, nutq madaniyatidan tashqari chiqmaslik, shaxsiyatga tegadigan iboralar ishlatmaslik, qo'pol va dag'al so'zlar qo'llamaslik; hissiy, aqliy bilish jarayonida muayyan me'yorlarga asoslanish, manmanlikni namoyish etmaslik; o'quvchilar va o'qituvchilar jamoalari bilan, ota-onalar hamda notanish kishilar bilan munosabatga kirishishda rasmiy, qat'iy ishbilarmonlik uslublariga asoslanish kerak.

O'qituvchi odobining mohiyati, asosiy mazmuni pedagogik faoliyat uchun muhim bo'lgan axloqiy sifatlarda ifodalanadi. Umuminsoniy va milliy - axloqiy fazilatlar barchasi kishilar, hamma kasb egalari, jumladan, o'qituvchi - tarbiyachilar uchun ham juda zarurdir.

M.Ochilov o'qituvchi odobini tavsillar ekan, muallim tabiat va jamiyat go'zalliklarini yuksak did bilan ko'ra oladigan, undan lazzatlanadigan kishi bo'lishi kerakligini, boshqalarga yaxshilik qilishga intilish, yomonlikka qarshi murasasiz kurashda yaxshilikning, adolatning qaror topishidan qanoat hosil qilishi; tabiat va jamiyat sirlarini tobora chuqurroq bilib olayotgan yosh insonning aql-zakovatidan g'ururlanishi lozimligini asoslaydi. Olim o'qituvchi axloqidagi halollik fazilatini yuqori baholaydi. Halollik muallimning ichki va tashqi dunyosining birligini, so'zi bilan xatti-harakatlari to'g'ri kelishini, o'quvchilarga, hamkasblarga, ota-onalarga, samimiy munosabatini ifodalovchi axloqiy sifattir.

Axloqiy fazilatlar mehnat jarayonida kishining xulqi, fe'l-atvorini tartibga solib turuvchi axloqiy qoidalar, normalar, talablar, mezonlar shaklida ifodalanadi. Axloq normalari davlatning turli qonunlari bilan amalga oshiriladigan huquq normalaridan farq qilib, ommaviy odat va namuna kuchi, jamoatehilikning fikri ta'sirida yuzaga keladi. Boshqacha qilib aytganda, ijtimoiy voqelik shaxs oldiga ma'lum axloqiy talablar qo'yadi, bu talablar axloq normasi, axloqiy fazilatlar shaklida ifodalanadi. Jamiyat o'z faoliyati va istiqboli uchun xizmat qiladigan axloq normalari, talablari, mezonlarini belgilaydi.

O'qituvchi umuminsoniy va milliy-axloqiy fazilatlarini o'zlashtirib olishi, tajribada qo'llashi, o'zining dunyoqarashi, mafkurasi va axloqiy tajribasi bilan taqqoslashi lozim. Fikrlash va his etishi, turmushda sinab ko'rish natijasida umuminsoniy va milliy - axloqiy sifatlari, qoidalar, normalar o'qituvchi o'z axloqiy fazilatiga e'tiqodiga aylanadi. Bular muallimning dunyoqarashi, fikr va

mulohazalari bilan qoʻshilib, bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyat qurish sharoitida uning oʻrni va rolini belgilaydi.

Oʻqituvchi odobining normalari har bir muallifning shaxsiy fikriga, axloqiy fazilati va eʼtiqodiga aylanishi lozim. Axloqiy eʼtiqod va sifatlar oʻqituvchining dars berish jarayonida, tarbiyaviy ishlarida, oʻqituvchilar, ota-onalar va boshqa kishilar bilan muomala, munosabatlarida kundalik turmushda oʻzining shaxsiy namunasi bilan axloqiy taʼsir oʻtkazishida koʻzga tashlanadi. Pedagogik takt oʻqituvchi axloqining amaliy koʻrinishlaridan biridir. Muallif xulqining natijalari uning yoshlarga axloqiy taʼsirining samaradorligida, axloqiy tarbiya sohasida erishgan yutuqlarda namoyon boʻladi.

Oʻqituvchi odobining asosiy sifatlari umuminsoniy va milliy-axloqiy fazilatlar tushunchalariga mos keladi va ularni pedagogik faoliyati bilan bogʻliq tarzda bir qadar oydinlashtradi, aniqlaydi. Insonparvarlik, vatanparvarlik, milliy gʻurur baynalmilallik, adolat, yaxshilik qilish, burch, qadr-qimmat, masʼuliyat, vijdon, halollik, rostgoʻylik, poklik, talabchanlik kabi axloqiy fazilatlar oʻqituvchi odobida pedagogik faoliyati bilan bogʻliq ravishda tahlil qilinadi. Bolalarga yaxshilik qilish, oʻqituvchilik burchi, oʻqituvchilik shaʼni, kabilar oʻqituvchi axloqining muhim fazilatlarini hisoblanadi. Ularni chuqur va puxta oʻzlashtirish boʻljak oʻqituvchi uchun katta amaliy ahamiyat kasb etadi.

Fazilatlar- kishining xulqi, feʼl atvorini tartibga solib turuvchi qoidalar, normalar, talablar, mezonlar shaklida ifodalanadi.

Oʻqituvchining axloqiy fazilatlarini

Yaxshilik- ijobiy axloqiy fazilat boʻlib, xulqiy sifatlarning majmuini, inson faoliyati yoki biror xatti harakatiga ijobiy munosabatning yigʻindisini aks ettiradi.

Yaxshilik qilish- kishining axloqiy onggi va axloqiy tajribasida jamiyat va shaxs manfaatlarini birligini aks ettirib, shaxsga va jamiyatga manfaat keltiradigan ijtimoiy taraqqiyotga mos keladigan fazilatdir.

Burch - har bir kishining oʻz vazifasini toʻliq bajarishi, boshqalarga toʻgʻri munosabatda boʻlishini ifodalaydi. Burchda shaxsning jamiyatga boʻlgan munosabati namoyon boʻladi. kishining oʻz burchiga sodiqligi jamiyatga, Vatanga, mehnatga, oilaga, farzandlariga boʻlgan munosabatida bilinadi.

Oʻqituvchilik burchi- aql bilan hissiyotning birligidan iborat. Oʻqituvchi kasbiga nisbatan qoʻyiladigan talablarni mohiyati va mazmunini bilsa, uning shaxs va jamiyat uchun ahamiyatini anglasa, bu vazifani bajarish uchun oʻzida qobiliyat borligini sezsa, unda oʻqituvchilik burchi shakllana boshlaydi. Oʻqituvchilik burchi aql bilan hissiyotning birligidan iborat. Oʻqituvchi neing muhim burchlaridan biri oʻz bilimni muntazam oshira borishidir. Umuminsoniy va milliy axloqda burch tushunchasi har bir kishining oʻz vazifasini toʻliq bajarishi, boshqalarga toʻgʻri munosabatda boʻlishini ifodalaydi. Burchda shaxsning jamiyatga boʻlgan munosabati namoyon boʻladi. Oʻz burchiga sodiqlik har bir kishiga obroʻ, shon-sharaf keltiradi. Kishining oʻz burchiga sodiqligi jamiyatga, vatanga, mehnatga, oilaga, farzandlariga boʻlgan munosabatida bilinadi. Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida fuqarolarning huquqlari bilan bir qatorda burchlari ham belgilangan. Qonunlarga rioya etish, boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, shaʼni va qadr qimmatini hurmat qilish; Oʻzbekiston xalqining tarixiy, madaniy va

ma'naviy merosini avaylab asrash; atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish har bir fuqaroning burchidir. Burchga sodiqlik har bir kishining odobi, axloqini ko'rsatadi. Katta yoshdagi kishilarni hurmatlash yoshlarning burchidir.

Ijtimoiy burchni yuksak darajada anglash o'qituvchining axloqiy fazilati hisoblanadi. Muallim bolalarga o'rgatadigan g'oyalar uning qalbidan joy olib, dunyoqarashning asosi bo'lishi zarur. Har bir ishda, har bir masalada muallim o'z burchiga sodiq, qat'iy prinsipli bo'lishi, har qadamda unga amal qilish zarur.

Muallimning mafkurasi fuqarolik ruhi bilan sug'orilgan bo'lsa, ijtimoiy burchni vijdonan his qilishga, intizomlilik, xatti-harakatlarini nazorat qila bilish, kamtarlik, insonparvarlik, o'z qadr-qimmatini to'g'ri baholay olishga imkon beradi.

O'qituvchi yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish sohasidagi o'z burchini o'ziga yuklatilgan majburiyat emas, balki o'z hayotining ma'nosi, ishonch va vijdon da'vati deb hisoblaydi. Fuqarolik burchini his etish butun xalq va O'zbekiston davlatining buyuk kelajagi to'g'risida g'amxo'rlik qilishni taqozo etadi. Davlat oldidagi burchni yuksak anglagan, mafkuraviy barkamol muallim insonga izzat-hurmatli, yoshlarga g'amxo'r, mehribon, boshqalarga yordam qo'limi cho'zishga doimo tayyor turadigan kishidir. O'qituvchi axloqida burch hissi Vatanni sevish, uning porloq kelajagi uchun g'amxo'rlik qilishni talab etadi. O'qituvchi odobida vatanparvarlik burchi baynalmilalchilik tuyg'usi bilan chambarchas bog'liqdir. O'qituvchilik burchi ta'lim-tarbiya ishlarini bajarishga va muallimning shaxsiga nisbatan jamiyat qo'yadigan axloqiy talablar va yo'l-yo'riqlar majmuidir. O'qituvchilar, kasbdoshlari, ota - onalar bilan xushmotala, yaxshi munosabatda bo'lish, tanlagan kasbi uchun pedagoglar jamoasi va jamiyat oldidagi mas'uliyatini his etish shular qatoriga kiradi. Yoshlarni umuminsoniy va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash o'qituvchilik burchining asosini tashkil etadi.

O'qituvchilik burchining mazmuni ta'lim-tarbiya jarayonining mohiyati bilan belgilanadi. Bu jarayonda o'quvchilar insoniyat asrlar davonuda to'plagan bilim, ko'nikma va malakalarni egallab oladilar. SHuningdek, o'qitish jarayonida muallimning bajarayotgan ishiga munosabati ham, uning shaxsiy fazilatlar va qo'yiladigan axloqiy talablari aks etadi. O'qituvchilik kasbini tanlagan kishi bu axloqiy talablar va yo'l-yo'riqlarni albatta, bajarishi zarur. Pedagogik amaliyotda muallimlar o'z pedagoglik burchlarini bajarishga halol intilsalar ham ish sharoitlari turlicha bo'lgani uchun bir xil natijaga erishavermaydilar.

Ba'zan muallim burchi nima ekanligini va uni bajarish zarurligini tushunadi, lekin uni amalga oshirishga - masalan, har kuni o'z bilimini oshirish ustida ishlashga, boshlangan ishini oxirigacha yetkazishga irodasi chidamaydi yoki o'zini safarbar etolmaydi. Natijada jamiyatning muallimga qo'ygan axloqiy talabiga putur etadi. Maktab jamoasi bunday hollarda o'qituvchiga nisbatan talabchanlikni oshirishi zarur.

O'qituvchilik burchi aql bilan hissiyotning birligidan iborat. Muallim kasbiga nisbatan qo'yiladigan talablarning mohiyati va mazmunini bilsa, uning shaxs va jamiyat uchun muhimligini anglasa, bu vazifalarni bajarish uchun o'zida qobiliyat birligini sezsa, pedagog uchun zarur fazilatlarini tarbiyalash yo'llarni belgilab olsa, unda professional burch shakllana boshlaydi. Shundagina muallim belgilangan xatti-harakatlarni o'z ixtiyori bilan amalga oshira boshlaydi, demak, unda burch hissi

shakllangan deyish mumkin. O'qituvchining eng muhim burchlaridan biri o'z bilimlarini muntazam oshira borishdir.

O'qituvchining sha'ni, qadr qimmatini uning mansabi, kasbi koridan ko'ra ham ko'proq o'z kasbini qanday bajarishiga, uning odobi va xulq atvoriga bog'liq. U o'qituvchidan o'z ishining ustasi, kamtar va o'zini tuta bilishini talab etadi. O'qituvchining sha'ni, qadr qimmatini umumiy ishga qo'shayotgan hissasining salmog'i va sifati bilan belgilanadi. O'qituvchi o'quvchini sha'nini, qadr qimmatini hurmat qilsa, o'quvchilar orasida o'zining sha'mi, qadr qimmatini oshadi.

O'qituvchilik mas'uliyati- shaxs axloqning tavsiflaydigan belgilardan biridir. O'qituvchi zimmasiga bola shaxsini barkamol inson sifatida tarbiyalash mas'uliyati yuklanadi. O'qituvchining mas'uliyati uning xulqini tartibga solib turadigan, boshqaradigan kuch. o'quvchilarga ta'sir o'tkazish darajasini asosiy mezonni xisoblanadi. O'qituvchilik mas'uliyati - o'qituvchi faoliyati va ta'lim tarbiya jarayonining aniq vazifalarini o'z ichiga oladi. O'qituvchi zimm masiga bola shaxsini barkamol inson sifatida tarbiyalash mas'uliyati yuklanadi. SHaxs axloqini tavsiflaydigan belgilardan biri mas'uliyatdir. Boshqa kishilar oldidagi o'z burchini anglash va uni kishi xulqining rag'batiga aylantirish, odam o'z faoliyatini boshqalarga ko'proq yaxshilik qilishga ongli va ixtiyoriy ravishda yo'naltirishi mas'uliyat tushunchasining mazmunini tashkil etadi.

O'qituvchining mas'uliyati - mas'uliyat tushunchasining butun mazmunini saqlagan holda muallimning faoliyati va ta'lim-tarbiya jarayonining aniq vazifalarini ham o'z ichiga oladi. O'qituvchi zimmasiga bola shaxsini barkamol inson sifatida tarbiyalash mas'uliyati yuklanadi. Muallim o'quvchilarga chuqur nazariy bilimlar berishi, uni hayotga, mehnatga tayyorlashi lozim. SHu bilan birga u boladagi mavjud layoqat va qobiliyatlarni payqab, alohida yondashishi, unda mavjud bo'lgan ijobiy axloqiy fazilatlarni avaylab o'stirishi lozim. Muallim sinfda jamiyatning, xalqning, davlatning vakili sifatida o'qituvchilar jamoasi bilan yolg'iz o'zi ish olib boradi. Bunday sharoitda o'qituvchining mas'uliyati uning xulqini tartibga solib turadigan, boshqaradigan kuch, o'qituvchilarga ta'sir o'tkazish darajasining asosiy mezonni hisoblanadi. Jamiyatning kelajagi, ota-onaning umidi, nuri-diydasi - farzandning taqdiri. kelajagi uning qo'lga ishonib topshirilgan. Muallim o'quvchilarning bilimiga baho qo'yadi, baho esa jamiyatning, kattalarning, ota-onaning bolaga munosabatini belgilovchi mezon, omillardan biridir. Yaxshilik, adolat, sha'n, qadr-qimmat, insoniylik kabilarning mavjudligiga bolada ishonchni vujudga keltirish ham o'qituvchining mas'uliyatiga bog'liq. Shunisi ham borki, buni ko'pincha nazorat qilib ham bo'lmaydi. Bu muallimning vijdoniga havola qilinadi.

O'qituvchilik qilayotgan yoki muallimlik kasbini tanlagan kishilar o'z zimmalariga qanchalik yuksak sharafli mas'uliyat olayotganliklarini tasavvur etishlari lozim. Oliy yoki o'rta maxsus pedagogika o'quv yurtini bitirib, muallimlik faoliyatini boshlagan kishi barcha o'quvchilarga o'zini yaqin tutishi, odobi, odilligi bilan bolalarga ijobiy axloqiy namuna ko'rsatishi zarurligini yoddan chiqarmasligi kerak.

O'qituvchi vijdoni-vijdon kishining o'z xakiti harakati, qilinishi, yurish-turishi uchun odamlar, jamoatchilik oldidagi maks'uliyat tuyg'usidir. U diyonat,

insof, halollik, sofdillik ma'nolarini ham bildiradi. O'qituvchi faoliyatida axloqida, xulqida vijdon o'z o'zini nazorat vositasidir.

O'qituvchining talabchan va adolatli bo'lishi-o'qituvchining talabchanligida uning bola shaxsiga chuqur hurmati, bolani kuchi, qobiliyati, va imkoniyatlariga bo'lgan ishonchi ifodalanadi. O'qituvchining adolatligi uning xolisligida, axloqiy tarbiyalanganlik darajasida, o'quvchilar xulqini jamoat ishlariga munosabatlarini baholashda ko'rinadi. O'qituvchining professional axloqiy fazilatlaridan biri talabchan va adolatli bo'lishdir. Muallimning talabchanligida uning bola shaxsiga chuqur hurmati, bolaning kuchi, qobiliyati va imkoniyatlariga bo'lgan ishonch ifodalanadi. Bu haqiqiy insonparvarlikning namoyon bo'lishi, ya'ni rivojlanayotgan bola shaxsi to'g'risida, jamiyat uchun foyda keltira oladigan barkamol kishini tarbiyalash to'g'risidagi g'amxo'rlikdir. O'quvchilar loqaydlikni yoqtirmaydilar, aksincha yaxshi niyat bilan oqilona qilingan talabchanlik ularning muallimga hurmatini oshiradi.

O'qituvchi avvalo o'ziga nisbatan talabchan bo'lmog'i kerak, shundagina uning bolaga nisbatan qo'yayotgan talablari o'rinni, samarali bo'ladi. Muallimning talabchanligi adolatlilik bilan uzviy bog'liq bo'lmog'i zarur. Kuch adolat va haqiqatdadir! Adolat tushunchasining mazmunida haqiqat, poklik, to'g'rilik, kuch-qudrat mujassamdir. Adolatlilik umuminsoniy va milliy axloqimizning muhim xislatlaridan hisoblanadi. Islom ta'limotida adolat, adolatli bo'lish fazilati yuksak qadrlanadi. Adolat kishilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda odillik bilan ish tutishni taqozo etadi. Adolatlilik kishida aql, sof mulohaza, olijanoblik va mardlik mavjudligini bildiradi. Adolatli bo'lish, o'z so'zida turish, qat'iylik demakdir. Adolatli kishi sofdil, ko'ngli xotirjam, xavf-xatar, kulfatdan uzoq bo'ladi, odamlarning ishonchini qozonadi. Adolatlilik insoniylikning asosi hisoblanadi. Odobli va insonparvar bo'lish uchun adolatli bo'lish zarur. Adolat boshqa kishilarga muomala-munosabatda namoyon bo'ladigan fazilatdir. Adolatli kishi yaxshi xulqli odam hisoblanadi. Bunday odam o'ziga ravo ko'rmagan biror ishni boshqaga ravo ko'rmaydi. Adolatlilik va insoniylik kishini yomon ishlardan saqlash bilan birga boshqalarni ham xatoliklardan asrash, yaxshi yo'lga solish uchun zarurdir. Adolatli kishi boshqa birovga yoki jonivorlarga ozor bermaydi, zulm qilmaydi. Aql idrok bilan ish qiladi. O'qituvchining ta'lim-tarbiya sohasidagi ijtimoiy qimmatli xatti-harakatlari adolat mezoni bilan baholanadi. Adolatli muallim, odil ustoz degan nomga sazovor bo'lish, har bir o'qituvchining sharaflari burchidir. Bunda muallimning ishchanlik va axloqiy fazilatleri o'z ifodasini topadi. Adolatlilik boshqalarga yaxshilik qilish fazilati bilan chambarchas bog'liq. Adolat bo'lmasa, yaxshilik bo'lmaydi. Shuningdek yaxshiliksiz adolat ham bo'lmaydi. Pedagogik odob nuqtayi nazaridan adolatlilik, bu, ta'lim-tarbiya jarayonini normal amalga oshirishning sharti hamdir. Pedagogik ishida adolatli bo'lish bu o'quvchining ishonchini qozonishdir. Buning uchun esa bolaning qalbidagini, dilidagini bilmoq, tushunmoq kerak.

O'qituvchining adolatliliigi bolaning bilimni baholashda ko'proq namoyon bo'ladi. Ma'lumki, umunta'lim maktablarda o'quvchining bilumi besh ballik tizim asosida baholanadi. Dastur materialini to'liq o'zlashtirgan o'quvchiga «besh» baho qo'yiladi, mutlaqo bilmagan bolaga «ikki» baho qo'yiladi. Ma'lumki, bolalarning

bilimini o'zlashtirishga bo'lgan qobiliyati, qiziqishlari bir xil emas. Masalan, ze hni o'tkir o'quvchi dars materialini hech qiyinmay, bir pasda o'zlashtirib olishi mumkin. Ikkinchi bola esa buning uchun ko'p mehnat qilishi, intilishi kerak bo'ladi. Muallim ana shu holatni e'tiborga olmay ish tutsa, o'quvchiga nisbatan adolatsizlikka yo'l qo'yan bo'ladi, uning qo'yan bahosi ayrim bolalarni olg'a intilishga da'vat etmasligi mumkin. Zehni o'tkir bo'lgani uchun mehnat qilmay, kuch sarflamay yuqori baho olish bolaning axloqiga salbiy ta'sir etib, aqliy rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Ayrim zehni o'tkir bolalar dars jarayonida o'qituvchining fikrlarini to'liq o'zlashtirib oladi va shu bilan cheklanadi. Uyd dars tayyorlamaydi. Natijada uning aqliy rivojlanishi sekinlashadi. Va aksincha, intiluvchi, harakat qiluvchi bolaga bahoni past qo'yish ham unda o'z qobiliyati va kuchlariga, yaxshi o'qiy olishiga ishonmaslik tuyg'usini vujudga keltiradi.

Bolaning bilimini baholashda muallimning adolatligini o'quvchilar ham o'zlaricha muhokama qilib, baholab boradilar. O'qituvchi o'qitish jarayonida boladagi o'zgarishlarni, yutuqlarni payqab, rag'batlantirib, uni ruhlantirib borishi kerak. Ayrim muallimlar ilg'or o'quvchining bilim o'zlashtirish darajasiga qarab boshqa o'quvchiga ham baho qo'yadi. O'qituvchi o'quvchilar bilimini baholashda adolati bo'lish uchun har bir bolaning bilim o'zlashtirishga sarflangan kuch - gayrati, intilishlarini hisobga olishi kerak.

O'quvchining xulqini baholashda ham muallimdan adolatli bo'lish talab etiladi. Agar muallim bolaning xulqini, xatti-harakatlarini baholashda shu xatti-harakatlarga sabab bo'lgan motivlarni e'tiborga olmasa, adolatsizlikka yo'l qo'yadi. O'qituvchining bolaga nisbatan adolatsiz xatti-harakati, munosabati bolaning ruhiyatiga salbiy ta'sir etishi mumkin. Bola bilan bo'lgan muomala - munosabatlarda uning taqdiriga nisbatan loqavdlik, unga o'rinsiz baqirish, jahil qilish kabilar salbiy oqibatlariga olib keladi.

O'qituvchining adolatsizligi bolani qalbini jarohatlaydi, maktabning sha'niga putur yetkazadi, kattalarga bo'lgan ishonchini yo'qqa chiqaradi. Shuning uchun ham o'qituvchining har bir xatti-harakati, amaliy ishlarida adolatlilik namunasi bo'lmog'i kerak.

O'qituvchining ma'naviy qiyofasi (Rostgo'yligi, halolligi, pokligi)- o'qituvchining muhim fazilati, ma'naviy boyligi hisoblanadi. o'qituvchining ma'naviy boyligi xalq manfaatiga, voshlarni baxti, istiqboli, kelajagiga qaratilishiga xizmat qilishi zarur.

O'qituvchi odobida halollik fazilati pedagogik faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi. O'qituvchi odobida adolatlilik muallimning obyektivligida, axloqiy tarbiyalanganlik darajasi (insoniyligi, prinsipialligi, yaxshiligida, o'quvchilar xulqini, jamoat ishlariga munosabatini, bilimini baholashda namoyon bo'ladi. Demak, adolatlilik bir tomondan o'quvchilarga o'tkazilgan tarbiyaviy ta'sirni baholashning mezonini hisoblanadi. Muallimning o'quvchilarga va pedagogik jarayon qatnashchilariga bo'lgan munosabati manmanlikdan, noxolislik, o'zboshimchalikdan xoli bo'lishi lozim. Shundagina u adolatli hisoblanadi. Muallimlik ishini o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, u har kuni o'quvchilar bilan uchrashadi, ularning bilimini, xulqini baholaydi. Yaxshi ishlarini rag'batlantiradi, nojo'va xatti-harakatlarini, sho'xliklari uchun tanbeli beradi.

Albatta, muallimning fikri, mulohazalari, baholarida nisbiylik, subyektivlik belgilari mavjud. U hamma bolalarga aynan birdek, juda to'g'ri munosabatda bo'la olmasligi mumkin. Lekin o'qituvchi hammaga nisbatan xolis niyatli, yaxshilik qilishga intiluvchi, bolalarning kelajigi, taqdiri to'g'risida g'amxo'rlik qiluvchi, adolatli kishi ekanligiga barcha o'quvchilarning ishonchi komil bo'lmog'i dardkor. O'quvchilarda muallim «yoqitradigan», «yoqtirmaydigan» bolalar bor degan fikr tug'ilmasligi kerak.

O'quvchining savollarini, javobini, ba'zan juda g'alati bo'lib tuyuladigan mulohazalarini diqqat bilan tinglash, unga to'g'ri yo'l ko'rsatish, maslahatlar berish, javobini odilona baholash muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega. O'qituvchi bolaning mustaqil ijodiy fikrlarini, to'g'ri javoblarini ma'qullashi, qo'llab-quvvatlashi, rag'batlantirib borishi lozim. Bolaning javobi noto'g'ri, fikrlari chalkash, xato bo'lsa, muallim buni o'quvchiga yetarli asoslar bilan isbotlab ko'rsatishi kerak. U o'z obrusini pesh qilib, «men shunday dedimmi, demak, shunday» deb turib olmasligi, balki o'z fikrini faktlar, ilmiy dalillar bilan isbotlashi talab etiladi.

Nazorat uchun savolar

1. Takt va pedagogik takt mohiyati nimada?
2. Pedagogik odob va pedagogik nazokatning o'ziga xosliklariga tavsif bering?
3. O'qituvchining axloqiy fazilatlarini mohiyatini ochib bering?

35. PEDAGOGIK TEXNIKA VA UNI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

35.1. Pedagogik texnika haqida tushuncha.

35.2. Pedagogik texnikaning tarkibiy qismlari. Mimika, pantomimika.

35.1. Pedagogik texnika haqida tushuncha

O'qituvchi-pedagogik va psixologik jihatdan o'z iqtisodligi bo'yicha maxsus ma'lumotga ega kasbiy tayyorgarlikka va yuksak axloqiy fazilatga boy, ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatuvchi shaxsdir. Pedagogik texnika - bu pedagogik mahoratning tarkibiy qismidan biri bo'lib, o'qituvchining pedagogik faoliyatidagi o'z organizmini, o'z ichki tuyg'ularini, hissiyatini, ruhiyatini boshqarishidir. O'qituvchining pedagogik faoliyatida o'z organizmini, gavda harakatlarini boshqarishiga yuz muskullari harakatini hamda gavda harakatlarini boshqarish, o'z hissiyatini boshqarishiga o'z kayfiyatini, xursandchiligi yoki xafaligini boshqarishi, o'z ruhiyatini boshqarishiga o'z xotirasini, xayolini, diqqat va aqlini boshqarishi kiradi. Zamonaviy o'qituvchi o'z mashg'ulotlarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishi, zamonaviy axborot texnologiyalarni qo'llay olishi, pedagogik tizimni loyihalay olishi, ilmiy izlanishlarni muntazam amalga oshira olishi, pedagogika-psixologiya fanlari yutuqlari natijalarini amalda qo'llay olishi, mutafakkirlarning merosidan keng foydalanishi, mashg'ulotlarda interfaol

metodlardan foydalanishi, o'qitadigan fani bo'yicha avtomatlashtirilgan dasturlar paketini yaratishi zarur. Zamonaviy o'qituvchining fazilatları quyidagilar: O'qituvchi ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o'zgarishlar olib borilayotgan islohotlar mohiyatini anglab o'quvchiga to'g'ri ma'lumotlarni berishi: ilm-fan, texnika, texnologiya yangiliklari va yutuqlaridan xabardor bo'lishi: O'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishi, o'z ustida tinimsiz ishlashi; Pedagogika va psixologiya fanlari asoslari bo'yicha bilim ko'nikma malakaga ega bo'lishi; Axborot texnologiyalarini qo'llay olishi, ijodkor, tashabbuskor bo'lishi yuqori darajada mahoratli bo'lishi va boshqalar. Pedagogik san'at vaziyat bilan bog'liq. Bu yerda har gal hamma narsa yangidan sodir bo'lganday tuyuladi. Binobarin, kishi o'zining har bir qadamini oldindan ko'rishi, rejalashtirishi kerak. Pedagogning mehnati behad izlanishlardan iborat. Pedagogik san'at - bu qo'l bilan tutib bo'lmaydigan, faqat farosat bilan amalga oshiriladigan ishdir, ilg'an taassurot tug'iladi.

Biz mohir pedagog - o'qituvchilarning muvaffaqiyat bilan ta'sir usullaridan foydalana olishini, turli amaliy pedagogik vazifalarni mohirona qo'yishi va hal etishini ko'ramiz. Bunda maxsus ko'nikma asosiy rol o'ynaydi, ya'ni: o'quvchilarni bilish faoliyatiga jadal jalb etishi, savollar qo'ya olishi, jamoa va alohida shaxs bilan muloqoti, ko'zatlarni olib borishi, jamoani uyushtira olishi, o'z kayfiyatim, ovozi, mimika, xatti-harakatlarini boshqara olishi namoyon bo'ladi. Aynan pedagogik texnika o'qituvchining ichki tuyg'ulari va tashqi qiyofasi uyg'un bo'lishiga yordam beradi. Pedagogning mahorati uning ichki madaniyati va pedagogik tashqi ma'nodorligida aks etadi.

35.3. Pedagogik texnikaning tarkibiy qismlari. Mimika, pantomimika

«Pedagogik texnika» tushunchasi ikki tarkibiy qismni o'z ichiga oladi: Pedagogning o'z xatti-harakatlarini boshqara olish qobiliyati; o'z organizmidan (mimika, pantomimika) foydalana olish; o'z kayfiyati va hissiyotlarini boshqarish (psixik zo'riqishni oldini olish, ijodiy holatni vujudga keltirish); ijtimoiy - persepektiv qobiliyatlar (diqqat, kuzatuvchanlik, ijodiy tasavvur); nutq texnikasi (nafas olish, ovozni yo'lga qo'yish, to'g'ri talaffuz, savodli nutq). O'qituvchining shaxsga va jamoaga ta'sir eta olish qobiliyati va u ta'lim va tarbiya jarayonining texnologik tomonini yoritadi, ya'ni didaktik, tashkilotchilik, loyihalash, kommunikativ qobiliyatlar; talablarning texnologik usullarini qo'ya olish; pedagogik muloqotni boshqarish, jamoa ijodiy ishlarni tashkil eta olish va hokazo.

O'qituvchining pedagogik texnikasi - bu shunday malakalar yig'indisidirki, u pedagogga tarbiyalanuvchilar ko'rib va eshitib turgan narsalar orqali ularga o'z fikrlari va qalbini yetkazish imkonini beradi. Bolalar bilan muomala qilishda pedagogning xuddi ana shu malakalari uning xulq-atvorida namoyon bo'ladi.

Pedagogik texnika o'qituvchi malakalarning shunday yig'indisidirki, o'qituvchining eng yaxshi ijodiy xulq-atvoriga, boshqacha qilib aytganda, har qanday pedagogik vaziyatda tarbiyalanuvchilarga samarali ta'sir qo'rsatishga yordam beradi. Pedagogik texnika - usullarning xilma-xilligidir. Uning vositalari bo'lib nutq va muloqotning noverbal vositalari xizmat qiladi.

Noverbal muloqot axborot va tuyg'ularni yuz ifodasi, imo-ishora va harakatlar yordamida almashishdir. Noverbal muloqotga ba'zan «badan tili» sifatida qaraladi, biroq bunday qarashlar xato bo'lib, biz noverbal signallardan aytilganlarni ta'kidlash, kuchaytirish yoki kengaytirish maqsadida foydalanamiz. Yuz ifodalari, ta'na holatlari, ishoralar so'zlarga «qo'shimcha» sifatida, shuningdek hech narsa aytilmagan bo'lsa, ma'no uzatish maqsadida ishlatiladi.

Pol Ekman yuz ifodasini belgilaydigan muskullar harakatini tavsiflab chiqdi va uni «Yuz ifodalarini kodlashtirish tizimi» deb atadi. Uning tadqiqotiga ko'ra, yuzdagi olti asosiy emotsiya (baxt, achinish, jahl, nafrat, qo'rqinch, hayrat) barcha odamlarda bir xildir va tug'madir.

Pedagogik texnikani egallash uchun avvalo, o'qituvchi o'z fanini, o'qitadigan predmetini, pedagogika (bolashunoslik), psixologiya (ruhshunoslik) fanlarini davr taraqqiyoti darajasida bilishi, kasbiy jihatdan o'z-o'zini tarbiyalay oladigan bo'lishi zarur. Chunki pedagogik texnika individual shaxsiy xususiyatga ega. Har bir o'qituvchi, har bir pedagog o'zining kasbiy yo'nalishi, kasbiy laboratoriyasiga ega. Bu yo'nalish va laboratoriyani o'zi mustaqil fikr yuritish, mustaqil bilim olish orqali qo'lga kiritadi va mohir o'qituvchiga xos fazilatlarni tarbiyalaydi hamda kasbiy ideal sari harakat qiladi.

Bu malakalar zarur bilimlar bo'yicha leksiyalarni tinglash, maxsus adabiyotlarni o'qish orqali qo'lga kiritiladi. Tashkiliy-metodik malakalar aytilgan yo'l-yo'riqlar, ko'rsatmalarni o'zining individual kasbiy tajribasida sinab ko'nikma hosil qilinsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Tashkiliy-metodik malakalarning individual xususiyatlari, jamoa va guruh bo'lib ishlash, o'qish, faoliyat ko'rsatish asosida qurilgani ma'qul. Chunki guruh yoki jamoa bo'lib o'qish, ishlash har bir pedagogga o'zini boshqalar ko'zi bilan ko'rishni, faoliyatidagi nuqsonlarni seza bilishni, muomala va xulq-atvornang yangi shakllarni izlab topish va sinash imkonini beradi. Bu esa o'z-o'zini bilish, o'z-o'zini tarbiyalash uchun asos bo'ladi va pedagogik vazifalarning yangi usullarini tekshirib ko'rish, nazariy masalalarini hal qilish uchun tajriba maydoni bo'lib qoladi.

Har bir pedagogning individual dasturni ishlab chiqishdir. Bunday dasturni tuzishdan oldin pedagogik texnika malakalarini shakllanganligining boshlang'ich darajasini aniqlab olish zarur. Ya'ni pedagogning dastlabki o'quv-tarbiya ishlaridagi natija, nutq madaniyatining to'g'ri yoki noto'g'ri qo'yilishi, mimik va pantomimik aniqliklar va h.k. Bunda natija yaxshi bo'lsa, kelajakda pedagogik texnikani egallash ancha oson bo'ladi. Chunki ushbu ko'nikma va malakalarni rivojlantiradi. Individual dastur pedagogik texnika malakalarining yetishmaydiganini to'ldirish uchun xizmat qiladi. Bu dastur ma'lum mashqlar voki mashqlar majmuini o'z ichiga oladi. Olimlar olib borgan tadqiqotlarning ko'rsatishicha, ishni endi boshlayotgan pedagoglar duch keladigan qiyinchiliklarning asosiy ayni shu pedagogik birga ishlash sohasida bo'ladi. Pedagogik texnika to'g'risida yuqorida aytib o'tilgan narsalar malakalarning bu guruhiga e'tibor qilmashlik, pedagogik faoliyatda ularning tiliga yetarli baho bermaslik va buning oqibati sifatida individual pedagogik texnikani tanqidiy tahlil qilishni va uni takomillashtirish yuzasidan aniq maqsadga qaratilgan ishning yuqligi mazkur qiyinchiliklarning asosiy sabablaridan biri ekanligini tushunishga imkon beradi.

Pedagogik texnikani egallashning asosiy yoʻllari oʻqituvchi rahbarligidagi mashgʻulotlar (pedagogik texnikani oʻrganish) va mustaqil ishlash (kasbiy jihatdan oʻz-oʻzini tarbiyalash) dir. Pedagogik texnika malakalarining individual - shaxsiy tusda ekanligini hisobga olib, pedagogik texnikani egallashda kasbiy jihatdan oʻz-oʻzini tarbiyalash, yaʼni talabanning oʻzida mohir oʻqituvchi shaxsiy fazilatlarini va kasbiy malakalarini shakllantirishga qaratilgan faoliyat yetakchi oʻrin tutadi deb aytish mumkin. Oʻz-oʻzini boshqarishning asosiy usullari quyidagilar: xayrixohlik va optimizmni tarbiyalash, oʻz harakatlarini nazorat qilish (muskullar zoʻriqishini, harakatlar, nutq, nafas olish tempini yoʻlga qoʻyish); faoliyatini taqsimlash (mehnat terapiya, musiqaterapiya, biblioterapiyalar, yumor, taqlid oʻyin); oʻz-oʻzini ishonitirish; doimiy ravishda autogen mashqlar (psixofizik mashq); relaksatsiya seanslarini (jismoniy va ruhiy dam olish) oʻtkazish.

Ammo birinchi mashgʻulotlarda yuzaga keladigan muvaffaqiyatsizliklardan qoʻrqmaslik kerak. Chunki bu yerda tizimli ish olib borish, psixofizik apparatni mashq qildirish zarurki, u asta-sekinlik bilan pedagogik faoliyatingiz quloriga aylanib boradi. Pedagogik mahorat nazariyasini oʻrganuvchi va tatbiq qituvchi olimlarning fikrlariga qaraganda, pedagogik texnika malakalari ikki guruhga boʻlinadi: Malakalari pedagogning oʻz xatti-harakatini idora qilishi bilan bogʻliqdir. Bunga pedagogning mimik va pantomimik ifodalari, oʻz hissiyotini, kayfiyatini boshqarishini, aktyorlik va rejissyorlik mahorat, nutq madaniyati kiradi.

Pedagogik texnikaning ikkinchi guruhdagi malakalariga ayrim oʻquvchilarga va jamoaga taʼsir koʻrsata olish qobiliyati, talablar qoʻya olishi, jamoaning ijodiy ishlarini tashkil eta olishi, oʻquvchilarni tarbiyalash oʻqitishdagi kasbkorlik malakalari kiradi.

Endi oʻqituvchi pedagogik texnikasi malakalarining qisqacha xarakteristikasi bilan tanishib chiqamiz. Oʻqituvchi pedagogik texnikasining muhim malakalaridan biri uning nutq texnikasidir (nutq tempi, diksiyasi, tovushining baland, oʻrta, past qila olishi va h.k.).

Oʻquv materiallarini idrok qilishda oʻqituvchining nutqi muhim rol oʻynaydi. Olimlarning fikricha, 1/2 foiz oʻquv materialini idrok qilish va oʻzlashtirishda oʻqituvchi nutqiga va uning soʻzlarini toʻgʻri talaffuz qilishiga bogʻliq. Bolalar oʻqituvchining gapini, nutqini nihoyatda koʻzatuvchanlik bilan kuzatadilar. Mabodo oʻqituvchi soʻzlarni notoʻgʻri talaffuz etsa, oʻquvchilar uning ustidan kulib, mashara qilib yuradilar, lekin past tonda gapiradigan oʻqituvchining darsi esa, oʻquvchilar uchun zenkarli boʻladi, nihoyatda baland gapirish, oddiy suhbat chogʻida qichqirib soʻzlashish oʻquvchilarni bezdiradi, charchatadi. Oʻquvchilarning bunday oʻqituvchi taʼlimidan koʻngillari soviydi. SHuning uchun oʻqituvchi savodli gapirishi, oʻz nutqini chiroyli va tushunarli, taʼsirchan qilib bayon qilishi, oʻz fikr va his-tuygʻularini soʻzda aniq ifodalash malakalariga ega boʻlishi lozim. Chiroyli, savodli, taʼsirchan gapiruvchi, oʻqituvchilarning fikrlari oʻquvchilar ongiga tez yetib boradi, oʻquv materiallarini oʻzlashtirib olishiga katta imkoniyat yaratadi. Oʻquvchilar bunday oʻqituvchilar darslarini toqatsizlik bilan kutadilar. Darhaqiqat, diktorlar Qodir Mahsumov, Mirzohid Rahimov, Oʻktam Jobirov, Rahmatilla Mirzayev, Abdimoʻmin Oʻtbosarov, Oʻtkir Siddiqovlarning xalq qalbidan oʻrin olganliklari ham bejiz emas. SHuning uchun oʻqituvchilar oʻz nutqlari ustida tinnay

ishlashlari, soʻzlarning chiroyli, maʼnoli, taʼsirchan boʻlishi ustida mashq qilishlari, ovoz diapozonlari, kuchi, tembr, harakatchanligi, diksiyasini doimo tarbiyalab borishlari lozim.

Ovoz diapozoni deganda, biz tovush hajmini tushunamiz. Uning chegarasi baland yoki past gapirish toni bilan belgilanadi. Diapozonning qisqarishi tovushning past tonligiga olib keladi. Past tonda soʻzlashish idrokni boʻshashtiradi va susaytiradi. Tembr-tovushning goʻzalligi, chiroyliligidir. Oʻqituvchi tovush diapozonini, uning tembr bilan bogʻlab ishlasa gaplari chiroyli, mayin, jozibali chiqib, tinglovchilarni oʻziga tortadi va materiallar yaxshi idrok qilinadi. Oʻqituvchining ovoz diksiyasi soʻzlari aniq, toʻgʻri, eshtarli va tushunarli bayon qilishida namoyon boʻladi. Toʻgʻri ovoz diksiyasiga ega boʻlgan oʻqituvchi soʻzlarni ifodali bayon qiladi. Ifodali gapirishda til, lab, kichuk tilcha, pastki jagʻ ishtirok etadi. Oʻqituvchi ifodali gapirishi, soʻzlarni talaffuz qilishi uchun yuqoridagi organlarni doimo mashq qildirishi lozim.

Oʻquvchi materiallarni aniq, toʻgʻri, tushunarli, ifodali bayon qilishda ovoz ritmi ham muhim ahamiyat kashf etadi. Ilmiy tadqiqot ishlari shundan dalolat bermoqdaki, ruslar bir daqiqada 120, inglizlar 120 dan 150 gacha, fransuzlar 110 soʻzni talaffuz qilar ekanlar. Oʻrtacha, hammaga tushunarli boʻlishi uchun oʻqituvchi 5-6 sinflarda 60 soʻzni 10-11 sinflarda 75-80 soʻzni talaffuz etsa talabga muvofiq boʻladi. Oʻqituvchi nutqini loʻnda, aniq, puxta, chiroyli bayon etsa u tinglovchilarga shuncha tushunarli boʻladi va ular qalbidagi uzoq saqlanadi.

Shunday qilib, pedagogik texnikada nutq malakalari muhim ahamiyat kashf etar ekan, oʻqituvchi doimo gapirish tempi, ritmi, diksiyasi, ovoz kuchi, diapozoni, harakatchanligi ustida mashq qilishi zarur. Oʻqituvchining pedagogik texnikasi tizimida mimik, pantomimik ifodalalar ham muhim oʻrin tutadi. Pedagogning mimik va pantomimik ifodasi, oʻqituvchining imo-ishorasida, maʼnoli qarashlarida, ragʻbatlantiruvchi yoki istehzoli tabassumida namoyon boʻladi va ular oʻqituvchi-tarbiyachining pedagogik taʼsir koʻrsatishida, oʻquvchi mashgʻulotlarini samarali va mazmunli oʻtmish uchun puxta zamin tayyorlab beradi.

Mimika - bu oʻz fikrlari, kayfiyati, holati, hissiyotini yuz muskullarining harakati bilan bayon qilish sanʼatidir. Baʼzan yuzning va nigohning ifodasi oʻquvchilarga katta taʼsir koʻrsatadi. Mimik harakatlar, ifodalalar maʼlumotlarning hissiy ahamiyatini kuchaytirib, ularni chuqur oʻzlashtirish imkonini beradi. Oʻquvchilar oʻqituvchiga qarab uning kayfiyatini, munosabatini «oʻqib» oladilar. SHuning uchun uydagi baʼzi noxushliklar oʻquvchi mashgʻulotlariga oʻz taʼsirini koʻrsatmasligi kerak. Yuz ifodasida, mimik belgilanda faqat dars mashgʻulotlariga oʻz taʼsirini koʻrsatmasligi kerak. Yuz ifodasida, mimik belgilarga faqat dars mashgʻulotlariga xos boʻlgan, oʻquvchi-tarbiya topshiriqlarini yechishga yordam bera oladigan koʻrinishlarni ifodalashi lozim.

Yuz ifodasi, nutq, munosabat harakteriga mos boʻlishi kerak. U ishonch, maʼqullash, taqiqlash, norozilik, quvonch, faxrlanish, qiziquvchanlik, befarqlik, ikkilanish kabi xususiyatlarni ifodalashi mumkin. Mimik ifodaning asosiy detali sifatida qosh, koʻz, yuz koʻrinishi ishtirok etadi. Koʻz, qosh, yuz oʻquvchilar javobidan qoniqish, xursand boʻlish, faxrlanish yoki eʼtirof, norozilik, qoniqmaslik, xafa boʻlish va boshqa belgilarni ifodalasa oʻqituvchilar diqqatini boʻlmasdan,

boshqalarga halaqit bermasdan o'quvchi-tarbiya ishlarini olib borishga yordam beradi. SHuni ham alohida qayd qilib o'tish joizki, mimik ifodalar namoyish qilinayotgan paytda o'qituvchining nigohi o'quvchilarga yoki ayrim o'quvchiga qaratilgan bo'lishi zarur. Doskaga, eshikka, derazaga, ko'rgazma qurollarga yoki devorga nigoh tashlab mimik ifodalarni namoyish qilishdan qochish lozim.

Pantomimika - bu gavda, qo'l, oyoq harakatidir. O'qituvchi darsda o'quvchi ma'lumotlarini bayon qilar ekan, gavda holati orqali ma'lumotlarning obrazini chizsa, o'quvchilar bundan zavqlanadilar. Ichki his-tuyg'ulari, tashqi hissiyotlari bilan qo'shilib butun borliq materiallar mazmunini o'zlashtirishga qaratiladi. Gavnani rost tutib yura bilish, fikrlarini aniq va to'liq bayon qila turib qo'l, boshni turli harakatlarda ifodalash o'qituvchining o'z bilimiga, kuchiga ishonchini bildiradi. SHuning uchun o'qituvchi o'quvchilar oldida o'zini tuta bilish holatini tarbiyalash lozim (oyoqlari 12-15 sm. kenglikda, bir oyoq sal oldinga surilgan holda turish). O'qituvchining jestlari ma'noli, ortiqcha harakatlardan xoli bo'lmog'i darkor. Masalan: keraksiz hollarda qo'llari bilan imo-ishoralar qilish, boshini uyoq-buyoqqa tashlash va h.k. Bunday holatlar o'quvchilarning g'ashini keltiradi va o'quvchi predmetiga, o'qituvchiga nisbatan humasizlik his- tuyg'ularini uyg'otadi.

O'qituvchi sinfda yurgan paytda faqat oldin va o'qaga yurishi tavsiya qilinadi. U yondan, bu yonga yurish o'quvchilar fikrini bo'ladi. Old tomonga yurayotganida o'qituvchi muhim voqealarni bayon qilishi lozim, chunki bunda o'quvchilar o'qituvchini butun diqqatlari bilan eshitayotgan bo'ladilar. Orqa tomonga qarab yurayotganda uncha ahamiyatga inolik bo'lmagan fikrlar aytilsa ham bo'ladi. CHunki bu vaqtda o'quvchilar bir oz erkin holatda bo'ladilar.

O'qituvchining o'z xatti-harakatini idora qilishi tizimida o'z hissiy (psixik) holatini boshqara olishi muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi ta'sir ko'rsatish vaqtida (darsda, darsdan tashqari mashg'ulotlar paytida, tarbiyaviy ishlar jarayonida) o'z hissiyotini boshqara olishi, jiddiy bo'lishi, umidbaxshlik, hayrixohlik kayfiyatda bo'la olish qobiliyatlarga ega bo'lishi zarur. Bir adib aytganidek, «Tarbiyaclu tashkil etishni, yurishni, hazillashishni, quvnoq, jahldor bo'lishini bilishi lozim, u o'zini shunday tutishi kerakki, unung har bir harakati tarbiyalansin» va o'qisin. Bunday malakaga ega bo'lgan pedagog o'z-o'zini nazorat qila oladi, ko'p yillik faoliyat davomida sog'lom asab tizimini o'zida tarbiyalab asabiylashishdan, hissiy va aqliv zo'riqlishlardan o'zini saqlay oladi.

36. NUTQ TEXNIKASI VA MADANIYATI

1. Nutq haqida tushuncha
2. Nutqning o'qituvchi faoliyatidagi o'rni
3. Nutq texnikasi

36.1. Nutq haqida tushuncha

Muloqot, muomala, munosabat- nutq asosida amalga oshiriladi. Nutq-til yordamida munosabat qilish jarayonidir.

Pedagogik nutq- yo'naltirilgan, ta'sirchan hamda ifodalii, izchil, mantiqiy nutqqa bo'linadi. Pedagogik nutqda nutq leksikasi, uslubi, talaffuz etilishi mavjud.

Pedagogik jarayonda o'qituvchi nutq orqali o'quvchiga ta'sir qiladi, uni ishontradi, uni qiziqtiradi, unga tushuntiradi.

Bo'lajak o'qituvchini takomillashtirish. Nutq takomillashtirishni quyidagi yo'nalishlarini ko'rsatish mumkin: o'z-o'zini nazorat va nutq madaniyatini rivojlantirish; nutqiy muloqotning barcha holatlarida adabiy nutq qoidalarini egallash uchun o'ziga sharoit yaratish.

O'z-o'zini nazorat va ifodali nutq malakalarini rivojlantirish. O'z nutq inpotensiyalarini kuzatish: u jonli, xilma-xil, hissiy bo'voqlimi yoki bir xil monotonmi? Nutq tayyorlash jarayonida o'zingizcha quyidagi savollarga javob toping: tinglovchilarda qanday fikr o'yg'otmoqchisiz? Ularda qanday kayfiyat yartmoqchisiz? Nutq mazmuni va sharoiti qanday intonatsiya va ritm talab etadi? Bir necha bor nutqingizni qaytarib ko'ring. Nutqingizni badiiy adabiyotdagi lavhalarga o'z taassurotlaringizni qo'shgan holda qayta to'ldiring.

Kommunikativ nutqning muvaffaqiyatli bo'lishi o'qituvchida qator maxsus qobiliyatlar rivojlanishini talab qiladi: sotsial-perseptiv qobiliyati, ijtimoiy tasavvur qobiliyati, o'zini boshqara olish qobiliyati, muloqotda o'zining ruhiy holatini boshqara olish qobiliyati, irodaviy ta'sir ko'rsatish, ishonitira olish qobiliyati. Nutq malakalari va ko'nikmalarini muvaffaqiyatli egallash uchun sharoit yaratuvchi kishining umumiy ruhiy jismoniy xususiyatlarini rivojlantirish, bunda tasavvurni, obrazli xotira va fantaziyani rivojlantirish ko'zda tutiladi.

Ovoz. Ba'zilariga tovush tug'ma berilgan, lekin bu ham mashq qilib turilmasa buzidadi. Kishi tovushini kuchli, egiluvchan, jarayonli qila olishi mumkin. O'qituvchi tovushining o'ziga xosligi nimada? Avvalo, bu tovushning kuchliligi hamda uning kuchli nutq apparati organlarining aktivligiga bog'liq.

Tovushning uchuvchanligi, bu ovozni masofaga moslay olish, tovushni boshqara olishdir. Gipkost (egiluvchanlik) va podvijnost (harakatchanligi) tovushni yengil o'zlashtira olish, tinglovchilarga moslashdir. Diapazon - tovushning hajmi. Uning chegarasi juda yuqori va past ton bilan aniqlanadi. Tembr - tovush buyog'i, yorqinligi, shu bilan birga uning yumshoqligi, iliqliqi, o'ziga xosligi. O'qituvchida kasbiy kasallik kelib chiqmasligi uchun, albatta, tovush gigiyenasiga amal qilish kerak. O'qituvchi ish vaqtining 50% davomida gapirib turadi. Pedagog ish vaqti tugagach 2-3 soat davomida uzoq vaqt so'zlashishdan qochishi kerak. Zarur bo'lib qolsa, qisqa va sekin gapirishi kerak.

Dars jadvali qo'yilishida shunga e'tibor berish kerak. 3-4 soat darsdan so'ng nutq apparati charchaydi, shundan so'ng 1 soat tovush dam olishi kerak. Ko'p stajli, ya'ni tajribasi ko'p o'qituvchi 2-3 soatda charchaydi va 2 soat dam olishi kerak. Yuqori nafas yo'llari, asab tizimlari, ovqatlanish rejimiga e'tibor berish kerak.

Diksiya - so'z, bo'g'in, tovushning aytilishidagi to'g'ri va aniqlik. Diksiyani takomillashtirish nutq organlarining harakatini qayta ishlash bilan bog'liq. Maxsus mashqlar boshqariladi. Ritmika - avrim bo'g'inlarni aytilishdagi to'liq davomiylik, shu bilan birga nutqni tashkil qilish etapi. Bu nutqning muhim elementi bo'lib, ba'zan intonatsiya va pauza o'ziga so'zdan ko'ra kuchli emotsional ta'sir qiladi.

Nutq tezligi o'qituvchining individual sifatiga, uning nutq mazmuni va muloqot holatiga bog'liq bo'ladi. Turli millatlarda nutq tempi turlicha bo'ladi. Ruslarda minutiga 120 so'z atrofida, inglizlarda 120-150 so'z gacha. Tadqiqotlarga

ko'ra 5-6-sinflarda o'qituvchi minutiga 60 so'z, 9-11 sinflarda 75 so'z gapirishi to'g'ri bo'ladi. Mavzuning murakkab qismini o'qituvchi past tempda, keyin esa tezroq gapirishi kerak. Qoida, qonunlar aytganda, xulosada nutq sekinlashadi.

Nutq texnikasi. O'quv vaqtining ko'p qismi (1/4, 1/2) da o'qituvchining nutqi bilan bo'liq bo'ladi. Sfluning uchun o'quv materialini o'quvchilar tushunishi o'qituvchi nutqi mukammalligi bilan bog'liqdir.

Ba'zilar tovush va uning tembri tug'ma deb bilishadi. Lekin hozirgi eksperimental fiziologiya tovushni to'liq qayta qurish mumkinligini aniqlamoqda.

Bugungi kunda nutq texnikasi bo'yicha ishlashning teatr pedagogika tajribasi asosida nutqiy nafas, tovush, diksiya, ritmika kabi komplekslarini ishlash ko'zda tutiladi.

Nafas. Nafas organizmga hayot ta'minlab turishi bilan birga u nutqning energiya bazasi sifatida ham faoliyat qiladi. Nutqiy nafas fonosiol nafas deyiladi (fono-tovush). Kundalik hayotda nutqimiz dialogik tarzda bo'lib, nafas qiyinchilik to'g'dirmaydi. Darsda o'qituvchi ko'p so'zlagan, ma'ruza o'qigan vaqtlarda o'zgaragan nafas hamda o'rganmagan nafas qiyinchilik tug'diradi: yuz qizarib ketishi, charchab qolish holatlari bo'lishi mumkin.

Nafas jarayonida qaysi muskullar ishtirok etishiga qarab nafasning 4 ta tipi ajratiladi: yelka va ko'krak qafasining yuqori qismini ko'taruvchi muskullar ishtirok etadi. Bu kuchsiz, yuqori nafas bo'lib, o'pkaning faqat yuqori qismi faol ishlaydi; ko'krak orqali nafasni qovurg'alar orasidagi muskullar amalga oshiradi. Diafragma kam harakatda bo'lib, nafas chiqarish kuchsiz, diafragmali nafas - ko'krak hajmining o'zgarishi, diafragma qisqarishi hisobiga bo'ladi: diafragma va qovurg'a orqali nafas - diafragmaning har tomonlama hajmi o'zgarishi, qovurg'alar orasidagi va qorindagi nafas muskullari ham qatnashadi. Shu nafas to'g'ri bo'lib, bu nutqiy nafas uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Yosh o'qituvchilar uchun nafas olish texnikasi ustida qisqacha to'xtalishga to'g'ri keladi: YUqori nafas - yelkalar va ko'krak qafasi muskullarining ko'tarilishi va tushishi orqali amalga oshadi. Bu kuchsiz, yuzaki nafas olishni paydo qiladi, bunda o'pkaning yuqori qismigina faol ishlaydi. Ko'krak qafasi bilan nafas olish - qobirg'a oraliqlari va muskullar orqali amalga oshadi. Bunda ko'krak qafasi hajmining ko'ndalang qismida o'zgarish bo'ladi. Diafragma harakatining kamligi tufayli, nafas olish yuzaki bo'ladi. Diafragma orqali nafas olish - ko'krak qafasi hajmini uzunasiga o'zgarishi natijasida diafragma qisqaradi, buning asosida qobirg'a aro muskullarning qisqarishi kuzatiladi. Diafragma qobirg'a orqali nafas olish-diafragma hajmini ko'ndalang va o'zunasiga qisqarishi qobirg'a oraliq amalga oshadi. Bu eng to'g'ri nafas olish bo'lib, hisoblanganligi uchun nutq nafasining asosini tashkil etadi.

O'qituvchilar orasida tabiatan yoqimli, chiroyli ovoqli kishilar ko'p. Lekin ovoz qanchalik yoqimli bo'lmasin, yillar davomida maxsus mashqlarsiz buziladi, eskiradi, qariydi. Har bir kishining ovozi esa o'ziga xos jarangdor, kuchli va qattiq va h.k bo'ladi. Ovoz buzilishning to'rt sababi aniqlangan: Har kungi ovoz zo'riqishi tufayli; Ovoz apparatining zaifligi tufayli; Gigiyena qoidalariga amal qilmaslik; Ovoz apparatidagi tug'ma zaiflik.

Ovoz apparatining zo'riqishi natijasida ovoznining buzilishi o'qituvchilarda 50% tashkil etishi aniqlangan. Bu baland ovoz bilan gapirishning oqibatidir. Insonning ovoz apparati uch qismdan: generator, energetik va rezanator qismlardan iborat bo'ladi. Ovoz generatsiyasi -ovoz tugunchalari va og'iz bo'shlig'idagi to'siqlarda paydo bo'ladi, buning natijasida shovqinli tovushlar yuzaga keladi. Rezanator tizimida - xalqum, burun-xalqum, og'iz-bo'shlig'i, nutq ritmi va dinamik rivojlanishi ta'minlanadi energetik tizim- tashqi nafas olish bilan bog'liq bo'lib, havo to'liqlari va miqdorini tashkil etadi va tovushning kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

O'qitish samaradorligini oshirish va ijobiy tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish uchun o'qituvchi aktyorlik va rejissyorlik malakalariga ham ega bo'lishi lozim. Xususan, adabiyot, rasm, tarix o'qituvchilariga aktyorlik qobiliyati bo'lishi zarur. Ma'lum mavzular, obrazlar, tarixiy qahramonlarni harakterlayotganda aktyorlik, o'quvchilarda ushbu xususiyatlarni tarbiyalashda esa rejissyorlik malakalari zarur. Ular aytilganlardan tashqari o'qituvchiga yoshlar bilan muomala qilishda tarbiyalanuvchi-o'quvchilarning aql-idrokkina emas, balki ularning his-tuyg'ulariga ham ta'sir ko'rsatish, ularga olimga nisbatan hissiy-qadriyatli munosabatda bo'lish tajribasini to'liq berishga yordamlashadi. SHunday qilib, o'qituvchi yuqorida qayd etib o'tilgan pedagogik texnika ko'nikmalarini o'zida tarbiyalasa, u yoshlarni o'qitish, tarbiyalash, ularni shaxs sifatida kamol toptirish sohasida muvaffaqiyatga erishadi. Yuqorida qayd qilib o'tilgan kasbkorlik malakalari o'qituvchining o'quv va maxsus fanlar bo'yicha bilimlari, pedagogik mahoratni egallashga intilish, o'z kasbiga qiziqish va burch hamda mas'uliyatni his qilish asosida egallanadi. Va ular yoshlarni o'qitish, tarbiyalash, tashkil qilish, targ'ibot qilish, mustaqil bilim olish ishlariga yordam beradi.

Pedagogik menejment bo'yicha olimlarning ta'kidlashicha, yuqorida qayd qilib va tasniflab o'tilgan pedagogik texnika malakalarini yakka holda emas, butun tarzda qo'llansa, kutilgan maqsadga erishiladi. Masalan, nutq texnikasini, his-tuyg'u, mimik, pantomimik malakalarni bilan qo'shib olganda amalga oshirish bunda so'z, gap ohangi, qarash, imo-ishora bilan, kutilmagan pedagogik vaziyatda osoyishtalik bilan aniq fikr yuritish, tahlil qilish qobiliyatiga asoslansa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu xususiyatlar pedagogning individual psixik fiziologik fazilatlarini asosida tarkib topadi. Individual pedagogik texnika o'qituvchining yoshi, jinsi, mijozi, fe'l-atvori, sihat-salomatligi va anatomik-fiziologik xususiyatiga bog'liqdir. SHunday qilib, o'qituvchi-tarbiyachi o'zida yuqoridagi malakalarni tarbiyalasa, ularning mazmunini chuqur o'zlashtirsa, nutq texnikasini egallashning imkoni bo'ladi va u o'qituvchini pedagogik mahorat sari yetaklaydi.

Nutq tushunchasi o'qituvchining kommunikativ xulqi tushunchasi bilan o'zviy bog'liq. O'qituvchining kommunikativ xulqi deyilganda faqat uning gapirish va axborot berish jarayonigina emas, balki pedagog va o'quvchi muloqoti uchun emotsional psixologik muhit yaratishga, ular o'rtasidagi munosahat va ish uslubiga ta'sir ko'rsatuvchi nutqni tashkil etish va unga mos o'qituvchining nutqiy nazokati ham ko'zda tutiladi. O'qituvchining nutqi ma'lum talablarga javob berishi, ya'ni kerakli kommunikativ sifatlarga mos bo'lishi kerak. Nutq bir necha normalarga mos bo'lishi kerak: zamonaviy normalarga, ifodali, adabiy til normalariga. Pedagog

nutqning to'g'rilik, aniqlik, moslik, leksik boylik, ifodalilik va tozalik kabi kommunikativ sifatлари o'qituvchi nutqning madaniyatini belgilaydi. Maqsadga muvofiq pedagogik nutq o'zining mantiqiyliги, ishonchliги, kuzatuvchanliги bilan harakterlanadi. Nutq funksiyalaridan biri - bilimni to'liq holda berilishini ta'minlashdan iboratdir.

O'qituvchi nutqning kommunikativ o'ziga xosliги bilan bilimni o'quvchilar tomonidan qabul qilinishi va esda qolishi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aloqa bor. Nutq buni ta'minlashi yoki qiyinlashtirishi mumkin. O'qituvchining nutqi faqat axborot berib qolmay, o'quvchining ongi, sezgisiga ta'sir qilishi, ularni o'ylash faoliyatiga undashi kerak. O'qituvchi nutqi ikkinchidan o'quvchining samarali o'quv faoliyatini nutqi avvalo darsda samarali o'quv eshituvchini ta'minlashi kerak. O'quvchi o'qituvchi nutqini eshita tadbir qator operatsiyalarni bajaradi: berilayotgan axborotni ko'rgazmali shaklda aniqlashtiradi, o'zidagi bilim bilan unga munosabat bildiradi, eslab qoladi, nutq mantiqini, fikrlar rivojini kuzatib boradi.

Ovoz tonining balandliги, tovushning yuqoriligi, bir xilda gapirish bolalarni charchatadi. O'quv - biluv jarayonning samarali bo'lishiga darsda o'qituvchi tanlagan kommunikativ xulq uslubi ham ta'sir qiladi. O'qituvchi ko'pincha «jim o'tir», «o'tir», «tugat», «yop» kabi norozilikni bildiruvchi so'zlarni ishlatib o'quvchining javobini bo'ladi. «Hap doimgidek hech narsa bilmaysan», «sen buni qayerdan ham tushunarding» kabi gaplarni aytadiki, bo'lar o'qituvchi o'quvchi munosabatini buzilishiga, aqliy faollik pasayishiga, nopedagogik vaziyatlar paydo bo'lishiga olib keladi.

Nutqning - o'qituvchi o'rtasidagi mahsuldor o'zaro munosabatni ta'minlashdan iborat. Nutq o'quvchi - o'qituvchi munosabatini boshqarish rolini ham bajaradi. Bu yerda hamma narsa ahamiyatli: o'qituvchi o'quvchilarga qanday murojaat qiladi, salomlashadi, talablarini qanday qo'yadi, qanday ogohlantiradi, xohishini qanday bayon qiladi; nutqi impotensiyasi, yuz ifodasi, qarashi, ham bolaga ta'sir ko'rsatadi. Darsdan tashqari muloqotda bularning ahamiyati yanada katta bo'ladi. Ko'p narsa o'qituvchining individual muloqot uslubiga ham (qo'ruvga asoslangan, o'yinga, do'stona aloqaga asoslangan), muloqot doirasidagi sotsial xarakterlanga ham bog'liq bo'ladi.

Og'zaki nutqning yana bir xususiyati uning improvizatsiya harakterida ekanligidir. Tajribali o'qituvchi tekstga yoki konspektga qaramasdan gapiradi, o'quvchi uni tinglay turib, so'z va ifodalar birdan tutilayotganligini ko'radi. SHunday holat vujudga keladiki, go'yoki o'qituvchi bu haqiqatni, fikrlarini birinchi marta o'quvchilar bilan ochayotgandek bo'ladi.

Nazorat uchun savollar

1. Pedagogik texnika mohiyati nima?
1. Pedagogik texnikaning tarkibiy qismlarini ayting.
2. Yosh o'qituvchilar faoliyatida qanday tipik xatolar namoyon bo'ladi?
3. Pedagogik texnika mashg'ulotlari qay usulda o'tkazilishi mumkin?
5. Nutq texnikasiga izoh bering.

37. O'QITUVCHI MEHNATINI ILMIIY TASHKIL ETISH

37.1. O'qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etishning mohiyati.

37.2. O'qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etish prinsiplari.

37.1. O'qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etishning mohiyati

Mamlakatimiz hukumati xalq ta'limi sohasida o'rtaga qo'yayotgan vazifalarni bajarish ko'p jihatdan ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida faoliyat olib borayotgan o'qituvchiga bog'liq. Hozirgi sharoitda ta'lim tarbiyadan ko'zda tutilayotgan maqsadlarga yetishish, o'quvchilarning xilma-xil faoliyatlarini uyushtirish, ularni bilimli, e'tiqodli, mehnatsevar, barkamol inson qilib o'stirish o'quvchi zimmasiga yuklatilgan xalqimizning kelajagi, mustaqil o'zbekistonning istiqloqli ko'p jihatdan o'qituvchiga, uning saviyasiga, tayyorgarligi, fidoyiligiga, yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash ishiga bo'lgan munosabatiga bog'liq.

Har qanday mehnatning muvaffaqiyati va samarasi uni tashkil etishga, bu mehnatni uyushtirishga ta'sir etadigan shart-sharoitlarga, faoliyatni amalga oshirish yo'llariga bog'liq. Demak, o'qituvchi mehnatini samarasi ham o'qituvchi o'z ishini qanday tashkil etishiga hamda bunga ta'sir etadigan shart-sharoitlarni qandayligiga bog'liq. Har qanday mehnatni bajaruvchi shaxs o'qituvchi ham o'zi ishini tashkil etishga o'ziga ma'qul bo'ladigan, o'zi yaxshi egallagan mahorat bilan bajara oladigan uslublarni tanlaydi. Biz ilmiy-texnika taraqqiyoti davrida yashamoqdamiz. Demak, o'z ishimizni tashkil etishimizda ham fan-texnika yutuqlariga asosan kerak bo'ladi. Bu degani o'qituvchi ham, o'z mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil etishi demakdir.

O'qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etish deganda, pedagogik jarayonni boshqarish uchun pedagogika va psixologiya fanining eng so'nggi yutuqlaridan foydalangan holda o'z ishini ijodiy tashkil etib yangiliklar yaratish tushuniladi. O'qituvchi mehnati uning vaqti bilan bog'liq bu ishning muvaffaqiyati vaqtdan unumli foydalanish o'zining imkoniyatlarini to'la hisobga olish, o'quv va tarbiya jarayonida o'zini namoyish etishga va o'zining kimligini, qanday ekanini, nimalarga qodir ekanini tasdiqlash bilan bog'liq. O'qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etish birinchi navbatda o'zining ijodiy imkoniyatlariga ishonish demakdir. O'qituvchi ta'lim jarayonini to'la tasavvur etishi kerak, uning mexanizmini, qonuniyatlarini, bolani bilish imkoniyatlarini yaxshi aniqlashi kerak. Mehnat shaxsining bir maqsadga yo'naltirilgan ijtimoiy-foydali faoliyati bo'lib, u aqliy, jismoniy kuch, zo'r g'ayratni talab etadi.

O'qituvchi mehnati - ijodiy kasblar turiga kiradi. Chunki u shu mehnati orqali har tomonlama yetuk bo'lgan komil insonni tarbiyalaydi. Pedagogik mehnat predmeti - o'quvchi shaxsidir. Pedagogik mehnat maqsadi - har tomonlama yetuk bo'lgan komil insonni tarbiyalashdir.

Pedagogik mehnatning natijasi o'quvchilarni mustaqil ishlay olishi, darslarda o'z fikrini bildira olishi, isbotlay olishi, tahlil qila olishi. SHu xislatlarni o'z o'quvchilarida hosil qilishi uning mahoratini belgilab beradi.

Mehnatni ilmiy asosda tashkil etishda namoyon bo'ladigan 3 ta aniq belgilar: Vaqtdan imkon qadar samarali foydalana bilishi, uni tashkil etishi, Mehnat va dam olish uchun yaratilgan qulay shart-sharoitlardan samarali foydalanish, uni boshqarish; Barcha imkoniyatlarni ishga solgan holda o'quvchi mehnat qilishi uchun uning sog'lig'i va har tomonlama g'amxo'rlik qilish.

Pedagogik mehnatni ilmiy tashkil etishda o'qituvchining kun tartibi muhim rol o'ynaydi. O'qituvchi o'zi uchun eng optimal yuqori unum beradigan kun tartibini topa olishi kerak. Pedagogik mehnatni ilmiy tashkil etish talablari R.Rasulova tomonidan ishlab chiqilgan. Ularning tavsiyasiga ko'ra pedagogik mehnatni ilmiy tashkil etish, muhim talablarni bu asosiy rejalashtirish, faoliyatni uyushtirish unda qatnashayotganlar kuchini yagona maqsadga bo'ysundirish, rag'batlantirish, operativ nazoratni hisobga olish. Shuni rejalashtirishdagi asosiy masala uyushtiradigan barcha faoliyat turlarini unda qatnashayotgan jamoa a'zolarini umumiy pedagogik maqsadga bo'ysundirilgan holda, bunda yaqin, o'rta, uzoq maqsadlarni inobatga olish ko'zda tutiladi

Shunday qilib, o'qituvchining kun tartibini uning faoliyati va hayotini tartibga soluvchi asbobidir, desak xato bo'lmaydi. U yo'q joyda mehnat unumi ham past bo'ladi, salomatligi yo'qolib boradi. Natijada o'qituvchi sarf qilgan kuchini qayta tiklay olmaydi, ish qobiliyati yo'qoladi, oqibatda sifati pasayadi. Demak, ilmiy asoslangan kun tartibi o'qituvchilarning o'z mehnatini ilmiy tashkil etishi vazifasini hal etishga qo'yilgan qadam bo'ladi. Pedagogik mehnatni ilmiy tashkil etilishi shartlaridan yana biri ish o'rni tartibga solish va mehnat sharoitini tashkil etishdir. O'qituvchining ish joyi ish jarayonining bir qismi bo'lib, mehnat unumining yuqori bo'lishiga ta'sir etadi. O'qituvchining ish joyi, xususiyati, pedagogik mehnatning mazmuni va xususiyati bilan belgilanadi.

Mehnat sharoiti tushunchasi kompleks tushuncha. Mehnatni ilmiy tashkil etish tajribasiga mehnat sharoiti deganda odamning mehnat qilayotgan joyi, uning sharoiti, ko'zda tutiladi. Yana unga psixofiziologik, ijtimoiy, psixologik va estetik omillar ham qo'shiladi.

Pedagogik mehnatning samarasi, maqsadi va faoliyat vazifasiga ko'ra bilishda va aniqlay olishdadir. SHundagina shuni ilmiy tashkil etish mumkin bo'ladi. Bu o'qituvchi mehnatni ilmiy tashkil etishning faoliyat uslubini belgilash. Pedagogik mehnatni ilmiy tashkil etishda texnikadan vosita sifatida samarali foydalanish tushuniladi. Bu tamoyil ko'nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qiladigan pedagogik texnika va texnik vositalar yig'indisi ko'zda tutiladi.

Reja ta'lim-tarbiya faoliyatini tartibga solish, uning model yaratish, tayanch sxemalarni topish masalalaridan tashkil topadi. Shular aniqlansa, o'qishda rivojlanish, tarbiyalash jarayoni yengillashadi.

Ishni rejalashtirmasdan turib shaxsni va jamoani ijtimoiy jihatdan samarali rivojlantirib bo'lmaydi, bu esa jamiyatga ham ijtimoiy, ham iqtisodiy zarar keltiradi. Pedagogik mehnatni nazorat qilish va hisobga olish prinsipi o'qituvchi ishni muntazam va rejali kuzatib borish shundan yutuq va kamchiliklarni aniqlash, muhimlarini ajratib olish ko'zda tutiladi. Hisobga olishning eng maqbul yo'li statistik hisobga olishdir. Pedagogik nazorat esa obyektivlik, omilkorlik, samaradorlik, muntazamlilik va oshkoralikni talab qiladi.

37.2. O'qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etish prinsiplari

O'qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etishning asosiy prinsiplariga quyidagilar kiradi.

1) maqbullik prinsipi. Ushbu prinsip fan bo'yicha aniq o'quv mashg'ulotini o'tkazish uchun maksimal darajadagi qulay sharoit yaratishda ifodalanadi. Jarayonni tashkil etish uchun ta'lim ishtirokchilari oldindan mashg'ulot bo'ladidan vaqt va joyi hamda dars uchun kerakli vositalar bo'yicha ogoh etiladilar. O'qituvchi oldindan o'quv xonasini ko'rgazmali qurollarni tayyorlab qo'yadi.

2) insonparvarlashtirish prinsipi. Ushbu prinsip o'quvchiga nisbatan ta'sir etishda salbiy holatlardan holi bo'lish bilan bog'liq. Bu yerda o'quvchilar bilan muloqotda ishonish, uning shaxsini hurmat qilish, uning ijobiy hissiyotiga tayanishni nazarda tutadi. Ta'lim jarayonida o'quvchini biror bir masalani hal etishda uni zo'rlamaslik, unga nisbatan kuch ishlatmaslikni talab etadi.

3) ta'limni tashkil etishda kuch, vosita va vaqtni tejash prinsipi. Ushbu prinsipga amal qilish mashg'ulotlarga tizimli tayyorgarlik ko'rishni, o'quvchilarni o'zlashtirganlik darajasini aniqlashni talab etadi.

4) ish topshiriqlarini aniqlashtirish va individuallashtirish prinsipi. Ta'lim muassasasida o'qituvchi o'qitishni tashkil etar ekan, birinchi navbatda har bir o'quvchini imkoniyat va qobiliyatlarini aniqlab, tabaqalashgan yondashuv asosida hanmadan bir xil darajada yoki bir xil usulda emas, balki turli-tuman metodlar bilan talab qilmog'i va tushuntirmog'i lozim.

5) Rejali ishlash prinsipi o'qitishda qo'llaniladigan amaliy yoki turli metodlar bugungi kun o'quvchisini ta'lim-tarbiyasini asosiy vazifalarini to'liq hal eta olmasligini isbotladi. Demak, ta'lim muassasasi o'z faoliyatini rejalashtirishda dars mashg'ulotlari bilan birgalikda darsdan tashqari tadbirlarni ham rejalashtirishni nazarda tutadi.

6) o'qitishda nazariya va amaliyot birligi prinsipi. Har qanday dars mavzusining mazmuni amaliyotga yo'naltirilganlik harakterida bo'lishi lozim. SHundagina o'quvchi dars davomida egallagan bilimi hayot davomida kerak bo'lishini tushunadi.

7) o'zlashtirilgan tushuncha va bilimlar tizimini doimiy nazorat qilib borish prinsipi. Bilim va ko'nikmalarni joriy va yakuniy nazorat qilish o'zlashtirilgan axborotlarni tizimlashtirishga asos bo'ladi. Demak, o'qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etishning asosiy prinsiplariga amal qilish ta'lim samaradorligining asosiy sharti hisoblanadi.

Nazorat uchun savolar

1. O'qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etishning mohiyati nimada?
2. O'qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etishning asosiy prinsiplarni izohlang?
3. O'qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etishda rejalashtirish qanday vazifani bajaradi?

38. O'Z O'ZINI TARBIYALASH VA O'Z USTIDA ISHLASH

38.1. Pedagogik mahoratni shakllanishida refleksiyaning o'rni

O'z o'zini tarbiyalash va o'z ustida ishlash pedagogik mahoratning asosiy sharti sifatida Refleksiya (lotincha –reflexio- orqaga qaytish) ma'nosini anglatadi. "Insonning o'z xatti-harakatlari va ularning qonuniyatlarini anglashga qaratilgan nazariy faoliyat shaklidir.inson ma'naviy dunyosining o'ziga xos vashirin xislatlarini ochib beradigan o'z o'zini bilishga va anglashga qaratilgan faoliyatidir" deb ta'rif berilgan falsafiy ensiklopediyada.

Ilk bor Refleksiya tushunchasi qadimgi yunon falsafasida yuzaga kelgan. Va insonning o'z ongida kechayotgan muloxazalari haqida, o'zi fikr yuritish jarayoni, o'z fikrlari mazmunini tahlil qilishga e'tiborni jalb qilishni anglatgan.

Dekart, Suqrot, Platon, Loklar esa Refleksiyanim insonning o'z o'zini bilishga nimalarga qodir ekanligini e'tirof etishga qaratilgan faoliyat deb qarashgan. Kant, Gegel, Fixte, SHelling kabi faylasuflar Refleksiyanini insonni bilish qobiliyatlarini rivojlantirish asosi sifatida qaraganlar.

Semyonov tomonidan ishlab chiqilgan Refleksiya turlari

1. Intellektual Refleksiya- muammoni fikrlash asosida ijobiy hal etishni belgilaydi.

2. Shaxsiy Refleksiya-o'qituvchining nizoli pedagogik vaziyatlardan chiqishni fikran izlanish asosida bakritaraf qilishni ta'minlaydi

3. Kommunikativ Refleksiya- muloqot jarayonida sheriklarinig o'zaro bir birini tushunibmunosabat qilishni ta'minlaydi.

4. Kooperativ Refleksiya- jamoa a'zolarining birgalikdagi o'zaro muntazam mehnat faoliyatlarini muvofiqlashtirish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat

Refleksiya- o'qituvchini o'z o'zini anglashi, o'zining kamchiligi va zaif tomonlarini bilib, o'z o'zini takomillashtirishga intilishi, o'z tarbiyalanuvchilarining hamda o'z o'zini takomillashtirishga zarur shart sharoitlar yaratish uchun mavjud ichki imkoniyatlarini kashf etishidir.

Rus olimlari Vulfov va Harkinlar Refleksiyanini insonning o'z o'zini anglashi. kasbiy refleksiya esa- o'z o'zini kasbiy faoliyati davomida anglashi, o'qituvchi mahoratida pedagogik Refleksiyanini pedagogik kasbiy omilkorlikda o'z o'zini anglashi deb ta'riflaydi. Vulfov fikricha kasbiy Refleksiya jarayonida o'qituvchi o'zi tanlagan pedagog kasbi talab qiladigan darajada o'z imkoniyatlarini, u haqdagi mavjud tasavvurlarini pedagogik tajribasining muhim jihatlari bilan isbotlavdi va ixtiyoriy ravishda pedagogik mahorat zanjirini hosil qiladi O'qituvchi pedagogik mahoratining xususiyatlaridan biri uning rivojlanishida uzliksizlikning mavjudligidir. Demak, Refleksiv jarayonda o'qituvchining pedagogik mahorati, kasbiy sifatleri mavjudmi yoki yo'qmi deb emas, balki ularni rivojlanishi, boyib borishi. kuchayitishini inobatga olish zarur Bilim ko'nikma va malakalar ongli ravishda o'z o'zini takomillashtirishga ichki undov bilan qabul qilinsagina u shakllanadi.

Pedagogik Refleksiva o'qituvchiga o'z-o'zini kasbiy jixatdan takomillashtirish manbalarini o'z bilim va imkoniyatlaridan izlab topishda ko'maklashadi va rivojlanishini ta'minlaydi

Kasbiy pedagogik Refleksiyada **o'z-o'zini bilish** jarayoni va o'z-o'zini anglash jarayonlari muhim o'rin tutadi. o'z-o'zini bilish jarayoni o'qituvchining pedagogik mahorati doirasida ma'lumotlarni qayd qilish darajasida kechadi, bunda refleksiyaning passiv shakli ustivorlik qiladi. O'qituvchi pedagogik faoliyatida yuzaga kelayotgan turli qiyinchiliklar va muammolarning sabablarini, erishilayotgan yutuq va natijalarini shunchaki qayd qilib boradi.

Kasbiy pedagogik Refleksiyada **o'z-o'zini anglash** jarayoni o'qituvchining o'z faoliyati va unda o'ziga nisbatan noaniq pozitsiyada turib, o'ziga tashqaridan qarash, o'zini kuzatish malakasini ko'zda tutadi. Bunda (intenzivlashtirish - tashqi omillarning ichki omillarga o'tishi) hodisasi amalga oshadi, kasbiy qiyinchiliklarning kelib chiqish sabablari rasmiylashtiriladi, faoliyatdan ko'zlangan asosiy maqsad aniqlanadi. Refleksiv "men" shakllanadi.

Kasbiy pedagogik Refleksiyada **o'z o'zini belgilash** jarayonida boshlang'ich daraja kasbiy ehtiyojlarni hisobga olib, belgilanadi va jadal imkoniyatlar asosida faoliyat rejalashtiriladi. Strategik, taktik va tezkor vazifalar shakllantiriladi. Haqiqiy "men" va "ideal men" nisbatlanadi.

Kasbiy pedagogik Refleksiyada **o'z o'zini rivojlantirish** jarayonida o'qituvchining kasbiy faoliyati davomida takomillashtirilgan pedagogik mahorati, refleksiyalangan harakat usullari va metodlarining o'sishi sodir bo'ladi.

Kasbiy pedagogik Refleksiyada **o'z o'zini nazorat qilish** jarayoni o'qituvchi pedagogik faoliyati jarayonida nazariy va amaliy tajribalar asosida, o'z o'zini kasbiy jihatdan nazorat qilib, peldagogik mahoratini yanada takomillashtirib borishning ikkinchi shakli boshlanishini nazarda tutadi.

Demak, o'qituvchining kasbiy pedagogik mahoratini rivojlantirish muammosining faqat uning kasbiy refleksiyani takomillashtirish asosida hal qilish mumkin. Kasbiy pedagogik refleksiya nafaqat kasbiy faoliyat, balki BKMLarning o'sishini ta'minlaydi hamda ushbu faoliyatni takomillashtirish asosi ham sanaladi. Har qanday o'qituvchi o'z o'zini tarbiyalash va o'z o'zini rivojlantirishga jda kuchli intilishi bo'lsa ham o'zining shaxsiy rivojlanish dasturini maxsus malakalarisiz belgilay olmaydi, bu pedagogik faoliyatdagi muvofiqiyatlarga erishish, o'qituvchining o'z ustida ishlashga tayyorgarligi, uning o'z o'zini taxlil qila olishi, o'z o'zini taqqoslash qobiliyatining qanchalik shakllanganligi bilan bog'liq.

Pedagogik tashhishlash funksiyalari:

Tahliliy funksiyasi - o'quv tarbiya jarayonidagi yutuq va kamchiliklarni kelib chiqish sabab va oqibatlarini, ularni o'zaro bog'lanishlarini aniqlash va chora tadbirlarini ishlab chiqishga qaratilgan.

Diagnostik funksiyasi - o'quvchini ta'lim olganligi, tarbiyalanganligi, rivojlanganligini aniqlash uchun qo'llaniladi.

Baholash funksiyasi - ma'muriyat tomonidan olib borilib alohida o'qituvchi yoki o'quvchi faoliyatida erishilgan yutuq va kamchiliklarni sifat ko'rsatkichlarini nuqtdor jihatdan baholaydi.

Korreksion funksiyasi- o'quv-tarbiyaviy jarayonni o'qituvchining pedagogik faoliyati yuzasidan korreksiyalashni ta'minlaydi.

Orientalion funksiyasi- o'quv-tarbiyaviy jarayonni o'quvchi shaxsiga yo'naltirishni ta'minlaydi

Nazorat uchun savollar

1. Pedagogik mahoratni shakllanishida pedagogik refleksiyaning o'rnini qanday?
2. Pedagogik mahoratni shakllanishida o'z-o'zini tarbiyalash o'rnini qanday?
3. Pedagogik tashhislash qanday funksiyalarni bajaradi?

39. PEDAGOGIK TAJRIBANI TO'PLASH TIZIMI

1. Ilg'or pedagogik tajribani o'rganishda materiallarni to'plash
2. Ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish va ularni qo'llash metodlari
1. Ilg'or pedagogik tajribani o'rganishda materiallarni to'plash

Pedagogik ijodkorlik manbai - bu pedagogik tajriba. Pedagogik tajriba muammoli vaziyatlarga juda boydir.

Ilg'or pedagogik tajriba deganda, biz o'qituvchining o'z pedagogik vazifasiga ijodiy yondashishni, o'quvchilarning ta'lim-tarbiyasida yangi, samarali yo'l va vositalarni qidirib topishni tushunamiz. Ilg'or pedagogik tajriba o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan shu shakli va usullari, uslub va vositaliridir. Ilg'or pedagogik tajribani o'rganish, unga asoslanib yangi pedagogik hodisa va qonuniyatlarini ochish o'quv-trbiya jarayoniga yaxshi sifatli o'zgarishlar kiritadi, o'quvchilarni bilish faoliyatini boshqarish, yangi ko'rinishdagi o'quv jarayonini modellashtirish muammolarini yechishga sabab bo'ladi. Ijodiy ishlaydigan o'qituvchi faqatgina muvaffaqiyatli o'qitish va tarbiyalash; ilg'or o'qituvchilar ish tajribalarini tadqiqotchilik ko'nikma va malakalariga ham ega bo'lishi zarur.

Pedagogik tajriba o'qituvchining o'quv ishlari jarayonida egallaydigan bilimi va ko'nikmalari yig'indisidir. Bu o'qituvchining pedagogik mahorati bo'lib, u pedagogika fanini rivojlantirishida boshlang'ich omil hisoblanadi.

Pedagogik tajriba to'plash tizimi: maqsadni belgilash(nimani o'rganaman); tahlil etish, umumlashtirish, xulosa qilish; yutuqlarni aniqlash; ma'lumot to'plash; maktab o'qituvchilarini ilg'or tajribalarni o'rganishning taxminiy tarkibi.

Ilg'or pedagogik tajriba sohibi Sh.A.Amonashvilining pedagogik metodikasining mazmuni. U o'quvchilarni fikrlashga o'rgatadi. Uning o'quvchilari o'z o'rtoqlarining ishlarini tekshirib baholaydilar (baho qo'ymasdan, albatta!). Bir-birlarining yozma ishlarini taqriz qilishadi.

V.F.Shatalov metodikasining mazmuni. Uni takrorlash asosida o'z-o'zini nazorat va baholashdan iboratdir. U ma'lum vaqtda topshirilgan vazifa yuzasidan barcha o'quvchilarni baholaydi. Kundalikni tekshirishni, har bir tayanch signallarni baholash fikrlashga ijobiy ta'sir etadi. Tayanch signali nima? Bu signallar ma'no ahamiyatini bosuvchi assotsiativ simvolidir. Bu simvol ma'lum tushunarli bo'lgan axborotni bir lahzada xotirada tikdaydi. Yo'l harakatini eslatuvchi belgilar eng yaxshi tayanch signaldir. Qizil rang mumkin emas, sariq rang - ogohlantirish. yashil rang - aniqlik degan ma'noni bildiradi.

S.N.Lisenkovaning pedagogik metodikasi mazmuni. U darslarda ko'rgazmalilik, chizma modellar yordamida dars berishni o'quvchilarni faollashtiradi va mustaqil fikrlashga o'rgatadi. O'tilayotgan temani sharhlab boshqaruv darsni harakatlantiruvchi asosiy kuchdir deydi. Sharhlab beruvchi 3 ta o'zida mujassamlashtiradi: fikrlash, so'zlash; yozish. Bunda bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchi boshqalar qatori mas'uliyatni sezgan holda harakat qilsa, u ham o'z orqasidan butun sinfni ergashtirib faollashtiradi.

I.V.Volkov pedagogik metodikasi mazmuni. U maktabda bolalar uchun «Ijodxonasi» tashkil etib, o'quvchilar bilan ishlashda turli xil yo'nalishdagi ishlarni talab. har bir o'quvchini xilma-xil faoliyatida (adabiyot,tasviriy san'at, foto, kino) o'z qiziqishiga ko'ra kuchini sinab ko'rish. ularni ijodkorlik sifatlarini namoyon qilishga erishadi.

Ochilxon Sharafudinov pedagogik metodikasini mazmuni. Uning metodi: darsga puxta tayyorlanish; o'tilgan temani to'g'ri rejalashtirish; o'quvchilarda faollik; ko'rsatmali qurollardan foydalanish; dars soatidan unumli o'tkazish; dars jarayonida o'tilgan mazmunini ilmiy-g'oyaviy, pedagogik va psixologiya jihatdan o'quvchilarga mos bo'lishi, amaliy mashg'ulotlar va hayotdan olish misollar bilan bog'lash, mustaqillikni o'stirishga e'tibor berish muhim o'rin tutadi.

Mamajon Abdurasulovning metodikasi mazmuni. Olti yoshli bolalarni 1-sinfga qabul qilishdan oldin (bolalar bog'chasidagi bolalar!) puxta tanishib chiqadi. 1-oktabr. Shanba kunlari ularni maktabga taklif etib, ular bilan mashg'ulot o'tkazadi. Ular nutqini o'stirishga, she'r, hikoyalar, ertaklar, ashulalar, topishmoqlar, o'qituvchi hikoyasini tinglaydilar. Ta'lim - tarbiyaga yangicha yondashish ta'lim berish jarayonini ongli ravishda tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Yangicha ta'lim - tarbiya berishda milliy urf-odatlar, qadriyatlarni hurmat qilib, ularni muhim tomonlarini tarbiyalash jarayoniga tatbiq etilsa, bu tadbirlar yaxshi samara beradi. Jamiyat ishonib topshirgan bu ulug' vazifani bajaruvchi fidokor kadrlar o'zlarini har jihatdan barkamol bo'lmoqlari kerak.

Ilg'or pedagogik, ijtimoiy tajribalar pedagogik mahoratni shakllantirishda muhim omildir. Yangi pedagogik texnologiyaning asosiy tomoni maktab darsliklarini qaytadan yuksak darajada, yuqori saviyada tuzish lozimligidir. Darsliklar tuzish ko'p yillik ilmiy, madaniy, estetik, ma'naviy tajribalarga tayangan holda tuzilmog'i kerak. O'qituvchi pedagogik mahoratini shakllantirishda ilg'or pedagogik tajribalarga tayanish yaxshi natijalarga olib keladi.

Dars jarayonidagi ijodiy holatlar: pedagogik ijodkorlik, saranjomlik, o'quvchilarni faollikka undash, qiyinchiliklarni yengishga bo'lgan xohishga ega bo'lish, mimika va pantomimikadan mohirona foydalanish, o'quvchilarni ijodiy faoliyatga yo'naltirishdan iborat.

Nazorat uchun savollar

1. Ilg'or tajribalarni to'plashning ahamiyatini ko'rsatib bering.
2. Ilg'or pedagogic tajriba soxiblarini tasvirlang.
3. Ilg'or pedagogik tajriba qanday ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon , demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda quramiz « O'zbekiston» 2016
2. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. " O'zbekiston" 2017
3. Бабанский Ю.К. Педагогика. -М.: Просвещение, 1988, 479 .
4. Баранов С.П. Педагогика. -М.: Просвещение, 1976, 352 .
5. Баранов С.П. Сущность процесса обучения. -М.: Просвещение, 1981.
6. Беляева А.Дидактические принципы профессиональной подготовки и проф.тех.учащихся. -М.: Высшая школа. 1991.
7. Беспалко В.П. Слагаемые педагогической технологии. -М.: Педагогика, 1989, 192 .
8. Boratov M. Abu Ali ibn Sino – buyuk mutafakkirlar – T.: Fan, 1980.
9. Вяткин А.Т. Дидактика. -М.: Просвещение, 1979.
10. Гершунский Б.С. Образовательно-педагогическая прогностика. -М.: Филитганаука, 2003, 762 с.
11. Гребенюк О.С., Гребенюк Т.Б.Теория обучения.-М.:Владос пресс, 2003 384 с.
12. Данилов МА., Есипов Б.П. Дидактика. -М.: АКХ, 1957б 515 с.
13. Данилов МА., Скалкин М.Н. Дидактика средней школы. -М.: Просвещение, 1975, 301 с.
14. Дидактика современной школы: Пособие для учителей /под. ред. В. А.Онищук -Киев, 1987.
15. Давыдов В.В. Теория развивающего обучения.-М.:Педагогика,1996, 240 с.
16. Дяченко В.К. Коллективные организации процесса обучения. -М.: Педагогика, 1986, 120 с.
17. Дяченко В.К. Новая Дидактика -М., 2001.
18. Есипов Б.П. Педагогика. -Ташкент : «Укитувчи», 1969, 463 с.
19. Занков Л.В. Избранные педагогические труды. -М.: Педагогика, 1990,418с
20. Загвязинский В.К. Педагогическое творчество учителя. -М., 1987.
21. Yo'ldashev J. Havot va tafakkur sayyorasi – T.: Fan, 1991.
22. Yo'ldashev O'. Didaktik prinsiplar tizimida tarixiylik – T.: Fan, 2005, 70 b.
23. Yo'ldashev O'. Pedagogika sxema va jadvallarda –T.: Fan va texnologiya, 2015, 172 b.
24. Yo'ldashev O' Pedagogika – T.: T.: Fan va texnologiya, 2016, 202 b.
25. Yo'ldashev O' Ta'lim nazariyasi asoslari - T.: Fan, 2006, 77 b.
26. Yo'ldashev O' va boshqalar. Umumiy pedagogika – T.: Fan va texnologiya, 2018 376 b.
27. Казанский И.Г., Назарова Т.С. Дидактика (нач.кл.) -М.: Просвещение, 1978. 224 с.
28. Komenskiy Ya. A. Buyuk didaktika. – T.: O'qituvchi, 1975. 238 b.
29. Кулисевиц Ч Основы общей дидактики /Пер с нем. -М.: 1986,368 с.
30. Линда А.С., Жилшов н.А. Педагогика. -М.: Высшая школа. 1973,392 с.

31. Лихачёв Б.Т. единство принципов учебно-воспитательного процесса в школе. //Народное образование. 1981, №8. 76-78 с.
32. Лихачев Б.Т. Педагогика. - М.: Юрайт, 2000, 523 с.
33. Логвинов И.И. Дидактика. - М: Н. . обучения, 2003, 224 с.
34. Махмутов М.Н. Проблемное обучение. -М.; 1975.
35. Матрос Д.Ч. и др. Управление качеством образования -М., 2001, 128 с.
36. Movlonova R., To'rayeva O., Xoliqberdiyev K. Pedagogika. – Т.: O'qituvchi, 2001, 510 b
37. Musurmonova O., Baybekova G. O'zbek xalq pedagogikasi, -Т.: 2000.
38. Nishonov S. Komil inson tarbiyasi – Т.: Istiqlol, 2003.
39. Нуриддинов Н.Г. Педагогические идеи Абу Райхона Берунии. -Т.: Фан, 1989.
40. Окон В. Введение в общую дидактику. -М: Высшая пккола, 1990,382 с.
41. Онищук Б.А. Урок в современной школе. -М.: Просвещение, 1986,160 с.
42. Ochinov M. Muallim – qalb me'mori: Saylanma. – Т.: O'qituvchi, 2000. 432 b.
43. Pedagogika. В.Р.Уерisov tahriri ostida: - Т.: O'qituvchi, 1969, 463 b.
44. Педагогика. - /под. ред. Пидкасистого П.И. Пед.общество России. Москва, 2002, 608 с.
45. Pedagogika/A.K Munavvarov tahriri ostida -Т.: O'qituvchi, 1996.
46. Pedagogika. (Ekspres ma'lumotnoma) /Abdullayev SH., Axatov D., Sobirov B., Savitov S. -Т.: Fan, 2004, 264 b.
47. Подласый И. П. Педагогика. Новый курс.-М., 1999.
48. Радугин А. Педагогика -М.: Центр, 2002, 269 .
49. Ражабов С. Pedagogika fani taraqqiyotining ba'zi masalalari. -Т.: O'qituvchi, 1977, 171 b.
50. Ражабоев С. Xalq maofii va pedagogika fanining buyuk allomalari -Т.: O'qituvchi, 1990.
51. Реан А.Х. Бордовская Н.В., Розум С.Н. Психология и педагогика- СПб, 2000.
52. Roziqov O., Og'ayev S., Adizov B. Didaktika. – Т.: Fan, 1997,255 b.
53. Савин Н.В. Педагогика. -Т.: Укитувчи, 1975, 306 б.
54. Сайидахмедов Н. Pedagogik mahorat va pedagogic texnologiya. -Т., 2003, 68 b.
55. Сорокин Х.А. Дидактика. -М.: Просвещение, 1974, 222 .
56. Ситаров Б.А. Дидактика. -М.: Академия, 2002, 368 .
57. Скаткин М.Н. Дидактика средней школы. -М.: Просвещение, 1982,319 .
58. Современные методы преподавания в вузе.Под.ред. Б.Л.Фарбермана. -Т., 2001, 193 с.
59. Современная дидактика: Теория-практика /под.пед. И.Я.Лернера и И.К.Журовлева -М., 1994.
60. Столяренко Л.Д. Педагогика -Ростов -на Дону, 2000, 448 с.
61. Такараев Н.Х., Хусанхо'jayev I.N. Pedagogika. -Т.: «O'qituvchi», 1966, 414 b.
62. Тиллашев Х.Х. Общепедагогические и дидактические идеи учёных меклюндистов Ближнего и Среднего Востока эпохи средневековья. -Т.: Фан, 1989, 145 с.

63. Tolipov O'., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. - T.: Fan, 2005, 205 b.
64. Tursunov I., Nishonaliyev U. Pedagogika kursi. -T.: O'qituvchi, 1997, 230 b.
65. Харламов И.Ф. Педагогика -М.: Высшая школа, 1990, 575 с.
66. Хуторской А. Дидактическая эвристика. Теория и технология креативного обучения -МГУ, 2003, 415
67. Шукина Г.И. Педагогика школы. -М.: Просвещение, 1977, 384 .
68. Hasanboyeva O., Hasanboyev J., Hamidov N. Pedagogika tarxi. -T.: G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2004, 312 b.
69. O'zbek pedagogikasi antalogiyasi -T.: O'qituvchi, 1995, 459 b.
70. Qurbonov SH.Kadrlar tayyorlash milliy modeli: ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirish. //Ma'rifat. 2001. 20-iyun.
71. Quronov M. Maktab ma'naviyati va milliy tarbiya. -T.: Fan, 1995.

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. PEDAGOGIKANING UMUMIY ASOSLARI.....	5
1. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHINING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	5
1.1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi".....	5
1.2. Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari.....	7
1.3. Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari.....	9
2. PEDAGOGIKA SHAXS TARBIYASI VA RIVOJLANISHI TO'G'RISIDAGI FAN.....	12
2.1. Pedagogika fanining shakllanishi.....	12
2.2. Pedagogika fanining obyekti, predmeti va vazifalari.....	16
2.3. Pedagogik fanlar tizimi.....	19
2.4. Pedagogika fanining boshqa fanlar bilan aloqasi.....	20
3. ILMIY PEDAGOGIK TADQIQOTLAR METODOLOGIYASI VA METODLARI.....	22
3.1. Pedagogika metodologiyasi tushunchasi.....	22
3.2. Pedagogik tadqiqotlarning metodologik prinsiplari.....	26
3.3. Pedagogik tadqiqot metodlari.....	27
3.4. Pedagogik tadqiqot tuzilishi.....	31
4. HAXSNING RIVOJLANISHI, TARBIYASI VA IJTIMOYLAASHUVI.....	34
4.1. Insonni biologik va ijtimoiy rivojlanishi hamda uming shaxsini shakllanishi.....	34
4.2. Shaxs rivojlanishining umumiy qonuniyatlari va harakatlantiruvchi kuchlari.....	36
4.3. Shaxsni shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar.....	37
5. YAXLIT PEDAGOGIK JARAYON.....	39
5.1. Yaxlit pedagogik jarayon tushunchasi va tuzilishi.....	39
5.2. Pedagogik jarayon qonuniyatlari va prinsiplari.....	41

II BOB. TA'LIM NAZARIYASI (DIDAKTIKA)	42
6. DIDAKTIKA - PEDAGOGIK TA'LIM NAZARIYASI.....	42
6.1. Ta'lim nazariyasi yoki didaktika to'g'risida umumiy tushuncha.....	42
6.2. Ta'lim nazariyasining asosiy kategoriyalari.....	46
6.3. Ta'lim jarayonining gnoseologik asoslari.....	48
6.4. Ta'lim jarayonining qonuniyatlari va harakatlantiruvchi kuchlari.....	49
6.5. Ta'lim jarayonining tuzilishi va funksiyalari.....	51
7. TA'LIM JARAYONI YAXLIT TIZIM SIFATIDA.....	56
7.1. Ta'lim qonuni, qonuniyati va prinsipi tushunchasi.....	56
7.2. Ta'limning asosiy qonun va qonuniyatlari tasnifi.....	56
7.3. Ta'lim prinsiplari va qoidalari.....	56
7.1. Ta'lim qonuni, qonuniyati va prinsipi tushunchasi.....	56
7.2. Ta'limning asosiy qonun va qonuniyatlari tavsifi.....	63
7.3. Ta'lim prinsiplari va qoidalari.....	65
8.TA'LIM MAZMUNI.....	75
8.1. Ta'lim mazmuni tushunchasi va mohiyati.....	75
8.2. Ta'lim mazmunini shakllantirishning asosiy nazariyalari.....	78
8. 3.Ta'lim mazmunini tanlash prinsiplari va mezonlari.....	80
8.4. Davlat ta'lim standarti.....	83
8.5. Ta'lim mazmunini aks ettiruvchi me'yoriy hujjatlar.....	85
9. TA'LIM METODLARI VA VOSITALARI.....	88
9.1. Metod tushunchasi va mohiyati.....	88
9.2. Ta'lim metodlari evolutsiyasi.....	90
9.3. Ta'lim metodlari klassifikatsiyasi.....	91
9.4. Ta'lim vositalari.....	96
9.5. Ta'lim metodlari va vositalarini tanlash.....	97
10. TA'LIMNI TASHKIL ETISH SHAKLLARI VA TURLARI.....	98
10.1. Ta'lim shakli va uni tashkil etish tushunchasi.....	98
10.2. Ta'lim shaklini rivojlanish bosqichlari.....	100
10.3. O'quv jarayonining tashkil etish shakllari.....	101

10.4.	Ta'lim turlari.....	106
11	O'QUVCHILAR BILIM, KO'NIKMA VA MALAKLARINI TASHHIS ETISH	108
11.1.	Ta'lim sifatini tashibislash.....	108
11.2.	Nazorat turlari, shakllari va metodlari.....	110
11.3.	O'quv faoliyati natijalarini baholash va qayd etish.....	112
11.4.	Baholashdagi kamchiliklar.....	113
III BOB.	TARBIYA NAZARIYASI.....	114
12.	TARBIYA JARAYONINING MOHIYATI VA MAZMUNI.....	114
12.1.	Tarbiya jarayoni tarbiya nazariyasining predmeti sifatida.....	114
12.2.	Tarbiyaning umumiy konsepsiyalari.....	115
12.3.	O'zbekistonda tarbiyaning zamonaviy konsepsiyasi.....	117
13.	TARBIYA QONUNIYATLARI VA PRINSIPLARI.....	119
13.1.	Tarbiya jarayoni mohiyati.....	119
13.2.	Tarbiya jarayoni qonuniyatlari.....	122
13.3.	Tarbiya jarayoni prinsiplari.....	124
14.	JAMOA TARBIYA OB'EKTI VA SUB'EKTI SIFATIDA.....	129
14.1.	Jamoa nazariyasining shakllanishi va uning mohiyati.....	129
14.2.	O'quvchilar jamoasining rivojlanish bosqichlari.....	130
15.	TARBIYANING UMUMIY METODLARI, VOSITALARI VA SHAKLLARI.....	133
15.1.	Tarbiya metodlari to'g'risida tushuncha.....	133
15.2.	Tarbiya metodlari klassifikatsiyasi.....	134
15.3.	Tarbiya metodlari tasnifi.....	135
15.4.	Tarbiya vositalari.....	141
15.5.	Tarbiya shakllari.....	142
16.	TARBIYA JARAYONIDA SHAXSNING SHAKLLANISHI.....	144
16.1.	Tarbiya mazmuni muammosi.....	144
16.2.	O'quvchilar ilmiy dunvoqarashini shakllantirish va aqliy tarbiyasi.....	146
16.3.	Yoshlarni fuqarolik tarbiyasi.....	147

Ma'naviy-axloqiy tarbiya	151
16.5. Mehnat tarbiyasi	156
16.6. O'quvchilarni estetik tarbiyasi	158
16.7. Yoshlarni jismoniy tarbiyasi	160
IV BOB. TA'LIM MUASSASASI MENEJMENTI	163
17. BOSHQARUV NAZARIYASINING UMUMIY ASOSLARI	163
18.1. Boshqaruv nazariyasining asosiy tushunchalari va prinsiplari	163
18.2. Pedagogik tizimni boshqarishning asosiy prinsiplari, metodlari va shakllari	164
19. O'ZBEKISTONDA TA'LIM TIZIMI VA UNI BOSHQARUV ORGANLARI	167
19.1. O'zbekistonda ta'lim tizimi va uni boshqaruv organlari	167
19.3. Ta'lim muassasalari, ularning turlari va tashkiliy tuzilmasi	168
20. MAKTABNI ICHKI BOSHQARUVI ASOSLARI	171
20.1. Maktabni ichki boshqaruv tushunchasi va vazifalari	171
20.2. Boshqaruv faoliyatining tashkiliy shakllari	172
20.3. Maktab xodimlarini malakasini oshirish	175
V BOB. KORREKSION PEDAGOGIKA	177
21. KORREKSION PEDAGOGIKA ASOSLARI	177
21.1. Korreksion pedagogika pedagogik fanlarning tarmog'i sifatida	177
21.2. Korreksion pedagogikaning asosiy vazifalari, prinsiplari va metodlari ...	178
21.3. Anomal bolalar va ularning umumiy tavsifi	178
21.4. O'zbekiston Respublikasida anomal bolalarning ijtimoiy holati	189
VI BOB. PEDAGOGIKA TARIXI	193
22. PEDAGOGIKA TARIXI FAN SIFATIDA. ENG QADIMGI DAVRLARDAN VII ASRLARGACHA TA'LIM-TARBIYA VA PEDAGOGIK FIKRLAR	193
22.1. Pedagogika tarixi fanining maqsad va vazifalari	193
22.2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Murziyoevning talim-tarbiy jarayinida milliy meros, pedagogic qadriyatlardan foydalanish to'g'risidagi qarashlari	194

22.4.	Eng qadimgi davrdan VII asrgacha ta'lim-tarbiya va pedagogik fikr taraqqiyoti	196
22.5.	Eng qadimgi yozma manbalarda ta'lim-tarbiya g'oyalarning yoritilishi ...	198
24.	VII ASRDAN XIV ASRNING BIRINCHI YARMIGACHA O'RTA OSIYODA TARBIYA, MAKTAB VA PEDAGOGIK FIKRLAR.....	202
23.1	Islom dinining tarqalishi, uning ta'lim-tarbiyaga ta'siri	202
23.2.	Diniy kitoblarning tarbiyaviy ahamiyati	203
23.3.	Qur'oni karim -axloqiy-falsafiy ta'limotlar manbai	205
23.4.	Hadis ilmining paydo bo'lishi.....	206
25.	SHARQ UYG'ONISH DAVRIDA PEDAGOGIK FIKRLARNING RIVOJLANISHI. SHARQ UYG'ONISH DAVRIDA TA'LIMIY-AXLOQIY FIKRLAR RIVOJI.....	209
24.1.	IX-XI asrlar sharq uyg'onish davri	209
24.2.	Al-Xorazmiyning pedagogik qarashlari	212
24.3.	A.N.Forobiyning asarlarida pedagogik fikrlar.....	213
24.4.	Al-Beruniyning ilmiy pedagogik qarashlari	215
24.5.	Yu.X.Hojibning «Qutadg'u bilig» asari pandnoma asar sifatida	219
24.6	A.Yugnakiyning «Hibbat-ul haqoyiq» asarida didaktik qarashlar	221
24.7.	Kaykovusning «Qobusnoma» asarining tarbiyaviy ahamiyati.....	223
25.	XIV ASRNING IKKINCHI YARMI VA XVI ASR MOVAROUN-NAHRDA TARBIYA , MAKTAB VA PEDAGOGIK FIKRLAR RIVOJI.....	228
25.1.	Ijtimoiy hayotning ta'lim-tarbiya, maorif pedagogik fikrlar rivojlanishiga ta'siri	228
25.3.	Mirzo Ulug'bekning pedagogik g'oyalari	229
25.4.	Boburning pedagogik fikrlari.....	230
26.	XIV ASRNING IKKINCHI YARMI XVI ASRDA MOVAROVUNNAHARDA PEDAGOGIK FIKRLAR RIVOJI	231
26.1.	Alisher Navoiy asarlarida ta'lim- tarbiya masalalari	231
26.2.	A.Jomiyning pedagogik qarashlari	231
26.3.	J.Davoniyning pedagogik qarashlari.....	232

27.	XVII ASRLARDAN XIX ASRNING BIRINCHI YARIMIGACHA TARBIYA, MAKTAB VA PEDAGOGIK FIKRLAR.....	233
27.1.	Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklarida ta'lim-tarbiya, maktab, fan va madaniyat.....	233
27.2.	Munis Xorazmiyning «Savodi ta'lim» asari.....	236
27.3.	Muhammad Sodiq Qoshg'ariyning «Odob as- solihin» asari.....	237
28.	XIX ASRNING IKKINCHI YARMI VA XX ASR BOSHLARIDA TURKISTON O'LKASIDA MAKTAB, TARBIYA VA PEDAGOGIK FIKRLAR.....	241
28.1.	XIX asrning ikkinchi yarimida Turkistonda maktab tuzilmasi.....	241
28.3.	Turkistonda jadidchilik harakati M.Behbudiy M.Qori Abdurashidxonov, A.Avloniy va A.Shakuriylarning yangi usul maktablarini ochishdagi xizmatlari....	247
29.	1924-1991 YILLARDA O'ZBEKISTONDA TA'LIM TIZIMI VA PEDAGOGIK FIKRLAR RIVOJI.....	260
29.	1. Turkiston o'lkasida 1917-1924-yillardagi ta'lim siyosati.....	260
29.2.	1924-1945-yillarda ta'lim va pedagogika fani.....	263
29.3.	1945-1991-yillarda O'zbekistonda ta'lim tizimi va pedagogika fani.....	266
30.1.	Mustaqil O'zbekiston ta'lim tizimi. Mustaqillik yillarida pedagogik fikrlar rivoji	270
30.2.	Mustaqillik yillarida pedagogik fikrlarni rivojlanishining asosiy yo'nalishlari.....	271
31.	ENG QADIMGI DAVRLARDAN XIX ASRNING BIRINCHI YARMIGA- CHA JAHON PEDAGOGIKA FANINING TARAQQIYOT TARIXI.....	276
31.1.	Qadimgi Sharq, qadimgi Yunoniston va Rim davlatlarda maktab va tarbiya	276
31.2.	Qadimgi yunon va rim faylasuflarining tarbiya to'g'risidagi fikrlari.....	278
31.3.	XII asrlarda Rossiyada pedagogik asarlarning nashr etilishi.....	282
31.4.	Ya A.Komenskiyning pedagogik nazariyasi.....	283
31.5.	I.G.Pestolotsining didaktik qarashlari.....	285
31.6.	A.Distervegning didaktik g'oyalari.....	288

32.	XIX ASRNING IKKINCHI YARMI VA XX ASRNING BOSHLARIDA JAHON PEDAGOGIKA FANINING RIVOJI	289
32.1.	XIX asr oxiri XX asr boshlarida G'arbiy Yevropa va AQSH da pedagogika sohasida fikrlar	289
32.2.	M.V.Lomonosov va uning rus pedagogikasi hamda maktablari rivojiga qo'shgan o'rmi	292
32.3.	L.N. Tolstoyning pedagogik qarashlari	292
32.4.	K.D.Ushinskiyning didaktik qarashlari va pedagogik merosi	294
33.	HOZIRGI DAVRDA JAHON MAMLAKATLARI TA'LIM TIZIMI VA PEDAGOGIKA FANI RIVOJI	298
33.1.	Jahon ta'lim tizimidagi global tendensiyalar	298
33.2.	Rivojlangan davlatlar ta'lim tizimi	299
33.3.	Xalqaro grantlar va ta'lim dasturlari	308
VII BOB.	PEDAGOGIK MAHORAT	310
34.	PEDAGOGIK FIKR TARIXI VA MAKTAB AMALIYOTIDA O'QITUVCHI MAHORA TI MASALALARI	310
34.1.	Pedagogik faoliyat va uning xususiyatlari	310
34.2.	Pedagogik faoliyatga qo'yilgan talablar	312
34.3.	Pedagogik mahorat tushunchasi	314
34.4.	Pedagogik mahoratning asosiy tarkibiy qismlari	316
34.5.	Pedagogik fikrlar taraqqiyotida o'qituvchi mahorati masalalari	318
35.	O'QITUVCHI FAOLIYATIDA PEDAGOGIK QOBILIYAT	321
32.1.	Qobiliyat va pedagogik qobiliyat tushunchasi	321
32.2.	Pedagogik qobiliyatning turlari va ularning tavsifi	323
32.3.	O'qituvchining kommunikativ madaniyati	325
35.2.	Pedagogik boshqaruv mahorati	329
33	O'QITUVCHI FAOLIYATIDA MULOQOT MADANIYATI VA PSIXOLOGIYASI	331
36.1.	Pedagogik muloqot haqida tushuncha. Muloqotga qo'yiladigan talablar	331
36.2.	Pedagogik muloqot tuzilishi	334

36.3.	Pedagogik nizolar va ularning oldini olish yo'llari.....
34.	PEDAGOGIK TAKT VA PEDAGOGIK ETIKA
34.1.	Takt va pedagogik takt haqida tushuncha.....
35.	PEDAGOGIK TEXNIKA VA UNI SHAKLLANTIRISH METODIKASI
35.1.	Pedagogik texnika haqida tushuncha.....
35.3.	Pedagogik texnikaning tarkibiy qismlari. Mimika, pantomimika
36.	NUTQ TEXNIKASI VA MADANIYATI
36.1.	Nutq haqida tushuncha.....
37.	O'QITUVCHI MEHNATINI ILMIY TASHKIL ETISH
37.1.	O'qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etishning mohiyati.....
37.2.	O'qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etish prinsiplari.....
38.	O'Z O'ZENI TARBIYALASH VA O'Z USTIDA ISHLASH
38.1.	Pedagogik mahoratni shakllanishida refleksiyaning o'rni.....
39.	PEDAGOGIK TAJRIBANI TO'PLASH TIZIMI
I.	Ilg'or pedagogik tajribani o'rganishda materiallarni to'plash.....
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

UMUMIY PEDAGOGIKA

Toshkent – «Fan va texnologiya» – 2019

Muharrir:	M.Hayitova
Tex. muharrir:	A.Moydinov
Musavvir:	A.Shushunov
Musahhih:	Sh.Mirqosimova
Kompyuterda sahifalovchi:	N.Raxmatullayeva

E-mail: tipografiyacent@mail.ru Tel: 71-245-57-63, 71-245-61-61.

Nashr.lits. AL№149, 14.08.09. Bosishga ruxsat etildi 27.12.2019.

Bichimi 60x84 ¹/₁₆. «Timez Uz» garniturası. Ofset bosma usulida hosildi.

Shartli bosma tabog'i 23,0. Nashriyot hosma tabog'i 23,5.

Tiraji 500. Buyurtma № 304.

**«Fan va texnologiyalar Markazining hosmaxonasi» da chop etildi.
100066, Toshkent sh., Olmazor ko'chasi, 171-uy.**